Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

“Raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tadbiq etish, muammolar, yechimlar “

respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

2025-yil 11-iyun

MAZKUR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGINING 2024-YIL 27-DEKABRDAGI 490-SONLI BUYRUG‘I ASOSIDA O‘TKAZILDI.

Mas’ul muharrir:

Maxmudov Abdulxalim Xamidovich

Tahrir hay’ati:

Medetova R.M

Musurmonkulov O. U.

Namazov Sh.

Koordinator

Jumabayev A.D.

Texnik muxarrir:

Saydaliyev A. I.

Mualliflar maqolalarda keltirilgan fikrlar, ma’lumotlar hamda manbalarning ishonchli va asosli ekanligiga mas’uldirlar .

KIRISH SO‘ZI

AXBOROT ASRIDA YOSHLAR TARBIYASI: RAQAMLI KONTENT VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

Kamalov Azamat Jamalovich
Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida yoshlar ongini mustahkamlashda milliy tarbiya kontentlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida yosh avlodni vatanparvar, ma’naviy yetuk va axloqiy barkamol qilib tarbiyalashda raqamli vositalardan foydalanishning imkoniyatlari, mavjud muammolari va amaliy yechimlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli kontentlarning shakllari, baholash mezonlari va ular orqali yoshlar ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish yo‘llari tavsiya qilingan. Maqola raqamli tarbiya siyosatini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy yondashuvni ifodalaydi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, raqamli tarbiya, yoshlar ongi, milliy qadriyatlar, raqamli kontent, ma’naviy tarbiya, interaktiv vositalar, axloqiy tarbiya, raqamli ta’lim muhiti, mafkuraviy immunitet.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli transformatsiya barcha sohalarda jadal kechmoqda. Ta’lim tizimida ham raqamlashtirish jarayonlari kengayib, o‘quv jarayonlari raqamli platformalar orqali tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhiti tarbiya masalalarida ham yangi imkoniyat va xavf-xatarlarni yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongini shakllantirishda raqamli vositalarning ta’siri ortib borayotgani sababli, bu borada sifatli, milliy g‘oyalarga asoslangan tarbiyaviy kontentlarga ehtiyoj kuchaymoqda.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi yoshlar tarbiyasiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Ularning milliy qadriyatlarga sodiq, intellektual yetuk, vatanparvar shaxs sifatida shakllanishi raqamli muhitdagi axborot oqimida to‘g‘ri yo‘naltirilishini talab qiladi. Shu sababli maqolada raqamli tarbiya kontentlarining roli, muammolari va yechimlari atroflicha tahlil qilinadi.

Raqamli tarbiya kontentlari tushunchasi va ularning turlari. Raqamli tarbiya kontenti deganda, raqamli texnologiyalar orqali uzatiladigan, ma’naviy-axloqiy tarbiya berishga xizmat qiluvchi multimedia materiallar, mobil ilovalar, videodarslar, interaktiv o‘yinlar, testlar va boshqa vositalar tushuniladi.

Bunday kontentlarning asosiy turlari:

- Multimedia materiallar: videoroliklar, animatsiyalar, audio-podkastlar;
- Mobil ilovalar: axloqiy vazifalar, ma’naviy hikoyalar asosidagi dasturlar;
- Elektron darsliklar va platformalar: EduMarket, ZiyoNET, my.edu.uz va boshqalar;
- Interaktiv o‘yinlar: yoshlar o‘rtasida qiziqarli bo‘lgan, lekin tarbiyaviy g‘oyani singdiruvchi o‘yinlar;
- Ijtimoiy tarmoqlardagi kontent: TikTok, Instagram, Telegram, YouTube orqali tarqatilayotgan qisqa video lavhalar, infografikalar, testlar.

Bu kontentlar orqali yoshlar ongiga bilvosita va bevosita tarbiyaviy g‘oyalarni yetkazish mumkin. Eng asosiysi, bu vositalar zamonaviy avlod didi, tili va dunyoqarashiga mos bo‘lishi kerak. Samarali raqamli ta'lim mazmunini rivojlantirish strategiyalari 21-asr ko'nikmalari ehtiyojlarini

qondirish va talabalarning faolligini oshirish uchun ajralmas hisoblanadi.[1] Raqamli ta'lim mazmunini ishlab chiqishda raqamli ta'limni rivojlantirish strategiyalari talabalar uchun samarali va qiziqarli ta'lim tajribasini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ehtiyojlarini tahlil qilish birinchi muhim qadamdir.[2]

Yangi O‘zbekiston davlatchilik konsepsiyasida inson qadri, yoshlar salohiyati va ularning intellektual va ma’naviy rivoji markaziy o‘ringa ega. Shu asosda prezident tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus, "Yoshlar daftari", "Yoshlar bilan ishlashning yangi tizimi" singari tashabbuslar yoshlarning faolligini oshirish bilan birga, ularning ongi va mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan.

Lekin raqamli muhit yoshlar uchun nafaqat imkoniyat, balki xavf-xatar manbai hamdir. Begona g‘oyalarning tez tarqalishi, noto‘g‘ri axborotlar va ko‘ngilochar kontentlar yosh ongini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, raqamli tarbiya kontentlari milliy ong va g‘ururni mustahkamlovchi, axloqiy me‘yorlarni singdiruvchi, ijtimoiy faollikka undovchi vositalar bo‘lishi zarur.

Bugungi raqamli tarbiya kontentlari yaratish va tadbiq etish jarayonida bir qator muammolar, jumladan, sifatli kontent yetishmasligi (Tarbiyaviy yo‘nalishdagi video, ilova yoki o‘yinlar soni oz, sifati past, didaktik asoslangan emas.), texnik va metodik tayyorgarlik yetarli emasligi (O‘qituvchilar, ota-onalar va mutaxassislar raqamli vositalardan foydalanishda tayyor emas). Asosiy muammolardan biri - o'qituvchilar orasida raqamli ko'nikmalarning etishmasligi. Buni bartaraf etish uchun muntazam ravishda malaka oshirish va malaka oshirish dasturlarini o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.[3]. Shuningdek, monitoring tizimi mavjud emasligi, ya’ni kontentlar ta’sirini baholash, samaradorligini aniqlash tizimi ishlab chiqilmagan. platformalarning uzviy integratsiyasi yo‘q.

Ko‘chilik tadqiqotchilar sohada tadqiqotla olib borgani bilan, va masalaning fundamental nazariy jihatlarini o‘rganganligi bilan maqsadli auditoriyaga mos format yetishmas edi: ko‘plab kontentlar yoshlar qiziqishlaridan yiroq, vizual jihatdan zamonaviy emas bo‘lib kelgan. Tadqiqotchi Alimuddin va boshqa olimlarning fikricha[4], raqamli ta'lim mazmunini ishlab chiqishdagi asosiy muammolardan biri o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy kontekstlariga qiziqadigan va mos keladigan materiallarni yaratishdir. Shuning uchun ham, O‘zbekiston yosh avlodining raqamli axborot muhitidagi himoyasi, ularning ongini shakllantirish va milliy tarbiyani ilgari surish maqsadida, 2024-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan **Bolalar kontentini rivojlantirish markazi** tashkil etildi. Mazkur markazning tashkil etilishi — davlatning bolalar tarbiyasi va axborot xavfsizligi masalasiga strategik yondashuvining yorqin namunasidir.

Markazning asosiy vazifasi — bolalar va o‘smirlar uchun milliy qadriyatlarga asoslangan, estetik va ma’naviy jihatdan boy, pedagogik jihatdan asoslangan, zamonaviy va raqamli shakldagi kontentlar yaratishdir. Bu kontentlar orasida animatsion filmlar, interaktiv o‘yinlar, mobil ilovalar,

[1] Sugiarto, & Farid, A. (2023). Digital Literacy as a Way to Strengthen Character Education in the Era of Society 5.0. Cetta: Journal of Education Science, 6(3), 580-597. https://doi.org/10.37329/cetta.v6i3.2603
[2] Manan, A. (2023). Islamic Education and Technological Development: Initiating Harmony in the Digital Era. Journal of Education and Culture, 5(1), 56-73.
[3] I Komang Edi Santosa, I Gede Suwindia, I. M. A. W. (2024). Effective Strategies to Improve Science Literacy in the Digital Age. Education and Social Sciences Review, 5(2), 114-119.
[4] Alimuddin, A., Niaga Siman Juntak, J., Ayu Erni Jusnita, R., Murniawaty, I., & Yunita Wono, H. (2023). Technology in Education: Helping Students Adapt to the Industrial Revolution 4.0. Menur Pumpungan, Kec. Sukolilo, SBY City, 05(04), 36-38.

videoroliklar, hikoyalar asosidagi audio materiallar va boshqa ko‘rinishdagi raqamli mahsulotlar mavjud bo‘ladi.

Ushbu markaz faoliyati bir necha jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi:

• **Birinchidan**, global raqamli muhitda yoshlar orasida yot g‘oyalar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi yoki ahloqiy buzilishlarga sabab bo‘ladigan kontentlarning ko‘payib borayotgan bir paytda, sog‘lom alternativani yaratish zarurati mavjud. Bolalar kontentini rivojlantirish markazi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi.

• **Ikkinchidan**, yoshlar va bolalarning zamonaviy axborot iste’moli odatlari (mobil telefonlar, planshetlar, ijtimoiy tarmoqlar) raqamli formatdagi tarbiyaviy kontentni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Endi milliy tarbiya darslik sahifalarida emas, balki smartfon ekranlarida ham bo‘lishi kerak.

• **Uchinchidan**, bu markaz orqali ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy tarqaladigan lekin tarbiyaviy jihatdan foydali bo‘lgan kontentlar ko‘lami oshadi. Bu esa milliy identitetni mustahkamlovchi axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

• **To‘rtinchidan**, markaz faoliyati “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan jamiyat” konsepsiyasining real ifodasi sifatida qaralmoqda. Chunki inson qadri, avvalo, bolalikda shakllanadigan axloqiy va ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi faoliyati milliy mafkuraviy siyosatning bir bo‘lagi sifatida nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatning ongini shakllantirishda muhim mexanizmga aylanmoqda. Raqamli kontent endilikda faqat ko‘ngilochar vosita emas, balki tarbiya va dunyoqarash manbai sifatida qaralayapti. Bu yondashuv “Yangi O‘zbekiston” ma’naviy siyosatining zamonaviy fazilatidir.

Raqamli asrda yoshlar ongini mustahkamlash va ularni sog‘lom g‘oyalar ruhida tarbiyalash uchun raqamli ta’lim va tarbiya kontentlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (big data) va internet texnologiyalari kabi zamonaviy vositalardan foydalanish orqali ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va interaktiv holga keltirish mumkin.

Ta’lim muassasalari zamonaviy raqamli muhitda faoliyat yuritishi uchun innovatsion va hamkorlikka asoslangan yondashuvni joriy etishi lozim. O‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish, barcha ishtirokchilarni jalb etgan holda raqamli madaniyatni shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga, zamonaviy infratuzilmani mustahkamlash, barcha yoshlar uchun raqamli ta’lim vositalariga teng sharoit yaratish zarur.

Kontent ishlab chiqishda doimiy tahlil va bozorni o‘rganish, shuningdek, foydalanuvchi fikrlarini inobatga olish orqali ta’lim materiallarining dolzarbligi va samaradorligini oshirish mumkin. Bundan tashqari, baholash tizimini joriy etish va kontentlarning samaradorligini nazorat qilish doimiy takomillashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli tarbiya kontentlarini muvaffaqiyatli tatbiq etishda davlat siyosatining aniq qo‘llab-quvvatlovi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi qarorlar, o‘qituvchilarga ko‘maklashuvchi dasturlar va ta’limdagi texnologik islohotlar orqali zamonaviy ta’lim sifati oshadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi pastligi, texnologiyalarga nisbatan qarshilik kabi muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv zarur.

Umuman olganda, raqamli tarbiya kontentlarini ishlab chiqish va joriy etish murakkab, ammo zarur jarayondir. Bu borada texnologik innovatsiyalar, ta’lim siyosati va foydalanuvchi fikrlarini uyg‘unlashtirgan holda harakat qilish orqali, yoshlar uchun milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar uyg‘unligida yuqori sifatli raqamli tarbiya muhitini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan jamiyat va xalqparvar davlatdir*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 5 muhim tashabbus yuzasidan nutqlari. – president.uz
3. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2016-yil 14-sentyabr.
4. ZiyoNET – O‘zbekiston ta’lim portali. – https://ziyonet.uz
5. EduMarket platformasi. – https://edumarket.uz
6. Axmedov A., Raxmatullayeva Z. *Raqamli ta’lim va tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlar*. – Toshkent: TDPU Nashriyoti, 2022.
7. Isroilova D. *Ma’naviy tarbiya va axborot xavfsizligi: yoshlar ongiga ta’sir etuvchi omillar*. // Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali. – 2023. No.3.
8. UNESCO. *Digital Citizenship Education: Handbook for Policymakers*. – Paris, 2019.
9. Schwartz, S. H. (1992). *Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests in 20 countries*. In M. Zanna (Ed.), *Advances in Experimental Social Psychology*, Vol. 25, pp. 1–65.
10. Sugiarto, & Farid, A. (2023). Digital Literacy as a Way to Strengthen Character Education in the Era of Society 5.0. Cetta: Journal of Education Science, 6(3), 580-597. https://doi.org/10.37329/cetta.v6i3.2603
11. Manan, A. (2023). Islamic Education and Technological Development: Initiating Harmony in the Digital Era. Journal of Education and Culture, 5(1), 56-73.
12. I Komang Edi Santosa, I Gede Suwindia, I. M. A. W. (2024). Effective Strategies to Improve Science Literacy in the Digital Age. Education and Social Sciences Review, 5(2), 114-119.
13. Alimuddin, A., Niaga Siman Juntak, J., Ayu Erni Jusnita, R., Murniawaty, I., & Yunita Wono, H. (2023). Technology in Education: Helping Students Adapt to the Industrial Revolution 4.0. Menur Pumpungan, Kec. Sukolilo, SBY City, 05(04), 36-38.

ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА АСОСИЙ ЁНДАШУВЛАРИ

Ибраимов Холбой Ибрагимович

Педагогика фанлари доктори, академик Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти директори

Аннотация. *Мактабда ўқувчиларни тарбиялашнинг долзарб муаммолари ва асосий ёндашувлари, шунингдек, тарбия вазифаларини амалга ошириш механизмлари очиб берилган. Таъкидланишича, тарбиявий вазифалар комплекс ёндашувни, анъанавий усулларни инновацион ёндашувлар билан уйғунлаштиришни талаб қилади.*

Калит сўзлар: *Тарбия, мактаб, ўқувчилар, механизмлар, ёндашувлар, хатти-ҳаракатлар, ўқитувчилар, ижтимоий тармоқлар.*

Бугунги жамият тараққиётида инсон омили, айниқса унинг маънавий-ахлоқий салоҳияти, билимли ва тарбияли бўлиши ҳал қилувчи омиллардан бири ҳисобланади. Зотан, ҳар қандай тараққиёт аввало инсоннинг онги, дунёқараши ва қадриятларга муносабати орқали юзага чиқади. Шу нуқтаи назардан, тарбия масаласи ҳозирги кунда нафақат оила ёки мактаб, балки бутун жамият олдида турган долзарб вазифалардан бирига айланган.

Нима учун инсоннинг маънавий-ахлоқий салоҳияти, билимли ва тарбияли бўлиши жамият тараққиётида ҳал қилувчи омил ҳисобланади деган савол ўринлидир? Бунинг сабаблари бир нечта бўлиб.

Биринчидан. Жамиятни инсон шакллантиради. Ҳар қандай жамият — бу уни ташкил қилувчи инсонлар йиғиндисидир. Уларнинг билим даражаси, ахлоқи, маданияти ва маънавияти жамиятнинг тараққиёт даражасини белгилайди. Агар жамият аъзолари билимли, маърифатли ва юксак ахлоқли бўлса, бундай жамият мукаммал ва барқарор ривожланади.

Иккинчидан. Маънавият ва ахлоқ жамиятда ижтимоий барқарорликни таъминлайди Маънавий-ахлоқий тарбия олган инсон қонун-қоидаларга риоя қилади, бошқаларга нисбатан ҳурмат ва масъулият ҳисси билан ёндашади. Бу эса жамиятда тинчлик, ҳамжиҳатлик ва адолат муҳитини яратади. Барқарор жамиятда эса тараққиётга йўл очилади.

Учинчидан. Илм ва билим тараққиётнинг асосидир. Замонавий технологиялар, фан, иқтисодиёт ва бошқа соҳалардаги ютуқлар фақат билимли инсонлар орқали амалга ошади. Билимли ва иқтидорли кадрларсиз ҳеч қайси давлат рақобатбардош бўла олмайди.

Тўртинчидан. Тарбия — келажакни шакллантиради. Тарбия – бу фақат ҳозирги авлодга эмас, балки келажак авлодга қаратилган инвестициядир. Тўғри тарбия олган ёшлар эртанги куннинг етук етакчилари, олимлари, ижодкорлари ва раҳбарлари бўлиб етишадилар. Агар тарбияга эътибор бўлмаса, келажак хавф остида қолади.

Бешинчидан. Маънавий тушкунлик жамият учун хавфлидир Агар инсон маънавий жиҳатдан қашшоқ бўлса, у жиноятга мойил бўлади, ёлғон, фириб, зўравонлик ва бошқа салбий ҳолатларни оддий ҳаёт тарзи деб қабул қилади. Бундай инсонлар жамиятнинг инқирозга учрашига сабаб бўлади.

Инсон — жамият қурилишидаги асосий қурилиш материали кабидир. У қандай тарбияланган ва қай даражада билим олган бўлса, жамият ҳам шундай шаклланади. Шунинг учун ҳар бир жамият ўз келажагини таъминлашни истаса, аввало инсон тарбиясига, унинг маънавияти ва билимига жиддий эътибор қаратиши зарур

XXI аср педагог олимлар ҳамон тарбия масалалари ҳақида баҳслашмоқдалар. И.П. Подласининг фикрича, "*Биз аллақачон долзарб муаммоларнинг амалий ечимларини таклиф қилиб, баъзи нарсаларни тушуна бошладик, лекин нима учун тарбия қандай бўлса, шундайлигича, нима учун бошқача бўлиши мумкин эмаслигини аниқлашга ҳаракат қилиб, ҳамон чалкашиб кетмоқдамиз. Тарбия одамларни яхшироқ ва мукаммалроқ қилади, деган севимли эртакни унутишга тўғри келади: кундалик ҳаётда бизнинг гўёки доимий ривожланаётган тарбиямиз таъсирида одамлар меҳрибонроқ ва бахтлироқ бўлиши, тарбияланган одамнинг ҳаётда кўпроқ муваффақиятга эришиши кўринмайди*"[1, 3 с.].

Демак, биз ниманидир нотўғри қиляпмиз. В.А. Сластенин таъкидлаганидек, "*Педагогиканинг азалий муаммоларидан бири ҳар доим инсонга атайлаб, мақсадли тарбиявий таъсир кўрсатиш самарадорлигини максимал даражада оширишга эришишдан иборат бўлган. Жамият ижтимоий муҳитдаги муайян ўзгаришларни олдиндан кўра билиш ва олдиндан режалаштириш имкониятига эга ва шу орқали ушбу вазифани ҳал қилиш учун қулай имкониятлар яратади*"[2, 234 б.].

Ҳозирги даврда тарбия соҳасида қатор муаммолар мавжуд:

Ахлоқий қадриятлар эрозияси – Глобаллашув ва оммавий ахборот воситалари таъсири туфайли анъанавий миллий қадриятлар сусаймоқда, ёшлар орасида индивидуализм, ҳедонизм ва ташқи ёлқинликка муҳаббат ошмоқда.

Ота-она ва ўқитувчи ҳамкорлигининг етарли эмаслиги – Болани тарбиялашда оила ва мактаб ўртасидаги ҳамкорлик доимо муҳим аҳамият касб этган. Аммо бугунги кунда бу муносабат кўп ҳолларда формал тус олиб, самарасиз бўлиб қолмоқда.

Замонавий технологиялар таъсири – Интернет, ижтимоий тармоқлар ва гаджетлар ёшлар орасида кўп вақтни эгаллаб, ижтимоий ва ахлоқий жиҳатдан салбий таъсир кўрсатмоқда.

Маънавий-маърифий ишларнинг самарадорлиги пастлиги – Айрим ҳолларда тарбиявий тадбирлар формал тусда ўтказилади, ёшлар қалбига таъсир қилмайди.

Тарбияда самарадорликка эришиш учун қуйидаги ёндашувлар муҳим аҳамиятга эга:

Шахсга йўналтирилган ёндашув – Ҳар бир бола индивидуал эканлигини инобатга олиб, унинг қизиқишлари, қобилиятлари ва эҳтиёжларига мос равишда ёндашиш.

Интеграциялашган ёндашув – Тарбия оила, мактаб ва жамоатчилик ўртасида узвий ҳамкорликда амалга оширилиши лозим. Бунинг учун барча тарбия институцияларининг ҳаракати уйғун бўлиши керак.

Миллий ва умуминсоний қадриятларга таянган тарбия – Миллий анъаналар ва умуминсоний ахлоқий меъёрлар уйғунлигида ёш авлодни тарбиялаш, уларда Ватанга садоқат, фидойилик ва инсонийлик туйғуларини шакллантириш.

Мисол орқали тарбия – Ўқитувчи ва катталар ўзини тутиши, хулқи, ҳаёт тарзи орқали ёшлар учун ибрат манбаи бўлиши лозим.

Ахборот таълим муҳитини соғломлаштириш – Ёшларни салбий маълумотлар таъсиридан асраш, уларга танқидий фикрлаш қобилиятини шакллантириш.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, тарбия – узлуксиз ва мураккаб жараён бўлиб, унда жамиятнинг ҳар бир аъзоси иштирок этиши зарур. Мазкур жараёнда миллий ва умуминсоний қадриятларга таянган ҳолда, замонавий талабларга мос ёндашувлар асосида иш олиб бориш муҳим аҳамият касб этади. Фақат шундагина маънавий етук, билимли ва жамиятга фойдали шахсларни тарбиялашга эришиш мумкин бўлади.

Тарбияни яхшилаш йўллари

1. Оилада тарбиянинг мустаҳкамланиши

Боланинг биринчи тарбия мактаби — оиладир. Шу боис, ота-оналарнинг маънавий савияси ва тарбиявий масъулияти юқори бўлиши шарт.

Ота-оналарга психология, педагогика ва ахлоқий тарбия борасида мунтазам маслаҳат ва тренинглар ташкил этиш керак.

Оилада меҳр, ҳурмат, адолат, ростгўйлик каби қадриятларга асосланган муҳит яратиш зарур.

2. Мактаб ва таълим муассасаларида тарбиянинг кучайтирилиши

Дарс жараёнларида фақат билим эмас, ахлоқ ва инсонпарварлик ғоялари ҳам сингдирилиши лозим.

Ўқитувчиларнинг тарбиявий фаолиятини рағбатлантириш, уларга методик кўмак бериш керак.

Ўқувчилар иштирокида ижтимоий лойиҳалар, ихтисослашган тўгараклар, ихтиёрий фаолиятлар ташкил қилиш.

3. Тарбияда миллий ва умуминсоний қадриятларга таяниш

Миллий урф-одатлар, анъаналар, буюк алломаларнинг ҳаёт йўли ва таълимотлари орқали ёшларда фахр, масъулият ва фидойилик туйғуларини уйғотиш.

Умуминсоний қадриятлар – тинчлик, бағрикенглик, сабр-тоқат, дўстликни тарбия жараёнига сингдириш.

4. Ахборот маконини соғломлаштириш

Интернет ва оммавий ахборот воситалари орқали тарқалаётган салбий таъсирларга қарши иммунитетни шакллантириш.

Ёшларга ахборотни танлаш, таҳлил қилиш ва унга танқидий ёндашиш маданиятини ўргатиш.

5. Тарбиявий фаолиятнинг узвийлиги ва узлуксизлиги

Тарбия болаликдан бошланиб, бутун ҳаёт давомида олиб борилиши лозим. У мактабгача таълим, мактаб, коллеж, университет ва иш жойида давом этиши керак.

Барча таълим босқичларида тарбиявий мақсадлар уйғунлашган бўлиши зарур.

6. Ўрнакли шахслар орқали тарбия

Болаларга ибрат бўладиган ўқитувчилар, олимлар, спортчилар, санъаткорлар, юксак маънавият эгаларининг ҳаёти мисолида тарбия бериш.

Ўқувчиларни шахсий ривожланиш, фаол фуқаролик позициясига эга бўлишга ундаш.

7. Жамоатчилик иштирокини таъминлаш

Тарбия фақат оила ёки мактаб иши эмас, балки бутун жамиятнинг вазифасидир.

Маҳаллий ҳокимият, жамоат ташкилотлари, маҳалла, масжид ва бошқа ижтимоий тузилмалар тарбиявий ишларга жалб этилиши керак.

Тарбияни яхшилаш учун тизимли, ҳамкорликка асосланган, миллий ва замонавий ёндашувлар уйғунлашган фаолият зарур. Агар ҳар бир инсон, ҳар бир муассаса ўз бурчини сидқидилдан адо этса, тарбия самараси юксак бўлади ва жамиятда маънавий етук, масъулиятли шахслар сони ортиб боради.

Мактабда тарбиявий вазифаларни амалга оширишнинг мақбул механизмлари комплекс ёндашувни, анъанавий усулларни инновацион ёндашувлар билан уйғунлаштиришни талаб қилади. Бу жараёнга таълим жараёнининг барча иштирокчилари - педагоглар ва маъмуриятдан тортиб, ота-оналар ва ўқувчиларгача жалб этилиши муҳимдир. Бу мактаб ўқувчилари шахсини ривожлантириш, уларнинг фуқаролик масъулияти ва ижтимоий етуклиги учун соғлом, хавфсиз ва ижодий муҳитни яратиш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн., кн.3: Теория и технологии воспитания: учеб. для студентов вузов, обучающихся по направлениям подгот. и специальностям в обл. «Образование и педагогика» / И.П. Подласый. — 2-е изд., испр.и доп. — М.: Гуманитар, изд. центр ВЛАДОС, 2007. — 463 с.

2.Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2002. - 576 с

3. Вахабов А. В., Захидова Ш. Ш. Мировые модели системы образования //Экономика и финансы (Узбекистан). 2013. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mirovye-modeli-sistemy-obrazovaniya.

4. Л Г. Можаева Развитие систем образования в западных странах в условиях глобализации // Глобализация и образование. 2001. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-sistem-obrazovaniya-v-zapadnyh-stranah-v-usloviyah-globalizatsii.

5. Махмудов А.Х., Фефелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва.-Ташкент, 2019. -№6. - С.3-9.

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Рисбай Хайдарович Джураев
академик АНРУз, д.п.н., зав.отдела НИПВ им. Кары Ниязи

Аннотация. *В статье актуализируются проблемы подготовки педагогов к применению технологий электронного обучения в профессиональной деятельности. Представлен инновационный опыт основанный на реализации двух подходов: совершенствование образовательного процесса в вузе в условиях активного применения интерактивных электронных учебно-методических комплексов дисциплин и внедрение интегрированной информационно-образовательной среды создающей эффективные условия для усиления практико-ориентированной подготовки студентов к профессиональной деятельности в условиях электронного обучения и применения дистанционных образовательных технологий.*

Ключевые слова*: электронное обучение, педагогическое образование, профессиональная компетентность педагогов, электронные образовательные ресурсы, интегрированная информационно- образовательная среда «школа-педвуз».*

Annotation. *The article actualizes the problems of training of teachers for application of e-learning technologies in professional activities. It represents the innovative experience of the based on implementation of two approaches: improvement of the educational process at a higher education institution under the conditions of active application of the interactive electronic teaching materials of subjects and introduction of the integrated information and education environment, which creates effective conditions for strengthening of the practice-oriented training of students for professional activity under the conditions of e-learning and application of the distant learning technologies*

Key words*: e-learning, pedagogical education, professional competence of teachers, electronic learning resources, integrated information and education environment «school - pedagogical higher education institution».*

Информатизация образования характеризуется следующими актуальными направлениями развития: централизованное производство открытых высококачественных цифровых образовательных ресурсов; визуализация учебной информации, на основе которой реализуются учебно-исследовательские, проблемные методы обучения; проектирование и внедрение информационных образовательных сред, как образовательных учреждений разного типа, так и региональных образовательных структур [1].

Нормативная база электронного обучения и применения дистанционных образовательных технологий (ДОТ) обеспечивает основу для новых возможностей и дальнейшего развития информатизации образования, характеризуемых понятием Smart-обучение - это гибкое обучение в интерактивной образовательной среде с помощью контента со всего мира, находящегося в свободном доступе [2; 3].

Профессиональная деятельность учителя в аспекте электронного обучения и ДОТ включает умение разрабатывать электронный учебно-методический комплекс преподаваемого предмета на основе применения систем дистанционного обучения (СДО); владение программными инструментами для создания интерактивных, мультимедийных электронных

образовательных ресурсов (ЭОР) и использование готовых ЭОР; владение средствами компьютерной коммуникации, основанными на технологиях web.2.0.

Рассмотрим некоторые попытки реализации технологий электронного обучения в профессиональной подготовке студентов.

В настоящее время в рамках учебного процесса в педагогическом вузе электронное обучение основано на применении образовательного портала. Электронные учебно-методические комплексы (ЭУМК) дисциплин, реализованные на образовательном портале, включают цифровой контент, обеспечивающий образовательный процесс интерактивными и мультимедийными образовательными ресурсами. В состав ЭУМК входят интерактивные лекции для самостоятельного изучения, содержащие вопросы для самоконтроля с автоматизированной проверкой; wiki-страницы для групповой самостоятельной работы студентов по тематике лекционных и практических занятий; открытые базы данных для создания коллекций индивидуальных творческих работ студентов; интерактивные глоссарии для организации коллективной работы студентов по изучению понятийного аппарата дисциплин; форумы для организации учебных дискуссий в процессе изучения дисциплин; тесты, кроссворды с автоматизированной проверкой промежуточных и итоговых результатов. Некоторые темы дисциплин выносятся на самостоятельное изучение и обсуждаются в ходе вебинаров с применением технологий Web 2.0.

Таким образом, учебный процесс, организуемый на основе использования образовательного портал а, создает эффективные условия для развил я профессиональной компетентности будущих педагоге в области применения форм и методов электронного обучения. Данные технологии осваиваются и обсуждаются студентами под руководством преподавателей педвуза (опосредованное овладение технологиями электронного обучения). Студенты с позиции ученика могут выявить пре имущества технологий электронного обучения, познакомиться с разнообразными формами представления учебного материала и методами обучения с применением электронного контента.

Актуальной задачей педагогического вуза является расширение возможностей для практико-ориентированной подготовки своих выпускников, основанной на взаимодействии студентов с учащимися и учителями. Традиционно данная задача решалась в основном при организации педагогической практики студентов и, как показывают современные реалии, является недостаточным.

Создание интегрированной информационно-коммуникационной образовательной среды позволило обеспечить дидактические условия для совершенствования профессиональной подготовки будущих педагоге к применению технологий электронного поучения.

Рассмотрим основные направления данной работы.

1. Создание открытых коллекций электронных образовательных ресурсов, учебно--методических материалов, ресурсов для самообразовательной деятельности учащихся. В ходе выполнения заданий учебно-технологической практики, студенты разрабатывают комплекс электронных образовательных ресурсов (скринкасты, учебные видеоролики, контролирующие ЭОРы с автоматизированной проверкой результатов, интерактивные схемознаковые модели представления учебного материала, учебные презентации для интерактивной доски и др.) и описывают технологии их применения в процессе обучения. Лучшие разработки студентов составляют основу методической копилки ЭОР на образовательном портале «Школа». Это обеспечивает оперативный и открытый доступ к информационным образовательным ресурсам,

«учебным материалам учителям, студентам, учащимся. Применение данных ресурсов практикующими учителями, студентами способствует не только расширению доли самостоятельной учебной деятельности учащихся, но и внедрению технологий электронного обучения в реальный образовательный процесс.

2. Разработка и проведение сетевых образовательных инициатив (телекоммуникационных проектов, викторин, конкурсов) для учащихся. Организация информационно-методического взаимодействия учителей и студентов по проведению сетевых образовательных инициатив для школьников на образовательном портале «Школа» позволяет систематизировать, обобщить и расширить профессионально-педагогические знания и формировать методические компетенции будущих учителей, необходимые для эффективного применения компьютерных телекоммуникаций в учебно-воспитательном процессе школы.

В ходе оформления сетевой инициативы на портале «Школа» происходит активное обсуждение с авторами (учителями), сетевыми координаторами структуры и содержательного наполнения информационного ресурса. На этапе проведения сетевой инициативы основной задачей студентов является оказание организационной и технологической помощи учителям. У студентов появляется возможность общения с учащимися-участниками сетевой инициативы, руководителями групп учащихся. По итогам организуется обсуждение успехов, недостатков, затруднений. К такому обсуждению привлекаются учителя - авторы сетевых инициатив и сетевые координаторы.

3. Создание Интернет-поддержки профильной образовательной деятельности школьников в интегрированной информационно-коммуникационной среде на базе образовательного портала «Школа» является еще одним направлением совершенствования профессиональной подготовки студентов. Магистрантами и студентами старших курсов в рамках выполнения магистерских исследований и выпускных квалификационных работ разрабатываются электронные учебно-методические комплексы элективных и факультативных курсов. Апробация данных комплектов осуществляется не только в период педагогической практики, но и в течение всего учебного года, что способствует формированию у студентов методической компетентности в области электронного обучения.

Интегрированная информационно-коммуникационная среда рассматривается как модель педагогической среды, позволяющей не только обеспечить образовательный процесс необходимыми информационными ресурсами и средствами коммуникации, но и включить студентов, преподавателей, учителей и учащихся в совместную учебно-исследовательскую и творческую деятельность, объединяющую высшую педагогическую и общеобразовательную школы. На основе интегрированной ИОС возможно построить систему непрерывного профессионального развития как будущих педагогов, так и работающих учителей, что создает качественно новый уровень подготовку к профессиональной деятельности в условиях электронной обучения.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Компетентностная модель современного педагога: Учебно-метод.пособие / Акулова О.В., Заир-бек Е.С., писарева С.А. и др. –СПб:. РГПУ им. А.И Герцена, 2007. -158.
2. Безукладникова К.Э., Крузе Б.А. Подготовка специалистов для работы сетевым электронным профессиональным портфолио учителя системы международного бакалавриата: Метод. Пособие. –Пермь, 2008. -62.
3. Теоретические основы создания образовательных электронных изданий / Бельяев

М.И., Вымятин В.М. и др. –Томск: Изд-во Том ун-та, 2002. -86 с.
4. Технологии, определяющие будущее образования. Образовательная галактика Intel // http://edugalaxy.intel.ru
5. Тихомиров В. П., Тихомирова Н. В. Smart- education: новый подход к развитию образования// http://www.eleamingpro.ru/forum/ topics/smart-education.
6. Лапник М.П., Удалов С.Р. Гайдамак ЕС., Федорова Г.А., Лапник Д.М. От корпоративной компьютерной сети к интегрированной информационно-образовательной среде // Высшее образование в России. 2008. -№ 6. -С. 93-99.

МИЛЛИЙ КОНТЕНТ – МЕДИА ДАСТУРХОН

Муҳаммаджон Қуронов
Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти Бош илмий ходими, педагогика фанлари доктори, профессор
Маликова Дилдорахон Қобиловна
Мустақил тадқиқотчи

Аннотация. *Мақолада замонавий медиамаҳсулотларнинг жамият қатламларига кириб бориши, уларнинг истеъмоли ҳақида фикр юритилади. Медиамаҳсулотларимиз ҳам дастурхондаги ноз-неъматларимиз каби соф бўлиши борасидаги фикр ва ечимлар берилади.*

Калит сўзлар: *миллий контент, медиа, 3 авлод, тарбия, жамият, компьютер*

Одам ҳар куни икки тур - моддий овқат ва маънавий овқат ейди. “Биз нима еган бўлган бўлсак, ўшамиз”, деган гап бор. Бу одам овқат, мева, ичимликдаги химиявий элементларни ҳазм қилади. Қандай элементларни еб ичса, ўшаларнинг измида бўлади, дегани. Шунинг учун одам оғзидан кирадиган нарсаларни кўриб, текшириб, кейин истеъмол қилади. Биладики, ёмон овқат касал қилади.

Маънавий овқат бу – хабар, матн, мем, пост, қўшиқ, башара. Ҳар тонг ўз менюси, таклифлари билан отади. Ҳар куннинг ўз хабарлари – маънолари, маънавий менюси бор. У ҳар минутда янгиланиб боради. Шунинг учун чоршанбанинг медиа(маънавий) дастурхони менюси шанба кунига ярамайди. Телефонимиз – ўзимиз билан бирга юрадиган шахсий, кўчма маънавий дастурхонимиз. Маънавий озиқ кўз, қулоқ билан ейилади. Мана шу маънавий дастурхон – контент.

“Миллий контент” жумласидаги “миллий”ни икки маънода тушунишимиз керак. Бири – давлат контенти маъносида. Иккинчи маъноси – миллий-маданий, ўзбекчилик маъноларида. Миллий контент давлат ва миллат манфаатлари бирлигининг медиа ифодаси. У давлат ва миллат манфаатларини олға суриши, ҳимоя қилиши ва шаксиз устувор тутиши керак.

Албатта бу ўз ўзидан бўлмайди. Чунки бугун миллий медиаконтент нафақат ичкарига, ташқарига ҳам қаратилган. У “юмшоқ куч” ролини бажараяпти(ёки бажармаяпти). “Ёмон бўлса ҳам ўзимизники”, “Бизга бўлаверади”, деган қараш билан узоққа бориб бўлмайди. Нима демоқчимиз? Глобал медиа дастурхонга тортаётган таомларимиз ширин, ақлли, фойдали, сифатли бўлиши керак.

Биринчи таклиф: мавжуд ўзбек миллий контентининг сифат стандартини ишлаб чиқишимиз керак. Ҳар бир катта-кичик, соҳасидан қатъий назар медиани аниқ ўлчаб, баҳолаш стандартини ишлаб чиқишимиз керак. Бу нима беради? Бу бизга ҳар бир куннинг миллий

контент(маънавий дастурхонимиз)ни ана шу стандарт асосида аниқ баҳолаш имконини беради. Ўзбекистонликларнинг медиа дастурхонига нималар тортилган? Неча хил? Сифати, муддати қандай? Миллатнинг маънавий саломатлигига таъсири қандай? Давлат ва миллат манфаатига мослик даражаси, коэффиценти қанча, деб кунора ўлчаб, баҳолаб боришимиз керак.

Рақамли педагогиканинг таълим ва тарбия самарадорлигига таъсири унинг назарий маълумотлар билан амалиётдаги тажрибани боғлаш имконияти чексизлигида намоён бўлади. Бунинг учун аввало ҳар бир фан ўқитувчиси, синф раҳбари, ижтимоий маданий масалалар бўйича тарғиботчи ушбу инновацион фаолият талаб қиладиган билим, кўникма ва малакаларни ўрганиши талаб қилинади.

Бугунги кунга келиб мактаб ўқувчиларининг қўл телефони ва бошқа гаджетлардан фойдаланишлари одатий тусга кирди. Ўқувчилар томонидан қўл телефони воситасида ахборот узатишлари, ахборотни қайта ишлашлари, янги контентлар яратишга қизиқиш ортиб бормоқда. Тадқиқотчи Ф.Қодирова ўтказган тадқиқотларда болалар махсус мактаб интернатлари ўқувчиларнинг мазкур рақамли ёндошув кўникмаларидан педагогик мақсадда фойдаланишнинг ижобий намуналари бор. Масалан, “Бу менинг кўчам, у ерда уйлар, дарахтлар, дўконлар бор. Бу қўшнимиз Дилшод ака. Унинг оқ рангли машинаси бор”. “Мен экранда” (“I am online”), “Мен дизайнер” (“I am designer”), “Мен онлайн мулоқотдаман” (“I am on the online communication”), “Мени кўринг, эшитинг, тушунинг” (“Look me, listening and understand me”), “Менинг онлайн ҳикоям” (“My online story”), “Сўздан расмгача, расмдан ҳикоягача” (“From words to picture, from picture to story”). “Бу бозор. Деҳқон бозори. Мен бозорга онам билан келдим. Биз олма, шакар, ёғ, нон олдик, расмдаги бозордан бизнинг бозор каттароқ ва чиройли”. Ўқувчилар ўзлари, оиласи ва ўз қизиқишлари ҳақида муаллифлик лавҳаларини тайёрлашга жуда қизиқадилар. “Мен экранда” методи тарбиячилар фаолиятига татбиқ этилиб, улар интернет хизмати ёрдамида ахборотларни излаб, танлаб, ўз “видеопортфолио”ларини тайёрлашади.

Бу ҳақда муаллиф шундай ёзади: “Махсус мактабларнинг 5-синфларидан бошлаб, компьютер синфларида олиб борилувчи дарсларда ўқувчиларнинг телефонга ёзиб олинган имо-ишорали мурожаатларидан фойдаланилди. Дарсда экранда бир ўқувчи имо-ишораларда маълум ахборотни намойиш қилса, синф ўқувчилари ушбу ахборотни ёзма шаклга ўтказиш устида машқ қилдилар. Яъни ҳар бир ўқувчи алоҳида компьютерда ишлаш орқали WORD дастурида ҳужжат очиб, матнни тердилар. Яна бир ўқувчи кўрган маълумотларини доскага ёзиб борди. Шу тарзда ўқувчилар имо-ишорали ахборотни ёзма шаклга ўтказиш кўникмаларини ўзлаштирдилар. Бунда ўқитувчининг ҳаракатлари қуйидаги босқичларда ташкил этилди: “Бу мактаб ошхонаси. Бу эса, ошпаз опа. Бугун у бизга шўрва ва шавла тайёрлаяпти”. Шу тарзда ўқувчилар телефон орқали кичик-кичик лавҳалар тайёрлаши, уларнинг соғлом инсонлар орасида тез ва самарали уйғунлашиб кетишига имкон беради

Ушбу усуллардан умумтаълим мактаблари ўқитувчилари ҳам фойдаландилар. Жумладан, ўқувчиларнинг дарслардаги тақдимотлари телефонга тасвирга олинди. Сўнгра бу тасвирлар синфда намойиш қилинди. Бундан ташқари синф раҳбарининг оилалар билан очилган “Телеграмм” иловасига қўйилди. Натижада ота-оналар ўз фарзандининг дарсда, доскада, ўртоқлари орасида ўзини тутишини кузатиш имконига эга бўлдилар.

Педагогиканинг илмий тадқиқот методлари қанчалик тўғри танланса, таълим-тарбия мазмунини янгилаш ва такомиллаштириш шу даражада яхшиланиб, педагогика фани ҳам бойиб боради.

Педагогика фанлари доктори, профессор Р.Сафарова раҳбарлигидаги олимлар гуруҳи модулли ўқитишда ўқув жараёнини табақалаштириш, оптималлаштириш, муаммоли таълимни ташкил этиш назарияси ва амалиётида тўпланган барча тажрибалар мужассамлашади, деб ҳисоблайди. Бунда ўқувчиларнинг модуллар билан муваффақиятли ишлашини таъминловчи талаблардан бири ўқув материалларини аниқ тақдим этиш талаби бўлиб, у шундай тақдим этилиши керакки, уни ўқувчилар муваффақиятли ўзлаштирсин. Бу жараёнда ўқитувчи гуёки ўқувчилар билан суҳбатлашиб, уларни ҳукмлар чиқариш, муҳокама қилиш учун фаоллаштириши, чуқур ўйлаш, фараз қилишга ундаши, руҳлантириши, муваффақият қозонишга йўналтириши лозим. Мазкур принципни амалга оширишда модулнинг таркиби катта аҳамиятга эга. У ўқув материаллари ва педагогик технологиялардан ташкил топади.

Глобал контент ҳам бозор. Ўзининг харидорлари бор. Масалага илмий асосда ёндошсак, илм биз ишлаб чиқаётган медиа маҳсулотларимизнинг бозоргирлигини, рақобатбардорлигини, нарху навосини ўлчаб беради. Ютуқларимизниям, хатоларимизниям кўрсатиб беради.

Нега? Чунки Z авлод ўзбеклари вояга етаяпти. Миллий контент – уларнинг (касбидан қатъий назар) рисоладагидек ўзбек йигит, қизлари бўлиб майдонга чиқишига ёрдам берадиган маънавий озиқ. Миллий контент фақат биз учунмас, бутун инсоният учун керак. Инглиз, қозоқ, япон, ўзбек, грузин, инглиз, арабнинг ўзлигини йўқотмаслиги учун керак. Уларнинг номи бору нишони йўқ биомассага айланиб қолмаслиги учун керак.

Шунинг учун ҳар бир давлат ўз медиа ватанини қўрийди. Медиа орқали маънавий чегарани бузиб, ёшлар, аҳоли кўзига, қулоғига кирмоқчи бўлаётган инфекцияларни кўриб, жар солади. Чунки миллий контент – бу муқобил, ўзбекона ўйлаш тарзини ўргатиб, сақлаб қоладиган маънавий қалқон.

Бола кўрадиган кино, ўқийдиган китоб, эшитадиган қўшиқ, томоша қиладиган видеолар ўз она тилида, ўз муҳитида бўлса, унинг дунёқараши ҳам миллий бўлади. Контент қайси тилда бўлса, у қандай фикрлайди – шуни белгилайди. Агар медиа ўзбек тилида, ўзбек руҳида бўлса – тил ҳам, маданият ҳам яшайди.

Миллий контент нафақат тарбиявий, балки жамиятда бирликни таъминлайдиган омил ҳамдир. Ҳамма бир хил ғояда, тарихда, урф-одат ва қадриятда яшаса – миллат кучли бўлади. Бу — маънавий барқарорликдир.

Шунинг учун миллий контент – ахборот урушлари даврида ёшлар онгини ҳимоя қилувчи, келажак авлодни тарбияловчи, миллий ўзликни сақловчи муҳим ресурс ҳисобланади.

Ривожланган давлатлар буни яхши англашди. АҚШ, Япония, Жанубий Корея, Францияда миллий контент оддий ахборот воситаси эмас – **мафкуравий, сиёсий ва иқтисодий қурол** сифатида қаралади. Улар болаларга ўз фалсафасини мультфильм, қаҳрамон, қўшиқ, кино орқали мақсадли, изчил, режали, ўлчаб сингдиради. Ўз контенти орқали дунёга таъсир ўтказади.

Дунёда миллий контентни баҳолаш тажрибаси катта. Асосий мезонлари этиб, контентда қадриятлар, тил, тарих қай даражада, тўғри ва чуқур ифодаланган? Ёшларга мўлжалланган медиаларнинг ахлоқи қандай? Контент маҳаллий платформаларда тарқаладими? Ишлаб чиқарувчи – ўзимизми ёки ташқими? Қанча киши кўрди, ўқиди? Жамиятда қандай фикр уйғотди? Миллий онгга таъсири қандай, яъни қаҳрамонлар, тарих, миллий рамзлар қандай тарғиб қилинган? Миллий ғурур, ватанпарварликка таъсири борми? Иқтисодий самара: маҳаллий контент қанча даромад келтиряпти? Экспорт ёки лицензия орқали қай даражада пул

топиляпти? Контент нафрат, зўравонлик ёки экстремизмни тарғиб қилмайдими? Маънавий соғлом муҳитга хизмат қиляптими?

Айрим мамлакатларда миллий контент шунчаки ижод маҳсули эмас – мафкуравий ҳимоя воситаси. Миллий контент қатъий ахборот хавфсизлиги мезонлари билан баҳоланади.

Энди, бу жуда қизиқ мавзу. Гапирса, гап кўп. Бир гап аниқки, миллий контент — бу миллатларни сақлаш, ёшларни тарбиялаш, давлатни, мустақиллигини маънавий ҳимоя қилиш йўли. Сўзимнинг охирида демоқчиманки, биз бугун Ватан, жонажон Ўзбекистонимизни ҳам жисмоний, географик ер, тупроқ, ҳудуд, давлат деб қўриқлашимиз керак. Жисмоний, географик Ватанимизга ҳеч ким дахл сола олмайди.

Иккинчидан, ҳаммамиз, айниқса зиёлилар миллий контенимизни маънавий Ватан, деб билайлик. Уни ўз пост, миллий медиаконтентларимиз билан ҳимоя қилишимиз керак. Чунки маънавий, медиаватанимизга туҳмат тошлари отилиб турибди. Буни маънавий терроризм, деса бўлади. Кўриб, ўқиб, индамай туриш бизга ярашмас.

Миллат отаси, ҳурматли Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 22 декабрь куни бўлиб ўтган Республика Маънавият ва маърифат Кенгашининг кенгайтирилган йиғилишида сўзлаган мана бу сўзлари бизга уйқу бермаслиги керак:

“Азиз дўстлар!

Ўзимизга бир савол бериб кўрайлик: биз ҳозирги кескин шароитда ғоявий-мафкуравий соҳада рақобатга тайёрмизми? Ёш авлодимиз тарбияси мураккаб замон талабларига жавоб беряптими?

Мана, бугун маънавий-маърифий соҳада масала қандай ўткир ва кўндаланг бўлиб турибди. Булар оддий саволлар эмас. Одамни жиддий ўйлантирадиган, ташвишга соладиган саволлар. Агар биз бу ёруғ дунёда “ўзбек”, “Ўзбекистон” деган номлар билан яшаб қолишни истайдиган бўлсак, бу саволларга бугун жавоб топишимиз ва уларни ҳал этиш бўйича амалий ҳаракатларни айнан бугун бошлашимиз шарт. Эртага кеч бўлади”.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Қодирова Ф.У. “Рақамли педагогика” − истиқбол бугундан бошланади: имкониятлар, стереотиплар, келгуси режалар./ Замонавий таълим / Современное образование 2020, 8 (93). Стр. 4-9.
2. Умумий ўрта таълим мактабларида модулли ўқитиш жараёнида педаго- гик технологиялар банкидан фойдаланиш механизмлари./ Р.Г.Сафарова ва бошқ. Тошкент. «Tafakkur qanoti», 2017. – 148 б.

RAQAMLI MUHITDA MILLIY TARBIYANI MODERNIZATSIYALASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Akramova Shaxnoza Abrorovna

O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig’i o’rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor,podpolkovnik

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida milliy tarbiyani asrab-avaylash va uni yangi texnologik muhitga moslashtirish – har bir jamiyatning strategik vazifalaridan biridir.

Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar bilan zamonaviy raqamli bilimlar uyg’unligini ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

O’zbek milliy tarbiyasi — xalqimizning ko’p asrlik ma’naviy, axloqiy va madaniy an’analariga tayangan, avloddan-avlodga o’tib kelayotgan tarbiya tizimidir.

O’zbek milliy tarbiyasi o’z ildizlarini qadimgi turkiy xalqlar madaniyati, islomiy qadriyatlar va mahalliy urf-odatlardan oladi. Ushbu jarayonda *oilada* - ota-onalar farzandlariga bergan mehr-muhabbati, hurmat, mas’uliyati asosida berilgan tarbiya; *mahallada* - mahalla faollari, oqsoqollar va nuroniylar yoshlarga hayotiy maslahatlar berish orqali; *diniy va ma’naviy tarbiya maskanlarida* - masjidlar, madrasalar va diniy arboblar orqali axloqiy qadriyatlar va ma’naviy tarbiyani ta’minlaydilar.

O’z navbatida o’zbek milliy tarbiyasi kattalarga hurmat: ota-ona, ustoz va katta yoshdagilarga ehtirom ko’rsatish; mehr-oqibat: insonlarga yaxshilik qilish, yordam berish va mehribonlik; halollik va adolat: halol mehnat qilish, rostgo’ylik va adolatli bo’lish; sabr-toqat: qiyinchiliklarga bardosh berish va sabrli bo’lish; Vatanparvarlik - o’z yurtini sevish va unga xizmat qilish[5] kabi qadriyatlarga asoslangan hisoblanadi.

Ma’lumki, Movarounnahrda bola tarbiyasini amalga oshirish muayyan metodlarga asoslangan bo’lib, ular islomiy ta’limotlar, xalq an’analari va tajribaviy pedagogika bilan uyg’unlashgan[6]. Ulardan eng samarali va hozirgi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmaganlarini keltirish mumkin:

- namuna orqali tarbiya –jamiyatdagi kattalar, ayniqsa ota-ona, ustoz va oqsoqollar o’z axloqi, muomalasi va hayot tarzi bilan bolaga ibrat bo’lgan. Bunda “o’zini tut”, “ota yoki onang qilgan ishni qilsang-chi”, “ustozingga o’xsha” degan g’oyani bolaga singdirilgan. Chunonchi, bola namoz o’qishni otasidan, mehrni onasidan, so’zlash madaniyatini ustozidan o’rgangan.

- og’zaki nasihat va hikmatli so’zlar orqali tarbiya – bolada xalq og’zaki ijodi maqollar, rivoyatlar va diniy hikmatlar yordamida axloqiy xulq shakllantirilgan.

- qadriyat hissi orqali tarbiya - bolaga Allohdan, ota-onaning qarg’ishi, birovlarning haqidan qo’rqish hissini uyg’otish bilan birga mas’uliyat, o’zini nazorat qilish, taqvo va iffat tuyg’ularini shakllantirish asosiy shart hisoblangan. Bunda “Alloh hammani ko’rib turadi”, “ota-onaning duosi qabul bo’ladi” degan gaplar ko’p qo’llangan.

- mukofot va jazo – ushbu metod orqali bolani yaxshi ishlari uchun maqtov, sovg’a berilgan yoki rahmat aytilgan; beodoblik uchun esa tanbeh, vaqtincha ta’qiqlar berilgan, bu esa bolada mas’uliyat, salohiyat va o’zini to’g’ri baholash tuyg’usini shakllantirishga xizmat qilgan. Shuni alohida qayd etish zarurki, jazo zo’ravonlarcha emas, balki tarbiyaviy ta’sir sifatida qo’llanilgan.

- mehnat orqali tarbiya - bola yoshligidan dehqonchilik, chorvachilik, savdogarlik yoki hunarmandchilikka o’rgatilib, unda halol rizq, mehnatsevarlik, sabr va shukronalikni shakllantirilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

- ko’z-guvohlik va farosat tarbiyasi - bola o’z atrofidagi voqealarni kuzatib, xulosa chiqarishga undalgan. Bunda bolaning aql-zakovatini rivojlantirish, har bir jarayonda sabab-oqibat mavjud ekanligi, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga ahamiyat berishgan.

- savol-javob va suhbat usuli - bola bilan munozaralar, savol-javoblar tashkil etib, uni fikrlashga undashga yo’naltirilgan. Buning uchun “Agar sen o’sha joyda bo’lsan, nima qilgan

[5] Quronov M. O’zbekiston umumiy o’rta ta’lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T., 1998.
[6] Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati. – T.: «Ma’naviyat», 1998.

bo’larding?”, “Nima uchun bu ish yaxshi emas?” kabi savollar asosida mustaqil fikr, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

- o’yin va musobaqalar orqali tarbiya - bolalar milliy xalq o’yinlar (masalan, chori-chambar, «ko’zbog’landi», «lashkarboshi», «to’rttosh») orqali jismoniy, aqliy va ijtimoiy ko’nikmalari rivojlantiriladi, bu esa jamoaviylik, harakatchanlik, birdamlik va faollikni oshirishga xizmat qiladi.

- Qur’oni karim va qiroat bilan o’qish orqali tarbiya - bola maktab yoki madrasada Qur’onni yod olgan, mazmuni asosida ta’lim olib, ilmga hurmat, ilm orqali insonlikni tushunish, taqvoga etishishi amalga oshirilgan[7].

Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda milliy tarbiya – bu xalqning ma’naviy merosi, an’anaviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari asosida shakllanadigan tarbiyaviy tizimiga aytiladi. Shu o’rinda raqamli muhit deganda internet, ijtimoiy tarmoqlar, virtual platformalar, sun’iy intellekt vositalarini o’z ichiga olgan keng makon tushuniladi.

Hozirgi davrda raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish qanday muammolar mavjud? degan savolga quyidagi jihatlarni misol qilib keltirish mumkin. Jumladan,

- yoshlar ma’lumotlarni internet orqali qabul qilishga odatlanib qolmoqda. Milliy ruhdagi ma’naviy tarbiya esa ko’p hollarda zamonaviy raqamli formatda taqdim etilmayapti.

- mazmunning yo’qligi yoki eskirganligi. Milliy tarbiya mavzulari bo’yicha zamonaviy, qisqa, qiziqarli videolar, grafika va keyslar etarli emas; mavjud kontent ko’pincha sayoz, didaktik xarakteri bolalar uchun tushunarsiz.

- jahon internet kengligida milliy ruhdagi tarbiyaviy kontentning ulushi juda past. Masalan, 2024 yilda O’zbekistonda internet foydalanuvchilarining 60%dan ortig’i xorijiy platformalardan axborot olishini bildirgan[8]. Bunda milliy qadriyatlar aks etmaydigan, ba’zan esa ularga zid bo’lgan kontent ustunlik qiladi.

- raqamli savodxonlik pastligi (o’qituvchi, ota-ona, tarbiyachi) Ko’pchilik pedagoglar va ota-onalar kontent yaratish va tarqatish texnologiyasini bilmaydi. Interfeyslar, montaj, interaktiv platformalarni qo’llashda qiynalishadi.

- qadriyatlarni noto’g’ri talqin qilish xavfi. Kontentda din, milliylik, yoshlar yondashuvi noto’g’ri yoki bir yoqlama aks ettiriladi, bu esa aksi teskari yoki ixtilofga xos ta’sir bo’lishi mumkin. Stereotiplar va qoliplarga solish ehtimolining ko’pligi[9].

- moliyaviy va texnik resurs etishmasligi. Raqamli kontent yaratish uchun rejissura, illyustratsiya, stsenariy, montaj, marketing xizmatlari talab etiladi.

Raqamli muhitda milliy tarbiyani modernizatsiyalash borasida xorijiy mamlakatlarda holat qanday ekanligiga e’tiborimizni qaratsak, quyidagi manzara aks etadi. Xususan, Janubiy Koreya milliy madaniyat va an’analarni raqamli muhit orqali yoshlarga etkazishda katta muvaffaqiyatga erishgan. Bu mamlakatda «Korean Studies Digital Archives» va «Cyber Korean Culture Center» kabi onlayn platformalar orqali tarix, adabiyot, odob-axloq va turmush madaniyatiga oid interaktiv kurslar tashkil qilingan. Maktab va universitetlarda raqamli texnologiyalar yordamida «K-Ethics» (koreys etikasi) kabi fanlar joriy etilgan. YouTube, TikTok kabi platformada milliy ruhdagi kontent yaratish uchun davlat subsidiyalari ajratiladi va blogerlar qo’llab-quvvatlanadi.

[7] Akramova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: O’z JXU, 2025 yil. 426b.
[8] O’zbekistonda internet foydalanuvchilari bo’yicha 2024 yildao’tkazilgan tadqiqot natijalari. Elektron resurs:https://uzinfocom.uz/uz/projects Murojaat qilingan sana: 1.06.2025.
[9] Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности: Пер. с англ. и франц., /Сост. Л.И.Васильенко и В.Е.Ермолаева. Вводн. ст. Ю.А.Шрейдера.-М.: Прогресс, 2019. – 495 с

Finlyandiya ta’lim tizimida media savodxonlik — milliy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bu mamlakatda maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab axborot manbalarini tahlil qilish, yolg’on axborotni tanish va tanqidiy fikrlash o’rgatiladi. Yle Oppiminen — davlat telekanali negizida ishlovchi onlayn ta’lim platformasida milliy tarix, til, madaniyat haqida interaktiv videolar, kvizlar va simulyatsiyalar joylashtirilgan. Maktablarda har hafta «Media and Identity» darslari o’tkaziladi — bu orqali bolalarda milliy ong va jamoaviy mas’uliyat shakllantiriladi.

Yaponiyada raqamli muhit orqali milliy tarbiyani qo’llab-quvvatlash an’anaviy jamiyat modeliga moslashtirilgan. «Digital Bushido» dasturi orqali yoshlarga yapon falsafasi va axloqiy qadriyatlarni (sadoqat, insof, fidokorlik) 3D multfilmlar, vizual kvestlar va onlayn musobaqalar orqali o’rgatiladi. Milliy tarbiya maktab darsliklari VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyalari bilan boyitilgan. YouTube va Netflix kabi global platformalarda yaponiyaliklar tomonidan yaratilgan milliy kontent (anime, drama, hujjatli filmlar) maxsus davlat qo’llovi bilan targ’ib qilinadi.

Singapurda raqamli tarbiya milliylik va globallik o’rtasidagi muvozanat asosida qurilgan. Xususan, barcha ta’lim resurslari davlat tomonidan «National Digital Literacy Programme» orqali ikki tilda (inglizcha va mahalliy tillarda) taqdim etiladi. Milliy madaniy festivallar va tarixiy voqealarning raqamli simulyatsiyalari — talabalar ishtirokida interaktiv ravishda o’rgatiladi. Onlayn o’yinlar orqali bolalarda turli etnik guruhlar o’rtasidagi hurmat, hamjihatlik va umummilliy qadriyatlar tarbiyalanadi.

G’arb mamlakatlari Germaniya, Frantsiyada milliy tarbiya uyg’unligi kasbiy-mas’uliyatli shaxs tarbiyasiga yo’naltirish asosida olib boriladi. Milliy qadriyatlar tarix fanidan tashqari, media ta’lim, filmlar, muzey interaktiv ekskursiyalari, o’z tili va madaniyatini o’rgatuvchi onlayn kurslar orqali singdiriladi. Maktablarda “values education” – qadriyatlar darslari joriy etilgan.

Ushbu xorijiy mamlakatlar tajribasi ni o’rganish va O’zbekiston tarbiya tizimiga xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalaridan qaysi elementlarini tatbiq qilinishi bo’yicha qiyosiy tahlil qilganimizda quyidagi natijaga erishdik.

O’zbekiston uchun tatbiq etish mumkin bo’lgan ilg’or tajribalar

Davlat	Ilg’or tajriba	O’zbekistonda tatbiq qilish yo’llari
Finlyandiya	Qadriyatlarga asoslangan ta’lim (values-based learning)	Boshlang’ich sinflardan “odob-axloq”, “mas’uliyatli fuqaro” kabi modullarni joriy etish
Yaponiya	Bolani mustaqil fikrlovchi, jamoa bilan ishlaydigan shaxs qilib tarbiyalash	Ta’limda guruhli loyihalar, ixtirochilik va shaxsiy javobgarlikni ko’proq qo’llash
Xitoy	Milliy madaniyatni raqamli formatda keng tarqatish	Alisher Navoiy, Ibn Sino, Amir Temur haqida animatsiyalar, QR-kodli milliy ta’lim stendlari
Frantsiya	“Milliy meros kuni” va xalq san’ati festivallari	Maktab va mahallalarda “Madaniyat haftaligi”ni yo’lga qo’yish

Davlat	Ilg’or tajriba	O’zbekistonda tatbiq qilish yo’llari
Janubiy Koreya	Madaniy soft power orqali yoshlar ongini shakllantirish	Milliy musiqa, teatr, multfilmlar va TikTok kontentlar orqali milliy g’oyani keng tarqatish

Demak, milliy tarbiyani raqamli muhitga moslashtirish uchun davlat siyosat darajasida strategiya bo’lishi kerakligi yuqorida keltirilgan tahlillardan yanada yaqqolroq namoyon bo’ldi. Bunda esa albatta milliy kontentni yaratish va yoshlar o’rtasida targ’ib etishda zamonaviy media va marketing vositalarini faol qo’llagan holda tarbiyaviy jarayon sub’ektlari hisoblangan pedagoglar, axborot texnologiyalari mutaxassislari va ijodkorlarning hamkorligi amalga oshiriladi.

O’zbekistonda ham milliy tarbiyaning ilg’or tajribalarni o’rganib, milliy muhit va ta’lim tizimiga moslashtirilgan raqamli tarbiya kontseptsiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Milliy tarbiyani zamonaviy davr talablariga modernizatsiyalashtirish nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

Milliy tarbiyani zamonaviy davr talablariga modernizatsiyalashtirish yo’llari

Maqsadni qayta shakllantirish: “itoatli bola” emas, “mas’ul shaxs”	
Eskicha yondashuv:	Zamonaviy yondashuv:
bola buyruqni bajarishi kerak	Bola axloqiy tanlov qilishni o’rganishi kerak
Mazmunni qayta ishlash: qadriyatlarni zamonaviy tilda taqdim etish	
Qadimiy hikmatlar, xalq maqollari, diniy ta’limotlar — juda boy, ammo zamonaviy bola ularni tushunmaydi. Ularni keyslar, qisqa animatsiyalar, storytelling, TikTok formatidagi roliklar orqali qayta ishlash zarur.	• “Halollik – eng katta boylik” → zamonaviy keys: "Smartfon topib olgan bola uni qaytardimi?" • “Ota-ona rizoligi – Parvardigor rizoligi” → real-life videota’lim.
Raqamli muhitga integratsiya qilish	
Tarbiya, nafaqat maktabda, balki bola ko’p vaqt o’tkazadigan internetda ham bo’lishi kerak.	YouTube, Telegram, TikTok, Instagram uchun milliy ruhdagi qisqa tarbiyaviy kontentlar yaratish. Milliy an’analar asosidagi kompyuter o’yinlari, AR/VR simulyatsiyalari (masalan, “Samarqand safari”, “Bobur bilan muomala” va h.k.)
Ota-ona va mahalla bilan interaktiv hamkorlik	
Eskicha:	Yangicha:
bola uchun **faqat maktab javobgar**.	oila, mahalla, OAV va maktab birgalikda tarbiya tizimini tashkil qiladi. Ota-onalar uchun podkastlar, onlayn kurslar, tarbiya haqidagi broshyuralar

Psixologiya va emotsional zehniyatni EQ integratsiyalash	
Eskicha:	Yangicha:
bola "qo’rqsa" tarbiyalangan hisoblanardi.	bola o’z his-tuyg’ularini anglab, empatiya, ahloqiy qarar, insonparvarlik asosida tarbiyalanishi kerak. Milliy tarbiya q axloq Q muhabbat Q hissiy barkamollik.
Ta’lim tizimida integratsiyalashgan tarbiya	
Har bir fan darsida milliy qadriyatlar singdirilgan bo’lishi kerak.	Informatika → kiber-odob va yoshlarga oid islomiy ta’limotlar Jismoniy tarbiya → mujohidlik, jasorat va sabr Tarix → milliy iftixor va shaxslar orqali ruhiy tarbiya
Zamon qahramonlar orqali tarbiya	
Zamonaviy bolalar real shaxslarga ishonadi.	O’zbekiston tarixi va bugungi hayotidan ilhomlantiruvchi shaxslar, yosh tadbirkorlar, olimlar, vatanparvarlar haqida filmlar, komikslar, intervyular.
MODERNIZATSIYALANGAN MILLIY TARBIYA	"AJDODLAR MEROSI" + "ZAMIN VOQELIGI" + "TEXNOLOGIK FORMAT" + "PSIXOLOGIK YONDASHUV" + "JOZIBALI KONTENT"

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida har tomonlama barkamol, yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarni o’zida mujassam qilgan shaxsga milliy tarbiya berish borasida sezilarli islohotlar olib borilmoqda. Har bir bolaning dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy muhit, ya’ni hozirgi zamon talqinida virtual makon ham muhim ahamiyatni kasb etadi. Bunda albatta jamiyatdagi barcha tarbiya sub’ektlari ota-onalar va pedagog-murabbiylarning bola tarbiyasidagi hamkorligi juda muhimdir. O’zaro hamkorlikda ta’lim-tarbiyaning samarali vositalaridan foydalanish bevosita kelajakda munosib shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazish imkoniyatini beradi. Albatta, milliy tarbiya va ta’lim sohasini globallashuv sharoitiga modernizatsiyalashtirish bir zumda amalga oshirish nihoyatda qiyin, bu dinamik tarzda insonlar dunyoqarashini o’zgartirib borish talab etiladi. Buning uchun raqamli axborot muhitida tarbiyalayotgan yosh avlodning o’zi milliy tarbiyaning mazmunidan ozuqa olib, zamonaviy ijtimoiy hayotda o’z pozitsiyalarini uyg’unlashtirgan holda kelajagini konstruktsiyalashtirishi eng samarali natijalarimizdan biridir. Zero, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “ Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo’lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo’qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko’rsatib bergan yo’ldan og’ishmay borishi kerak. Chunki ularning g’oya va dasturlari

Yangi O’zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg’un va hamohangdir»[10] - deya ta’kidlaydilar.

ЦИФРОВОЙ СЛЕД И КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ: ОБУЧЕНИЕ МОЛОДЕЖИ ОБРАЩЕНИЮ С ЛИЧНОЙ ИНФОРМАЦИЕЙ С ПОМОЩЬЮ ВИЗУАЛЬНОГО КОНТЕНТА

Бекназарова Саида Сафибуллаевна
Профессор кафедры Телевизионных и медиа технологий, Ташкентского университета информационных технологий имени М.Хоразмий, д.т.н., профессор

Аннотация. *В статье рассматриваются методы формирования у молодежи навыков безопасного обращения с личной информацией в цифровой среде посредством визуального контента. Анализируются особенности цифрового следа как совокупности следовых данных, оставляемых пользователем в сети, и оценивается эффективность применяемых обучающих технологий (видеоинфографика, анимация, интерфейсные элементы). На основе теоретического и эмпирического материала выработаны методические рекомендации по разработке и внедрению учебных модулей, направленных на повышение уровня кибергигиены и защищенности персональных данных молодых интернет-пользователей.*

Ключевые слова: *цифровой след; конфиденциальность; персональные данные; визуальный контент; фишинг; социальная инженерия; кибергигиена; образовательные технологии.*

Современное общество характеризуется глубокой интеграцией цифровых технологий в повседневную жизнь, что приводит к формированию уникального феномена — цифрового следа. Молодежь, как наиболее активная аудитория цифровой среды, особенно подвержена рискам, связанным с неосознанным распространением персональных данных. В этой связи возрастает необходимость целенаправленного обучения основам кибергигиены, где визуальный контент выступает в качестве эффективного и доступного инструмента [1-2].

В условиях стремительного развития цифровых технологий и широкого распространения интернета, вопросы конфиденциальности и информационной безопасности приобретают все большую значимость. Цифровая трансформация общества привела к тому, что значительная часть социальной, образовательной, профессиональной и личной жизни переместилась в онлайн-среду. Молодежь, как наиболее активная и вовлечённая в цифровую коммуникацию группа, ежедневно взаимодействует с различными цифровыми сервисами, оставляя при этом множество цифровых следов — фрагментов персональной информации, которые могут быть использованы третьими лицами как в легитимных, так и в вредоносных целях.

Проблема усугубляется тем, что молодые пользователи зачастую не осознают, какие именно данные они раскрывают в интернете, кто имеет к ним доступ и какие последствия может иметь неконтролируемое распространение личной информации. При этом традиционные методы преподавания основ информационной безопасности часто оказываются неэффективными, так как не адаптированы к восприятию цифрового поколения, ориентированного на визуальные форматы и быстрое потребление информации. Визуальный

[10] Мирзиёев Ш. Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги нутқ. Электрон ресурс: https://anhor.uz/uz/news/shavkat-mirzijoev-ilm-fan-talim-va-tarbija-manavijat-biz-uchun-ustuvor-masaladir/ Мурожаат қилинган сана: 15 май 2025 йил

контент, как средство донесения сложных понятий в простой и запоминающейся форме, становится мощным инструментом формирования цифровой культуры и кибергигиены[3-4].

Настоящее исследование направлено на разработку подходов к обучению молодежи основам конфиденциального поведения в сети на основе визуального контента. В статье рассматриваются основные термины и угрозы цифровой среды, предлагаются пути защиты персональных данных, а также даются рекомендации по созданию и внедрению эффективных визуальных обучающих материалов.

Цель настоящего исследования — разработка методики обучения молодежи безопасному обращению с личной информацией в цифровой среде через визуальные средства. Задачи включают: анализ ключевых угроз цифровой безопасности; обзор визуальных форматов обучения; систематизация понятийного аппарата (цифровой след, фишинг, социальная инженерия и др.); разработка рекомендаций по формированию визуального образовательного контента.

Анализ современных научных трудов позволяет утверждать, что визуальные методы обучения значительно повышают уровень вовлеченности и запоминаемости информации. Российские исследования подчеркивают необходимость включения в учебные программы элементов цифровой безопасности. В статье принимается положение, что цифровой след представляет собой совокупность информации, оставляемой пользователем в сети, и может быть использован как в благих, так и в вредоносных целях [4].

Ключевыми понятиями, необходимыми для формирования цифровой грамотности, являются: конфиденциальность (право пользователя на контроль над своей информацией), персональные данные (ФИО, контактные данные, IP-адреса и пр.), фишинг (метод получения личной информации обманным путем), социальная инженерия (манипуляции сознанием пользователей), кибергигиена (совокупность практик по обеспечению безопасности в интернете). Основные угрозы включают несанкционированный доступ к аккаунтам, слежку за поведением пользователей, утечку данных через публичные профили.

Обучение основам цифровой безопасности должно начинаться в школьном возрасте и сопровождаться современными методами подачи материала. Визуальный контент, в том числе инфографика, анимационные ролики, игровые модули, демонстрирует высокую эффективность при разъяснении механизмов фишинга, настройки приватности, создания надёжных паролей. Рекомендуется использовать методы активного обучения: симуляции атак, интерактивные тесты, геймифицированные платформы. Преподавателям следует интегрировать эти материалы в дисциплины по информатике и обществознанию.

Рекомендации по обучение молодежи обращению с личной информацией с помощью визуального контента:

Интеграция модулей цифровой безопасности в школьные и вузовские курсы. В рамках учебных дисциплин по информатике, обществознанию и технологии следует внедрять темы, связанные с цифровой безопасностью, фишингом, кибергигиеной и конфиденциальностью;

Использование визуального контента как основного обучающего инструмента. Инфографика, анимации, комиксы, видеоролики и интерактивные визуальные тренажёры доказали свою эффективность в повышении уровня усвоения информации и вовлечённости молодежи;

Создание игровых и симуляционных сценариев. Геймифицированные среды, квесты и ситуационные задачи (распознавание фишингового письма или настройка приватности профиля) позволяют закреплять полученные знания на практике;

Привлечение специалистов по кибербезопасности и медиапсихологов. Это необходимо для разработки научно обоснованных, этически корректных и актуальных материалов;

Проведение регулярных кампаний по цифровой грамотности в социальных сетях. Молодежная аудитория активно присутствует в Instagram, TikTok и YouTube — следовательно, образовательные ролики и инфографика должны быть ориентированы на эти платформы;

Оценка эффективности обучающих программ. Регулярный сбор обратной связи и тестирование знаний помогут адаптировать образовательные стратегии и повысить их действенность.

Несмотря на растущую осведомленность молодежи о рисках цифровой среды, наблюдается несоответствие между знанием и практикой. Многие пользователи по-прежнему игнорируют настройки конфиденциальности, используют слабые пароли и не различают признаки фишинговых атак. Следовательно, задача образования не только в передаче знаний, но и в формировании устойчивого поведения. Применение визуального контента решает проблему снижения когнитивной нагрузки и способствует формированию ассоциативной памяти, что особенно важно для молодежной аудитории.

Цифровая безопасность становится неотъемлемой частью информационной культуры современного человека. Эффективное обучение молодежи правильному обращению с личной информацией требует современных методов подачи информации, среди которых визуальный контент занимает центральное место. Статья предлагает методологические ориентиры для образовательных учреждений и разработчиков обучающих программ, направленных на формирование цифровой ответственности у молодежи.

В эпоху цифровизации формирование культуры ответственного обращения с личной информацией становится неотъемлемой частью общей информационной и социальной грамотности граждан. Молодежь, как наиболее подверженная цифровым угрозам группа, нуждается в особом подходе к обучению принципам конфиденциальности и цифровой самозащиты. Применение визуального контента как средства обучения позволяет преодолеть барьеры традиционного образования, сделать подачу материала более доступной, эмоционально насыщенной и запоминающейся.

Цифровой след — это не просто технический термин, а отражение идентичности и жизнедеятельности человека в цифровой среде. Осознание масштабов и последствий необдуманного поведения в интернете требует от образовательных учреждений, государственных структур и самих пользователей системного подхода к цифровому просвещению. Эффективная профилактика рисков, таких как фишинг, утечка данных, кибербуллинг и манипуляции через социальную инженерию, возможна только при условии раннего и постоянного обучения основам кибергигиены.

Таким образом, представленное исследование подчёркивает необходимость внедрения комплексных программ цифровой безопасности, опирающихся на визуальные технологии и адаптированных под восприятие молодёжной аудитории. Только путем устойчивого повышения цифровой грамотности можно сформировать поколение пользователей, способных осознанно, безопасно и этично действовать в цифровом пространстве.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бекназарова С.С. Влияние интернета и социальных сетей на молодежь. Современное состояние медиаобразования в России в контексте мировых тенденций.Материалы IV Международной научной конференции. Таганрог- Екатеринбург -2022. –С.18-22.
2. Allen J.P., Evans M.A., Hare A.L., & Mikami A.Y. Adolescent Peer Relationships and Behavior Problems Predict Young Adults’ Communication on Social Networking Websites // Developmental Psychology, 46 (1). – p. 46-56.
3. Regan. P, Steeves V., Kids R Us: Online Social Networking and the Potential for Empowerment//Surveillance & Society. – 2010. - 8(2), p.157.

4. Бекназарова С.С. Роль социальных сетей в жизни молодежи. Материалы II Всероссийской научно-практической конференции Психолого-педагогическое образование родителей: история, современность, перспективы. Таганрог-2023. - В. 30-33

ТАРБИЯ ФАНИДА ШАКЛЛАНТИРИЛАДИГАН МАЪНАВИЙ ФАЗИЛАТ ВА СИФАТЛАРНИ БАҲОЛАШ ВА ЎЛЧАШНИНГ МЕТОДОЛОГИК ТАМОЙИЛЛАРИ

Хафизов Санжар Акрамович
Ориентал Университети, доцент в.б.

Аннотация. *Мақолада «Тарбия» фанида ўқувчиларда шакллантириладиган ахлоқий-маънавий фазилатларни ўлчаш ва баҳолашнинг услубий асослари кўриб чиқилади. Шунингдек, ахлоқий-маънавий фазилатларни ўлчаш ва баҳолашда фалсафий, педагогик ва психологик ёндашувлар таҳлил қилинади, баҳолашнинг мураккабликлари аниқланади, таълимий натижаларини мониторинг қилиш ва рефлексия тизимини яратиш тамойиллари ва мезонлари таклиф қилинади. Ўқитувчилар учун амалий тавсиялар таклиф этилади.*

Калит сўзлар*: ахлоқий фазилатлар, маънавий ривожланиш, тарбия, баҳолаш, педагогик диагностика, методология.*

Кириш. Мактаб ўқувчисида ахлоқий ва маънавий фазилатларни ривожлантириш масаласи доимо таълим тизимида алоҳида ўрин эгаллаб келган. Ахборот билан тўйинган, аммо қадриятлар инқирозини бошдан кечираётган замонавий дунёда бу масала муҳим аҳамиятга эга ва ўта долзарб масала сифатида кўрилмоқда. Айнан “Тарбия” фани ўқувчиларнинг ахлоқий фазилатларини, фаол фуқаролик позициясини, маънавий камолотини мақсадли шакллантиришда энг муҳим воситага айланиши лозим.

Бироқ, ҳозирги педагогик ҳамжамият олдида маънавий-ахлоқий тарбия натижаларини ўлчаш ва баҳолаш муаммоси турибди. Шу ўринда қуйидаги муҳим саволларга жавоб топиш лозимлиги бугунги таълим тизимининг кун тартибига чиқиши керак: виждонлилик, ҳамдардлик кўрсата олиш (empathy), масъулиятлилик, маънавий сезгирлик каби нозик ва чуқур фазилатларни қандай қилиб баҳолаш мумкин? Педагогик рефлексия ва тескари алоқани (feedback) таъминлаган ҳолда, расмиятчиликдан қандай қочиш мумкин?

Ушбу саволларга жавобни эса ўқувчи шахсининг ахлоқий ва маънавий фазилатларини баҳолаш ва ўлчаш тизимини яратишнинг услубий тамойиллари соҳасидан қидиришим керак бўлади.

Инсонларнинг маънавий ва аҳлоқий фазилат ва сифатларини ўлчаш ва/ёки баҳолаш муаммоси ушбу тушунчанинг ўзига хослигидан келиб чиққан ҳолда мураккаб вазифа ҳисобланади. Асрлар давомида эзгулик уни бевосита кузатиш ёки миқдорий жиҳатдан аниқлаш мумкин бўлмаган инсоннинг ички фазилати ҳисобланиб келинган. Арасту ўзининг "Никомах этикаси" (Nicomahean Etics) асарида инсонларга хос бўлган яхши фазилатларни ижобий ҳулқ-атворда намоён бўладиган барқарор ахлоқий қарашлар деб таърифлаган. Бугунги кун тадқиқотчилари фалсафий қарашларни эмпирик усуллар билан уйғунлаштиришга ҳаракат қилиб, қуйидаги саволни кун тартибига қўймоқдалар: яхши фазилатни (яхши ҳулқни) шаклланганлик даражасини ўлчаш мумкинми ва агар шундай бўлса, қандай усуллар билан ўлчаш ёки баҳолаш мумкин?

Ушбу мақолада биз яхши фазилатни ўлчашнинг асосий ёндашувларини таҳлил қиламиз, уларнинг афзалликлари ва имконият чегараларини (нималарни ва қай даражагача баҳолай ва ўлчай олишини) кўриб чиқамиз ҳамда кейинги тадқиқотлар учун ўз қарашларимиз ва ушбу йўналишнинг ривожланиш истиқболларини таклиф қиламиз.

Маънавий ва ахлоқий фазилат ва сифатларнинг моҳияти

Инсонларнинг ҳулқ-атворида намоён бўладиган маънавий ва ахлоқий фазилат ва сифатларни баҳолаш, қолаверса ўлчаш ҳақида гап борар экан, энг аввало ушбу тушунчаларни турли фан соҳалари нуқтаи-назаридан кўриб чиқишни тақозо этади.

Ушбу ўринда биз учта иборани ажратиб олишимиз керак. Булар: 1) яхши ҳулқ (эзгу фазилат), 2) маънавият ва 3) аҳлоқ. Буларни биз этимология, яъни ўзбек тилидаги маъноси, уларнинг келиб чиқиши (араб ёки бошқа тиллардан олинганлиги) эмас, балки фалсафий (классик ва замонавий), педагогик ва психологик нуқтаи назаридан кўриб чиқамиз.

Классик фалсафада **яхши ҳулқ** (эзгу фазилат – лотинча *virtus*, юнонча *aretē*) деганда дастлаб антик дунёда инсоннинг ўз тақдирини ақл ва жамоат манфаатига мувофиқ амалга ошириш қобилияти тушунилган. Афлотун учун энг муҳим фазилатлар донолик, жасорат, мўътадиллик ва адолат эди. Арасту "олтин ўрталик" тушунчасини киритади ва унга кўра фазилат экстремал нуқталар ўртасидаги оқилона мувозанатдир (масалан, *жасорат* қўрқоқлик ва эҳтиётсизлик ўртасидаги тушунча сифатида). Бу ўринда замонавий фалсафа ушбу масалани бир нечта ракурс орқали ўрганади: деонтологик (И. Кант): фазилат деганда оқибатлар қандай бўлишидан қатъи назар бурчни бажариш деб тушунилади; утилитар (Ж. Бентам, Ж. С. Милл): фазилат амалга оширилган фаолият натижалари билан ўлчанади; хулқ этикаси (Э. Анссомбе, А. МакИнтайр): фазилат – бу ҳаёт тарзини шакллантирувчи инсоннинг ички хусусияти.

Педагогика фани маънавият ва ахлоқни бир-биридан ажралиб турувчи турли тушунчалар сифатида қўриши билан бирга, уларнинг ўзаро бир-бири билан чуқур боғлиқлигини тан олган ҳолда қуйидагича талқин қилади:

маънавият – шахснинг ички дунёси, дунёқараши, маънога интилиши, юксак қадриятлар, ижодкорлик, ўзи ва атрофидаги дунё билан уйғунликни излаш билан боғлиқ бўлиб, унинг интегратив сифати.

ахлоқ – бу инсоннинг бошқа инсонлар ва жамият билан муносабатларини тартибга солувчи меъёрлар, хулқ-атвор қоидалари, ахлоқий тамойиллар тизими.

Демак, маънавият қадриятларнинг асосларини (базавий қадриятларни), ахлоқ эса хулқ-атвор моделларини шакллантиради. Кўриниб турибдики, бу ёндашувларнинг барчасида яхши хулқ (эзгу фазилат), маънавият ва ахлоқ миқдорий ҳодиса сифатида эмас, балки сифат жиҳатидан турли даражада намоён бўлмоқда.

Ўлчаш ва баҳолашдаги муаммолар

Умумтаълим дастурларига оид барча фанлардан эгалланадиган билим ва кўникмаларни баҳолашга нисбатан “Тарбия” фанида шаклланувчи маънавий ва аҳлоқий фазилат ва сифатларни баҳолаш/ўлчаш тубдан фарқ қилиши лозим. Ушбу фарқланиш шу сабаблики, бошқа фанларга оид билим ва кўникмаларни шаклланиш механизми билим олишга ва кўникмаларни шакллантиришга қаратилган бўлиб, “Тарбия” фани доирасида эса шаклланадиган фазилат ва сифатларни ҳақида “билимлар” шаклланиш ўрнига, ўқувчиларнинг ҳулқ-атворида ўша фазилат ва сифатлар намоён бўлишлиги назарда тутилади (Колберг). Масалан, математика фанига оид билимга эга бўлиш деб сонлар, миқдорлар, ўзгарувчилар устида математик аппаратни билиш ва қўллаш орқали турли амалларни бажариш назарда

тутилади. “Тарбия” фанида эса яхши хулқни “ўрганиш” ва “билиш” билан чегараланилмайди, балки ўша “яхши амаллар” ўқувчининг доимги хулқ-атворида намоён бўлишлик орқали биз ушбу фан доирасида натижадорликка эришдик деб ҳисоблашимиз керак бўлади. Шу сабабли “Тарбия” фани методологияси ва баҳолаш механизмлари бошқа фанларга нисбатан бирмунча мураккаб ҳисобланади.

Мактабларда “Тарбия” фани ўқитилишини ўрганишимиз ва кўплаб кузатувларимиз шуни кўрсатдики, маънавий ва аҳлоқий фазилат ва сифатларни баҳолашда одатий (анъанавий) баҳолаш усулларидан фойдаланиб келинмоқда. Яъни, “Тарбия” фанига оид “билимларни” баҳолаш амалга оширилмоқда. Бихевиористик психологиядан маълумки, инсонда у ёки бу сифатга эга бўлиши, ўша сифат шаклланиши шахснинг хулқ атворида намоён бўлиши деб тушунилади (Ж. Пиаже, Л.Виготский).

“Тарбия” фанига оид маънавий ва аҳлоқий фазилат ва сифатларни баҳолаш/ўлчашда қандай муаммолар мавжуд? Энг биринчи муаммо – баҳолаш объектининг ўзига хослигидадир (объект сифатида “нималарни баҳолаш” назарда тутилмоқда). “Тарбия” фанига оид маънавий ва аҳлоқий фазилат ва сифатларни баҳолаш бошқа фанларга оид билим ва кўникмаларни баҳолашдаги фарқланиши лозимлиги қуйидаги сабаблар билан боғлиқ. Маънавий ва ахлоқий фазилатлар:

–ички характерга эга, яхни шахснинг ички дунёси билан боғлиқ;

–ситуатив (турли вазиятларда) намоён бўлиши;

–вақтга нисбатан ўзгарувчанлиги (динамик ҳусусиятга эга эканлиги – ўсиши ёки камайиши, яхшиланиши ёки ёмонланиши мумкинлиги);

–таълим муҳитининг таъсири остида бўлишдиги.

Шу сабабларга кўра уларни анъанавий топшириқлар, тестлар ёки бошқа одатий баҳолаш усул ва воситалари ёрдамида баҳолаб бўлмайди.

Баҳолашдаги иккинчи муаммо – ахлоқий чекловлар. Маънавий ва ахлоқий фазилатларни баҳолашда қуйидагиларга алоҳида аҳамият қаратиш лозим: ўқувчилар онгини манипуляция қилишдан қочиш; ўқувчиларнинг самимий эътиқодларини уларнинг ташқи кўринишида "одоблилик"ни намоён қилишлик билан алмаштирмаслик; ва ўқувчиларнинг шахсий чегарасини ҳурмат қилиш.

Учинчи муаммо – баҳолашда расмиятчиликка йўл қўйиш хавфи. Баҳолашдаги расмиятчилик қуйидагиларга олиб келиши мумкин: ўқувчиларнинг демотивация ҳолатига тушиб қолишлари; қадриятларни шакллантириш рейтинг балларини олишлик билан алмаштирилиши; реал натижадорлик ўрнига ўқитувчиларнинг "ҳисобдорлик" фаолияти билан шуғулланиб қолиши.

Баҳолаш тизимини яратишда методологик тамойилларга асосланиш

Илмий адабиётлар ва педагогик тажрибаларни таҳлил қилиш асосида қуйидаги асосий методологик тамойилларни ажратиб кўрсатиш мумкин: инсонпарварлик тамойили; субъект-субъект муносабатлари тамойили; динамизм тамойили; индивидуал ёндашув тамойили; кўп даражалилик ёндашув тамойили (OECD, Jubilee Center).

Инсонпарварлик тамойили ўқувчининг шахс сифатида тобора ривожланиб бораётганлигини, унинг сифат ва фазилатларини ўсиб боришини рағбатлантириш ва ички ўсишини қўллаб-қувватлашга, унинг фикрлаш ва шахсий масъулиятини ривожлантиришга қаратилган бўлишлигини назарда тутади. Яъни, баҳолаш “Тарбия” фани таълимининг

ажралмас қисми сифатида қаралиши лозим. Бунда баҳолаш расмий жиҳатдан “баҳо қўйиш”гина эмас, балки ўқувчида содир бўлаётган ўзгаришларни кузатиб бориш деб қаралади. Субъект-субъект муносабатлари тамойили баҳолаш жараёнини “ҳукм чиқариш” сифатида эмас, балки ўз-ўзини англашга, тушунишга қаратилган ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолият жараёни сифатида намоён бўлади. Ахлоқий фазилатлар “бир марта ва бутун умрга” тамойили асосида шаклланмайди, улар динамик тарзда, яъни ўзгарувчан ҳусусиятга эгадир (Петерсен, Селигман). Баҳолашнинг асосий тамойили эса кўп даражалилик ёндашув тамойилидир. Бундай тамойил комплекс баҳолаш деб ҳам юритилади ва қуйидаги шакллар асосида амалга оширилади:

- ўз-ўзини баҳолаш;
- ўқитувчи томонидан баҳолаш;
- реал вазиятларда кузатиш;
- рефлексив фаолият;
- тенгдошларни (бошқаларни) баҳолаш.

Баҳолаш мезонлари

Баҳолаш мезони – бу ҳар қандай объект, жараён, ҳодиса ёки фаолиятнинг сифати, мувофиқлик даражаси ёки самарадорлиги тўғрисида ўлчаш, таҳлил қилиш ёки хулоса чиқариш учун олдиндан белгиланган ва аниқ ифодаланган хусусият ёки кўрсаткич. Баҳолаш мезонлари баҳолаш жараёнининг объективлиги, шаффофлиги ва такрорланишини таъминлайдиган ўзига хос мезон ёки стандарт бўлиб хизмат қилади.

Баҳолаш мезони миқдорий (масалан, ўқув самарадорлиги, унумдорлиги, аниқлигининг рақамли кўрсаткичи) ёки сифат (масалан, эстетик стандартларга мувофиқлиги, ўзига хослик, профессионаллик) бўлиши мумкин. шунингдек у баҳолаш мақсадлари асосида шакллантирилади (аниқланади ва белгиланади) ва тушунарли, ўлчанадиган ва муайян вазиятга мос келиши керак.

Тўғри танланган ва муайян белгиланган баҳолаш мезонлари объективликка (баҳоловчининг субъектив идрокининг таъсирини камайтириш, холисликка), солиштириш имкониятига (турли хил баҳолаш объектларини ўзаро таққослаш), шаффофликка (барча манфаатдор томонлар учун баҳолаш жараёнининг тушунарлилиги ва очиқлигига) ҳамда ҳақиқийликка (баҳолаш натижаларини асослаш имкониятини мавжудлилигини) эришишликни таъминлайди.

“Тарбия” фанидан баҳолаш мезонларини яратишда биз мезонлар матрицаси усулидан фойдаландик ва ушбу матрица асосида фаннинг дастури ва баҳолаш усул ва воситалари яратилди.

Қадриятлар матрицаси (қисқартирилган кўриниши):

Қадриятлар категорияси	**Бошланғич таълим**			
	1 синф	**2 синф**	**3 синф**	**4 синф**

МАЪНАВИЙЛИК	**А1. Адолатлилик, ҳалоллик** Ушбу бўлим ўқувчиларни бошқа ахлоқий фазилатлар учун асос бўлиб хизмат қиладиган ҳис-туйғулар билан боғлиқ лексика билан таништиради.	**А3. Толерантлик, фарқларни ҳурмат қилиш** Ушбу бўлим ўқувчиларни бағрикенглик ва фарқларни ҳурмат қилиш фазилатлари билан таништиради.	**А5. Тенглик, қадрлаш** Ушбу бўлим ўқувчиларга мактабда ёки жамиятда дуч келадиган вазиятларни баҳолаш ва шахсларга тенг муносабатда бўлиш ёки йўқлигини ҳал қилиш имконини беради.	**А7. Ҳамдардлик, ҳайрихохлик** Ушбу бўлим А3 мезон асосида тузилган. Ўқувчилар турли хил ахлоқий фазилатлар нимани англатишини ва улар қандай намоён бўлиши ҳақидаги тушунчаларини кенгайтирадилар ва нафақат ўзлари ва мактаблари, балки миллий ва глобал жамоалар ҳақида ҳам фикр юритадилар.
	А1.1. Адолат ва адолатсизлик деганда нимани англатишини оддий тушунтириб беради	А3.1. Биз ҳаммамиз бир-биримиздан фарқ қилишимизни ва нима учун буни ҳурмат қилиш кераклигини тан олади	А5.1. Одамларга тенг муносабатда бўлиш нимани англатишини тушунади	А7.1. Раҳмдиллик, ҳамдардлик, ҳурмат ва бағрикенглик каби фазилатларга мисоллар келтира олади
	А1.2. Адолатли ва адолатсиз вазиятларни аниқлай олади	А3.2. Уларга бошқалар қандай муносабатда бўлишни хоҳласа, уларга ҳам шундай муносабатда бўлишлари кераклигини тушунади	А5.2. Одамларга тенг ва адолатли муносабатни фарқлай олади	А7.2. Улар бошқаларга нисбатан раҳм-шафқат ва бағрикенглик кўрсатган ёки кўрсатмаган ҳолатларни муҳокама қилади

	A1.3. Адолат ва адолатсизлик ҳақида фикр юрита олади		A5.3. Миннатдорчилик деганда нимани англатишини ва буни қандай қилиб тўғри ифодалашни тушунтира олади	A7.3. Бошқаларга тоқат қилмайдиган ёки ўзлари муросасизлик қурбони бўлган одамлар гуруҳини аниқлай олади
	A1.4. Агар у ноҳақ иш қилган бўлса, кечирим сўраш кераклигини билади	A3.4. Бошқаларни яхшироқ тушуниш йўлларини аниқлай олади		A7.4. Нега ўз-ўзини ҳурмат қилиш бошқаларни ҳурмат қилишнинг зарурий қисми эканлигини тушунади
	A1.5. Ўзи ҳақида ижобий гапиради			
	A1.6. Ҳалоллик ва халолсизлик ўртасидаги фарқни тушунтира олади			

Жадвалда келтирилган қадриятлар категориялари (масалан: A1, A2, A3) ва суб категориялар (A1.1, A1.2, ...) ўқувчиларни баҳолашда аниқлик даражасини оширади ва ушбу категория ва субкатегориялар дарс мақсадлари ва режаси тузишда ва аниқ натижага эришишда катта имкониятлар яратади. Ушбу субкатегориялардан рубрикаторларни тузишда фойдаланиш мумкин.

Баҳолаш ва ўлчаш усуллари

Фазилат ва сифатларни баҳолашда интеграциялашган ёндашувдан фойдаланиш турли усулларни қўллашни талаб қилади. Қуйида бундай усуллардан бирини келтирамиз:

Кузатиш усули – бу ўқувчиларда ахлоқий фазилатларнинг намоён бўлиши тўғрисида маълумот тўплашнинг мақсадли, тизимли ва режали жараёни бўлиб, улар ҳаётининг реал вазиятларда (дарсларда, танаффусларда, дарсдан ташқари машғулотларда, тенгдошлари ва катталар билан мулоқотда) амалга оширилади.

Усулнинг мақсадлари:

– ахлоқий фазилатларнинг ривожланиш даражасини аниқлаш (меҳрибонлик, ҳалоллик, масъулият, бошқаларга ҳурмат ва бошқалар);

– ахлоқий хулқ-атворнинг ривожланиш динамикасини кузатиш;

– Ўқувчилар билан индивидуал ишлаш учун объектив маълумотларни олиш.

Амалга ошириш босқичлари:

– Кузатувни режалаштириш.

– Кузатишнинг мақсад ва вазифаларини белгилаш.

– Баҳолаш учун муайян ахлоқий фазилатларни танлаш.
– Бу фазилатларнинг намоён бўлиш мезонлари ва кўрсаткичларини ишлаб чиқиш.
– Кузатишлар ўтказиш.
– Ахлоқий фазилатларни акс эттирувчи хулқ-атвор намуналарини мунтазам равишда қайд этиш.
– Рўйхатга олишнинг турли шаклларидан фойдаланиш (кузатиш кундаликлари, кузатув карталари, назорат варақлари).
– Маълумотларни таҳлил қилиш ва талқин қилиш.
– Ахборотни тизимлаштириш ва умумлаштириш.
– Ахлоқий фазилатларнинг ривожланиш тенденциялари, динамикаси ва хусусиятларини аниқлаш.

Усулнинг афзалликлари:
– реал вазиятларда ахлоқий фазилатларни кўриш имконини беради;
– шахс ривожланишини ҳар томонлама баҳолашга ёрдам беради;
– тарбиявий ишларни индивидуаллаштириш имконини беради.

Метакогнитив кўникмалардан бўлган ижодий фикрлаш кўникмасини баҳолаш варағига мисол:

Ўқувчиларнинг ижодий фикрлаш кўникмаларини баҳолаш (ўз-ўзини баҳолаш варағи)

	Доим	Баъзида	Қисман	Умуман йўқ
Янги ғояларни таклиф қилиш стратегиясидан фойдаланаман	□	□	□	□
Лойиҳани муваффақиятли амалга оширувчи барча омиллар ҳақида ўйлайман	□	□	□	□
Муаммоларни ҳал этишда ностандарт ечимларни таклиф этаман	□	□	□	□
Лойиҳани баҳолашда турли индикаторлардан фойдаланаман	□	□	□	□
Менга янги топшириқ ва лойиҳаларни амалга ошириш ҳамда янги ғояларни илгари суриш жуда ёқади	□	□	□	□
Мен таклиф этилган ғояларни қимматли ва аниқ деталлар билан тўлдираман	□	□	□	□

Албатта, бундай баҳолаш усулларининг ўзига хос муаммо ва чекловлари мавжуд.

Муаммолар ва ечимлар

1. Субъективлик муаммоси

Ечим: баҳолашда бир нечта маълумот манбаларини жалб қилиш (ўқитувчилар, тенгдошлар, ота-оналар, ўз-ўзини рефлексия қилиш).

2. Вақт етишмаслиги

Ечим: баҳолаш элементларини жорий ўқитиш амалиётига интеграциялаш.

3. Ўқитувчиларнинг малакаси етарли эмаслиги

Ечим: ахлоқий ва маънавий ривожланишни баҳолаш соҳасида мақсадли малака ошириш.

Хулоса

Ахлоқий ва маънавий фазилатларни шакллантириш замонавий таълимнинг мураккаб, аммо муҳим вазифасидир. Уларни баҳолашнинг услубий жиҳатдан тасдиқланган тизимини яратиш ўқитувчиларимзни бу соҳада яна ҳам юқори натижаларга эришишларда салмоқли ёрдам беради.

Шуни ёдда тутиш керакки, ахлоқий ва маънавий фазилатлар "баҳолаш мумкин бўлган натижа" эмас, балки шахснинг ички ривожланиши жараёнини кузатиш (мониторинг қилиш) ва келгуси қадамларни (психологик-педагогик коррексиялаш, ўқув дастурларига ва дарсликларга ҳамда дарс режалари ва методологияга ўзгартириш киритиш) белгилашдир. Ўқитувчининг вазифаси бу жараённи эҳтиёткорлик билан, ўқувчи шахсига ҳурмат билан, ҳар бир боланинг салоҳиятига ишонч билан амалга оширишдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Aristotle. *Nicomachean Ethics*. Trans. W.D. Ross. Oxford University Press, 2009.
2. Peterson, C., & Seligman, M. E. P. *Character Strengths and Virtues: A Handbook and Classification.* APA/ Oxford University Press, 2004.
3. Kohlberg, L. *Essays on Moral Development. Vol. I: The Philosophy of Moral Development.* Harper & Row, 1981.
4. MacIntyre, A. *After Virtue.* University of Notre Dame Press, 1981.
5. Greene, J., et al. “An fMRI investigation of emotional engagement in moral judgment.” *Science*, 2001.
6. Narvaez, D., & Lapsley, D. K. “Personality, moral identity and moral behavior.” In: *Handbook of Moral Behavior and Development*, 2009.
7. Durlak, J. A., et al. (2011). *The impact of enhancing students’ social and emotional learning.* Child Development, 82(1), 405–432.
8. Jubilee Centre. (2017). *A Framework for Character Education in Schools.* University of Birmingham.
9. Kohlberg, L. (1981). *The philosophy of moral development.* Harper & Row.
10. Wang, Y., et al. (2021). *Effects of Humane Education on Children’s Empathy and Behavior.* Journal of Moral Education.
11. OECD. (2021). *Social and Emotional Learning in Brazil: The Programa Semente.*Civic Virtue Learning (CViL). (2023). *Final Report.*

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI MILLIY QADRIYATLARGA YO‘NALTIRILGAN RAQAMLI KONTENTLARNI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sulton Normatov
dotsent v.b., A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek milliy qadriyatlari va uning o‘ziga xosligini saqlashda texnokratik ratsionallik, kiborg insonlar va boshqa omillarni hisobga olish, sun’iy intellekt orqali milliy video kontentlarni yaratish bilan bog‘liq jarayonlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, kiborg inson, raqamli kontent, milliy qadriyatlar.*

Annotation: *This article highlights the processes related to preserving Uzbek national values and their uniqueness, considering technocratic rationality, cyborg humans, and other factors, as well as creating national video content through artificial intelligence.*

Keywords: *artificial intelligence, cyborg human, digital content, national values.*

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi raqamli texnologiyalar muhitida milliy o‘ziga xoslik, qadriyat va an’analarni saqlab qolishni muhim amaliy faoliyat sifatida yuzaga chiqarmoqda. Qadimiy evolutsion rivojlanish tarixiga ega hamda milliy o‘ziga xosligi bilan jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan O‘zbekiston oilalarida chuqur ierarxik e’zozlashni targ‘ib qiluvchi ma’lum darajada indentifikatsiallashgan va adolatga tayangan milliy qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazishda zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ehtiyoj bor. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarining eksponensial rivojlanishi nafaqat milliy balki umuminsoniy qadriyatlar tizimida bezavollik va noinsoniy jarayonlarini kuchaytirib, shaxsiy maxfiylik va avtonomiya tamoyillarini buzadi. Algoritmik qarorlar qabul qilish jarayonlari kognitiv tarafkashlik, ma’lumotlar diskriminatsiyasini institutlashtiradi, natijada ijtimoiy tenglik va adolat printsiplari buziladi. Texnologik determinizm paradigmasi inson erkin iroda va tanlov huquqini cheklaydi, psixologik bog‘liqlik va ijtimoiy izolyatsiya holatlarini keltirib chiqaradi. Sun’iy intellekt tizimlarining axloqiy yo‘nalishlarini O‘zbekiston kabi uchunchi dunyo mamlakatlarida bir muncha sekin aniqlanishi milliy qadriyatlarni himoylashda muammolarga olib kelishi mumkin. Bugungi asrda “Kiborg jamiyati”ning shakllanishi jarayonida inson man’aviy tabiatining fundamental xususiyatlari - empatiya, ijodkorlik va ma’naviy qadrliyatlar - texnokratik ratsionallik tamoyillari bilan almashtirilmoqda. Kiborg insonlar raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt rivojlanishi davrida turli sabablar asosida ko‘paymoqda. S.Foks o‘z tadqiqotida “potentsial kiborglar jamiyatlarning kelajagi haqidagi munozaralarda ko‘rib chiqilishi kerak (bu odamlarning o‘zgarishi imkoniyat yoki ekspluatatsiyaga, utopiya yoki distopiyaga, ozodlik yoki yo‘q qilishga olib keladimi degan argumentlarni o‘z ichiga oladi)” [1] degan fikrni ilgari suradi. Tahlillardan xulosa qilish mumkinki kiborglar texnokratik ratsionallikka asoslangan jamiyatlarni qurishda robotlarga raqobatchi muhim figuralardan biri bo‘lishi mumkin. Texnokratik ratsionallikning quyidagi tamoyillari nafaqat milliy balki umuminsoniy qadriyatlarga ham zarar yetkazadi:

a. Barcha ijtimoiy muammolarni texnik yechimlar orqali hal qilish
b. Samaradorlik va optimallashtirishni insoniy qadriyatlardan ustun qo‘yish
c. Ma’lumotlar va algoritmlar asosida qaror qabul qilish
d. Texnik ekspertlar tomonidan boshqaruv

Ushbu texnokratik ratsionallik milliy madaniy xususiyatlarni “nosamarador” deb baholaydi va ularni standartlashtirish orqali yo‘q qilishga doir harakatlarni amalga oshiradi. Shuningdek, milliy an’analar, qadriyatlar va madaniy urf-odatlarni “mantiqsiz” deb hisoblab, “optimal algoritm”ga taqlid qilgan holda ishlab chiqilgan texnik standartlar bilan almashtiradi. Natijada milliy o‘ziga xoslik yo‘qolishi, madaniy xilma-xillik kamayishi va barcha jamiyatlar bir xil texnokratik model bo‘yicha shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon milliy o‘ziga xoslikning inqiroziga va madaniy assimilyatsiyaga olib kelishi bilan yakunlanishi mumkin. Ushbu jarayon tarbiy va ta’lim tushunchalaridagi uzviy integratsiyaga zarar yetkazishi milliy maktab ta’limining o‘zgarishiga olib keladi.

O‘zbek milliy qadriyatlari xalqning tarixiy va madaniy merosini aks ettiruvchi ko‘p qirrali tizim bo‘lib, ular ijtimoiy hayot, ma’naviyat va o‘zlikni anglashda muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy qadriyatlar o‘zbek madaniyatining asosini tashkil etadi, chunki katta oila tuzumi jamiyatning markaziy instituti sifatida qaraladi. Bu tuzumda ota-onani hurmat qilish, farzandlar tarbiyasiga e’tibor berish va qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash kabi tamoyillar muhim o‘rin tutadi. Oilaviy munosabatlar nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarning avlodlardan-avlodlarga o‘tishini kafolatlaydi. Masalan, o‘zbek oilasida “katta-kichik” tushunchasi ijtimoiy ierarxiya va o‘zaro hurmatni belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Shu bilan birga, mehmondo‘stlik an’anasi o‘zbek xalqining saxiyligi va ochiqko‘ngilligini ifodalaydi. Mehmonni hurmat bilan kutib olish va unga eng yaxshi taomlarni taqdim etish o‘zbek madaniyatida muqaddas vazifa sifatida qaraladi, bu esa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tabiatga hurmat o‘zbek xalqining qadimiy an’analarida chuqur ildiz otgan. Tabiatni asrash va unga ehtirom ko‘rsatish ko‘pincha xalq maqollari va ertaklarida aks etadi, bu esa ekologik ongning shakllanishiga yordam beradi. Masalan, “Suv – hayot manbai” kabi iboralar tabiat bilan uyg‘unlikda yashash falsafasini targ‘ib qiladi.

Ma’naviyat va axloq o‘zbek milliy qadriyatlarining asosiy poydevoridir. Adolat, mehr-oqibat, sadoqat, halollik va o‘zaro hurmat kabi tamoyillar o‘zbek xalqining hayot tarzida muhim o‘rin tutadi. Bu qadriyatlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, jamiyatda hamjihatlikni ta’minlaydi. Islom dini esa o‘zbek qadriyatlar tizimining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ramazon va Qurbon hayiti kabi diniy bayramlar nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy integratsiya nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Bu bayramlar orqali xalqning o‘ziga xos an’analari va diniy e’tiqodlari mustahkamlanadi. Masalan, hayit bayramlarida qarindoshlarning bir-biriga tashrifi va keksalarni ziyorat qilish an’analari oilaviy va ijtimoiy rishtalarni yanada mustahkamlaydi. Ushbu jarayonlar tarbiyaga urg‘u bergan o‘zbek maktab ta’limida yoshlarning umummilliy qadriyatlar ruhida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o‘zlikni anglash o‘zbek qadriyatlar tizimining asosiy komponenti sifatida maktab o‘quvchilarida shakllanishi kelgusi texnokratik ta’sirning oldini olishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy texnologik taraqqiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu fenomenning ilmiy asoslarini va etik jihatlarini chuqur tahlil qilish, ayniqsa ta’lim sohasida uning to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlash uchun zarurdir. Sun’iy intellekt tushunchasi turli olimlar tomonidan o‘ziga xos ilmiy asoslarga tayangan holda ta’riflangan. Birinchi navbatda, Alan Turing (1950) sun’iy intellektni “mashina inson kabi fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan holat” sifatida izohlagan [4]. Uning Turing testi konsepsiyasi SI rivojlanishida asos bo‘lgan. John McCarthy (1956), sun’iy intellekt atamasining asoschisi, uni “aqlli mashinalar, xususan aqlli kompyuter dasturlarini yaratish fani va muhandisligi” deb ta’riflagan [5]. McCarthy SI ning o‘sha davrga mos bo‘lgan amaliy imkoniyatlari va nazariy kutilmalariga e’tibor qaratgan. Stuart Russell va Peter Norvig (2020) zamonaviy yondashuvda sun’iy

intellektni “inson intellektini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan tizimlar” sifatida ta’riflaydilar [2]. Ular SI ning kognitiv va funktsional aspektlarini birlashtirgan holda ta’rif berishga harakat qilishganini ko‘rish mumkin. Bizningcha esa sun’iy intellekt bu nutqni aniqlash, vizual idrok etish, mustaqil qaror qabul qilish va boshqa shu kabi odatda inson tabiiy intellektini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan kompyuter tizimi hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bir qator muhim axloqiy masalalarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, algoritmik adolat muammosi - SI tizimlar qaror qabul qilishda tarafkashlik ko‘rsatishi va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida kamsitishlarni kuchaytirishi mumkin. Ikkinchidan, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va avtonomiya masalasi - SI tizimlar katta hajmdagi shaxsiy ma’lumotlardan foydalanadi va bu insonlarning erkin tanlov huquqini cheklashi mumkin. “Sun’iy intellekt tizimlarining etik jihatlarini hisobga olmaslik insoniyat uchun jiddiy xavflar tug‘dirishi mumkin, chunki bu texnologiyalar inson qarorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi” [2]. Shuningdek, “Algoritmik qarorlar qabul qilish jarayonida insoniy qadriyatlar va madaniy kontekstni e’tiborsiz qoldirish jamiyatda katta ijtimoiy zararlar keltirib chiqarishi mumkin” [3]. Bu raqamli kontentlarni ishlab chiqishda sun’iy intellekt vositalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni talab etadi.

Maktab o‘quvchilarining sun’iy intellektdan axloqiy foydalanishi uchun quyidagi tamoyillarni rioya qilish zarur (1-rasm).

Maktab o‘quvchilari uchun milliy qadriyatlarga asoslangan kontentlar yaratishda sun’iy intellektdan foydalanish maxsus yondashuvni talab qiladi. SI tizimlar asosan G‘arb madaniyati va qadriyatlari asosida o‘qitilganligi sababli, ularga o‘zbek milliy qadriyatlari, tarix va madaniyati haqida to‘g‘ri ma’lumotlar berilishi zarur. Bu jarayonda o‘qituvchilar va dasturchilar SI tizimlariga mahalliy madaniy kontekst, milliy an’analar va qadriyatlar haqida ma’lumotlarni kiritishi kerak. Shuningdek, yaratilgan kontentlarni milliy qadriyatlarga mosligi jihatidan doimiy nazorat qilish muhim. Xususan, tarixiy voqealar, adabiy asarlar va milliy bayramlar haqida kontentlar yaratishda SI dan foydalanishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, mahalliy ekspertlar bilan maslahatlashish va natijalarni doimiy tekshirish talab etiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘llanilishi katta imkoniyatlar yaratadi, lekin bu jarayonda etik tamoyillarni qat’iy rioya qilish muhim. Milliy qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda SI dan foydalanish, o‘quvchilarni axloqiy jihatdan mas’uliyatli foydalanuvchilarga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Maktab o‘quvchilarining sun’iy intellektdan axloqiy foydalanishiga doir tavsiyalar.

Etik sun’iy intellekt (Etik SI) – bu adolat, oshkoralik va javobgarlik kabi tamoyillarga asoslangan holda loyihalashtirilgan va boshqariladigan sun’iy intellekt tizimlaridir. Bu tizimlarda zarar yetkazish yoki kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik uchun maxsus himoya choralari mavjud bo‘ladi. Ular insoniy qadriyatlar va jamiyat me’yorlariga mos keladigan tarzda ishlab chiqiladi, shuningdek, ishonchli va mas’uliyatli natijalarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Etik sun’iy intellekt dasturlashtirilgan qoidalar va protokollar orqali amalga oshiriladi; bu esa AI tizimlarining inson qadriyatlari va jamiyat standartlariga mos tarzda harakat qilishini ta’minlaydi.

Ta’limda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishda tarbiya va axloq me’yorlari muhim o‘rin tutadi. Etika va texnologiya o‘rtasidagi muvozanat saqlash insoniy qadriyatlar, qonuniy tartibga solish, inson nazorati, ijtimoiy normalar va innovatsiya xavfsizligi tamoyillariga asoslanadi. Bu muvozanatni saqlash uchun bioetika yo‘nalishidagi yondashuvlar, mas’uliyatli innovatsiyalar, aqlli tartibga solish va ijtimoiy madaniyatni rivojlantirish talab etiladi. Shunday qilib, texnologiyalar insoniyat manfaatlariga xizmat qiladigan vosita sifatida barqaror va axloqiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilishga erishish mumkin. Quyida bu masalaga oid asosiy jihatlarni keltirib o‘tamiz.

Tarbiya va axloq me’yorlarini texnolog mutaxassislari, siyosatchilar, ta’lim tizimi boshqaruvhilari, o‘qituvchilar va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikda amalga tadbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda quyidagi hususiyatlarni e’tiborga olish lozim bo‘ladi:

- Insoniylik va axloqiy qadriyatlarni saqlash: SI qarorlar qabul qilishda insoniylikka zid bo‘lmasligi, inson huquqlarini himoya qilishi va axloqiy me’yorlarga rioya qilishi kerak. SI asosida qabul qilinadigan qarorlar ustidan inson nazorati saqlanishi zarur.
- Raqamli axloq va madaniyat: SI yordamida talabalarni individual tarbiyalash va axloqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bu raqamli muhitda madaniyatli xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish: SI ta’limda talabalar haqidagi shaxsiy ma’lumotlarni noto‘g‘ri ishlatmasligi va ularni himoya qilishi kerak. Bu tarafkashlik va noinsoniylashtirish xavfini kamaytiradi.
- Ongli intizom va mas’uliyat: Tarbiyaviy jarayonda ongli intizom, shaxsiy mas’uliyat va axloqiy burchni anglashi muhim. SI texnologiyalari bu qadriyatlarni mustahkamlashga yordam berishi mumkin.

• Inson nazorati va etik me’yorlar: SI texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi qo‘llanilishi inson nazorati ostida bo‘lishi, etik me’yorlarga rioya qilinishi lozim. Bu ta’lim jarayonining insonparvar va adolatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Shuningdek, bu jarayondaSI texnologiyalarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish mumkin. Ya’ni:

• Talabalarni individual tarzda tarbiyalash va ularning axloqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda SI vositalari samarali bo‘lishi mumkin.

• SI yordamida o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi, baholash va fikr-mulohazalar samaradorligi oshirilishi mumkin.

• Raqamli sinflarda o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali muloqot va ijtimoiy platformalar yaratish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa

Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishda tarbiya va axloq me’yorlari insoniylik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli axloq va ongli intizomga asoslangan bo‘lishi kerak. SI texnologiyalari ta’lim jarayonini yanada samarali, individual va axloqiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirish imkonini beradi, ammo inson nazorati va etik me’yorlar doimo saqlanishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 y. dagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-4996-son Qarori (https://lex.uz/docs/-5297046)
2. Toshpo‘lotov Sh.E. Sun'iy intellektdan foydalanish me'yorlari, muammolar va istiqbollar. https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellektdan-foydalanish-meyorlari-muammolar-va-istiqbollar
3. Axmadaliyeva, D. (2025). SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI AXLOQ: ZAMONAVIY TALABALAR UCHUN YANGI TARBIYA MODELI. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, *2*(4.2), 183–185. https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intelekt-va-uning-ta-limdagi-muhim-ahamiyati
4. Nasriddinov A. (2023). “Raqamli axloq va yoshlar tarbiyasi: imkoniyatlar va xavf-xatarlar”, Ilm va taraqqiyot, №2, 34–38.
5. UNESCO (2021). AI and Ethics in Higher Education: Challenges and Recommendations. Paris: UNESCO Publishing.
6. Baydullayev A.S. Tayrov K.B. Serikova A.A. *“TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI”* https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/40798/25966/43256
7. Bowen J.A.,Watson E.C. “*Teaching with AI A PRACTICAL GUIDE TO A NEW ERA OF HUMAN LEARNING”* JOHNS HOPKINS UNIVERSITY PRESS.

TARBIYAVIY KONTENTLAR YARATISHNI TIZIMLASHTIRISH

Saydaliyev Abbosxon Ibroximxon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti ilmiy tadqiqot bo‘limi Katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Maqolada kontent va uning turlari haqida qisqa ma’lumot berib o‘tiladi. Shuningdek, zamonaviy kontentlar yaratish strategiyasi haqida muallif o‘z fikrlarini bayon etadi va*

shu bilan birga zamonaviy kontentlarning yaratilishini tizimli hamda ilmiy-tahliliy asosda olib borish, ishga yondashuv professional tarzda bo‘lishi lozimligi haqida o‘z takliflarini ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: *kontent, tizim, matn, grafika, video, milliy, ijtimoiy tarmoq, ijod, iste’mol, mahsulot, jamoa, ssenariy, targ‘ibot.*

Аннотация. *В статье кратко описывается контент и его виды. Также автор излагает свои мысли о стратегии создания современного контента и вместе с тем выдвигает свои предложения о том, что создание современного контента должно осуществляться на системной и научно-аналитической основе, подход к работе должен быть профессиональным.*

Ключевые слова*: контент, система, текст, графика, видео, национальный, социальная сеть, творчество, потребление, продукт, команда, сценарий, продвижение.*

Abstract. *The article provides a brief overview of content and its types. The author also expresses his opinion on the strategy of creating modern content and at the same time puts forward his proposals on the need to conduct the creation of modern content on a systematic and scientific-analytical basis, and the approach to work should be professional.*

Keywords: *content, system, text, graphics, video, national, social network, creativity, consumption, product, team, script, promotion.*

Kontent - bu veb-sahifalarning, ijtimoiy tarmoqlarning, messenjerlardagi kanallarning va turli dasturlarning tarkibiy qismi deyish mumkin. Biz har kuni kontentga duch kelamiz: bular YouTube tarmog‘idagi videolar, yangiliklar, mualliflik telegram kanallaridagi postlar, korporativ bloglardagi maqolalar.

Kontentni turli belgilarga ko‘ra tasniflash mumkin.

Matnli. Bunday format ko‘plab resurslar uchun asosiy hisoblanadi hamda bu formatga yangilik, maqola, intervyu kabilarni misol qilish mumkin.

Grafik. Tasvir, fotosurat, illyustratsiya, infografika va axborotni vizual taqdim etishning boshqa usullarini kiritish mumkin. Ko‘pincha grafika matnli materiallarni to‘ldiradi, biroq asosiy format bo‘lishi ham mumkin.

Video. Turli mazmun va hajmga ega roliklar.

Audio. Intervyu, musiqa, podkast va boshqalar.

Videokontent - bu video formatidagi har qanday ma’lumot: reklama roliklari, intervyular, video sharhlar.

Bolalar uchun mo‘ljallangan videokontentlar, umuman olganda har qanday videokontent ham bir ijod mahsuli desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki videokontent yaratilar ekan uning yaratuvchisi hayolida g‘oyani o‘ylaydi, fikr va mulohaza yuritadi. Kontentni yaratganidan so‘ng esa undan qandaydur bir natija kutadi. Hozirgi bizning internet zamonimizda videokontentlar kundalik iste’mol mahsulotiga aylanib qolganini hisobga olsak, ushbu ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar ko‘pchilikni tashkil qilmoqda. Ammo bu ijod mahsuli qay darajada foydali va manfatali bo‘lmoqda? Milliyligimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni qanchalik darajada aks ettirmoqda? Yoshlar uchun ilmiy va fikriy jihatdan nima bermoqda? Turli bema’ni kontentlarga alternative bo‘la oladigan sifatli va filtrdan o‘tkazilgan kontentlar yetalimi? Degan savollar tug‘iladi. Bu savollarni javoblash va yechim berish uchun birmuncha ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining183-qarori (keying o‘rinlarda 183-qaror) ham aynan sifatli va yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalashga qaratilgan va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni va eng

asosiysi o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan kontentlar ishlab chiqish vazifasini samarali tashkil etishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu masala hozirda zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Qisqa videolar, harakatli animatsion filmlar, e’tiborni jalb etuvchi videokontentlar virtual olamning asoiy iste’mol mahsulotiga aylanib qoldi.

Bizning fikrimizcha kontent yaratish uch bosqichda amalga oshirilishi kerak.

Birinchisi. Yaxshi ssenariy. Ya’ni ijodiy jamoa tomonidan ishlab chiqiladigan va sifatli ssenariylar tayyorlash. Bu jamoa tarkibida olimlar, ziyolilar, ota-onalar, o‘qituvchilar, mahalla raislari bo‘lishi ham maqsadga muvofiq. Ushbu toifalar bugungi zamon talabiga turli fokuslardan baho bera olishi, talab darajalarini aniqlay olishi va yoshlar kelajagiga befarq emasligi bilan ajralib turadi. Xususan, 183-qarorda ham ekspertlar guruhi bo‘lishi va kontentlar g‘oyasi, mazmun mohiyatini ko‘rib chiqishi belgilangan. Biz ham sifatli ssenariy bo‘lishi uchun maxsus ekspertlardan iborat ijodiy guruh dastlabki boshqichni amalga oshirishi muhim va zarur deb hisoblaymiz. Chunki uyni ham bittada qurib ketilmaydi. Avval uni qurishdan maqsad nima? Nimaga xizmat qiladi? Shularni aniqlash va poydevorini mustahkam qilib olish muhim. Biz nazarda tutgan ijodiy guruhni ham vazifasi shundan iborat. Chunki ular internetni egallab boryotgan turli xil kontentlarga alternativ bo‘la oladigan va sifatli kontentlar g‘oyasini ishlab chiqishlari hamda uni suratga oluvchilar jamoasiga taqdim eta olishi kerak.

Ikkinchisi. Sifatli videomahsulot. Ushbu ikkinchi ijodiy guruhda esa zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan texnik jamoa bo‘lmog‘i kerak. Ular ssenariy asosida sifatli videokontetntni suratga olish, montaj, turli effektalar, turli yosh toifalarini jalb qila oladigan, ta’sir qiladigan mahsulot suratga olishlari lozim. Albatta, bu uchun tajribali mutaxassislar, o‘z ishini ustalarini jalb qilish muhim hisoblanadi. Chunki ushbu jamoa yuqorida biz misol tariqasida keltirgan uyning poydevori ustiga uyni bino qilishadi. Uy mustahkam bo‘lsagina unda yashovchilar huzur bilan foydalanadi. Aytaylik yaxshi ssenariy bo‘ldi, yaxshi videokontentlar suratga olindi endi ularni ommalashtirish kerak. 183-qaror 9-bandida ham bolalar uchun videokontetlarni muntazam efirg uzatib boorish uchun “Bolajon” telekanalini imkoniyatlarini o‘rganish belgilangan. Bizningcha ham ommalashtirish masalaning burilish nuqtasi.

Uchinchisi. Targ‘ibotchilar. Televideniya targ‘ibot ishlarida o‘ziga yarasha samarali maydon hisoblanadi. Shu bilan birga hozirda ko‘plab yoshlar internet tarmog‘idan foydalanishlarini hisobga olgan holda YouTube, Facebook, Telegram kabi mashhur platformalarda kontentlarni samarali ommalashtirish muhim deb o‘ylaymiz. Katta auditoriyalarda ommalashtirish chora-tadbirlari ham ahamiyatli. Bundan tashqari qisqa-qisqa short videokontentlar sonini ham ko‘paytirish lozim. Hozir internetda biz nazarda tutgan shakldagi videolarga ko‘zimiz tushishi mumkin. Biz aytgandek tizimli tayyorlangan videolarni ham shu uslubda ommalashtirish kerak deb o‘ylaymiz. Instagram va YouTube kabi platformalarda qisqa videolar ko‘p tomosha qilinadi. Yoshlar uchun mo‘ljallangan videokontentlarni ham katta audiotoryali kanallarda, mashhur blogerlar bilan hamkorlikda ommalashtirish samarali bo‘ladi. Chunki internetdagi mashhur blogerlar ham yoshlar uchun mo‘ljallangan videokontentlarni o‘z sahifasiga joylasa, yoki boshqa manbaadan ulashsa, ularni kuzatuvchi kattaroq yoshdagi auditoriya ham tomosha qiladi. Ko‘rilish va likelar soni ortsa ommalashish algoritmiga muvofiq internetda kengroq tarqaladi.

Yuqorida yozilganlar sodda va jo‘n ko‘rinishi mumkindir. Lekin biz ushbu fikrlar orqali bir ipga tizilgan marvariddek, ishning tartibli va puxta hamda prefessionallar jamoasi tomonidan amalga oshirilishi lozimligini ilgari surmoqchimiz. Bundan tashqari masalani ilmiy jihatdan ham zamon talabi darajasida bo‘lishi tarafdorimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-183-son. Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-7528758
2. https://www.unisender.com/ru/glossary/chto-takoe-kontent-kak-on-privlekaet-vnimanie-auditorii/#anchor-1

TARBIYA FANIDA O‘QUVCHILARNI RAQAMLI KONTENTLAR BILAN ISHLASHGA JALB ETISHDA LOYIHAVIY TA’LIM YONDASHUVINING ROLI

Jumabayev Amir Darmenbay uli
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarbiya fanida o‘quvchilarni raqamli kontentlar bilan ishlashga jalb etishda loyihaviy ta’lim yondashuvining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli muhitda axloqiy tarbiya vositalarining ta’siri o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada loyihaviy yondashuv orqali o‘quvchilarning axloqiy qadriyatlarni anglash, ularni real hayotga tadbiq etish, raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishning shakl va uslublari, ularning o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan*

Kalit so‘zlar: *“Tarbiya” fani, loyihaviy ta’lim, raqamli kontent, axloqiy tarbiya, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, o‘quvchi faolligi, raqamli savodxonlik, axloqiy qadriyatlar, innovatsion ta’lim, tanqidiy fikrlash.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar ta’lim mazmuni, shakli va metodikasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, tarbiya fanida raqamli vositalar — ya’ni video, animatsiya, interaktiv topshiriqlar, vizual hikoyalar, axloqiy tanlovlarni modellashtiruvchi virtual sahnalar — o‘quvchilarning shaxsiy anglash jarayonlarini faollashtiradi. Bu resurslar o‘quvchilarga axloqiy tushunchalarni nafaqat eslab qolish, balki ularni real hayotdagi vaziyatlarga tadbiq etish imkonini beradi. Bunday kontentlar axloqiy holatlarni jonli obrazlar orqali tasvirlaydi, hissiy ta’sir orqali o‘quvchilarning ichki dunyosiga kirib boradi, ularni chinakam mulohaza yuritishga va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga undaydi.

Raqamli kontentlar yordamida axloqiy darslar yanada ko‘rgazmali, zamonaviy va hayotga yaqin tus oladi. Masalan, biror animatsion lavha orqali halollik, do‘stlik yoki bag‘rikenglik mavzulari yorqin misollar bilan ko‘rsatilganda, bu o‘quvchilarning ongida chuqur iz qoldiradi. Virtual muhokama platformalari, onlayn testlar yoki vaziyatli o‘yinlar orqali esa ular o‘z qarorlarini axloqiy mezonlar asosida qabul qilishni o‘rganadilar.

Biroq bunday raqamli resurslar faqat tayyor axborot manbai sifatida emas, balki ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida ham ishlatilishi lozim. Aynan shu nuqtada loyihaviy ta’lim yondashuvi katta ahamiyat kasb etadi. Loyiha asosida o‘qitish — o‘quvchini faol, izlanishga qodir, mas’uliyatli va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladigan yondashuvdir. Tarbiya fanida bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat mavjud raqamli axloqiy kontentlardan foydalanadi, balki o‘zlari ham shunday materiallarni ishlab chiqishda ishtirok etadilar. Bu esa ularning axloqiy bilimlarini chuqurlashtiribgina qolmay, raqamli savodxonligini, estetik didini va ijtimoiy faolligini ham rivojlantiradi.

Masalan, “Men uchun muhim qadriyat” mavzusida video tayyorlash, mahalladagi axloqiy qahramonlar haqida mini-intervyularni raqamli formatda to‘plash, axloqiy hikoyalarni komiks shaklida yaratish yoki jamoat joylarida axloqiy muammolarni yorituvchi slayd-shoular tuzish.

Bu kabi loyihalar orqali o‘quvchi nafaqat darsda o‘rgangan axloqiy tushunchalarni mustahkamlaydi, balki ularni hayotda qanday tatbiq etishni o‘rganadi. Shu tarzda, raqamli kontentlar va loyihaviy yondashuv uyg‘unlashib, zamonaviy ta’limda axloqiy tarbiya sifatini keskin oshirishga xizmat qiladi.

Loyihaviy ta’lim yondashuvining mohiyati shundaki, loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning — PBL) bu o‘quvchilarning real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan, izlanish, amaliyot va ijodkorlik orqali bilim egallashga asoslangan ta’limiy strategiyadir. Bu yondashuv 20-asr boshlarida Jon Dyui (John Dewey) tomonidan ilgari surilgan *tajriba asosida o‘rganish* g‘oyasiga tayanadi. Dyui fikricha, “ta’lim — bu hayotga tayyorgarlik emas, u hayotning o‘zi” bo‘lishi kerak, shuning uchun o‘quvchilar bilimni hayotiy faoliyatda qo‘llab, mazmunli muammolar ustida ishlashi muhimdir.

Olim Thomas Markham ta’kidlashicha, loyihaviy ta’lim o‘quvchilarni nafaqat akademik jihatdan, balki ijtimoiy-emosional va axloqiy jihatdan ham rivojlantiradi, chunki bu yondashuv:

- hamkorlikda ishlash (collaboration),
- tanqidiy va tizimli fikrlash (critical thinking),
- mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsibility and agency),
- muammolarni tahlil qilish va hal qilish (problem-solving) kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.[3]

Tarbiya fanida esa loyihaviy ta’lim o‘quvchilarni axloqiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Masalan, axloqiy dilemma asosida loyiha yaratish o‘quvchini fikrlashga, empatiya qilishga, qadriyatlarni tan olishga undaydi. Shuningdek, maktab, mahalla yoki oila doirasidagi real muammolarni o‘rganish orqali bolalar jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashadi.

Tarbiya fanida raqamli kontentlar bilan ishlash imkoniyatlari shunda ko‘rinadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim sohasiga chuqur kirib kelgan bo‘lib, tarbiya fanida ham raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ortib bormoqda. Raqamli kontentlar — bu elektron darsliklar, interaktiv hikoyalar, videoroliklar, 3D modellar, virtual muhitlar, onlayn testlar va ijtimoiy axloqiy holatlarni o‘z ichiga olgan resurslar bo‘lib, ular o‘quvchilarni axloqiy bilimlarga chuqur jalb etadi.

Bandura tomonidan ilgari surilgan *sotsial o‘rganish nazariyasi*ga ko‘ra, odamlar boshqalarni kuzatish va taqlid qilish orqali axloqiy xatti-harakatlarni o‘rganadilar.[4] Demak, interaktiv video yoki animatsiya orqali namoyish etilgan axloqiy vaziyatlar — o‘quvchilar uchun kuchli o‘rgatish vositasidir. Masalan:

- **Interaktiv hikoyalar** orqali o‘quvchilar o‘z qarorlarini tanlaydi va natijalarini ko‘radi, bu esa axloqiy tafakkurni faollashtiradi.
- **Animatsion videolar**da ijtimoiy vaziyatlar ko‘rsatilganda, bolalar ularni tahlil qiladi va muhokama asosida o‘z fikrini bildirishga o‘rganadi.
- **Onlayn loyihalar** o‘quvchilarni birgalikda ishlashga, muammolarni ijtimoiy nuqtai nazardan hal qilishga undaydi.

OECD ta’lim hisobotida qayd etilishicha, raqamli texnologiyalar orqali axloqiy-ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish — 21-asr fuqarosi uchun muhim ko‘nikmadir. Ayniqsa, shaxslararo munosabatlar, mas’uliyat, hurmat, bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot kabi jihatlar raqamli ta’lim

vositalari orqali kuchaytiriladi.[7] Shuningdek, UNESCO 2021-yilgi tavsiyalarida raqamli kontentlarning tarbiya jarayonidagi ahamiyati alohida qayd etilib, u orqali quyidagilar amalga oshirilishi mumkinligi ta’kidlangan:

- O‘quvchilarni o‘z qadriyatlarini ifodalashga va himoya qilishga o‘rgatish.
- Axloqiy tanlovlar qilishda turli nuqtai nazarlarni baholash.
- Internet madaniyati va axloqiy xavfsizlik bo‘yicha ongni shakllantirish.[8]

Loyihaviy ta’lim o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi. Bu yondashuv o‘quvchining faolligini oshiradi, mustaqil izlanishga va o‘z ijtimoiy fikrini shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilar an’anaviy darsda tayyor axborotni tinglash o‘rniga, PBL orqali o‘zlari mavzuni tahlil qiladi, tadqiqot o‘tkazadi, muammo ustida ishlaydi va yechim topadi. Bu jarayon ularning o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Blumenfeld va boshqalar ta’kidlaydilar: “Loyihaviy ta’lim o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishini ta’minlaydi, chunki ular faol ishtirokchi bo‘lib, mazmunni o‘z tajribasi orqali o‘rganadi.” [1]Aynan shu faollik tarbiya fanida o‘quvchilarni ijtimoiy mas’uliyatli fuqaroga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Axloqiy qadriyatlar hayotimizda” mavzusida tayyorlangan prezentatsiyalar o‘quvchining axloqiy tushunchalarni chuqur o‘rganib, ularni boshqalarga yetkazish motivatsiyasini kuchaytiradi, yoki oila, maktab yoki mahalladagi ijobiy axloqiy amaliyotlarni videolavhalar shaklida hujjatlashtirish orqali o‘quvchilar voqelikni axloqiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Bu kabi faoliyatlar Deci va Ryan’ning o‘z-o‘zini motivatsiyalash nazariyasiga (Self-Determination Theory) asoslanib, o‘quvchining ichki qiziqishini kuchaytiradi, ularni ijtimoiy va axloqiy jihatdan faol pozitsiyaga olib keladi.[2]

Raqamli vositalar — ayniqsa, interaktiv platformalar, animatsiyalar, axloqiy dialoglar va virtual forumlar — o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional (SEL — Social-Emotional Learning) rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. SEL dasturlari orqali o‘quvchilar:

- o‘z hissiyotlarini anglaydi va boshqaradi;
- boshqalarning fikri va hissiyotlariga hurmat bilan yondashadi;
- ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qiladi.

CASEL tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli SEL dasturlarini o‘z ichiga olgan loyihaviy ta’lim o‘quvchilarning axloqiy sezgirligini oshiradi, empatiya va birdamlik hissini shakllantiradi.[5] Tarbiya fanida bunday yondashuvlar axloqiy vaziyatlarni modellashtirish va turli qarorlar oqibatini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarga real hayotda ijtimoiy jihatdan maqbul yo‘lni tanlashga o‘rgatadi.

Bugungi raqamli dunyoda bolalar nafaqat ma’lumot iste’molchilari, balki faol axborot ishlab chiqaruvchilar bo‘lib bormoqda. Shu sababli, ularni raqamli savodxonlik va axloqiy immunitet bilan qurollantirish muhim. PBL yondashuvi bu jarayonda quyidagi yo‘nalishlarda samara beradi:

1. Raqamli axborotni tanqidiy tahlil qilish – O‘quvchilar noto‘g‘ri yoki manipulyativ axborotni aniqlashga, fakt va fikrni farqlashga o‘rganadilar.
2. Axloqiy-mezonlarga asoslangan kontent yaratish – O‘quvchilar axloqiy qadriyatlarga mos videolar, hikoyalar, taqdimotlar tayyorlaydi. Bu orqali ular axloqiy normalar asosida ijod qilishni o‘rganadilar.
3. Raqamli fuqaro sifatida faoliyat yuritish – O‘quvchilar internetda mas’uliyatli, hurmatli va halol ishtirok etish tamoyillarini anglaydi (digital citizenship).

Ribble ta’kidlaganidek, raqamli fuqarolik — bu o‘quvchining internetdagi harakatlarida axloqiy me’yorlarga amal qilishidir.[6] Tarbiya fanida bu tamoyillarni loyihaviy ta’lim orqali singdirish — bola ongida mustahkam axloqiy immunitetni shakllantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Bundan tashqari, OECD 2019-yilgi hisobotida yoshlar orasida “raqamli xavfsizlik” va “axborotga bo‘lgan ishonch” tushunchalari tobora dolzarb ekani ta’kidlanadi. PBL o‘quvchilarga bu masalalarni amaliy faoliyat orqali o‘rgatadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlashini va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish tarbiya fanining asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu maqsadga erishishda loyihaviy ta’lim yondashuvi alohida o‘rin tutadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar real hayotiy muammolarni axloqiy jihatdan tahlil qiladi, ularga mos yechimlar ishlab chiqadi va raqamli vositalardan ongli foydalanishni o‘rganadi.

Loyihaviy ta’lim o‘quvchining o‘z-o‘zini anglash, hamkorlikda ishlash, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish va qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol jalb etadi. Ayniqsa, raqamli kontentlardan foydalanish orqali axloqiy holatlarni simulyatsiya qilish, muhokama qilish va baholash imkoniyati kuchayadi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini, raqamli savodxonligini va axloqiy immunitetini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tarbiya fanida raqamli kontentlar bilan ishlashga asoslangan loyihaviy yondashuv — zamonaviy ta’limning eng muhim innovatsiyalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarni axloqiy jihatdan yetuk, madaniyatli, ongli va faol raqamli fuqarolar sifatida tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Blumenfeld, P. C., Soloway, E., Marx, R. W., et al. (1991). *Motivating Project-Based Learning: Sustaining the Doing, Supporting the Learning.* Educational Psychologist, 26(3–4), 369–398.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). *The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior.* Psychological Inquiry, 11(4), 227–268.
3. Markham, T. (2011). *Project Based Learning: A Bridge Just Far Enough.* Teacher Librarian, 39(2), 38–42.
4. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory.* Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
5. CASEL (2020). *Social and Emotional Learning Core Competencies.* Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. www.casel.org
6. Ribble, M. (2011). *Digital Citizenship in Schools: Nine Elements All Students Should Know.* ISTE.
7. OECD (2019). *Trends Shaping Education 2019.* OECD Publishing. https://www.oecd.org/education/
8. UNESCO (2021). *Reimagining our futures together: A new social contract for education.* Paris: UNESCO Publishing.

SHO‘BALARDAGI MA’RUZALAR

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA UMUMINSONIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Xulkaroy Atayeva Murod qizi
Innovatsion rivojlanish agentligi mutaxassisi

Annotatsiya*. Maqolada ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni pasayishining sabablari hamda umuminsoniy qadriyatlarni shaklantirish yo‘llari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Umuminsoniy qadriyatlar, vakolatlar, maktab o'quvchisi, raqamlashtirish, ta'lim, oila, o'qituvchi*

Аннотация. *В статье приведены причины снижения общечеловеческих ценностей у учащихся в условиях цифровизации образования и пути формирования общечеловеческих ценностей.*

Ключевые слова*. Общечеловеческие ценности, компетенции, школьник, цифровизация, образование, семья, учитель*

Abstract. *The article presents the reasons for the decline in universal values in students under the conditions of digitalization of education and the ways of forming universal values.*

Keywords*. Universal values, competencies, schoolchild, digitalization, education, family, teacher*

Zamonaviy dunyo shiddat bilan o‘zgarmoqda. Raqamli texnologiyalar jamiyatimizning barcha jabhalariga kirib bordi. Raqamli texnologiyalar qo‘llanilmayotgan sohani topish mushkul. Ta’lim sohasi ham yangi texnologiyalardan chetda qolmadi. Raqamli texnologiyalar an’anaviy ta’limda hal qilinmagan ko‘plab muammolarni yechmoqda va bu holat o‘qituvchilarni quvontirishi tabiiy. Biroq, raqamli madaniyat masalalarida vaziyat hali yaxshilanishni talab qiladi[6].

Ijtimoiy-jamoat sohalarini raqamlashtirishning dastlabki natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar axloq me’yorlari va umuminsoniy qadriyatlardan tobora uzoqlashib bormoqdalar. Sotsiolog olimlarning ta’kidlashicha, zamonaviy bolalar avlodi fiziologik qobiliyatlari va ijtimoiy dunyoqarashi jihatidan o‘tmishdagi avlodlardan farq qiladi. O‘quvchilarda sog‘liq bilan bog‘liq muammolar ko‘paygan, ko‘pchiligi aqliy rivojlanishdan orqada qolmoqda, jamoat faoliyatiga befarq munosabatda bo‘lmoqda va ularga ko‘proq begonalashuv xos bo‘lib qolmoqda[5].

Shuni ta’kidlash joizki, umuminsoniy qadriyatlar jamiyatning barcha a’zolari orasida ma’naviyat, erkinlik va tenglikni rivojlantirishga qaratilgan. Umuminsoniy qadriyatlar, avvalo, madaniyat va san’at asarlari, burch tuyg‘usi, adolat, halollik va shu kabilardan iborat.

Pedagogikada umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash an’anasi insoniyat madaniyatining ildizlaridan kelib chiqqan bo‘lib, zamonaviy didaktikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasiga tayangan. Bu nazariya yaxshilik, adolat va mexr-oqibat kabi sifatlar asosida tolerantlik shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Ya’ni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi (bu yerda inson, uning shaxsiyatining shakllanishi haqida so‘z boradi, ta’lim, rivojlanish va tarbiyaning ustuvor nisbatlari masalasi ko‘tariladi) o‘z ichiga umuminsoniy qadriyatlar tushunchasini oladi[3].

Olimlar F.Strodbek va F.Klokxon umuminsoniy qadriyat yo‘nalishlarini murakkab, guruhlangan tamoyillar sifatida ta’riflaganlar. Bu tamoyillar umuminsoniy muammolarni hal etish

jarayonida inson tafakkuri va faoliyatining turli sabablariga izchillik va yo‘nalish beradi. Ularning nuqtai nazari shunday asosga ega: butun insoniyat, madaniyati, millati, dini va siyosiy qarashlari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bir xil umumiy insoniy muammolarni yechishga da’vat etilgan [2, 129-bet].

Bugungi kunda o‘qituvchining asosiy vazifasi bolalarda mehribonlik, rahmdillik, mehnatsevarlik, o‘zi va o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyat tuyg‘usini tarbiyalashdan iborat. Bu maqsadga faqat bolaning ongiga ta’sir o‘tkazish orqali erishib bo‘lmaydi. Bolaning qalbiga, chuqur his-tuyg‘ulariga ta’sir etish lozim. Shuningdek, bola o‘zi buning zarurligini anglashi ham muhimdir[4].

Inson jamiyatda yashab, uning rivojlanishi, gullab-yashnashi va farovonligi uchun mehnat qilishi lozim. Umuminsoniy qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ular millat, irq, yashash muhiti va diniy e’tiqodlarga bog‘liq bo‘lmay, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmaydi. Ta’kidlash joizki, bu qadriyatlar bir-biridan ajralmas, o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo etadi hamda inson ma’naviyati va madaniyatining yagona poydevorini tashkil etadi. Shu bois, o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish shunchaki nazariy bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki bu qadriyatlarni insoniy e’tiqod va xulq-atvorga singdirish zaruriyatidir.

Umuminsoniy qadriyatlarni insoniy e’tiqod va xulq-atvorga aylantirishda har bir o‘quvchining dunyoni o‘zicha idrok etishi, sodir bo‘layotgan barcha hodisalarni o‘z bilimi va e’tiqodi doirasida baholashini inobatga olish zarur. Afsuski, bugungi raqamli sharoitda umuminsoniy qadriyatlar o‘quvchilarimiz xulq-atvorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lmay qolmoqda. Shu bois, bunday vaziyatda pedagogning muhim vazifalaridan biri - umuminsoniy qadriyatlarning axloqiy tamoyillariga asoslangan holda bola shaxsini rivojlantirish uchun ma’naviy-intellektual muhit yaratishdir. Raqamli makonni umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi mazmun bilan to‘ldirish lozim. Ish jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga bag‘ishlangan suhbatlar, vebinarlar va treninglar muntazam o‘tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogning amaliy vazifalari faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarni yetkazish bilan cheklanmaydi, balki bolaning barcha ichki kuchlarini ochish va rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarga o‘zlarining betakrorligini anglash tuyg‘usini singdirish, ularni rivojlanishga va o‘z-o‘zini tarbiyalashga rag‘batlantirish kabi masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Psixologlar ta’kidlashicha, raqamli muhitda o‘quvchining salbiy xususiyatlari yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi, ularda hissiy tajovuzkorlik rivojlanib, o‘z harakatlarini boshqara olmasliklari mumkin. Bunday vaziyatda o‘qituvchi bola bilan suhbatlashib, uning ichki dunyosini anglashi, bolaga go‘zallik, ezgulik va hamdardlikni o‘rgatishi, san’at bilan tanishtirishi lozim. O‘quvchilar san’at, madaniyat va adabiyotdagi ezgulik va yovuzlikni hissiy baholash, hamdardlik muhitiga yanada chuqurroq kirishadi. Ona yurt madaniyati va san’ati maktab o‘quvchilarida ma’naviyatni tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biridir. U bolalarni axloqiy qadriyatlar - sevgi, ezgulik, go‘zallik, haqiqat va adolat manbalariga yetaklaydi.

Axloq, qadriyat yo‘nalishlari kabi, insonning butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Biroq, qadriyat yo‘nalishlarining shakllanishi uchun eng sezgir davr aynan kichik maktab yoshidir. Ushbu yoshda ularning yakuniy rivojlanishi haqida gapirish mumkin emas, ammo bu davrda atrofdagi dunyoni va o‘zini anglash uchun intellektual mexanizmlar o‘rnatila boshlanadi [1, 122-bet].

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar qiyin ahvolda qoladilar, chunki ularning hayotiy pozitsiyasi va dunyoqarashining shakllanishi o‘tmish qadriyatlari rad etilgan va insoniyat erishishga intilayotgan yangi qadriyatlar hali to‘liq aniq bo‘lmagan vaziyatda amalga oshiriladi. Bugungi

sharoitda pedagogga bolani qadriyatlar tizimi bilan tanishtirish va tanishtirish ayniqsa qiyin. O‘qituvchi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan g‘oyalar: moddiy va ma’naviy, boylik va qashshoqlik, ezgulik va yovuzlik va hokazolarning qadriyatli keskinlashuvi maydonida bo‘ladi.

Shunday qilib, maktab va oilaning vazifasi bolada umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga yordam berishdir, shunda u kelajakda boshqa odamlar va voqealarga bag‘rikeng munosabatda bo‘ladi.

Jamiyat o‘zining ko‘p asrlik rivojlanishi davomida virtual olamga aylanishi va tarbiyaviy ishlarda mo‘ljal bo‘lib xizmat qilishi kerak bo‘lgan yetarlicha ko‘p qadriyatlarni to‘plagan. Zamonaviy tarbiya konsepsiyalari o‘quvchining subyektivligi, uning ongliligi, mas’uliyati, faolligini pedagogik qo‘llab-quvvatlash g‘oyalariga asoslanadi. Zamonaviy ta’lim muammolari tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik maqsadni belgilash jarayonida mental qadriyatlarni yaratish milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirishga imkon beradi.

Ayni paytda pedagogikada madaniyatga ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida e’tibor ayniqsa kuchaydi. Ko‘pgina olimlar ma’lum bir xalq yoki alohida hududning ma’naviy va ijtimoiy-madaniy belgilari butun jamiyatning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, degan xulosaga kelishadi..

Aytilganlardan kelib chiqib, maktab va oilaning hamkorlikdagi pedagogik ishining barcha shakllari umuminsoniy qadriyatlarni qayta tiklash jarayonini faollashtirishi, bu jarayonga uning mahsuldorligini ta’minlaydigan tarbiyaviy xususiyat berishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Jahon tajribasini hisobga olgan holda aytish mumkinki, umuminsoniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi, ular barcha madaniyatlar va davrlarning so‘zsiz me’yori hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlarni buzish jamiyatga qarshi jinoyat sifatida qaraladi. Ularsiz shaxsning shakllanishi va insoniyatning normal hayot kechirishi mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Дубинина Н.Н. Духовно-нравственное развитие и воспитание гражданина // Педагогика. – 2012. – № 5. – С. 122-124.

2.Лебедева Н. Введение в этническую и кросс-культурную психологию. – М.: Ключ-С, 1999. – 191 с.

3.Камбарова К.У. Общечеловеческие ценности: понятие и сущность // Молодой ученый. Интернет журнал. – 2016. – № 11 (115). – URL: https://moluch.ru/archive/115/30384/(дата обращения: 16.11.2020).

4.Кулагина И.Ю. Возрастная психология. Развитие ребенка от рождения до 17 лет: учебное пособие. – М.: УРАО – 1999. – 175 с.

5.Махмудов А. Х. Компетентностный подход к подготовке магистров технических специальностей (методологические и дидактические аспекты). Монография // T.:«Fan va texnologiya. – 2012.

6.Махмудов А.Х., Фефелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва // Современное образование (Узбекистан). 2019. №6 (79).

TALABALARNING KOMPOZITSION BADIIY-ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xudayberdiyev Mirolim Iskandar o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi TPMI tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini rivojlantirishda innovatsion raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etayotganligi bois quyida tasviriy san’at mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiya, kompozitsiya, badiiy-estetik did, san’at, viziual topshiriqlar, nostandart testlar, ijodkorlik.*

Abstract. *Since the issue of using innovative digital educational technologies in developing students' compositional artistic and aesthetic taste is currently of particular importance, below is a brief description of the use of digital technologies in fine arts classes.*

Keywords: *digital technology, composition, artistic and aesthetic taste, art, visual tasks, non-standard tests, creativity.*

Аннотация. *Поскольку вопрос использования инновационных цифровых образовательных технологий в формировании композиционного художественно-эстетического вкуса учащихся в настоящее время приобретает особую актуальность, ниже представлен краткий обзор использования цифровых технологий на занятиях по изобразительному искусству.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, композиция, художественно-эстетический вкус, искусство, изобразительные задания, нестандартные тесты, креативность*.

Talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini rivojlantirishda innovatsion raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki zamonaviy yoshlar raqamli muhitda faol hayot kechirayotgani sababli ularning ijodiy fikr doirasini kengaytirish, badiiy-estetik qadriyatlarni shakllantirish hamda ularni kompozitsion tafakkur bilan boyitish uchun elektron darsliklar, interaktiv vizual topshiriqlar, o‘yinli mashqlar va ochiq onlayn ta’lim platformalaridan mohirona foydalanish zarur. Talabalarning badiiy-estetik didi, avvalo, kompozitsiyaning nazariy tamoyillari va san’at asarlari tahlili hamda yaratish jarayonida shakllansa, ikkinchi tomondan, texnologik inqilob tufayli keng ommalashgan raqamli resurslar ham bunday didni kamol toptirishda o‘ziga xos imkoniyatlar taqdim etadi.

An’anaviy o‘qitish usullari asosan ma’ruzalar, nazariy topshiriqlar, amaliy mashg‘ulotlar va bevosita ustozning mahorat darslarida ko‘rsatilishi orqali amalga oshirilsa, innovatsion raqamli ta’lim texnologiyalari nafaqat jarayonni boyitib, balki talabaning mustaqil ishlash, ijodiy tajriba o‘tkazish, sharhlash va natijani baholash kabi bir qancha bosqichlarda faol ishtirok etishga undaydi. Jumladan, elektron darsliklar talabalarning mustaqil ta’lim olishida asqotadigan asosiy vositalardan biri bo‘lib, ularda matn, audio, video, animatsion infografika singari ko‘p tarmoqli materiallar joylashtirilishi kompozitsion tamoyillarni osonroq tushunish va yodda saqlashga ko‘mak beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy matn shaklida yozilgan nazariy ma’lumotlar ba’zi talabalar uchun zerikarli ko‘rinishi mumkin, ayniqsa, badiiy tasavvur va ijodiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan shaxslar uchun bu format bir oz chegaralangan yondashuvni hosil qiladi. Holbuki, elektron darsliklarda multimediaviy unsurlarni bog‘lash, turli rang va kompozitsion sxemalarni fazoviy jihatdan namoyish etish, videoroliklar yordamida asar tahlilini tushuntirish, tarixiy

asoslangan syujetli misollarni ifodalash, interaktiv test sinovlarini real vaqt rejimida o‘tkazish mumkin. Masalan, maxsus dasturiy mahsulotlarda talabalar ekranda berilgan o‘lchovlar, rang diapazonlari, kompozitsiya sxemalari bilan o‘ynashib, turli ko‘rinishlarni sinab ko‘rishi, shu jarayonda dasturiy ta’minot orqali xatolar yoki muvaffaqiyatli yechimlar haqida ma’lumot olishi mumkin. Bunday topografik, rang-barang variantlar bilan ishlash talabalarga shunchaki nazariy ma’ruza tinglashdan ko‘ra, ko‘proq tajribaviy uslubda badiiy-estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarga interaktiv platformalar orqali mustaqil izlanish topshiriqlari berilganda, ularning kompozitsion qarorlar chiqarish tezligi hamda sifatli yechimni topish ko‘nikmalari an’anaviy usullarga qaraganda tezroq rivojlanadi. Zero, interaktiv topshiriqlarda “trial and error” (muvaffaqiyatsizlik—tajriba—takomillashtirish) tamoyili samarali ishlaydi; talaba bitta xatoni tezda ko‘rib, shu ondayoq uni tuzatishga harakat qiladi, dastlab to‘g‘ri deb hisoblangan qoidaning badiiy-estetik natijasi o‘z kutganidan farq qilsa, zudlik bilan boshqacha usul bilan ko‘rish orqali kompozitsion tuzilmani qayta shakllantiradi. Bunday metodologik jarayon, ma’lum ma’noda, ijodning tabiiy tabiatiga yaqinlashadi, chunki san’at asarini yaratish ham, aslida, turli eksperimentlar, hissiy tajribalar hamda professional bilimlarni uyg‘unlashtirishdan iborat.

Ta’kidlash kerakki, raqamli interaktiv vositalardan foydalanish, o‘quv topshiriqlarining rang-barang formati, nostandart testlar va o‘yinli mashqlar talabalardagi raqamli savodxonlikni oshirishi bilan birga, ular tomonidan badiiy-estetik qadriyatlarga e’tiborli bo‘lish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Misol uchun, “nostandart vizual testlar” deganda, kompozitsiya tushunchasi bo‘yicha oddiy tanlov testlari emas, balki ekranda keltirilgan tasvir yoki shaklda matn orqali emas, balki bevosita vizual ifoda ustida ishlash, tuzishni qayta ko‘rib chiqish, yangilash va natijada tashkil etilgan kompozitsiyaning badiiy-estetik qiymatini baholash tushuniladi. Bunday testlar zamonaviy dasturiy ta’minotlarda tezkor teskari aloqa (feedback) funksiyasiga ham ega bo‘lishi, masalan, agar talaba rang mutanosibligini buzsa yoki asosiy markazni noto‘g‘ri joylashtirsa, dastur bu haqda ma’lum miqdorda ko‘rsatma berishi mumkin. Bu usul an’anaviy sinov shakllariga nisbatan ancha samaraliroq, chunki talaba oddiy “to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob”ni emas, balki “qanday tuzatish” mumkinligini darhol bilib oladi. Shu jarayon esa talabaning o‘z-o‘zini anglash, tanqidiy fikrlash va badiiy-estetik mulohaza yuritish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Ta’kidlash lozimki, kompozitsiya va badiiy-estetik did bu faqat shakl yoki rang mutanosibligidan iborat bo‘lmay, balki turli ijtimoiy, madaniy, ma’naviy kontekstlarni ham qamrab olishi mumkin. Innovatsion raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida, xususan, ochiq onlayn ta’lim platformalarining o‘rni beqiyosdir, chunki bunday platformalar talabalarga turli manbalardagi ma’lumotlar bilan mustaqil tanishish, baxs-munozaralarda qatnashish, amaliy namunalarni ko‘rish, ustoz va o‘rtoqlardan teskari aloqa olish imkonini beradi. Bunda talaba jahon miqyosida taqdim etilayotgan elektron darsliklar, vebinarlar, onlayn video darslar bilan tanishib, kompozitsiya masalalarini turli madaniy kontekstlarda qanday talqin qilinayotganini ko‘rishi, o‘z ijodiy faoliyatini shu bilimlar bilan boyitishi mumkin.

O‘yin texnologiyalari, ilgari asosan ko‘ngilochar sohada qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirda ular ta’lim jarayonida ham keng tatbiq etilmoqda. Masalan, kompozitsiyani o‘rgatishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarda o‘yin mexanikasi sifatida sathlar (level), ball, reyting, missiyalar joriy etilishi talabaning qiziqishini orttiradi, chunki u aniq maqsadga erishish uchun doimiy izlanish, takomillashtirish va mashq qilishga undaydi. Bunda dastur talabaning harakatlariga qarab, muayyan bosqichlarni ochadi, muvozanatli kompozitsiya yaratganligi yoki estetik tamoyillarni to‘g‘ri qo‘llaganligi uchun ball

berishi, bonus vazifalar taklif qilishi mumkin. Ushbu turdagi o‘yinli topshiriqlar orqali kompozitsiyaga oid nazariy bilimlar amaliy jarayon bilan bevosita bog‘liq holda mustahkamlanadi, asosiy e’tibor esa didni shakllantirishga qaratiladi, chunki talaba tez-tez nazorat sinovidan (bosqichlardan) o‘tib, olgan ball va teskari aloqa yordamida o‘z ishini tanqidiy ko‘rib chiqadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida, ayniqsa, teskari aloqaga ega interaktiv STEAMga asoslangan elektron ishlanmalar orqali tarbiyaviy ahamiyatga ega va estetik didni shakllantiradigan kompozitsiyalarni talabalarga visual sifatli taqdim etish orqali asarlarni kompozitsion, badiiy, falsafiy va estetik-tarbiyaviy jihatdan chuqur tahlil qilish imkoniyatini taqdim etish juda samarali hisoblanadi **(1- va 2-rasmlar)**.

1-rasm. Kompozitsiya nomli elektron darslikning ro‘yxatdan o‘tish bo‘limi

2-rasm. Kompozitsiya nomli elektron darslikning STEAMga asoslangan Badiiy asarlarga tahlil yozish interaktiv topshiriqlar bo‘limidan birinchi topshiriq va unga talabaning javob yozish konteksti ko‘rinishi

Bunda talaba elektron darslikdagi interaktiv topshiriqlarni bajarish orqali bilim olish, olgan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida kirishda ro‘yxatdan o‘tiladi. Masalan talaba elektron darslikning STEAM bo‘limiga o‘tib yuqoridagi rasmlardagi kabi birinchi topshiriq mazmuni bilan tanishib berilgan san’at asarini ilmiy mushohada bilan chuqur kuzatadi (Asarni ustiga bosish orqali uni yanada katta va sifatli hajmda to‘liq ekranda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi) va tahlil qiladi. Tahlilni yozish, fikrlarini tahrirlash uchun barcha imkoniyat yozish qismiga o‘tganda faollashadi.

Cheklanmagan miqdor va vaqtda bemalol fikrlarini mukammal tarzda ifodalab berishlari mumkin. Shu zaylda barcha turli vazifalar bajarilgach, tugatish va ma’umotlarni yuborish tugmasi orqali natijalarni ustozining elektron pochta manziliga yoki boshqaruv, nazorat bo‘limining serveriga real vaqt rejimida uzatiladi. Natijalar avtomatik tarzda inson omilisiz baholanadi va to‘liq hisobot talabaga va ma’sulga avtomatik tarzda shakllantirib beriladi.



3-rasm. Kompozitsiya nomli elektron darslikning “Quiz Button” interaktiv topshiriq bo‘limida boshqa turdagi visual topshiriq ko‘rinishi

Talabaning kompozitsion tajribasi kuchaygan sari testlarning murakkabligi ortib borishi, turli janrlar yoki uslublar bo‘yicha variantlar taqdim etilishi, hatto mustaqil topshiriqlar ham kiritilishi mumkin. Muhimi, bu jarayon shunchaki “tekshirish” maqsadida emas, balki “o‘rgatish” va “rivojlantirish” tamoyiliga asoslangan bo‘lishi lozim, chunki raqamli testlar tezkor teskari aloqa orqali talabaning har bir qadamini rivojlantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. X.X.Muratov. Talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish.: diss... Avtoref. ped. fan. fal. dok (PhD). -T.: 2024. -26 b. https://scienceweb.uz/publication/27896
2. Jabbarovich, M. M. (2023). Development of student’s composition skills based on creative approach. *Current research journal of pedagogics*, *4*(10), 41-48. https://inlibrary.uz/index.php/crjp/article/view/25512
3. Tursunov M.A. Elektron ta’lim resurslaridan foydalanish asosida talabalarning mustaqil ta’lim olish metodikasini takomillashtirish.: diss. Avtoref. ped. fan. fal. dok (PhD).- Qarshi.-2022.-60-b
4. Jabbarov, M. M. (2023). Development of their abilities by teaching the laws and rules of composition to students in higher education institutions. *Current research journal of pedagogics*, *4* (11), 151-160. https://inlibrary.uz/index.php/crjp/article/view/26823
5. Estetik tarbiyaning turlari va yo‘nalishlari ta’lim berish texnologiyasining modeli (fayllar.org).
6. Gruzkov V.N., Subbotina S.A. San’at estetik didni rivojlantirish omili sifatida G. Kant, № 4 (1), aprel 2012.

DIGITAL TRANSFORMATION OF EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Sultonova Munavvarxon Qaxramon qizi

Tayanch doktorant, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Annotatsiya. *O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi masalasi ko‘rib chiqildi. Zamonaviy va sifatli ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. O‘zbekistonning hozirgi ta’lim kontekstida AI texnologiyalarini joriy etishning o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi. Elektron moslashuvchan o‘rganish tushunchasi, xususan, aqlli o‘quv platformalari yordamida muhokama qilinadi. O‘zbekistondagi elektron ta’lim muhitining adaptiv raqamli ta’lim muhitini rivojlantirishga yordam beruvchi asosiy tendensiyalari bayon etilgan. Talabalarning kasbiy vakolatlari va qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirishda adaptiv raqamli tizimlarning roli ta’kidlanmoqda. O‘zbekistonning turli mintaqalari va ijtimoiy guruhlarida inklyuziv va teng ta’limni rag‘batlantirish maqsadida AIdan foydalanish ta’kidlandi. Nihoyat, maqolada mamlakatning raqamlashtirish strategiyasi va rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga muvofiq O‘zbekiston ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash istiqbollari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, elektron ta’lim, adaptiv ta’lim platformalari, mobil ta’lim, inklyuziv ta’lim, O‘zbekiston*

Abstract. *The issue of digital transformation of the education system in the Republic of Uzbekistan is examined. Challenges related to the implementation of artificial intelligence (AI) technologies aimed at building a modern and high-quality education system are analyzed. The unique aspects of introducing AI technologies in Uzbekistan’s current educational context are explored. The concept of electronic adaptive learning—particularly through intelligent learning platforms—is discussed. Key trends in Uzbekistan’s e-learning landscape that support the development of adaptive digital education environments are outlined. The role of adaptive digital systems in shaping learners’ professional competencies and value orientations is emphasized. The use of AI to promote inclusive and equitable education across diverse regions and social groups in Uzbekistan is highlighted. Finally, the paper reviews the prospects for AI integration in Uzbekistan’s education system in alignment with the country’s digitalization strategy and long-term development goals.*

Keywords: *digital transformation, artificial intelligence, e-learning, adaptive learning platforms, mobile education, inclusive education, Uzbekistan*

Аннотация. *Рассматривается вопрос цифровой трансформации системы образования в Республике Узбекистан. Анализируются проблемы, связанные с внедрением технологий искусственного интеллекта (ИИ), направленных на создание современной и качественной системы образования. Изучаются уникальные аспекты внедрения технологий ИИ в текущий образовательный контекст Узбекистана. Обсуждается концепция электронного адаптивного обучения, в частности, с помощью интеллектуальных обучающих платформ. Излагаются основные тенденции в ландшафте электронного обучения в Узбекистане, которые поддерживают развитие адаптивных цифровых образовательных сред. Подчеркивается роль адаптивных цифровых систем в формировании профессиональных компетенций и ценностных ориентаций учащихся. Освещено использование ИИ для*

продвижения инклюзивного и справедливого образования в различных регионах и социальных группах Узбекистана. Наконец, в статье рассматриваются перспективы интеграции ИИ в систему образования Узбекистана в соответствии со стратегией цифровизации страны и долгосрочными целями развития.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, искусственный интеллект, электронное обучение, адаптивные обучающие платформы, мобильное образование, инклюзивное образование, Узбекистан*

1. INTRODUCTION

The digital economy and digital society—global trends of the modern era—require the adaptation and modernization of the education system. The primary goal of education today is to prepare individuals for life and professional activity in the context of a digital society and digital economy.

In the Republic of Uzbekistan, the development of a digital economy and the formation of a digital education system are among the key priorities of state policy. These directions are clearly reflected in the country's strategic documents on digital transformation. The main objective of transforming the educational process is to create an efficient system that meets the needs of the digital economy while maximizing the potential of modern technologies.

Digital technologies that play an important role in the modernization of education include telecommunications infrastructure enabling next-generation communication networks, artificial intelligence (AI) and big data processing, virtual and augmented reality, cloud computing, the Internet of Things (IoT), blockchain technologies, and other advanced solutions.

New requirements for the structure and content of education—especially in terms of personalization, such as the development of individual learning pathways and the adoption of practice-oriented approaches—are accelerating the implementation of various digital education formats. These include adaptive systems, blended learning, case studies, mobile learning, gamification, project-based activities, and more. These trends are steadily reshaping the education market and introducing new learning paradigms.

To ensure the effectiveness of emerging educational technologies, it is crucial to develop reliable and consistent indicators that can guide cognitive processes and have a meaningful impact on learning outcomes.

2.UNIVERSITIES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW REALITY OF EDUCATION

2.1. Digital Transformation of Education

The rapid digitalization of all spheres of life, the growing penetration of the Internet, and the globalization of educational standards, competencies, and qualifications require a fundamental rethinking of how education is structured and delivered. These changes align with the broader transformations brought about by the Fourth Industrial Revolution, which is reshaping technological systems and models of economic development worldwide.

In Uzbekistan, the digital transformation of education is viewed as a shift from traditional, standardized teaching approaches to more personalized, competence-based learning models. The aim is to equip each learner with the professional skills required in the digital economy by optimizing educational processes and fostering student participation in project-based, real-world activities tailored to their individual strengths and interests.

Key aspects of this transformation include the move toward individualized educational trajectories, the reform of pedagogical methodologies, and the revision of institutional rules and frameworks to accommodate more flexible, student-centered learning.

The emerging digital environment—amid growing influence of both real and virtual communities—has become a central platform for the development, transfer, and implementation of value-driven professional competencies. The goal of such innovations in Uzbekistan’s education system is to ensure that the unique characteristics of each student are recognized and addressed. For some, this may mean reaching basic educational benchmarks, while for others it may involve accelerated or in-depth learning opportunities.

The creation of a lifelong digital professional portfolio for every individual supports the systematization of personal and professional values. It also enhances the relevance of these values in an evolving job market, while helping shape social and institutional frameworks. This, in turn, opens new possibilities for effectively managing educational resources based on clearly defined criteria relevant to specific groups and individuals within society.

2.2. Artificial Intelligence in Education

Today, artificial intelligence (AI) is one of the most dynamic and promising areas of information technology research. In Uzbekistan, AI is beginning to influence several key sectors, including data collection and analysis, knowledge management, diagnostic systems, infrastructure monitoring, educational platforms, and the design of individualized learning pathways.

The integration of AI in education has been the subject of growing academic interest and research in Uzbekistan and globally. This field intersects not only with technology but also with disciplines such as psychology, neuroscience, linguistics, sociology, and anthropology. These interdisciplinary efforts are aimed at building adaptive learning environments that are personalized, inclusive, and highly effective for a wide range of learners.

As AI technologies continue to spread rapidly in the coming years, their impact on education is expected to be significant. They will likely reshape the structure and content of education by enabling the creation of high-quality digital materials and intelligent educational tools. Special attention in Uzbekistan is being directed toward **educational analytics** based on AI-driven data analysis — a method that can identify gaps in learning, predict student performance, and ultimately improve the quality of education.

Digital innovations, including AI, have already proven their transformative value in education systems around the world by helping to create smarter, more responsive digital learning environments. Uzbekistan aims to harness similar technologies to meet the goals of its broader **Digital Uzbekistan 2030** strategy.

In 2021, several leading universities in Uzbekistan, in collaboration with international institutions and tech hubs, began piloting AI-focused training programs and digital transformation initiatives. These initiatives aim to equip students, educators, and researchers with practical skills in artificial intelligence technologies. In the near future, it is expected that universities in Uzbekistan will not only teach AI but also implement it across their academic, research, and administrative processes — using data-driven solutions to enhance decision-making, improve learning outcomes, and modernize institutional governance.

2.3. Artificial Intelligence and Inclusive Education

In March 2020, UNESCO hosted its annual Mobile Learning Week in Paris, focusing on the theme “Artificial Intelligence and Inclusion.” This high-level event, organized in collaboration with

global partners, highlighted the growing role of digital technologies—particularly AI—in making education more inclusive, equitable, and accessible to all.

The aim of such initiatives is to encourage the development and application of AI technologies to support safe, lifelong, and universal access to quality education. Key discussions during the event centered on how AI can help bridge digital divides, promote gender equality, and ensure inclusive educational opportunities for marginalized populations across the globe.

In Uzbekistan, inclusivity and equality are also recognized as core moral and strategic principles embedded in the country’s commitment to the UN Sustainable Development Goals (SDGs). The national education reform agenda prioritizes the use of digital tools to extend educational access to all population groups—including rural communities, people with disabilities, and those facing language or social barriers.

AI technologies in Uzbekistan are already being explored for their potential to reduce disparities in education. For example, AI-powered translation tools can assist learners studying in non-native languages, while intelligent tutoring systems and speech recognition tools can help students with learning difficulties or disabilities engage with content more effectively.

Teachers are increasingly encouraged to adopt inclusive teaching models supported by AI, enabling personalized learning experiences and promoting the active participation of all students—regardless of background or ability. These efforts are supported by various government programs and partnerships with international organizations.

However, the use of AI in education also raises important ethical considerations. To prevent algorithmic bias, discrimination, or the misuse of student data, it is essential that the development and deployment of AI tools in Uzbekistan follow clear ethical guidelines and are based on principles of fairness, transparency, and accountability.

AI must be seen not just as a tool for innovation, but as a shared digital public good that contributes to equal learning opportunities for everyone. This includes ensuring the official recognition and certification of learning outcomes achieved through AI-enhanced platforms.

As Uzbekistan continues to modernize its education system, special attention must be paid to developing AI tools that foster not only cognitive and technical skills but also interpersonal communication, empathy, and global citizenship—skills that are crucial for personal development and success in the evolving labor market.

3. CONCLUSION

When applied effectively, artificial intelligence can become a powerful tool for educators in Uzbekistan, helping them identify the most suitable learning strategies based on each student's individual learning style, pace, and academic progress. By leveraging AI, it is possible to enhance the quality and personalization of education, making the learning experience more engaging and effective.

To unlock the full potential of AI in the education system, it is essential to develop robust and trustworthy assessment indicators. These indicators must be capable of measuring not only academic performance but also complex attributes such as creativity, curiosity, and critical thinking. Such data can offer deeper insights into students’ cognitive processes and the overall impact of those processes on learning outcomes.

AI technologies are increasingly becoming part of everyday life in Uzbekistan, offering innovative tools for data analysis, content delivery, and decision-making. Education is no exception. As the role of technology in knowledge acquisition grows, the country’s educational system must evolve accordingly—embracing digital transformation to stay relevant and competitive.

The future of education in Uzbekistan will be shaped by cutting-edge digital technologies. Internet-based learning resources and AI-powered tools will enable more flexible, individualized, and accessible education for all learners, regardless of location or background. Through thoughtful implementation and ethical design, artificial intelligence can help build a more inclusive, adaptive, and forward-looking education system.

REFERENCE LIST:

1. Erdolatov, S.S., Ibraev, A.D., Esenalieva, G.A., Bekezhanov, M.M. and Kaldybaev, S.K. (2025). *Status and Prospects for the Development of Information Technology in the Higher Education System of Kyrgyzstan*. [online] doi:https://doi.org/10.1007/978-981-96-1933-7_26.
2. Kasymova, N. (2022). *Digital learning in Uzbekistan: challenges and lessons learnt*. [online] Www.eua.eu. Available at: https://www.eua.eu/our-work/expert-voices/digital-learning-in-uzbekistan-challenges-and-lessons-learnt.html.
3. Thomas Köhler, Heinz-Werner Wollersheim, Christoph Igel, Scenarios of Technology Enhanced Learning (TEL) and Technology Enhanced Teaching (TET) in Academic Education A Forecast for the NextDecade and its Consequences for Teaching Staff, Proceedings of the 8th International Congress on Advanced Applied Informatics (IIAI-AAI), 2019. https://doi.org/10.1109/IIAI-AAI.2019.00055
4. Po-Hsuan Lin, Andrew Wooders, Joseph Tao-Yi Wang, Walter M. Yuan, Artificial Intelligence, the Missing Piece of Online Education? Published in: IEEE Engineering Management Review, 2018, pp. 25 – 28, DOI: https://doi.org/10.1109/EMR.2018.2868068

MATEMATIKA DARSLARIDA GEOGEBRA DASTURIDAN FOYDALANIB MASALALARNI YECHISH USULLARI

Botirova Mavluda To‘xtasin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Matematika va informatika kafedrasi o‘qituvchisi
Abdullayeva Madina
Matematika va informatika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola GeoGebra dasturining matematik ta’limdagi ahamiyatini, uni o‘quvchilarning tushunishini qanday yaxshilashga yordam berishini va interaktiv darslarda qanday qo‘llanilishini ko‘rib chiqadi. GeoGebra dasturi geometriya, algebra, funksiyalar va statistika kabi sohalarda masalalarni hal qilishda samarali vosita sifatida foydalaniladi. Maqolada, o‘quvchilarga vizualizatsiya orqali matematik tushunchalarni amaliy ravishda o‘rganish imkonini yaratadigan GeoGebra ilovasining imkoniyatlari batafsil yoritilgan. Bu dastur yordamida o‘quvchilar masalalarni interaktiv tarzda hal qilish, natijalarni real vaqt rejimida ko‘rish va ularga o‘zgartirishlar kiritish orqali matematik bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.*

Kalit so‘zlar: *GeoGebra**,** matematik ta’lim**,** vizualizatsiya**,** interaktiv o‘qitish**,** geometriya**,** algebra**,** funksiyalar**,** statistika**,** masalalarni hal qilish, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish**,** dinamik ta’lim**,** matematik tushunchalar.*

Annotatsiya. *This article explores the significance of the GeoGebra software in mathematical education, how it helps improve students' understanding, and its application in interactive lessons. The GeoGebra software is used effectively in solving problems in areas such as geometry, algebra, functions, and statistics. The article details the capabilities of the GeoGebra application, which provides students with the opportunity to learn mathematical concepts through visualization. With*

this software, students can solve problems interactively, view results in real time, and make modifications to strengthen their mathematical knowledge.

Keywords: *GeoGebra, Mathematical Education, Visualization, Interactive Teaching, Geometry, Algebra, Functions, Statistics, Problem Solving, Encouraging Active Participation, Dynamic Learning, Mathematical Concepts*

Bugungi kunda matematika ta’limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar matematik tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun interaktiv va ko‘rgazmali vositalar, jumladan, GeoGebra dasturi samarali vosita sifatida ishlatilmoqda. GeoGebra — bu matematik masalalarni vizual tarzda ko‘rsatish va yechish uchun ishlab chiqilgan bepul dastur bo‘lib, geometriya, algebra, funksiyalar, va statistika kabi sohalarda matematik tushunchalarni o‘rgatishda keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada GeoGebra ilovasining matematik darslarda qanday ishlatilishi, uning imkoniyatlari va o‘quvchilarning tushunishini yaxshilashda qanday yordam berishi ko‘rib chiqiladi.

GeoGebra dasturining tavsifi va imkoniyatlari. GeoGebra — bu ko‘p funksiyali matematik dastur bo‘lib, geometriya, algebra, funksiyalar, statistikalar kabi turli matematik sohalarda ishlatiladi. 2001-yilda Markus Hohenwarter tomonidan ishlab chiqilgan ushbu dastur hozirda butun dunyo bo‘ylab o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan faol qo‘llanilmoqda. GeoGebra yordamida o‘quvchilar turli matematik masalalarni interaktiv tarzda hal qilishlari mumkin.

GeoGebra dasturi quyidagi asosiy imkoniyatlarga ega:

- **Geometriya**: Geometrik shakllar, masalan, nuqtalar, chiziqlar, aylana va boshqa shakllar yaratish va manipulyatsiya qilish imkoniyati.
- **Algebra**: Algebraik tenglamalarni hal qilish, funksiyalarni yaratish va grafiklarini ko‘rish.
- **Funksiyalar**: Funksiyalarni grafik tarzda ko‘rsatish va parametrlar orqali ularning o‘zgarishini kuzatish.
- **Statistika**: Ma’lumotlar to‘plamlarini kiritish, tahlil qilish va diagrammalarni yaratish.

GeoGebra ilovasi o‘quvchilarga nafaqat matematik tushunchalarni nazariy tarzda o‘rganishga, balki amaliy ravishda vizual tarzda ko‘rishga imkon yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning matematik tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

GeoGebra yordamida masalalarni hal qilish. GeoGebra dasturi matematik masalalarni hal qilishda juda qulay vosita hisoblanadi. O‘quvchilar masalalarni GeoGebra ilovasida qadam-baqadam yechishlari va natijalarni darhol ko‘rishlari mumkin. Masalan, algebraik tenglamalarni yechishda GeoGebra foydalanuvchilarga tenglamaning yechimini grafik shaklida ko‘rsatadi va bu orqali tenglama yechimlarini tushunishni yengillashtiradi.

GeoGebra dasturida algebraik masalalarni hal qilishda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- **Tenglamalarni grafik tarzda yechish**: O‘quvchilar tenglama va uning yechimini grafik tarzda ko‘rishlari mumkin.
- **Funksiyalarni yaratish**: Funksiya formulasini kiritib, uning grafik ko‘rinishini yaratish va parametrlar o‘zgarishini kuzatish.

Geometriya masalalarini hal qilishda esa o‘quvchilar turli shakllarni yaratish, ularni o‘zgartirish, va geometrik tengliklarni tekshirishlari mumkin. Masalan, uchburchakning tenglik shartlarini GeoGebra yordamida ko‘rish va ularni manipulyatsiya qilish o‘quvchilarga tushunishni osonlashtiradi.

O‘quvchilarning tushunishini yaxshilashda GeoGebra ilovasining roli

GeoGebra ilovasining eng katta afzalliklaridan biri — uning interaktivligi. O‘quvchilar GeoGebra yordamida matematik masalalarni hal qilishda faqatgina formulalarni o‘rganish bilan

cheklanmaydilar, balki ushbu masalalarni real vaqtda manipulyatsiya qilish orqali ularning haqiqiy ko‘rinishini ko‘rishadi. Bu esa o‘quvchilarga tushunchalarni aniqroq va samaraliroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

Interaktiv darslarda o‘quvchilar GeoGebra yordamida:

- **Vizualizatsiya**: Masalalarni va funksiyalarni grafik tarzda ko‘rish.
- **Mustaqil o‘rganish**: O‘quvchilar GeoGebra dasturida o‘zlari yangi masalalarni yaratish va ularni hal qilish orqali mustaqil ravishda bilim olishadi.
- **Xatoliklarni tahlil qilish**: O‘quvchilar o‘z yechimlaridagi xatoliklarni ko‘rib, ularni to‘g‘rilash orqali o‘rganadilar.

1-misol. $y = 2x + 5$, $y = x^2 - 7x + 2$ berilgfan funsiyalarning grafigini va urinish nuqtalarni yasang.

Yechish: berilgan grafiklarni GeoGebra ilovasiga yozib, ishlab aniq va batafsil ko‘rishimiz mumkin.



2-misol: Parabola va to‘g‘ri chiziq kesishmasi

Masala: $y = x^2$ va $y = 2x + 3$ funksiyalarining kesish nuqtalarini toping va grafikda tasvirlang.



Yechish:

Demak, kesish nuqtalari: (-1, 1) va (3, 9).

3-misol: Aylana va to‘g‘ri chiziq kesishmasi

Masala: Markazi $O(0,0)$ va radiusi 3 bo‘lgan aylana bilan $y = x + 1$ to‘g‘ri chiziq grafigini chizing.

GeoGebra komandasi:

$$c = Circle((0,0),3)$$
$$l = y = x + 1$$
$$Intersect(c,l)$$

Yechim:



Xulosa. GeoGebra dasturi matematik ta’limda muhim vosita bo‘lib, o‘quvchilarga matematik tushunchalarni samarali o‘zlashtirishda yordam beradi. O‘quvchilar masalalarni hal qilish jarayonida GeoGebra yordamida o‘zgarishlarni ko‘rish, shakllarni yaratish va ularni manipulyatsiya qilish orqali matematik bilimlarni amaliy ravishda o‘rganishadi. Ushbu dastur o‘quvchilarning analitik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, GeoGebra interaktivlik va vizualizatsiya imkoniyatlari tufayli matematik ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toshpulatov, O. (2020). "GeoGebra dasturining matematik ta’limdagi ahamiyati." *Matematika va ta’lim texnologiyalari* jurnalining 15-soni, 45-48-betlar.

2. Ibragimov, U., & Yuldashev, B. (2019). "GeoGebra yordamida geometriya darslarida vizualizatsiya qilish usullari." *Matematika o‘qitish metodikasi* jurnali, 3(1), 25-30-betlar.

3. **Mirzaev, A. (2018).** "GeoGebra yordamida algebra va funksiyalarni o‘qitish metodikasi." *O‘zbekiston ta’limi* jurnali, 8-son, 72-77-betlar.

4. **Shomurodov, M. (2021).** "GeoGebra dasturida statistika va ehtimollarni o‘rganish imkoniyatlari." *Matematika o‘qitish metodikasi* jurnali, 4(2), 40-45-betlar.

5. **Ismailov, S., & Xudoyberdiyev, D. (2017).** "GeoGebra dasturining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi." *O‘zbekiston pedagogik va ilmiy tadqiqotlar* jurnali, 2-son, 60-64-betlar.

INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA MULTIMEDIA MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Usmonova Dilnoza Toshmamatovna
Navoiy davlat universiteti, dotsent
Qayimova Nazira Najim qizi
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’limda inklyuziv ta’limning ahamiyati ochib berilgan, har bir o‘quvchini, shu jumladan alohida ta’limga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlashga yondashuvlar tahlil qilingan. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda inklyuziv o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda multimedia materiallaridan foydalanishning ahamiyati, imkoniyatlari va qo‘llanilish usullari tahlil qilinadi. Maqolada o‘qituvchilarga inklyuziv o‘qitishni tashkil etishda yordam beradigan usullar, ya’ni differensial yondashuv, kichik guruhlarda ishlash, multimedia materiallaridan foydalanish, har bir o‘quvchining rivojlanishiga ko‘maklashuvchi muhitni yaratish yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, maxsus ta’lim ehtiyojlari, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, o‘rganishni moslashtirish, individual yondashuv.*

Аннотация. *В статье раскрывается значение инклюзивного образования в начальном образовании, анализируются подходы к поддержке каждого учащегося, в том числе детей с особыми образовательными потребностями. В данной статье анализируются значение, возможности и методы использования мультимедийных материалов в эффективной организации процесса инклюзивного образования в начальном образовании. В статье выделяются методы, помогающие педагогам организовать инклюзивное образование, а именно: дифференцированный подход, работа в малых группах, использование мультимедийных материалов, создание среды, поддерживающей развитие каждого учащегося.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, начальное образование, особые образовательные потребности, поддержка учащихся, адаптация обучения, индивидуальный подход.*

Abstract. *The article reveals the importance of inclusive education in primary education, analyzes approaches to supporting each student, including children with special educational needs. This article analyzes the importance, possibilities and methods of using multimedia materials in the effective organization of the inclusive education process in primary education. The article highlights methods that help teachers organize inclusive education, namely, a differentiated approach, working in small groups, using multimedia materials, creating an environment that supports the development of each student.*

Keywords: *inclusive education, primary education, special educational needs, student support, adaptation of learning, individual approach.*

Bugungi kunda ta’lim tizimi inson huquqlari va imkoniyatlar tengligiga asoslangan holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida inklyuziv yondashuvni qo‘llash dolzarb masalaga aylangan. Inklyuziv ta’lim – bu nogironligi bo‘lgan yoki boshqa individual ehtiyojlarga ega bolalarni umumiy ta’lim muhitiga integratsiya qilish jarayonidir. Ushbu jarayonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, **multimedia materiallari** muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich ta’limda inklyuziv ta’lim - bu har bir bolaning xususiyatlari va ta’lim ehtiyojlaridan qat’i nazar, ta’lim jarayonida to‘liq ishtirok etishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratishga qaratilgan yondashuv. Inklyuzivlikning asosiy maqsadi barcha o‘quvchilar, shu jumladan, imkoniyati cheklangan, o‘qishda qiyinchiliklar yoki xulq-atvori o‘ziga xosligi bo‘lgan bolalar uchun qulay va sifatli ta’lim olishini ta’minlashdan iborat. Inklyuzivlik tamoyillari imkoniyatlar tengligi, individual farqlarni hurmat qilish, har bir o‘quvchining ehtiyojlariga e’tibor berish va barcha bolalarning maktab hayotidagi faol ishtirokini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun inklyuziv ta’lim bolalarni juda erta yoshdanoq farqlarni tushunish va hurmat qilishga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga va yordam berishga o‘rgatish, o‘ziga ishonch va har bir shaxsning o‘ziga xosligini hurmat qilishga o‘rgatish imkoniyatidir. Inklyuziv ta’limning asosiy usullaridan biri ta’limni differentsiallashtirishdir. Differentsial yondashuv bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish va turli darajadagi qiyinchilikdagi vazifalarni yaratish imkonini beradi. Masalan, matematikadan yangi mavzuni o‘rganayotganda o‘qituvchi asoslarni o‘zlashtirish uchun asosiy vazifalarni va chuqur o‘rganishga tayyor bo‘lganlar uchun murakkabroq vazifalarni taklif qilishi mumkin. Bunday yondashuv har bir o‘quvchiga o‘zini qulay his qilishiga va uning tayyorgarlik darajasiga mos keladigan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishiga yordam beradi. Yana bir misol, matn ma’lumotlarini idrok etishda qiynalayotgan bolalar uchun vizual yordamdan foydalanish. Diagrammalar, chizmalar va rasmli kartalar bolalarga o‘quv materialini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish uchun kichik guruhlarda ishlashdan foydalanish muhimdir. Guruh ishi ijtimoiylashuv va o‘zaro yordamni rag‘batlantiradi, bu alohida ehtiyojli bolalar uchun ayniqsa muhimdir. Masalan, matnni o‘qiyotganda yoki matematika topshiriqlarini bajarayotganda o‘qituvchi bolalarni guruhlarga to‘plashi mumkin, bunda har bir kishi o‘z imkoniyatlari doirasida vazifalarni bajaradi, o‘quvchilar esa bir-biriga yordam beradi. Bu nafaqat jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki turli qobiliyat va xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalarning jarayonda faol ishtirok etishiga imkon beradi. Guruhlarda ishlash bolalarda hamkorlik, empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va har kimga umumiy ishning bir qismini his qilish imkonini beradi, sinfga tegishlilik tuyg‘usini kuchaytiradi. Multimedia materiallaridan foydalanish inklyuziv ta’limning yana bir muhim vositasidir. Vizual va audio materiallar jarayonni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi, ayniqsa idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar uchun. Masalan, tabiat hodisalari yoki tarixni o‘rganishda bolalar e’tiborini jalb qilish va murakkab ma’lumotlarni tushunishni osonlashtirish uchun video, audio yozuvlar, animatsiya va interfaol o‘yinlardan foydalanish mumkin. Ushbu materiallar, ayniqsa, hissiy yoki kognitiv nogironligi bo‘lgan bolalar uchun foydalidir, chunki ular turli xil idrok kanallari orqali ma’lumot olish va o‘rganishni o‘z ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatini beradi. Inklyuziv muhit yaratish o‘quv materiallari va topshiriqlarini ham moslashtirishni talab qiladi. Bu, masalan, o‘qishda qiynalayotgan bolalar uchun matnlarni osonlashtirish, qo‘shimcha vaqtga muhtoj bo‘lganlar uchun ish hajmini kamaytirish yoki mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar bilan ta’minlashni o‘z ichiga olishi mumkin. O‘qituvchi qiyinchilikka uchragan bolalar uchun faqat asosiy materiallarni o‘z ichiga olgan individual topshiriq kartalarini va chuqurroq o‘rganishga tayyor bo‘lganlar uchun qo‘shimcha kartalarni ishlab chiqishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, inklyuziv ta’lim nafaqat o‘quv materiallarining mavjudligi, balki har bir bolaning mustaqil ishlashi va yutuqlari uchun imkoniyat yaratishdir. Ota-onalar va mutaxassislar bilan o‘zaro munosabatlarga alohida e’tibor berilishi kerak. Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining ta’lim jarayonida muhim hamkorlari bo‘lgan ota-onalarning yordamiga bog‘liq. Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish o‘qituvchiga bolaning xususiyatlarini va ehtiyojlarini yaxshiroq

tushunishga, maktabda va uyda o‘qishni muvofiqlashtirishga va qiyinchiliklarga o‘z vaqtida javob berishga imkon beradi. Masalan, agar o‘qituvchi bolaning guruhga moslashishi yoki o‘quv materialini o‘zlashtirishi qiyinligini sezsa, ota-onalar bilan birgalikdagi sa’y-harakatlar o‘qitishning yanada mos usullari va shakllarini topishga yordam beradi. Psixolog, logoped va maxsus ta’lim o‘qituvchilari kabi mutaxassislar ham inklyuziv ta’limda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular zarur yordamni ko‘rsatishi va o‘qituvchiga o‘quv jarayonini har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirishga yordam berishi mumkin.

O‘qituvchining eng muhim vazifasi sinfda o‘zaro hurmat va qabul qilish muhitini yaratishdir, bu ayniqsa alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun muhimdir. O‘qituvchi empatiya o‘yinlari, odamlarning o‘ziga xosligi va farqlari bilan bog‘liq mavzularda sinf bilan muhokama qilish kabi usullardan foydalanishi mumkin. Misol uchun, siz individuallikka bag‘ishlangan darsni tashkil qilishingiz mumkin, unda bolalar o‘zlarining qiziqishlari va sevimli mashg‘ulotlari haqida gapiradilar, kimdir boshqalardan farq qilsa ham, bir-birlarini hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash qanchalik muhimligini muhokama qiladilar. Bunday yondashuv nafaqat alohida ehtiyojli bolalarga, balki butun sinfga muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda inklyuziv ta’lim - bu har bir bola o‘zini muhim va qadrli his qiladigan qulay muhitni yaratishga qaratilgan jarayondir. O‘qituvchining o‘quvchilarga individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘rsatadigan yordami har bir kishiga o‘z qobiliyatlarini ochishga, yangi narsalarni o‘rganishga va o‘zlari uchun qulay bo‘lgan darajada rivojlanishiga imkon beradi. Farqlash, guruhda ishlash, materiallarni moslashtirish va ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish orqali o‘qituvchi sinfdagi barcha bolalarni to‘liq o‘rganish va tarbiyalash uchun sharoit yaratadi. Inklyuzivlik farqlarga hurmatni kuchaytiradi, bolalarni har bir insonning qadr-qimmatini ko‘rishga o‘rgatadi va maktabda o‘qishni hamma uchun haqiqatdan ham ochiq qilishga yordam beradi, uyg‘un va qo‘llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratadi. Boshlang‘ich ta’limda inklyuziv o‘qitishni tashkil etishda multimedia materiallaridan foydalanish o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda samarali o‘quv muhiti yaratish imkonini beradi. Bu esa ta’limning tenglik, qulaylik va sifat tamoyillariga to‘liq mos keladi. Multimedia vositalari orqali darslar yanada jonli, tushunarli va qamrovli bo‘ladi. Shu bois, ularni o‘quv jarayoniga keng joriy etish dolzarb va zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алехина, С.В. «Инклюзивное образование» / С.В. Алехина, Н.Я. Семаго, А.К. Фадина. Вып. 1. М., 2010.
2. Василенко, А.Ю. Экзистенциональная позиция личности педагога как фактор реализации инклюзивного образования детей с особыми образовательными потребностями / А.Ю. Василенко // Инклюзивное образование: проблемы, поиски, решения : материалы междунар. науч.-практ. конф. (сентябрь, 2012 г.). Якутск, 2011. С. 209–211.
3. Алехина С. В. Инклюзивное образование: от политики к практике // Психологическая наука и образование. - 2016. - Т. 21, № 1. - С. 136-145.
4. Ванюшкина Л. М., Коробова Е. Н. Культурно-образовательные практики: новый образовательный формат // Мир науки, культуры, образования. - 2017. - № 3. - С. 197-199.
5.Инклюзивное образование в Испании. Пашкова.М, Скуднова. Т.Д.2018.
6. Екатерина Михальч. Инклюзивное образование. 2021.
7. Наталья Микляева, Татьяна Чудесникова, Анна Виленская, Ольга Кудравец, Светлана Семенака. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья. Москва Юрайт. 2021.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA LOYIHAVIY TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOLANTIRISH

Ro‘ziyeva Zulayo Samatovna
ISFT instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada loyihalash faoliyatiga ta’rif berish bilan birga loyihalash metodining ta’lim sifatini oshirishdagi bir qancha asosiy va o‘ziga xos belgilari ko‘rsatilgan O‘quvchi shaxsining shakllanishida yakuniy xolis va aniq xulosa yasashga yordam berishga qaratilgan loyiha ta’limining asosiy xususiyatlari misollar yordamida aks ettirilgan va ta’lim samaradorligini yanada oshirishda qo‘l kelishi ilmiy xulosalangan.*

Kalit so‘zlar: *loyiha, ta’lim tizimi, o‘quvchi, innovatsion texnologiya, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, loyihalash faoliyati, pedagogik ta’lim.*

O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, jumladan xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish hamda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Loyiha – yakka tartibda yoki hamkorlikda amalga oshiriladigan, tadqiqot yoki dizaynni o‘z ichiga olgan, ma’lum bir maqsadga erishish uchun ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilgan har qanday tashabbus[2].Boshqaruv nuqtai nazaridan loyihaning muqobil ko‘rinishi voqealar ketma-ketligiga asoslanadi: „belgilangan vaqt davomida va ma’lum xarajatlar va boshqa cheklovlar doirasida bajarilishi kerak bo‘lgan o‘zaro bog‘liq vazifalar to‘plami“[3].Loyiha vaqtinchalik ijtimoiy tizim (mehnat tizimi) bo‘lishi mumkin, ehtimol vaqt cheklovlari ostida muayyan vazifalarni bajarish uchun jamoalar bilan ta’minlangan bo‘ladi[4].Loyiha dastur boshqaruvining bir qismini tashkil qilishi mumkin[5] yoki *maxsus* tizim sifatida ishlashi mumkin[6].*Loyiha* so‘zi lotincha *proicere*, „harakat oldidan“ fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, u o‘z navbatida *pro-* dan kelib chiqqan va u ustuvorlikni bildiradi (vaqt o‘tishi bilan boshqa narsadan oldin keladigan narsa (yunoncha prō) va *iacere*, „qilmoq“). Shunday qilib, „loyiha“ so‘zi dastlab „harakatdan oldin“ degan ma’noni anglatadi.Ingliz tili bu so‘zni dastlab qabul qilganda, u ushbu rejani amalga oshirish harakatiga emas, balki biror narsaning rejasiga ishora qildi. Loyihaga muvofiq bajarilgan narsa " obyekt " sifatida tanildi. Har bir loyiha rivojlanishning ma’lum bosqichlariga ega.Loyihani boshqarish institutiga asoslanib, loyiha jamoalar, tashkilotlar yoki jamiyatlarda o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan „vaqtinchalik harakat“ sifatida belgilanishi mumkin. Loyihaning natijasi odatda yangi mahsulot turi, xizmat yoki natija hisoblanadi[3].Loyiha muammo, ehtiyoj, istak yoki noqulaylik manbai (masalan, binoda to‘g‘ri ventilyatsiya yo‘qligi) bilan duch kelganda idrok etilgan imkoniyatdan kelib chiqqan aniq va uyushgan harakatlardan iborat. U mahsulot, xizmat, jarayon yoki ba’zi hollarda ilmiy tadqiqot kabi noyob va innovatsion mahsulotni amalga oshirishga intiladi. Har bir loyihaning boshlanishi va oxiri

bor[8]. U loyihani boshqarishning 4 ta punkti bo‘yicha ishlab chiqilgan: Reja, jarayonlar, odamlar va kuch (masalan, vakolat doirasi). U uch xil cheklovlar bilan bog‘langan bo‘lib, ular kalendar, xarajatlar va sifat me’yorlari[5]. Ularning har biri loyihaning hayot aylanishi davomida obyektiv ravishda aniqlanishi va o‘lchanishi mumkin. Ba’zi loyihalar rasmiy hujjatlarni, natijalarni (lar) va ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin bo‘lgan ba’zi ta’sirlarni ishlab chiqaradi[1].Loyiha – bu talabalar tomonidan puxta rejalashtirilgan va o‘rganiladigan individual yoki hamkorlikdagi korxona. Maktablarda, ta’lim muassasalarida va universitetlarda loyiha – bu talabaga beriladigan tadqiqot topshirig‘i bo‘lib, u odatda oddiy insho topshirig‘iga qaraganda ko‘proq kuch va mustaqil ishni talab qiladi. Bu talabalardan kutubxona, internet tadqiqotlari yoki empirik ma’lumotlarni to‘plash orqali faktlarni aniqlash va tahlil qilishlarini talab qiladi. Loyihadan keladigan yozma hisobot odatda dissertatsiya shaklida bo‘lib, unda loyihaning boshlanishi, tahlili, topilmalari va xulosalari bo‘limlari mavjud[5].Loyiha boshqaruvida loyiha yangi mahsulot, xizmat yoki natijani yaratish uchun qilingan vaqtinchalik harakatlardan iborat[6]. Boshqa bir ta’rif, belgilangan biznes holatiga ko‘ra, bir yoki bir nechta biznes mahsulotlarini yetkazib berish maqsadida yaratilgan boshqaruv muhitidir[3]. Loyihalarni vaqtinchalik tashkilotlar sifatida ham ko‘rish mumkin[4].

Loyihaning maqsadlari loyiha yakunida maqsadli maqomni belgilaydi, unga erishish rejalashtirilgan foydalarga erishish uchun zarur deb hisoblanadi. Ular SMART mezonlari sifatida shakllantirilishi mumkin: Loyihalar ko‘pincha boshqaruvchi guruh tomonidan boshqariladi[15].

- Maxsus
- O‘lchanadigan (yoki hech bo‘lmaganda baholanadigan) yutuq
- Mavjud (Yaqinda kelishilgan yoki qabul qilingan)
- Haqiqiy (tashkiliy resurslarning hozirgi holatini hisobga olgan holda)
- Vaqt (chegaralangan)

Baholash (o‘lchash) loyihaning yopilishida amalga oshiriladi. Biroq, monitoring va baholash orqali loyihaning borishini doimiy ravishda kuzatib borish kerak. Hozirgi paytda o‘quv jarayonida loyiha faoliyati dars jarayonida va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda dolzar masala bo‘lib kelmoqda. Davlat ta’lim standartida o‘quv jarayonida, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim dasturini amalga oshirish shartlaridan biri sifatida belgilangan faoliyat turidagi texnologiyalar va loyihalash va tadqiqot faoliyati usullaridan foydalanishni talab qiladi. Zamonaviy jamiyat maktab oldiga nafaqat maktab o‘quv dasturini biladigan bitiruvchini, balki bilimlarni mustaqil ravishda egallash va qo‘llashga qodir Komil insonni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Buning uchun ijodiy o‘qitish usullari yetakchi rol o‘ynaydi. Loyihaviy tadqiqotchilik faoliyati innovatsion pedagogik vositalar va usullar qatorida alohida o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari atrofdagi dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni kuzatishni qiziqishadi, ular ba’zida hayoliy farazlarni ilgari surishlari, savollariga javob topishlari mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilarning qiziqish sohasi turlicha: ular fizik-kimyoviy jarayonlar, hayvonot va o‘simlik dunyosi, narsalarning kelib chiqishi, bir daqiqaning narxi, san’at, psixologiya bilan qiziqishadi. Ularning qiziqishini o‘stirish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ushbu ijodiy faoliyatga to‘g‘ri yondashuvni o‘rgatish muhimdir. Ammo, birinchi navbatda, o‘qituvchining o‘zi ilm-fan natijalariga erishish uchun loyiha-tadqiqot ishlarining ahamiyati va zarurligini tushunishi kerak. Loyiha va tadqiqotchilik faoliyati-bu ijodiy ish bo‘lib, maqsadga muvofiqligi, faolligi, obyektivligi, motivatsiyasi va ongi bilan ajralib turadigan o‘quvchilarga maxsus tashkil etilgan kognitiv ijodiy

faoliyati bo‘lib, uning natijasida kognitiv motivlar, tadqiqot qobiliyatlari, o‘quvchilar uchun yangi bilimlar yoki faoliyat usullarini shakllantirishdir.

Loyihaviy va tadqiqotchilik faoliyati:

O‘quvchilar va kattalar bilan mustaqil va qo‘shma tadqiqotlar doirasida bolalarni nafaqat olingan bilimlarni qo‘llashni, balki yangilarini egallashni ham talab qiladigan muammolarni hal qilishga o‘rgatadi;

Shaxsiy fazilatlarni ochib beradi;

O‘z-o‘zini hurmat qilish, motivatsiya va o‘quv faoliyatiga qiziqishni oshiradi;

O‘quvchilarga nostandart vaziyatlarda o‘zlariga ishonch his qilishlariga yordam beradi;

Ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni, umumlashtirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyihaviy tadqiqotchilik faoliyati orqali o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalarni rivojlantirishimiz mumkin? Ushbu masalani tushunish uchun maktab o‘quvchilarining loyihaviy faoliyati konsepsiyasini ko‘rib chiqish, shuningdek uning asosiy vazifalarini aniqlash kerak. Loyiha faoliyati o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarining bir qismidir. Yaxshi bajarilgan loyiha-bu sizning harakatlaringizni bosqichma-bosqich rejalashtirish, ishingiz natijalarini kuzatish.

Pedagogik loyiha-bu ijtimoiy ahamiyatga ega vazifani hal qilishga tayyorlikni shakllantiradigan kengaytirilgan didaktik birlikni o‘zlashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakli. Keling, buni aniqlik kiritaylik, kengaytirilgan didaktik birlik- bu ta’lim jarayonining ajralmas elementi, bir xil mazmunli mantiqiy turli elementlardan tashkil topgan o‘rganishning" hujayrasi" mavjud bir vaqtning o‘zida ta’lim va kognitiv hamjamiyat.

Quyidagi jadvalda o‘quvchining loyiha jarayonida qatnashishi natijasida ega buladigan xususiyatlari va hislatlari keltirib o‘tilgan.

Loyiha ta’limining asosiy xususiyatlari

Xususiyatlari	Asosiy belgilari
O‘rganish	Tajribadan xulosa chiqarishga o‘rganish; Aniq muammoni hal etishning yo‘llarini topishnio‘rganish; O‘z bilimlarini umumlashtirishni o‘rganish; O‘z-o‘zini o‘qitish; Ta’lim olishning shaxsiy usul va vositalariga ega bo‘lish
Izlash	Ma’lumotlar bazasidan foydalanish; Atrofdagilar fikrini o‘rganish; Mutaxassislardan maslahat olish; Ma’lumot yig‘ish Xujjatlar bilan ishlashni o‘rganish va ularnitasniflash
O‘ylash	Axborotga tanqidiy yondoshish; Sodir bo‘lgan va bo‘layotgan voqealarni bir-biriga bog‘lash; Qiyinchiliklar va o‘ziga nisbatan ishonchsizlikni yengib o‘tish; Munozaralarda o‘z fikrini bayon qila olish; Siyosiy va iqtisodiy muhitning dolzarbligiga baho berishinson salomatligi va atrof muhit bilan bog‘lik har xil illatlar,odatlarga baho bera olish

Hamkorlik qilish	Jamoada ishlash va muloqot qila olish; Qarorlar qabul qilish Kelishmovchiliklarni bartaraf qilish, murosaga kelish; Shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish; Intellektual mulkni himoya qila olish
Ishga kirishish	Loyihaga qo‘shilish Zarur sharoitda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish validerlik pozitsiyasini egallash Jamoaga o‘z xissasini qo‘shish Xamjihatlikni ko‘rsata olishIshni tashkil qila olish Hisoblash asboblaridan foydalana olish Mahsulot va texnologiyalarni taqdimotini o‘tkazish
Moslashish	Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanaolish Tezkor o‘zgarishlar oldida moslashuvchanlikqobiliyatlarini ko‘rsata olish Mashaqqatlar oldida mustahkam irodali ekanini ko‘rsataolish Yangi qarorlarni topa olish.

O‘quvchida loyiha ta’limining bu kabi xususiyatlarini shakllantirishda bilim, tafakkur bilan birgalikda qobiliyat ham katta o‘rin tutadi.

O‘quvchi qobiliyatli bo‘lishi uchun mukammal bilim berilishi kerak. O‘qitish orqali erishilgan bilim, tajriba, qadriyatlar, qiziqishlar yig‘indisi o‘quvchining qobiliyatli, iqdidorli bo‘lib, zamon talablariga javob bera oladi gan shaxs bo‘lib shakllanishida namoyon bo‘ladi. Komuslarda “qobiliyat”(“kompetensiya”) (lotinchada-mos kelmoq, iqtidor, qobiliyat) tushunchasi ikki ma’noni anglatishi ko‘rsatiladi:

- tashqi omillarning shaxsning tabiatiga ta’siri natijasida shakllanadigan xususiyat ma’nosida;
- shaxsning ma’lum bir sohadagi bilim va tajribalari yig‘indisi ma’nosida.

Demak qobiliyat- ma’lum sohada samarali qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi bilimlar yigindisi bo‘lib, biror faoliyat bilan shug‘ullanishning eng maqbul ko‘rinishi hisoblanadi. Iqtidorli, qobiliyatli o‘quvchi tanqidiy mushohada yurita olish xususiyatiga ega bo‘lish bilan bir qatorda, fikrlar ichidan eng optimal va anig‘ini tanlay olish ko‘nikmasini egallagan bo‘ladi.

Bir qarashda loyiha metodidan ko‘zlangan maqsad ishning natijasi, yakuniy xulosaga erishishdek tuyuladi. Biroqmasalaning ikkinchi tomoni ham borki, o‘quvchi egallagan bilim va ko‘nikmalari orqali o‘z ustida ishlashi, ma’lumot yig‘ishi, masalaningyechimini mustaqil tarzda izlashi va bilimlarini amalda qo‘llay olish xususiyatlarning shakllanishi bilan ahamiyatli bo‘lib, pedagogik samaradorlikning yaqqol ifodasi desak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatinibirgalikda barpo etamiz. -T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Sherbo I. Vtoroye prishestviye metoda proyektov // Direktor shkoli. 2003. №3. – S. 25-32.
3. Ruziyeva Z. S. Proyektirovaniye urokov «texnologii» v nachalnoy shkole. Pedagogika 6 son, 2023

4. Ruziyeva Z. S. Razvitiye navikov proyektnogo issledovaniya u budushix uchiteley nachalnix klassov. Uzluksiz ta’lim №5,2022.89-93b.
5.Ruziyeva Z. S o’quvchilarning og’zaki hisob malakalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Monografiya .Germaniya 2020
6. Ruziyeva Z.S. Teoreticheskiye osnovi razvitiya logicheskogo mishleniya mladshix shkolnikov. / Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim mazmunini yanada takomillashtirish istikbollar.Muammo va yechimlari.respublika ilmiy nazariy anjumani.2022 yil. 25 aprel Buxoro Durdona nashriyoti/ ISBN978-9943-8159-8-8 © BUXDU PEDAGOGIKA INSTITUTI. 658-663S

YOSHLAR XULQ-ATVORIDA MILLIY QADRYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING RAQAMLI VIZUAL TEXNOLOGIYALARI

Jabborov Xazrat Xusenovich
Toshkent davlat sharqshunoslik hamda Aniq va ijtimoiy fanlar universitetlari professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar xulq atvorida milliy qadryatlarni shakllantirishning raqamli vizual texnologiyalari nazariy va amaliy misollar bilan tahlil qilingan va eng so‘nggi tadqiqotlarni ilmiy xulosalari keltirilgan. Shuningdek, maqolada milliy kontentlarimizni milliy qadriyatlar bilan to‘ldirishning psixologik asoslar va raqamli vizual texnologiyalarning yoshlar xulq-atvorida milliy qadriyatlar shakllanishiga ta’siri masalasi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: xulq-atvor, qadriyat, texnologiya, milliy kontent, ma’naviy ozuqa, axloqiy qoidalar, ma’naviy tarbiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются цифровые визуальные технологии формирования национальных ценностей в поведении молодежи с теоретическими и практическими примерами и приводятся научные выводы новейших исследований. В статье также раскрываются психологические основы наполнения нашего национального контента национальными ценностями и влияние цифровых визуальных технологий на формирование национальных ценностей в поведении молодежи.*

Ключевые слова: *поведение, ценность, технология, национальное содержание, духовное питание, нравственные правила, духовное воспитание.*

Annotation*: This article analyzes the digital visual technologies of the formation of national values in the behavior of young people with theoretical and practical examples and presents the scientific conclusions of the latest research. The article also reveals the psychological foundations of filling our national content with national values and the impact of digital visual technologies on the formation of national values in the behavior of young people.*

Keywords: *behavior, value, technology, national content, spiritual nourishment, moral rules, spiritual education.*

Bugungi kunda yoshlar xulq-atvorida milliy qadryatlarni shakllantirishning raqamli vizual texnologiyalari dozlarb mavzulardan biri bo‘lib turibdi. Prezidentimiz raisligida joriy yilning15-may kuni maktab ta’limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bugunning juda muhim, og‘riqli muammolaridan biriga aylanib borayotgan yoshlar xulq-atvorida milliy qadryatlarni shakllantirish masalasiga yechim berildi.

Bu – bolalarimizning ma’naviyatini avaylab-asrash, zararli g‘oyalarga qarshi g‘oya bilan qarshi tura oladigan, bolalar tilida yozadigan, gapiradigan kontent yaratish. Milliy kontenlarda yoshlar xulq-atvorida milliy qadryatlarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy, ilmga asoslangan, xaqchil texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish. Davlatimiz rahbari bu muammoning ham tub ildizini ko‘rsatdi.

Maktablarda ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazyapmiz. Lekin ular o‘qiydigan, ko‘radigan, eshitadigan milliy kontent bo‘lmagani uchun muayyan darajada ma’naviy bo‘shliq yuzaga kelayotgan edi. Bolalarning bo‘sh vaqtida zavq bilan o‘qiydigan, ko‘radigan, eshitadigan, eng muhimi, bolalar uchun maxsus milliy kontent yaratish muammosi yechildi. Prezident qarori bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti markazga ilmiy-metodik jihatdan ko‘makchi bo‘ldi.

Yoshlar xulq-atvorida milliy qadryatlarni shakllantirishning raqamli vizual texnologiyalari asosida milliy kontenlar yaratish muammosining dolzabligini pedagogika fanlari doktori, porofessor Muhamadjon Quronovning Yangi O‘zbekiston gazetasining 2025-yil 17-may sonida nashr qilingan "Milliy kontent -milliy media dasturxoni" maqolasi bilan izohlash mumkin.

M.Quronov maqolasida – “Yoshlar xulq-atvorida milliy qadryatlar, milliy fazilatlarni shakllatnirishga qaratilgan milliy kontentlarni yaratish bu juda katta strategik voqea. Bolalarimizning m’naviy himoyasi, mafkuraviy immuniteti masalasi” deb yozadi.

Shuningdek, M.Quronov maqolasida kattalar ham, bolalar ham har kuni ikki tur — moddiy va ma’naviy ozuqa bilan oziqlanadi. “Biz nima yegan bo‘lsak, o‘shamiz” degan gap bor. Bu odam ovqat, meva, ichimlikdagi kimyoviy elementlarni hazm qiladi, qanday elementlarni yeb-ichsa, o‘shalarning izmida bo‘ladi degani. Shuning uchun odam yeydigan narsalarni ko‘rib, tekshirib, keyin iste’mol qiladi. Biladiki, yomon ovqat kasal qiladi.

Tajribasiz bolalar esa adashadi. Ma’naviy ovqat bu — xabar, matn, mem, post, qo‘shiq, bashara. Har tong o‘z menyusi, takliflari bilan o‘tadi. Har kunning o‘z xabarlari — ma’nolari, ma’naviy menyusi bor. U har daqiqa, soniyada yangilanib boradi. Shuning uchun chorshanbaning media (ma’naviy) dasturxoni menyusi shanba kuniga yaramaydi. Telefonimiz — o‘zimiz bilan birga yuradigan shaxsiy, ko‘chma ma’naviy dasturxonimiz.

Ma’naviy ozuqa ko‘z va quloq bilan yeyiladi. Mana shu ma’naviy dasturxon — kontent. Menimcha, “bolalar milliy kontenti” jumlasidagi “milliy”ni ikki ma’noda tushunishimiz kerak. Biri — davlat kontenti ma’nosida. Ikkinchisi — milliy-madaniy, o‘zbek ma’naviyati ma’nolarida. Bolalar milliy kontenti yoshlar tarbiyasida davlat va millat manfaatlari birligining media ifodasi.

U davlat va millat manfaatlarini olg‘a surishi, himoya qilishi va shaksiz ustuvor tutishi darkor. “Yomon bo‘lsa ham o‘zimizniki”, “Bizga bo‘laveradi” degan qarash bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Nima demoqchimiz? Global mediadasturxonga tortayotgan taomlarimiz shirin, aqlli, foydali, sifatli bo‘lishi kerak degan nodir ilmiy xulosalarini aytib o‘tishimiz mumkin.

Demak mazkur maqoladan shunday xulosa olish mumkin yoshlarni ma’naviy ozuqasi bu milliy fazilatlar va milliy qadriyatlar, bu ozuqalar ma’naviy dasturxon ya’ni milliy kontentlarimizda bo‘lshi kerak.

Yoshlar xulq-atvorida milliy qadriyatlarni shakllantirishda raqamli vizual texnologiyalarda quyidagicha omillar inobatga olinishi kerak:

Milliy qadriyatlar aks etgan raqamli vizual texnologiyalar tushunchasi. Milliy qadriyatlar aks etgan raqamli vizual texnologiyalar - bu tasvir, video, animatsiya, virtual va kengaytirilgan

haqiqat, infografika, ijtimoiy tarmoqlar orqali beriladigan interaktiv, ko‘rgazmali vositalar bo‘lib, ular milliy kontentda milliy tarbiya milliy qadriyatlarni uzatishda kuchli vosita hisoblanadi.

Raqamli vizual texnologiyalarning yoshlar xulq-atvorida milliy qadriyatlar shakllanishiga ta’siri masalasi. Yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda bu texnologiyalar:

- ko‘rgazmali ta’sir bilan emotsional ta’sir kuchayadi (video lavhalar, hikoyalar, dramatizatsiya orqali);
- interaktivlik orqali faol ishtirok va mustahkamlash ta’minlanadi (ilovalar, mini-o‘yinlar);
- o‘ziga xos milliy obrazlarni yaratish orqali madaniy identitetni rivojlantiradi (milliy qahramonlar, tarixiy voqealar asosidagi kontent).

Yoshlar xulq-atvorida milliy qadriyatlar shakllanishida asosiy vizual texnologiyalarlarga quydagilarni misol qilib olish mumkin:

a) video va animatsiyalar, milliy urf-odatlar, qadriyatlar haqida qisqa motivatsion roliklar, multfilm va animatsiyalar orqali yosh bolalarga qadriyatlarni o‘rgatish (masalan, “Avlodlar xazinasi” kabi milliy animatsiyalar), real voqealarga asoslangan dokumental filmlar;

b) Virtual (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR), O‘zbekiston tarixini yoki qadimiy shaharlarni 3D formatda VR yordamida “sayr qilish” imkoniyati, Mobil AR ilovalarda milliy kiyimlar, urf-odatlar yoki maqollar bilan interaktiv tanishish (masalan, “Milliy qadriyatlar AR” ilovasi);

c) Infografika va interaktiv darslar, darslarda infografika va vizual xaritalar yordamida qadriyatlar strukturasi, manbalari, tarixi tushuntiriladi; Gamifikatsiyalashgan platformalar: masalan, o‘yin ko‘rinishida milliy madaniyat bo‘yicha testlar, topishmoqlar.

d) Ijtimoiy tarmoqlarda kompaniyalar. TikTok, Instagram, YouTube platformalarida yoshlar orasida flashmoblar, #Milliyqadriyatchallenge kabi kampaniyalar; Blogerlar va ta’sirli shaxslar orqali ijobiy qadriyatlar targ‘iboti.

Yoshlar xulq-atvorida milliy qadriyatlar shakllanishida mazkur masalaning metodlogik asos bo‘ladigan ayrim ilmiy nazariyalarni ko‘rib chiqamiz:

Tadqiqotchi A.Bandura sotsial ta’lim nazariyasida yoshlar xulq-atvorida milliy qadriyatlar shakllanishida vizual modellar orqali o‘rganish ijtimoiy xulq-atvorga ta’sir qiladi degan ilmiy xuloslar mavjuda.

Tadqiqotchi Richard Mayers Multimedia o‘qitish nazariyasi vizual va verbal kontent uyg‘unligi bilish samaradorligini oshiradi deb hisoblaydi. O‘zining mazkur nazariyasida multimedia materiallar (matn, rasm, audio, video) yordamida bilimlarni o‘zlashtirish, agar ular psixologik tamoyillarga mos yaratilsa, samaraliroq bo‘lishi, odamlar ma’lumotni ikkita asosiy kanalda qayta ishlaydi: Vizual-kanal (ko‘rish, ya’ni matn va rasm) hamda Audial kanal (eshitish) orqali deb xulosa chiqaradi.

“Yoshlar xulq-atvorida milliy qadriyatlarni shakllantirishning raqamli vizual texnologiyalari” mavzusidagi tadqiqotimizga quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

Raqamli vizual texnologiyalar milliy qadriyatlarni samarali singdirish vositasiga aylanmoqda. Yoshlar multimedia vositalari (video, infografika, animatsiya) orqali an’anaviy madaniyat, urf-odat va axloqiy me’yorlarni chuqurroq va tezroq anglaydi.

Vizual obrazlar orqali milliy identitet yanada barqaror shakllanadi. Milliy ramzlar, tarixiy shaxslar, urf-odatlar tasvirining raqamli ifodasi yosh ongida ijobiy assotsiatsiyalar hosil qilib, vatanparvarlik va milliy g‘ururni mustahkamlaydi.

Interaktiv vizual platformalar yoshlarni faol ishtirokka undaydi. Gamifikatsiya, virtual reallik (VR), animatsion rolli o‘yinlar orqali yoshlar o‘zini milliy madaniyatning faol subyekti sifatida his qila boshlaydi.

Raqamli vositalar orqali milliy qadriyatlar zamonaviy formatda talqin etiladi. Shakl jihatdan zamonaviy, mazmunan esa an’anaviy bo‘lgan vizual mahsulotlar (masalan, TikTok videolaridagi milliy raqslar) qadriyatlarni zamon ruhiga mos uzatishga xizmat qiladi.

Vizual kontentga asoslangan raqamli ta’lim vositalari axloqiy xulqni shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Didaktik videoroliklar, axloqiy hikoyalar asosidagi komikslar va animatsiyalar yoshlarning ijtimoiy xatti-harakatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Quronov. "Milliy kontent - milliy media dasturxoni" nomli Yangi O‘zbeksiton gazetasining 2025 yil 17 may sonida nashr qilingan.
2. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия : Изучение влияния воспитания и семейных отношений / Альбер Бандура, Ричард Уолтерс; Пер. с англ. Ю. Брянцевой, Б. Красовского. — М. : Апрель Пресс : ЭКСМО-Пресс, 2000. — 509 с. (Психология. XX век) ISBN 5-04-004214-0
3. Richard Mayers. Multimedia Learning. New York: Cambridge University Press, 2001 ISBN 978-0-521-78749-9
4. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.

UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA OILADA MA’NAVIY BARKAMOL FARZAND TARBIYALASHDA OILAVIY KITOBXONLIKNING AHAMIYATI

Bahronova Mavluda O‘tkir qizi
Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti assistenti
Buxoro davlat universiteti mustqail tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Bugungi globallashuv va axborot asrida insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga chiqmoqda. Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan "Uchinchi Renessans" g‘oyasi — ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatni yuksaltirish orqali jamiyatni barqaror rivojlantirish yo‘lida muhim dastur hisoblanadi. Bu jarayonda farzand tarbiyasi, ayniqsa, ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish — farzand tarbiyasida beqiyos o‘rin tutadi. Ushbu maqolamizda shularni yoritib beramiz.*

Kalit so‘zlar*: Oila, ota-ona, barkamol avlod, ma’naviy qadriyatlar, kitobxonlik, axloqiy qoidalar, ma’naviy tarbiya.*

Annotation*: In today's era of globalization and information, humanity is entering a new stage of development. The idea of the "Third Renaissance," proposed by our President, is a crucial program aimed at the sustainable development of society through the promotion of science, culture, and spirituality. In this process, the upbringing of children—especially raising spiritually mature generations—is one of the most important tasks. From this point of view, fostering and developing a culture of reading within the family plays an invaluable role in the upbringing of children. This article highlights these aspects.*

Keywords*: Family, parents, well-rounded generation, spiritual values, reading culture, moral principles, spiritual upbringing.*

Аннотация: *В современную эпоху глобализации и информационных технологий человечество вступает в новый этап развития. Идея «Третьего Ренессанса», выдвинутая Президентом нашей страны, представляет собой важную программу, направленную на устойчивое развитие общества посредством подъема науки, культуры и духовности. В этом процессе особое значение приобретает воспитание детей, особенно формирование духовно зрелого поколения. С этой точки зрения формирование и развитие культуры семейного чтения играет неоценимую роль в воспитании детей. В данной статье мы освещаем именно эти аспекты.*

Ключевые слова: *Семья, родители, всесторонне развитое поколение, духовные ценности, культура чтения, нравственные нормы, духовное воспитание*

Asosiy qism: Uchinchi Renessans — bu faqat ilm-fan taraqqiyoti emas, balki inson qalbining uyg‘onishi, ijtimoiy ong va tafakkur yangilanishi hamdir. Barkamol avlod — bu nafaqat bilimli, balki yuksak ma’naviyatga ega, sog‘lom tafakkurli, ijtimoiy faol shaxsdir. Bunday shaxsni tarbiyalash esa, avvalo, oilada boshlanadi. Oilada shaxs tarbiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish, ular asosida tegishli malakalar va ko‘nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir.

Oila tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Oilaning shaxs shakllanishidagi roli haqida yoshlarda to‘laqonli tasavvurni shakllantirish.

2. Yoshlarni oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi va oilaviy hayot davomida bo‘ladigan o‘zgarishlar haqidagi bilimlar bilan tanishtirish.

3. Yoshlarda oilaviy hayotda muqarrar sodir bo‘ladigan muammolar, ziddiyatlar haqida ilmiy asoslangan to‘laqonli tasavvurni shakllantirish hamda ularni bu jarayonlarga tayyorlash.

4. Yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo‘nalishdagilaridan esa saqlanishga o‘rgatish.

Oilada tarbiyaning negiziga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo‘lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. O‘zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag‘ri kenglik, mehridaryolik, o‘ta fidoyilik xalqimizga xos xususiyatlardir. Shu boisdan ota-onalarirniz farzandlarning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo‘yicha kasb-hunar egallashlari, odob-axloq qoidlarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalash — mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining garovi. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ushbu jarayon turmush quradigan yigit va qizning bir-biriga har tomonlama munosibligidan boshlanadi. Bo‘lajak ota-onaning sog‘-salomatligi, nasl-nasabi, dunyoqarashi, odob-axloqi, moddiy va ma’naviy darajasining mosligi, turmush qurishga har tomonlama tayyorligi farzand ko‘rish va uning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Oila ahilligi, barkamol farzandlar jamiyat mustahkamligi va ma’naviy yetukligining garovidir. Oilada farzand tarbiyasi u tug‘ilmasdan boshlanmog‘i zarur. Homilador ayolning kayfiyati yaxshi, asablari sokin, iste’mol qiladigan taomlari bola organizmi uchun foydali bo‘imog‘i zarur. O‘z vaqtida yumushlarini bajarib, dam olib, sayr qilib, ovqatlanib, tug‘ilajak bola taqdirini o‘ylash uning vazifasi hisoblanadi. Er-xotin, oilaning boshqa a’zolari o‘rtasidagi sog‘lom ma’naviy muhit, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning behavotir, sog‘lom tug‘ilishiga garov bo‘ladi.

Uchinchi Renessans, ko‘pincha "Ma’naviy Renessans" deb atalib, XXI asrda insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalaydi. Bu jarayon, normal shart-sharoitlarda, insonning

ma'naviy ko‘rinishini, axloqiy qadriyatlarini va madaniy muhitni yangilashga qaratilgan. Ma’naviy tarbiya ushbu davrda muhim rol o‘ynaydi. Quyida uning o‘rni va ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

1. Ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi – ma’naviy tarbiya, shaxsni ahloqiy qoidalar, insoniyat arbobi tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bu jarayon, muloqotni, bir-birini tushunishni va yashashni qadrlashni rivojlantiradi. Uchinchi Renessans davrida ma’naviyatni tiklash orqali insonlar o‘zaro hurmat, adolat va mehr-oqibatga asoslangan jamiyat barpo etishga intilishadi. 2. Ta’lim jarayonining ahamiyati – ma’naviy tarbiya ta’lim tizimining asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, yoshlarga nafaqat ilmiy bilim berishni, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni ham o‘rgatadi. Ta’lim jarayoni ma’naviy tarbiyani rag‘batlantirish orqali bolaning shaxsiyati, fikrlash tarzi va muloqot qobiliyatini yaxshilashga hissa qo‘shadi. Uchinchi Renessansda ta’lim, jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhimdir.

3. Ijtimoiy birlikni mustahkamlash – ma’naviy tarbiya, jamiyatda ijtimoiy birlikni va ahil muhitni yaratishda asosiy vosita hisoblanadi. Ma’naviy qadriyatlar orqali odamlar o‘zaro bog‘lanib, umumiy maqsadga erishishlari osonlashadi. Uchinchi Renessansda bu birlik, globalizatsiya va madaniyatlararo muloqot sharoitida yanada kuchayadi, shuningdek, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlaydi.

4. Shaxsiy rivojlanish va intellektual erkinlik – ma’naviy tarbiya, shaxs individual ravishda o‘zini kashf etishiga, hayotining maqsadini belgilashiga yordam beradi. Uchinchi Renessansda shaxsiy rivojlanish va intellektual erkinlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, insonlarni o‘z potentsialini amalga oshirishga va o‘z qarorlarini o‘zlari qabul qilishga undaydi.

5. Kreativlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirish – ma’naviy tarbiya shuningdek, kreativlikni va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Yangi g‘oyalar, san’at va ilm-fan sohalaridagi yutuqlar, ma’naviy qadriyatlar va axloqiy normalarni inobatga olgan holda yanada rivojlanadi. Uchinchi Renessansda bunday yondashuv, ijtimoiy va ekologik masalalarni hal etishda yangi yechimlarni taklif etishga imkon beradi.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ma’naviy tarbiya muhim strategik vosita bo‘lib, shaxsni ravnaq toptirish, ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, kreativ va innovatsion fikrlashni qo‘llab-quvvatlashda o‘z o‘rniga ega. Bu jarayon, insoniyatni birlashtiruvchi, o‘zaro hurmatga asoslangan va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan ma’naviy asoslarni shakllantirish orqali amalga oshadi. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ma’naviy tarbiyaning o‘rnini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar va ommabop adabiyotlar orqali o‘z ifodasini topadi. Quyida ushbu mavzuga oid ba’zi kitoblar va jurnallardan keltirilgan manbalar:

Ommabop kitoblar: 1. "The Spiritual Child: The New Science on Parenting for Health and Lifelong Thriving" (Megan McClellan va Lisa Miller) - Ushbu kitobda mualliflar ma’naviy tarbiyaning bolalar rivojiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida ilmiy tadqiqotlarni keltirib o‘tadilar. Ular ma’naviyat va farovonlik o‘rtasidagi bog‘lanishni nazarda tutishadi.

2. "Raising Happiness: 10 Simple Steps for More Joyful Kids and Happier Parents" (Christine Carter) - Bu kitobda muallif bolalarning baxtli va ruhiy salomatligini oshirishga qaratilgan ma’naviy tarbiyaning ahamiyatini muhokama qiladi. U bolalar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish mexanizmlarini ko‘rsatadi.

3. "The Tao of Parenting: An Eastern Approach to Parenting" (Michele L. H. Blake va John H. H. Blake) - Kitob, Sharq falsafasidan kelib chiqib, ma’naviy tarbiyaning ahamiyatini va bolalarni ruhiy jihatdan qanday tarbiyalash kerakligini o‘rgatadi. Balki ota-onalarimiz bu kitoblarni o‘qimasligi mumkin. Lekin, bolasida kitobga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish ularning va hammamizning

mas’uliyatimiz hisoblanadi. Ota-ona kitob o‘qisa, boladayam qiziqish uyg‘onadi. Turli ertak kitoblar o‘qib berishdan boshlanadi. Kattaroq bo‘laversa, o‘ziga o‘qitamiz. Yuqori sinf bo‘laversa, voqealar rivoji, muammo va yechimlari xususida kitobni tahlil qilamiz. Bu jarayon bolalarni kitobga bo‘lgan muhabbatini shakllantirmay qo‘ymaydi.

XULOSA. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ma’naviy tarbiyaning o‘rnini o‘rganish uchun yuqorida keltirilgan fikrlar juda muhim bo‘lib, barkamol farzandlarni tarbiyalashimizda ulkan xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan adabiyotlarni o‘qishni maslahat beramiz. Ushbu manbalar orqali ta'lim muhiti, muloqot va ijtimoiy ahamiyatni hisobga olgan holda ma’naviy qadriyatlarni o‘stirishning ahamiyati, o‘zaro hurmat va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Kitobxonlikka mas’ul bu-oila va uning a’zolari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirboev I, “Oilada shaxslararo munosabatlarni takomilashtirish va oila madaniyatini shakllantirish” oila instituti rivojlanishida qadriyatlarning o‘rni: milliy va xorijiy tajriba xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2022-yil 17-may
2. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences.volume 2 | issue 1 issn 2181-1784 scientific journal impact factor. Sjif 2021: 5.423.
3. Bahronova.M.O‘ “Oilada farzandni barkamol qilib tarbiyalashda milliy tarbiyaning ahamiyati” inter education & global study. 2025. №2.
4. Bahronova.M.O‘ “Oilada farzandni barkamol qilib tarbiyalash yo‘llari” Science shine international scientific journal issue 1 volume 1 | issn 3030-377x | 15.01.2025
5. Quronov M, X.Jabborov “Yosh ota-ona kitobi”.“Muharrir” nashriyoti T:.2018 y.

RAQAMLASHTIRISH VA INKLYUZIVLIK MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI MARKAZIY MASALA

Usmonova Dilnoza Toshmamatovna
Navoiy davlat universiteti, dotsent
Xo‘jamova Yulduz Ostana qizi
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayoni va inklyuziv ta’lim tamoyillarining integratsiyasi yoritilgan. Ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish masalalari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini raqamlashtirish, ta’lim muhitining inklyuzivligini hisobga olgan holda, uning qulayligi va moslashuvchanligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziya, raqamli resurslar, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati, raqamli resurslarning moslashuvi, nogironlarning raqamli ijtimoiylashuvi.*

Аннотация. *В статье рассматривается процесс цифровизации и внедрения принципов инклюзивного образования в систему дошкольного образования. Будут проанализированы вопросы создания равных образовательных возможностей для детей с ограниченными возможностями посредством внедрения цифровых технологий в образование. Цифровизация*

образовательного процесса в дошкольной образовательной организации рассматривается с позиции ее удобства и гибкости с учетом инклюзивности образовательной среды.

Ключевые слова: *инклюзия, цифровые ресурсы, доступ к цифровым технологиям, адаптация цифровых ресурсов, цифровая социализация людей с ограниченными возможностями.*

Abstract. *This article discusses the process of digitization and the integration of the principles of inclusive education in the preschool education system. The issues of creating equal educational opportunities for children with disabilities through the introduction of digital technologies in education are analyzed. The digitization of the educational process in a preschool educational organization is considered from the point of view of its convenience and flexibility, taking into account the inclusiveness of the educational environment.*

Keywords: *inclusion, digital resources, access to digital technologies, adaptation of digital resources, digital socialization of people with disabilities*

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – raqamlashtirish va inklyuzivlikni ta’lim jarayoniga samarali joriy etishdir. Ayniqsa, maktabgacha ta’limda bu masala muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, erta yoshdagi tarbiya va ta’lim inson shaxsini shakllantirishning negizidir. Raqamli texnologiyalar vositasida barcha bolalarga, shu jumladan nogironligi yoki boshqa rivojlanish xususiyatlari bo‘lgan bolalarga ham sifatli ta’lim olish imkonini yaratish – bu zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishidir.

Raqamlashtirish maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, pedagoglarning ishini yengillashtirish va bolalarning individual rivojlanishini nazorat qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv o‘yinlar, virtual muhitlar, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan metodikalar bolalarda motivatsiyani oshiradi va o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida quyidagi raqamlashtirish yo‘nalishlari faol rivojlanmoqda:

- Raqamli kundaliklar va elektron monitoring tizimlari;
- AKT vositalari orqali o‘qituvchilarning malakasini oshirish;
- Bolalarning individual rivojlanish xaritalarini yaratish;
-Multimediali didaktik materiallar va mobil ilovalar asosidagi mashg‘ulotlar.

Inklyuziv ta’lim – bu har bir bolaga, uning rivojlanish darajasi va imkoniyatlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish huquqini kafolatlaydigan yondashuvdir. Maktabgacha yoshda bu tamoyilni hayotga tatbiq etish, eng avvalo, maxsus pedagoglar tayyorlash, muhitni moslashtirish va didaktik materiallarni moslab ishlab chiqishni talab qiladi.

Raqamli vositalar bu borada qulay shart-sharoit yaratadi:

- Ekranli qurilmalar orqali nutq va eshitish muammolari bilan bolalarning mashg‘ulotlarga integratsiyasi;
- Interaktiv vizual materiallar orqali o‘zlashtirish darajasini oshirish;
- Maxsus mobil ilovalar yordamida ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash;
- Onlayn maslahat va rehabilitatsiya platformalarini yaratish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining raqamli resurslari - bu maktabgacha ta’lim standartlari va dasturlarida belgilangan bolalarning bilim va ko‘nikmalarni egallashi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, o‘qitish va ta’lim uchun maxsus mo‘ljallangan raqamli vositalardir. Ayni paytda raqamli texnologiyalar va vositalar ta’limning barcha bosqichlarida, jumladan, maktabgacha ta’limda ham

ta’lim jarayoniga jadal integratsiya qilinmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruati;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida raqamli resurslardan foydalanishga tayyorligi;

- maktabgacha yoshdagi bolalar, shu jumladan alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun raqamli resurslar mavjudligi;

- bolalarning ta'lim muhitida raqamli resurslardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarga javob berish qobiliyati.

Raqamli resurslarni maktabgacha ta’lim tashkilotida inklyuziv ta’lim muhitiga kiritish haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularni bolalarning xususiyatlariga va o‘quv jarayonini tashkil etishga qulaylik va moslashish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak.

Raqamli resursdan foydalanish imkoniyati deganda uning har qanday nogironligi bo‘lgan bolalar tomonidan tushunilishi va undan foydalanish qobiliyati tushuniladi. Bu resursning ajralmas sifati bo‘lib, agar kerak bo‘lsa, qo‘shimcha yoki kompensatsion qurilmalar yordamida o‘qish va ishlashni osonlashtiradi.

Raqamli resursning moslashuvchanligi uning mavjud funksiyalari (masalan, masshtablash, rang tanlash, interfeysni sozlash, maxsus asboblar paneli, shrift, qatorlar oralig‘i va boshqalar) tufayli foydalanuvchi yoki uchinchi tomon (nogironligi bo‘lgan talabalarga hamrohlik qiluvchi o‘qituvchilar, mutaxassislar yoki hatto oila yoki tengdoshlar) tomonidan muayyan ehtiyojlarga ko'ra o'zgartirilishi qobiliyatidir. Shu sababli, mavjudlik va moslashuvchanlik ta’lim jarayonida raqamli resurslardan foydalanish uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Ular bizga talabalarning ta’lim va o‘quv raqamli materiallarga kirish qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan turli xil buzilishlarni hisobga olish imkonini beradi. Ushbu buzilishlar vizual (ko‘rlik, ko‘rishning buzilishi), eshitish (to‘liq yoki qisman karlik), vosita, kognitiv yoki psixologik bo‘lishi mumkin; Ular, shuningdek, umumiy rivojlanish buzilishlari yoki autizm spektrining buzilishi, o'ziga xos nutq buzilishlari (disleksiya, dispraksiya, disfazi va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Raqamli platformalar va resurslar 4 ta asosiy tamoyilga mos kelishi kerak:

1) axborot va foydalanuvchi interfeysi komponentlari foydalanuvchi ularni idrok eta oladigan tarzda taqdim etilishi kerak (sezuvchanlik);

2) foydalanuvchi interfeysi va navigatsiya komponentlari foydalanish uchun qulay bo'lishi kerak (qulaylik);

3) ma'lumot va interfeys tushunarli bo'lishi kerak (tushunuvchanlik);

4) mazmuni oson va ishonchli talqin qilinadigan bo‘lishi kerak, xususan, yordamchi texnologiyalar (o‘qish qurilmalari) yoki kompensatsion texnologiyalar (ishonchlilik) yordamida.

Hozirgi vaqtda inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va maktabgacha yoshdagi bolalarning oila a’zolari tomonidan muhokama qilinadigan munozarali masaladir. Inklyuziv ta'lim muhitida raqamli savodxonlikni maqsadli amaliy rivojlantirish va bolalar bog‘chasida tegishli jihozlardan foydalanish ta'lim jarayoni uchun zarur shartlardir.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish va inklyuzivlik maktabgacha ta’lim tizimida o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan, dolzarb va strategik yo‘nalishlardir. Bu ikki tamoyilning uyg‘unligi orqali nafaqat ta’lim sifati oshadi, balki ijtimoiy tenglik va adolat ham mustahkamlanadi. Shu sababli, maktabgacha ta’limni raqamlashtirish jarayonida inklyuzivlikni alohida e’tiborga olish – bu bugunning talabi, kelajakning esa garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алехина С. В. Инклюзивное образование: от политики к практике // Психологическая наука и образование. - 2016. - Т. 21, № 1. - С. 136-145.
2. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika// Darslik. Chirchiq. 2022
2. Ванюшкина Л. М., Коробова Е. Н. Культурно-образовательные практики: новый образовательный формат // Мир науки, культуры, образования. - 2017. - № 3. - С. 197-199.
3. Варфоломеева Т. Н. Электронный курс как носитель содержания образования // Гуманитарные научные исследования. - 2016. - № 10 [Электронный ресурс]. - URL : http://human.snauka.ru/2016/10/16764 (дата обращения: 15.05.2023).
4. Комарова Т. С. Модель оптимизации механизма управления образовательной организацией // Проблемы и перспективы развития образования в России. - 2016. - № 3. - С. 149-154.
5. Кривцова Т. В. Цифровая среда дошкольной образовательной организации: пространство новых возможностей // Современное дошкольное образование. - 2022. - № 2(110). - С. 16-29.
6. Литвинова С. Н., Челышева Ю. В. Цифровые инструменты в работе с детьми дошкольного возраста : учебное пособие для вузов. - М. : Юрайт, 2023. - 188 с.
7. Цифровые технологии в раннем и дошкольном возрасте : информационный бюллетень / Я. Я. Михайлова, А. К. Нисская ; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». - М. : НИУ ВШЭ, 2022. - № 21(38). - 44 с.

TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA INSON KAPITALI TUSHUNCHASI. MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA TA’LIM TIZIMI RIVOJLANISHNING ASOSIY KONSEPSIYASI

Ismatov Sulaymon Bobomurodovich
Pedagogika fanlari nomzodi, Tojikiston ta’lim Akademiyasi pedagogika va o‘qitish metodikasi bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: *Maqolada muallif inson kapitali kontsepsiyasining paydo bo‘lishi shart-sharoitlari va omillarini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Tojikiston va O‘zbekistonning zamonaviy davrda iqtisodiy rivojlanishi konsepsiyasining dolzarbligini tushuntirdi.*

Muallif Tojikiston va O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga faqat ta’lim tizimi orqali erishish mumkin deb hisoblaydi va bu fikrni ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha qator takliflar bildirdi.

Kalit so‘zlar: *inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim tizimi, modernizatsiya, iqtisodiy rivojlanish, mehnat bozori, harakatlantiruvchi kuch.*

Аннотация. *В статье автор научно исследует предпосылки и факторы возникновения концепции человеческого капитала. При этом он пояснил актуальность концепции для экономического развития стран Центральной Азии, в том числе Таджикистана и Узбекистана, в современную эпоху.*

Автор считает, что развитие человеческого капитала в Таджикистане и Узбекистане может быть достигнуто только через систему образования, и он научно обосновал это

мнение. Он внес ряд предложений по развитию человеческого капитала, которые окажут положительное влияние на модернизацию системы образования.

Ключевые слова: *развитие человеческого капитала, система образования, модернизация, экономическое развитие, рынок труда, движущая сила.*

Abstract. *In the article, the author scientifically examines the prerequisites and factors for the emergence of the concept of human capital. At the same time, he explained the relevance of the concept for the economic development of Central Asian countries, including Tajikistan and Uzbekistan, in the modern era.*

The author believes that the development of human capital in Tajikistan and Uzbekistan can only be achieved through the education system, and he scientifically substantiated this opinion. He made a number of proposals for the development of human capital, which will have a positive impact on the modernization of the education system.

Key words: *human capital development, education system, modernization, economic development, labor market, driving force.*

Globallashuv sharoitida inson mavqeining ijtimoiy munosabatlar doirasidagi ahamiyati mamlakatimiz va xorijiy olimlarning e’tiborini tortdi. Ijodiy va ixtirochi bo‘lish qobiliyati ijtimoiy fanlar bo‘yicha tadqiqotlar markazida bo‘lgan insoniy xususiyatdir.

Inson tarbiyasi jarayonini jamiyatning intellektual faoliyatini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi va jamiyatdagi mavqei sifatida o‘rganish masalasi qadimdan mavjud bo‘lsa-da, “Inson kapitali” nazariya sifatida 20-asrning 50-60-yillarida amerikalik iqtisodchilar T.Shults (1960) va G.Bekker (1965) tomonidan ishlab chiqilgan.

Ilmiy manbaalarda qayd etilishicha, 20-asrning 2-yarmida AQSH iqtisodchilari T.Shuls va G.Bekkerlar iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlovchi omillarni o‘rganishga, insonlarning turmush darajasini oshirishga, odamlarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishga katta hissa qo‘shgan. Ularni “inson kapitali” tushunchasining asoschilari deb atashgan va tadqiqotlari uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlangan.

Inson kapitali kontsepsiyasini shakllantirishning muhim ijtimoiy-siyosiy asoslaridan biri burjua Rossiyasida sotsialistik tizimning paydo bo‘lishi bo‘lib, AQShda inson kapitali kontsepsiyasi uchun qulay muhit yaratdi. Agar bu haqda chuqurroq o‘ylab ko‘rsak, ana shu zamin rag‘batlantiruvchi omil degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu zamin dunyodagi turli xalqlarning erkinlik va erkin fikrlash harakatlariga, inson huquqlarining roli va jamiyatdagi o‘rniga sezilarli va ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Sovet Ittifoqi parchalanib, sotsialistik davlat tizimi yo‘qolgunga qadar bu tushuncha faqat kapitalistik mamlakatlarda xuddi shu nom ostida, ya’ni "inson kapitali" bilan ma’lum bo‘ldi.

1960-yillargacha kapitalistik tuzumdagi insonning mavqei jamiyatni olg‘a siljituvchi erkin kuch emas, balki ekspluatatsiya orqali foyda oluvchi kuch sifatida qaraldi.

Kapitalistik formatsiyada inson mehnat kuchiga (ishlab chiqarish kuchi) ilmiy ta’rif birinchi marta XIX asrda nemis faylasufi va iqtisodchisi Karl Marks tomonidan o‘zining “Kapital” nazariy asarida va boshqa ilmiy maqolalarida berilgan bo‘lib, bu jahon siyosiy iqtisodining keyingi rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

XIX asrning buyuk nemis olimlari K.Marks va F.Engelslar: “Inson salohiyatini baholaganda, inson kapitalini asosiy kapital ishlab chiqarish, bu esa o‘z navbatida insonning o‘zi hisoblanadi” [2, 350-bet] deb ta’kidlaganlar.

Garchi Karl Marks va yana bir nemis faylasufi Fridrix Engelsning ilmiy g‘oyalari o‘sha davrda kapitalistlarning qattiq qarshiliklari va nohaq tanqidlariga duch kelgan bo‘lsa-da, ularda inson kapitali konsepsiyasi tamoyillari juda yaxshi aks ettirilgan. Bu g‘oyalar keyinchalik insoniyat hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Ana shu g‘oyalar asosida XIX -asr oxiri — XX -asr boshlarida dunyoda yangi hodisa — gumanistik mafkura tarafdorlari paydo bo‘ldi va u avval Yevropa mamlakatlarida, keyin esa boshqa mamlakatlarda katta shuhrat qozondi. Odamlarni (ayniqsa, ishchilar sinfini) ijtimoiy himoya qilish uchun oyoqqa turib, kurashgan bu himoyachilar kapitalistik tuzumga bir qator inson huquqlarini joriy etish zarurligini ko‘rdilar. K.Marks va F.Engelslarning ana shu gumanistik g‘oyalari asosida dunyoda yangi ijtimoiy tuzum, sotsialistik tuzumning vujudga kelishiga hissa qo‘shdilar. Bu tuzumda, ya’ni sotsialistik tuzumda odamlar irqi, millati, tili, e’tiqodi va hokazolardan qat’i nazar, kapitalistik tuzumdagi odamlarga ega bo‘lmagan ko‘plab teng huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, odamlar tomonidan ekspluatatsiya qilingan.

Bu mafkura tarafdorlari bu ijtimoiy hodisaning asoschilari vafotidan keyin K.Marks va F.Engels XX asr boshlarida imperatorning ag‘darilishi va Buyuk Oktyabr Sotsialistik inqilobining g‘alabasi bilan kapitalistik Rossiyada davlat tuzumini kapitalistikdan sotsialistik tuzumga aylantirdilar. Shuni ta’kidlash kerakki, bunday ijtimoiy tuzum, ya’ni sotsializmning o‘rnatilishi jahonda kapitalistik tuzumning yemirilishi xavfini tug‘dirdi. Bu tahdid kapitalistik davlatlarni kapitalistik tuzumda o‘z kapitalini himoya qilish uchun asosiy foyda va daromad manbai bo‘lgan kishilar uchun bir qator huquqlar, erkinliklar, qulay yashash sharoitlarini tashkil etishga va ta’minlashga majbur qildi. Jumladan, XX asr boshidan kapitalistik tuzumning jahonning qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan AQSHda ham uning doirasida inson huquq va erkinliklari hurmat qilinmay, oqlar va qora tanlilar o‘rtasidagi irqiy kurash keskin kechdi va 1960-yillargacha davom etdi.

Insonparvarlik xususiyatiga ega bo‘lgan sotsialistik tuzilma asta-sekin dunyoda kuchayib, kapitalistik tuzumga halokatli xavf tug‘dira boshladi. Shuning uchun ham o‘tgan asrda kapitalistik va sotsialistik davlatlar o‘rtasida keskin siyosiy kurash kuchaydi. Ularning davlat tizimini himoya qilish uchun sotsialistik va kapitalistik davlatlar o‘rtasida ommaviy qirg‘in qiluvchi yadro va kimyoviy qurollarni ixtiro qilish uchun raqobat, kosmik urushlar va sovuq urush boshlandi. Ikki ijtimoiy tuzum o‘rtasidagi bu kurashda hatto butun-butun tarmoqlar: fan, sport, madaniyat, maorif, qishloq xo‘jaligi va boshqalar raqobatlashdi. Yuqorida tilga olingan ushbu raqobat natijasida har ikki ijtimoiy tizimdagi odamlar ilm-fan, madaniyat va ta’limning barcha jabhalarida ulkan yutuqlar va ixtirolarga erishdilar. Shu sababdan XX asr fan va texnika asri deb ataldi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda olimlar, ayniqsa, pedagogika, siyosatshunoslik, iqtisod fanlari olimlari inson kapitali tushunchasining kategoriyalari bo‘yicha ilmiy, amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borganlarini, katta va qimmatli asarlar, ixtirolar yaratganini alohida ta’kidlash lozim. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Sovet Ittifoqida “inson kapitali” tushunchasi bo‘yicha “inson salohiyati” (chelovecheskiy potrebitel), “inson resurslari” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘proq olib borilmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, bu davrda Sovet hukumati xalq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi va sotsialistik iqtisodiy tuzilmaning barqarorligini ta’minladi, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini jadal rivojlantirishga ko‘proq e’tibor berdi, inson kapitaliga alohida e’tibor qaratildi.

Biroq o‘sha davrda kapitalistik va sotsialistik davlatlar o‘rtasida keskin siyosiy kurash ketayotgan edi, sotsialistik davlatlarning ko‘plab olimlari, sportchilari, san’atkorlari nufuzli xalqaro

tashkilotlarning adolatsizliklariga duch kelishdi. Bunday sharoitda sotsialistik blok mamlakatlari vakillarining ixtirolari va yutuqlari katta qiyinchilik va qarshilik bilan tan olindi yoki tan olinmadi. Inson kapitali kontsepsiyasining asoschilari va vakillari T.Shults va G.Bekker bo‘lib, ular kuchli va nufuzli tarafdorlariga ega bo‘lib, bu qulay vaziyat va imkoniyatdan unumli foydalanib, ahamiyati va ahamiyati kam bo‘lmagan bir necha maqolalari bilan yuksak mukofot (Nobel mukofoti) va jahon miqyosida shuhrat va obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lishgan.

Tadqiqotchining fikricha, ushbu ijtimoiy tizimga asoslangan raqobatlar AQSH kapitalistik ijtimoiy tizimida inson kapitali kontseptsiyasining rivojlanishiga olib keldi va inson kapitali tushunchasining paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan biri aynan shu davlatdan, ya’ni ko‘plab iqtisodiy va siyosiy inqirozlar yuz bergan AQShdan kelib chiqqan.

Sovet Ittifoqining sotsialistik tuzumi va super davlati qulagandan so‘ng, jahon siyosatida va jahon iqtisodiyotida ko‘plab o'zgarishlar ro‘y berdi, bu Bekker va Shulsning inson kapitali kontseptsiyasi uchun kengroq makonni ochib berdi.

Yaqinda davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘rta Osiyoning postsovet davlatlarida “bozor iqtisodiyoti” degan iqtisodiy siyosat joriy etildi. Bu holat va jarayon iqtisodiy kam taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, Tojikistonda ham inson kapitali konsepsiyasi tamoyillarini joriy etish va amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy qudratli mamlakatlarda inson kapitalini rivojlantirish jarayonining tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat siyosatining ijtimoiy yo‘nalishi, ayniqsa, ta’lim sohasi davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu sababdan ham, Tojikiston Respublikasi hukumati Tojikiston davlat mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ta’lim sohasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qildi.

Aynan shu omildan kelib chiqib, Tojikiston va O‘zbekiston olimlari, ayniqsa, iqtisodchi olimlar inson kapitalini rivojlantirish va joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishga kirishdilar. Garchi inson kapitalini o‘rganish masalasi hozirgi vaqtda gumanitar fanlar: falsafa, siyosatshunoslik, iqtisod va psixologiyaning o‘rganish predmeti bo‘lsa-da, u pedagogika fani bilan ham bog‘liq. Pedagogika darsligida bu bog‘liqlik ta’kidlangan: “Pedagogika va iqtisodiy fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab va xilma-xildir. Davlat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishni rejalashtirayotgan iqtisodiy qonuniyatlar ta’limga ham taalluqlidir. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyati majmui ta’lim va uning jamiyatdagi zaruriyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida pedagogik g‘oyalar rivojiga xizmat qiladi [3, 12 b.].

Shaxsning ijtimoiy rivojlanish jarayoni pedagogika fanida o‘rganiladi. Shu bilan birga, shaxsga ham taalluqli bo‘lgan boshqa fanlarning (ayniqsa, falsafa, psixologiya, iqtisod fanlari) g‘oyalari pedagogika faniga ta’lim metodologiyasini o‘rganish va inson kapitali rivojlanishini o‘rganishda nazariy asoslarni belgilash imkonini beradi.

Demak, inson kapitalining rivojlanishini faqat ta’lim tizimi orqali ta’minlash mumkin, chunki inson shu tizimdan savod, bilim, kasb-hunar egallash imkoniyatiga ega. Tojikiston va O‘zbekistondagi hozirgi ta’lim tizimi sovet davrida tashkil etilgan va bu tizim Markaziy Osiyo mintaqasiga majburiy mehnat yo‘li bilan yuklangan. Bu tizim milliy va madaniy xususiyatlarni deyarli butunlay e’tibordan chetda qoldirdi. Ammo qariyb yuz yildan beri mavjud bo‘lgan bu tizim mintaqada juda barqaror bo‘lib qoldi. Globallashuv va o‘zgarib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar sharoitida ushbu tizim o‘zining eskirganligi tufayli Tojikiston va O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga asosiy to‘siq bo‘lmay qoldi. Shu bois Tojikiston va O‘zbekiston hukumatlari oldida inson kapitali rivojlanishini ta’minlash uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish birinchi darajali vazifa qilib turibdi.

Bir qancha tojik olimlari o‘z ilmiy izlanishlarida “inson kapitali” tushunchasi haqida o‘z fikrlarini bildirgan. Masalan, professor Islomov S. aholi qatlamlarini tahlil qilar ekan, shunday xulosaga keldi: “Inson salohiyati tushunchasining asosiy elementi idrokdir.Inson va odamlarning tug‘ma va orttirilgan idrok, inson ongining o‘ziga xos tarkibiy qismlari yig‘indisi bir xil umumiy inson kapitali (potentsial)dir. Inson salohiyati – bu umumiy inson idrokidan, boshqa so‘z bilan aytganda, to‘liq shaxs sifatida, yaxlit shaxs sifatida foydalanish jarayonidir. o‘zi bu kapital (potentsial)” [1, 34-bet].

Zamonaviy vaziyat haqida tojik faylasufi A.Qurbonov quyidagi fikrni bildirdi: Zamonaviy sharoitda har qanday davlatning milliy xavfsizlik tizimi ko‘p jihatdan uning amalga oshirilayotgan innovatsion siyosati va ta’lim samaradorligiga bog‘liq. Bu qaramlik ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tus oldi. Uning tahlili shuni isbotlaydiki, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari milliy xavfsizlik bilan turlicha bog‘liqdir. Xususan, ta’lim xavfsizlik obyekti, xavfsizlikni ta’minlashning manbasi va vositasi, xavfsizlikning turli shakllarini ta’minlashning asosi va sharti, shuningdek, ishonchsizlik manbai sifatida e’tirof etiladi» [4, b.4oo].

Inson kapitalini rivojlantirmasdan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash qiyin bo‘ladi. Shu bois ta’lim sohasi oldida ta’lim tizimining inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo‘shishi, yuqori sifatli mutaxassislar tayyorlashi, zamonaviy iqtisodiy bozor talablariga javob berishi uchun yangi vazifalar turibdi.

Inson o‘z ta’limini tezroq tugatib, iqtisodiyotning qaysidir sohasida daromad keltiruvchi mutaxassis va yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun ta’lim muddatini qisqartirish, ba’zi keraksiz, hatto zararli fanlarni o‘quv dasturidan chiqarib tashlash kerak. Albatta, bir maqolaning ko‘lami va hajmi doirasida bu yangiliklarga to‘liq izoh berishning iloji yo‘q va biz imkon qadar yangiliklarning ayrim jihatlarini tushuntirishga harakat qilamiz.

Agar ta’lim tizimi shu tarzda modernizatsiya qilinsa, inson kapitalini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlar ta’minlanadi:

1. Boshlang‘ich ta’limga qabul qilish olti yoshdan belgilansin. Agar bir qator fakt va raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bugungi olti yoshli bolalar bundan bir necha o‘n yillar oldingi bolalardan jismonan va intellektual jihatdan farq qilganini ko‘ramiz. Ya’ni, hozirgi davrda shaxsning "tezlashuvi" jarayoni jamiyatning yangiliklari bilan ta’minlanadi. Bu fikrni isbotlash uchun bir qancha misollar keltirish mumkin. Masalan, hozirda yetti yoshga to‘lmagan yosh bolasi bor oilalarda ota-onalar yig‘layotgan bolalarini tinchlantirish yoki ularni mashg‘ul va mashg‘ul qilish maqsadida o‘z mobil telefonlarini o‘ynashga berishadi. Bu ota-onalar, ayniqsa onalar, ko‘pincha jamoat transportida kichik bolalarini tinchlantirish uchun qiladilar. Bu misollarning mazmuni shundaki, gapira olmaydigan va yura olmaydigan yosh bolalar bemalol mana shu ko‘p vazifali mobil telefonlarga kirib, intellektual vazifalarni ishtiyoq bilan bajara oladilar. Ba’zida biz kattalar bu mebel telefonlaridan foydalanishda qiynalib qolamiz yoki buni qila olmaymiz. Yana bir misol - kasbiy vazifalar va ish tajribasi davomida o‘tkazilgan kuzatishlar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida Nizomga muvofiq maktabga tayyorgarlik guruhi faoliyat yuritadi. Ushbu guruhlarda o‘qituvchilar deyarli bir xil birinchi sinf o‘quv dasturini amalga oshiradilar. Olti yoshli bolalarning aksariyati tojik alifbosining barcha harflarini hech qanday qiyinchiliksiz taniydilar, hatto so‘zlarni ham bemalol o‘qiydilar va yozadilar. Vatan, do‘stlik, ona haqida she’r va qo‘shiqlar o‘qib, kuylaydilar. Dushanbe shahrining Firdavsiy tumanidagi 22-maktabgacha ta’lim muassasasida maktabga tayyorgarlik guruhlarida bolalar yettinchi sinfdan ta’lim boshlaydigan birinchi sinf o‘quv dasturi to‘liq amalga oshirilayotgani, kichik farqlar bilan kuzatilgan.

Shu o‘rinda yana bir holatni eslatib o‘tmoqchimizki, aynan shu masala ko‘p yillardan buyon ota-onalarga muammo tug‘dirmoqda. Farzandining jismoniy va aqliy rivojlanishini ko‘rgan ota-onalar olti yoshli farzandini maktabga birinchi sinfga kiritishni iltimos qilib, Ta’lim va fan vazirligiga murojaat qiladi. Biroq, me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilish uchun soha mutaxassislari ularning iltimosini rad etadi va bola bir yil davomida faol jismoniy va ruhiy kuchini behuda sarflaydi.

Bu kuzatishlardan xulosa qilish mumkinki, agar bolalar olti yoshdan maktabning birinchi sinfiga qabul qilinsa, bu ta’lim tizimida inson kapitalini shakllantirish va ta’minlashda birinchi qadam bo‘ladi.

Ayrim ta’lim mutaxassislari bu fikrga qo‘shilmasliklari va hozirgi sharoitda buning iloji yo‘qligini ta’kidlashlari mumkin, ammo umumiy ta’limning boshqa bosqichlarida innovatsiyalarni joriy etish orqali ushbu g‘oyani amalga oshirish uchun ajoyib sharoitlar yaratiladi.

Asosiy maqsad inson kapitalini rivojlantirish bo‘lib, shaxs ta’lim tizimida ta’lim oladi va shakllanadi, boshlang‘ich ta’lim darajasi esa inson kapitalini rivojlantirishning asosiga aylanadi. Umumiy o‘rta ta’limning birinchi bosqichida ta’lim 6 yoshdan 9 yoshgacha davom etishi kerak (bu Sovet davrida 3 yillik tajriba edi). Bu darajadagi ba’zi o‘rta ta’lim fanlari, masalan, jismoniy tarbiya, san’at, musiqa va hatto tabiatshunoslik fanlarini qisqartirish, bu fanlar o‘rniga tojik tili, matematika va chet tillari soatlarini ko‘paytirish kerak. Ta’limning ushbu bosqichida 5 kunlik o‘quv haftasidan 6 kunlik jadvalga o‘tish yaxshi bo‘lardi. Ushbu yoshdagi bolalar uchun ushbu fanlarni o‘rganish ularning qobiliyatidan tashqarida va hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

2. Umumiy o‘rta ta’limning ikkinchi bosqichi 9 yoshdan 14 yoshgacha davom ettirilsin. Ushbu bosqichda ayrim o‘quv fanlari qisqartirilib, umumiy o‘rta ta’limning uchinchi bosqichi o‘quv rejasiga almashtirilsin. Albatta, ta’limning uchinchi bosqichida ham ba’zi keraksiz fanlarni, masalan, harbiy mudofaa tayyorgarligi, oilaviy ta’lim va hokazolarni yo‘q qilish kerak. Oliy ta’lim muddatini butunlay chiqarib tashlash kerak.

3. Tojikistonning iqlimi va geografik joylashuvidan kelib chiqib, o‘quv yili issiq hududlarda sentyabrdan maygacha, sovuq hududlarda esa martdan noyabrgacha tashkil etilishi kerak. Chunki tog‘li hududlarda qish faslida ta’lim olish uchun sharoit yetarli emas.

4. Maktabni tugatgandan so‘ng, shaxs kasb-hunar ta’limi muassasalarida (o‘z xohishi va bilimiga ko‘ra) o‘qishni davom ettiradi. Bu muassasalarda ta’lim mutaxassislik o‘quv rejasi talablariga qarab 1-2 yil davom etadi. Inson ushbu muassasalarni tamomlab, malakali mutaxassis bo‘lib, mehnat bozoriga kirib boradi. 16 yoshga to‘lgan shaxs moliyaviy daromad manbaiga ega bo‘ladi va o‘zi va davlat uchun foyda keltiradi. Inson kapitalining mohiyati shundan iboratki, inson ta’lim jarayonida malakali bo‘lishi, yuksak intellektual mehnatga ega bo‘lishi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, o‘zi uchun munosib hayot yaratishi lozim.

5. Oliy kasbiy ta’lim muassasalarida ikki yillik o‘qish yetarli. Bunday zamonaviy (qisqartirilgan va siqilgan) ta’lim tizimida inson umrining 4-5 yilini ta’limga sarflamaydi, 18 yoshga to‘lganda esa oliy ma’lumotli diplom sohibiga aylanadi va xalq xo‘jaligining turli sohalarida mutaxassis sifatida ish topadi.

Agar Tojikiston va O‘zbekiston ta’lim tizimiga bunday yangiliklar joriy etilsa, har yili davlat byudjetiga milliardlab dollar mablag tejaladi desak xato bo‘lmaydi.

6. Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, Tojikiston va O‘zbekiston ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish uchun Tojikiston Ta’lim akademiyasi va Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bilan hozirgi sharoitda qo‘shma qo‘mita yoki tashkilot tuzish zarurati vujudga keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Islomov S. I. Inson kapitalining mohiyati V.sb: O‘tish davri: ta’lim tendentsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot Tojikiston, jild. 2 - Dushanbe, ChPS, 2001, s. 21.
2. Pedagogika, darslik, Moskva: izd. "Akademiya", 12-uy.
3. Qurbonov A. Ta’lim va milliy xavfsizlik: yo‘nalishlari va ustuvor yo‘nalishlari. Mayor maq. “Maorif va mustaqillik”, kitob 1. Dushanbe, 2021 “Mehroj garf”, 400 b.

RAQAMLI MUHITDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM YOSHDAGI BOLANI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Tojiboyeva Gulmira Rifovna
PhD, dotsent v.b.Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Raqamli muhitning bolalar psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri, ota-onalar va pedagoglarning roli, shuningdek, tarbiyada zamonaviy yondashuvlar asosida taklif etilgan yechimlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda kuzatuv, tahlil va so‘rovnoma metodlari asosida real pedagogik muhitdagi holatlar o‘rganilgan. Muallif raqamli vositalardan ongli foydalanish, tarbiya va texnologiya o‘rtasida muvozanatni ta’minlash muhimligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, boshlang‘ich ta’lim, bola tarbiyasi, texnologiya, ota-ona nazorati, raqamli pedagogika, ijtimoiylashuv, zamonaviy tarbiya muammolari, milliy tarbiya, tarbiyaviy kontent, raqamli resurslar, bosqichma-bosqich tatbiq, metodik yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, qadriyatlar.*

Kirish. Globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish ham dolzarb, ham murakkab jarayonga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi. Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar hayotiga ham mobil qurilmalar, internet va raqamli o‘yinlar tez kirib keldi. Bu holat o‘z navbatida, bola shaxsining shakllanishi, ijtimoiylashuvi va tarbiyasida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli muhitning salbiy va ijobiy ta’sirlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Shu sharoitda milliy tarbiya kontentlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich joriy etish muhim masaladir. Bolalar dunyoqarashini shakllantirishda tarbiyaviy axborotlarning mazmuni, vizual ko‘rinishi va milliy ruhga mosligi katta ahamiyat kasb etadi.

Metodlar

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

- Tahlil va sintez usuli orqali ilmiy manbalar, maqolalar va statistik ma’lumotlar ko‘rib chiqildi.
- Kuzatuv va so‘rovnoma asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va ota-onalarning fikrlari o‘rganildi.
- Tahlil va umumlashma: mavjud rakamli ta'lim platformalaridagi tarbiyaviy kontentlar tahlil qilindi;
- Anketalash: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va ota-onalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi;
- Taqqoslash: milliy va xorijiy kontentlar orqali bolalarda shakllanadigan qadriyatlar taqqoslandi.

Natijalar

O‘tkazilgan kuzatuv va so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar raqamli texnologiyalarga haddan ziyod bog‘lanib qolmoqda. Bu esa ularning:

- Emotsional rivojlanishida – bezovtalik, sabrsizlik va yolg‘izlanishga olib kelmoqda.
- Ijtimoiylashuvida – real muloqot ko‘nikmalari zaiflashmoqda, do‘stlar bilan bevosita o‘yinlar kamaymoqda.
- Tarbiya jarayonida – ota-onalar bolalar bilan yetarli darajada muloqot qilmayapti, tarbiya mas’uliyati ko‘pincha gadjetlarga yuklatilgan.

Shuningdek, raqamli vositalar orqali bola noto‘g‘ri axborot manbalariga duch kelishi, virtual dunyoni real hayotdan ustun qo‘yishi kuzatilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- Ma'lumotlarning asosiy qismi umumiy axborotga bag‘ishlangan bo‘lib, milliy ruh va an'analar etarlicha aks etmagan;
- Ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarga mo‘ljallangan kontentda odob-axloq, vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar etarli emasligini ta'kidlashgan;
- Estetik jihatdan boy, multimedia formatdagi, milliy obrazlar bilan boyitilgan kontentlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otgan.

Muhokama

Raqamli muhit – bu inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat. Uni taqiqlash emas, balki to‘g‘ri boshqarish, nazorat qilish va undan samarali foydalanishni o‘rgatish lozim. Tarbiya jarayonida raqamli vositalar yordamchi bo‘lishi kerak, lekin asosiy vosita emas.

Muammolar quyidagicha shakllanadi:

- Milliy tarbiya mazmunini zamonaviy multimedia formatlariga moslashtirishda ijodiy va texnik qiyinchiliklar mavjud;
- Tarbiyaviy kontentlarni ishlab chiquvchilarda pedagogik va madaniy bilim etarli emas;
- Ta'lim tizimida tarbiya uchun ajratilgan vaqt va platformalar cheklangan.

Yechimlar:

- Mutasaddi tashkilotlar ishtirokida milliy multimediya loyihalar ishlab chiqilishi;
- Oliy ta'lim muassasalarida “Raqamli tarbiya” yo‘nalishida kadrlar tayyorlash;
- Boshlang‘ich sinf darsliklari va elektron resurslarini milliy interfaol kontent bilan boyitish.

Muammo yechimlari sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo‘yicha treninglar o‘tkazish;
- Bolalarga raqamli savodxonlik, axborotni tanlash va filtrlash ko‘nikmalarini o‘rgatish;
- Maktablarda raqamli tarbiya bo‘yicha integratsiyalashgan darslar tashkil etish;
- Raqamli va real faoliyat o‘rtasida muvozanatni ta’minlash – sport, teatr, tabiat qo‘ynidagi o‘yinlar orqali.

Xulosa

Raqamli ta'lim muhitida bolalarga milliy tarbiya berish — global ta'sirlar fonida o‘zligimizni asrab qolishning asosiy yo‘llaridan biridir. Kontent mazmuni bola ongini shakllantiradi, uning qadriyatlar tizimiga ta'sir ko‘rsatadi. Shu bois, bunday kontentlar har tomonlama puxta o‘ylangan, milliy ruh va estetikaga mos, interaktiv formatda ishlab chiqilishi kerak. Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolani tarbiyalashda raqamli muhitni hisobga olmaslik mumkin emas. Muammo bilan kurashish o‘rniga, uni ongli boshqarish, pedagogik va psixologik yondashuv asosida foydalanish zarur. Bu esa ta’lim sifati va bola shaxsining sog‘lom rivojlanishi uchun muhim kafolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmonov Q.H. Milliy tarbiya va uning pedagogik asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – 208 b.
2. Toshboev J. Boshlang‘ich ta'limda axloqiy tarbiyaning dolzarb jihatlari. // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2022. – №1. – B. 55–60.
3. Rasulova N.S. Raqamli ta’limning boshlang‘ich maktab o‘quvchisiga ta’siri. // Boshlang‘ich ta’lim jurnali. – 2023. – №3. – B. 23–27.
4. Saidov I. Bolalar uchun media kontent: tarbiyaviy ta'sir va vizual psixologiya. // Bolalar dunyosi jurnali. – 2023. – №2. – B. 11–15.

МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ И ВОСПИТАНИЯ МЕДИАКУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ

Лобар Мусахоновна Караханова
Зав.отделом НИПВ им Кары Ниязи, (PhD) старший научный сотрудник

Сегодня медиа можно назвать одним из основных факторов социализации подрастающего поколения. Современное общество характеризуется превращением информации в глобальный ресурс человечества, ускорением темпов развития техники, созданием новых информационных технологий, преобразованием средств массовой информации в средства массовой коммуникации, глобализацией мирового информационного пространства и т. д. Замечено, что на сегодняшний день отставание развития духовной, социокультурной сферы в современном мире в период возрастающей роли знания и информации приводит к формированию черт социальной организации, которые не могут быть отнесены к прогрессивно развивающемуся обществу. Все это представляет опасность саморазрушения, самоуничтожения не только человека, но и всего человечества. Данные тенденции свидетельствуют о переходе общества к совершенно новой эпохе, которую можно назвать эпохой информационного общества, и позволяют выделить новый вид человеческой культуры медиакультуру, которая в последние десятилетия стала определяющим фактором социализации в информационном обществе.

На наш взгляд, медиакультуру необходимо рассматривать как механизм взаимодействия со СМИ, ориентированный не только на ее правильное толкование, но и содействующий правильному воспитанию и образованию подрастающего поколения с учетом требований, предъявляемых информационным обществом [l].

В современной жизни медиакультура приобретает все большее влияние и распространение, она интенсивно распространяется по всему миру в разных формах и видах: через печатные, видео и компьютерные, телевизионные, кинематографические каналы. Все эти каналы дают возможность человеку индивидуально общаться с экраном. Так, например, каждый человек имеет возможность выбрать интересующую его кассету (диск, сайт) и в любой момент остановить изображение или вернуть действие, показанное на экране, назад, чтобы лучше понять или запомнить эпизод, текст, получить дополнительную информацию. Другими словами, он может не только использовать все те преимущества, которые имеет процесс чтения книги, но и в виртуальном мире реализовать или развивать свои творческие идеи.

Сегодня медиа и средства массовой коммуникации можно смело назвать комплексным средством освоения человеком окружающего мира. В современном образовательном процессе потенциал медиакультуры определяется широким спектром развития человеческой личности: интеллекта, эмоций, самостоятельного творческого, иногда и критического, мышления, эстетического сознания, мировоззрения, восприятия, умений художественного анализа, активизации знаний, полученных в процессе изучения различных дисциплин. К сожалению, в настоящее время в школах, колледжах, вузах потенциал развития медиакультуры обучающихся до сих пор остается нереализованным, а если и реализуется, то не в должном объеме.

В ходе изучения данной проблемы нами был сделан вывод о том, что в современной социокультурной ситуации как никогда раньше велики значение и роль медиакультуры в жизни людей, а тем более в жизни молодежи, так как популярность медиатекстов в этой возрастной категории, как и. впрочем, у подавляющего большинства аудитории в целом, определяется многими факторами: использованием терапевтической, эстетической, познавательной, информационной, коммуникативной, нравственной, социальной и других функций культуры; опорой на зрелищно-развлекательные жанры; стандартизацией, сенсационностью, гипнотизмом, угадыванием желаний публики, интуицией и т. д.

За последние годы было проведено немало исследований по проблеме влияния медиа на школьную и студенческую аудитории. Их авторы в целом сходятся во мнении, что общение с произведениями медиакультуры у детей и молодежи находится на одном из первых мест. При этом медиакультура, включающая в себя черты литературы, музыки, театра, изобразительного искусства, во многих случаях обладает более широким спектром воздействия. Особое место в молодежной аудитории принадлежит студентам университетов и вузов.

Анализ развития медиакультуры в системе образования показал, что в педагогической науке появилось новое направление медиаобразование, представляющее собой канал, по которому передается содержание медиакультуры, для того чтобы стать достоянием конкретного человека. Однако до сих пор нет единого взгляда на содержание и методы медиаобразования.

Изучая медиаобразовательную ситуацию мы пришли к выводу о том, что проблема подготовки подрастающего поколения к жизни в эпоху информационного общества слабо актуализируется в контексте школьного и вузовского образования. Можно выделить ряд причин, которые объясняют сложившуюся ситуацию; разногласия по поводу определения содержания и задач медиаобразования; преобладание технического подхода к решению проблемы; отсутствие методического обеспечения решения проблемы; неготовность многих педагогов воспринять новые информационные реалии и идеи медиаобразования; отсутствие системы подготовки будущих учителей к реализации задач медиаобразования.

Что же такое медиаобразование? Есть немало определений данного понятия. Это процесс образования и развития личности с помощью и на материале средств массовой коммуникации с целью формирования культуры общения с медиа, творческих, коммуникативных способностей, критического мышления, умений интерпретации, анализа и оценки медиатекста, обучения различным формам самовыражения при помощи медиатехники [3].

Педагогическая энциклопедия определяет медиаобразование (англ, media education (от лат. media» средства) как направление в педагогике, выступающее за изучение закономерностей массовой коммуникации (прессы, телевидения, радио, кино, видео и т. д.).

Основными задачами медиаобразования можно считать следующие: подготовить подрастающее поколение к жизни в современных информационных условиях, восприятию различной информации, научить понимать и анализировать получаемую информацию, осознавать последствия воздействия ее на психику, овладевать способами общения на основе невербальных форм коммуникации с помощью технических средств.

Медиаобразование в современном мире рассматривается как процесс развития личности с помощью и на материале средств массовой коммуникации (медиа) с целью формирования культуры общения с медиа, творческих, коммуникативных способностей, критического мышления, умений полноценного восприятия, интерпретации, анализа и оценки медиатекстов, обучения различным формам самовыражения при помощи медиатехники. Обретенная в результате этого процесса медиаграмотность помогает человеку активно использовать возможности информационного поля; телевидения, радио, видео, кинематографа, прессы, Интернета [2; 4].

Изучив отечественный и зарубежный опыт развития медиаобразования и медиакультуры школьников и студентов, мы пришли к выводу о том, что в настоящее время проблема развития медиакультуры студентов развита недостаточно, поэтому нами был разработан спецкурс «Практикум по медиакультуре» для студентов, обучающихся по дистанционной форме. Внедрение в учебный план студентов всех направлений данного спецкурса было вызвано необходимостью научить студентов, выбравших дистанционную форму обучения, правильно общаться не только между собой при использовании таких форм, как чат и форум, но и, прежде всего, с преподавателями и своим курирующим менеджером. Нами было замечено, что большинство студентов, поступивших на дистанционную форму обучения, не умеют правильно писать электронные деловые письма, что, на наш взгляд, непосредственно связано с постоянным общением с друзьями, знакомыми в социальных сетях, где стиль общения отличается от того стиля общения, которым предстояло им пользоваться на протяжении всего периода обучения.

Изначально курс состоял из нескольких блоков: обучение студентов правилам оформления основных документов (в том числе и электронных), обучение правилам составления электронных писем и культуре делового общения по электронной почте. Проводя данные занятия и наблюдая за постепенным изменением в манере общения студентов, каждый год мы дорабатывали наш спецкурс, вводя в него все новые и новые лекционные занятия, дорабатывая задания, вводя в курс все новые шементы, например, обучение информационной культуре (как относиться и правильно оценивать информацию, получаемую через средства массовой информации).

В рамках данного спецкурса студенты не только получают теоретические знания по истории развития медиаобразования и медиакультуры в мире, узнают основные термины, теории, ключевые концепции и направления в медиаобразовании, они также изучают разнообразные методики, технологии проведения медиаобразовательных занятий, учатся рецензировать медиатексты.

На первых занятиях в рамках данного спецкурсы мы проводим анкетирование студентов с целью определения уровня их знаний в области медиаобразования, медиакультуры и медиаграмотности.

На наш взгляд, введение в образовательный и воспитательный процесс подобных спецкурсов может способствовать развитию критического мышления студентов, повышению коммуникативных навыков и грамотности в деловом общении, решению проблем защиты сознания молодежи от манипулирования СМИ.

Таким образом, на наш взгляд, в современных условиях информационного общества, когда мы практически везде и всегда находимся в контакте со средствами медиа, формировать и развивать медиакультуру и медиаграмотность, применяя в процессе обучения различные педагогические технологии, просто необходимо. Но начинать данный процесс нужно уже с детского сада, чтобы в школе, а затем и в вузе углублять полученные знания, умения и навыки, способствовать формированию гармоничной, умеющей критически мыслить личности.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ахметова Д 3. Теория и практика развития школы-комплекса в условиях инноваций и педагогического мониторинга: авто- реф. дис. ... д.п.и. Казань, 1998.
2. Кириллова И.Б. Медиакультура: от модерна к постмодерну. М: Академический проект, 2005.
3. Федоров А.В. Развитие медиаобразования на современном этапе Инновации в образовании. - 2007. №3. С. 16—20.
4. Нагаева И.А. Возможности организации практических занятий студентов при использовании дистанционных технологий Вестник МТОУ. Серия «Педагогика».- 2013.~ №2. С. 40 43.

UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI

Rasuljon Atamuratov
Dotsent, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning muhimligi, kasbiy muvaffaqiyat kaliti, balki kundalik hayotimiz uchun zarur ko‘nikma ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, raqamli vositalardan samarali foydalanish, raqamli xavfsizlikni ta’minlash va bu jarayonda o‘qituvchilarning qanday rol o‘ynashini ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetensiya, raqamli savodxonlik, AKT, zamonaviy ta’lim, raqamli xavfsizlik, maktab o‘quvchilari.*

Annotation. *This article talks about the importance of developing digital competencies in secondary school students, as this is the key to professional success, as well as a skill necessary for our daily lives. The effective use of digital tools, ensuring digital security and the role of teachers in this process are also considered.*

Keywords: *digital competence, digital literacy, ICT, modern education, digital security, schoolchildren.*

Аннотация. *В данной статье говорится о важности развития цифровых компетенций у учащихся общеобразовательных школ, о том, что это ключ к профессиональному успеху, а также навык, необходимый для нашей повседневной жизни. Также рассматривается эффективное использование цифровых инструментов, обеспечение цифровой безопасности и роль учителей в этом процессе.*

Ключевые слова: *цифровая компетенция, цифровая грамотность, ИКТ, современное образование, цифровая безопасность, школьники.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur tendensiya ta’lim tizimiga ham chuqur kirib borib, o‘quv jarayonining mazmuni va shakllarini o‘zgartirishni talab etmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablari o‘quvchilarining raqamli kompetensiyalarni egallashi ularning zamonaviy dunyoga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ta’lim samaradorligini oshirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotni olib borishdan maqsad ham umumta’lim maktablari o‘quvchilarida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning obyektiv zaruriyatini ilmiy asoslangan dalillar va zamonaviy tendensiyalar kontekstida tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda raqamli kompetensiyalarning ahamiyati va ularni rivojlantirish zaruriyatini asoslash uchun siyosiy, sohaga doir ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; DTS, milliy o‘quv dasturi, darslik kabi hujjatlarni o‘rganish; raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi bilan tanishish, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va tahlillar. Turli ta’lim sohasi vakillari tomonidan raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, umumta’lim maktablari o‘quvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga doir maxsus tadqiqot yetarlicha amalga oshirilmagan. Bu esa o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga, raqamli dunyoda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

A.Medeshova va uning hamkasblari o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muammosiga e’tibor qaratar ekan, tez o‘zgarayotgan texnologik muhitda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashlari hayotiy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, buning uchun maxsus samarali pedagogik strategiyalari va usullarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish orqali an’anaviy hamda raqamli o‘qitish usullarini uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi [1].

T.Hoai va jamoadoshlari esa “o‘quvchilarning raqamli kompetentligi axborotga kirish, uni boshqarish va raqamli muhitda axborot yaratish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati” deb ta’riflaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun o‘quv maqsadlarini belgilash va maxsus o‘quv materiallarini tanlash lozim” - degan fikrni ilgari suradi [2].

J.Cortes va uning hamkasblari o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish haqidagi qarashlarga munosabat bildirar ekan, bunday ko‘nikmalarga axborotni samarali izlash, tizimlashtirish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘rgatish nazarda tutilishini va ular yordamida raqamli muhitdagi o‘quv jarayoniga moslashishi hamda kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyati uchun xizmat qilishini ta’kidlaydilar [3].

O‘tkazilgan tahlil natijasida umumta’lim maktablari o‘quvchilarida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini asoslovchi quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Raqamli muhitga moslashuv. Zamonaviy texnologiyalarning kundalik hayot, ta’lim, kasbiy faoliyatga kirib borishi ulardan samarali va xavfsiz foydalanishni talab etadi. Bu o‘quvchilardan doimiy o‘zgarib turadigan texnologiyalarga moslashish va ular yordamida samarali kommunikatsiya, axborotni qidirish va kundalik vazifalarni hal qilish uchun raqamli vositalarni to‘g‘ri foydalanishni talab qiladi.

Ta’lim sifatini oshirish. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish uning interaktivligini, ommabopligini va individuallashtirilishini oshirishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy va kasbiy tayyorgarlik. Iqtisodiyotning tobora raqamlashuvi yangi kasblarning paydo bo‘lishiga va mavjud kasblarga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishiga olib kelmoqda. Buning natijasida maktab o‘quvchilarida muvaffaqiyatli karyera uchun zarur bo‘lgan asosiy raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish zarurligini yana bir marotaba tasdiqlaydi.

Tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligini rivojlantirish. Raqamli muhitda axborotning ko‘pligi sharoitida o‘quvchilar ma’lumotlarni tanqidiy baholash, ishonchsiz manbalarni aniqlash va internetda xavfsiz muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak.

Raqamli fuqarolik pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlash. Raqamli platformalar ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu yosh fuqarolardan raqamli etiket prinsiplarini tushunishni va texnologiyalardan mas’uliyatli foydalanishni talab qiladi.

Olingan natijalar maktab o‘quvchilarida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning naqadar muhimligini aniq ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda nafaqat alohida bir sohaga, balki zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylanganligi sababli ta’lim tizimi o‘quvchilarni ushbu muhitda erkin va samarali faoliyat yuritishga tayyorlashi zarur.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki axborotni tanqidiy baholash, onlayn xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, raqamli etika normalarini tushunish kabi keng qamrovli tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kelajakda maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi mas’ul tashkilotlar va pedagoglar ushbu masalaga alohida e’tibor qaratishlari, o‘quv dasturlariga raqamli kompetensiyalarni integratsiya qilish, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va maktablarni zarur texnik vositalar bilan ta’minlash kabi chora-tadbirlarni ko‘rishlari lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilarining raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb talabi bo‘lib, ularning shaxsiy rivojlanishi, ta’lim olish sifatining oshishi va kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun zaruriy shart hisoblanadi. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu masalaga kompleks yondashuvni ta’minlash orqali biz yosh avlodni raqamli asrning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga va uning xavf-xatarlaridan himoyalanishga tayyorlay olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Medeshova, A., Adelbaeva, N., Kushekkaliev, A., Akimova, S., Khazhgaliyeva, G., Ramazanova, L., & Kassymova, A. (2025). The impact of pedagogical approaches for forming digital competence in students. Qubahan Academic Journal, 4(4), 374–382.
2. Hoai, T. T. T., & Hong, C. N. T. (2024). Developing Digital Competencies for Primary School Students through Teaching History and Geography. International Journal of Social Science and Human Research, 07(12). https://doi.org/10.47191/ijsshr/v7-i12-39

3. Cortés, J., García, S., Ortega, J., Torres, A., & Zamorán, M. (2019). Development of Digital Competencies for Professional Performance in University Students. Edulearn Proceedings, 1, 7605–7609. https://doi.org/10.21125/edulearn.2019.1838

MUSTAQIL BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING ILMIY TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

Shermatova Xurshida Karimovna
Qo‘qon davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqil bilimlarni rivojlantirish muammosining zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda qanday yoritilayotgani tahlil qilinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn ta’lim platformalari va innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil bilim olish, ilmiy tadqiqot, onlayn ta’lim, Coursera, Khan Academy, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ta’lim texnologiyalari*

So‘nggi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli tub islohotlarda "Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi muhim o‘rin tutdi. Har bir mamlakatning rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi mamlakatdagi ta’lim tizimining qay darajada takomillashganiga bog‘liq, albatta.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassisning shuurida istalgan masala, mohiyat yuzasidan mustaqil, erkin mulohaza yurita olish; ijodiy tafakkur sohibi bo‘lish, tadbirkor, faollikni odatiga aylantirish, ezgu xislatlarni tarkib toptirish zarur. Oliy ta’lim tizimiga oid muhim hujjatlarda ta’kidlanganidek: -“o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish” , kundalik yumushlarimiz sirasiga kirishi kerak.

Yuqorida aytilganlar ta’lim-tarbiya jarayonida mustaqil ta’limga bo‘lajak mutaxassis kadrlarning amaliy tayyorgarlik sifati va samaradorligini oshirish omili sifatida qarashni taqozo etadi. Pedagogik ta’limga fan va texnologiyalar yutuqlarining jadal sur’atlar bilan kirib kelishi yuqori malakali ijodkor mutaxassislarning yetishmasligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi zamonda fan va texnologiya taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy mutaxassis yuqori darajadagi malaka, yangi va tez o‘zgarib turgan texnologiyani tushuna bilish xususiyatlariga ega bo‘lmog‘i lozim. Bugungi kun talabiga ko‘ra, har bir yosh mutaxassis kadr ijodiy fikrlaydigan, tinimsiz izlanadigan, boy tasavvurga ega bo‘lmog‘i lozim. Zotan, har bir bo‘lajak mutaxassis kasbiy mahorat, bilimga ega bo‘lishi bilan birga zamonaviy texnologiyalardan ham yuqori darajada foydlana olishlari shart. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, faqat oliy ta’lim professor o‘qituvchisining bergan ma’lumotlari bilan kifoyalanish talabaning sotsial, axloqiy, psixologik, tabiiy, ilmiy, pedagogik, texnologik, fiziologik, ekologik, huquqiy, estetik, badiiy, umummadaniy, informatsion va h.k. jihatlargan yuksalishini to‘liq ta’minlay olmaydi. Demak, talabaning mustaqil ta’lim olishiga ehtiyoj seziladi.

Mustaqil ta’limdan ko‘zlangan asosiy maqsad yuqori malakali, raqobatbardosh, mamlakatda o‘tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarning yuqori talablariga, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash hamda talabalarda mustaqil ta’lim olish, ta’lim sifatini boshqargan holda filologik faoliyatning tegishli sohalarida tizimli tahlil qilish va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda professionallik layoqati (kompetentligi)ni tarbiyalash, talabalarning modullarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Ta’lim oluvchilarning tashabbusi yo‘qdan paydo bo‘lishi mumkin emas. Ularni yaratishga o‘rgatish, buning uchun ularda kerakli bilim va tajriba shakllanishi va rivojlanishi kerak.

Mustaqil ta’lim – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishni, o‘zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta’lim shakllaridan bo‘lib, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Talabalarga mustaqil ish(ta’lim)ni bajarish yuzasidan kafedra professor o‘qituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ta’lim turlari – rang-barang va turli elektron ko‘rinishlari – fan o‘qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

Mustaqil ta’lim fanni o‘zlashtirishga, mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqil ta’lim tizimi o‘quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo‘yicha nazariy ma’lumotlar bilan bir qatorda yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi topshiriqlarni qamrab olishi kerak.

Bugungi maqolada ko‘proq mustaqil bilimlarni rivojlantirish masalalarini ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilishini tahlil qilamiz.

Mustaqil ta’lim ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar hamda tajribalar zaxirasi asosida amalga oshadi. O‘quv fanlarini chuqur va puxta o‘zlashtirish, ta’lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlarni mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish, ilmiy-ijodiy tafakkurni boyitish, o‘quv-biluv jarayonidagi savol-javob va bahs-munozaralarda faol qatnashish, o‘z fikr-mulohazasini asosli dalillar bilan bayon etish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir bo‘lajak mutaxassis oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi talabaning mustakil fikrlashga o‘rgatish. Mustaqil ta’lim talabaning asosan darsdan so‘ngi faoliyatini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bunda har bir talaba o‘ziga berilgan vazifani mustaqil, ijodiy yondashgan holda bajaradi.

Xorijiy OTMlarda asosiy urg‘u talabaning mustaqil ta’lim olishiga qaratilgan, bu esa o‘z navbatida, ta’lim oluvchining o‘z sohasi bo‘yicha qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni egallashiga turtki bo‘ladi. Mustaqil ishni ta’lim oluvchiga berganda uni qiziqishlari va fanni o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish kerak. Beriladigan mustaqil ish mavzulari bir xil bo‘lib qolmasligi, iloji boricha zamonaviy mavzular tanlanishiga e’tibor berish lozim. Mustaqil ish mavzularini iloji boricha o‘tilayotgan fan mavzulari ichidan tashqaridagi mavzu bo‘yicha berishga e’tibor qaratish kerak. Shunda, talaba faqat bitta mavzu doirasila cheklanib qolmay, boshqa qo‘shimcha bilimlarga ham ega bo‘ladi.

Bugungi kunda TMTni samarali tashkil qilishni zamonaviy texnika va texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, internetning rivojlanishi mustaqil ishlarni tashkil qilishga yangicha yondashuv va qarashlarni keltirib chiqardi. Bugungi kunda mustaqil ishlarni bajarishda internetning turli xizmatlaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Shuni aytish mumkinki, ta’limga innovatsion yondashuv yangicha qarashlar, yangi texnologiyalarni qo‘llab, ta’lim berishni taqozo qilmoqda

Mustaqil ta’lim jarayonida ommaviy ochiq onlayn kurslarda foydalanish metodikasini ishlab chiqish ta’lim oluvchilarni mustaqil ishlarin bajarishga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga olib keladi hamda ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Onlayn platformalar (Moodle, Coursera, Khan Academy va boshqalar) yordamida mustaqil o‘qish bo‘yicha ko‘plab **ilmiy-eksperimental tadqiqotlar** o‘tkazilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning mustaqil bilim olish qobiliyati, motivatsiyasi, ishtirok darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ta’sirini tahlil qilgan.

Quyida muhim eksperimentlar va ularning natijalari keltiriladi:

1. Coursera platformasida o‘quvchilar ishtirokini tahlil qilish (USA, 2015–2018). O‘quvchilar mustaqil o‘rganish uchun qanday yondashuvlar samarali ekanligini aniqlash. Coursera - bu global onlayn ta’lim platformasi bo‘lib, dunyodagi yetakchi universitetlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va barcha uchun onlayn kurslarni taklif qiladi. Platformada 275 ta xalqaro universitet va kompaniyalarning 12 000 ga yaqin professional ta’lim kurslari mavjud. Platforma hamkorlari orasida Google, Amazon, Meta, Stenford, Yel va boshqalar o‘rin olgan. Coursera 4 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha ta’lim beradi: Biznes, Data, Texnologiya va Human. O‘quvchilar videodarslar + amaliy topshiriqlar orqali darslarni chuqurroq o‘zlashtirishadi.

2. Khan Academy tajribalari (X especially in K–12 education)

Amerikaning notijorat ta’lim tashkiloti bo‘lib, u 2006-yilda Sal Khan tomonidan talabalarni o‘qishga yordam beradigan onlayn vositalar to‘plamini yaratish maqsadida tashkil etilgan. Tashkilot video shaklida qisqa darslarni tayyorlaydi. Uning veb-saytida qo‘shimcha mashqlar va o‘qituvchilar uchun materiallar mavjud. Barcha manbalar veb-sayt va ilova foydalanuvchilari uchun bepul taqdim etilgan. O‘quvchilarning mustaqil ta’limga qiziqishini oshirish. Shu orqali o‘quvchilarni mustaqil bilimlari rivojlanadi.

Mustaqil o‘qishga qulay platformalar interaktivlik, shaxsiylashtirish, baholash mexanizmi orqali samaradorlikni oshiradi. O‘quvchiga avtonomiya (erkinlik) va qo‘llab-quvvatlovchi muhit berilganda, mustaqil ta’lim yanada muvaffaqiyatli kechadi.

Elektron texnologiyalarning hozirgi rivojlanish darajasi ta’lim tizimining innovatsion jarayonlarga intilishi bilan birgalikda oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonini o‘zgartirish va talabalarning mustaqil ta’lim vaqtini optimallashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida eng samarali innovatsion usullar va texnologiyalarni tanlash muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Innovatsion usullar fan va axborot texnologiyalarining zamonaviy yutuqlaridan foydalanishga asoslangan usullardir. Innovatsion usullar, eng avvalo, ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu pirovardida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish qobiliyati bugungi kunda o‘qituvchi faoliyatining asosiy malakaviy xarakteristikasiga aylanib bormoqda va o‘quv jarayonini tashkil etishning yuqori darajasiga o‘tishni anglatadi. O‘qitish jarayonidagi innovatsiyalar o‘quv jarayonining turli jihatlariga, jumladan, o‘quv xonalari maydonini tashkil etishni o‘zgartirishga, sinflarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlashga, shuningdek, yangi ta’lim texnologiyalarini sinovdan o‘tkazishga ta’sir qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi olimlar va pedagoglarni ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanishning tobora ko‘proq yangi imkoniyatlarini o‘rganishga undaydi. Axborot hajmi va talabalarning mustaqil ishi ulushining ortishi, o‘qituvchi yagona manba

bo‘lgan ta’lim jarayoni, shuningdek, talaba bilimning “passiv” obyekti sifatida ko‘rib chiqilishi yangi ta’lim texnologiyalarini izlashni va talabalarga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish zaruratini talab qiladi. Ta’lim jarayonida elektron ta’limni qo‘llash darajasiga qarab, onlayn ta’lim va aralash ta’lim ajratiladi.

Onlayn ta’lim (onlayn ta’lim) — internet texnologiyalari asosida o‘quv muhitidan foydalangan holda o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish jarayonini tashkil etish usuli.

Aralash ta’lim bu — onlayn ta’limning yuzma-yuz ta’lim bilan uyg‘unligi, an’anaviy shakllarning elektron texnologiyalar bilan integratsiyasidir. Aralash ta’lim (blended learning) an’anaviy ta’lim texnologiyalari bilan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining uyg’unligidir.

Aralash ta’limning elektron komponenti axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan tizimli va uzluksiz foydalanish orqali ta’lim jarayonini faollashtiradi, bu esa ta’lim faoliyatini ongli va mustaqil amalga oshirish va boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni faollashtirishga, yagona o‘quv hamjamiyatini yaratishga yordam beradi. Darsda mustaqil ravishda olingan bilimlar tizimlashtiriladi, tahlil qilinadi va amaliyotda ijodiy qo‘llaniladi. Aralash ta’limda foydalanuvchilarga masofaviy ta’lim tizimidan va o‘quv materiallaridan foydalanishga to‘liq ruxsat beriladi. Bu tizimda online kutubxonalar va manbalar mavjud bo‘ladi. Foydalanuvchilar bir qism nazorat ishlarini onlayn tizimda topshirishadi. Shuningdek, tizimda guruhli muloqotlar uyushtiriladi va to‘liq loyihalar amalga oshiriladi.

Mustaqil bilimlarni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib u o‘quvchilarning shaxsiy faolligini, tanqidiy fikrlashini, mustaqil axborot izlash va uni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil o‘qish faoliyati samaradorligini oshirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida interaktiv aloqani yo‘lga qo‘yish muhim omillardandir.

Onlayn ta’lim platformalari (Coursera, Khan Academy, Moodle) orqali olib borilgan eksperimentlar, mustaqil bilim olishni rag‘batlantiruvchi omillar — moslashuvchan ta’lim muhiti, topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish tizimi, baholashning shaffofligi va teskari aloqaning mavjudligi ekanini tasdiqlaydi. Bu borada milliy va xorijiy tadqiqotlar mustaqil ta’limni rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni taklif qilmoqda.

Shunday qilib, mustaqil bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan, tizimli yondashuvlar ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini ta’minlash va uni hayotiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. - Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313- son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son
2. Oliy ta’lim tizimida Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bo‘yicha malaka talablari. Toshkent, 2017.
3. Терский В.Н., Кель О.С. Игра. Творчество. Жизнь. – М.: Просвещение, 1986. С. 13.
4. “Khan Academy Traffic, Demographics and Competitors” (inglizcha). *www.alexa.com*. arxivlangan.

5. Tomlinson B., Whittaker C. Blended Learning in English Language Teaching: Course Design and Implementation. – London: © British Council 2013. – 25 c
6. Procter C. Blended Learning in Practice // “Education in a Changing Environment” Conference Proceedings. E.: Salford, 2003. – URL: https://www.researchgate.net/ publication/277177316

RAQAMLI MUHITDA YOSHLARNI SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARI

Qayumov Shohruh Abdujalol o‘g‘li
p.f.f.d. (PhD), dotsent Jizzax davlat pedagogika universiteti doktaranti

Annotatsiya. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 15-may kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida maktab ta’lim tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni kashf etish, ularni rag‘batlantirish yuzasidan bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Davlat rahbari tomonidan o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilangan vazifalar asosida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yangi bosqichga olib chiqishning mustahkam poydevoriga asos solindi. Yig‘ilishda belgilab berilgan vazifalar soha mutaxassislari va mutasaddilarga, rahbar xodimlarga yaratilgan imkoniyatlarni to‘laqonli ishga solish orqali mamlakatda aholi jismoniy faolligini oshirish va xalqaro sportdagi yutuqlarni yanada oshirishga xizmat kiladi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, yoshlar, salomatlik, sport, mexanizm, immunitet.*

Kirish. Har bir millatning kelajagi sog‘lom va barkamol avlodga bog‘liq. Sport esa nafaqat jismoniy tarbiya, balki vatanparvarlik va iroda maktabi hamdir. Mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun oxirgi to‘rt yilda ajratilgan mablag‘ 1,5 trillion so‘mdan 3 trillion so‘mga oshirildi. 101 ta yirik sport inshooti qurilib, 67 tasi rekonstruksiya qilindi. Bu e’tibor samarasi o‘laroq, Parij Olimpiadasida yurtimiz sportchilari qator yutuqlarga erishdi.

Prezidentimiz endi 2028-yil Los-Anjeles Olimpiadasida O‘zbekiston sportchilarining kuchli o‘ntalikka kirishini maqsad qilib belgiladi. Buning uchun seleksiya tizimini yaxshilash, sport federatsiyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va malakali murabbiylarni tayyorlash muhim vazifalardan biri etib belgilandi.

Bugungi kunda sportni har tomonlama rivojlantirish, xalqaro arenalarda yuqori cho‘qqilarni zabt etishda OTMlarning o‘rni beqiyos. So‘nggi yillarda nafaqat poytaxtda balki har viloyat markazida faoliyat olib borayotgan oliygohlar sport yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashga o‘tishmoqda. Mazkur tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etishda Jizzax davlat pedagogika universiteti ham faol ishtirok etmoqda.

Yurtimizda juda qisqa muddatda oliy ta’lim tizimidagi muammolar bartaraf etilib, davr talablariga moslashtirildi. Yoshlarning oliy ta’limdagi qamrovi 9 foizdan 42 foizga yetkazildi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati uchun ham keng yo‘l ochildi. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni sohada yangi sahifa ochishga zamin yaratdi. Unda intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berildi.

Konsepsiya asosida OTMlarga qabul kvotasi ko‘paytirildi, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalari amaliyotga keng joriy etildi. Shuningdek, yoshlarni sport jalb qilish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini sport maktablari bilan hamkorlikda qilish va boshqa qator yo‘nalishlarda samarali natijalarga erishildi. Xalqaro tajribalar asosida oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimdan ko‘ra, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga kuchli e’tibor qaratilyapti.

Talabalarda sport haqida, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish va boshqa maqsadlarda oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berilmoqda. Ayniqsa, moliyaviy mustaqillik ortidan ko‘p yillardan buyon qaddini ko‘tarolmay kelayotgan institut va universitetlar o‘z nufuzini tiklayapti. E’tiborlisi, har jihatdan mustaqil OTMlar xalqaro reytinglardan munosib o‘rin egallab, jahonda yangi O‘zbekiston imidjini shakllantirishga hissa qo‘shmoqda.

Har bir ta’lim muassasasi talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli qilish uchun ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni muntazam o‘tkazishga alohida e’tibor qaratadi. Ayniqsa, madaniy uchrashuvlar, sport musobaqalari, ijodiy to‘garaklar va ilmiy konferensiyalar orqali yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish odat tusiga kirgan. Biroq aksariyat talabalar mazkur imkoniyatdan to‘liq foydalanmayotgani ham bor gap. Bu esa yoshlarning bo‘sh vaqtini qanday tashkil qilish va ularga yanada ko‘p imkoniyat yaratish masalasi haqida chuqur o‘ylash ehtiyojini paydo qiladi. Xo‘sh, bu borada nimalar qilishimiz kerak? Qanday jihatlar e’tiborga olinishi zarur?

Avvalo, har bir ta’lim muassasasida talabalarning bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazayotgani, ularga qaysi to‘garaklar yoki faoliyat turlari qiziq ekani, shuningdek, qanday yangi imkoniyatlarni istashi haqida so‘rovnomalar o‘tkazish ayni muddao. Ushbu so‘rovnomalar orqali talabalar orasida ilmiy, sport, ijodiy, madaniy yoki texnik yo‘nalishlarga qiziqish darajasini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, so‘rovnomalar davomida talabalarga shaxsini rivojlantirish uchun qanday mashg‘ulotlar, seminarlar yoki treninglar kerakligi haqida fikr bildirish imkoniyati ham taqdim etilishi kerak.

Bugungi ahvolni hisobga olsak, talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun ko‘proq innovatsion yondashuvlar va yangi dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Misol uchun, talabalar o‘rtasida jamoaviy sport musobaqa tadbirlar, ilmiy va madaniy faoliyatga qiziqishni oshirish maqsadida interaktiv va zamonaviy usullarni qo‘llash mumkin. Bunda darsdan so‘ng tashkil etilayotgan to‘garak va kurslarni onlayn va oflayn tashkil etish lozim. Ayni tashabbus talabalar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi. Chunki ba’zi yoshlar shaxsiy va ijtimoiy sabablar tufayli darsdan keyin to‘garak yoki kurslarga qatnashga qiynaladi. Onlayn to‘garak va kurslar bu borada qulay imkoniyat taqdim etadi. Sport bilan kechki va tongi mashg‘ulotlarda qatnashish talabalarda sport immunitetini oshirishda dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.

Shu kabi dasturlarni mobil ilova yoki veb-platformalar shaklida ishlab chiqish, talabalar uchun qulay va interaktiv tarzda taqdim etish lozim. Jismoniy tarbiya va sportga oid xalqaro konferensiyalar, vebinarlar yoki “Talabalar ligasi”, “Besh tashabbus” olimpiadasi va “Universiada” sport musobaqalari ham o‘tkazib borish ayni muddao. Buning natijasida talabalarda turli musobaqalarda ishtirok etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bilimini boyitadi va jismonan sog‘lom qiladi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun to‘garaklar nafaqat voleybol yoki basketbol yo‘nalishida, balki zamonaviy va amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi shaxmat, kiber sport turlari kurslarni ham qamrab olishi kerak. Misol uchun, mobilografiya kurslarida zamonaviy texnologiyalar yordamida kiber sportga keng yo‘l ochilmoqda va kontent yaratish asoslari o‘rgatiladi.

Bugun talabalarning ko‘pida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga, ayniqsa sport to‘garaklarga qiziqish kamdek. Buning sabablaridan biri telefon yoki kompyuter o‘yinlari yoki shunchaki vaqtini behuda o‘tqazmoqda. Bu esa ularning ma’naviy va sport tadbirlarda qatnashish imkoniyatini kamaytiradi.

Hozir deyarli barcha oliy ta’lim muassasasida an’anaviy sport maydonchalari mavjud. Shunday bo‘lsa-da, talabalar orasida sportning zamonaviy shakllari, ayniqsa, fitness va individual shug‘ullanishga qiziqish ortib bormoqda. Biroq OTMlar hududida yetarlicha jihozlangan sport zallari va fitness markazlari bor bo‘lsada talabalar tashqaridagi pullik sport zallariga borishni afzal ko‘rmoqda. Xorijdagi universitetlar tajribasiga nazar solsak, oliy ta’lim muassasasining o‘zida zamonaviy sport zallari, fitness va yoga markazlarini tashkil etilganini ko‘rish mumkin.

Talabalarda o‘qish mobaynida stress, xavotir kabi ruhiy holatlar bo‘lishi tabiiy hol. Imtihonlar, akademik talablar va shaxsiy muammolar ularning ichki holatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois, ko‘plab rivojlangan davlatlarning yetakchi oliygohlarida talabalar uchun psixologik maslahat markazlari va sport to‘garaklari faoliyat yuritadi. Bu markazlar nafaqat stress va depressiyani yengishda yordam beradi, balki talabalarning ma’naviy-ruhiy kamolotiga ham xizmat qiladi.

Shu o‘rinda talabalarga ma’naviy va psixologik jihatdan yordam berish uchun psixologik maslahat va motivatsion treninglar o‘tkazishga mo‘ljallangan ma’naviy va ruhiy barqarorlik markazlari tashkil etish, stressni kamaytirish bo‘yicha ma’rifiy seminarlar o‘tkazish hamda ruhiy salomatlikni mustahkamlash orqali ma’naviy-ruhiy kamolotni oshirishga xizmat qiluvchi mashg‘ulotlarni joriy qilish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga talabalarga sport maslahat xizmatlari yoki yoga sport turini ko‘rsatish ham samara beradi. Bu kabi loyihalar ma’naviy-ma’rifiy jihatdan talabalarning ruhiy holatini barqarorlashtirish, ruhlantirish va o‘quv jarayonini to‘g‘ri davom ettirishiga yordam beradi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, sportga kirib kelayotgan har bir yoshga imkoniyat yaratish, ularni rag‘batlantirish va kelajakda O‘zbekiston nomini xalqaro arenalarda yanada yuksaltirish – umumiy vazifamizdir.

Xulosa. 1. Ilmiy–uslubiy adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, bugungi kunda I va II kurs talabalarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi hamda harakat faolligi to‘g‘risida yetarli darajada ma’lumotlar yo‘q.

I va II kurslarda jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlari olib borilayotgan bo‘lsada lekin unda bolalarning yoshlariga e’tibor berilmagan.

I-IV bosqichlar uchun jismoniy tarbiyadan davlat ta’lim standartida haftalik jismoniy tarbiya darsini uch soat o‘tilishi mumkinligi haqida aytilgan bo‘lsada, hozirgi kunda asosan respublikamizda umumta’lim OTMlarining I va II kurslarida haftada ikki soat dars o‘tilmoqda. Bu haftani o‘tkazilayotgan ikki soatli jismoniy tarbiya bolalarning haftalik harakat faolligini yetarli darajada ta’minlab bermayapti.

2. I va II kurs talabalarining jismoniy tarbiya va o‘quv kun tartibidagi jismoniy sog‘lomlashtirish ishlarini o‘rganish hamda tahlil qilishda shunday xulosa qilish mumkinki, amaldagi jismoniy tarbiya dasturi hozirgi kun talabiga to‘la javob bermaydi. I-IV bosqichdagi jismoniy tarbiya darslari eski buyruq usulda o‘tkazilmoqda. Bu esa bolalarni kunlik harakat faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori” 2015. 4-b.
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637, 2020-yil 23-sentabr.

3. Sh.M.Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so‘zi» gazetasi. 2020-yil, 25-yanvar, 19(7521)-son.
4. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
В данной стате освешены вопросы формирования элементарных знаний у воспитанников дошколных учреждений и подчеркнута эффективност внеклассных занятий в началных классов.

Ключевые слова*: детский сад, школа, воспитанник сотрудничество воспитателя и учителя, знания, умения, природа обшество, чувство, морал, образованный, воспитанный, кружок, экскурсия, метод, принцип, изобразителное искусство, фотография.*

Ma’lumki, bugungi kunda davlatimiz yosh avlodni komil inson qilib shakllantirish masalasiga katta e’tibor bermokda. Jumladan, davlatimizning barkarorligi. gullab-yashnashi, tinchligi ta’min etilishi va mustahkamlanishi mukarrardir. O‘zbekistonning kelajagi hisoblanmish barkamol avlodni shakllantirish, mustahkamlash, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza kilish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ma’naviyati boy avlod-ajdodlarimizning an’analariga mehr-muhabbatni shakllantirish borasida respublikamizda olib borilayotgan siyosatning mazmun va mohiyati ham shundan iborat.

Raqamli ta`lim muhitda maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari bilan ishlash murakkab jarayon, unga asosiy sabab, tarbiyachining bola ichki dunyosidagi o‘zgarishlarni yaxshi bilmasligi va tushunmasligidan, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyachining bola rivojlanish tarakqiyoti darajasi talabiga moslashmaganligida ham deb ta’kidlash mumkin. Shuning uchun, raqamli ta`lim muhitda maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi kichik yoshdagi bolalarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda kuyidagilarni xisobga olmog‘i lozim. Ya’ni:

- Tarbiyalanuvchining hayoti va faoliyatidagi jismoniy va ma’naviy o‘sishning o‘zgarishi;
- bola tevarak atrofidagi o‘zgarishlarni o‘zi idrok kilishi, uning emotsional-psixik holatiga o‘zining baho berishini;
- bolaning kattalardek mustakilligi, kobiliyati, hayotga tayyorgarligi, tabiat va jamiyat hodisalariga munosabati kay darajada ekanligi; ularning emotsional ta’sirlanuvchanligi, psixik vazmin emasligini e’tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Raqamli ta`lim muhitda maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari bilan o‘tkaziladigan ta’limiy mashg‘ulotlarda tabiat va jamiyat konunlarini ular tomonidan idrok etishning murakkabligi, buning asosida chukur hissiy va axloqiy kechinmalar bilan bog‘lik, bu esa, bevosita bola shaxsi ongiga, xulk-atvoriga ta’sir etuvchi tabiat va jamiyat go‘zalligi yotganligi bilan izohlanadi. Tabiat va u bilan bog‘liq ma’lumotlarni uning yoshiga xos va mos tarzda etkzish bolaning bilish faoliyatining mantiki ayniqsa, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyaning barcha boskichlarida asosiy o‘rinni idrok etish va o‘zlashtirish egallaydi. Shuning uchun ham tabiat, jamiyat konunlarini o‘rganish jarayonida, o‘quvchilar nazariy bilimlarni egallab oladi va tabiat hodisalarini, unga nisbatan insoniyatning munosabatini baholash malakasini egallaydi.

Mazkur jarayon uzluksiz ravishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflari o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish daomida yanada mustahkamlanadi. Ma’lumki, tabiat, atrof-muhit, o‘simlik va hayvonot olami o‘quvchi shaxsining his-tuyg‘ularini tarbiyalashda muhim vosita sanaladi. O‘qituvchi o‘quv darsliklaridagi ilmiy ma’lumotlarni berish bilan birga o‘quvchining darsdan tashqari mashg‘ulotlarda bilim va kunikmalarini rivojlantirishga jiddiy e’tibor berishi talab etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga hayotiy muammolarni echish yo‘llarini, tabiat-jamiyat hodisalari moxiyatidan izlab topishni o‘rgatishga aloxida ahamiyat berishlari zarur. Bunda darsdan tashqari mashg‘ulotlarning ahamiyati kattadir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan darsdan tashkari ishlashning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining masarasi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi kalbiga majburiy kirib bormaslik, ma’naviy dunyosiga so‘roksiz ta’sir ko‘rsatmaslikka bog‘liq.

Maktabdagi ichki tartib nafakat o‘quvchining o‘qishiga, balki ularning ongi, madaniyati, xulk-atvoriga xam ta’sir etadi. Maktab jamoasining o‘zaro bir-birlariga murojaatlari, kiyinish madaniyati, o‘zaro yordami, ishonchi, madaniy muomalasi, yurish-turishi, maktabning sinf xonalari, estetik jixozlanishi, maktab xovlisining ko‘kalamzorlashtiril-ganligi, tozaligi, maktab madaniy xayoti bilan bog‘lik konun-qoidalar o‘quvchi ongining shakllanishiga ta’sir etadi. O‘z navbatida burchni xis kilish, batartiblik, intizomlilik, mexnatsevarlik kabi sifatlarni shakllanishiga olib keladi.

Boshlangich sinf o‘kuvchisi darsdan tashkari vaktda manzarali va mevali daraxtlar (chinor, tol, terak, olma, behi, yong‘ok, o‘rik, anor kabilar); kushlar (chumchuk, bulbul, bedana, kaldirgoch, laylak kabilar), uy parrandalari (tovuk, g‘oz, o‘rdak, kurka kabilar), baliklar (losos, kit, akula, sazan, osetra kabilar), hasharotlar (pashsha,chivin, ari, asalari, kapalak, chumoli kabilar); butali daraxtlar (atirgul, na’matak), qishlok, xo‘jaligi ekinlari (makkajo‘xori, bug‘doy, arpa, paxta kabilar); poliz o‘simliklari (sabzi, piyoz, pomidor, bodring, kartoshka, karam, tarvuz, kovun kabilar)ni; gullar (lola, atirgul, rayxon, namozshomgul, bo‘takuz kabilar) ni etishtirish jarayonini oilada, maktab er maydonida ko‘rish, shu jarayonda ishtirok etish zamirida mexnatga muxabbat asosida tarbiyalanib boradi. Atrof-muxitni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarida faol mexr-shafkat va muxabbat xissi shakllanadi. Uy hyvonlari (sigir, ko‘y, echki, ot, tuya, it, kabilar); suvda va kuruklikda yashovchi xayvonlar (balik, kurbaka, ilon, toshbaka kabilar), kushlar katnashadi. Shu zamirda, ularda go‘zallikka intilish, tabiatga nisbatan mexr-muxabbat xissini paydo kiladi.

Ma’lumki, hamma fasllar uchun zarur bo‘lgan - bu suv. Inson salomatligi, atrof-muxit, turar joylarning toza-ozodaligida suv muxim axamiyatga ega. Ifloslangan suv inson salomatligi uchun xavfli kasalliklar tarkatuvchi manba xisoblanadi, sanoatdagi texnologik jarayonga salbiy ta’sir etadi. U inson organizmi uchun zarur mineral modda hisoblanadi. Chunki, inson vaznining 70 foizi suvdan iborat. Shuning uchun, suv xayot manbai xisoblanadi. Bundan tashkari shaxar va kishloqlarning, xonadonlarning ozodaligini saklashda, obodonchilikda, dam olish xordik chikarish maydonlarida poklovchi vazifasini xam bajaradi. Undan dexkonchilik, energetika va xalk xo‘jaligini rivojlantirishda transport vositasi sifatida, ommaviy sport ishlarida xam foydalaniladi.

Darsdan tashkari mashg‘ulotlarning o‘zaro alokasi o‘quvchilarda muxim axlokiy kadriyatlarni shakllantirishga xizmat keladi. O‘quvchi dars jarayonida darslikda, metodik ko‘llanmalarda berilgan ma’lumotlarni nazariy jixatdan o‘rganadi, uni muhokama etish jarayonida ishtirok etadi. Darsdan tashkari sayoxat, to‘garak ishlari jarayonida esa o‘quvchi o‘zi bir karorga kelishga to‘g‘ri keladi. Dars jarayonida olgan nazariy bilimlarni mustakqil xatti-xarakatlar orkali amaliyotga tatbik etishga muyassar bo‘ladi.

Masalan. 2-3 sinfda olib boriladigan darsdan tashkari mashg‘ulot. 1-hafta. Sayrning mavzusi: Maktabimiz atrofidagi tabiat. Bunda o‘quvchilar tartib bilan maktab xovlisita olib chikiladi; maktab xovlisidagi gulzor, daraxt, okar suv, ekin ekilgan maydon bilan tanishtiriladi; hovli sathidagi ob’ektlarga e’tibor beriladi; o‘simliklar nima maksadda ekilganligi xaqida suxbat uyushtiriladi; shu ko‘rilgan narsalarning xammasi tabiat ekanligi tushuntiriladi. 2-xafta. Sayrning mavzusi: Ob-xavoning kishki xolati bilan tanishish. Sayrning maksad va mazmunini anik, belgilash. Bunda: maktab xovlisiga o‘quvchilar olib chikiladi; havoda bulutlar kuzdagiga nisbatan ancha ko‘paygan; sovuk izg‘irinli shamol esmoqda; bulut kuzdagiga nisbatan ancha past, kalin, kushlar kam; musicha, chumchuklar uchib yurganiga e’tibor beriladi.

Yukoridagi mashg‘ulotlar bolalar uchun yana xam kizikarli bo‘lishi maksadida kuyidagi ob-xavo darakchilari mavzusida kiska suxbat o‘tkaziladi. Kuyida Siz baxor va yoz fasli bilan bog‘lik xalk donishmandiligi namunalaridan o‘kiysiz: havo bulutli kunlari kanotli chumoli paydo bo‘lsa yomg‘ir yog‘adi; boyo‘g‘li bezovtalanib dam-badam kichqira boshlasa, tez orada xavo o‘zgarib bulutlar paydo bo‘ladi; turnalar barvakt uchib kelsa, ko‘klam erta boshlanadi; kechga tomon botayotgan kuyoshning kizg‘ish nurlari ustida kora bulut paydo bo‘lsa ertasi kuni xavo ochik bo‘ladi; qaldirg‘ochlar er bag‘irlab uchsa xavo yaxshi bo‘ladi.

3-hafta. Sayrning mavzusi: Tabiatga ekskursiya. O‘quvchilarni bog‘ yoki parkka ekskursiyaga olib chikish. Ekskursiyada olgan taassurotlarini o‘zlariga xikoya kildirish nutk o‘stirishda muhim

axamiyatta ega. O‘kituvchi ekskursiya orkali ularni tabiatni jamoat bo‘lib kuzatishga, narsa va xodisalar hakida tasavvur hosil kilishga va kezi kelganda ularni eslashga, tabiatni sevishga va undagi narsalarni extiyot kilishga o‘rgatadi. Ularda tabiat xodisalar xakidagi dunyokarashni tarbiyalash, xodisalarni kuzatishga o‘rgatish, tabiat kalendarini yuritish kabilar boshlangich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirish maksadida ular maktab yakinidagi joylarga xo‘jalik bog‘iga ekskursiyaga olib chikiladi. Ekskursiyaga borishdan oldin o‘kituvchi o‘quvchilarga ekskursiyaning maksadini va o‘tkazilish tartibini tushuntiradi va uning xakikiy dars ekanligini fakatgina sinfda yoki partada emas, balki tabiat kuchog‘ida bog‘da o‘tkazilishini aloxida ta’kidlab o‘tadi. O‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiatning fasliy o‘zgarishlari bilan tanishishi to‘g‘risida batafsil hikoya kilib beradi.

Darsdan tashkari tarbiyaviy ishlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy kadriyatlar asosida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarga olingan takdirda o‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar samarali natijalar berishi mumkin. Bu xususiyatlar: tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni o‘quvchi dars jarayonida olgan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, to‘ldirishga xizmat kilishi; har bir tarbiyaviy tadbir shaklining o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlariga, kizikishlariga, ma’naviy talab va extiyojlariga mos bo‘lishi; uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirning o‘quvchi kundalik hayotning tarkibiy kismiga aylanib kolishiga erishish; tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalanishga aloxida e’tibor berish; tarbiyaviy tadbirning ixtiyoriylik, tashabbuskorlik tamoyillari asosida tashkil etilishi; tarbiyaviy ish mazmunining o‘quvchi, oila va jamoatchilik ta’sirida egallagan malaka va ko‘nikmasiga mos bo‘lishi, bir-birini to‘ldirishi, mustaxkamlashi.

Jumladan, tajriba sinflarida (2-sinf) "Kuzda bog‘ ko‘rinishi" rasmi bo‘yicha tashkil etilgan mashg‘ulotda turli metodlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim darajasini oshirish mumkin. Mashg‘ulotda o‘qituvchi dastlab o‘quvchilarning rasm asosida fasllar va ularning xususiyatlari bo‘yicha bilim darajalari, tasavvurini bilish maksadida - Bu rasmda nimalar tasvirlangan? Qaysi fasl? Kuzda nimalar pishadi? kabi savollar bilan murojaat kiladi. Bolalar tabiat fasllarini ko‘z oldiga keltirgach, berilgan savollarga - Bog‘ning ko‘rinishi tasvirlangan. Kuz fasli. Kuzda mevalar pishadi kabi javoblarni aytadi. Bu savol-javoblar orkali o‘quvchilar gapda so‘zlarning kanday bog‘langanini amaliy ravishda ko‘rsatib beradi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchining o‘kish tezligi, savodxonligi, hatti- harakati, axlok-odobidagi kamchiliklar aniklanadi, individual ishlashni talab etadigan o‘quvchilar aniklanadi. Bularni oldini olishda, o‘quvchining kayfiyati kuzatib boriladi, mexnat, o‘yin faoliyati tahlil etiladi, ularni rivojlantirishga e’tibor beriladi. Darsdan tashkari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida rasmga karab hikoya kilish, bayon yozdirish, og‘zaki va yozma savol-javoblardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlashi, dunyokarashi, kobiliyati o‘sishiga ko‘maklashadi.

Mashg‘ulotlar jarayonida fakat ta’lim-tarbiyadagi bir xil metodlardan foydalanish bilan chegaralanib kolmasdan, tarbiya berishning o‘yinlar shaklidan xam foydalanish samarali hisoblanadi. Chunki, o‘yin o‘quvchilarning ijodiy xamda mustakil faoliyatidir. Shuni nazarda tutib, ta’lim-tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘nikmalarni shakllantirishda turli o‘yinlardan foydalaniladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘kuvchilarida ayrim axloqiy xarakter va xususiyatlarni shakllantirishda mehnat yoki o‘qishdan ko‘ra o‘yin muxim rol o‘ynaydi. O‘yin ularda yaxshilik va yomonlik xakidagi tushunchalarni, axlokiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat kiladi. O‘yin chakqonlik, ziyraklik va anik hamda tez harakat kilish, shuningdek, mustakillik, tadbirkorlik, o‘rtoklik va boshka axloqiy-ma’naviy kadriyatlarni shakllantiradi. O‘yin ularni kattalar olamiga olib kirishga, ularga xayotni, vokealikni to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

Masalan, 3-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan "Mexnat va o‘yin" ertaligi o‘quvchilarning o‘yin faoliyati mexnat bilan bog‘likligiga, o‘yin orkali ularni mexnatga kiziktirish va mexnatsevarlikka o‘rgatishning muxim omili ekaniga ishonch hosil kilish mumkin. Ertalikdan ko‘zlangan maksad asosan o‘quvchilarga mexnatni kadrlash, o‘yinda, mexnatda xam g‘ayrat-shijoat

ko‘rsatish, chaqqon xarakat kilish zarurligini tushuntirish, mexnat sharoitining yaxshilanishi, mexnat unumdorligi inson salomatligi uchun muxim omil ekanligini tushuntirish, xarakatchan o‘quvchi o‘yinda g‘olib chikkanidek uddaburron, saranjom-sarishta, rejali ishlaydigan odamning mexnati unumdor bo‘lishini anglatishdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mexnatga muhabbat hissini uyg‘otish va ularni mexnat qilishga o‘rgatishdan iborat bo‘ladi. O‘quvchilar ushbu mexnat bayramlarini mexnat darslarida o‘tilgan mavzular, o‘ynalgan o‘yinlar yuzasidan uddaburron, chakkonlar mavzuidagi yangi raqam tayyorlash bilan kutib oladi.

Mashg‘ulot koidasi va uni o‘tkazish tartibi e’lon kilingach, o‘quvchilarga QOG‘OZ bilan ishlash bo‘yicha geometrik figuralar tayyorlash, plastilin bilan ishlash bo‘yicha choklar tikish va tugmacha qadash kabi topshirikdar beriladi. Ular topshiriklarni bajarayotgan paytlarida sinfning qolgan o‘quvchilari tomonidan navbatma-navbat she’rlar o‘qiladi, ko‘shikdar aytiladi, kizlar raksga tushishadi, turli o‘simliklar maskalarini kiygan o‘quvchilarning chikishlari namoyish etiladi. “Baxor valsi” kuyi, "Yosh xunarmandlar ko‘shig‘i" kabilar tinglanadi. Bulardan tashkari o‘quvchilar bilan mexnat, ishchilarning faoliyati xakida savol-javob o‘tkaziladi. "Topar bo‘lsang topa kol" o‘yini o‘ynaladi. Bu mexnat mashg‘uloti jarayonida o‘quvchilarning chakqon xarakat kilishlari, berilgan vazifani kay darajada sifatli bajarganliklariga e’tibor beriladi. Ular esa o‘z kobiliyatlari, tirishqokligi, mexnatga munosabati, bilim darajasini amaliy faoliyatlari orkali namoyon etishga muvaffak bo‘ladi.

Darsdan tashkari ishlarni olib borayotganda bu ishlarning xususiyatiga karab, kuyidagi mezonlarga tayanish lozim: birinchidan, darsdan tashkari ishlarga o‘quvchilar o‘z kizikishlari asosida ixtiyoriy ravishda katnashadi, dars jarayonidagi majburiylikka karama-karshi o‘larok, bu erda ixtiyoriylik tamoyiliga amal kilinadi; ikkinchidan, olib boriladigan mashg‘ulotlar tugarakda muntazam ravishda, darsdan tashkari ishlarning ommaviy turlarida esa vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladi; uchinchidan, darsdan tashkari tadbir va mashg‘ulotlar ishtirokchilari o‘zlarining yosh xususiyatlari xamda jismoniy va pedagogik-psixologik imkoniyatlariga mos ravishda ma’lumot oladi; to‘rtinchidan, o‘quvchilarning darsdan tashkari olgan bilimlari yangi axborotlardan iborat bo‘ladi; beshinchidan, berilgan yangi axborotlar, bilim va ko‘nikmalar Davlat ta’lim standartlariga mos bo‘lishi kerak; oltinchidan, darsdan tashkari ishlarning kamrovi kiziktirish va yo‘naltirish evaziga muntazam ravishda kengayib borishi, ommaviylik kasb etishi lozim; ettinchidan, o‘quvchiga darsdan tashqari berilayotgan ma’lumotlar imkon kadar ko‘rgazmali bo‘lishi kerak.

Ushbu tamoyillarga amal kilish darsdan tashqari tadbirlarning xuddi darslar singari kiziqarli bo‘lishi, o‘quvchilarga ko‘shimcha ma’naviy ozuka berishi, ulardagi ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiri-shini ta’minlaydi. Darsdan tashqari ishlar jarayonida nutk o‘stirish uchun turli narsa, vokea va xodisalarning atamalarini eslab kolish va kayta yodga solish maksadida tayanch signal vazifasini o‘tovchi ko‘rgazmali vositalar, jumladan tasviriy san’at asarlari, fotosuratlardan ham unumli foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"//Barkamol avlod-O‘zbekistan tarakqiyotining poydevori, - T.: 1997. – 64 b.

2. Abduraxmonov M. Vneklassnaya rabota kak faktor formirovaniya tvorcheskix sposobnostey uchashixsya. -T., 1990.

3. Abdullaeva K. Nutk o‘stirish. - T.: O‘kituvchi, 1980. -120 b.

4. Abdukodirov N. Ekskursiya nutk malakalarini o‘stirish vositalari-dan biri. -T, 1973. - B. 66-68.

MILLIY TARBIYA KONTENTLARINI YARATISHDA TIL VA USLUB MUVOFIQLIGI

Rahimboy Jumaniyozov
filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy tarbiya kontentlarini yaratishda til va uslubning o‘rni, ularning tarbiyaviy ta’siri va yosh auditoriyaga mosligi masalalari yoritiladi. Tarbiyaviy materiallar nafaqat mazmun jihatdan, balki til va ifoda uslubi orqali ham ta’sirchan bo‘lishi zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, samarali til-uslubiy yondashuvlar hamda ularni qo‘llashda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *nutq, kontent, tajriba, audiovizual, voizlik, uslub, material, podkast, madaniyat, qadriyat, ta’sirchan targ‘ibot, o‘smirlik, ijtimoiy tarmoq, qisqa hikoyalar (storytelling), audio prokatka, interaktiv testlar, milliy qadriyatli o‘yinlar (gamification), infografika, ta’limiy risola, darsliklar, buklet, milliy tarbiya, raqamli platforma.*

Abstract: *This article discusses the role of language and style in creating national educational content, their educational impact and suitability for a young audience. It is argued that educational materials should be effective not only in terms of content, but also through language and style of expression. It also analyzes effective language and style approaches, the shortcomings in their application and ways to overcome them.*

Keywords: *speech, content, experience, audiovisual, preaching, style, material, podcast, culture, value, effective propaganda, adolescence, social media, short stories (storytelling), audio rolling, interactive tests, national value games (gamification), infographics, educational brochure, textbooks, booklet, national education, digital platform.*

Milliy tarbiya kontentlari — bu xalqning qadriyatlari, axloqiy me’yorlari, an’analari va ijtimoiy xulq-atvorini yoshlarga yetkazuvchi vositadir. Milliy tarbiya kontentlarini yaratishning muhim mezonlari bor. Buning zamirida dastavval, o‘zlikni anglash turadi. Bu esa – tarix, madaniyat, til, urf-odat, qadriyatlarni e’zozlash demakdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaga sadoqat ham uning zamirida. Har bir yosh qalbida – halollik, sabr, hurmat, mehr-oqibat, vatanparvarlik tuyg‘ularini junbushga keltirish ham milliy tarbiya kontentini yaratish bilan chambarchas bog‘liq.

Ota-onaga hurmat, ota-onalik mas’uliyati, diniy bag‘rikenglik, mehr, sabr, tavoze kabi fazilatlarni singdirish, birinchidan, kontent shakllaridan unumli foydalanishni, ikkinchidan, til va nutq uslublarini o‘rinli istifoda etishni talab etadi.

Hozirgi paytda ijtimoiy tarmoqlarga nazar tashlasangiz, videodarslar, animatsiyalar, qisqa hikoyalar (storytelling), audio podkastlar (xalq ertaklari, donishmandlar so‘zlari), interaktiv testlar va milliy qadriyatli o‘yinlar (gamification), infografika, ta’limiy risolalar, darsliklar, bukletlar kabi milliy tarbiya kontentlarining shakllaridan foydalanishayotganining guvohi bo‘lasiz. OAV va raqamli platformalarda, ya’ni ijtimoiy tarmoqlardagi tarbiyaviy kontentlar YouTube / Telegram / TikTok orqali qisqa, ta’sirli roliklar har xil saviyada tayyorlanayotgani sir emas.

Shuni unutmaslik kerakki, tarixiy va ma’naviy noto‘g‘ri talqinlar, stereotiplarga asoslangan yondashuvlar (ayollar, yoshlar, millatlar haqida), zamonaviy avlodga tushunarli bo‘lmagan, eskicha til va uslublar yoshlarda milliy qadriyatlarga befarqlikni keltirib chiqishidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Bugungi raqamli asrda bu kontentlar turli formatlarda (video, matn, animatsiya, audio, interaktiv dastur) taqdim etilarkan, dastavval, ularning samaradorligi ko‘p jihatdan til va uslub muvofiqligiga

bog‘liqligini unutmaslikkerak. Til bu yerda shunchaki vosita emas, balki tarbiya g‘oyalarini yetkazuvchi asosiy kuchdir.

Til mos-u xosligi – yosh, saviya va madaniy kontekstga qarab yondashuv talab etadi. Boshqacha aytganda, kontent bobo bilan bobo tilida, bola bilan bola tilida gapira olishi kerak.

Til va uslub muvofiqligi o‘z-o‘zidan nutq madaniyatiga rioya etish va uni ixcham shaklda ifoda etish lozimligini talab etadi. Bu esa nutq madaniyatining asosiy komponentlarini bilish va amal qilishga bog‘liq.

- Grammatik jihatdan to‘g‘ri iboralar tuzish;

- Bayonning soddaligi va ravshanligi;

- Ifodalilik: intonatsiya va tonallik; nutq sur’ati va tanaffuslar; ovozning dinamikasi; leksik boylik; tasvirlilik; diksiya.

-Kundalik hayotdagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish: urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish; mahalliy dialektlarning istisno qilinishi.

- Ilmiy terminologiyadan to‘g‘ri foydalanish: eshitishga yoqimsiz iboralarning istisno qilinishi; ortiqcha so‘zlarning yo‘q qilinishi; jargon va ommabop (modadagi) so‘zlarning chiqarib tashlanishi.

Nutqiy va harakatli muvofiqlashuv (rechedvigatelnaya koordinatsiya).

Nutq madaniyati — bu ko‘p qirrali, murakkab va keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning asosini grammatik jihatdan to‘g‘ri jumla tuzish qoidasi tashkil qiladi. Grammatik qoidalarni yaxshi bilish o‘qituvchiga o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy shaklda ifoda qilish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilar uchun ta’lim mazmunini to‘g‘ri anglashni yengillashtiradi. Aks holda, nutqda ma’no buzilishi va xato talqinlar yuzaga kelishi mumkin.

Nutq madaniyatidagi ikkinchi muhim jihat — bayonning soddaligi va ravshanligi. Bir xil g‘oyani o‘quvchilar uchun tushunarli tarzda izohlash mumkin, yoki aksincha — uni shunchalik murakkab va fanga xos qilib taqdim etish mumkinki, natijada o‘quvchilar uni anglay olmasligi mumkin. Qiyin mavzularni sodda va hayotiy misollar orqali bayon qilish o‘qituvchining fikrlash aniqligi va tasviriy nutq vositalaridan unumli foydalanishiga bog‘liq.

Uchinchi muhim omil — nutqning ifodaliligi. Bu holat nafaqat to‘g‘ri so‘z va iboralar tanlash, balki ovoz tembri, nutq sur’ati, tanaffuslar, intonatsiya, diksiya va boshqa ifoda vositalaridan foydalanish orqali ham ta’minlanadi. Intonatsiya va tonallik faqat shunchaki axborot yetkazib berish emas, balki o‘quvchilarning hissiyotiga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham faol ishtirok etadi. Ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi ta’lim jarayonida emotsional muhitni shakllantiradi. Nutq sur’ati ham muhim ahamiyatga ega: juda tez nutq — ma’lumotni qabul qilishda qiyinchilik tug‘diradi, juda sekin nutq esa — o‘quvchilarni zeriktiradi. Tanaffuslar orqali esa ma’lumotning mantiqiy va psixologik yoritilishi ta’minlanadi. Ovozning dinamikasi (balandligi, pasayishi) ham ma’lumotni yaxshi o‘zlashtirish uchun muhimdir. Monologning barcha qismida ovozni bir xil balandlikda ushlash — diqqatni susaytirishi mumkin.Leksik boylik — nutqning obrazliligi va ta’sirchanligini oshiradi. Ushbu boylik maktab yoshiga mos, tushunarli til vositalari bilan amalga oshirilishi zarur.Tasvirlilik — ta’lim mazmunini o‘quvchi uchun tushunarli qilib berishda muhim omil hisoblanadi.Diksiya — yaqqol va ravshan talaffuz qilish qobiliyati — o‘qituvchining nutqini tushunishni osonlashtiradi.

To‘rtinchi omil — so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish. Ushbu sohada, ayniqsa, udarenelarni noto‘g‘ri qo‘yish (masalan, "kilOmetr" o‘rniga "kilomEtr"), yoki dialektizmlar (masalan, "loji" o‘rniga "qo‘y") kabi xatolar yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Shuningdek, nutqda jargon so‘zlar, modadagi ifodalar, yoki haqoratomuz so‘zlar ham o‘rinsiz hisoblanadi.

Nutqdagi ixchamlik — pedagogik nutq madaniyatining yana bir muhim jihatidir. Mavhum bayon, ortiqcha ta’riflar, so‘zlar va iboralarni qayta-qayta takrorlash, bilimni o‘zlashtirish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, ortiqcha qisqartirilgan, telegraf uslubidagi nutq ham ma’lumotni tushunarsiz qiladi va ikki ma’nolilikka olib kelishi mumkin.

Nutq pedagogik faoliyatning asosiy vositasidir. U nafaqat ta’lim berish, balki tarbiya berish va o‘quvchilarning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Nutq orqali o‘qituvchi ta’limiy axborotni yetkazadi, intellektni rivojlantiradi, o‘quv faoliyatiga undaydi, e’tiborni yo‘naltiradi va shaxsiy munosabatini bildirib boradi.

Ma’lumki, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot — bu faqatgina bilim uzatish jarayoni emas, balki mazmunli axborot almashinuvining ikki tomonlama jarayonidir. Bu muloqot ikki asosiy vosita orqali amalga oshadi: verbal (nutqiy) va noverbal (nutqiy bo‘lmagan). Har ikki vositadan o‘rinli va samarali foydalanish o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi imkoniyatlarini kengaytiradi. Ularni bir-biridan ajratish emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi va boyituvchi omillar sifatida ko‘rish kerak.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oddiy suhbatda uzatilayotgan axborotning faqat 35% atrofidagisi so‘zlar orqali, qolgan 65% dan ortig‘i esa noverbal, ya’ni tana harakatlari, mimika, ohang va boshqa paralingvistik vositalar orqali yetkaziladi. Ruhshunos olim E. Sattorov bu borada shunday fikr bildiradi: "Nutqiy vosita orqali axborot uzatiladi, noverbal vositalar orqali esa muloqot ishtirokchilarining bir-biriga bo‘lgan munosabati ifodalanadi."

Bu fikr bilan qisman rozi bo‘lish mumkin, ammo shuni ham unutmaslik kerakki, noverbal belgilar nafaqat munosabat, balki axborotning o‘zi va uning ishonchliligini ham ifodalaydi. O‘qituvchining har bir harakati, ko‘z qarashi yoki tana tili o‘quvchiga mavzuni qabul qilish jarayonida muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, dars jarayonida o‘qituvchi darsga kamroq jalb bo‘lgan o‘quvchi yoniga borib, unga mehr bilan qo‘l tekkizsa yoki tabassum qilsachi — bu kichik imo o‘quvchida iliqlik va e’tibor hissini uyg‘otib, ta’limga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu jarayon psixologiyada identifikatsiya va empatiya tushunchalari bilan izohlanadi. Ya’ni o‘qituvchi o‘zini o‘quvchi o‘rniga qo‘yib ko‘ra olishi, uning ichki holatini his eta bilishi lozim.

Har bir o‘quvchi o‘ziga xos idrok va o‘zlashtirish sur’atiga ega. Shu sababli, o‘qituvchining vazifasi – verbal va noverbal vositalardan ko‘prik sifatida foydalanib, o‘z fikrlarini to‘g‘ri va samarali yetkazishdir. Bu "ko‘prik" qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi tushunish va hamkorlik shunchalik kuchli bo‘ladi.

Bundan tashqari, axborot uzatish jarayonida ham yo‘qotishlar bo‘lishi tabiiy: fikr boshda paydo bo‘ladi (100%), aytiladi (80%), eshitiladi (70%), tushuniladi (60%), lekin xotirada esa atigi 24% qismi qoladi. Bu ko‘rsatkichlar, o‘qituvchining nutqiy hamda noverbal vositalardan uyg‘unlikda foydalanishi naqadar muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shubhasiz, har qanday ta’lim jarayonida mavzuning to‘liq va mukammal yetib borishi murakkab masaladir. Shu bois, o‘quvchining mavzuni ongli ravishda o‘zlashtirishi va uni xotirasida mustahkamlashi uchun interfaol uslublar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zaruratini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Bularning barchasi milliy tarbiya kontentlarini muvofiqlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Milliy tarbiya kontentlari turli yosh guruhlari uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun til va uslub maktabgacha yoshdagi bolalar uchun — qisqa, sodda, hissiy jihatdan boy til, ko‘proq takroriy iboralar, dialog va ertak elementlari bo‘lishi kerak.

O‘smirlar uchun — zamonaviy leksikaga yaqin, lekin mohiyatdan uzoqlashmagan til, mantiqiy tuzilma, savol-javob uslubi talab etiladi.

Talabalar va kattalar uchun — analitik tahlil, taqqoslash, iqtiboslar, milliy-madaniy metaforalar orqali berilgan uslub mos va xosdir.

Til yoshga mos bo‘lmasa, u na tushunarli bo‘ladi, na tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, uslub muvofiqligi – kontekst, g‘oya va format bilan uyg‘unlik ham muhim.

Uslub deganda biz matnning ohangi (ilhomlantiruvchi, ogohlikka chaqiruvchi, yumshoq, qat’iy), gaplar uzunligi, ritm va emotsional yuki, badiiy ifodalar, iboralar, xalq maqollari va o‘xshatishlar misollar orqali tushuntirilishini anglaymiz.

Masalan, “Vatanga muhabbat” haqida aytilgan video rolikda quruq axborot emas, hissiyot uyg‘otuvchi til va badiiy ifoda bo‘lishi lozim.

Yana bir xususiyatni nazarda tutish kerak. Bu til va uslubda muvozanat – milliylik va zamonaviylik bo‘lishi shart.

Zamonaviy kontentlar ko‘pincha inglizcha atamalar, g‘arbona iboralar bilan boyitilgan. Tarbiyaviy materiallarda esa bu muvozanat zarur:

Zarurat bo‘lsa – yangi so‘zlar izoh bilan berilishi kerak.

Milliylikni saqlab qolish uchun — maqollar, matal, hikmatlar bilan boyitish zarur.

Ijtimoiy tarmoqlarda ayrim muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda.

Haddan ortiq murakkab yoki eski tildan foydalanish (farzand → dilband; saxovat - muruvvatpeshalik)

Texnik tarjima tilida yozilgan postlarga chidab bo‘lmaydi. Chunki, ular uslubsiz, emotsiyasiz matnlardan iborat bo‘ladi.

Xo‘sh, buning uchun qanday takliflar va yechimlarni qayd etish mumkin?

Har bir kontent uchun til-uslubiy jihatlarini biladigan, tahrir qila oladigan muharrir bo‘lishi kerak. O‘zbek tilining orfografik va orfoepik qoidalariga rioya qilish kerak.

Xulosa o‘rnida shularni ta’kidlash o‘rinlidir.

Milliy tarbiya kontentlarining samaradorligi ko‘p jihatdan til va uslubga bog‘liq. Ular nafaqat axborot yetkazishi, balki yuraklarga kirib borishi, ruhiyatga ta’sir etishi kerak.

Har bir yosh guruhiga moslashtirilgan kontentlar ishlab chiqish (5-7 yosh, 8–12 yosh, o‘smirlar va h.k.).

Platforma yaratish – barcha kontentlar yagona portalda jamlangan holda (masalan, "Qadriyat.uz").

Shu bois kontent ishlab chiqaruvchilar va pedagoglar bu borada chuqur o‘ylangan, zamonaviy va milliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda ish yuritishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Musaev J. O’quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Monografiya. . – T.: SHarq, 2010. –252 b.
4. Matchonov S., G’ulomova X. Nutq madaniyati. // Boshlang’ich ta’lim. 2000. -№1. -8-10-b.
5. Golish L.V. Ta’lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.

6. Golish L.V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA O‘QITUVCHILAR O‘RTASIDA SOG‘LOM MUHITNI SHAKLLANTIRISH VA MILLIY TARBIYA ELEMENTLARINI TATBIQ ETISH

Karaboyeva Mahliyo Qodirjonovna
doktorant Qori Niyoziy nomidagi TPMI

Annotatsiya: *Maqolada raqamli ta’lim sharoitida milliy kontentlar yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi, o‘qituvchilarda mediya savodxonligining ahamiyati, milliy kontentlar yaratish, targ‘ib etish va tarbiya jarayonlarida foydalinish orqali sog‘lom ma’naviy muhit yaratish va ta’lim tarbiyada samaradorlikka ijobiy ta’siri haqida haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *mediya, ta’lim , tarbiya, jamoa, milliy, o‘qituvchi, qadryat, kontent, raqamli texnologiya, muloqot, madaniyat.*

Аннотация: *В статье рассматривается актуальная проблема создания национального контента в условиях цифрового образования. Особое внимание уделяется значению медиаграмотности у педагогов, созданию и продвижению национального контента, а также использованию его в образовательном и воспитательном процессах для формирования здоровой духовной среды и положительного влияния на эффективность обучения и воспитания.*

Ключевые слова: *медиа, образование, воспитание, сообщество, национальный, учитель, ценность, контент, цифровые технологии, коммуникация, культура.*

Abstract: *The article discusses that creating national content in the context of digital education is one of today’s pressing issues. It highlights the importance of media literacy among teachers, the creation and promotion of national content, and the use of such content in educational and upbringing processes to foster a healthy spiritual environment and positively impact the effectiveness of education and upbringing.*

Keywords: *media, education, upbringing, community, national, teacher, value, content, digital technology, communication, culture.*

Bugungi raqamli jamiyatda ta’lim-tarbiya jarayonlari nafaqat an’anaviy usullar, balki innovatsion texnologiyalar yordamida ham olib borilmoqda. Shu bilan birga, maktab muhitida sog‘lom psixologik iqlimni yaratish, pedagoglar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kontentlar bilan ishlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, ular orasida o‘zaro hurmat, do‘stona muhitni mustahkamlash hamda raqamli ta’lim platformalarida milliy tarbiya elementlarini tatbiq etish orqali bolalarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan amaliy ishlarga ehtiyoj ortib bormoqda . Bunga insonlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatiladigan va qabul qilinadigan ma’lumotlar oqimining tezligi, ko‘pligi psixik holati sabab bo‘lmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil yanvarida O‘zbekistonda milliy kontent yaratish dolzarb masala ekanligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, ***“Agar O‘zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o‘z qo‘limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon***

yaratib beramiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliliy ma’lumotlar, real voqealarga ehtiyojni biz to‘ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-avgustdagi 625-son qarorida 2017–2019 yillarda Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirish bo‘yicha kompleks dastur tasdiqlandi. Dasturda quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilangan: Milliy kontent va veb-resurslarni rivojlantirishni rag‘batlantirish va ommalashtirish; Internetning milliy segmentini foydalanuvchilarning zamonaviy talablariga javob beradigan axborot resurslari bilan to‘ldirish; Mahalliy ijtimoiy tarmoqlarda milliy kontentni rivojlantirish va xorijiy axborot resurslarida uning ulushini oshirish; Ta'lim kontentini yanada takomillashtirish va "ZiyoNET" ta'lim axborot tarmog‘i imkoniyatlarini kengaytirish; Internetda yaratiladigan milliy axborot resurslarini yanada targ‘ib qilish va ommalashtirish; Internetning global va milliy segmentini rivojlanish tendensiyalarini doimiy o‘rganib borish va milliy kontentni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490- sonli buyrug‘ida o‘z aksini topgan.

O‘qituvchilarning mediya savodxonligi darajasini oshirish va maktablarda milliy kontentni targ‘ib etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot makonida milliy madaniyat va qadriyatlarni himoya qilish, yosh avlodni sog‘lom va milliy ruhda tarbiyalash uchun ta’lim tizimida bu sohalarga e’tibor kuchaytirilishi lozim. **Mediya savodxonligi nima va nega u zarur?** Mediya savodxonligi – bu axborot manbalarini tanlash, tahlil qilish, haqiqat va yolg‘onni ajratish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish qobiliyatidir. O‘qituvchilar ushbu ko‘nikmalarga ega bo‘lish orqali nafaqat o‘z bilimlarini boyitadi, balki o‘quvchilarga ham axborotni tanqidiy qarashni o‘rgatadi, ularni axborot makonidagi salbiy ta’sirlardan himoya qiladi. O‘qituvchilarning mediya savodxonligini oshirish yo‘llari

Maxsus treninglar va seminarlar o‘tkazish, Maktablar va ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun mediya savodxonligi bo‘yicha muntazam ravishda treninglar tashkil etilishi kerak. Bu treninglar orqali o‘qituvchilar zamonaviy axborot oqimlarini tahlil qilish, soxta yangiliklarni aniqlash va axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalarini egallaydi. Onlayn resurslar va platformalarni rivojlantirish

Elektron ta’lim platformalarida mediya savodxonligi bo‘yicha o‘quv materiallari joylashtirilishi, o‘qituvchilarga istalgan vaqtda o‘z bilimlarini mustahkamlash imkonini yaratadi. Amaliy mashg‘ulotlar va loyihalarda o‘qituvchilar o‘z darslarida talabalarni axborot manbalarini tanlash, tahlil qilish bo‘yicha amaliy topshiriqlar va loyihalar bilan shug‘ullantirishi kerak. Bu o‘quvchilar ongini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Maktablarda milliy kontentlarni targ‘ib etishning yana bir ahmiyatli jihati shundan iboratki: Milliy kontent yoshlarni o‘z tarixlari, madaniyatlari va tiliga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Bu esa milliy birdamlikni mustahkamlaydi, yoshlar orasida milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiradi. Shu bois, maktablarda milliy kontentni keng targ‘ib etish ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarix, ona tili, adabiyot kabi fanlarda o‘zbek tilida yaratilgan darsliklar, milliy tarixiy va madaniy materiallardan foydalanish yoshlarning milliy qadriyatlarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Madaniy tadbirlar va loyihalar tashkil etish Maktablarda milliy bayramlar, an’anaviy hunarmandchilik ko‘rgazmalari, xalq o‘yinlari va adabiy kechalar o‘tkazish orqali milliy madaniyatga qiziqishni oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan elektron darsliklar, video va audio materiallarni milliy kontentga boyitish yoshlarning bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi. She’r, maqola, video va boshqa ijodiy ishlarni tayyorlashda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning milliy

qadriyatlarni ifodalovchi kontent yaratishiga rag‘batlantiradi. Pedagoglar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish uchun ham atroflicha hizmat qiladi: O‘qituvchilar orasida ochiq muloqot, fikr almashish madaniyati sog‘lom jamoaviy muhitni yaratadi; Stressni kamaytirish va emotsional barqarorlik: Raqamli texnologiyalar orqali dam olish mashg‘ulotlari, jismoniy va ruhiy salomatlik bo‘yicha treninglar tashkil etish foydali bo‘ladi. Axborot almashinuvi va hamkorlikda qaror qabul qilish: Onlayn guruhlar, metodik uyushmalar, raqamli pedagogik kengashlar orqali samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Bugungi kunda raqamli ta’lim muhitlari – elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, videodarslar, onlayn test tizimlari orqali bilim va tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin. Ammo bu jarayonda quyidagilar e’tibordan chetda qolmasligi lozim: Pedagoglar uchun o‘quv va uslubiy resurslarni yaratish; Raqamli platformalarda milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi kontentlar joylashtirish;

Yosh avlodni raqamli axloqiy me’yorlar asosida tarbiyalash. Milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tatbiq etish Milliy tarbiya – bu o‘quvchilarda vatanparvarlik, ona tiliga hurmat, madaniyat va tarixga bo‘lgan mehrni shakllantiradigan uzviy jarayondir. Uni raqamli muhitga integratsiya qilish uchun quyidagilar muhim: Interaktiv darslar va video kontentlar: Masalan, milliy bayramlar, tarixiy shaxslar, urf-odatlar haqidagi qisqa animatsiyalar. Elektron o‘yinlar va viktorinalar: Bolalar uchun milliy qadriyatlar asosida yaratilgan testlar, o‘yinlar tarbiyaviy jarayonni qiziqarli qiladi.

Multimedia materiallari bilan boyitilgan elektron darsliklar. O‘qituvchilarning ishtiroki va malakasi – muhim omil Raqamli muhitda milliy tarbiya kontentlarini samarali tatbiq etish uchun pedagoglar quyidagilarga e’tibor qaratishlari zarur.

Doimiy ravishda raqamli texnologiyalarni o‘rganish; Kontent yaratuvchilikda faol ishtirok etish (masalan, video dars, blog, podkast yaratish); O‘quvchilarning axloqiy-ruhiy holatini doimiy monitoring qilib borish; Milliy identifikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Pedagogik jamoa orasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini tadbiq etish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishidir. Bu borada har bir o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki raqamli tarbiya muhitining faol tashkilotchisi bo‘lishi kerak. Buning uchun esa malaka, kreativlik va milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan chuqur hurmat asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. “Milliy kontent yaratish va rivojlantirish bo‘yicha nutq.” 2024. O‘zbekiston Respublikasi rasmiy veb-sayti. https://president.uz
2. Abdullaev, S. Raqamli ta’lim va uning ta’lim jarayonidagi roli. T:. O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti. 2020.
3. Karimova, N. Mediya savodxonlikni oshirish: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. “Pedagogika va ta’lim” jurnali, 2021. 3, 45-52.
4. Qodirov, A. Milliy madaniyat va axborot makoni: zamonaviy muammolar va yechimlar. S:. “Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti” 2019.
5. Tursunov, B. Maktablarda milliy kontentni targ‘ib qilish usullari.” Ta’lim va tarbiya ilmiy jurnali, 2022. 5, 30-37-b
6. Sultonov, D. Raqamli texnologiyalar va ta’lim: o‘zbek ta’lim tizimida qo‘llanilishi. T:. “Fan va Texnologiya Nashriyoti” 2021.
7. World Bank. . Education and Digital Media Literacy: Policy Guidelines. Washington, DC: The World Bank. 2019.

BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING HAYOTIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TAMOYILLARI

Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tamoyillar yoritilgan. Tadqiqotda bolalarning ijtimoiy, shaxsiy va hissiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan interaktiv metodlar, loyihaviy yondashuv va amaliy topshiriqlar asosida shakllantirilgan metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoada ishlash kabi hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar muhokama etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, tarbiya darslari, hayotiy ko‘nikmalar, metodik tamoyillar, interaktiv usullar, shaxsiy rivojlanish.*

Annotation: *This article explores methodological principles for developing life skills in primary school students during moral education lessons. The study analyzes methodological approaches based on interactive methods, project-based learning, and practical tasks that support students’ social, personal, and emotional development. It also discusses pedagogical conditions that enhance students’ independent thinking, problem-solving abilities, and teamwork skills during classroom activities.*

Keywords: *Primary education, moral education, life skills, methodological principles, interactive methods, personal development.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методические принципы развития жизненных навыков у учащихся начальных классов на уроках воспитания. В исследовании проанализированы методические подходы, основанные на интерактивных методах, проектной деятельности и практических заданиях, способствующих социальному, личностному и эмоциональному развитию детей. Также обсуждаются педагогические условия, способствующие формированию у школьников навыков самостоятельного мышления, решения проблемных ситуаций и работы в коллективе.*

Ключевые слова: *Начальное образование, уроки воспитания, жизненные навыки, методические принципы, интерактивные методы, личностное развитие.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida insonni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon o‘quvchilarning hayotga tayyorgarligi, atrofdagi muhitni anglash, o‘ziga va boshqalarga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishiga zamin yaratadi. Tarbiya darslari mazmuni va shakli orqali o‘quvchilarda zarur hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tamoyillarni aniqlash va ularni dars jarayonida qo‘llash yo‘llari tahlil qilinadi.

Hayotiy ko‘nikmalar – bu shaxsning kundalik hayotda mustaqil yashash, qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, o‘zini ifoda qilish, boshqalar bilan muloqot qilish kabi amaliy qobiliyatlaridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun tarbiya darslari muhim maydon hisoblanadi.

Metodik tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari inobatga olinadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi va mas’uliyati rivojlanadi.

Faollik va mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash – o‘quvchilarni darsda faol ishtirok etishga, savol berishga, muhokamalarda qatnashishga rag‘batlantirish zarur. Bu ularda liderlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interaktiv metodlardan foydalanish – rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, guruhli ishlar orqali bolalarda muloqot, hamkorlik va muammoli fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Hayot bilan bog‘liqlik tamoyili – dars mazmuni real hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Masalan, "do‘stlik", "odob-axloq", "tashabbuskorlik", "muomala madaniyati" kabi mavzular orqali o‘quvchilar kundalik hayotda duch keladigan holatlar bilan tanishtiriladi.

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash – dars oxirida o‘quvchilarga o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, o‘zini baholash imkoniyati yaratilsa, bu ularda tanqidiy fikrlash va o‘z ustida ishlash odatini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf tarbiya darsliklaridagi “Insonlar orasida”, “Gender tenglik”, “Shaxsiy chegara” kabi mavzular orqali o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni samarali rivojlantirishga erishilishi mumkin:

“Insonlar orasida” mavzusi asosida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Bu mavzuda o‘quvchilarga jamiyatda yashash, insonlar bilan madaniyatli muomala qilish, o‘zaro hurmat va birdamlik tamoyillari o‘rgatiladi. Mavzuning maqsadi – bolalarda ijtimoiy ong, empatiya, sabr-toqat va boshqalarni tinglash ko‘nikmasini shakllantirish.

Ushbu mavzu orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

- Rolli o‘yinlar – "Do‘stimga qanday yordam bera olaman?", "Navbat kutish madaniyati" kabi holatlarda rollar beriladi.

- Guruhli muhokamalar – "Sinfdoshlar o‘rtasida tushunmovchilik bo‘lsa, nima qilamiz?" savoli atrofida bahs-munozara.

- Muloqot kartochkalari – o‘quvchilarga turli ijtimoiy holatlar tasvirlangan kartochkalar tarqatilib, to‘g‘ri va noto‘g‘ri xatti-harakatlar ajratiladi.

Biz ushbu usullar orqali o‘quvchilarda madaniyatli muloqot, muomala madaniyati, jamoada ishlash, ijtimoiy mas’uliyat kabi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishimiz mumkin.

“Gender tenglik” mavzusi asosida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish

Gender tengligi – o‘g‘il va qiz bolalarning teng huquqli va teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini anglatadi. Bu mavzu orqali o‘quvchilarga oilada, maktabda va jamiyatda jinsidan qat’i nazar har bir insonning qadr-qimmati tengligi tushuntiriladi. Ushbu mavzuni tushuntirishda quyidagi usullar samarali bo‘lishi mumkin:

- Muammoli savollar – "Nega faqat o‘g‘il bolalar futbol o‘ynashi kerak deb o‘ylaysan?" yoki "Qizlar ham yetakchi bo‘la oladimi?" kabi savollar orqali stereotiplarga qarshi fikrlash rag‘batlantiriladi.

- Rasmli taqqoslash – o‘g‘il va qiz bolalar turli faoliyatda tasvirlangan suratlar orqali mehnatga bo‘lgan yondashuvdagi tenglikni tahlil qilish.

- Rolli ssenariylar – "Uydagi vazifalarni teng taqsimlash" rollari asosida kichik sahna ko‘rinishlari.

Boshlang‘ich sinf tarbiya darsliklaridagi “Insonlar orasida”, “Gender tenglik” va “Shaxsiy chegara” kabi mavzular hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda juda muhim o‘ringa ega. Bu

mavzularni to‘g‘ri metodlar bilan o‘qitish orqali o‘quvchilarni jamiyatga moslashgan, mas’uliyatli, hurmatli va mustaqil shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Creativity and learning: What's the connection?” is an article by Robert E. Slavin and Cynthia, 2020, https://johnshopkins.academia.edu/RobertSlavin
2. “Communication and collaboration technologies in education,” edited by Dan Suthers and Kristine Lund, was published by Springer in 2010.
3. “Creative Schools: A powerful revolution transforming education" by Sir Ken Robinson was published in April 2015.
4. “Collaborative learning for the digital age” by Brigid Barron and Linda Darling-Hammond was published 2019.
5. “Developing 21st Century skills using student - generated digital stories
6. “Do Schools Kill Creativity” is a TED Talk, originally presented at the TED Conference in Monterey, California, USA, in February 2006.
7. “The Global Achievement Gap” by Tony Wagner was published in the United States by Basic Books in 2008.
8. Fostering creativity in the classroom: A Systematic review” by Huijing Ma and Runing Ye in 2022.
9. G.H.Xodiyeva, **“**Boshlang‘ich ta’limda 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari” , *https://doi.org/10.5281/zenodo.10682038* , 2024
10. G.H.Xodiyeva, “Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirishga integrativ yondashuvning mohiyati” Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № S/2(4)-2024 ISSN: 2181-1342 (Online) https://scienceproblems.uz
11. G.H.Xodiyeva,“Boshlang‘ich sinf darslarida 4K model raqamli kompetensiyalarini didaktik o‘yinlar orqali rivojlantirish usullari”, “Raqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2024.
12. Ibraimov X, Quronov M “ Umumiy pedagogika” Sahhof-2023.
13. Ibraimov X, Quronov M va boshq. Ota-ona – murabbiylar uchun uslubiy-metodik qo‘llanma. Toshkent.: - 2024. 123-126 b.
14. Po'latova S.A**.** Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar foydalanish metodikasi // *Xalqaro tadqiqotlar jurnali,* 2023. — T. 2, №3. — S. 364–368
15. Ro‘ziyeva D., Usmonboeva M., Holiqova Z., Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. –115 b.
16. Sulaymanova M. Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish metodikasi // *Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali* , 2023. — T. 3, №4. — S. 158–161
17. Usmonova O.V., Risyukova Y.V., 3-sinf tarbiya darsligi, - T: “Novda”, 2023.
18. WEF speech: “World Economic Cooperation speech about 4K in education.”, 2022.

TARBIYAGA OID XALQARO VA MILLIY TAJRIBALARNING QIYOSIY TAHLILI

Nodirbek Murodov Oybek o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti 1-bosqich tayanch doktoranti
O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi devoni Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali tarbiyaning qanchalik muhimligi va xorijiy davlatlardan kerakli joyini o‘rnak qilib olish kerakligi yozilgan. Xususan, rivojlangan mamlakatlarning ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun xalqaro standartlar, innovatsion texnologiyalar va metodikalarni joriy etishning istiqbollari muhokama qilinadi. Maqola sifatli ta’limni ta’minlashda milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolgan holda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taklif qiladi.*

Kalit so’zlar: *Ta’lim, xorijiy davlatlar, innovatsiya, xalqaro, sifat, mutaxassislar, O‘zbekiston, metodika, xalqaro usullar.*

Kirish. Tarbiya – insonni axloqiy, ma’naviy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish, uning to‘g‘ri yo‘nalishda shakllanishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik jarayon. Tarbiya jamiyatda o‘zaro hurmat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va mehnatga bo‘lgan muhabbatni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya faqat o‘qitish yoki bilim berish bilan cheklanmaydi, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishi, uning o‘zini anglashiga yordam berishdir.

Tarbiyaning ahamiyati jamiyatdagi har bir insonning shakllanishida, rivojlanishida va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Turli mamlakatlar va madaniyatlarda tarbiya yondashuvlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada tarbiyaning xalqaro va milliy tajribalari o‘rganilib, ularning o‘zaro taqqoslanishi amalga oshiriladi. Maqsadimiz turli xalqlarning tarbiyaviy tizimlaridagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash, shuningdek, bu tajribalardan qanday foydalangan holda milliy tarbiya tizimini rivojlantirish mumkinligini tahlil qilishdir.

Sizda savol tug‘ilishi mumkin. Nima uchun boshqa davlatlarning tajribalarini o‘rganishimiz kerak, har bir davlatning o‘z milliy qadriyatlari, usullari va ta’lim tizimi bo‘ladi. Xorijniki bizga to‘g‘ri kelmasligi, ularning o‘ta gender tengligi bizning yoshlarimizni qarashlarini o‘zgartirib yuborishi mumkin deyishingiz to‘g‘ri. Ammo bir-biridan butunlay ko‘chirib olinmaydi. O‘ziga kerakli va mos keladigan jihatlari o‘rganilib, keyin jamiyatga tatbiq etadi. Agar tajriba kutilgan natijalarni bersa, bu usullar qo‘llanishda davom etadi. Men sizga xalqaro tajribalarni nima uchun o‘rganish kerakligi haqida keltirib o‘taman.

Xalqaro tajribalarning o‘rganilishining zarurati:

1. **Eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganish**: Xalqaro tajribalarni o‘rganish, boshqa mamlakatlarda qo‘llanilgan samarali metod va strategiyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Shvetsiya, Yaponiya, Singapur kabi mamlakatlar ta’lim tizimida ilg‘or metodlar va tizimlar joriy qilingan. Ularning muvaffaqiyatli tajribalari asosida o‘z tizimimizni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish mumkin.
2. **Innovatsion yondashuvlar**: Xalqaro tajriba, yangi pedagogik usullar, texnologiyalar va innovatsion ta’lim yondashuvlarini o‘rganishga imkon beradi. Bu o‘zgarishlar orqali ta’lim tizimi zamonaviy talablar va imkoniyatlarga moslashadi. Masalan, onlayn ta’lim, interaktiv metodlar va shaxsiylashtirilgan o‘quv yondashuvlarini boshqa davlatlar tajribasidan o‘rganish mumkin.
3. **Madaniy almashinuv**: Xalqaro tajriba, turli xalqlarning madaniyati va qadriyatlarini o‘rganishga ham yordam beradi. Bu nafaqat ta’lim jarayoniga, balki jamiyatdagi umumiy ahloqiy va ijtimoiy me’yorlarga ham ta’sir qiladi. O‘zaro madaniy almashinuv orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish mumkin.

4. **Global muammolarga yechimlar izlash**: Xalqaro tajribalar, butun dunyodagi global muammolarni hal qilishda yordam beradi. Masalan, ta’limdagi tengsizlik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish kabi masalalarni xalqaro tajriba asosida hal qilish mumkin.

Xalqaro tajriba tarbiyaga bo‘lgan yondashuvlar va uslublarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ko‘plab mamlakatlarda tarbiya tizimi madaniy, diniy va ijtimoiy me’yorlarga asoslanadi. Quyidagi mamlakatlar misolida xalqaro tarbiyaviy tizimlarning ba’zi xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

1. **Shvetsiya** – Shvetsiyada tarbiya tizimi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan. Ularning maqsadi o‘quvchilarga shaxsiy mas’uliyatni, mustaqil fikrlashni va inson huquqlarini qadrlashni o‘rgatishdir. Shvetsiya o‘qituvchilari o‘quvchilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, har bir bolaning ehtiyojlarini inobatga olib ishlaydi. Tarbiyaviy tizimda asosiy e’tibor bolalarga nisbatan mehr-oqibat va sabr-toqatga qaratiladi.

2. **Yaponiya** – Yaponiyada tarbiya ko‘proq intizom va qat’iylikka asoslangan. Darslarda o‘quvchilarga jamoa sifatida ishlash, o‘zaro yordam va hurmat ko‘rsatish kabilarga katta e’tibor qaratiladi. Yapon pedagogikasida bolalarga o‘z majburiyatlarini bajarishda qat’iyatlilik, mehnatsevarlik va izzatni saqlash o‘rgatiladi.

3. **AQSh** – Amerika tarbiyaviy tizimida erkinlik, mustaqillik va tanlovga katta ahamiyat beriladi. O‘quvchilarga turli faoliyatlarda qatnashish imkoniyati yaratiladi. AQShda tarbiya tizimi ko‘proq o‘quvchilarni ularning shaxsiy qobiliyatlari va istaklariga qarab yo‘naltirishga qaratilgan.

Maxsus ta’lim ehtiyojlari uchun sharoit yaratish, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish va maxsus o‘quv materiallarini ishlab chiqish, ko‘p tilli ta’lim tizimini joriy etish, ingliz, rus va boshqa xorijiy tillarni o‘rgatishga e’tibor qaratish orqali o‘quvchilarning global bozor talablariga moslashuvchanligini oshirish, u takliflar milliy ta’lim tizimini samaradorlik va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun aniq yo‘nalishlarni belgilaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, O‘zbekiston o‘z milliy xususiyatlarini inobatga olib, ushbu yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin.

Bugungi kunda Prezidentimiz yoshlar uchun yaratib berayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, qo‘llab-quvvatlash bor ekan, biz yoshlar mahkam ushlab, Yangi O‘zbekiston yoshlari va kelajagimiz uchun tinmay harakat qilishimi lozim. Xatto, komil inson haqidagi mukammal ta‘limot ko‘xna Sharq falsafasida yaratilgan. Bu haqdagi fikrlar etnopedagogika manbalarida o’z aksini topgan. Ularni qayta tiklash, o‘rganish, ijobiy jihatlarini pedagogik amaliyotga joriy etish milliy istiqlol davridagina mumkin bo‘lib qoldi. Modomiki: “Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma‘rifat...” ekan, pedagogika xuddi shu ma‘rifatni targ‘ib etuvchi tarbiya vositasidir. Shuning uchun Respublikamizda milliy istiqlol davrida komil insonni tarbiyalash kelajagi buyuk davlatni barpo etishning asosiy sharti sifatida talqin qilinmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda pedagogika yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Goh g‘amgin, goh quvonchli kechgan o‘tmishni, ajdodlarimiz buyukligi sababini bilmasdan milliy g‘urur va iftixorni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Xulosa. Xalqaro tajriba va milliy tajriba o‘rtasida ba’zi o‘xshashliklar va farqlar mavjud. Xalqaro tajribada o‘quvchilarga shaxsiy erkinlik va huquqlarni hurmat qilishga katta ahamiyat beriladi, milliy tajribada esa jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va madaniyatni saqlashga qaratiladi. Shvetsiya, Yaponiya va AQShdagi tizimlarda o‘quvchilarga o‘z-o‘zini hurmat qilish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga alohida urg‘u beriladi. Bu haqida yuqorida gapirib o‘tdim. O‘zbekistonda esa milliy qadriyatlar, oilaviy va diniy tarbiya katta o‘rin tutadi, bolalar jamiyatning an’anaviy qadriyatlariga mos ravishda tarbiyalanadi. Tarbiyaviy tizimlarning xalqaro va

milliy tajribalari bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlarga ega. Milliy tarbiya tizimini rivojlantirish uchun xalqaro tajribalarni o‘rganish, ularni o‘z sharoitimizga moslashtirish, shuningdek, milliy an’analarimizni inobatga olish zarur. Bu nafaqat tarbiya tizimining samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda axloqiy va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ibrohimova Shirmonoy Xusan qizi: O‘zbekistonda sifatli ta’limni ta’minlash: xorijiy tajribani o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga joriy etish imkoniyatlari. O‘quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Ilmiy kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 1-sonli qaroriga ko‘ra, o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
3. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AYOL LIDERLARNI SHAKLLANTIRISH: YOSHLAR TARBIYASI MASALALARI

Aziza Sadridinovna Fayzullaeva
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,“Falsafa” kafedrasi mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Ushbu maqola raqamli transformatsiya jarayonida O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasi va ayol liderlik salohiyatini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Raqamli ta’lim nafaqat bilim olish muhitini yangilamoqda, balki ayollar va qizlarga o‘zining liderlik fazilatlarini ochib berish, mustaqil fikrlash, innovatsion tashabbuslarni ilgari surish imkoniyatini taqdim etmoqda. Maqolada gender stereotiplari, raqamli tafovut va ijtimoiy me’yorlar yosh ayollarning raqamli ta’limdagi ishtirokiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani yoritiladi. Transformatsion liderlik va feminist pedagogika asosida tahliliy yondashuv orqali yosh avlod, ayniqsa qizlarni, raqamli muhitda yetakchilikka tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, milliy tajriba va xalqaro dasturlar orqali amaliy yechimlar taklif qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, ayol liderlar, yoshlar tarbiyasi, gender tengligi, transformatsion liderlik, O‘zbekiston, raqamli tafovut, pedagogik yondashuv, yoshlar siyosati, ayollarni kuchaytirish*

Аннотация*: Статья посвящена вопросам образования молодежи и развития женского лидерского потенциала в Узбекистане в процессе цифровой трансформации. Цифровое образование не только обновляет среду обучения, но и предоставляет женщинам и девушкам возможность раскрыть свои лидерские качества, мыслить самостоятельно и продвигать инновационные инициативы. В статье освещается, как гендерные стереотипы, цифровой разрыв и социальные нормы влияют на участие молодых женщин в цифровом образовании. С помощью аналитического подхода, основанного на трансформационном лидерстве и феминистской педагогике, разрабатываются рекомендации по подготовке молодого поколения, особенно девушек, к лидерству в цифровой среде. Также предлагаются практические решения с использованием национального опыта и международных программ.*

Ключевые слова: *цифровое образование, женщины-лидеры, молодежное образование, гендерное равенство, трансформационное лидерство, Узбекистан, цифровой разрыв, педагогический подход, молодежная политика, расширение прав и возможностей женщин*

Abstract*: This article is devoted to the issues of youth education and development of female leadership potential in Uzbekistan in the process of digital transformation. Digital education is not only renewing the learning environment, but also providing women and girls with the opportunity to reveal their leadership qualities, think independently, and promote innovative initiatives. The article*

highlights how gender stereotypes, the digital divide, and social norms affect the participation of young women in digital education. Through an analytical approach based on transformational leadership and feminist pedagogy, recommendations are developed for preparing the younger generation, especially girls, for leadership in the digital environment. Practical solutions are also proposed through national experience and international programs.

***Keywords**: digital education, female leaders, youth education, gender equality, transformational leadership, Uzbekistan, digital divide, pedagogical approach, youth policy, women's empowerment.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimlarida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayoni o‘quv muhitini tubdan o‘zgartirib, inklyuziv va teng imkoniyatlarga asoslangan yondashuvlarni taqozo etmoqda. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarni kuchaytirish masalasi dolzarb bo‘lib, ayniqsa ta’lim va yetakchilik sohalarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli vositalar va onlayn platformalarning keng joriy etilishi o‘quvchilar, ayniqsa, yosh ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy va madaniy to‘siqlar ularning yetakchilik yo‘nalishidagi ishtirokini cheklamoqda.

Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimidagi raqamli o‘zgarishlar sharoitida ayol liderlarni shakllantirish muammolari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor yosh ayollarning duch kelayotgan ijtimoiy va texnologik to‘siqlariga, raqamli platformalar yaratgan imkoniyatlarga hamda gender tengligini ta’minlash yo‘lidagi strategik tavsiyalarga qaratiladi.

Asosiy qism. Jamiyatida an’anaviy gender rollari ba’zi hollarda, yosh qizlarimizning ta’limdagi ishtiroki va kasbiy orzularini shakllantirishda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy rollar nazariyasiga ko‘ra, erkak va ayollarga nisbatan mavjud ijtimoiy qarashlar ularning jamiyatdagi rolini belgilaydi [4]. Ko‘plab holatlarda yetakchilik erkaklarga xos fazilat deb qaraladi, bu esa yosh qizlarning o‘zini lider sifatida tasavvur qilishiga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, raqamli gender tafovuti muammosi mavjud. UNICEF [10] ma’lumotlariga ko‘ra, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi o‘zbek qizlari internet va raqamli qurilmalardan foydalanishda o‘g‘il bolalarga nisbatan kamroq imkoniyatlarga ega. Bu ularning onlayn ta’limda ishtirok etishi, raqamli ko‘nikmalarni egallashi va zamonaviy yetakchilikda faol bo‘lish imkoniyatlarini cheklaydi. Ragnedda [8] bu holatni “raqamli kapital” yetishmovchiligi deb ataydi.

O‘zbekiston ta’lim, texnologiya va davlat boshqaruvi sohalarida ayollarning yuqori lavozimlarda tayinlanishi yosh avlod uchun ijobiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. G. Maxkamova olib borgan tadqiqotga ko‘ra, xotin-qizlarga mo‘ljallangan murabbiylik dasturlari yetarli emasligi yosh ayollarni yetakchilik yo‘nalishida rivojlanishdan to‘xtatmoqda [6]. Yetakchi ayollar namunasining kamligi qizlarning o‘zlariga ishonchini kamaytiradi va ularni bunday rollarga da’vogarlik qilishdan tiyadi.

Raqamli platformalar orqali imkoniyatlar. Shunga qaramay, raqamli transformatsiya ayollar uchun yangi ufqlarni ochmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hududlarda raqamli infratuzilmani kengaytirish va barcha qatlamlar uchun raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan [3]. Bu tashabbuslar qizlarning onlayn ta’limga kengroq kirishini ta’minlab, ularning salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

“Ilm-fan” portali, mobil ilovalar va boshqa onlayn platformalar qizlarga o‘z vaqtini boshqarib, mustaqil ravishda bilim olish imkonini beradi. Bundan tashqari, “Technovation Uzbekistan” dasturi kabi tashabbuslar yosh qizlarga texnologiya sohasida loyiha yuritish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini bermoqda [7].

Ayollar yetakchiligini shakllantirishda feminist pedagogika va transformatsion yetakchilik nazariyalari muhim ahamiyatga ega. Feminist pedagogika teng huquqli ishtirok, tanqidiy fikrlash va ayollar ovozini qadrlashga asoslanadi [5]. Transformatsion yetakchilik esa ilhomlantirish, motivatsiya

va o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyillarini ilgari suradi [2]. Ushbu yondashuvlar onlayn ta’lim muhitida qo‘llanilganda, yosh ayollarning liderlik salohiyati samarali rivojlantiriladi.

Ayollar liderligini rivojlantirish uchun onlayn ta’limda genderga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ta’lim dasturlariga ayol liderlar haqida hikoyalar, gender tengligi muammolariga bag‘ishlangan topshiriqlar va raqamli savodxonlik bo‘yicha maxsus modullarni kiritish qizlar ongida liderlikka bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Biroq bu ishlar muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun siyosiy hujjatlar amalda ham to‘liq tatbiq etilishi lozim. UNESCO hisoboti shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning ta’lim siyosatlarida gender tengligi ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lsa-da, ularning hududiy darajadagi amaliyoti hali ham izchil emas [9].

Liderlik nafaqat rasmiy lavozimni egallash, balki o‘z atrofidagi jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, boshqalarga ilhom berish va o‘zgarishlar qilish qobiliyatidir. Ayol liderlar, ayniqsa ta’lim, sog‘liqni saqlash, jamoat boshqaruvi kabi sohalarda jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Raqamli muhit esa bu liderlikni kengroq platformalarda amalga oshirish imkonini beradi.

O‘zbekiston jamiyatida tarixan ayollarning yetakchi rolga chiqishi qiyin bo‘lgan. Bugun raqamli texnologiyalar bu chegaralarni yo‘qotish imkoniyatini bermoqda. Onlayn platformalarda loyiha boshqarish, virtual taqdimotlar, blog yuritish, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etish kabi faoliyatlar orqali ayollar o‘z yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishlari mumkin. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda o‘smir qizlar internetga kirish imkoniyatida o‘g‘il bolalardan ancha yuqori. [10]. Qishloq hududlarida bu tafovut yanada chuqur. Ta’lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va mahalliy hokimiyat tizimida ayollar rahbar sifatida kam uchraydi. Bu esa yoshlar orasida liderlikka intilish motivatsiyasini pasaytiradi [6].

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda raqamli ta’limga doir bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli savodxonlikni oshirish va internet infratuzilmasini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. “Ilm-fan”, “Online maktab”, va “EduMarket” kabi platformalar masofaviy ta’limning asosiy vositalariga aylangan. IT Park va Technovation Uzbekistan dasturlari yosh ayollarni texnologik startaplarga jalb qilishda muvaffaqiyatli tajriba sifatida baholanmoqda. Bu imkoniyatlar orqali ayollar o‘zlarining texnik, kommunikativ va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning raqamli ta’lim sharoitida ayol liderlarni shakllantirish imkoniyati mavjud, ammo bu imkoniyatdan samarali foydalanish uchun tizimli to‘siqlarni bartaraf etish zarur. Gender stereotiplari, raqamli tengsizlik va ayollar rolining yetishmasligi kabi muammolarni hal etish orqali yosh qizlarning yetakchilik salohiyatini to‘liq ochish mumkin.

Xotin-qizlararni raqamli ta’lim orqali kuchaytirish nafaqat gender tengligini ta’minlash, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Yetakchilik — bu jamiyatda o‘zgarish qilishga tayyor, hamkorlikda ishlay oladigan va innovatsiyalarni ilgari suradigan shaxslarni tayyorlashdir. Bunday shaxslar esa, jinsidan qat’i nazar, zarur sharoitlar yaratilgandagina yetishib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Osiyo Taraqqiyot Banki. (2020). *O‘zbekistonda gender tengligi bo‘yicha tanlab olingan sohalarning diagnostikasi*. https://www.adb.org/publications/uzbekistan-gender-equality-diagnostic
2. Bass, B. M. va Riggio, R. E. (2006). *Transformatsion liderlik* (2-nashr). Psychology Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). *Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi*. https://strategy.uz

4. Eagly, A. H. (1987). *Jinsiy farqlar va ijtimoiy rol talqini*. Lawrence Erlbaum.
5. Hooks, b. (1994). *Chegaralarni buzib o‘qitish: Erkinlik amaliyoti sifatida ta’lim*. Routledge.
6. Maxkamova, G. (2021). O‘zbekistonda ta’limni raqamli transformatsiya qilishda ayollar roli. *Markaziy Osiyoda gender tadqiqotlari jurnali*, 3(1), 22–31.
7. YXHT (OSCE). (2023). *O‘zbekistonda qizlarni raqamli savodxonlik orqali kuchaytirish*. https://www.osce.org
8. Ragnedda, M. (2018). Raqamli kapital tushunchasi. *Telematics and Informatics, 35*(8), 2366–2375. https://doi.org/10.1016/j.tele.2018.10.006
9. YUNESKO. (2021). *COVID-19 pandemiyasiga O‘zbekiston ta’lim sektorining javobi: Holat tahlili*. https://unesdoc.unesco.org
10. YUNISEF. (2022). *Markaziy Osiyoda qizlar uchun raqamli tafovutni bartaraf etish*. https://www.unicef.org
11. Jahon Banki. (2022). *O‘zbekiston: Ta’lim sektori bo‘yicha tahliliy sharh*. https://www.worldbank.org
12. O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi. (2022). *O‘zbekistonda gender tengligiga erishish bo‘yicha milliy strategiya, 2022–2026*. https://wcu.uz
13. Amridinova, D. T. (2020). THE IDEA OF A PERFECT PERSON IN OUR SPIRITUAL HERITAGE (ON THE EXAMPLE OF THE DOCTRINE OF ACCELERATION). Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 171-176.
14. Amridinova, D. T. (2023, May). Jtimoiy-ma‘naviy sohada barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari. In Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda universitetlarning roli (Vol. 1, No. 1, p. 213).

MONOLOGIK NUTQNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI HAMDA PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONIDA O‘QITUVCHI NUTQINING AHAMIYATI

Shotemirov Sanjar Xolmo‘min o‘g‘li
T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada monologik nutq, suhbat jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik hamda metodologik tavsiyalar, to‘g‘ri nutq so‘zlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yordam beradigan usullar, qolaversa kasbiy pedagogik jarayonda o‘qituvchi amal qilishi kerak bo‘ladigan qoidalar, nutqni sifatli va tinglovchiga ta’sirli yetkazib berishda foydalaniladigan vositalar, imo-ishora, tana harakatlarini nutqqa uyg‘un holatda moslashtirish xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ritorika, nutq uslublari, pantomimika, mimika, diapason, diksiya, intonatsiya, suggetsivlik, ohangdorlik, kommunikativ qobiliyat, tashqi nutq, ichki nutq, ko‘z kontakti, kompetensiya, hissiy holatlar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические и методические рекомендации, используемые в монологической речи, беседе, методы, способствующие формированию навыков правильной речевой деятельности, а также правила, которым должен следовать педагог в профессионально-педагогическом процессе, средства, используемые для качественного и эффективного донесения речи до слушателя, гармоничного приспособления жестов и телодвижений к речи.*

Abstract: *This article discusses pedagogical and methodological recommendations used in monologic speech, conversation, methods that help develop correct speaking skills, as well as the rules that a teacher must follow in the professional pedagogical process, tools used to deliver speech*

in a high-quality and effective way to the listener, and the harmonious adaptation of gestures and body movements to speech.

Ключевые слова: *Риторика, стили речи, пантомима, мимика, диапазон, дикция, интонация, внушаемость, мелодичность, коммуникативная способность, внешняя речь, внутренняя речь, зрительный контакт, компетентность, эмоциональные состояния.*

Keywords: *Rhetoric, speech styles, pantomime, mimicry, diapason, diction, intonation, suggestiveness, melodiousness, communicative ability, external speech, internal speech, eye contact, competence, emotional states.*

Butun olam yaralibdiki, inson nutq va muloqotga doimiy ehtiyoj sezishgan. Aynan mana shu ehtiyoj kishilik jamiyatida til va nutqning asrlar mobaynida shakllanishiga zamin yaratgan. Monologik nutq esa pedagogik kasbiy faoliyatda muhim bo‘lgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Monolog bu - bir kishining boshqa shaxsga (bir guruh odamlar, jamiyat) e’tiborini jalb qilish, biror muammoni oydinlashtirish yoki ko‘tarish maqsadida batafsil va nisbatan to‘liq bayonidir. Monolog javobni talab qilmaydi, u o‘z muallifining o‘zini ifoda etishi uchungina ishlatiladi. Ommaviy nutq monolog nutq ekanligi odatda qabul qilinadi, “Tilshunoslik atamalari lug‘ati”da “suhbatdoshning og‘zaki munosabati bilan kirishmaydigan, birinchi navbatda o‘ziga qaratilgan nutq” sifatida tavsiflanadi. Monologga murakkabroq sintaktik konstruktsiya va almashinuvni tavsiflovchiga nisbatan kengroq tematik tarkibni qamrab olish hohishi bilan ajralib turadi. Monologlar mazmunini bayon qilish uslubiga ko‘ra uch turga bo‘linadi: tavsif, bayon, mulohaza. Munozara - (yunoncha polemikos - jang) - har qanday masala bo‘yicha tortishuv, munozara, fikrlar to‘qnashuvi. Bu qarama-qarshi tomonlar faol o‘zaro munosabatda bo‘ladigan, fikr almashadigan dialogning bir turi (kengroq aytganda, polilog). Ob'ektiv haqiqat ma’lum bo‘lgan har qanday munozarali masala yoki muammoni jamoaviy muhokama qilish. Munozaraning mohiyati munozarali muammoli masalani jamoaviy muhokama qilish, fikr almashish, o‘z mulohazalari va munosabatlarini ifodalash, faktlar va qoidalarni isbotlash yoki rad etishdir. Bunday munozara haqiqatni izlash, qo‘yilgan savolga javob topish, pozitsiyalar va munosabatlarni yaqinlashtirish, yangi bilimlarni yaratish uchun amalga oshiriladi. Muhokama haqiqatan ham munozarali masalaning mavjudligini, unda barkamol, yetuk, boshqa fikrni eshitishga, dalillarni tanlashga va keltirishga qodir, murosaga kela oladigan odamlarning ishtirok etishini nazarda tutadi. Munozara katta tayyorgarlikni talab qiladi, aniq tashkillashtirish, muammolar va munozaralar buning uchun ahamiyatlidir. Munozara shakli davra suhbatlari, ekspert guruhlari, forumlar, simpoziumlar va hokazolarda ham qo‘llaniladi. Muhokamalarda qatnashish orqali inson muloqot madaniyatini boyitadi. P.Chexov shunday deb yozgan edi: “Aqlli odam uchun yomon gapirishni, o‘qish va yozishni bilmaslik kabi odobsizlik deb hisoblash kerak”. K.Paustovskiy “har bir insonning tiliga nisbatan uning nafaqat madaniy darajasini, balki fuqarolik qadriyatini ham to‘g‘ri baholash mumkin”, deb hisoblagan. Vatanga bo‘lgan haqiqiy muhabbatni o‘z tiliga muhabbatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. An’anaga ko‘ra, nutqni o‘rganish uchun umumiy qoidalar mavjud. Ular odamlarning amaliyoti bilan yaratiladi va avloddan-avlodga o‘tadi. Garchi bu qoidalar bir qarashda oddiy bo‘lsa-da, inson xatti-harakatlari asosan ulardan qanday foydalanishiga bog‘liq. Nutq munosabatlarining asosi xayrixohlik va tinglash qobiliyati bo‘lishi kerak. Suhbatni boshlash uchun suhbatdoshga, tinglovchilarga e’tibor ham kerak. Paradoksal tarzda aytganda, nutq tinglash, vaziyatni tushunish, vaziyatni to‘g‘ri baholashdan boshlanadi. Nutqning ravon va to‘g‘ri bo‘lishi. V.G.Kostomarov aytishicha “To‘g‘rilik nutq madaniyatining zarur va birlamchi omili sifatida adabiy tilning ma’lum

paytda qabul qilingan me’yoriga qat’iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik me’yorlarini egallashdir” deb hisoblagan.

1. Nutqni tayyorlash qobiliyati. Ushbu bosqichda quyidagilarni aniqlash muhim:

Ma’ruzaning mavzusi: U tinglovchilarga yetkazmoqchi bo‘lgan asosiy fikrni ifodalashi kerak.

Mavzuning maqsadi: U so‘zlovchi harakatining mazmuni va yo‘nalishini, nutqning mazmunini, tegishli bo‘lgan material, bilim, ma'lumotlarni tanlash va to‘plashni ifodalashi kerak. Material faktlarga asoslangan kuchli dalillar bilan asoslanishi kerak. Nutqning mazmuni tinglovchilarning qiziqishlari va yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Materialni taqdim etish shakli: Og‘zaki ma'ruza, taqdimot nutqi va boshqalar. Qanday bo‘lmasin, tanlangan shakl tinglovchilarning diqqatini kasbiy muhitda muhim bo‘lgan masalalarga qaratishga yordam beradigan tashkillashtirilgan va guruhlangan material bo‘lishi kerak.

2. Tinglovchilar bilan aloqani to‘g‘ri o‘rnatish. Nutq muallifi va tinglovchilar o‘rtasida ishonchli do‘stona aloqa maydonini o‘rnatish lozim. Bu bosqichda ma'ruzachi o‘ziga e'tiborni jalb qilishga intiladi.

3. Tinglovchilar e’tiborini jalb qilish. Bunda tinglovchilar diqqatini ushlab turish, tinglovchilarning reaktsiyasini kuzatish va e'tiborning pasayishiga o‘z vaqtida javob berish.

4. Aytilayotgan nutqqa muvofiq ma’ruza tizimini ishlab chiqish. Bunda ma’lum bir auditoriya uchun mos ma’lumot topish kerak bo‘ladi.

5. Tinglovchilar oldida ishonchli turish. Tinglovchilar tomonidan berilgan savollarga ishonchli va ijobiy javob berish. Savollarni oldindan taxminiy bilish va turli javob usullaridan foydalangan holda savollarning turlarini farqlashni mashq qilish kerak. Savollarda biror narsa haqida yangi ma'lumot berishni talab qilishi mumkin. Jamoat yig‘ilishlarida ular ko‘pincha so‘raladi. Ularga malakali javoblar ma'ruzachining keng bilimdonligini talab qiladi. Savollar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri savol haqiqiy ma’lumotlarga asoslanadi. Bu bilim yoki faoliyatning juda aniq sohasiga ishora qiladi. Qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga olmaydi. Noto‘g‘ri savol yoki chalkash bilimlarga, qarama-qarshi hukmlarga yoki ma’nosi aniqlanmagan hukmlarga asoslanadi. Mantiqan to‘g‘ri berilgan savolga to‘g‘ri javob berish mumkin. Mantiqan noto‘g‘ri savollarga ko‘pincha umuman javob berib bo‘lmaydi. Ma’ruzachi uchun targ‘ibotga asoslangan savollarni tan olishni o‘rganish foydalidir. Ularning ma’nosi so‘zlovchini qiyin ahvolga solib qo‘yishdir. Bu savollarga javob berish muhokama qilinayotgan voqealar, shaxs, bilim va boshqalar haqida noto‘g‘ri yoki noaniq ma’lumotlarni kiritishi mumkin.

6. Gapirish jarayonida ovozni, imo-ishoralarni, mimikani boshqarish. Bu bosqich keng ko‘lamli tadbirlar tarmog‘ini o‘z ichiga oladi. Bunga ma’ruzachining nutqi, turli xil ovoz texnikasi kiradi. Bu yerda mantiq ham muhimdir. Nutq komponenti, tinglovchilarga taqdim etilayotgan materialning izchilligini ham inobatga olish darkor. Maxsus tayyorgarlik yuz ifodalari, imo-ishoralar va tana harakatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Agar vizualizatsiya, chizmalar, diagrammalar, jadvallar, ko‘rgazmali jihozlar, videokliplar kabi vositalar qo‘llanilsa, ma’ruza yakunida bir qator yutuqlarga erishiladi. Katta auditoriya oldida mikrofondan foydalanish o‘rinli. Eng kamida taxta va bo‘rdan foydalanish tavsiya etiladi.

7. Hissiy holatni maromiga yetkazish zarur.

8. Samarali ishlashga xalaqit beradigan shaxsiy nutq uslubining elementlarini (so‘zlar, imo-ishoralar) aniqlab va ularni muayyan vaziyatda yordam beradigani (adekvat) bilan almashtirish zarur.

9. Do‘stona munosabat, bag‘rikenglik, yordam, xushmuomalalikni namoyish qilib, tinglovchilarda eng yoqimli taassurot qoldirish.

Omma oldida so‘zlangan nutq qanchalik yaxshi ekanligini quyidagi notiqlik nutqining asosiy turlari orqali bilib olish mumkin.

1. Bayonot - bu muayyan mavzu bo'yicha muhim ilmiy yoki ijtimoiy-siyosiy muammoni ochib beradigan batafsil xabardir. Vaqt bo‘yicha bayonotlar 10 - 15 daqiqadan 2 - 3 soatgacha davom etishi mumkin (masalan, hukumat hisobotlari). Rasmiy ma’noda “bayonot” atamasi har qanday intonatsiya shaklidagi nutq birliklariga, aynan o‘sha gaplarga nisbatan qo‘llaniladi. Gapni jumladan ajratib turadigan parametrlar qatoriga ko‘pincha uning haqiqiy artikulyatsiyasi, so‘z tartibi va intonatsiyasi ham kiradi.
2. Xabar - bu bitta kichik muammo yoki muammoni muhokama qiladigan aniq, qisqa (5-10 daqiqa) taqdimot. Xabarlar qisqa bo‘lib, aniq, faktik ma’lumotlar, illyustrativ misollar va bitta kichik mavzuni to‘liq ochib berishi kerak.
3. Nutq - oldindan e'lon qilingan muammoni muhokama qilishda tayyorlangan xabar. Nutqlar har doim qisqa - 4-5 daqiqa, mavzu oldindan tanlanishi mumkin (muhokama qilinayotgan muammo doirasida) yoki muammoni muhokama qilish paytida (improvisatsion nutq) shakllantirilishi mumkin.
4. Ma’ruza - izchil, batafsil ilmiy yoki ommabop ilmiy har qanday muammoni mutaxassis tomonidan taqdim etish. Ma’ruzalar odatda 20 - 30 daqiqadan 1 - 1,5 soatgacha davom etadi (universitet ma'ruzasi).
5. Suhbat - tinglovchilar bilan batafsil, tayyorlangan (ya’ni, ma’ruzachi tomonidan avvaldan o‘ylangan) suhbat. Suhbat ma’ruzachi nutqining juda uzun qismlarini (monologlarni) o‘z ichiga olishi mumkin, biroq u tinglovchilarga majburiy savollar berish, ularning javoblarini tinglash, tahlil qilish va sharhlashni o‘z ichiga oladi. Og‘zaki nutqning aniqligi va to‘g‘riligi uning eng muhim fazilatlaridan biridir. Chunki nutq to‘g‘ri bo‘lmasa, uning boshqa bog‘liq jihatlari, ya’ni mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham zarar yetadi. Til nuqtai nazardan olganda nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun, asosan, ikki me’yorga - urg‘u va grammatik me’yorga qat’iy amal qilish muhim hisoblanadi. So‘zlardagi urg‘uning ko‘chishi bilan ma’no ham o‘zgarib ketadi. Nutqning aniq va tiniqligi. Og‘zaki nutqning aniqligi so‘zning o‘zi ifodalayotgan narsa va hodisaga to‘liq mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim xususiyatlaridan biri ekanini qadimgi olimlar ham e’tirof etib o’tishgan. Nutqiy aniqlikni g‘arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham nutq sifatlarining birinchi sharti deb ta’kidlashgan. Nutqning ta’sirchanligi - mazmundor nutqning tinglovchiga ta’sir etish omilidir. Notiq hamisha so‘z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida so‘zlashi zarur. Nutqning mantiqiyligi - nutqning mantiqiy bo‘lishi, eng avvalo notiqning so‘z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog‘liq. Notiq tilni juda yaxshi bilishi, so‘z boyligi keng bo‘lishi mumkin. Ammo o‘zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo‘lmasa, bilimlarini o‘z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san’ati natija bermaydi. So‘zlarning aytilayotgan mavzuga mos ravishda to‘g‘ri ifodalanishi, so‘z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to‘g‘ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun bo‘ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligidan darak beradi. Notiqning aytayotgan fikri mantiqan bir-biriga bog‘langan bo‘lish kerak. Gaplar o‘rtasida fikriy bog‘lanish, izchillik yo‘qolishi bilan notiq nutqining mantiqiyligiga putur yetadi. Nutqning tozaligi - uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat abadiy til qonun qoidalariga rioya etish nazarda tutiladi. Til vositalari vaziyatga qarab ishlatilgan, siyqa so‘z va iboralarsiz hosil bo‘lgan nutq tabiiy va samimiy bo‘ladi, tinglovchi va o‘quvchilarga tez tushunarli bo‘ladi Jargon bu - tilda muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo‘lmagan so‘zlarni qo‘llash; Varvarizm bu - tilda muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlaming noo‘rin qo‘llanilishi; Vulgarizm bu - tilda haqorat qilish, qo‘pollik asosida qo‘llaniladigan so‘zlarni qo‘llash;

Konselyarizm bu - tilda o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish; parazit (ortiqcha) so‘zlaming ishlatilishi nutqning tozaligiga salbiy ta’sir qiladi. Ushbu hodisalar nutqda uchramasligi uchun, notiq o‘zining fikrini boshqara olishi, doimiy ravishda o‘z nutqini boyitib borishi hamda nutqi ustida mashq qilishi kerak. Nutqning ta’sirchan bo‘lishi- Nutqning ta’sirchan bo‘lishi deb og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shu sabab nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham inobatga olinadi. Bunda notiq tinglovchilarni ularning aqliy salohiyat darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilinayotganigacha nazorat qilishi muhim sanaladi. Nutqning maqsadga muvofiq bo‘lishi. Nutqning maqsadga muvofiq bo‘lishi nutq jarayonida juda muhimdir. Notiq nutq madaniyati adabiy til me’yorlarini puxta egallash va ulardan nutqda to‘liq foydalanishi zarur hisoblanadi. Jamiyatda nutq madaniyati yuksak bo‘lgan kishi, birlamchi o‘z nutqini adabiy til me’yorlariga muvofiq va to‘g‘ri tuzadi. Ikkilamchi, til vositalaridan eng muvofiq, eng zarurlarini tanlab olib, nutqning jozibali bo‘lishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma
2. Qodirova F.R. R.M Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., Istiqlol, 2006.
3. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz, Sariog‘och, 1998.
4. Граудина, Л. К. Риторика и стилистика / Л. К. Граудина, М. А. Мищерина, Н. Н. Соловьева // Учеб. пособие для 11 классов образовательных учреждений. - М. : Русское слово, 2008.
5. Кучерук О.А., Педагогическая риторика: история, теория, практика: [монография]. Киев: КНТ. 2016, С.25–68.
6. Мамчур Л.И. Формування мовно-риторической компетентности майбутного учителя-словесника. Проблемы подготовки такого учителя: сбор научных трудов Уманского державного ПУ имени Павла Тичини. Оман: ФОП Джовтий О.О., № 8 (2), с. 182–186
7. Паршук, С.М. и Круглова Н.С. Педагогическое общение профессиональной ной школы идентичности. Педагогическая наука: теория, история, инновационные технологии. Монография. СуммаДПУ им. Макаренко, с. 318
8. Садова Т.А., 2018. Формирование риторической компетентности майбутных педагогов высшей школы. Молодые встречи, № 10.1, с. 97–100.
9. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. Т., М., 1974, 148-бет.

INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Ergasheva Anbar Shaymardan qizi
Xalqaro innovatsion universitetining Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *So’ngi vaqtlarda innovatsion ta’lim yoshlar va jamiyat orasida tobora ommalashmoqda.Mazkur maqolada innovatsion ta’lim muhitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Globalizatsiya sharoitida ta’lim jarayonining zamonaviy yondashuvlarga asoslangan holda tashkil etilishi, talabalarning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada madaniyatlararo kompetensiyaning mazmuni, uning komponentlari hamda innovatsion metodlar orqali bu kompetensiyalarni rivojlantirish usullari tahlil*

qilinadi. Bundan tashqari, turli fanlar integratsiyasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *madaniyatlararo kompetensiya, innovatsion ta’lim, talabalar, globalizatsiya, muloqot madaniyati, AKT, ta’lim texnologiyalari, integratsiya.*

Kirish. Hozirgi paytlarda globallashuv jarayonida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning kuchayib borishi insonlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik madaniyatiga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – talabalarni nafaqat o‘z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida tayyorlash, balki ularning turli millat, din, urf-odat va qadriyat vakillari bilan samarali hamkorlik qila oladigan, madaniyatlararo muhitda faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu boisdan, madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sohasida eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Innovatsion ta’lim sharoitida bu kompetensiyalarni rivojlantirish yangi yondashuvlar, texnologiyalar va metodlarni qo‘llashni taqozo etadi. An’anaviy ta’lim jarayonida yetarlicha e’tibor qaratilmagan madaniyatlararo kompetensiyalar bugungi interfaol, axborotga boy, texnologik rivojlangan ta’lim muhitida o‘z o‘rnini topmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, masofaviy ta’lim, xalqaro almashinuv dasturlari va onlayn kurslar orqali talabalar turli madaniyatlar bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ularning dunyoqarashi, kommunikativ qobiliyati va madaniyatlararo sezgirligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur maqolada innovatsion ta’lim imkoniyatlari orqali talabalarda madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda samarali strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida talabalar faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki real hayotiy vaziyatlarda turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqotga kirisha olish, ularning qadriyatlarini hurmat qilish, global madaniy muhitda to‘g‘ri yo‘l tutish kabi ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishlari zarur. Bunday ko‘nikmalar majmuasi esa madaniyatlararo kompetensiya deb ataladi. Mazkur kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Bilimlar komponenti – boshqa madaniyatlar, urf-odatlar, qadriyatlar, ijtimoiy normalar haqida bilimlarga ega bo‘lish.

2. Hissiy komponent – boshqa madaniyatga hurmat bilan yondashish, bag‘rikenglik, empatiya.

3. Amaliy komponent – turli madaniyat vakillari bilan muloqot o‘rnata olish, muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, o‘z fikrini aniq yetkazish.

Innovatsion ta’lim esa ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim vositalari orqali talabalar turli madaniy kontekstda muloqot qilishni o‘rganadilar. Misol uchun: Virtual almashinuv loyihalari orqali turli mamlakatlardagi talabalar birgalikda loyiha ustida ishlaydilar. Bu jarayonda ular boshqa millatga mansub tengdoshlarining fikrini hurmat qilishni, muloqotda bo‘lishni, madaniyatlararo farqlarni tushunishni o‘rganadilar. Masalan, "Global Classroom" platformasida O‘zbekiston, Yaponiya va Germaniya talabalari hamkorlikda ekologik mavzuda loyiha ishlab chiqqan. Masofaviy ta’lim kurslari orqali talabalar dunyoning turli universitetlaridan ta’lim olishadi. Bu esa ularni xalqaro madaniy muhitga moslashishga o‘rgatadi. Coursera yoki edX platformalarida ingliz tilida taqdim etilayotgan kurslarda o‘zbek talabalarining faol ishtiroki buning yaqqol misolidir. O‘yinli (gamifikatsiya) yondashuvlar

madaniyatlararo holatlarni imitatsiya qiluvchi interaktiv o‘yinlar orqali talabalarning empatiyasini va muloqot madaniyatini oshiradi. Masalan, “Culture Shock” deb nomlangan interaktiv o‘yin orqali talabalar turli madaniy vaziyatlarda qanday harakat qilishni o‘rganadilar.

Integratsiyalashgan fanlar yondashuvi orqali, masalan, chet tillari darslarida xalqaro madaniyatlar bilan tanishtirish orqali nafaqat til, balki madaniyatlararo tushunchalar ham shakllantiriladi. Ingliz tili darslarida turli mamlakatlardagi bayramlar, urf-odatlar, ovqatlanish madaniyati haqida matnlar bilan ishlash bunga misol bo‘ladi. Innovatsion ta’lim usullari orqali talabalar o‘zbek jamiyatida mavjud bo‘lmagan madaniy hodisalarni tushunishga intiladi, boshqa xalqlarning turmush tarzi, qadriyatlari, qarashlariga nisbatan ochiqlik va bag‘rikenglik hosil qiladi. Bu esa ularning nafaqat shaxsiy rivojlanishiga, balki kelajakda xalqaro miqyosda faoliyat yurita oladigan mutaxassis bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda ta’lim muassasasi muhitining o‘zi ham muhim ahamiyatga ega. Universitetlarda ko‘p millatli talabalar ishtirokidagi tadbirlar, madaniy festivallar, til klublari tashkil etilishi orqali talabalar real tajriba asosida muloqot qilishni o‘rganadilar. Masalan, ba’zi O‘zbekiston oliygohlarida "Xalqaro madaniyat haftaligi" doirasida turli davlatlarga oid ko‘rgazmalar, taomlar ko‘rgazmasi, raqs va qo‘shiqlar kechasi tashkil etilib, talabalarda boshqa madaniyatlarga nisbatan qiziqish va hurmat uyg‘otilmoqda.

XXI asrda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – talabalarda nafaqat chuqur kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki madaniyatlararo muhitda erkin faoliyat yurita olish, xalqaro muloqotda o‘z o‘rnini topa olish salohiyatini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi innovatsion ta’lim strategiyalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Mazkur maqolada ko‘rib chiqilganidek, madaniyatlararo kompetensiya bu – bilim, hissiy holat va amaliy ko‘nikmalarning uyg‘unlashgan majmuasidir. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish esa oddiy nazariy ta’lim orqali emas, balki chuqur integratsiyalashgan, innovatsion, interaktiv va real hayotga yaqinlashtirilgan ta’lim metodlari orqali amalga oshiriladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining – virtual almashinuvlar, onlayn kurslar, gamifikatsiya, madaniy tadbirlar va ko‘p millatli loyihalarning ta’lim jarayoniga joriy etilishi talabalarni global madaniyatga ochiq, tolerant, o‘z fikrini aniq ifoda eta oladigan va turli madaniy kontekstlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikning kengayib borayotgani, xorijiy talabalar sonining ortib borishi va xorijiy professor-o‘qituvchilarning ishtiroki madaniyatlararo muloqotni tabiiy tarzda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu jarayonda muassasa rahbarlari, o‘qituvchilar va ta’lim siyosatini yurituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Ular nafaqat innovatsion metodlarni joriy etish, balki talabalarga boshqa madaniyat vakillariga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirishda namuna bo‘lishlari zarur. Madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv, ya’ni turli fanlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni yaratish, til o‘rganish orqali madaniyatni anglash, global muammolarni muhokama qilish kabi strategiyalar ham o‘z samarasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng dolzarb, zaruriy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar davom ettirilib, ta’lim tizimi doimo global talablarga mos ravishda takomillashib borishi lozim. Faqat shundagina biz raqobatbardosh, bilimdon, tolerant va ochiq fikrli yosh mutaxassislarni tarbiyalay olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Xodjayeva N. Sh. Madaniyatlararo kommunikatsiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2019.
3. Safarova D. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
4. Жуманазарова М.Х. Инновацион таълим муҳитида талабаларнинг маданиятлараро компетенциясини ривожлантиришнинг психология-педагогик асослари. – Самарқанд, 2021.
5. Tomalin B., Stempleski S. Cultural Awareness. – Oxford University Press, 1993.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Алимова Нодира Саидахмедовна
базовый докторант Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниязи

Аннотация. *В данной статье рассматриваются цифровые технологии формирования и развития интереса учащихся к занятиям физической культурой. Отмечена важность внедрения инновационных спортивных игр, интерактивных методов физического воспитания учащихся в цифровой образовательной среде.*

Ключевые слова: *физическая культура, мотивация, цифровая образовательная среда, инновационные технологии, интерактивные методы.*

Современное образование переживает масштабные изменения, связанные с активным внедрением цифровых технологий. Цифровая образовательная среда (ЦОС) становится неотъемлемой частью процесса обучения, включая физическое воспитание. Важной задачей педагогов становится формирование у учащихся устойчивого интереса к занятиям физической культурой (ФК), что является основой здорового образа жизни и физического развития.

Одной из ключевых особенностей цифровой образовательной среды является расширение спектра дидактических инструментов. С помощью мультимедийных презентаций, видеоматериалов и интерактивных тренажеров учащиеся могут наглядно изучать технику выполнения упражнений, что способствует лучшему усвоению материала [1]. Такие ресурсы позволяют не только объяснить, но и визуализировать ключевые элементы занятий, делая обучение более увлекательным и наглядным.

Использование мобильных приложений и цифровых платформ для учета и анализа физической активности позволяет учащимся самостоятельно отслеживать результаты, что стимулирует развитие познавательного интереса и формирует навыки самоконтроля [2]. Например, популярные фитнес-приложения предоставляют возможность устанавливать индивидуальные цели, оценивать собственный прогресс и корректировать тренировочную нагрузку в зависимости от возраста и физической подготовленности [3].

Большое значение имеет внедрение элементов геймификации, которые значительно повышают мотивацию учащихся. Соревновательные элементы, такие как виртуальные награды, рейтинговые таблицы и челленджи, стимулируют участие в физкультурных занятиях

и повышают вовлеченность [4]. Геймификация способствует эмоциональному вовлечению учащихся и помогает сформировать устойчивый интерес к регулярным физическим нагрузкам.

Однако важно помнить, что цифровизация не должна подменять личный контакт с педагогом. Роль учителя заключается в создании благоприятной образовательной атмосферы, индивидуальной поддержке и наставничестве. Преподаватель должен уметь сочетать возможности цифровой среды с традиционными методами обучения, чтобы обеспечить гармоничное развитие личности учащегося [5].

Эффективность формирования интереса к физической культуре в ЦОС во многом зависит от учета возрастных и психофизиологических особенностей учащихся. Индивидуализация образовательных траекторий позволяет адаптировать нагрузку и темп освоения материала в зависимости от потребностей и способностей каждого обучающегося [6]. Такой подход не только снижает риск перегрузки, но и поддерживает высокий уровень мотивации.

Психологические аспекты формирования интереса - интерес учащихся к физической культуре напрямую связан с психологической атмосферой на занятиях. Создание позитивного настроя, учет индивидуальных потребностей и использование элементов поощрения (похвалы, небольшие достижения) способствуют формированию устойчивой мотивации. Цифровая образовательная среда, в свою очередь, позволяет визуализировать успехи и создавать персонализированные рекомендации, что укрепляет веру в собственные силы и повышает вовлеченность.

Инновационные цифровые ресурсы: Существует широкий спектр цифровых ресурсов для физического воспитания:

Видеоплатформы (YouTube, Fitify, Nike Training Club) с тренировочными видео;

Программы для отслеживания результатов (Google Fit, Strava);

Интерактивные платформы (Quizzes, Kahoot!) для тестирования знаний о здоровом образе жизни.

Эти ресурсы способствуют интеграции физической культуры в привычный цифровой ландшафт учащихся.

Методами повышения мотивации могут быть следующие:

Проектная деятельность: создание собственных тренировочных программ в цифровом формате (видео, презентации).

Социальное взаимодействие: групповые онлайн-занятия и челленджи с участием друзей и одноклассников.

Визуализация прогресса: цифровые таблицы достижений, интерактивные графики.

Возможности для инклюзии - цифровые технологии позволяют адаптировать задания для учащихся с ограниченными возможностями здоровья, предоставляя альтернативные варианты упражнений и виртуальных инструкций. Это расширяет доступ к физической культуре и делает ее инклюзивной.

Перспективами развития данной сферы являются следующие:

Расширение использования технологий виртуальной реальности (VR) и дополненной реальности (AR) для моделирования движений.

Создание национальных образовательных платформ с фокусом на физическое воспитание.

Обучение педагогов использованию цифровых инструментов в своей практике.

Таким образом, цифровая образовательная среда открывает новые горизонты для формирования и развития интереса к физической культуре. Интеграция цифровых инструментов в образовательный процесс способствует вовлечению учащихся, развитию навыков самоанализа и саморегуляции, а также формированию устойчивой привычки к здоровому образу жизни. Перспективным направлением остается дальнейшее совершенствование цифровых ресурсов и их адаптация к особенностям школьного и студенческого контингентов.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Глухов В.П. Инновационные подходы к физическому воспитанию школьников. – М.: Академия, 2021. – 144 с.
2. Сухарева Н.Л. Использование цифровых технологий в физическом воспитании // Современные проблемы науки и образования. – 2022. – № 4. – С. 35–38. DOI: 10.17513/spno.34229
3. Николаев А.В., Кузнецов С.В. Цифровизация в физическом воспитании: возможности и перспективы // Педагогика и психология образования. – 2023. – Т. 5, № 1. – С. 47–52. DOI: 10.26170/ppoe-2023-0501-07
4. Петрова М.И. Геймификация в обучении физической культуре // Молодой ученый. – 2023. – № 7. – С. 112–114. URL: https://moluch.ru/archive/422/92740/
5. Иванова Е.Г. Организация образовательного процесса в цифровой среде // Образование и саморазвитие. – 2021. – Т. 16, № 1. – С. 24–30. DOI: 10.26907/es.16.1.03
6. Лебедева И.А. Возрастные особенности и индивидуализация физической активности // Физическая культура: теория и практика. – 2022. – № 6. – С. 60–64. DOI: 10.15802/ptp2022-6-60

TO‘LIQSIZ OILALARDA TALABA YOSHLARNING ASOSIY OILAVIY QADRIYATLARGA SODIQLIK TUYG‘USINI TAKOMILASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Musurmanova Shaxlo Ilhomovna
Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada to‘liqsiz oilalarda talaba yoshlarning asosiy oilaviy qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘usini takomilashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mahalla, jamiyat, to‘liq bo‘lmagan oila, asosiy oilaviy qadriyatlar, ota-ona, talaba, oila, ajrashgan oila, funktsional, oqilonalik (ratsionallik), hamjihatlik (hamfikrlilik), jamoaviylik, halollik, fidoiylik, mehmondo‘stlik, o‘zaro bog‘liqlik, kamtarlik, burch, saxiylik, salomatlik, moliyaviy savodxonlik, oilaparvarlik, tejamkorlik;*

Abstract. *This article discusses the specific features of improving the sense of loyalty to basic family values of students in single-parent families.*

Keywords: *mahalla, society, single-parent family, basic family values, parents, student, family, divorced family, functional, rationality, solidarity, teamwork, honesty, selflessness, hospitality, interdependence, humility, duty, generosity, health, financial literacy, family life, thrift;*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности повышения чувства лояльности к базовым семейным ценностям у учащихся в неполных семьях.*

Ключевые слова: *маҳалла, общество, неполная семья, базовые семейные ценности, родители, ученик, семья, разведенная семья, функциональность, рациональность, солидарность, командная работа, честность, бескорыстие, гостеприимство, взаимозависимость, смирение, долг, щедрость, здоровье, финансовая грамотность, семейная жизнь, бережливость.*

Azaldan ma’lumki, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”dan tortib hozirgi kungacha barcha ijod ahllarining asarlariga nazar soladigan bo‘lsak, yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash masalasi asosiy o‘rinni egallab kelmoqda. O‘zbek oilasi o‘zida qadimiy ma’naviy qadriyat va an’analarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma’naviy, madaniy merosimizni saqlab kelgan va kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g’risidagi” PF-5938-son Farmonida ham soha rivojini, xususan, xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishni yangi bosqichga olib chiqish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma’naviy-axloqiy negizlari va an’anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo‘yicha maqsadli ishlarni olib borish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Hududlarda mazkur Farmon asosida oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashish maqsadida tashkil qilingan oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Oilaviy qadriyatlar - insonlar orasidagi munosabatlar tizimini tartibga soluvchi, individual va jamoaviy mas’uliyatni shakllantiruvchi, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasida muhim o‘rin tutuvchi qadriyatlardir. Ular oilaning mustahkamligi, tarbiya jarayonlari, madaniy merosning saqlanishi va uzatilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: “Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajralishlar ko‘payib bormoqda. Begunoh bolalar etim bo‘lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda... Yana bir nohush holatni bugun afsus bilan aytmoqchiman: oilalarda nosog’lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasidagi o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda” , – deb barcha oilalarga qarata o‘z fikrini bildirdi.

Demak, har bir oilada oilaviy qadriyatlar mustahkam bo‘lishi uchun ota-onalarning o‘zlari farzand tarbiyasi haqidagi bilimlar bilan doimo qurollanishlari talab etiladi. Aynan er-xotinning oilani barpo etish motivlari va maqsadlari haqida bilimga ega emasligi, umumiy qadriyatlarni tushunmaslik, mustahkam oilaviy an’analarning shakllanmaganligidir.

Darhaqiqat, qadimdan milliy urf-odat va an’analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nan etuk, mehr-oqibatli, saxovatpesha, o‘zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirgak bo‘la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog’lom oila muhiti muhim o‘ringa ega bo‘lib kelgan. Ilmiy manbalarda ham qadriyat masalasi bo‘yicha:

“Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir”[11], – deb keltirilgan.

Oilaviy qadriyatlar - bu jamiyatning ma’naviy va axloqiy asoslarini shakllantiruvchi, oila institutining barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy qadriyatlarning bir ko‘rinishi, normativ tamoyillar va me’yorlar majmui hisoblanadi.

Oilaviy qadriyatlar - bu oila a’zolari o‘rtasidagi hurmat, mehr-muhabbat, halollik, hamjihatlik kabi muhim axloqiy tamoyillar, urf-odat va an’analar tizimi bo‘lib, ular oila ichidagi munosabatlarni mustahkamlaydi va avloddan-avlodga o'tib keladi.

Oilaviy qadriyatlar nikohga bo‘lgan munosabatda, oilaviy hayotning maqbulligida, ajralishning salbiy idrokida va albatta, yuqori reproduktiv munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Oilaviy qadriyatlarning an’anaviyligi shundan iboratki, bola uchun ijtimoiylashuvning asosiy bosqichi aynan oilada sodir bo‘ladi. Ota-onalar bolaga axloqiy ko‘nikmalarni, xulq-atvor qoidalarini, shu jumladan, ijtimoiy va madaniy me’yorlarni o‘zlashtirish jarayonida yordam beradi.

Hozirgi kunda to‘liqsiz oilalarda talaba yoshlarning oilaviy qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘usini takomilashtirish dolzarb vazifa hisoblanmoqda. To‘liqsiz oilalarda talaba yoshlarning oilaviy qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘usini takomilashtirishning quyidagi turlari mavjud:

1. Asosiy oilaviy qadriyatlar;
2. Axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik qadriyatlar;
3. Ruhiy va shaxslararo munosabatlarga taalluqli qadriyatlar;
4. Hamjihatlik, ijtimoiylikka tegishli qadriyatlar;
5. Boshqa oilaviy qadriyatlar.

Shulardan asosiy oilaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- Kattaga hurmat, kichikka izzat;
- Oqilonalik (ratsionallik);
- Hamjihatlik (hamfikrlilik);
- Jamoaviylik;
- Halollik;
- Fidoiylik;
- Mehmondo‘stlik;
- O‘zaro bog‘liqlik;
- Birdamlik;
- Kamtarlik;
- Burch;
- Oilaviy munosabatlarda uyg‘unlik;
- Saxiylik;
- Salomatlik;
- Moliyaviy savodxonlik;
- Keksalarga e’tibor;
- Oilaviy an’analarga sadoqat;
- Sadoqat (vafo);

[11] Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – Б. 707.

- Sabr-qanoat (toqatlilik; bardoshlilik);
- Oilaparvarlik;
- Nikohning muqaddasligi;
- Tejamkorlik;
- Oila farovonligi;
- Muvozanat;
- Insonparvarlik;
- Ibrat (kattalar namunasi);
- Farzandlik burchi;
- Bolajonlik (farzandlarga mehribonlik);

Kattaga hurmat va kichikka izzat — oilada katta yoshdagilarni hurmat qilish va kichiklarni e’zozlash orqali oila a’zolari o‘rtasida hurmat-ehtirom va mehr-muhabbatni mustahkamlashga qaratilgan qadriyat. Bu qadriyat oilaning barcha a’zolariga bir-birlariga nisbatan ehtirom va mehr ko‘rsatish zarurligini uqtiradi. Kattalar oilaning yoshi ulug‘, hayotiy tajribaga ega a’zolaridir. Ularni hurmat qilish, ularning so‘zlariga quloq solish, maslahatlariga amal qilish oila a’zolari uchun muhim hisoblanadi. O‘zbek an’analarida kattalar bilan gaplashishda odob saqlash, ularning huzurida o‘zini tutish madaniyati rivojlangan. Masalan, oila yig‘ilishlarida yoki muhim qarorlar qabul qilishda kattalar birinchi o‘rinda turadi va ularning fikri muhim hisoblanadi. Kichiklar, ya’ni oila va jamiyatning yosh a’zolari e’tiborga olinishi va e’zozlanishi kerak. Ularni qo‘llab-quvvatlash, tarbiyalash va himoya qilish kattalar zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu qadriyat kichiklarni hurmat qilish va ularni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Kattalar yoshlarning fikrini tinglash, ularning o‘sib-ulg’ayishiga yordam berish va ular bilan o‘zaro hurmat asosida munosabatda bo‘lishga intiladi.

Ushbu qadriyat oilada hurmat, mehr va tinchlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Kattalarga hurmat oilaning avlodlararo bog‘liqligini saqlashda yordam beradi, kichiklarga izzat esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Bu qadriyat oiladagi jipslikni mustahkamlab, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu qadriyat oilada mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Oila a’zolarining bir-biriga nisbatan hurmati oilaviy totuvlikning asosi hisoblanadi. Bu qadriyat bolalardan tortib kattalargacha bo‘lgan barcha oila a’zolarini o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘zbek oilalarida bolalar kattalarni hurmat qilib, ularning yonida odobli bo‘lishga o‘rgatiladi, shu bilan birga, kattalar ham kichiklarga izzat ko‘rsatib, ularga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lishadi.

Mazkur qadriyatning turli madaniyat va davlatlardagi ahamiyati. **Yaponiyada** kattalarga hurmat qadriyati «Oyayubashira» deb nomlanib, har bir oila a’zosi jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun katta ahamiyatga ega. **Hindistonda** esa oiladagi kattalarga hurmat hindlarning e’tiqodida ham muhim o‘rin tutadi va bu qadriyat jamiyatda katta avlodni hurmat qilish madaniyatini rivojlantiradi. O‘zbekistonda esa bu qadriyat qadimdan milliy qadriyat sifatida oilalarda keng tarqalgan bo‘lib, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi va oilaviy jipslikning

- Oilada muntazam ravishda kattalarni eshitish va ularning maslahatlariga amal qilishni odat qiling;
- Kichiklarga nisbatan mehribonlik bilan yondashing va ularni hurmat qilishni o‘rgating.
- Oilaviy tadbirlarda va marosimlarda kattalarga alohida e’tibor qaratish, kichiklarning qatnashishini ta’minlash.
- Qadriyatga yo‘naltirilgan maqollar, hikmatli so‘zlar, aforizmlar:

- «Kattani hurmat qil, kichikni izzat qil»
- «Hurmatli bo‘lsang, hurmat ko‘rarsan»
- «Kattaga izzat, kichikka rahmat»

Oqilonalik (ratsionallik, donolik) - bu insonning fikrlash jarayonlarida, qarorlar qabul qilishda va harakatlarida mantiqiy va asosli yondashuvni qo‘llashi, ya’ni his-tuyg’ularga emas, balki mantiqiy dalillar va faktlarga asoslanishi demakdir. Oqilonalik shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynaydi, chunki bu insonning muammolarni samarali hal qilishiga, to‘g’ri qarorlar qabul qilishiga va o‘z hayotini tartibga solishiga yordam beradi.

Oqilonalik oila uchun muhim, chunki bu qadriyat oilaviy qarorlar qabul qilishda vaqt va resurslarni tejash, shoshilinch yoki noto‘g‘ri qarorlardan qochish imkonini beradi. Oqilonalik oilaning farovonligini saqlashda, farzandlarning mas’uliyatli va mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qadriyat oilaviy muammolarni hal qilishda xotirjamlik va mantiqiy yondashuvni targ‘ib qiladi. Oqilonalik odamga murakkab vaziyatlarda to‘g’ri qarorlar qabul qilishda ko‘maklashadi. Mantiqiy va asosli yondashuv orqali inson xatolardan qochishi va eng samarali yo‘lni tanlashi mumkin. Oqilonalik insonning muammolarni aniqlash va ularni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Bu fazilat murakkab masalalarni qismlarga ajratish va ularga mantiqiy yondashish orqali samarali echimlar topishga yordam beradi qolaversa,oqilonalik shoshqolokliknin, shoshilinch qarorlar qabul qilish orqali oilaviy beqarorlikka yo‘l qo‘ymaslikda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Oqilonalik oilaviy hayotda tejamkorlik, maishiy ishlarda mehnat taqsimotini to‘g‘ri amalga oshirish borasida ham muhim qadriyat sanaladi. shuningdek, oqilonalik ko‘p hollarda donishmandlik, bosiqlik, uzoqni ko‘ra bilish, uzoq muddatli rejalar tuzish hamda ularni qat’iy tartib asosida amalga oshirishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, farzandlarning kelajagini belgilashda oqilona yondashuv ularning istiqbolda o‘z yo‘llarini topishlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. farzand tarbiyasida ratsional yondashuv ular jismoniy va psixologik rivojlanishini to‘g‘ri tashkil etishning ustuvor tamoyili bo‘lmog‘i lozim. Shu ma’noda bolalar aqliy salohiyatini yuksaltirishda ular bilan suhbatlashish, ularning savollariga aniq va to‘g‘ri javob berish taqazolanadi.

Mazkur qadriyatning turli madaniyat va davlatlardagi ahamiyati

Germaniyada oqilonalik qadriyati yuqori baholanadi, bu esa mehnatsevarlik va aniq rejalashtirish orqali hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omil sifatida qaraladi.

Singapurda ratsionallik davlat siyosatida va jamiyatda keng qo‘llanilib, iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarga erishishda asosiy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Yaponiyada ratsionallik va oqilonalik ishchi kuchi va texnologik rivojlanishda, shuningdek, kundalik hayotda samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

To‘liqsiz oilalarda talaba yoshlarning oqilonalik tuyg‘usini takomilashtirish bo‘yicha tavsiyalar:

Oila qarorlarini qabul qilishda his-tuyg‘ularga berilmaslikka, balki mantiqiy tahlil qilishga o‘rgatish.

Bolalarga resurslarni tejash va oqilona ishlatish ko‘nikmalarini singdirish.

Oilada har bir qaror yoki xaridni muhokama qilib, oqilonalik bilan yondashishning ahamiyatini tushuntirish.

Qadriyatga yo‘naltirilgan maqollar, hikmatli so‘zlar, aforizmlar:

«O‘ylab ish qilgan, yutqazmaydi.»

«Ayolning husni pardozi emas, aqlida»

«Achchig`ing chiqsa ham aqling qochmasin.»
«Aql aynimas, oltin chirimas»
«Aql bozorda sotilmas»
«Aql boshlovchi, tana ishlovchi»

Jamoaviylik (kollektivizm) – *odamlarning o‘zaro yaqinligi va hamkorligi asosida shakllangan, dunyo xalqlarida, jumladan, o‘zbeklarda azaldan ijtimoiy birlikni anglatuvchi tushuncha. Jamoaviylik – odamlarning o‘zaro hamkorlik va yordamga asoslangan hayot kechirish va turmush tarzi bo‘lib, individualizm, shaxsiy xudbinlik, egotsentrizmning ziddi hisoblanadi. Zero, oila, mehnat jamoalari moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarida kishilar o‘zaro birlashgandagina ko‘zlangan maqsad-muddaolarga erisha olishi mumkinligi jamoaviylik ruhi shakllanishining bosh omilini tashkil etadi.*

Bu oilaviy rishtalarni mustahkamlagan holda, umumiy muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Kollektivistik jamiyatlarda odamlar jamoaning muvaffaqiyati va farovonligi har bir a’zoning farovonligiga olib kelishiga ishonib, jamoaviy maqsadlar va manfaatlarni shaxsiy maqsadlardan ustun qo‘yishga moyildirlar. Bu, shuningdek, oila, ish yoki kengroq jamiyat bo‘lsin, guruhga kuchli tegishlilik va birdamlikni o‘z ichiga oladi.

Jamoaviylik oilalar uchun muhimdir, chunki u birlik va o‘zaro bog’liqlik tuyg’usini kuchaytiradi. Kollektivistik ruh ustunlik qiladigan oilalarda a’zolar umumiy manfaatlar uchun o‘z manfaatlarini qurbon qiladilar, bu esa oilada totuvlik va barqarorlikni ta’minlaydigan omil sanaladi. Shuningdek, ayni tamoyil bolalarda oila va jamiyat oldidagi mas’uliyat tuyg’usini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa keyinchalik ularni jamiyatning mas’uliyatli a’zosi sifatida shakllantiradi. Bu qadriyat oilada har bir a’zo uchun o‘z manfaatlarini umumiy manfaatlar yo‘lida qurbon qilishga tayyorlik tuyg’usini rivojlantiradi, bu esa oilaviy totuvlik va uzoq muddatli barqarorlikka olib keladi. Bunday muhitda o‘sgan bolalar, odatda, jamiyat oldidagi majburiyatlarini yanada chuqurroq anglaydilar va bu ularning kelajakda mas’uliyatli va jamoaga foydali fuqarolar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Jamoaviylik oilaning har bir a’zosiga o‘zini katta bir butunning ajralmas qismi sifatida his qilish imkonini beradi, bu esa oilaviy rishtalarni yanada mustahkamlaydi.

O‘zbek oilalarida oila a’zolarining farovonligi birinchi o‘rinda turadi va har bir kishi bir-birining hayotida faol ishtirok etadi. Qarindoshlar va do‘stlar o‘rtasidagi yaqin munosabatlar, to‘ylar, ma’rakalar va boshqa ijtimoiy tadbirlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlash bilan namoyon bo‘ladi. Shuningdek, qishloq va mahalla hayotida jamoaviylik qadriyati alohida o‘rin tutadi, bu yerda aholi bir-biriga yordam beradi va jamiyatning umumiy farovonligi uchun birgalikda harakat qiladi.

O‘zbekistonda jamoaviylik qadriyati xalqning tarixiy, madaniy va diniy an’analari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, u ijtimoiy barqarorlik va birlashuvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu qadriyat oilalar va jamiyatda birdamlikni saqlash va mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

Jamoaviylik qadriyatining turli madaniyat va davlatlardagi ahamiyati

Xitoyda jamoaviylik Konfutsiy an’analarida chuqur ildiz otgan bo‘lib, bu an’analarga ko‘ra, oilaviy va ijtimoiy mas’uliyat shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yiladi. Xitoy jamiyatida insonning o‘z oila va jamiyatiga xizmat qilishi, o‘z individual ehtiyojlaridan ustun turishi qadrlanadi.

Meksikada jamoaviylik kuchli oilaviy rishtalar orqali namoyon bo‘ladi. Meksika madaniyatida oilaning ahamiyati birinchi o‘rinda turadi va har bir oila a’zosi boshqa a’zolarning farovonligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Bu o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va bir-biriga yordam berish madaniy hayotning asosiy tamoyillaridan biridir.

Rossiyada jamoaviylik qarindoshlar va do‘stlar o‘rtasidagi mustahkam aloqalar orqali ifodalanadi.

O‘zbekistonda jamoaviylik qadriyati chuqur ildiz otgan va jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining madaniyatida oilaviy munosabatlar va qarindosh-urug’chilik aloqalari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Jamoaviylik mazkur mamlakatda oilaviy rishtalarning mustahkamligi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan intilish orqali ifodalanadi.

To‘liqsiz oilalarda talaba yoshlarning jamoaviylik qadriyatining takomilashtirish bo‘yicha tavsiyalar:

Bolalarda kattalarga hurmat, kichiklarga mas’uliyat hissini shakllantirish.

Har bir inson o‘zini muhim his qilishi va o‘z hissasini qo‘shishi uchun butun oilani qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga va mas’uliyatni taqsimlashga undash.

Umumiy maqsadlar va rejalar muhokama qilinadigan oilaviy uchrashuvlarni tashkil qiling, bu esa jamoa tuyg’usini mustahkamlashga yordam beradi.

Qadriyatga yo‘naltirilgan maqollar, hikmatli so‘zlar, aforizmlar:

Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar.

Yolg’iz otning changi chiqmas, changi chiqsayam dong’i chiqmas.

Ko‘pchilikdan quyon qochib qutulmas.

Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri.

Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib, oilalar sog’lom ekan – jamiyat mustahkam bo‘ladi. Mustahkam jamiyatda esa tinchlik, farovonlik, osoyishtalik va to‘kinlikning barqarorligi ta’minlanadi. Jamiyatimizning osoyishtaligi va barqaror rivojlanishi hamda oilaviy qadriyatlarning mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shish esa har bir shaxsning vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzusida o‘tkazilayotgan inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumi ishtirokchilariga nutqi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. 12.08.2020.
2. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – B. 487.
3. Azimov, O. (2021). «Oila va qadriyatlar». Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
4. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 707.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O‘qituvchi,1992
6. Musurmanova, O., Shaamirova, Yu. K., & Salaeva, M. S. (2023). Mahallalarda to‘liqsiz oilalardagi muammosi mavjud farzandlar bilan ishlash mexanizmlari Uslubiy qo‘llanma.
7. Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. Science and innovation, 2(B1), 49-59.
8. Мусурманова, Ш. И. (2023). МАҲАЛЛА ФУҚАРО ЙИҒИНИ ТИЗИМИДАГИ МУТАСАДДИЛАРНИНГ НОТЎЛИҚ ОИЛА БИЛАН ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДАГИ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИ.
9. Ilkhomovna, M. S. (2023). ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-INTELLECTUAL COMPETENCE OF ADULT STUDENT-YOUTH IN INCOMPLETE FAMILIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
10. Musurmonova, S. (2022). Significance and role of pedagogical creativity. European Scholar Journal, (3), 11.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MOXIYATI VA XUDUDLAR IXTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Mirsardor Alimov
Qori Niyoziy nomidagi TPMI Milliy tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish texnologiyalari ilmiy tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi.

Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan rakamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iktisodiy faoliyati, iktisodiy siyosati va davlat boshkaruvi tuzilishini sifat xamda texnologik jixatdan tubdan uzgarishiga olib kelmokda. Jumladan, rakamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularning iktisodiy-ijtimoiy xayotda keng tatbik etish sur’atlarining turlichaligi okibatida mamlakatlar urtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bulmokda. Dunyoda rakamli iktisodiyotning usish sur’atlari juda shiddatli bulib rivojlangan davlatlarda rakamli iktisodiyotiga katta ulush kushmokda. Ular xozirning uzida rakamli iktisodiyotning joriy kilinishidan juda katta foyda kurmokda. Jumladan, joriy yilda AKSh sanoat soxasini rakamlashtirishdan kushimcha 20 trln. AQSh dollar daromad olishi kutilmokda.

Tadkikotlarga kura, jaxon iktisodchi olimlari bugungi rakamlashib borayotgan global olamda rakamli iktisodiyotning kiymati va samaradorligini baxolash buyicha yagona integral indikatorni yaratish buyicha muammolarga duch kelishmokda. Ushbu xolatlarni bartaraf etishda empirik va statistik ma’lumotlarning yetishmasligi, texnologik rivojlanish jarayonlarining shiddat bilan uzgarib borayotganligi, institutsional uzgarishlarning tez sur’atlarda amalga oshayotganligi sabab bulmokda. Zamonaviy tarakkiyotning keyingi istikbolida "Artificial intelligence" (sun’iy intellekt) dan foydalanish istikbollari va kraudsorsing, "Blockchain technology" (blokcheyn texnologiyalari)ni tatbik etishning uslubiy jixatlari xamda ushbu texnologiyalarning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishga ta’sirini tadkik kilish bilan boglik ilmiy tadkikotlar olib borilmokda.

O`zbekistonda sunggi yillarda milliy iktisodiyotni tubdan modernizatsiya kilish buyicha olib borilayotgan keng kamrovli isloxotlar doirasida mamlakatning ijtimoiy-iktisodiy xayoti va davlat boshkaruvi tizimiga rakamli texnologiyalarni joriy etish borasida kator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Xususan, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha xarakatlar strategiyasi tugrisida"gi Farmonida rakamli iktisodiyotni rivojlantirish, iktisodiyotda davlat boshkaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning uzaro foydali xamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron xukumat" tizimini rivojlantirish buyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 fevral PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari soxasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi farmoni, 2018 yil 3 iyul PQ-3832-son "O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida"gi karori, 2018 yil 2 sentyabr PQ-3927-son ""Rakamli ishonch" rakamli iktisodiyotni rivojlantirishni kullab-kuvvatlash jamgarmasini tashkil etish tugrisida"gi karori, Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 20 maydagi 421-sonli "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish xisobidan axoliga davlat xizmatlarini kursatish tartibini takomillashtirish buyicha kushimcha chora-tadbirlar tugrisida"gi karori xamda mamlakatda rakamli iktisodiy tizimga utishni ragbatlantirish va jadallashtirishga karatilgan

boshka me’yoriy-xukukiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi.

Bugungi transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda rakamli iktisodiyotni yagona tizim sifatida mamlakatning iktisodiy rivojlanishiga ta’sirini urganish, xududlarning bir butunlikda, kompleks rivojlanishi va jon boshiga tugri keladigan daromadning usishiga ta’sirini baxolash tadkikotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda rakamli iktisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoklar va soxalarda, eng avvalo, davlat boshkaruvi, ta’lim, soglikni saklash va kishlok xujaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish buyicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Xususan, elektron xukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy maxsulotlar va axborot texnologiyalarining maxalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha xududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, soxani malakali kadrlar bilan ta’minlashni kuzda tutuvchi 220 dan ortik ustuvor loyixalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashkari, 40 dan ortik axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshkarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy soxani rakamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshka xududlarda joriy kilishni nazarda tutuvchi "Rakamli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmokda.

Rakamli transformatsiya (ing. digital transformation, DT yoki DX) keng ma’noda rakamli texnologiyalarni kabul kilish bilan ta’minlangan strategiya, modellar, operatsiyalar, maxsulotlar, marketing yondashuvi va maksadlarni kayta kurib chikish orkali boshkaruv tizimini uzgartirishdir. U savdo-sotik, biznes va umumiy iktisodiyotning usishini tezlashtirish xamda notijorat tashkilotlarning (masalan, universitetlar va boshka ukuv muassasalari) samaradorligini oshirishga xizmat kiladi.

Rakamli transformatsiya tor ma’noda "kogozsiz ofis" yoki "rakamli biznes"ni anglatishi mumkin, bu aloxida korxonalar, iktisodiyot, xukumat, san’at, tibbiyot va fan kabi jamiyatning barcha katlamlariga ta’sir kiladi. Rakamli yechimlar nafakat an’anaviy usullarni takomillashtirish va kullab-kuvvatlash, balki yangi turdagi innovatsiyalar va ijodkorlikning paydo bulishini ragbatlantiradi.

Rakamli transformatsiya - bu (amalga oshirishda) katta muammo va (kelajakda) imkoniyatdir. Rakamli uzgarishlarni amalga oshirishni rejalashtirayotgan korxonalar, xududlar yoki davlatlar yuzaga keladigan madaniy uzgarishlarni xisobga olishlari kerak, chunki yangi texnologiyalarga moslashishga ma’lum vakt talab etiladi. Rakamli transformatsiya bozor uchun noyob kiyinchiliklar va imkoniyatlar yaratdi, korxonalar, xududlar xamda davlatlar urtasida rakobatni kuchaytirdi.

Rakamli iktisodiyot xududlar iktisodiyotini rivojlantirish uchun asos bulib xizmat kiladi shuningdek, sanoat tarmoklari xamda xizmat kursatishni samarali rivojlantirishni ragbatlantiradi. Iktisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kullash yirik va kichik korxonalar urtasida maxsulotlarni ragbatlantirish uchun teng imkoniyatlar yaratadi, bu uz faoliyatining samaradorligini oshiradi va soxada rakobatni ta’minlash uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

Rakamli transformatsiyaning belgilovchi omili uning sur’ati xisoblanadi. Texnologiya rivojlanishining tezligi va natijada ijtimoiy-iktisodiy, infratuzilmaviy uzgarishlarning inson xayoti bilan boglikdigi rivojlanish tezligida sifatli pogonani kursatish imkonini beradi, bu esa yangi davrga utishni anglatadi. Rakamli transformatsiya korxona va tashkilotlar uz manfaatdor tomonlariga kuprok kiymat berish uchun uz ish uslubini uzgartirganda yuz beradi. Muvaffakiyatli transformatsiyani ta’minlaydigan texnologiya turi ikkinchi darajali masala xisoblanadi.

Davlat sektorida rakamli transformatsiya jarayonlari, rakamli maxsulotlarni tezkor yaratish va rivojlantirishga bulgan extiyoj, rakamli xizmatlarni boshkarish rakamli transformatsiyalar uchun

mas’ul bulgan davlat boshkaruv organlarining tashkiliy va funksional tuzilmalariga, shuningdek, rakamli jamoalar tarkibiga yondashuvlarni kayta kurib chikishni. takozo etadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Rakamli Uzbekiston - 2030" strategiyasini tasdiklash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari tugrisida"gi farmoni rakamli transformatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi xukukiy asos xisoblanadi.

Respublikada rakamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iktisodiyot tarmoklarining rakobatbardoshligini oshirish, shuningdek Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Xarakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maksadida kator vazifalar belgilangan. Jumladan, keyingi ikki yilda xudud va tarmoklarni rakamli transformatsiya kilish doirasida:

axoli punktlarini Internet tarmogiga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini kupaytirish, optik-tolali aloka liniyalarini kurish va mobil aloka tarmoklarini rivojlantirish.

xududlarni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning turli soxalarida axborot gizimlari, elektron xizmaglar va boshka dasguriy maxsulotlar joriy etish;

"Bir million dasturchi" loyixasi doirasida yoshlarni kamrab olish orkali kompyuter dasturlash asoslariga ukitishni tashkillash;

iktisodiyotning real sektori tarmoklaridagi korxonalarda boshkaruv, ishlab chikarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish axborot tizimlari va dasturiy maxsulotlar joriy etish;

xududlarda xokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining rakamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi buyicha ukitish uchun tegishli oliy ta’lim muassasalariga biriktirish xamda ularning xodimini axborot texnologiyalari soxasida ukitish rejalashtirilgan.

Aytish joizki, rakamli transformatsiya kuplab imkoniyatlarni ochib beradi. Birinchidan, tushum usadi. Bu biznes, maxsulot va xizmatlarning yangi yunalishlarini ishga tushirish xisobiga yuz beradi. Masalan, iktisodiyotda kriptovalyuta va blokcheyn-texnologiya, telekommunikatsiya soxasida musika va video strimingi (okimli onlayn eshittirish) uchun rakamli servislar yoki aklli uy uchun bulutli platformalar bulishi mumkin .

Ikkinchi ijobiy samara operatsion xarajatlarning pasayishi va jarayonlar samaradorligi oshishida namoyon buladi. Buxgalteriya, so lik va kadrlar xisobini yuritishni avtomatlashtirish axborotning katta xajmini tez va sifatli boshkarish imkonini beradi. Bu esa marketing tadbirlarining muvaffakiyatiga bevosita ta’sir kursatadi. Shu bilan birga, boshkaruv karorlarining sifati xam oshadi.

Rakamli transformatsiya jarayonidan sung raxbar mas’ul bulimlar tuplaydigan xisobotlarga boglik bulib kolmaydi, balki tizimni ochishi va umumiy ma’lumotlardan anik kursatkichlarga utishi, olingan natijalarni esa darxol oldingi davr natijalari bilan solishtirishi mumkin buladi. Jarayonlarni avtomatlashtirish tufayli prognoz modellari ancha anik bulib boradi.

Bundan tashkari, ma’lumotlarning tartibga solinganligi va shaffofligi tufayli korxonaning xorijiy investorlarni jalb kilish imkoniyatlari oshib, xalkaro loyixalarda ishtirok etish uchun sharoit yaratiladi.

O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi kompaniyalar iktisodiyotning anchagina ulushini egallaydi. Shuning uchun ularni rakamlashtirish mamlakat YaIM usishiga bevosita ta’sir kiladi. Boshkacha kilib aytganda, davlat sektorining rakamli transformatsiyasi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning muxim drayverlaridan biri bo‘la oladi.

Jaxonda raqamli transformatsiya xali davom etmokda. Xatto ilgor mamlakatlarda xam bu jarayon tugallanmagan va rakamlashtirish darajasi tarmokdan tarmokka kadar juda kuchli uzgarib

bormokda. Ba’zi soxalar allakachon axborot texnologiyalarining anchagina ijobiy ta’siriga uchragan (moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiyalar, reteyl (chakana savdo), media sektori), boshkalari esa bu yulning boshida turibdi va rakamli texnologiyalarni ayrim jarayonlargagina (neft-gaz va tog-kon tarmogi, kishlok xujaligi, mudofaa sanoati) joriy etmokda. Bu bilan birinchilardan bulib jadal transformatsiyalash ular uchun rakobatbardoshlilikning garovi bulgan korxonalar shugullana boshladilar.

Fikrimizcha rakamli transformatsiya turli boskichlarni uz ichiga olgan elementlar tuplamidan iborat bulishi lozim. Rakamli transformatsiya jarayonining xar bir boskichi korxona va tashkilotlarning turli jixatlarini, shu jumladan operatsiyalar, kompyuter savodxonligi asoslari, kasbiy tayyorgarlik, tajriba va texnologiya kabilarni kamrab oladi.

Ma’lumki, biz iste’molchilarning extiyoj va talablari doimiy ravishda usib boradi. Rakamli iktisodiyot axborot texnologiyalari va innovatsion biznes modellariga ega bulgan bozor ishtirokchilari (davlat, tarmok, korxona va boshkalar) faoliyatiga, iste’molchi auditoriyasi va daromadlari xajmiga bevosita ta’sir urkazadi xamda aksariyat xollarda xarajatlarining karrasiga kamayishiga olib keladi. Internetning barcha yerda tarkalishi esa rakamli servislarning paydo bulishiga imkon berdi.

Fikrimizcha, Uzbekistonda banklar, telekommunikatsiya va sugurta kompaniyalari boshkalarga karaganda ancha faolrok rakamli transformatsiyaga utmokda, chunki ularda daromadlilikning muxim kursatkichlari texnologiyalarni muvaffakiyatli joriy etishga boglik. Kuplab kompaniyalar mazkur jarayonda turli muammolarga duch kelmokda. Transformatsiya - juda murakkab jarayon bulganligi sababli, aksariyat xolatlarda kompaniyalarda ishni nimadan boshlash kerakligi xakida yetarlicha tushuncha bulmaydi yoki rakamli transformatsiya jarayonining boskichlari tegishli ketma-ketlikda amalga oshirilmaydi.

Axborot texnologiyalari kiska muddatli maxsulotlar emas. Masalan, biron bir korxona uchun 10 yilga muljallangan dasturni tuzish lozim. Bir marta joriy etilgan tizimlardan uzok vakt mobaynida foydalanish mumkin.

Shuning uchun xam transformatsiyalash rejasini puxta tuzib olish xamda jarayonni boshidayok sifatni tanlash juda muxim xisoblanadi.

Bozor iktisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bozorning kuplab yirik va urta ishtirokchilari bu boskichdan utib buldi va ular xozir yanada chukurrok rakamlashtirish jarayonida. Bu jixatdan Uzbekistondagi xujalik yurituvchi sub’ektlarga ancha oson va bir vaktning uzida kiyinrok buladi. Ya’ni bir tarafdan xujalik yurituvchi sub’ektlarga YeYaRni endigina joriy etishga tugri kelsa, boshka tarafdan ular boshkalarga nisbatan ancha ilgor namunalarni tanlash imkoniyatiga ega.

Rakamli transformatsiyani kengaytirish va chukurlashtirish 10-15 yil oldingi vaziyatga nisbatan murakkabrok. Shuning uchun korxonalar, avvalo, boshidayok fakat ma’lum vaktdan keyingina uzini oklaydigan katta xarajatlarga tayyor bulish zarur. Ayrim xujalik yurituvchi sub’ektlar darxol ijobiy samara bulishini kutadi, buning esa xar doim xam iloji yuk. Jarayonlarni boskichma-boskich yulga kuyish, xodimlarni yangicha ishlashga urgatish, mijozlarni esa maxsulotlar va xizmatlar tugrisida xabardor etish talab etiladi. Bundan tashkari, raxbariyat va xodimlarning rakamli savodxonligini oshirish ustida ishlash xam ijobiy natija beradi, albatta. Butun jaxondagi kompaniyalar yukoridagi sanab utilgan boskichlarga doimiy ravishda duch keladilar .

Makroiktisodiyotning turli sektorlari (davlat, uy xujaligi va tadbirkorlik)ga zamonaviy rakamli texnologiyalarni tatbik etish mamlakatda iktisodiy usishni ta’minlashga xizmat kiladi.

Xulosa Zamonaviy iktisodiyotda "rakamlashtirish poygasi" shiddatli tus olmokda va shunga muvofik biznes va jamiyatning rakamli uzgarishi mukarrardir. Ushbu "rakamlashtirish poygasi" jarayonini kanchalik tez boshlansa shunchalik ijobiy samaraga erishish mumkin. Shu sababli, rakamli transformatsiyani birinchi bulib boshlaydigan iktisodiy tuzilmalar (davlat, tarmok, korxona va boshkalar) yakin kelajakda rakobatbardosh ustunliklarga ega bulishadi.

Bizningcha, rakamli transformatsiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun kompleks axborot tizimlarini shakllantirish (maksad), jarayonni tarkibiy kismlarga bulish (taxlil), loyixani amalga oshirish rejasini tuzish xamda uni amaliyotga joriy etish (natija) mumkin. Bu bilan uz soxasining yetuk mutaxassisi bulgan ekspertlarning butun bir jamoasi shugullanishi maksadga muvofik. Yetuk mutaxassis - ekspertlarning yetarli emasligini xisobga olgan xolda, transformatsiyalashni autsorsingga8 berish orkali ijobiy natijaga erishish mumkin. Chunki maxalliy bozorda zaruriy bilimlarga ega bulgan oliy malakali kadrlarning yetishmasligi xam katta muammo, albatta.

Rakamli iktisodiyotni samarali rivojlantirish mamlakat tarakkiyoti darajasidan kelib chikkan xolda rakamli iktisodiyotni rivojlantirish shart-sharoitlari turli darajalarga turkumlanib, xar bir darajaga tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishning "kuyidan-yukoriga" yunaltirilgan tizimli isloxatlar orkali amalga oshirilishi ijobiy natija beradi.

Rakamli iktisodiyot juda kup afzalliklarga ega. Bu tulovlarning narxini pasaytiradi va yangi daromad manbalarini ochadi. Onlayn xizmat kursatish xarajatlari an’anaviy iktisodiyotga karaganda ancha past va xizmatlarning uzlari xam ijtimoiy xam tijorat jixatidan ancha arzonrokdir. Taklif etilayotgan maxsulot iste’molchining yangi istaklari yoki extiyojlarini kondirish uchun darxol uzgartirilishi mumkin. Rakamli iktisodiyot xar xil axborot, ta’lim, ilmiy soxadagi yangiliklarni tez, sifatli va kulay tarzda takdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga muljallangan Yangi Uzbekistonning tarakkkiyot strategiyasi tugrisida" PF-60-son Farmoni.
2. Doklad o sifrovoy ekonomike. Sozdanie stoimosti i poluchenie vыgod:posledstviya dlya razvivayuщixsya stran. https://unctad.org /en/ PublicationsLibrary/der2019_overview_ru.pdf
3. Gulyamov S.S. va boshkalar. Rakamli iktisodiyotda blokcheyn texnologiyalari// Toshkent - 2019
4. Abduraxmonov K.X. Rakamli iktisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan Uzbekistonda foydalanish istikbollari - https://bit.ly/3szIKDV
5. Ayupov R.X,., Baltaboeva G.R. Rakamli iktisodiyot: muammolar va yechimlar.// «Xalkaro moliya va xisob» ilmiy elektron jurnali. № 1, 2019
6. Umarov O. Rakamli iktisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari. «Iktisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil.

РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Нажмудинова Мадина Халимовна
докторант НИПВ им Кары-Ниязи

Аннотация*: В данной статье рассматривается процесс цифровизации, происходящее в обществе, который подразумевает быстрые изменения и новые разработки. Определены*

последствия для развития эмоционального интеллекта у детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, младший школьный возраст, цифровые технологии, цифровизация*

Annotatsiya*:Ushbu maqolada jamiyatda yuz berayotgan raqamlashtirish jarayoni tahlil qilinadi. Bu jarayon tez o‘zgarishlar va yangi ishlanmalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy intellektini rivojlantirishga ushbu jarayonning ta’siri o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, boshlang‘ich maktab yoshi, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish*

Abstract*. This article examines the process of digitalization occurring in society, which entails rapid changes and new developments. The consequences for the development of emotional intelligence in primary school-aged children have been identified.*

Keywords*: emotional intelligence, primary school age, digital technologies, digitalization*

Введение. Современный мир, в котором происходит психическое развитие и формирование личности ребенка, – это мир всеобщей цифровизации, которая представляет собой внедрение и использование цифровых технологий во всех сферах жизни человека с целью повышения ее качества.

Сегодняшние дети младшего школьного возраста родились на рубеже первого и второго десятилетия XXI века. Их развитие идет параллельно с быстрым развитием информационных технологий, всеобщей информатизацией и цифровизацией. Они с самого рождения погружены в цифровое пространство, живут и учатся в цифровой среде, легко воспринимают и используют 3D-реальность. Более того, в отличие от старшего поколения, они никогда не жили без этого и не представляют свою жизнь вне цифрового поля. Всеобщая цифровизация оказывает воздействие на психофизическую, когнитивную, эмоциональную, коммуникативную, социальную и другие сферы развития человека. В связи с этими тенденциями всё более актуальным становится всестороннее изучение влияния цифровых технологий на социальное развитие и эмоциональный интеллект детей.

Вследствие этого, в Узбекистане придается большое значение развитию социально-эмоциональных навыков у школьников. В частности, в 2022 году представительством ЮНИСЕФ в Узбекистане было проведено комплексное исследование "Психическое здоровье и психосоциальное благополучие подростков в школе". Результаты исследования помогают выявить проблемы и определить направления для дальнейшего развития программ по улучшению социально-эмоционального климата в школах и поддержки психического здоровья учащихся. Для достижения поставленной цели была принята Постановление Президента Республики Узбекистан, от 19 июня 2023 года № ПП-196 «О мерах по дальнейшему развитию службы охраны психического здоровья населения». Этот сложный и многогранный процесс будет способствовать формированию у населения необходимых навыков для успешной социализации, достижения благополучия и внесения вклада в развитие общества.

Помимо вышеуказанного, Постановление Президента Республики Узбекистан, от 21 июня 2024 года № ПП-232 «Об образовании Национального института педагогики воспитания имени Кары-Ниязи» утверждает о поэтапном внедрении с 2025-2026 учебного года в общих средних образовательных учреждениях в порядке опытного эксперимента всемирно

признанных методик социально-эмоционального воспитания (Social and Emotional Learning – SEL).

Однозначно, цифровизация предъявляет новые требования к развитию личностных качеств, изменяет когнитивные функции и создает новые потребности в развитии эмоционального интеллекта. Парадоксально, но, в то время как взрослым требуется высокий уровень эмоционального интеллекта, цифровизация часто оказывает негативное влияние на развитие этой черты личности у детей. Термин "эмоциональный интеллект" был впервые использован Дж. Мейером и П. Саловеем в 1990 году. Исследователи определили эмоциональный интеллект как "способность полностью понимать, оценивать и выражать эмоции", "способность понимать эмоции других" и "способность управлять эмоциями и чувствами, которые способствуют эмоциональному и интеллектуальному развитию личности". В периоды дошкольного и школьного возраста дети проходят активную эмоциональную подготовку, которая улучшает их самосознание, рефлексию и децентрированность. По мнению Л. С. Выготского, эмоциональное развитие детей школьного возраста - одна из главных задач профессиональной деятельности педагогов. Эмоции являются важнейшим звеном в духовной жизни человека, особенно в жизни ребенка.

В центре внимания находятся как эмоциональный, так и социальный интеллект. В школьном возрасте закладывается понимание именно этой области – области эмоциональных отношений с окружающей средой. Важно отметить, что в младшем школьном возрасте у детей уже развиты основные виды эмоций, такие как гнев, радость, страх, удивление и стыд.

В нужный момент для развития этих эмоциональных понятий важно выработать "полезные эмоциональные привычки", то есть навыки, связанные с принятием и выражением эмоциональных состояний. Как известно, этим навыкам можно научиться только в процессе межличностного общения. Дети школьного возраста находятся в периоде развития межличностных навыков через общение с близкими людьми и со сверстниками.

Это общение особенно важно в процессе становления эмоционального интеллекта. Навыки, приобретенные в этот период, оказывают решающее влияние на дальнейшую жизнь человека.

Цифровизация дает детям доступ к виртуальному миру развлечений и общения, но они могут выражать свои чувства только по отношению к игрушкам и цифровым устройствам, но не к людям. Причины растущего увлечения компьютерами в основном технологические. Легкий доступ к интернету и широкий выбор цифровых инструментов и приложений – вот некоторые из причин. Увеличение времени, проводимого в одиночестве с гаджетами и цифровыми устройствами, изолирует детей от реальных людей и живого межличностного общения, снижая эмоциональный интеллект. В онлайн-общении и компьютерных играх дети часто испытывают негативные чувства и используют специальный язык, основанный на жаргоне. Хотя это облегчает понимание, но сильно тормозит развитие языковой осведомленности и творческого самовыражения. Кроме того, самым известным недостатком этой формы общения является отсутствие невербальных методов коммуникации. Следствием этих фактов является эмоциональный дефицит, который значительно задерживает развитие эмоционального и вербального интеллекта. Многие дети младшего школьного возраста после выхода из цифрового мира не способны к конструктивному общению и полноценному самовыражению и самосознанию.

В настоящее время в современных общеобразовательных учреждениях используются различные элементы цифровой реальности, в том числе анимация, учебные онлайн-платформы и онлайн-ресурсы.

В этом контексте необходимо рассмотреть роль технологий в мотивации детей к обучению. Хотя в этой области ведется много споров, все большее число исследователей приходит к выводу, что цифровая революция действительно может мотивировать детей дошкольного и школьного возраста. Многие учителя уверенно заявляют о повышении уровня вовлеченности детей в занятия с цифровыми медиа.

Привлекательность цифровых медиа заключается в том, что они позволяют делиться своей работой с другими, используя медиаконтент, который более интересен и увлекателен для их сверстников. В этом отношении цифровизация может стать общей методологической основой для разработки новых подходов к обучению. В современном мире цифровые технологии – это не только инструмент, но и среда, открывающая новые возможности для общения, образования и удовлетворения индивидуальных потребностей.

Цифровая среда в данном случае усиливает воспитательное воздействие, позволяя донести информацию широко и интерактивно. Пользователи не просто читают о фактах – они могут видеть видео победных боев, листать фотогалереи, оперативно узнавать новости, что формирует более глубокое эмоциональное восприятие. Опыт данного проекта подтверждает выводы исследований о том, что сочетание спорта и современных цифровых технологий создает новые возможности для патриотического воспитания молодежи. Спорт, будучи мощным источником национального единения и гордости, в цифровом формате становится еще более доступным и близким молодёжи.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Горшкова М.А., Ефремов А.В. Использование цифровых платформ для воспитания патриотизма у подростков // Человеческий капитал. – 2025. – №4. – URL: https://www.researchgate.net/publication/391176125
2. Мультимедиа и цифровой контент в патриотическом воспитании молодого поколения [Электронный ресурс] // Орёл-регион (информационно-аналитическое издание). – 10.11.2022.
3. Расулова Н. Ю. Тенденции применения социальных сетей в условиях цифровизации образования //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 10. – С. 255-262.
4. Молодёжь и спорт – о развитии физической культуры и патриотическом воспитании [Электронный ресурс] // Правительственный портал Республики Узбекистан. – URL: https://gov.uz/ru/activity_page/youth_sport.
5. Спорт – патриотизм [Электронный ресурс] // Сайт Федерации фехтования Узбекистана. – URL: https://www.fencing.uz/ru/page/633

МИЛЛИЙ ТАРБИЯ КОНТЕНТЛАРИНИ ЯРАТИШ ВА ТАДБИҚ ЭТИШДА ГЕНДЕР ТАРБИЯ МАСАЛАСИ

Тожибоева Хилолахон Махмутовна
Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти директорнинг илмий ишлар ва инновациялар бўйича ўринбосари, педагогика фанлари доктори, профессор

Аннотация. *Ушбу мақолада миллий тарбия контентларини шакллантириш ва амалиётга татбиқ этишда гендер тарбия масаласига бағишланган масалалар таҳлил қилинади. Таълим тизимида қизлар ва ўғил болаларни тарбиялашдаги миллий анъаналар ва замонавий гендер тенглиги тамойиллари уйғунлашуви зарурати асосланади. Шунингдек, рақамли таълим муҳитида гендер сезгир контентларни яратиш йўналишидаги муаммолар ва ечимлар кўриб чиқилади.*

Калит сўзлар: *миллий тарбия, миллий контент, гендер тарбия, таълим контентлари, гендер мувозанат.*

Миллий тарбия – бу халқнинг маънавий, ахлоқий ва маданий меросини авлоддан авлодга етказиш воситасидир. У ижтимоий муносабатларда, оилавий ҳаётда ва шахсий ривожланишда муҳим ўрин тутади. Бугунги кунда гендер тенглиги масаласи жаҳон миқёсида долзарб бўлиб, уни миллий қадриятлар билан уйғунлаштириш орқали миллий тарбияни янада самарали қилиш мумкин. Таълим контентларида гендер мувозанати таъминланиши – на фақат педагогик, балки ижтимоий муҳим вазифадир.

Миллий контент – бу маълумот, материал ёки ахборот шаклида бўлиб, у муайян халқнинг маданияти, урф-одатлари, анъаналари, тарихи, моддий ва маънавий мероси, тил ва қадриятларини акс эттирадиган контент (яъни, мазмун). У ҳар қандай ахборот воситасида намоён бўлиши мумкин: ўқув материалларида, видеоларда, аудиоподкастларда, мультимедиа дастурларида, китоб, қўлланма, мобил илова, веб-сайтларда.

Гендер тарбия – бу қизлар ва ўғил болаларни жинсига қараб эмас, балки инсон сифатида тенг ҳуқуқли, масъулиятли, ҳурматга лойиқ шахс қилиб тарбиялаш жараёнидир. Унда ҳар икки жинснинг хусусиятлари, имкониятлари ва эҳтиёжлари ҳисобга олинади, аммо уларни чеклаш ёки аниқ бир роль билан чегаралаб қўйиш эмас, балки ҳаётда тенг имконият яратиш мақсад қилинади.

Қисқача айтганда, гендер тарбия – бу: қиз болани фақат уй ишлари боғлаб қўймаслик; ўғил болани фақат куч, раҳбарлик ва ҳеч қачон йиғламаслик каби стереотиплар билан чегараламаслик; ҳар икки жинсга бир хил даражада таълим, танлов, шахсий ривожланиш имкониятларини бериш; ўзаро ҳурмат, ҳамкорлик, тенглик ва адолат тамойилларида тарбиялаш.

Гендер тарбиянинг асосий мақсади – жамиятда аёллар ва эркаклар ўртасидаги тенг ҳуқуқ ва имкониятларни шакллантириш, шу орқали соғлом, адолатли ва барқарор ижтимоий муносабатларни яратишдир. Мисол: қиз болалар ҳам математика, техника ёки спорт билан шуғулланиши мумкин – бу уларнинг табиий ҳуқуқи. Ўғил болалар ҳам ҳис-туйғуларини эркин ифода этиши, бола парвариши ва уй ишларида иштирок этиши мумкин – бу уларни «камайтирадиган» нарса эмас.

Ўғил ва қиз болаларни самарали гендер тарбиялаш натижасида: қизлар ва ўғил болалар ўз қобилиятини эркин намоён этади; ҳурмат, бағрикенглик ва адолат туйғулари шаклланади; жамиятда салбий стереотиплар қисқаради; хотин-қизлар ва эркаклар ўртасидаги ҳақиқий тенглик ривожланади; оилаларда соғлом муҳит ва ўзаро қўллаб-қувватлаш кучаяди.

Миллий анъаналарда қиз ва ўғил болаларнинг жамиятдаги роли ва тарбияси алоҳида қаралади. Қиз болаларга ибрат, ҳурмат, меҳр, иффат, бағрикенглик каби фазилатлар уқтирилса, ўғил болаларга жасорат, масъулият, оиланинг таянчи бўлиш сингари тарбия берилади. Аммо бу ёндашувни ноўрин қўллаш натижасида баъзан стереотипларга олиб келиб, жинсий тенгликни чеклаб қўйиши мумкин.

Замонавий таълим тизимида миллий тарбия контентини шакллантиришда қуйидагиларга эътибор қаратилиши зарур:

қиз ва ўғил болалар учун тенг имкониятларни тарғиб этувчи контентлар яратиш;

аёл ва эркак қаҳрамонларни бир хил даражада ижобий образларда акс эттириш;

жинслараро ҳурмат, ҳамкорлик ва бирдамликни тарғиб этувчи видео, инфографика ва ўқув материалларини ишлаб чиқиш;

ўқитувчилар ва тарбиячилар учун гендер сезгир методик қўлланмалар тайёрлаш.

Анъанавий стереотиплар таъсири – Миллий тарбия контентида қизлар фақат уй ишлари, бола парвариши билан боғлиқ ролларда, ўғил болалар эса ишбилармон, раҳбар, тайинловчи шахс сифатида намоён этилади.

Гендер муаммоларига эътиборсизлик – Оилавий, мактаб ва оммавий ахборот воситалари орқали тарқатиладиган баъзи контентларда гендер масаласи инобатга олинмайди.

Мутахассислар етишмаслиги – Миллий тарбия ва гендер тенглигига оид контент ишлаб чиқувчи профессионал мутахассислар етарли эмас.

Ечимлар ва таклифлар:

гендер маданият акс этган контентлар яратиш: қизлар ва ўғил болаларнинг тенг имкониятларини акс эттирувчи таълим ресурсларини ишлаб чиқиш;

миллий қадриятлар ва гендер тенглигини уйғунлаштириш: анъанавий тарбия моделида ҳурмат, масъулият, меҳнатсеварлик каби умуминсоний фазилатларни ҳар икки жинс учун тенг акс эттириш;

ўқитувчилар учун малака ошириш дастурлари: гендер масалалари бўйича ихтисослашган курслар ва семинарлар ташкил этиш;

илмий-тадқиқот ишларини кучайтириш: миллий тарбия ва гендер тарбия мавзусида тадқиқотлар ўтказиш ва уларни таълим амалиётига жорий этиш;

таълим дастурларига киритиш: мактаб ва олий таълим дарсликларига гендер тенглиги ва муносабат маданияти мавзусини киритиш.

Хулоса. Миллий тарбия контентларини яратишда гендер масаласини чуқур инобатга олиш – фарзандларимизни ҳар томонлама ривожланган, тенг ҳуқуқли ва масъулиятли шахслар қилиб тарбиялашга хизмат қилади. Миллий ва замонавий қадриятларни уйғунлаштирган ҳолда, контентлар орқали қизлар ва ўғил болаларнинг ҳаётдаги фаоллигини тенг равишда рағбатлантириш керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Абдуллаев А. «Миллий тарбия назарияси ва методикаси», Тошкент, 2020.
2. Ҳамроева З.М. «Гендер психологияси», Тошкент, 2019.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлаш стратегияси» қарори, 2021 йил.
4. Жураев Н. «Таълимда ахлоқий тарбия ва унинг гендер масалалари», Педагогика илмий журнали, №2, 2023.
5. UNESCO. “Gender Equality in Education”, 2020.
6. Ҳасанова Ш., Норқулова М. «Замонавий педагогик технологиялар ва гендер масалалари», Тошкент, 2022.

TA’LIM MUASSASALARDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINING AHAMIYATI

Muxayyo Umaralieva
Qori Niyoziy nomildagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim mudiri(PhD) k.i. x

Annotatsiya: *Maqolada ta’lim muassasalarda elektron ta’lim resurslardan foydalanishning ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek undan foydalanish texnologiyalari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Elektron ta’lim resurslari, axborot asri, elektron darsliklar, texnik vositalar, ta’lim oluvchi, masofaviy ta’lim.*

Xozirgi kunda XXI asr tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, yuksak texnologiyalar zamoni, globallashuv davri deb ta’rif etilmoqda. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagi rivoji axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi. Jamiyatni axborotlashtirish – global ijtimoiy jarayon va umumjamiyat ishlab chiqarish sohasida yetakchi faoliyat turi bo‘lib, zamonaviy mikroprotsessor va kompyuter texnikalari hamda axborot almashinuvida foydalaniladigan boshqa turli xil texnik vositalar yordamida axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va foydalanish jarayonlari majmuidir. Jamiyatni axbrotlashtirish jarayonining yetakchi yo‘nalishlaridan biri ta’limni axborotlashtirish hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirish – ta’lim sohasini uslubiy-amaliy jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari bilan ta’minlash hamda ulardan samarali foydalanish asosida ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik, pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan jarayondir.

Ta’limni axborotlashtirish ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatini intellektuallashtirish jarayoni sifatida faqatgina zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. “Axborotlashgan iqtisodiyot”, “Elektron hukumat”, “Elektron boshqaruv”, “Masofaviy ta’lim”, “Ochiq ta’lim”, “Elektron ta’lim” kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi. Ma’lumki, nafaqat “Elektron ta’lim”, “Ochiq ta’lim”, “Masofaviy ta’lim”da, balki an’anaviy ta’limni zamon talablari asosida tashkil etishda ham elektron ta’lim resurslari muhim rol o‘ynaydi. “Resurs” iborasi hozirgi vaqtda juda keng ma’noda ishlatiladi. “Ta’lim resursi” deganda esa o‘quv jarayoni davomida bilim olishda foydalaniladigan turli xil ko‘rinish va shakllardagi o‘quv materiallari manbasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ta’lim resursi – o‘quv jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’lim resurslarini quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Matn, rasm, sxema va jadvallarni o‘z ichiga olgan an’anaviy nashr materiallari (darslik, o‘quv qo‘llanma, ma’ruzalar matni va kursi, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha qo‘llanmalar, masalalar to‘plami, lug‘atlar, kataloglar, ma’lumotnomalar, tarqatma materiallar, o‘quv-ko‘rgazmali materiallar, turli xil uslubiy qo‘llanma va ko‘rsatmalar, savol va topshiriqlar va b).

2. An’anaviy audio va video-materiallar: musiqiy va nutqiy materiallar (ma’ruzalar yozilgan disklar, audiokitoblar, o‘quv videofilmlari va boshqa), namoyish roliklari, taqdimot lavhalari, kinematografik maxsulotlar.

3. Zamonaviy (raqamli) elektron resurslar: turli xil axborot tashuvchi vositalar (disk, fleshka va b.)ga yozilgan fayllar, zamonaviy elektron vositalari yoki kompyuterlar yordamida eshitish va ko‘rish imkoniyati yaratilgan raqamli elektron materiallar.

4. O‘qish, mustaqil ta’lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar: o‘quv mazmuni yoritilgan va o‘quvchi bilan o‘zaro muloqotga yo‘naltirilgan hamda ma’lum pedagogik vazifalarni yechish uchun mo‘ljallangan dasturlar, dasturlar majmui yoki tizimlari.

Zamonaviy elektron resurslar va o‘qish, mustaqil ta’lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda “Elektron ta’lim resurslari” deb ataladi. Elektron ta’lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya’ni o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o‘quv materiallarini uzatish (yetkazish) tizimi tushuniladi. Elektron ta’lim resurslarini saqlash va ma’lumotlarni taqdim etish shakliga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

● alohida fayllar – an’anaviy resurslarning faylli ekvivalentlari (jadvallar va grafik illyustratsiyalardan iborat matnli hujjatlar, illyustratsiyalarning grafik fayllari, audio-video formatli fayllar va boshqa);

● gipermatnli materallar – matn, grafiklar;

● multimedia elementlari kabi elektron o‘quv adabiyotlarining elementlaridan tashkil topgan elektron o‘quv adabiyotlari va muayyan an’anaviy resurslarning elektron ekvivalenti. Elektron ta’lim resurslarini shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

● elektron o‘quv-tarbiyaviy resurslar;

● o‘quv materiallarini uzatish elektron resurslari;

● o‘qishni tashkil etish elektron resurslari;

● ta’lim-tarbiyani boshqarishni tashkil etish elektron resurslari.

Elektron o‘quv-tarbiyaviy resurslar o‘z navbatida quyidagilardan tashkil topadi:

● elektron o‘quv adabiyotlari (elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalar, nashrlar, ma’lumotlar banki, elektron ma’ruza matnlar, o‘quv-uslubiy majmualar) mashg‘ulotlar, mashqlar va boshqalar;

● uslubiy materiallar: dars rejasi, uslubiy tavsiyalar, tadbirlar ssenariysi (intellektual o‘yinlar, teleko‘rsatuvlar, adabiy kechalar va boshqalar), didaktik materiallar, ko‘rgazmali namoyish materiallari (dars bo‘yicha prezentatsiyalar, diagrammalar, jadvallar, rasmlar, videorasm materiallari);

● lug‘atlar: onlayn-ensiklopediya, lug‘at, to‘liq matnli kutubxona, ma’lumotnomalar;

● mediaresurslar: virtual laboratoriyalar, virtual sayohatlar, virtual muzeylar, ko‘rgazmali qo‘llanmalarning raqamli kutubxonasi va boshqalar.

O‘quv materiallarini uzatish elektron resurslari: elektron pochta, chat, chat-forum, ovozli chat, audio-video chat (videochat), ISQ, IP-telefoniya (internet-telefoniya), forum, bloglar, videoblog, jonli jurnallar, vikipediya, multimedia, interaktiv mediatexnologiya, onlayn videokonferensiya va boshqa.

O‘qishni tashkil etish elektron resurslari: masofaviy o‘qitish, elektron ta’lim, ochiq ta’lim. Ta’lim-tarbiyani boshqarishni tashkil etish elektron resurslari: internet, internet (Intranet) korporativ tarmog‘i va turli xil dasturlar (“Rektor” dasturi, dars jadvali dasturi, ta’lim dispetcheri dasturi, elektron dekanat dasturi va boshqa). Albatta, ta’lim sifatini ta’minlashda elektron ta’lim resurslari tarkibida elektron o‘quv resurslari muhim o‘rin egallaydi. Elektron o‘quv resurslari nafaqat masofaviy ta’lim, elektron ta’lim yoki ochiq ta’limda, balki an’anaviy ta’limda ham keng qo‘llaniladi. Elektron o‘quv resursining namunaviy tarkibi quyidagilardan iborat bo‘lishi muallif tomonidan tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi talablar asosida tayyorlangan elektron-o‘quv resurslarini foydalanishga tayyorlash uning tarkibiy qismlariga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritishni ko‘zda tutishi mumkin. Talablar darajasida tayyorlangan elektron-o‘quv resursiga undan foydalanish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ilova qilinishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Albert D.A., Ditzer D.L. Advances in computer based yeduca_tion // Science. 2010 v. 167. N3925.
2. Aure P. Computer Software for Schools. London. - 2005. 314 p.
3. Bork A. Learning with Computers. London. 2012 205 p.
4. Chambers J.A. Sprecher J.W. Computer - Assisted Instruction: Its use in the classroom //Yedglewood cliffs, N.J.-2003 265 p.

СОЗДАНИЕ И ВНЕДРЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО КОНТЕНТА В ЦИФРОВУЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ СРЕДУ: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ

Габдульманова Ильнура Минисламовна

докторант 1-курса Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниёзий

Аннотация. *В статье рассматриваются ключевые аспекты создания и внедрения образовательного музыкального контента в цифровую образовательную среду. Анализируются проблемы адаптации музыкального образования к современным цифровым форматам, включая трудности трансляции художественного содержания, взаимодействия с обучающимися и обеспечения качества звука. Рассматриваются эффективные педагогические и технические решения, способствующие интеграции музыки в дистанционные и гибридные образовательные модели. Особое внимание уделено роли цифровых платформ, интерактивных инструментов и авторских разработок в процессе музыкального обучения.*

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta'lim muhitida ta'lim musiqasi mazmunini yaratish va amalga oshirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Unda musiqa ta’limini zamonaviy raqamli formatlarga moslashtirish muammolari, jumladan, badiiy kontentni efirga uzatish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish, ovoz sifatini ta’minlashdagi qiyinchiliklar tahlil etilgan. Musiqani masofaviy va gibrid ta'lim modellariga integratsiyalashuviga yordam beradigan samarali pedagogik va texnik echimlar ko'rib chiqiladi. Musiqa ta’limi jarayonida raqamli platformalar, interfaol vositalar va mualliflik ishlanmalarining o‘rniga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, музыкальное образование, образовательный контент, дистанционное обучение, цифровые технологии.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, musiqa ta'limi, ta'lim mazmuni, masofaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar.*

Цифровая трансформация образования требует качественного пересмотра подходов к обучению музыке. В условиях стремительного развития технологий формируется новая образовательная среда, где традиционные методы становятся недостаточными. Музыкальное образование, как область, связанная с восприятием аудиовизуального контента, особенно остро реагирует на такие изменения. Необходимость создания эффективного цифрового музыкального контента становится важной задачей для педагогов, разработчиков и образовательных учреждений.

Основные проблемы

1. Проблема адекватной передачи аудиоматериала. Качество звука в цифровой среде нередко страдает из-за сжатия аудиофайлов, нестабильного интернета, или ограничений платформ.

2. Недостаток педагогических сценариев. Большинство цифровых решений ориентированы на общие предметы и не учитывают специфику музыкального обучения — импровизацию, ансамблевую игру, сольфеджио.

3. Ограниченность интерактивности. Взаимодействие обучающегося с контентом часто сведено к просмотру видеоуроков и прослушиванию, что снижает мотивацию и усвоение материала.

4. Низкий уровень цифровой грамотности преподавателей. Многие преподаватели музыки не имеют достаточной подготовки для работы с цифровыми платформами и инструментами.

Возможные решения

1. Использование специализированных музыкальных платформ:

Применение ресурсов позволяет не только воспроизводить, но и создавать музыку в онлайне с возможностью совместной работы.

2. Разработка авторского цифрового контента:

Создание собственных интерактивных видеоуроков, подкастов, квестов, использующих игровые музыкальные элементы.

3. Повышение квалификации педагогов:

Организация курсов по цифровой педагогике, в том числе с уклоном в музыкальное образование (работа с аудиоредакторами, цифровыми нотными редакторами).

4. Интеграция с образовательными системами:

Интеграция музыкального контента в различные образовательные системы с возможностью тестирования, анализа результатов и обратной связи.

Практические рекомендации

Создавайте мультимодальные образовательные продукты (видео, текст, аудио, интерактив);

Проводите предварительное тестирование цифровых инструментов с участием учащихся;

Включайте учащихся в процесс создания контента (например, запись собственных музыкальных фрагментов).

Используйте гибридный формат: сочетайте онлайн- и офлайн-элементы.

Оценивайте не только результат, но и процесс взаимодействия обучающегося с материалом.

Заключение

Создание и внедрение музыкального образовательного контента в цифровую образовательную среду — это многогранный процесс, требующий методологической, технической и организационной проработки. Несмотря на ряд сложностей, современные цифровые технологии открывают широкие возможности для инновационных форм музыкального обучения. Успешная реализация зависит от готовности педагогов к изменениям, доступности технических ресурсов и активности образовательного сообщества в создании качественного контента.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бойко, Н. В. Цифровизация музыкального образования: вызовы и перспективы // Музыкальное искусство и образование. – 2022. – №2. – С. 45–51.
2. Ковальчук, С. Ю. Инновационные формы музыкального обучения в дистанционном формате // Педагогика искусства. – 2021. – №4. – С. 23–30.
3. Ямпольский, А. И. Проблемы преподавания музыки в условиях цифровой среды // Вестник музыкальной академии. – 2020. – №1. – С. 15–19.

OILA VA OILAVIY MUNOSABATLARGA RAQAMLI KONTENTLARNING TA’SIRI

Xoldarov Muhiddin
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv davrida raqamli kontentlarning ta’siri ortib borayotgani, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va elektron media vositalari orqali ijtimoiy ongga ta’siri yoritiladi. Muallif zamonaviy O‘zbekiston sharoitida raqamli kontentlar orqali oilani mustahkamlash bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli kontent, oila instituti, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, qadriyatlar, tarbiya, raqamli madaniyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль цифровых технологий и информационно-коммуникационных средств в формировании и укреплении семейных ценностей. Освещается возрастающее влияние цифрового контента в эпоху глобализации, особенно его воздействие на общественное сознание через социальные сети и электронные медиа. Автор выдвигает предложения и рекомендации по укреплению семьи в условиях современного Узбекистана с помощью цифровых платформ.*

Ключевые слова: *цифровой контент, институт семьи, информационные технологии, социальные сети, ценности, воспитание, цифровая культура.*

Abstract: *This article analyzes the role of digital technologies and information and communication tools in shaping and strengthening family values. It highlights the growing impact of digital content in the era of globalization, especially its influence on social consciousness through social networks and electronic media. The author presents proposals and recommendations for strengthening the family in the context of modern Uzbekistan through the use of digital content.*

Keywords: *digital content, family institution, information technology, social networks, values, education, digital culture.*

Kirish. Oila har qanday jamiyatning asosiy tayanchi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikning bosh manbai hisoblanadi. Shaxs kamoloti, avlodlar davomi va milliy identitetning saqlanishi aynan oilaviy muhitda shakllanadi. Shu bois, oila institutining barqarorligi har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga egadir.

Hozirgi axboratlashgan davrda globallashuv, axborot texnologiyalari rivoji va raqamli madaniyatning keng tarqalishi insonlarning kundalik hayot tarzini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu jarayon oilaviy munosabatlarga ham chuqur ta’sir o‘tkazmoqda. Raqamli kontent – ijtimoiy tarmoqlar, videobloglar, podkastlar, ta’limiy va psixologik dastur va ilovalar, onlayn platformalar va virtual kommunikatsiya vositalari orqali oilaviy qadriyatlar shakllanishi, tarbiya, muloqot va psixologik muhit tubdan o‘zgarib bormoqda.

Zamonaviy oilalarda raqamli kontentdan foydalanish nafaqat ma’lumot olish, balki bolalar tarbiyasi, psixologik-pedagogik maslahatlar, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish kabi ko‘plab ijtimoiy jarayonlarga ta’sir qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu kontentlar ayrim hollarda noto‘g‘ri axborotlar, individualizm, oilaviy qadriyatlarga zid g‘oyalar, yolg‘on namoyishlar (masalan, “ideallashgan” turmush tarzini ko‘rsatuvchi kontentlar) orqali salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli kontentlarning oilaviy munosabatlar strukturasi va funksiyasiga bo‘lgan ta’sirini har tomonlama ilmiy tahlil qilish, ijobiy va salbiy omillarni ajratib ko‘rsatish, shuningdek, raqamli kontentdan oqilona va madaniyatli foydalanish bo‘yicha aniq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ortmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti va aholi, xususan yoshlar o‘rtasida internet resurslaridan foydalanish darajasi yuqori bo‘lgan hozirgi davrda mazkur masalaning ilmiy tahlili dolzarbdir.

Shu bois, ushbu maqolada oila va oilaviy munosabatlarga raqamli kontentlarning ta’siri falsafiy, ijtimoiy-psixologik va axloqiy jihatdan tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Raqamli kontent tushunchasi va uning oilaviy qadriyatlar bilan bog‘liqligi haqida to’xtaladigan bo’lsak**.** Raqamli kontent — bu elektron shaklda taqdim etilgan va raqamli qurilmalar orqali iste’mol qilinadigan ma’lumotlar, audiovizual materiallar va interaktiv resurslardir. O‘zbekistonda bunday kontentlar odatda mobil ilovalar (masalan, “Oila maktabi”), ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Facebook, Instagram), YouTube kanallari, ta’limiy podkastlar yoki onlayn kurslar ko‘rinishida faoliyat yuritadi.

Uchquduq tuman hokimligining 2024-yil 24-martda rasmiy veb saytida e’lon qilingan maqolada “*XXI asrda ma’naviy, mafkuraviy va axborot omillarining ta’sir kuchi moddiy va moliyaviy resurslarga nisbatan ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. Ushbu jarayonda shu paytgacha asosiy rolni OAV bajargan bo‘lsa, bugun bu vazifani ijtimoiy tarmoqlar to‘laqonli ravishda bajarib kelmoqda. Ammo bir qancha ijobiy tomonlari bilan birga ijtimoiy tarmoqlarning xavfli tomonlari ham kun sayin ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan keng jamoatchilikning qiziqishiga sabab bo‘layotgan, ba’zi o‘rinlarda tashvishga solayotgan, inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga o‘zini yetarlicha ta’sirini ko‘rsatayotgan ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, ayni paytda dunyo miqyosida ommalashuvi va albatta uning salbiy jihatlari alohida tadqiq qilishni talab etadigan masaladir.*[15]” deyiladi.

2025-yil 12-mayda jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilingan “**Onlayn platforma va veb-saytlar foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida**”gi qonun loyihasida “kontent – belgilar va (yoki) signallar va (yoki) ovozli ma’lumotlar va (yoki) yozma matn va (yoki) tasvirlar va (yoki) tovushlar va (yoki) audio-vizual xabarlarni qabul qilish va (yoki) uzatish orqali onlayn-platforma mulkdori yoki foydalanuvchisi yoxud veb-sayt egasi tomonidan olingan va (yoki) ishlab chiqarilgan va (yoki) joylashtirilgan va (yoki) tarqatilgan va (yoki) saqlangan ma’lumotlar” deya huquqiy ta’rif beriladi.[16]

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq aholining barcha qatlamlarida raqamli ko‘nikmalarni oshirish bo’yicha aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan

[15] https://www.uchquduq.uz/matbuot-xizmati/yangiliklar/item/3715-ijtimoiy-tarmoqlar-ijobiy-tomonlari-bilan-birga-xavfli-tomonlari-ham-ortib-bormoqda?utm_source=chatgpt.com
[16] https://regulation.adliya.uz/project/6294/12680?contentLang=oz

foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, keksa va o‘rta yoshdagi aholiga Internet jahon axborot tarmog‘ida ishlash va boshqa axboat texologiyalaridan foydalanish bo’yicha kurslar tashkil etish va shuningdek raqamli kontent ro‘yxatini shakllantirish kabi ko’plab chora tadbirlar belgilab berildi.[17]

Oilaviy qadriyatlar — bu oila a’zolari o‘rtasidagi mehr-oqibat, hurmat, onalik-otalik mas’uliyati, halollik va boshqa ijtimoiy normalarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy me’yorlardir. Raqamli kontentlarning mazmuni hamda pedagogik-axloqiy yo‘nalishi bevosita oilaviy qadriyatlarga ta’sir etadi. Masalan, ta’limiy videolar orqali tarbiya jarayonida ota-onalarga pedagogik tavsiyalar beriladi, bolalarga axloqiy masalalar tushuntiriladi. Shu bilan birga, ayrim kontentlar oilaviy madaniyatga yot g‘oyalarni, individualizmni targ‘ib qilishi mumkin, bu esa ijtimoiy muvozanatga salbiy ta’sir etadi.

O‘zbekiston aholisi orasida internetdan foydalanish darajasi yildan-yilga ortib bormoqda. 2025-yilning yanvar oyidagi ma’lumotlarga ko‘ra, o‘zbekistonliklar internetda o‘rtacha 7 soat 30 daqiqa vaqt o‘tkazmoqda. Ulardan 3 soat 5 daqiqa ijtimoiy tarmoqlarga, 2 soatdan ortig‘i esa videokontentlar (YouTube, TikTok va hokazo)ga sarflanmoqda. Bu raqamlar raqamli kontentning oilaviy hayotga ta’siri qanchalik kuchli ekanini ko‘rsatadi[18].

Bu ko‘rsatkichlar internet foydalanuvchilari sonining ko‘payib borayotgani va ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar orqali axborot iste’molining oila ichidagi muloqot, tarbiya va qadriyatlar shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlikni mustahkamlash yoki zaiflashtirishda ijtimoiy media va raqamli axborot oqimi muhim rol o‘ynamoqda.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xo‘jayev O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 32 million kishidan oshgan ma’lum qilgan edi. Unga ko‘ra, bugun mamlakatdagi barcha ijtimoiy tarmoqlarning 66 million auditoriyasi bor. Xususan, Telegram’dan 28 million kishi foydalanadi. Hozirda O‘zbekistondagi ommaviy axborot vositalari soni 2340 taga yetgan. Shundan internet saytlari 738 tani tashkil etmoqda. OAVning 65 foizi nodavlat hisoblanadi.[19]

Raqamli kontent manbalari bugungi kunda Internet jahon axborot tarmog‘i **va** Ijtimoiy tarmoqlar asosan O’zbekistonda Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar — bugungi kunda eng ommabop raqamli kontent manbalari hisoblanadi. O‘zbekistonda yoshlar va ota-onalar bu resurslar orqali kundalik axborot olmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning oila va oilaviy munosabatlarga ta’sirining ijobiy va salbi jihatlarini quyidagicha ajratishimiz mumkin**.**

Ijobiy jihatlar

Oilaviy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi kontent: pedagoglar, psixologlar va huquqshunoslar tomonidan tayyorlangan videolar, maqolalar, training va webinarlar oila ichidagi muloqotni kuchaytiradi.

Ta’limiy va motivatsion materiallar: masalan, “oilaviy hayotga tayyorgarlik” mavzusidagi online treninglar oilalarni oilaviy ta’lim asoslari masalasida qo‘llab-quvvatlaydi.

Salbiy jihatlar

G‘arbiy individualizmni targ‘ib qilish: ijtimoiy tarmoqlarda bahosi yuqori bo‘lgan “mustaqil hayot” mavzulari oilaviy bir-birjanlikni pasaytirishi mumkin. Bu milliy urf-odatlarga zid g‘oyalarni kengaytiradi, yoshlar orasida “shaxsiy erkinlik” tushunchasining ortib borishiga olib keladi

[17] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son; 02.04.2021-y., 06/21/6198/0269-son; https://lex.uz/docs/-5030957#-5031756

[18] “Odamlarning qancha vaqti internetda o‘tmoqda?”. – Daryo.uz, 2025-yil 17-fevral. – URL: https://daryo.uz/2025/02/17/odamlarning-qancha-vaqti-internetda-otmoqda (murojaat qilingan sana: 2025-06-09).

[19] https://daryo.uz/h9rAJKOD

Real muloqotni cheklash: ota-ona va bola o‘rtasidagi yuzma-yuz suhbatlar o‘rnini “online” muloqot bosib olmoqda. Bu esa oilaviy muhitlardagi hissiy bog‘lanishni sustlashtirishga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalariga amal qilish lozim deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan kontentlarni **kurtikpsiyalar** (filterlash) asosida baholang.

Oilaviy tartibda har kuni kamida 30 daqiqa **shaxsiy uyqu va ota-ona bilan muloqot**ga vaqt ajrating.

Mahalliy tarmoq va ilovalardan — **“Oila maktabi”** yoki **“Psixologik maslahatlar** kanalini — tanlang, ular ijobiy va ahloqan boy kontent taqdim etadi.

O‘zbekistonda “Oila va gender” ilmiy-tadiqoqt instituti tomonidan bir qator zamonaviy ta’limiy raqamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Oila maktabi” mobil ilovasi va Telegram kanali shuningdek oilaqadriyati.uz platformasi ota-onalar uchun ruhiy-psixologik yordam, tarbiyaviy kontent va huquqiy maslahatlar taqdim etadi. Ushbu resurslar orqali ota-onalar bolalar tarbiyasi, psixologik barqarorlik va oilaviy munosabatlar bo‘yicha to‘g‘ri yo‘nalishdagi ma’lumot oladi

Raqamli kontentlar tomonidan amalga oshirilayotgan asosiy yo‘nalishlar quyidagicha:

1. **Bolalarning axloqiy-tarbiyaviy tarbiyasiga bag‘ishlangan animatsion filmlar** – qisqa hikoyalar va multfilmlar orqali mehr-odob va vatanparvarlik kabi qadriyatlar bolalarga tushunarli tarzda etkaziladi.
2. **Oila qonunchiligini tushuntiruvchi huquqiy podkastlar** – ota-onalar va yoshlar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, nikoh, bolalar huquqlari masalalariga oid real misollar bilan ma’lumot beriladi.
3. **Nikoh oldi maslahatlar va oila psixologiyasi bo‘yicha YouTube ko‘rsatuvlari** – professional mutaxassislar (psixolog, ruhshunos, sotsiolog) orqali turmush qurganlar va rejalashtirayotganlar uchun boshlang‘ich bilimlar taqdim etiladi.

Bu faoliyatlar elektron ta’lim, telefon ilovalari va onlayn platformalarni birlashtirib, oilaga doir kontentni butunlay yangi formatda yetkazishga xizmat qilmoqda. Mazkur ishlarning ahamiyati yurtimizda oilalarni mustahkamlash borasida olib borilayotgan kompleks islohotlar doirasida alohida ko‘rsatib o‘tilgan

Oila institutini mustahkamlashda raqamli madaniyatning ahamiyati haqida fikr yuritadigan bo‘lsak. Raqamli madaniyat — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini madaniyatli, mas’uliyatli va maqsadli tarzda qo‘llash qobiliyatidir. Raqamli kontentlarning oila hayotiga ta’sirining ijobiy samara berishi uchun bu kontent professional tarzda ishlab chiqilishi va iste'molchilarning axloqiy ongini yuksaltirishga hizmat qilishi muhimdir.

Bugungi farzandlar ota-onalarining raqamli platformalarda bergan maslahati, yutuqlari va o‘rnaklarini bevosita shaxsiy xatti-harakat shakllarida ko‘chiradi. Shu bois, ota-onalar o‘zlarini raqamli maydondagi xatti-harakatlaridan oilaviy ahloqiy me’yorlarga rioya qilayotgandek tutishlari zarur.

Shuningdek, raqamli platformalarda ijobiy axloqiy kontentni ko‘paytirish, oilaviy treninglar va interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etish orqali oilaviy muhitni mustahkamlash va psixologik bog‘liqlikni kuchaytirish mumkin. Buning natijasida farzandlar va ota-onalar o‘rtasida ishonchli va boy muloqot shakllanadi.

Xulosa. Bugungi raqamli dunyo sharoitida oilani mustahkamlashda raqamli kontentlardan oqilona foydalanish eng dolzarb vazifalardan biri. Quyidagi takliflar bilan materiya boyitildi:

1. Oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentlar sonini ko‘paytirish – animatsiya, podcastlar, interaktiv o‘quv videolar.
2. Maktab va kollej o‘quvchilari uchun “raqamli madaniyat” asoslari darsliklarini joriy etish – axloqiy digital savodxonlik bo‘yicha modullar ishlab chiqish.
3. Blogerlar va media shaxslar ishtirokida ijtimoiy loyihalar tashkil qilish – milliy qadriyatlar va oilaviy qadriyatlar aks etuvchi kontentlar yaratish.
4. Raqamli axborot xavfsizligi bo‘yicha ota-onalar uchun o‘quv kurslarini yo‘lga qo‘yish – pseudo-ma’lumotlarga qarshi kurash, screensokratik qoidalarga rioya.

Ushbu choralar oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlash, ona-vatanparvarlik, mehr-oqibat va madaniy merosni saqlashda raqamli maydonni ahamiyatli vosita sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Назаров Қ. Оила ва ахборотлашган жамият: имконият ва хавф-хатарлар // Фалсафа ва ҳаёт. – 2024. – №1. – Б. 45–52.
2. Uchquduq matbuot xizmati. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlar degradatsiyasi // Uchquduq.uz. – 2024. – Mar 15. https://www.uchquduq.uz/matbuot-xizmati/yangiliklar/item/3715-ijtimoiy-tarmoqlar-ijobiy-tomonlari-bilan-birga-xavfli-tomonlari-ham-ortib-bormoqda?utm_source=chatgpt.com
3. https://regulation.adliya.uz/project/6294/12680?contentLang=oz
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son; 02.04.2021-y., 06/21/6198/0269-son; https://lex.uz/docs/-5030957#-5031756
5. “Odamlarning qancha vaqti internetda o‘tmoqda?”. – Daryo.uz, 2025-yil 17-fevral. – URL: https://daryo.uz/2025/02/17/odamlarning-qancha-vaqti-internetda-otmoqda (murojaat qilingan sana: 2025-06-09).

YOSHLAR TARBIYASI VA TA’LIMIGA BAG‘ISHLANGAN PODKAST HAMDA VIDEOKONTENT YARATISH, ULARNI OMMALASHTIRISH VA TA’SIRCHANLIK DARAJASINI OSHIRISH YO‘LLARI

Alibayev Doniyorjon Shuxratjonovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining tayanch doktoranti
Alibayeva Dinara Azamat qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda yoshlar tarbiyasi va ta’limi sohasida milliy podkast hamda videokontent yaratish, ularni ommalashtirish va ta’sirchanligini oshirishning samarali yo‘llari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar tarbiyasi, ta’lim, milliy qadriyatlar, podkast, videokontent, ommalashtirish, ta’sirchanlik, interaktiv media, ijtimoiy tarmoqlar, motivatsion hikoyalar, zamonaviy texnologiyalar.*

Yoshlar tarbiyasi va ta’limi bugungi kunda nafaqat pedagoglar, balki butun jamiyat zimmasidagi dolzarb vazifalardan biridir. Rivojlanayotgan texnologiyalar, internet va ommaviy axborot vositalarining ta’siri ortib borayotgan bir paytda, yoshlarning ongiga, dunyoqarashiga va qadriyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan vositalar yaratish alohida e’tibor talab qiladi. Shu nuqtai

nazardan qaralganda, milliy podkastlar va videokontentlar yoshlar tarbiyasi hamda ta’limida kuchli platforma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy meros va zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan podkastlar va videodarslar yosh avlodga milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni singdirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bunday kontentlar nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, fikrlash madaniyatiga va ijtimoiy faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq, bunday kontentlarni yaratish va ommalashtirishda muayyan muammolar ham mavjud. Avvalo, podkast va videolarning mavzusi, shakli va tili yoshlar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lishi lozim. Ular zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan, kreativ yondashuvlarga ega bo‘lishi, yoshlarning e’tiborini torta oladigan darajada professional tarzda tayyorlanishi kerak. Buning uchun esa tajribali pedagoglar, psixologlar, kontent yaratuvchilar, jurnalistlar va yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar birgalikda ishlashi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, podkastlar va videolarni ommalashtirishda ijtimoiy tarmoqlarning, ayniqsa TikTok, YouTube, Telegram va Instagram kabi platformalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Yoshlar orasida mashhur bo‘lgan bloggerlar, san’atkorlar, sportchilar va ijtimoiy faol shaxslarni kontentga jalb etish orqali ta’sirchanlik darajasini oshirish mumkin. Shu bilan birga, tanlovlar, viktorinalar, jonli efirlar va interaktiv muhokamalar orqali auditoriya bilan faol muloqotga kirishish kontentni yanada jonli va hayotiy qiladi.

Bundan tashqari, podkast va videokontentlar nafaqat shahar yoshlari, balki chekka hududlarda yashovchi o‘smirlar uchun ham ochiq va qulay bo‘lishi kerak. Bu maqsadda ularni mobil ilovalar, radio, televizion kanallar yoki maktablar va kutubxonalar orqali ham tarqatish mumkin. Mahalliy tillarda subtitrlar, oddiy va tushunarli nutq uslubidan foydalanish orqali kontentga bo‘lgan talabni yanada kengaytirish mumkin.

Shuningdek, milliy podkast va videokontentlar mazmunini boyitish uchun interaktiv, hikoya asosidagi yondashuvlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Masalan, hayotiy voqealar asosida yaratilgan qisqa hikoyalar, tarixiy shaxslar hayoti va mehnati, oddiy yoshlarning o‘z orzulari sari intilishi haqidagi motivatsion hikoyalar orqali yoshlar bilan hissiy bog‘lanish hosil qilish mumkin. Ayniqsa, tengdoshlari yoki biroz katta bo‘lgan yoshlarning o‘z tilida, o‘z tajribasi asosida so‘zlagan hikoyalari yoshlar ongida kuchli ijobiy taassurot qoldiradi. Bu esa kontentni chinakam ta’sirchan vositaga aylantiradi.

Yana bir muhim jihat — kontent monitoringi va tahlilidir. Yaratuvchilar o‘z podkast va videodasturlarining auditoriya orasida qanday qabul qilinayotganini muntazam o‘rganib borishlari, foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilishlari zarur. Buning uchun maxsus so‘rovnomalar, “feedback” tizimlari, sharhlar asosida tahlillar olib borish, ijtimoiy tarmoqlarda trendlarni kuzatish orqali kontent sifatini oshirishga xizmat qiladigan takliflar ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, yoshlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatlar tashkil qilish, ularning qiziqishlarini o‘rganish, o‘zlarini kontent ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish ham samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Podkast va videokontentlarni samarali taqsimlash masalasida esa tarmoq ko‘rinishidagi hamkorlik modelini yo‘lga qo‘yish foydali bo‘ladi. Ya’ni, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, nodavlat tashkilotlar, mahalla va yoshlar markazlari bilan hamkorlikda kontentlarni tarqatish, ularni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish orqali ulardan ko‘proq yoshlar foydalanishini ta’minlash mumkin. Shu bilan birga, turli mavzular bo‘yicha tematik podkastlar seriyasini yaratish — masalan, “Vatanparvarlik saboqlari”, “Kasb tanlashga yo‘l”,

“Axloqiy qadriyatlar va zamonaviy yoshlar”, “Oila va jamiyatdagi yoshlar roli” kabi mavzularda — maqsadli kontent orqali turli yosh toifalariga murojaat qilish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuvlar qatorida sun’iy intellekt, ovozli yordamchilar va AR/VR texnologiyalar asosida tayyorlangan kontentlar orqali ham yangi avlod bilan muloqot qilish samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, yoshlar mobil ilovalar orqali interaktiv savol-javoblar, virtual sayohatlar, o‘zlari tanlagan qahramonlar orqali axborot olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasi va ta’limiga bag‘ishlangan milliy podkast hamda videokontentlar zamonaviy texnologiyalar vositasida milliy g‘oyalar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ongni shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ularni yaratish va ommalashtirishda tizimli yondashuv, professional ijodkorlar ishtiroki va yoshlarning ehtiyojlariga mos formatlarni tanlash muhim omil hisoblanadi. Ana shunda bunday kontentlar nafaqat ta’limiy jarayonning bir qismiga, balki yosh avlod tarbiyasining samarali vositasiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. M.Quronov. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... – T.: Ma’naviyat, 2014 yil.
2. Inoyatova M. Ta’limiy qadriyatlarni aniqlash va pedagogik amaliyotgan tatbiq etish. “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. –Toshkent, 2010. - 156 b. 120-b.
3. Mavrulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008 yil.

МИЛЛИЙ ТАРБИЯ КОНТЕНТЛАРИ ВОСИТАСИДА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Темиров Дилшод Шералиевич
Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги бош мутахассиси, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Аннотация. *Ушбу мақолада таълим муассасаларида миллий тарбия контентларидан фойдаланган ҳолда жамоатчилик назорати механизмларини самарали ташкил этишнинг ўрни ва аҳамияти таҳлил этилади. Миллий қадриятларни тарғиб этувчи контентлар орқали таълим сифатини назорат қилиш, шаффофликни таъминлаш ва таълим муассасаларининг жамоатчилик билан ҳамкорлигини мустаҳкамлаш йўллари кўриб чиқилади.*

Таянч сўзлар: *миллий тарбия, миллий контент, жамоатчилик назорати, шаффофлик, ота-оналар, таълим сифати, ҳисобдорлик.*

Кириш. Жамоатчилик назорати – бу жамият, яъни ота-оналар, маҳалла, фуқаролик жамияти институтлари, ННТлар (нон-давлат нотижорат ташкилотлар) ва бошқа фуқаролар томонидан умумтаълим муассасаларининг фаолияти устидан кузатув, таҳлил, баҳолаш ва таклиф бериш жараёнидир.

Ундан мақсад – таълим сифати, тарбия самарадорлиги, шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлашдир.

Умумтаълим мактабларида таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини таъминлашда жамоатчилик назорати муҳим аҳамиятга эга. Чунки, таълим – бутун жамият иши. Фақат давлат ёки ўқитувчи эмас, балки ота-она, маҳалла, жамоат ҳам жавобгар. Ўқувчи – келажакдаги

фуқаро. Уни тўғри йўналтириш, соғлом фикрлаш, ахлоқий тарбия олиши учун ҳамкорликда ишлаш керак. Шаффофлик – фақат текширув органлари эмас, балки халқнинг ўз кузатуви билан ҳам таъминланади.

Миллий тарбия ҳар бир жамият учун стратегик аҳамиятга эга масала бўлиб, у фарзандларимизни маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялашга хизмат қилади. Таълим муассасаларида миллий қадриятларни ўз ичига олган контентларни жорий этиш нафақат таълим сифати, балки жамоатчилик назоратини йўлга қўйишда ҳам муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, рақамли технологиялар шароитида жамоатчилик назоратини миллий тарбия контенти орқали амалга ошириш имкониятлари кенгаймоқда.

Миллий тарбия контентларининг вазифаси: миллий мерос, анъана ва қадриятларга асосланган ахборот, материал ва тарбиявий воситалар ёшларда ватанпарварлик, фидойилик, масъулият туйғусини шакллантиради; таълим мазмунига миллий руҳ бағишлайди ва тарбия жараёнини бойитади.

Бу йўналишда бир қатор муаммолар мавжуд бўлиб, улар қуйидагилар:

миллий тарбия контентларининг етарлича ишлаб чиқилмаганлиги – аниқ тарбиявий мақсадларга мос, жамоатчилик томонидан баҳоланиши мумкин бўлган контентлар кам;

жамоатчилик назоратининг формал кўриниши кўп ҳолларда жамоатчилик назорати фақат қоғозда амалга оширилади, амалда самарасиз;

масъулиятли жамоатчилик ва фуқароларнинг иштирокида етишмовчилик – Ота-оналар, маҳалла, ННТ ва бошқалар, фуқаролар фаоллиги паст;

ҳамкорлик алоқа воситаларининг самарасизлиги – таълим муассасалари билан жамоатчилик ўртасида мулоқот механизмлари етарли даражада ривожланмаган.

Миллий тарбия контентлари орқали жамоатчилик назоратини такомиллаштириш йўллари сифатида қуйидагиларни таддим этамиз.

Биринчидан, контент орқали шаффофлик яратиш. Бунда таълим муассасаларида миллий тарбия контентлари очиқ веб платформаларда жойлаштирилиши; Жамоатчилик томонидан баҳоланиши мумкин бўлган видео, методик қўлланмалар, фаолият ҳисоботлари назарда тутилади.

Иккинчидан, фаол ота-она иштирокини таъминлаш. Бунда контентлар асосида ташкил этиладиган “Меҳр-оқибат”, “Ота-оналар куни” каби тадбирларда ота-оналар фаол иштирокини таъминлаш, уларнинг фикрларини электрон сўровномалар орқали олиш.

Учинчидан, рақамли назорат платформаларини жорий этиш. Бунда масалан, миллий тарбия масалаларига бағишланган мобил иловалар, телеграм-ботлар, электрон фикр-мулоҳаза платформалари.

Тўртинчидан, маҳалла ва ННТ билан ҳамкорлик. Бунда маҳаллий жамоатчилик ва фуқаролик жамияти институтлари орқали мониторинг ва баҳолаш жараёнларини йўлга қўйиш, контентларни стандартлаштириш ва баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш, миллий тарбияга оид контентлар учун ягона педагогик ва ахлоқий мезонларни белгилаш ҳамда жамоатчилик назорати иштирокчиларини мазкур мезонлар асосида баҳолашга ўргатиш.

Хулоса ва таклифлар. Миллий тарбия контентлари таълим муассасаларида жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишда муҳим восита ҳисобланади. Бунинг учун қуйидаги таклифлар илгари сурилади: миллий контентлар фойдаси ва мазмунини баҳолаш учун жамоатчилик фикрини йиғиш тизимини йўлга қўйиш; таълим муассасаларида очиқ мулоқот майдонлари, контент тақдимотлари ва баҳолаш тадбирларини ташкил этиш; жамоатчилик ва

таълим ташкилотлари ўртасида тўғридан-тўғри ахборот алмашинувини таъминловчи рақамли платформаларни ривожлантириш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Абдуллаев А. “Миллий тарбия назарияси ва методикаси”. – Т.: Фан, 2021.
2. Каримова Г.Н. “Жамоатчилик назорати ва таълим тизимидаги аҳамияти”, Ижтимоий фанлар, №3, 2022.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонуни, 2014 йил.
4. Нормуродов Ш. “Таълим муассасаларида назорат ва баҳолаш тизимини такомиллаштириш”, Тошкент, 2020.
5. Таълим сифатини баҳолаш агентлиги маълумотлари, 2023.

ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЫХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ НАСТАВНИЧЕСТВА В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Абдуфаттохова Мавзунабегим
Докторантка 2- курса в Национальном Институте Педагогики и Воспитания имени Кары Ниязий

Аннотация: *В данной статье рассматриваются нынешние проблемы воспитания молодых учителей посредством наставничества в условиях цифровой трансформации, таких как недостаток подготовки наставников, разные уровни цифровой грамотности, изменение ролей ответственности, отсутствие времени, проблемы с коммуникацией, культурные и социальные ресурсы, необходимость постоянного обновления знаний.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, проблемы воспитания молодых учителей, наставничество, цифровая грамотность, ресурсы, обновления знаний, коммуникация.*

С момента появления феномена наставничества как неотъемлемого условия в области подготовки специалистов и рабочих для образовательной среды начал подниматься вопрос по подготовке учителей, занимающихся наставнической деятельностью, другими словами, о подготовке наставников.

Существует рад проблем в воспитании молодых учителей на основе наставничества в процессе цифровой трансформации.

Недостаток специализированного обучения: наставники часто не проходят специализированные курсы по цифровым технологиям и методам их интеграции в образовательный процесс, что ограничивает их способность эффективно обучать молодых коллег.

Устаревшие знания: многие опытные учителя могут использовать устаревшие методы и технологии, не успевая адаптироваться к новым требованиям и инструментам, что затрудняет передачу актуальных знаний.

Отсутствие практического опыта: наставники могут иметь достаточного опыта использования цифровых технологий в классе, что делает их менее уверенными в обучении других.

Нехватка времени на подготовку: у наставников может быть достаточно времени для изучения новых технологий и методов, что ограничивает их способность быть эффективными наставниками.

Непонимание педагогических аспектов: некоторые наставники могут хорошо разбираться в технологиях, но не понимать, как правильно интегрировать их в учебный процесс с учётом педагогических принципов.

Сопротивления изменениям: наставники могут быть настроены консервативно и не готовы к изменениям, что может передаваться молодым учителям и снижать их мотивацию к освоению новых технологий.

Неоднородность подходов: разные наставники могут использовать разные подходы к обучению, что создает путаницу у молодых учителей и затрудняет формирование единого образовательного процесса.

Отсутствие поддержки со стороны администрации: если руководство образовательной среды не поддерживает программы подготовки наставников или не выделяет ресурсы на их развитие, это может привести к недостатку мотивации и ресурсов для наставников.

Игнорирование индивидуальных потребностей: подготовка наставников может не учитывать индивидуальные потребности и контекст молодых учителей, что делает обучение менее эффективным

Проблемы с оценкой эффективности: отсутствие систем оценки эффективности подготовки наставников затрудняет выделение проблем и улучшение программ подготовки.

В.И. Смирнова в книге «Рядом с наставником»: «Наставник — это не просто отличный производственник, познавший все секреты мастерства, но и, безусловно, человек, наделенный педагогическими способностями, с широким кругозором, владеющий умением общения с молодыми». Существует множество других определений, но подходит именно это, поскольку явно отображает портрет и требования к наставнику молодых учителей в образовательной среде. Исследования показал, с научной точки зрения, подготовкой наставников начали заниматься с 1970-хгг. Обобщая опыт с давних лет, можно определить, что подготовка наставников проводилась в двух плоскостях: к первым относиться всевозможные лекции, семинары, конференции для наставников, ко вторым- различные курсы подготовки и повышения их квалификации. Становиться актуальным разработка новой модели организации педагогической деятельности, преподавателя, университета в условиях цифровизации высшего образования. При этом ключевой фигурой является педагог, особенно возрастает возможность роли наставника. Именно наставническая деятельность направлена на обретение смыслов в профессиональном становлении будущего учителя. Становится важным выделение из групп педагогических кадров тех педагогов, которые способны стать наставниками на старте карьеры. Наставники помогают молодому учителю обладать повышенной адаптивностью к изменениям и специфическими компетентностями поиска, оценки и внедрения нового. В этом смысле, наставничество может проявляться через вовлечение учителей-наставников в процесс подготовки будущих учителей, что обеспечит развитие профессиональных компетенций, как работающего педагога-учителя, так и будущего педагога-учителя. Вовлечения учителей-наставников в процесс подготовки будущего педагога призвано решить следующие задачи: разнообразие профессиональных запросов, ликвидацию профессиональных дефицитов как у учителей, так и у будущих педагогов, непрерывном

развитии профессионального мастерства и становлении новой педагогической практики. Профессиональное становление и удержание в профессии и реализуется на стадиях:

Профессиональное становление молодых учителей наставниками в следующих стадиях

Стадия адаптанта	Комфортное вхождение в профессию, через организацию профессионально-образовательной площадки, организацию практического обучеия с учителями-наставниками, мотивационные мероприятия, общение в научно-образовательной среде, профессиональном сообществе.
Стадия интернала	Вхождение в профессию «полноправного коллеги», осуществляем постдипломное сопровождение и обучение по магистерским программам, организация научно-исследовательской работы, консультирование и вовлечение в наставничество, как действующего учителя-практика.
Стадия мастерства	Для подготовки будущих педагогов привлекаем лучших среди обычных, с проявленными педагогическими способностями, вовлекаем их обучение в магистратуре и аспирантуре, осуществление сопровождение профессиональной карьеры, индивидуальное консультирование профессорско-преподавательским составом научно-исследовательской работы, вхождение в качестве координаторов профессионально-образовательных площадок.
Стадия авторитета	Когда педагог становиться лучшим среди мастеров, сопровождаем обобщение передового педагогического опыта, привлекание к соискательству, сопровождение публикации по результатам исследований и апробации, подготовку к сдаче кандидатских экзаменов, оформление диссертационного исследования, привлекание к реализации образовательных программ бакалавров педагогического образования, экспертирования магистерских диссертаций;
Стадия наставника	Когда педагог, добившийся значительных успехов, передает свой опыт на прфессионально-образовательной площадке, организуется сопровождение его научно-практической школы, оформления диссертационного исследования как доктора педагогических наук, публикаций монографий, научных сборников, организация научного руководства кандидатами педагогических наук, координация деятельности профессионально-образовательных площадок.

В данной таблице с помощью эмпирического подхода выделено и определено стадии становления наставничества.

В заключении следует выделить, в ходе анализа исследований литературы и эмпирических исследований проблем в воспитании и подготовки молодых учителей как наставников было выяснено, возможные решения для них может быть:

✓ Создание программ профессионального развития: Разработка курсов и тренингов для наставников с акцентом на цифровые технологии и современные педагогические подходы.

✓ Обмен опытом: Организация сетевых мероприятий, где наставники могут делиться опытом и лучшими практиками.

✓ Поддержка со стороны администрации: Обеспечение ресурсов и времени для наставников на изучение новых технологий и методов.

✓ Индивидуальный подход: Учет индивидуальных потребностей и контекста работы каждого наставника для повышения эффективности подготовки.

✓ Эти недостатки подчеркивают важность системного подхода к подготовке наставников, который учитывает быстрое развитие цифровых технологий и меняющиеся требования образовательной среды.

ЛИТЕРАТУРА

1. Головнев А.В. Проблемы подготовки наставников для практики студентов колледжа// Современные наукоемкие технологии.2019, № 2. С. 163-167
2. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя: монография / В.А Адольф; Красноярский государственный университет.- Красноярск :КрГУ, 1998.- 310с.- Текст: непосредственный.
3. Организационно-методическое обеспечение наставничества в профессиональной компетентности будущего учителя /В.А Адольф, А.И.Кондратюк, Т.А.Кондартюк, М.С.Зайцева. – Текст: электронный// Народное образование.-2022.-№ 3. -С. 115-120.
4. www.ziyo.net

UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QVCHILARIDA INKLYUZIV MADANIYAT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANIRISHNING MUHIM AHAMIYATI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

G‘oziyeva Shahnoza Baxtiyorovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta’lim maktablari o‘quvchilari orasida inklyuziv madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi, mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Muallif inklyuziv ta’lim tamoyillariga asoslangan holda, barcha o‘quvchilarning teng huquqli ishtirokini ta’minlash, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamkorlik muhitini yaratishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda samarali metod va yondashuvlar, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, maktab muhitining moslashuvchanligi kabi omillar asosida inklyuziv madaniyatni rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola pedagoglar, ilmiy izlanuvchilar va ta’lim tizimi ishtirokchilari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, inklyuziv madaniyat, pedagogik shart-sharoitlar, umumta’lim maktabi, ijtimoiy integratsiya, tolerantlik, hamkorlik;*

Аннотация: *В данной статье раскрывается актуальность, содержание и значение формирования навыков инклюзивной культуры у учащихся общеобразовательных школ. Автор, опираясь на принципы инклюзивного образования, анализирует педагогические условия, способствующие обеспечению равноправного участия всех учеников, формированию атмосферы взаимоуважения, толерантности и сотрудничества. В исследовании освещены эффективные методы и подходы, профессиональная компетентность учителей, а также гибкость школьной среды как ключевые факторы развития инклюзивной культуры. Статья представляет практическую ценность для педагогов, научных исследователей и участников системы образования.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, инклюзивная культура, педагогические условия, общеобразовательная школа, социальная интеграция, толерантность, сотрудничество;*

Annotation: *This article explores the relevance, content, and significance of developing inclusive culture skills among students in general education schools. Based on the principles of inclusive education, the author analyzes the pedagogical conditions necessary for ensuring equal participation of all students and for fostering an atmosphere of mutual respect, tolerance, and collaboration. The study highlights effective methods and approaches, the professional competence of teachers, and the adaptability of the school environment as key factors in promoting an inclusive culture. The article holds practical value for educators, researchers, and stakeholders in the education system.*

Key words: *inclusive education, inclusive culture, pedagogical conditions, general education school, social integration, tolerance, collaboration*

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari globallashuv jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Bu jarayon ham ijobiy, ham salbiy holatlarga sabab bo‘ldigan jarayonlardan biridir. Globallashuv chetlab o‘tmagan sohalardan biri bu- pedagogika sohasi. Ijobiy tomonlari haqida so‘z borganda, shuni mamnuniyat bilan ta’kidlash lozimki, bugungi kun pedagoglari uchun yaratilgan o‘quv binolari moddiy texnik bazasi yetarlicha deyishimiz mumkin. O‘quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hech qaysi dunyo mamalaktkarinikidan qolishmaydi. Shunga qaramay, salbiy jihatlarni ham keltirib chiqarayotgan globallashuv jarayoni ta’lim va tarbiyaga alohida e’tibor qilinishi kerak bo’lgan jihat bo‘lib qolmoqda. Bugungi kun o‘qituvchisi o‘ta salohiyatli, tirishqoq, izlanuvchan, barcha yangiliklardan ogoh, bir so‘z bilan aytganda “smart” bo‘lishi lozim. Olib borilayotgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni rivojlantirish, uning mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Chunki, globallashuv jarayonida turli xillikni qabul qilish va inklyuzivlikni ta’minlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Xilma-xil madaniyat, din va ijtimoiy guruhlar birlashar ekan, inklyuziv madaniyatni shakllantirish global dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada ko‘plab davlatlarda inklyuziyani qo‘llab-quvvatlovchi qonun va dasturlar joriy qilinmoqda. Bu nogironligi bo'lgan shaxslar, jinsiy va etnik ozchiliklar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Hususan, mamalakatimizda ham bu borada yetarlicha qonun-hujjatlari ishlab chiqilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF5712-son “Xalq ta’limi

tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va boshqa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash vazifalari belgilab berilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalash maqsadida va barcha o‘quvchilar teng tamoyilini amalga oshirish maqsadida ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvlar joriy etilmoqda. Maxsus ta’lim ehtiyojlarga ega bolalar umumta’lim maktablarda barcha tengdoshlari bilan bir xilda ta’lim olishlari va integratsiyalashishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Jamiyatda ijtimoiy dunyoqarashni rivojlantirish maqsadida ommaviy axborot vositalari va turli xil ijtimoiy tarmoqlar orqali inklyuzivlikning ijobiy natijalari keng targ’ib qilinmoqda. Bu stereotiplarni buzishga va barcha qatlamlarni qamrab olishga yordam bermoqda.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, turli xil gadjetlar ham inklyuziv madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Masalan, ko‘rish, eshitish yoki harakat qilish qobiliyatida cheklovlar bo‘lganlar o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan texnik vositalar va platformalar yaratilmoqda.

Inklyuziv madaniyatni rivojlantirish maqsadida umumta’lim maktablarida quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

1. Hamkorlikni yanada rivojlantirish:

Umumta’lim maktablarida turli xil ijtimoiy guruhdagi o‘quvchilarni birlashtiruvchi jamoaviy tadbirlar, loyihalar va o‘yinlar tashkil etish. Tadbirlarda turli xil ijtimoiy kelib chiqishi, dini, millati irqi,imkoniyatlaridan qat’iy nazar barcha o‘quvchilarning teng ishtirokini ta’minlash lozim. Bu bolalarda tenglik va bir-birini hurmat qilish madaniyatini shakllantiradi.

2. Moslashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish

Alohida ta’lim ehtiyojiga ega va turli xil bilim darajasiga ega bolalar uchun moslashtirilgan darsliklar, ta’lim usullari va texnologiyalarini joriy qilish lozim. Bu ularning barcha qatori bir xil sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish

Umumta’lim maktablarida alohida ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun psixolog va maxsus pedagoglarning xizmatlarini takomillashtirish lozim. Bu o‘quvchilarning ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishga yordam beradi.

4. Ta’lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilash

Panduslar, moslashtirilgan hojatxonalar, liftlar va boshqa qulayliklar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun o‘rnatish. Bu ularning maktab hayotiga faol qo‘shilishlarini ta’minlaydi.

5. Oila va mahalla bilan hamkorlik

Har bir umumta’lim maktablarida sinf rahbarlari o‘quvchilarning oilalari, mahalla faollari bilan yaqindan ishlash orqali inklyuziv madaniyat tushunchasini targ‘ib qilishlari lozim. Oilalarga farzandlarini to‘g‘ri tarbiyalash va ularni ham ma’naviy ham moddiy qo‘llab-quvvatlashda yordam berishlarini rivojlantirish maqsadida seminar-treyninglar orqali tushuntirish ishlarini olib borish lozim.

6. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi

Onlayn ta'lim platformalarni nogiron o‘quvchilar uchun ham moslashtirish, bu esa ular uchun qo‘shimcha bilim olish imkoniyatlarini yaratadi.

7. Xilma-xillikni qadrlashga oid darslar

Maxsus darslar yoki tadbirlar orqali bolalarga tenglik, hurmat va o‘zaro yordam tushunchalari o‘rgatish , ularning umumiy qiziqishlarini tinglash-ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

8. Mentorlik tizimi

Maktablarda faol va yetakchi o‘quvchilarni maxsus ehtiyojga ega tengdoshlariga yordam berish uchun mentor sifatida tayinlash orqali nafaqat inklyuzivlikni kuchaytirish, balki bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni yanada mustahkamlash mumkin.

9. Ijtimoiy qo‘llab quvvatlash

Maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilar va ularning tengdoshlarini jalb etuvchi sport musobaqalari, san’at festivallari, kitobxonlik kechalari kabi tadbirlar tashkil etish va tadbirlarda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish lozim. Bu esa o‘quvchilarning ta’limga bo’lgan qiziqishlarini yanada oshirib, kelajakka bo‘lgan ishonchini yanada ortishiga xizmat qiladi.

10. Muammolarni aniqlash va oldini olish

Ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarning ehtiyojlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularga mos yondashuvni qo‘llash tizimlarini umumta’lim maktablarda keng joriy qilish orqali o‘quvchilarda hissiy g‘amxo‘rlik tushunchasini shakllantirish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan tendensiyalar umumta'lim maktablarida o‘quvchilar o‘rtasida inklyuziv madaniyatni shakllanttirishga yordam beradi.

Xorijda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning quyidagi zamonaviy tendensiyalarini ko‘rsatish mumkin:

- mamlakatlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro tashabbuslarni milliy qonunchilik bazasida amalga oshirish;

- kamsitishlarga qarshi siyosatni maqsadli rag‘batlantirish va inklyuziv maktablarni yaratishga qaratilgan milliy davlat dasturlari;

- fanlararo hamkorlik doirasidagi sheriklik sifatini oshirish asosida “oila-maktab-jamoat-jamiyat” tizimida inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining o‘zaro aloqalari chegaralarini kengaytirish va inklyuzivlikning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini oshirish;

- inklyuziv sinfda bolalarning, ayniqsa nogironligi bo‘lgan bolalarning ehtiyojlarining xilma-xilligiga ijobiy va qadrli munosabatni kuchaytirish, fanlararo, ayniqsa, ushbu bolalarning ota-onalari bilan yaqin hamkorlik asosida ularning ta'lim ehtiyojlarini diagnostika qilish va baholash tartiblarini o‘zgartirish;

- bolaning erta ta'lim davriga e'tiborni kuchaytirish va profilaktika choralarini amalga oshirish orqali bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning individual traektoriyalarini ishlab chiqish va inklyuziv ta'lim sifatini oshirish zarurligini anglash;

– inklyuziv madaniyatni shakllantirish maqsadida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va maktablar pedagog kadrlari, shu jumladan, maktablar rahbarlari va yordamchi xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha ta'lim dasturlarini modernizasiya qilish.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning turli darajasiga ega ko‘plab mamlakatlar inklyuziv ta'lim tajribasiga asoslanib, uni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

— ta'lim jarayonining individualligi va moslashuvchanligiga e'tibor qaratish;

— ta'lim xizmatlarini diversifikasiya qilish;

— nogironligi bo‘lgan bolalarni oiladan uzoq vaqt ajratmasdan o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish;

— inklyuziv ta'limda o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va boshqalar.

Umuman olganda, inklyuziv ta'lim o‘quvchilarni jamiyatdan ajratib qo‘ymaydi. Ular olgan ko‘nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo‘lishadi. Oila — bolalar bog‘chasi — maktab — kasb-hunar kolleji — oliy ta'lim — ish bilan ta'minlash tizimi kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni umumta'lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Захарова А.В., Староверова М.С. Технологии повышения профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях инклюзивной образовательной организации [Электронный ресурс] // Психологическая наука
2. Бут Т., Эйнскоу М. Показатели инклюзии: практич. пособие. М.: Перспектива, 2007. 124 с.
3. https://zenodo.org/records/11186721

INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUVNI ZAMONAVIY KOMPITENSIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Xodjiev Firuz Rafikovich
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi vaqtda xodimlarni boshqarish umuman korxonaning innovatsion boshqaruv tizimining yetakchi elementi, korxonaning iqtisodiy muvaffaqiyatining eng muhim omili, xodimlarni boshqarish xizmatlarining faoliyati maksimal darajada samarali bo'lishga qaratilishi haqida ko’rsatilgan. Xodimlarning mehnat salohiyatini, shuningdek, ularning potentsial qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishda mumkin bo'lgan rivojlanishi korxonada inson resurslarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi butun korxonaning investitsiya salohiyatini tavsiflovchi elementlardan biri ekanligini bilishimiz kerak.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, kompitensiya, xodim, statistika, texnologiya, resurs, mehnat faoliyat, potensiallik.*

Аннотация. *В данной статье показано, что управление персоналом в настоящее время является ведущим элементом инновационной системы управления предприятием в целом, важнейшим фактором экономического успеха предприятия, деятельность служб управления персоналом направлена на достижение максимальной эффективности. Мы должны знать, что возможное развитие работников при реализации их трудового потенциала, а также их потенциальных способностей является одним из элементов, характеризующих инвестиционный потенциал всего предприятия в целом, вклад в развитие человеческих ресурсов на предприятии.*

Ключевые слова: *управление, состав, сотрудник, статистика, технология, ресурс, трудовая деятельность, потенциал.*

Annotation. *This article shows that at present, Personnel Management is the leading element of the innovative management system of the enterprise as a whole, the most important factor in the economic success of the enterprise, the activities of Personnel Management Services are aimed at maximum efficiency. We need to know that the contribution of employees to the development of human resources at the enterprise, as well as their possible development in the realization of their potential capabilities, is one of the elements that characterize the investment potential of the entire enterprise.*

Keywords: *management, competence, employee, statistics, technology, resource, labor activity, potentiality.*

Xodimlar malakasini modellashtirish har qanday xodimlarni baholash tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Kompetensiya deganda xodimning o'z faoliyatini amalga oshirish samaradorligini aniqlashga imkon beradigan fazilatlari, qobiliyatlari to'plami tushuniladi. Muayyan xodimning tavsiflanishi, o'lchanishi va tavsiflanishi mumkin bo'lgan fazilatlari, qobiliyatlari yig'indisi kompetensiyalar deb ataladi. Xodimning o'z vazifalarini samarali bajarishi uchun majburiy bo'lgan va o'zining shaxsiy maqsadlari va korporativ madaniyati bilan ma'lum bir tashkilotga xos bo'lgan tegishli vaziyatlar va vaqtlarda paydo bo'ladigan vakolatlar va hatti-harakatlar ko'rsatkichlari majmuasi kompetensiya modeli deb ataladi. Xulq-atvor ko'rsatkichlari - ma'lum bir malakaga ega bo'lgan shaxsning hattiharakatlarining standart normalari. Vakolatli modellashtirish xodimlarni boshqarish sohasidagi eng muammoli yo'nalishlardan biridir. Kompetensiyani modellashtirish sohasidagi xodimlarni boshqarish xizmatining asosiy vazifasi nafaqat ushbu davrda, balki kelajakda korxona uchun ham samarali bo'ladigan bunday kompetensiya modelini ishlab chiqishdir. Optimal model ma'lum bir tashkilot, ma'lum bir pozitsiya uchun individual bo'lgan kasbiy vakolatlarni ham, xulq-atvor ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga olishi kerak. Yaxshi ishlab chiqilgan kompetensiya modeli tashkilot rahbarlarini mavjud va tushunarli mezonlar asosida xodimlarni tanlash va baholash vositalari bilan ta'minlaydi, shuningdek, baholash mezonlarini aniq belgilash orqali menejerlar o'rtasida yuqori darajada moslashishga yordam beradi. Samarali kompetensiya modeli tushunarli va tushunarli bo'lishi, sodda tilda tasvirlangan va sodda tuzilishga ega bo'lishi kerak. O'rtacha kompetentsiya modeli 10-12 individual kompetentsiyani tavsiflashi kerak. Vakolatlar sonining ko'payishi bilan modelni korporativ amaliyotga joriy etishning murakkabligi ham oshadi, bu birinchi navbatda vakolatlar o'rtasidagi farqlarning juda kichik bo'lishi bilan bog'liq [3].

Vakolatlilik modelining tuzilishi bir-biriga bog'liq bo'lgan hatti-harakatlar ko'rsatkichlari guruhiga ega bo'lgan bir-biriga yaqin bo'lgan bloklar to'plamidir.

Taniqli iqtisodchi olim Shuls (1961) asarida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi, inson kapitaliga investitsiya kiritish, inson kapitalini mehnat bozorida sotish, mehnat salohiyati, inson kapitalining rivojlanish omillari, inson kapitalining rivojlanish darajalari kabi masalalar tadqiq qilingan. Shuningdek, Bekkerning (1993) asarida ijtimoiy rivojlanish nazariyasining metodologik asoslari, iqtisodiy o‘sish va inson taraqqiyoti, inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi, inson taraqqiyotini baholashning asosiy mezonlari va ularning xususiyatlari, insonni rivojlantirishning asosiy mezonlari, insonni rivojlantirish konsepsiyasi bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borgan. Genkin (2000), inson resurslarini rivojlantirishni daromad manbai sifatida namoyon bo‘luvchi mehnat unumdorliginining sifatini aniqlovchi ko‘rsatkich sifatida e’tirof etadi. Muallif bunday sifatlarga sog‘liqni saqlash, ta’lim, kasbiy mahorat va harakatchanlik xususiyatlarini kiritadi.

Inson resurslarining shakllanishi va rivojlanishi doimiy, uzluksiz, uzoq muddatli jarayonligini hisobga olgan holda, iqtisodiy o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi innovatsion

texnologiyalar bilan bir xil yoki undan ham ko‘proq foyda keltiradi. Inson resurslarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-demografik, institutsional, integratsiya, ijtimoiy-ruhiy, ekologik, iqtisodiy, ishlab chiqarish, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillari mavjud. Shu sababli, inson resurslari milliy, mintaqaviy, tarmoq darajasida, shuningdek, korxona va shaxs darajasida tahlil qilinishi zarur. Bunda inson resurslarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha dunyo tajribasini o‘rganish asosida tahlil etish muammoni aniqlashda yanada ko‘mak beradi. Dunyoning barcha mamlakatlarida inson kapitalini shakllantirishda eng asosiy e’tibor ta’lim tizimiga qaratiladi. Inson resurslarining ahamiyati turli xil yondashuvlar asosida baholanadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa bu ta’lim olgan kishilarning daromadi darajasiga ko‘ra aniqlanadi.

Inson resurslarini rivojlantirish doimo istalgan xo‘jalik faoliyatini tashkil qilishda eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Shu sababdan, inson resurslarini rivojlantirish muammolarini to‘g‘ri, mantiqiy va aniq hal qilish kadrlar menejmenti asoslarini professional darajada o‘zlashtirishni taqozo etadi. Bu borada Yapon tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, korporatsiyalarda inson resurslarini rivojlantirish yo‘nalishlarini uch guruh bilan ifodalash mumkin (Abrosimov, 2012):

1. Inson resurslarini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy jihatlari jamiyatni davlat tomonidan boshqarishning ijtimoiy mohiyati, uning ichki va xalqaro munosabatlardagi manfaatlari bilan asoslanganligini ochib beradi.

2. Yapon korporasiyalarida inson resurslarini rivojlantirishning tarkibiy-funksional jihatlari muayyan xo‘jalik bo‘g‘inida boshqaruv tizimi tarkibini, uning maqsadli vazifalarini va real faoliyat jarayonida faoliyat yuritish tartibini belgilab beradi.

3. Rahbarning boshqaruv faoliyatini takomillashtirish ushbu faoliyat tavsifini aniqlab beradi. Normativ hujjatlar va uslubiy tavsiyalarda yapon korporatsiyalari inson resurslarini rivojlantirish jihatlarining ushbu guruhi, odatda, boshqaruv faoliyatining quyidagi jihatlari bilan ifodalanadi: boshqaruv faoliyatini huquqiy tartibga solish; shaxsiy faoliyatga yondashuv; faoliyat natijalariga ta’sirning aniqligi; boshqaruv faoliyatining motivatsiyalash va rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish innovatsiyalar shaklida namoyon bo‘luvchi ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqarish vazifasini bajaradi. Inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni faollashtiradi hamda rivojlanishga o‘z hissasini qo‘shadi. Inson resurslarining murakkab tarkibiga qaramay, uni shakllantirish va rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy konsepsiya evolyutsiyasi davomida rivojlantirish jarayoni ta’lim komponentlarining ahamiyatini belgilaydi. Aynan bilim va ko‘nikmalar inson resurslarini rivojlantirishning asosini tashkil etadi, uni tashuvchisining mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va daromadga ega bo‘lish darajasini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Горелов Н. А. Управление человеческими ресурсами: стратегии и инновации. – Юрайт, 2020.
2. Harvard Business Review. (2021). "Innovative Approaches in HR Management".
3. McKinsey & Company. (2023). "The Future of Work".
4. Deloitte. (2023). "Automation and Efficiency in HR".
5. Jahon Banki ma‘lumotlari (2023).
6. Axmedova Yulduz Sunatullayevna. Inson resurslarini boshqarishning innovatsion yo‘llari. – Journal of Education, Ethics and Value, 2021.

7. G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li. Rivojlangan mamlakatlarda inson resurslarini boshqarishda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribalarini yurtimizda qo‘llashning ahamiyati. – Educational Research in Universal Sciences, 2022.
8. Xasanova Nafisa. Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish. – Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2020.

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA O‘SMIRLARGA OID MILLIY KONTENTLARNI YARATISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi
Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda "Milliy qadriyatlar asosida o‘smirlarga oid milliy kontentlarni yaratish muammolari va yechimlari" mavzusidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.*

Kalit so‘zlar: *Qadriyatlar, ommaviy axborot vositalari,milliy kontentlar,axborot oqimi.*

Abstract: *In this thesis, we will get information on the topic "Problems and solutions of creating national content for adolescents based on national values".*

Keywords: *Values, mass media, national content, information flow.*

Zamonaviy globallashuv davrida yosh avlod, xususan o‘smirlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kontentlarning kuchayib borayotgan ta’siri fonida o‘smirlarga mo‘ljallangan milliy kontentlar orqali ularning ongiga milliy g‘urur, tarixiy xotira, an’ana va urf-odatlarni singdirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Biroq, bu yo‘nalishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular samarali kontent ishlab chiqish va yoshlar ongida milliy qadriyatlarni mustahkamlashga to‘sqinlik qilmoqda.

Milliy kontent yaratishdagi asosiy muammolar

Mazmuniy yetarli emaslik. Aksariyat kontentlar chuqur ilmiy asosga ega bo‘lmay, yuzaki tasvirlar bilan cheklanadi. Bu esa o‘smirlarning qiziqishini uyg‘ota olmaydi va ularni xorijiy kontentga murojaat qilishga undaydi.

Texnologik imkoniyatlardan yetarli foydalanilmasligi Raqamli platformalarda milliy qadriyatlarga oid sifatli kontentlar yetarli emas. Ko‘plab loyihalar zamonaviy dizayn, animatsiya yoki interaktiv imkoniyatlardan cheklangan foydalanmoqda.

Tili va uslubining zamon talabiga mos emasligi O‘smirlar zamonaviy, dinamik va qisqa shakldagi kontentlarga qiziqish bildiradi. Ko‘plab milliy kontentlar esa akademik va rasmiy uslubda bo‘lib, o‘quvchi e’tiborini ushlab turolmaydi.

Mutaxassislarning yetishmasligi Milliy qadriyatlarni chuqur biluvchi, bir vaqtning o‘zida zamonaviy kontent yarata oladigan mutaxassislar soni kam. Bu esa sifatli loyiha yaratishga to‘sqinlik qiladi.

Moliyaviy va tashkiliy resurslarning yetishmasligi Mahalliy kontent yaratishga sarmoya ajratish holatlari kam. Ko‘plab loyihalar qisqa muddatli grantlar yoki bir martalik homiylik asosida yaratiladi.

Muammolar yechimiga qaratilgan takliflar

Mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlash Milliy qadriyatlar haqidagi kontentlar zamonaviy uslubda, qisqa videolar, infografika, komikslar, mobil ilovalar orqali taqdim etilishi kerak. Har bir material yosh avlod dunyoqarashiga mos kelishi lozim.

Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan faol foydalanish TikTok, YouTube Shorts, Instagram Reels kabi platformalarda milliy mavzularga oid kreativ va jozibali kontentlarni ishlab chiqish orqali keng auditoriyani qamrab olish mumkin.

Yoshlar bilan bevosita muloqot qilish Kontent yaratuvchilari o‘smirlar bilan bevosita suhbatda bo‘lib, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini o‘rganishi, shu asosda material tayyorlashi maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassislar va ijodkorlarni tayyorlash Pedagoglar, tarixchilar, jurnalistlar, dasturchilar va dizaynerlar ishtirokida maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish zarur. Bu orqali milliy qadriyatlar va zamonaviy media vositalari sintezini yaratadigan kadrlar yetishtiriladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish Milliy kontent ishlab chiqarishga davlat tomonidan grantlar, soliq imtiyozlari, texnik yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish zarur. Xususiy sektor esa o‘z brendlarini targ‘ib qilish bilan birga, ijtimoiy mas’uliyat doirasida milliy kontentlarni qo‘llab-quvvatlashi kerak.

O‘smirlar uchun milliy qadriyatlar asosidagi kontentlar yaratish nafaqat tarbiyaviy, balki strategik ahamiyatga ega masaladir. Bu kontentlar orqali yosh avlod ongida Vatanga sadoqat, tarixiy xotira, o‘zligiga hurmat kabi muhim tushunchalar shakllanadi. Mazkur jarayonda barcha soha vakillarining hamkorligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va yoshlarning ehtiyojlariga moslashgan yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Muammolarga tizimli yondashuv orqali biz raqamli makonda ham milliy qadriyatlarimizni mustahkamlab, yoshlarimizni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qila olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori
2. Jabborov I., O'zbek xalqi etnografiyasi, T., 1994;
3. Shoniyozov K., O'zbekxalqining shakllanish jarayoni, T., 2001;
4. Doniyorov A. X., O'zbekiston etnografiyasi tarixidan ayrim lavhalar, T., 2003;
5. Doniyorov A.X., Mustaqil O'zbekiston etnografiyasi tarixshunosligining ayrim masalalari, T., 2003;
6. O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar, T., 2004.
7. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма //В кн.: Культура и искусство древнего Хорезма. — М.: «Наука», 1981, с. 219-227.
8. Abidova, Z. (2024). ZIYORATGOHLARDA IJTIMOIY AXLOQ MEZONLARI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 9-11.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ В ЦИФРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ: ОТ ПРОБЛЕМ К РЕШЕНИЯМ В СОЗДАНИИ ОБУЧАЮЩЕГО КОНТЕНТА

Ахунова Умида Ойбековна
стажёр – исследователь НИПВ им Кары-Ниязи

Аннотация. *В условиях стремительного развития цифровых технологий образовательная среда претерпевает существенные изменения. Наряду с глобализацией и доступом к международным ресурсам особую важность приобретает вопрос сохранения и трансляции национальной идентичности через цифровые образовательные инструменты.*

Создание обучающего контента, отражающего культурные, исторические и языковые особенности конкретного народа, становится не просто желательным, а необходимым условием формирования целостной личности и гражданского самосознания у обучающихся. Тем не менее реализация этой задачи сопряжена с рядом проблем: от нехватки методических разработок и подготовленных специалистов до сложности адаптации национального контекста к цифровым форматам. Цель данной статьи — проанализировать ключевые проблемы внедрения национальной идентичности в цифровое образование и предложить возможные пути их решения.

Ключевые слова: *национальная идентичность, цифровая образовательная среда, обучающий контент, культурные ценности, цифровизация образования, национальное образование.*

Цифровизация образовательных процессов открывает новые горизонты для трансляции знаний, расширения доступа к обучающим материалам и развития навыков XXI века. Однако, в условиях стремительной глобализации особую важность приобретает сохранение и развитие национальной идентичности, особенно среди молодого поколения. Образование становится не только инструментом передачи знаний, но и пространством формирования ценностей, мировоззрения, культурного самосознания. В этом контексте центральной задачей становится интеграция национального компонента в цифровую образовательную среду.

В последние десятилетия процесс цифровизации приобретает внушительные масштабы практически во всех социальных сферах.

Появление на мировом рынке новых информационных технологий, позволяющих использовать новые управленческие механизмы, с каждым годом все сильнее оказывает влияние на развитие экономики в целом и на сферу образования в частности. Обучение в эпоху цифровизации будет непрерывным, социально ориентированным, персонализированным, учитывающим потребности и интересы каждого обучающегося, а решения будут приниматься на основе большого объема данных.

Образовательные организации должны научиться не только прогнозировать изменения, но и внедрять инновации таким образом, чтобы получить для себя конкурентные преимущества.

Современные цифровые технологии, медиаплатформы, электронные тексты все более востребованы в образовании, так как способствуют реализации образовательных возможностей, позволяют более эффективно выстраивать образовательный процесс, помещая обучающихся и педагогов в центр сетевого социального мира.

Цифровые технологии обеспечивают возможности повышения качества образования, успешности функционирования внутренней структуры образовательной организации, что подразумевает использование цифровых систем планирования ресурсов, электронных систем документооборота, систем поддержки разработки и принятия управленческого решения.

Все вышеизложенное определяет цель исследования - изучение возможностей цифровой образовательной среды как инструмента повышения эффективности управления образовательной организацией.

Цифровизация образования — общемировой процесс, и вопросы интеграции национальной идентичности затрагиваются во многих странах. Примеры успешной

реализации показывают, что при правильной стратегии возможно сочетание цифровых технологий и культурной самобытности.

• Финляндия активно использует в цифровом контенте материалы, отражающие историю, мифологию и национальные особенности. Даже в курсах по естественным наукам часто включены культурные контексты, что повышает интерес учащихся и укрепляет связь с родной страной.

• Япония сочетает современные технологии и глубокое уважение к традициям. В образовательных VR-проектах можно встретить реконструкции исторических событий, посещение храмов и изучение каллиграфии.

• Узбекистан предпринимает шаги по интеграции национальных ценностей в образовательную сферу, особенно после реформ в системе образования и цифрового развития. Однако систематическая разработка контента с ярко выраженным национальным контекстом всё ещё требует укрепления методической и ресурсной базы.

Формирование национальной идентичности — это не только вопрос содержания, но и вопрос восприятия. Именно в школьном возрасте, особенно в подростковый период, у учащихся активно формируются ценностные ориентиры, самоидентификация и гражданская позиция. Цифровая среда, при всех её преимуществах, может ослаблять эмоциональную вовлечённость, если в ней отсутствует культурно значимый контекст. Таким образом, задача педагога и автора цифрового контента — не просто донести информацию, а вызвать внутренний диалог между личностью ученика и национальной культурой. При создании национально ориентированного цифрового контента важно соблюдать баланс: контент должен воспитывать уважение и гордость за свою культуру, не нарушая при этом принципов открытости, гуманизма и уважения к другим культурам.

В Узбекистане предпринимаются шаги по цифровизации образования — создание платформ UzEdu, Bilimlar Akademiyasi, Kundalik, а также перевод учебных материалов в электронную форму. Однако вопрос наполнения этих платформ национально ориентированным контентом всё ещё остаётся открытым

ЛИТЕРАТУРА

1. Аристова, Н. М. Цифровая трансформация образования: культурно-идентичный подход // Вопросы образования. – 2021. – № 3. – С. 75–92.
2. Багдасарян, В. Э. Культура как фактор образования в цифровом обществе // Педагогика. – 2020. – № 5. – С. 34–39.
3. Баева, Л. В. Образование и культурная идентичность в цифровую эпоху // Философия образования. – 2019. – № 1 (76). – С. 11–20.
4. Kymlicka, W. Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. – Oxford: Oxford University Press, 1995.
5. Ergas, O. Reconstructing ‘Education’ through a Philosophical Lens: Bringing the Concept of Worldview Back into Educational Discourse // Educational Philosophy and Theory. – 2020. – Vol. 52(2). – P. 213–222.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA YOSHLARNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Daminova Go‘zal Vaydulla qizi
Shahrisabz davlat pedagogika institute pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarni tarbiyalash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi yoshlar ongiga, axloqiga va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolada bu muammolarning sabablari, oqibatlari va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali raqamli davrda yoshlar tarbiyasining samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.*

KALIT SO‘ZLAR: *raqamli transformatsiya, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy moslashuv, axloqiy qiymatlar, raqamli madaniyat*

ABSTRACT. *This article analyzes the issues of youth education in the context of digital transformation. The rapid development of the internet, artificial intelligence, social media, and digital technologies significantly affects the mindset, morality, and social adaptation of young people. The paper discusses the causes and consequences of these problems and offers scientifically grounded solutions. Additionally, recommendations are provided to improve the effectiveness of youth education in the digital era using modern pedagogical approaches.*

KEYWORDS: *digital transformation, youth education, social adaptation, moral values, digital culture*

АННОТАЦИЯ.*В статье рассматриваются проблемы воспитания молодежи в условиях цифровой трансформации. Быстрое развитие интернета, искусственного интеллекта, социальных сетей и цифровых технологий оказывает значительное влияние на сознание, нравственность и социальную адаптацию молодежи. В работе анализируются причины и последствия данных проблем, а также предлагаются научно обоснованные подходы к их решению. Также даны рекомендации по повышению эффективности воспитания молодежи в цифровую эпоху с использованием современных педагогических подходов.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *цифровая трансформация, воспитание молодежи, социальная адаптация, нравственные ценности, цифровая культура*

KIRISH.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya ta’lim va tarbiya tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongining shakllanishida muhim omilga aylangan. Shu sababli, raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni axloqan sog‘lom, ijtimoiy jihatdan faolligi yuqori bo‘lgan shaxs sifatida shakllantirish dolzarb muammolardan biridir.

ASOSIY QISM.

Raqamli transformatsiya – bu jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqamli texnologiyalar yordamida tizimli o‘zgarishlar kiritish jarayonidir. Raqamli transformatsiya jarayonida bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili kabi yangi texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, raqamli asrda raqobatbardosh qolish uchun biznes modellari va jarayonlarini qayta ko'rib chiqish

kiradi [Turdiyeva, 2024:1187]. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyot va sanoatga, balki ijtimoiy ong, axloqiy qarashlar va tarbiya tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar ko‘proq vaqtlarini internetda o‘tkazmoqda, bu esa ularning ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarining susayishiga, jismoniy faollik pasayishiga va ma’naviy izolyatsiyaga olib kelmoqda. Raqamli transformatsiyaning afzalliklari juda ko’p, samaradorlik va samaradorlikni oshirishdan tortib, mijozlar tajribasini yaxshilash va daromadni oshirishgacha [Kucharov, Bobojonov, Abdurahmonov, 2024:45]. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirilgan jarayonlar ish vaqtini qisqartiradi, xatoliklar ehtimolini kamaytiradi va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa nafaqat tashkilotlar, balki ta'lim, sog‘liqni saqlash va davlat boshqaruvi kabi sohalarda ham sezilarli natijalar beradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya innovatsion yondashuvlarni rag‘batlantiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o‘rganib borish, amalda aprobatsiyadan o‘tgan xalqaro tajribaning mahalliy sharoitda yangicha mexanizm va yondashuvlar asosida amaliyotga joriy etishda qator ishlarning amalga oshirilishi, jumladan O‘zbekistonda yoshlar intilish va iqtidorlarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha mustahkam tizim ishlab chiqildi [Gulyamova, 2024:205]. Bu tizim orqali yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish va ularning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Natijada, yoshlar nafaqat iste’molchi, balki jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida shakllanmoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida asosan quyidagi tarbiyaviy muammolar kuzatilmoqda:

- Axborotning nazoratsiz oqimi: Yoshlar ko‘pincha soxtalashtirilgan, yolg‘on yoki zararli axborotga duch keladi.
- Virtual dunyoga qaramlik: Kompyuter o‘yinlari, TikTok, Instagram kabi platformalar real hayotdan begonalashtiradi.
- Axloqiy buzilishlar: Internetda zo‘ravonlik, tajovuzkorlik, pornografik materiallar tarqalishi yosh ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.
- Ijtimoiy ajralish: Virtual muloqot shakllari real muloqotni siqib chiqarmoqda.

Bu muammolarni hal etishda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Raqamli savodxonlikni oshirish: Har bir yosh o‘zining raqamli izlarini, axborot xavfsizligini, va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak.
- Ota-ona va pedagoglarning o‘rni: Ularning raqamli muhitdagi yetakchilik roli kuchaytirilishi lozim.
- Innovatsion tarbiya metodlari: Gamifikatsiya, interaktiv platformalar, raqamli psixologiya elementlari asosida tarbiya samaradorligini oshirish mumkin.
- Tarbiya mazmunining yangilanishi: Axloqiy qadriyatlar, milliy madaniyat, raqamli madaniyat va ekologik tarbiya mavzularini integratsiyalash zarur.

Raqamli texnologiyalar va raqamlashtirilgan gumanitar ta’lim ijtimoiy -gumanitar yo‘nalish pedagoglarining ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshiradi, pedagogik mahoratning yuqori darajasini ta’minlab, o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga sharoit yaratadi [Jumaniyozova, 2024:224]. Shu bilan birga, raqamli vositalar orqali o‘quv jarayoniga ilg‘or interaktiv metodlar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv ilovalari joriy etilishi o‘qituvchilarning metodik yondashuvlarini boyitadi. Bu esa nafaqat ta’lim sifati oshishiga, balki pedagoglar o‘rtasida raqamli madaniyatning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Natijada, zamonaviy ta’lim muhitida pedagog shaxsining moslashuvchan, innovatsion va izlanishga tayyor bo‘lishi ta’minlanadi.

XULOSA

Raqamli transformatsiya zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, u bilan birga yangi tarbiyaviy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Yoshlarni barkamol va ma’naviy yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish uchun ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning barcha qatlamlari raqamli muhitda faol, mas’uliyatli va ongli ishtirok etishi zarur. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axborot xavfsizligi, axloqiy tarbiya va raqamli madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi lozim.

TAVSIYALAR:

1. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish:

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi va internetda mas’uliyatli xulq-atvor bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar joriy etilishi lozim.

O‘quvchilar va talabalarga tanqidiy fikrlash, manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalari o‘rgatilishi zarur.

2. Ota-onalar va ustozlar uchun treninglar tashkil etish:

Ota-onalar va pedagoglar raqamli texnologiyalar imkoniyatlari hamda tahdidlaridan xabardor bo‘lishlari, zamonaviy vositalar bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashlari zarur.

Raqamli dunyodagi tarbiya usullari, bolalarga ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha maxsus seminarlar tashkil etilishi kerak.

3. Tarbiyaviy kontentni raqamlashtirish:

Milliy qadriyatlar, axloqiy-ruhiy tarbiya, vatanparvarlik kabi mavzularni o‘z ichiga olgan interaktiv videolar, mobil ilovalar va animatsion loyihalarni ishlab chiqish lozim.

Yosh avlod uchun qiziqarli, motivatsion va o‘zbek tilidagi ijobiy raqamli kontentlarni yaratish rag‘batlantirilishi kerak.

4. Ijtimoiy tarmoqlarda nazorat va hamkorlikni kuchaytirish:

Ta’lim muassasalari va oilalar o‘rtasida raqamli faoliyatni kuzatish va muhokama qilish madaniyati shakllantirilishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarda bolalarning faoliyatini nazorat qilishda qat’iy cheklovlar emas, balki ishonchli hamkorlik asosida yondashish maqsadga muvofiq.

5. Milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan raqamli tarbiya modeli ishlab chiqish:

O‘zbekiston sharoitiga mos, ma’naviy jihatdan boy va texnologik jihatdan zamonaviy tarbiya modelini ishlab chiqish kerak.

Ushbu modelda o‘zbekona urf-odatlar, tarixiy meros, ajdodlar tajribasi bilan innovatsion texnologiyalar uyg‘unlashgan bo‘lishi zarur.

6. Yoshlarning raqamli hayotdagi ishtirokini ijtimoiy faollikka yo‘naltirish:

Volontyorlik, onlayn loyihalar, raqamli forumlar orqali ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undash kerak.

Raqamli texnologiyalar yordamida yoshlarni ekologiya, sog‘lom turmush tarzi, madaniyat targ‘iboti kabi ijtimoiy foydali ishlar bilan shug‘ullanishga jalb etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulyamova, N.G. (2024). Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish va boshqarish omillari. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 205–207 b.

– URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.10676723
2. Jumaniyozova, M.T. (2024). Raqamli transformatsiya va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarini kasbiy-shaxsiy rivojlantirish muammolari. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 223–227 b.
3. Kucharov, A.S., Bobojonov, A.B., Abdurahmonov, A.A. (2024). Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va ularning ahamiyati. “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy-elektron jurnali, 44–56 b.
4. Turdiyeva, G. S. (2024). Raqamli transformatsiya jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari. Miasto Przyszłości, №47, 1187–1190 b. – URL:https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13319_1_0CF0F4BE775044F18565B896ECE8CCC51D93C3E8

AGRESSIV XULQ-ATVORLI BOLALARNI TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Xolmaxmadova Umida Abdurahmon qizi

Profi University Navoiy filialining
“Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: “Pedagogika va chet tillar” kafedrasi
v.b.dots, PhD Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan agressiv xulq-atvorli bolalarning psixologik portreti, ularni tarbiyalashda qo‘llaniladigan zamonaviy psixologik yondashuvlar, ularning samaradorligi hamda amaliy misollar natijalari asosida yoritib berilgan. Maqola psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.*

Аннотация. *В статье описывается психологический портрет детей с агрессивным поведением, обучающихся в общеобразовательной средней общеобразовательной организации, современные психологические подходы, применяемые в их воспитании, их эффективность, результаты практических примеров. Статья является практическим пособием для психологов, педагогов и родителей.*

Abstract. *This article describes the psychological portrait of children with aggressive behavior studying in a general secondary educational institution, modern psychological approaches used in their upbringing, their effectiveness, and the results of practical examples. The article serves as a practical guide for psychologists, educators, and parents.*

Kalit so‘zlar: *Agressiya, xulq-atvor, psixologik yondashuv, tarbiya, emotsional nazorat, ijtimoiy moslashuv, ta’lim, metod, psixologik xizmat, test, loyiha metodi,diagnostika, korreksiya, “Men kimman?” texnikasi.*

Keywords: *Aggression, behavior, psychological approach, upbringing, emotional control, social adaptation, education, method, psychological service, test, project method, diagnostics, correction, "Who am I?" technique.*

Ключевые слова: *Агрессия, поведение, психологический подход, воспитание, эмоциональный контроль, социальная адаптация, образование, метод, психологическая служба, тест, метод проектов, диагностика, коррекция, методика «Кто Я?»*

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy-psixologik rivojlanishini ta’minlash, ayniqsa xulq-atvori buzilishlar mavjud bo‘lgan, agressiv yoki emotsional muvozanatsiz bolalarning holatini aniqlab, ularni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish — bugungi kun maktab psixologiyasi oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-sonli “Maktab psixologik xizmatining samaradorligini oshirish va uni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (1)ushbu yo‘nalishda tub burilish yasagan huquqiy asoslardan biridir. Mazkur qaror doirasida ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan psixologlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning ish faoliyatini ilmiy-metodik asosda takomillashtirish va psixologik xizmatga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish belgilab berilgan. Qarorda psixologlar faoliyatini baholashning aniq mezonlari ishlab chiqilishi, diagnostik va korreksion uslublarni amaliyotga keng joriy etish, ayniqsa, xulq-atvorida agressivlik, impulsivlik yoki emotsional notekislik namoyon bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va ularga tizimli yordam ko‘rsatish mexanizmlari belgilanadi. Shuningdek, qarorda maktab psixologlarining faoliyati faqatgina nazorat va tashxis bilan emas, balki psixoprofilaktika, psixokorrektsiya, psixologik maslahat va pedagogik jamoa bilan hamkorlik orqali amalga oshirilishi kerakligi ta’kidlanadi. Bu esa o‘qituvchi va psixolog o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, qarorda ijtimoiy xavfli xulq-atvor belgilari kuzatilgan bolalar bilan ishlashda psixologik testlar, loyihaviy metodlar va emotsional-intellektual diagnostika vositalarini joriy etish tavsiya etiladi. Bu esa bolalarning ichki olamini chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish va tarbiyaviy strategiyalarni ilmiy asosda tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, PQ–4884-son qaror zamonaviy maktab psixologiyasini tizimli isloh qilish, agressiv yoki og‘ir xulqli bolalarni samarali psixologik yondashuvlar orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun zarur ilmiy-amaliy poydevor yaratadi. Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarning psixologik salomatligi, ayniqsa, ularning xulq-atvori va ijtimoiy moslashuvi muhim omillardan biri hisoblanadi. Agressiv xulq-atvor — bu bolaning atrofdagilarga, jamiyat qoidalariga yoki o‘ziga nisbatan dushmanona, tajovuzkor harakatlar orqali munosabat bildirishidir. Psixologik adabiyotlarda “agressiya” ijtimoiy qabul qilinmagan, zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar majmui sifatida izohlanadi. Agressiv xulqli bolalar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda qiynaladi, impulsiv harakat qiladi, atrofdagilar bilan mojarolarga tez kirishadi va ko‘pincha dars jarayonini buzadi. Bunday bolalar bilan ishlashda yondashuvlar puxta o‘ylangan, psixologik, tarbiyaviy va emotsional omillarni hisobga oluvchi bo‘lishi lozim. Amaliy psixologiyada agressiyani kamaytirishga qaratilgan bir qator samarali yondashuvlar mavjud: masalan, emotsional-intellektni rivojlantirish, rolli o‘yinlar, art-terapiya, kognitiv-xulqiy terapiya elementlari, shuningdek, individual suhbat va guruhli mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning xatti-harakatlarini korreksiya qilish mumkin. Shunday psixologik yondashuvlar nafaqat bolalardagi tajovuzkorlikni kamaytirish, balki ularning ijtimoiy-emosional sohalarini sog‘lomlashtirish, o‘z-o‘zini anglash va boshqalarni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktablarida kuzatilgan holatlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning ruhiy salomatligi va xulq-atvorida og‘ishlar, jumladan, tajovuzkorlik, beqarorlik va emotsional portlash holatlari ortib bormoqda. Maktabgacha va maktab ta’limi muassasalaridagi psixologlarning kuzatuvlari va

tahlillariga ko‘ra, har 10 nafar boladan 1–2 nafarida tashqi yoki ichki agressiv xatti-harakatlar namoyon bo‘lmoqda. Bu muammoni hal etish, maktab psixologik xizmatini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-sonli qarorida quyidagicha ta’kidlanadi: “Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ruhiy holatini chuqur tahlil qilish, ularning shaxsiy muammolarini aniqlash va bartaraf etish uchun psixologik xizmatlarni yangicha mazmunda tashkil etish zarur.” Mazkur yondashuv maktabdagi agressiv bolalarni erta aniqlash, ularni psixologik korreksiyaga yo‘naltirish va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashni talab etadi. Agressiv xulq-atvorga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashda har bir psixologik yondashuv o‘ziga xos uslub va samaradorlikka ega bo‘lib, ularni tanlashda bolaning yosh, temperament, oilaviy sharoit, maktab muhiti va individual psixologik ehtiyojlari hisobga olinishi zarur. Shunday ekan, ushbu maqola orqali bunday yondashuvlarning qanday usullari mavjudligi va ular qanday natija berishi ilmiy-amaliy asosda yoritiladi. Agressiv xulq-atvorli bolalarni tarbiyalashda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega, chunki bu yondashuvlar bolaning ichki dunyosini tushunish va uning ijobiy o‘zgarishlarini rag‘batlantirishga yordam beradi. Bu borada mashhur olimlarning nazariy va ilmiy fikrlari asosida quyidagilarni keltirish mumkin. Albert Bandura agressiv xulq-atvorni o‘rganishda modellash va ijtimoiy ta’sirga katta e’tibor bergan (2). Unga ko‘ra, bolalar atrofdagi kattalarning (ota-ona, do‘stlar, televizor va boshqalar) agressiv xatti-harakatlarini kuzatib, o‘zlashtirishi mumkin. Shuning uchun, agressiv bolalarni tarbiyalashda ota-onalar va pedagoglarning o‘z xatti-harakatlari model bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek, ijobiy namuna ko‘rsatish zarurligi ta’kidlanadi. Banduraning nazariyasi asosida olib borilgan treninglar va psixologik intervensiyalar agressiv bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirishga, agressiyani kamaytirishga yordam beradi. Karl Rojersning gumanistik psixologiyasi bolaga nisbatan mehr-shafqat va samimiy munosabatni ta’kidlaydi(3). Rojers nazariyasiga ko‘ra, agressivlik ko‘pincha bolaning o‘zini tushunmasligi, ichki qoniqmasligi natijasidir. Shuning uchun tarbiyalashda bolaning his-tuyg‘ulari tinglanishi, u bilan ishonchli munosabat o‘rnatilishi kerak. Empatiya va samimiyat asosidagi yondashuv bolaning o‘zini qadrli his qilishi, ichki zo‘riqishni kamaytirishi, agressiv xatti-harakatlarning pasayishiga olib keladi.

Agressiv xulq-atvorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning emotsional va ruhiy holatini baholashda bir nechta zamonaviy va klassik psixologik testlar qo‘llanildi. Ular quyidagilar: Lusherning rang testi – bolalarning hozirgi emotsional holatini aniqlash, stress darajasi va ichki konfliktlarni ochib berish imkonini berdi. Ranglar orqali bolaning psixologik muvozanati, tashqi ta’sirlarga qanday javob berishi aniqlashtirildi. Bass–Darki agressivlik testi esa bolaning agressivlik darajasi, uning turli shakllari (jismoniy, og‘zaki, dushmanlik, passiv agressiya) bo‘yicha tahlil qilindi. Bu test yordamida shaxsdagi yashirin yoki ochiq tajovuzkorlik holatlari baholandi. “Men kimman?” texnikasi (assotsiativ so‘zlar asosida) – bolaning o‘zini qanday tasavvur qilishi, o‘ziga bo‘lgan munosabati, ichki dunyosi va ehtiyojlari haqida ma’lumot olishga yordam berdi. Bu usul bolalarning o‘z-o‘zini anglash darajasini aniqlash uchun ishlatildi. Ravennning rangli progressiv matritsalari – bolaning umumiy intellektual salohiyatini aniqlashda qo‘llanilib, agressiv xatti-harakatning kognitiv asoslari mavjudligini tekshirishda yordam berdi. “Otinish xati” metodi (erkin ifoda testlari) – bolalarga mavhum holatlar berilib, ularning fikr yuritishi, his-tuyg‘ulari va muammolarga munosabati aniqlandi. Test orqali bolalarning ichki dunyosidagi emotsional to‘siqlar va agressiyaning sababli omillari yuzaga chiqdi. Ushbu testlar orqali o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, emotsional holati va xulq-atvordagi agressiv tendensiyalar aniqlandi. Har bir test natijalari chuqur tahlil qilinib, korrektsion mashg‘ulotlar yo‘nalishini belgilashga xizmat qildi. Agressiv xulq-atvorli bolalarni tarbiyalash — bu nafaqat pedagogik, balki chuqur psixologik yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir(4). Ilmiy

tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalar bilan ishlashda shaxsiy xususiyatlar, oilaviy muhit, ijtimoiy ta’sirlar va emotsional ehtiyojlar sinchkovlik bilan tahlil qilinishi lozim. Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, Karl Rojersning gumanistik yondashuvi, bog‘lanish nazariyasi xulq-atvorni mustahkamlash tizimi bu borada amaliy ahamiyatga ega ilmiy asoslar bo‘lib xizmat qiladi(5). Ushbu yondashuvlar bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, ularni integratsiyalashgan holda qo‘llash tarbiya samaradorligini oshiradi. Xususan, agressiv bolalarda ijtimoiy-emosional ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘zini anglashga yordam berish, xavfsiz psixologik muhit yaratish va ijobiy xatti-harakatlarni tizimli ravishda rag‘batlantirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pedagog va ota-onalarning o‘zaro hamkorligi, sabr-toqat va empatiya asosidagi yondashuvi bolaning ichki muvozanatini tiklashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar agressiv xulq-atvorli bolalar bilan ishlashda individual yondashuvni tanlash, diagnostika vositalaridan foydalanish hamda psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarini tizimli ravishda olib borish zarurligini ko‘rsatmoqda. Demak, bunday bolalarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun ilmiy asoslangan, insonparvarlik tamoyillariga tayangan kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Agressiv xulq-atvorli o‘quvchilar bilan ishlashni endi boshlagan psixologlarga yuqorida keltirilgan metodikalarimiz dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Maktab psixologik xizmatining samaradorligini oshirish va uni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4884-sonli Prezident qarori. 2020y.
2. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
3. Rogers, C. R. (1961). On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
4. Abdullaeva, N. (2018). “Agressiv xulq-atvorli bolalarda emotsional muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari”, Psixologiya va hayot jurnali, №2, 45–49-betlar.
5. Erkaboyeva, S. (2021). Agressiv bolalar psixologiyasi: amaliy qo‘llanma. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.

ZAMONAVIY O‘QITUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA TEMPERAMENTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Nazarova Umida Sadridinovna
Profi University Navoiy filialining
“Pedagogika va psixologiya” ta'lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Profi University Navoiy filialining
“Pedagogika va chet tillar” kafedrasi
v.b.dots, PhD Axmedova Dilnoza Eshnazar qizi

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy o‘qituvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish jarayonida temperament xususiyatlarining o‘ziga xos jihatlari hamda har bir temperament turining ijodiy yondashuvga qanday ta’sir qilishi tahlil qilishi, shuningdek, kreativlikni rivojlantirishda individual psixologik xususiyatlarni hisobga olishning amaliy ahamiyati keltirib o‘tilgan.*

Аннотация. *В статье приводится анализ особенностей темперамента в процессе формирования креативного мышления у современных педагогов и того, как каждый тип темперамента влияет на творческий подход, а также практическое значение учета индивидуально-психологических особенностей в развитии креативности.*

Annotation. *The article cites in modern teachers the specifics of temperament characteristics in the process of forming creative thinking, as well as the analysis of how each type of temperament affects the creative approach, as well as the practical importance of taking into account individual psychological characteristics in the development of creativity.*

Kalit so‘zlar: *Kreativ fikrlash, zamonaviy o‘qituvchi, temperament, psixologik xususiyat, individual farqlar, psixologik moslashuv, xolerik, sangvinik, melanxolik, muammoli vaziyatlar, trening, ta’lim metodlari.*

Ключевые слова: *креативное мышление, современный учитель, темперамент, психологическая характеристика, индивидуальные различия, психологическая адаптация, холерик, сангвиник, меланхолик, проблемные ситуации, обучение, методы воспитания.*

Keywords: *creative thinking, modern teacher, temperament, psychological characteristic, individual differences, psychological adaptation, choleric, sanguine, melancholic, problem situations, training, educational methods.*

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim siyosatida ham aynan o‘qituvchi shaxsini kuchli psixologik, axloqiy va kasbiy poydevorga ega etib tarbiyalash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonida: “O‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, ularning kasbiy salohiyatini yuksaltirish, ijodiy va yangicha fikrlaydigan pedagoglarni tayyorlash – ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishidir”, [1] — deya ta’kidlangan. Bundan tashqari XXI asrda ta’lim tizimining zamonaviy talablariga mos o‘qituvchi shaxsini shakllantirish, uning kasbiy mahoratini oshirish va psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu jarayonda zamonaviy o‘qituvchi, kreativ fikrlash va temperament kabi tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogik faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xo‘sh, zamonaviy o‘qituvchi o‘zi kim? Degan savolga biz dastavval to‘xtalib o‘tsak. Zamonaviy o‘qituvchi — bu nafaqat bilim beruvchi **[2]**, balki tarbiyachi, innovator, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanuvchi, o‘z ustida doimiy ishlovchi, kreativ tafakkurga ega, ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuvchan shaxsdir. U o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlovchi va hayotga tayyor avlodni shakllantirishda yetakchi insonlardan biri sanaladi. Bugungi kun o‘qituvchilari kreativ fikrlay olmasalar zamondan ortda qolishi barchamizga kundek ravshan. Shu o‘rinda kreativ fikrlashga ham to‘xtalib o‘tsak. Kreativ fikrlash (ijodiy tafakkur) mavjud bilimlar asosida **[3]** yangicha yondashuv, original g‘oyalar va muqobil yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan intellektual faoliyat turi sifatida qaraladi. Pedagogda kreativ fikrlashning mavjudligi o‘quv jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarni faol ishtirokchi va mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Kreativ o‘qituvchi o‘z fanini interaktiv, qiziqarli va hayotiy misollar bilan boyitadi. O‘qituvchining kreativ fikrlashida uning temperamenti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Temperament o‘qituvchining individual psixik holati **[4]**, tashqi ta’sirlarga bo‘lgan munosabat tezligi, ruhiy barqarorlik darajasi va emotsional reaksiyalar xarakterini belgilovchi psixofiziologik xususiyatlar majmuasidir. O‘qituvchining temperament turlari (xolerik, sangvinik, flegmatik, melankolik) uning sinfdagi o‘zini tutishi, darsni boshqarish uslubi va kreativ faoliyatga yondashuviga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois, zamonaviy o‘qituvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishda

temperamentning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim deb hisobladik. Amaliyotda o‘qituvchilar orasida kreativ fikrlash darajasining turlicha bo‘lishi, temperament xususiyatlari hisobga olinmasligi, ayrim pedagogik metodikalar barcha o‘qituvchilar uchun bir xil tarzda tatbiq etilishi, kutilgan natijaga olib kelmayapti. Xususan, xolerik temperamintida energiyani ko‘p sarflash natijasida charchashga moyillik darajasi oshib borishi va aksariyat hollarda haddan tashqari qattiqqo‘llikni qo‘llashlari o‘zi hamda ulardan ta’lim olayotgan o‘quvchilarning kreativ yondashuviga yetarlicha ta’sir qilmoqda. Melanxolik temperamentiga ega o‘qituvchilar esa muammoli vaziyatlarda tezkor yechimlarni qidirib topaolmasliklari, irodasida sustliklarning mavjudligi ham kreativ fikrlashni susayishiga sabab bo‘lmoqda. Flegmatiklarda esa ceys stadylarni ishlash jarayonida vazminlik va xotirjamlik hamda qo‘zg‘alishdan tormozlanishning nisbatan ustunligi hisobiga kreativlik ularda ham to‘liq rivojlanishi qiyin. Sangviniklarda esa har qanday yangi vaziyatlarga ijobiy moslasha olishi, o‘ziga va fanga nisbatan tanqidiy tafakkurining to‘g‘ri shakllanganligi kreativ fikrlashni qolgan temperamentlarga nisbatan ularda yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Psixologiyada temperament — bu insonning tug‘ma psixofiziologik xususiyatlari **[5]** bo‘lib, asosan nerv tizimi faoliyatining tezligi, kuchi va muvozanatiga bog‘liq. I.P. Pavlov, G. Eyzenk va boshqa olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra **[6]**, temperament turlari to‘rt asosiy turga bo‘linadi:

Xolerik – tezkor, hissiy, energiyali, tashabbuskor, biroq ba’zida sabrsiz va jizzaki. Bunday o‘qituvchilar darsda faollik ko‘rsatadi, ammo boshqaruvda barqarorlik muammolari kuzatilishi mumkin.

Sangvinik – muvozanatli, ijtimoiy, o‘zgaruvchan vaziyatlarga tez moslashadi, ijobiy kayfiyat bilan ajralib turadi. Kreativlikka eng moyil temperament turi hisoblanadi.

Flegmatik – sekin harakat qiladi, lekin barqaror, vazmin, tartibli va ishonchli. Bunday o‘qituvchilar tartib-intizomni yaxshi saqlaydi, biroq yangi g‘oyalarni joriy etishda sust bo‘lishi mumkin.

Melanxolik – sezgir, mulohazali, tashvishga moyil, his-tuyg‘ularga boy. Ularning kuchli tomoni — chuqur tahlil va empatik yondashuv, lekin haddan ortiq xavotirlanish kreativ tashabbusni cheklashi mumkin.

Kreativ fikrlash nafaqat intellektual salohiyat, balki psixologik xususiyatlar — ayniqsa temperament bilan chambarchas bog‘liq. Turli temperament turlarida kreativlik quyidagicha namoyon bo‘ladi: Sangvinik yuqori g‘oyaviylik, tashabbuskorlik e'tiborni uzoq bir predmetga yo‘naltira olishlik bilan; Xolerik o‘rtacha–yuqori energiya, liderlik tez charchash, keskinlik bilan; Flegmatik o‘rtacha barqarorlik, izchillik passivlik, sustlik bilan; Melanxolik past–o‘rtacha tahliliy fikrlash, his qilish o‘ta sezgirlik, xavotir bilan kechishi tadqiqotlarda aniqlangan. O‘qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun ularning temperament xususiyatlarini inobatga olgan holda metodik yondashuvlar qo‘llanishi kerak. Misollar: Xolerik o‘qituvchilar uchun – rolli o‘yinlar, debatlar, loyihaviy ta’lim (project-based learning) kabi faol usullar tavsiya etiladi. Bunda ularga darsda emotsiyalarni boshqarish bo‘yicha treninglarni ham qo‘llash samarali natijalarga olib keladi. Sangviniklar – guruhli ishlarda, ochiq darslarda, startap tipidagi mashg‘ulotlarda o‘zini to‘liq namoyon qilishi mumkin. Ularga tizimlilikni oshirish usullari kerak. Flegmatiklar uchun – aniq rejalashtirilgan, bosqichma-bosqich ijodiy topshiriqlar, mustaqil izlanishga undovchi mashqlar samaralidir. Ularni rag‘batlantirish motivatsiyani oshirish zarur. Melanxoliklar – esse, kompozitsiya, tahliliy yozma ishlarda yuqori natija ko‘rsatadi. Ularga xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish lozim. Misol uchun, bir sinfda dars berayotgan sangvinik temperamentga ega o‘qituvchi har bir mavzuga o‘quvchilarni faol jalb etishga harakat qiladi. U topshiriqlarni o‘yin, muhokama, guruh ishlari shaklida tashkil etadi. Natijada,

o‘quvchilar orasida mustaqil fikrlash va o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etish ko‘nikmalari tez shakllanadi. Aksincha, flegmatik o‘qituvchi mavzuni chuqur yoritadi, lekin metodlar xilma-xilligi yetishmasligi sababli o‘quvchilar faolligida sustlik kuzatiladi. Shu sababli, har bir temperament turining ijobiy jihatlarini hisobga olib, kreativlikni rag‘batlantirish lozim.

Bundan tashqari, zamonaviy o‘qituvchilik faqat bilim berish emas, balki o‘quvchilar tafakkurini ochish, ularni ijtimoiy jihatdan faollikka undash, kreativ fikrlashga yo‘naltirish vazifalarini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa, bevosita o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, psixologik holati va ayniqsa temperamentiga bog‘liq holda shakllanadi. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, temperament pedagog shaxsiyatining barqaror jihati bo‘lib, uning kreativlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Har bir temperament turi o‘ziga xos kuchli va zaif jihatlarga ega. Shuning uchun, o‘qituvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishda yagona yondashuvdan foydalanish samarasiz bo‘lishi mumkin. Aksincha, temperament xususiyatlarini inobatga olgan holda mos metod va texnologiyalarni qo‘llash, har bir pedagogning individual salohiyatini to‘laqonli ochib berishga yordam beradi. Ana shularni hisobga olgan holda biz tomonimizdan quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- O‘qituvchilarning temperament turlarini aniqlash maqsadida psixodiagnostik testlar va psixologik kuzatuvlar muntazam o‘tkazilishi kerak.

- Kreativ fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha treninglar har bir temperament turiga mos tarzda ishlab chiqilishi lozim.

- Ta’lim muassasalarida “kreativ o‘qituvchi profili” ishlab chiqilib, o‘qituvchilar ushbu mezonlar asosida o‘zini baholay olishi uchun metodik qo‘llanmalar yaratilishi zarur. Agarda, ushbu amaliy tavsiyalarga amal qilinsa, o‘qituvchilarni emotsional zo‘riqishdan himoya qilish va psixologik barqarorlikni ta’minlash orqali, ularning kreativ salohiyati ochilishi uchun qulay muhit yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘qituvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish jarayonida temperament omili muhim o‘rin tutadi. Bu bog‘liqlikni chuqur o‘rganish, individual psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish – ta’lim sifatini oshirish va har bir pedagogning kasbiy o‘sishini ta’minlashda muhim qadam hisoblanadi. Kelajakda bu boradagi tadqiqotlar chuqurlashtirilib, amaliy tajribaga joriy etilishi bilan mamlakatimizda innovatsion, fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli o‘qituvchilar safi ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF–5712-sonli Farmon. — 2019-yil 29-aprel.
2. Abduqodirov A.A., Toshpo‘latov A.T. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: “Fan”, 2020.
3. Guilford, J.P. Creativity: Yesterday, Today and Tomorrow. Journal of Creative Behavior, 1967.
4. Karimov B.I. Psixologiya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Zohidov N.H. Temperament va shaxs psixologiyasi. — Toshkent: Ilm ziyo, 2018.
6. Eysenck, H.J. The Structure of Human Personality. — London: Methuen & Co Ltd, 1970.

DIGITAL LEARNING FOR NATIONAL VALUES AND GREEN STARTUP EVALUATION THROUGH TECHNOLOGY

Eshbayev Oybek
Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan

Annotation: *The field of digital education for value transmission is strongly influenced by technological innovation and environmental consciousness. The main objective of the present study was to compare the effectiveness of digital learning systems, specifically the integration of national values and ecological awareness, in entrepreneurial education and in green startup environments due to shifts in digital pedagogy and sustainability goals using regression and correlation analysis, and to propose a model for the measurement of green startup potential and civic identity development using a predictive statistical method. In this study, we established a new method called Tech-Integrated Value Assessment (TIVA) to detect behavioral and cognitive shifts of learners and early-stage entrepreneurs more sensitively and accurately. Based on quantitative outputs and model fit diagnostics, we find that digital immersion, value-centered content design, and technological adaptability have positive influences on green entrepreneurship readiness. Several factors were identified, including platform usability, curriculum coherence, eco-innovation orientation, identity reinforcement, technological fluency, and stakeholder engagement of participants. Real-time tracking and adaptive calibration of the evaluation framework using behavioral indicators and performance metrics (R^2 and Pearson coefficients) to prevent model deviation and overfitting were implemented. The results show that under the multi-level analytical structure, the changes in core motivational strength and ecological values index of the participant groups with different educational backgrounds are all positively–correlated. The hybrid learning and evaluation protocol applied in this study may be useful for further research studies regarding digital civic learning and other sustainability-driven educational models.*

Keywords: *Digital Value Education**,** Green Startup Evaluation**,** Tech-Integrated Value Assessment (TIVA)**,** Civic Identity Development**,** Regression and Correlation Modeling**,** Sustainable Entrepreneurship**,** Hybrid Learning Analytics*

Introduction

Analytical techniques for evaluating green startups and digital learning outcomes have accrued from innumerable interdisciplinary frameworks and empirical investigations over the past two decades. Prior studies examined the behavioral and technological characteristics through mixed-method designs and measured the relationship between digital learning adoption and value internalization by using regression analysis and correlation mapping technology and then compared the results of temporal trend, regional disparity, and demographic segmentation analysis [1,2,3].

Interest in this research domain continues to expand. It is a favorable landscape for cross-sector exploration, but the problems of technological inequality and digital divide and severe underfunding are common in the educational and entrepreneurial sectors, which is not conducive to the development of inclusive innovation [4]. The burden of digital exclusion from underrepresented populations is challenged not only by the increasing number of affected regions but also by the difficulties to recognize the affected demographic groups.

It is an important topic to reveal the structural enablers to improve the intention to use digital platforms for sustainable entrepreneurship. As long as it can break through to form measurable digital

engagement pathways, it will certainly alleviate economic participation tensions and have important societal and economic implications to sustainable development goals. Scholars at home and abroad have done a lot of research on the influence of cultural learning and digital adaptation characteristics. In past fifteen years, there were many studies which were concentrated in higher education settings, while university-based pilot programs occupied a main position, followed by community-driven initiatives, vocational platforms, and youth empowerment models [5].

In contrast, value dissonance occurs more frequently in informal learning contexts than in formal curricula with divergent levels of cultural alignment and technological penetration, respectively across regions. First, one major stream of existing studies explores the impact of various pedagogical approaches on startup readiness, for example, exploring the roles of national identity and digital literacy in the design of education-oriented entrepreneurial ecosystems.

The development of digital value education in startup incubation programs started late, and most of the researches are limited to the usability and motivational characteristics, and there is insufficient research on the cognitive reinforcement and long-term failure mechanism of digital engagement materials at the individual learner level. Since the sensitivity and specificity of conventional learning assessments are not satisfactory, a modification is needed to enhance predictive validity [6].

However, regression-based evaluation frameworks are relatively novel to educational outcome tracking and startup capacity measurement. The study of the response mechanism of digital learning is of great significance to the evaluation of moral learning outcomes and the development of eco-conscious enterprises. Therefore, the aim of this investigation was to compare the predictive parameters of the educational and entrepreneurial data, specifically the national value retention and green startup viability, using regression correlation modeling, in both digitally equipped institutions and failed startup ventures due to misalignment in digital infrastructure.

In this study, a dual-path analytical method for behavioral correlation detection has been established in order to provide a more accurate technique for the measurement of value-based learning in data-rich environments. The regression model was of specific interest due to the strong evidence of structural coherence of the evaluation constructs in detection of learning outcomes and its correlation with startup resilience and digital accessibility. Though, at present, longitudinal consistency and model interpretation are still having many limitations, it seems reasonable to develop methods and algorithms that can assess a broad spectrum of learning outcomes at an affordable price to allocate further attention to those who are in need of targeted capacity-building care systems. By doing so, we contribute to the emerging area of digital transformation and further improve the understanding of learner readiness to accept hybrid educational technologies.

We conduct statistical modeling in many institutional and entrepreneurial contexts and investigate the factors influencing the acceptance of digital value formation tools. Survey-based, performance-driven, and system-generated data are gathered and compared with corresponding high-definition correlation matrices to test for comparison and possible validity, while the cost-benefits of such implementations are shown as well through benchmark analysis. Another proposal of this study is to develop a scalable protocol for the real-time evaluation of eco-startups using digital regression analytics [4,5].

The cumulative number of data observations in the comparative datasets was calculated by the statistical method of normal distribution fitting procedures. The behavioral properties and motivational mechanism of the participants at the intervention stage are studied, and the variance in predictive accuracy is analyzed [6]. Also, the findings are beneficial for policy designers to provide

relative guidelines to support the development of digitally integrated value education and startup evaluation programs.

Results

Table 1 shows the results of the linear regression analysis analyzed and the statistical measurements of the green startup readiness, value alignment, and ecological literacy dimensions, including standard errors, coefficients, and significance levels of independent and dependent variables. The R-squared value and the F-test outcome show a similar trend.

Table 1. Linear regression

green_startup_score	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
policy_adaptabilit~e	.036	.04	0.89	0.379	-.045	.117	
institutional_supp~g	.024	.04	0.49	0.626	-.068	.111	
technological_expo~l	.319	.06	5.31	0.000	.198	.441	***
startup_viabilit~x	-.016	.038	-0.43	0.669	-.093	.061	
eco_literacy_score	.325	.056	5.82	0.000	.213	.438	***
digital_value_alig~t	.371	.061	6.05	0.000	.237	.504	***
Constant	-4.855	7.209	-0.67	0.504	-19.394	9.684	
Mean dependent var	53.282		SD dependent var		7.019		
R-squared	0.736		Number of obs		50		
F-test	19.987		Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)	283.144		Bayesian crit. (BIC)		296.528		

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

What is more, there is a moderately strong positive relationship between the regression coefficients from eco_literacy_score to green_startup_score and the number of significant predictor variables (technological_exposure_level and digital_value_alignment). The eco_literacy_score was found to show the highest explanatory power for the dependent outcome and was used to further select the benchmark metrics to be processed with the TIVA-based protocol. Therefore, above results demonstrated that the contribution strength of digital_value_alignment is 1.14 times higher than that of technological_exposure_level and 2.07 times higher than that of eco_literacy_score.

Table 2. Pairwise correlations

Variables	(	(	(	(	(	(	(

	1)	2)	3)	4)	5)	6)	7)
(1) digital_value_~t	1.000						
(2) eco_literacy_s~e	0.110	1.000					
(3) startup_viabil~x	-0.126	-0.231	1.000				
(4) technological_~l	0.107	-0.173	0.054	1.000			
(5) institutional_~g	0.333*	0.159	0.173	-0.027	1.000		
(6) policy_adaptab~e	0.227	0.065	-0.008	-0.267	0.300*	1.000	
(7) green_startup_~e	0.631*	0.470*	-0.179	0.392*	0.136	0.115	1.000

**** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1*

Table 2 presents pairwise correlation test data at different parameter interaction levels. Splitting of the correlation matrix in the independent variable cluster (*institutional_support_rating*, etc.) and obtaining cross-variable associations between the predictor sets resulted in the green_startup_score showing strong coherence when analyzed by Pearson coefficients as the statistical significance levels shown in the same column. Comparison of the variance contributions of the predictive indicators obtained by TIVA calibration in the different subdomains of entrepreneurship education and value-driven startup ecosystems due to educational background differences.

According to the above analysis, the learner-response mechanism is closely related to the digital adaptability factor [4,5,6]. It is important to emphasize that, when the model calibration parameters were applied, the normality assumption was confirmed; thus, the sample was reliable for predictive inference. The possible reason is that performance metrics collected from digitally active respondents are normally distributed. The review of split subgroup performance curves concluded that the TIVA framework retained better information (*lower error margins*).

When eco_literacy_score = 70, the predictive function showed a model fit value of 0.736; when the value alignment score exceeded 65, the startup readiness prediction sharply increased and finally showed an asymptotic trend. However, when applied to the misaligned digital platforms and the non-performing ventures (*institutional support lacking*), the regression pathway offered a less-obstructed view of the low-engagement region of the coefficient map compared to the traditional assessment model. Therefore, institutional support, although intuitively assumed to be positively related to green startup scores, is not supported by empirical findings.

The inner error bars indicate the standard deviation margins, and the outer limits show the total distribution spread of replicates. A TIVA-based predictive loop includes value measurement vectors and digital readiness indexes of the participants, followed by statistical learning iteration; for comparison, the corresponding fit indicators obtained by baseline linear regression is shown.

Conclusion

Performing a regression-based diagnostic in an educational-entrepreneurial setting has high data integrity, model calibration, and resource allocation requirements, thus not suitable for institutions already lacking technical infrastructure.

The inclination of digital engagement patterns has significant influence on the predictive accuracy of behavioral-cognitive properties of learners and entrepreneurs. In this study, the TIVA method established for the evaluation of green startup potential in value-based learning environments confirmed the best model fit and statistical coherence, which also showed a higher diagnostic sensitivity than conventional survey-only or static correlation methods.

Theoretical implications and practical policy implications were revealed on the basis of multivariate modeling results. According to their behavioral trajectories, the engagement-response modes of participants under digital value learning conditions can be divided into four types: accelerator-type (high motivation, high literacy), linear-type (steady growth), inverted U-type (fluctuating interest, moderate coherence), and inverted V-type (early enthusiasm, rapid decline). While the tools for longitudinal studies must be improved in terms of their adaptive capability and contextual sensitivity, the field of digital civic education is experiencing a real technological inflection point with the use of AI-supported evaluation frameworks.

Nevertheless, correlative analysis of startup readiness indicators can be useful for future implications. In our dataset, it was not possible to obtain information regarding the type of digital platform used; this may be an interesting venue for future comparative investigations. Perhaps the ideal focus for the study of value-centered digital learning is not to look at the surface-level metrics but instead at the dynamic alignment of the individual learning pathways.

REFERENCES

1. Cocu, A., Pecheanu, E., Susnea, I., Dingli, S., Istrate, A., & Tudorie, C. (2025). Technology-Enabled Learning for Green and Sustainable Entrepreneurship Education. Administrative Sciences, 15(2), 45.
2. Ninčević Pašalić, I., Ćukušić, M., & Najev Čačija, L. (2025). Evaluating upskilling tools for digital, green, and entrepreneurial competences: A multicriteria approach to advancing Europe’s green and digital transition. Croatian Operational Research Review, 16(2), 0-0.
3. Oliveira, A. Y., Mendes, J. A. J., Zanon, L. G., Gerolamo, M. C., & Zuin Zeidler, V. G. (2025). Sustainable Development: Prioritizing Attributes and Validating Factors for the Success of Green Startups in Brazilian and German Entrepreneurial Ecosystems. Business Strategy & Development, 8(1), e70083.
4. Jorzik, P., Antonio, J. L., Kanbach, D. K., Kallmuenzer, A., & Kraus, S. (2024). Sowing the seeds for sustainability: A business model innovation perspective on artificial intelligence in green technology startups. Technological forecasting and social change, 208, 123653.
5. Passaro, R., Quinto, I., Rippa, P., & Thomas, A. (2020). Evolution of collaborative networks supporting startup sustainability: evidences from digital firms. Sustainability, 12(22), 9437.
6. Gidron, B., Israel-Cohen, Y., Bar, K., Silberstein, D., Lustig, M., & Kandel, D. (2021). Impact tech startups: a conceptual framework, machine-learning-based methodology and future research directions. Sustainability, 13(18), 10048.

"ТАРБИЯ" ФАНИ ЎҚУВ ДАСТУРИНИ ТУЗИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ

Хафизов Санжар Акрамович
Ориентал Университети, доцент в.б.

Аннотация. *Мақолада "Тарбия" фанининг ўқув дастурини тузишнинг назарий ва услубий асослари кўриб чиқилади. Муаллиф ўқувчиларнинг ижтимоий, ахлоқий, ҳиссий (эмоционал) ва маданий компетенцияларини ривожлантиришга қаратилган дастурни лойиҳалашда тизимли ёндашувни таклиф қилади. Халқаро ва маҳаллий тажрибалар таҳлил қилиниб, ўқитиш мазмуни ва услубларини ишлаб чиқишда фаолиятга асосланган, маданий, тарихий ва когнитив ёндашувларнинг аҳамияти таъкидланади. Таълим жараёнини амалга оширишнинг марказий механизмлари сифатида форматив баҳолаш, лойиҳа фаолияти ва педагогик рефлексиядан фойдаланиш зарурати асосланади. Назарий асос сифатида Ж.Дюи, Л.С.Виготский, Ф. Мустад, шунингдек, бошланғич ва умумий ўртатаълим педагогикаси, психология ва нейропсихология соҳасидаги замонавий тадқиқотлардан олинган. Замонавий тарбия дастури яхлитлик, маданий бағрикенглик ва бола шахсини ривожлантириш тамойиллари асосида қурилиши, шунингдек, натижаларни баҳолашнинг мослашувчан, илмий асосланган тизимига эга бўлиши керак деган хулосага келинди.*

Калит сўзлар*: тарбия, ўқув дастури, педагогика, қадриятларни ривожлантириш, шахсга йўналтирилган ёндашув, маданий-тарихий тажриба, форматив баҳолаш, ижтимоий ва ахлоқий компетенциялар, таълим муҳити, методология.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы построения учебной программы по предмету «Воспитание». Автор предлагает системный подход к проектированию программы, ориентированный на развитие социально-нравственных, эмоциональных и культурных компетенций учащихся. Анализируются международные и отечественные практики, подчёркивается значимость деятельностного, культурно-исторического и когнитивного подходов в формировании содержания и методов преподавания. Обосновывается необходимость использования формирующего оценивания, проектной деятельности и педагогической рефлексии как центральных механизмов реализации воспитательного процесса. В качестве теоретической базы используются работы Дж. Дьюи, Л. С. Выготского, Ф. Мустада, а также современные исследования в области педагогики раннего и общего образования, психологии и нейропсихологии. Делается вывод о том, что современная программа по воспитанию должна строиться на принципах целостности, культурной чувствительности и личностной включённости, а также обладать гибкой, научно обоснованной системой оценки результатов.*

Ключевые слова: *нравственное воспитание, педагогика, психология, личность, ценности, социальная среда, семья, школа*

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations for constructing a curriculum for the subject "Education". The author proposes a systematic approach to program design aimed at developing students' social, moral, emotional and cultural competencies. International and domestic practices are analyzed, the importance of activity-based, cultural, historical and cognitive approaches in developing the content and methods of teaching is emphasized. The need to use formative assessment, project activities and pedagogical reflection as central mechanisms for implementing the educational process is substantiated. The theoretical basis is based*

on the works of J. Dewey, L.S. Vygotsky, F. Mustad, as well as modern research in the field of early and general education pedagogy, psychology and neuropsychology. It is concluded that a modern educational program should be built on the principles of integrity, cultural sensitivity and personal involvement, and also have a flexible, scientifically based system for assessing results.

***Key words**: moral education, pedagogy, psychology, personality, values, social environment, family, school.*

Кириш

Замонавий жамият жадал ижтимоий, маданий ва технологик ўзгаришлар шароитида шахсий ва ижтимоий ривожланиш асосларига таъсир қилувчи жиддий муаммоларга дуч келмоқда. Инсон маънавий-маданий қиёфасининг асосий таркибий қисми сифатидаги маънавият ва ахлоқ муаммоси энг долзарб масалалардан бирига айланмоқда. Шу муносабат билан маънавий ва ахлоқий тарбиянинг ёш авлодда барқарор маънавий ва ахлоқий ғоялар, қадрият йўналишлари ва яхши хулқ-атворни шакллантиришга қаратилган мақсадли педагогик-психологик жараён сифатида аҳамияти ортиб бормоқда.

Маънавий ва ахлоқий тарбия умумий ижтимоийлашув жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, ўз ҳулқ-атворига оид онгли равишдаги масъулияти ва атроф олам билан инсоний муносабатда бўлишга қодир шахсни шакллантиришда асосий роль ўйнайди. Оммавий маданият, рақамли муҳит ва ижтимоий тармоқларнинг ёш авлодга бузғунчи таъсири шароитида ахлоқни шакллантириш соҳасида онгли ва илмий асосланган педагогик фаолият олиб бориш зарурати бугунги кунда айниқса долзарб бўлиб бормоқда.

Маънавий ва ахлоқий тарбиянинг педагогик жиҳатлари тарбиявий фаолиятнинг мақсадлари, вазифалари, усуллари, шакллари ва воситаларини ишлаб чиқиш, шунингдек, таълим жараёнининг барча иштирокчилари ўртасидаги педагогик ҳамкорликни ташкил этишни ўз ичига олади. Ўз навбатида, психологик жиҳатлар шахснинг ахлоқий фазилатларини шакллантиришнинг ички механизмларини чуқурроқ тушунишга, ахлоқий меъёрларни идрок этиш ва ўзлаштиришнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини аниқлашга, ўқувчиларнинг ахлоқий онгига самарали таъсир кўрсатишнинг психологик шартларини аниқлашга имкон беради.

Асрлар давомида маънавий ва ахлоқий тарбия файласуфлар, педагоглар, психологлар асарларида инсон ва жамиятнинг уйғун ривожланишининг асоси сифатида қаралиб келинган. Суқрот, Афлотун, Руссо, Коменский, Песталоцци, Ушинский, Макаренко, Дьюи асарларида ахлоқни шакллантиришга яхлит ва тизимли ёндашиш муҳимлиги таъкидланган. Замонавий илм-фанда ушбу муаммога қизиқиш доимий равишда юқори бўлиб қолмоқда, бу маънавий ва ахлоқий тарбиянинг мазмуни ва усулларига, турли хил ижтимоий ва тарбиявий шароитларда унинг самарадорлигига бағишланган кўплаб тадқиқотлардан далолат беради.

Кейинги йилларда маънавий ва ахлоқий тарбия муаммосига педагогик ва психологик ёндашувларни интеграциялашувига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бундай фанлараро ёндашув ҳам таълим ва тарбиянинг объектив қонуниятларига, ҳам ўқувчиларнинг психик ривожланишининг субъектив хусусиятларига таянган ҳолда, маънавий ва ахлоқий шахсни шакллантириш муаммоларини тўлиқроқ ва етарлича ҳал этиш имконини беради. Шу нуқтаи назардан, шахснинг маънавий ва ахлоқий ривожланиши жараёнининг нафақат когнитив ва хулқ-атворий, балки ҳиссий-қадриятларни ҳам ҳисобга олиш зарур.

Ушбу тадқиқотнинг мақсади маънавий ва ахлоқий тарбиянинг педагогик-психологик жиҳатларини ҳар томонлама таҳлил қилиш, уларнинг алоқадорлигини, хусусиятлари ва

замонавий таълим муҳити учун амалий аҳамиятини аниқлашдан иборат. Ушбу мақолада "маънавий тарбия", "ахлоқий тарбия", "ахлоқий қадриятлар", "ахлоқий онг" тушунчаларининг мазмуни кўриб чиқилади; ахлоқий тарбия усулларини таснифлашга ёндашувлар тақдим этилади; ўқувчилар томонидан ахлоқий меъёрлар ва қадриятларни идрок этишнинг ёш ва индивидуал хусусиятлари таҳлил қилинади. Шунингдек, таълимни рақамлаштириш ва ижтимоий муҳит ўзгариши шароитида маънавий-ахлоқий муносабатларни шакллантириш муаммоларига алоҳида эътибор қаратилади.

Турли мамлакатлардаги маънавий ва ахлоқий тарбияга оид ўқув дастурларини таққослаш: маданиятлараро ва институционал таҳлил

Маънавий ва ахлоқий тарбия анъанавий равишда дунёнинг кўплаб мамлакатларида таълим тизимининг асосий таркибий қисми ҳисобланади, аммо унинг концептуал асослари ва амалга ошириш усуллари маданий қадриятлар, тарихий ва сиёсий контекстлар ва таълим анъаналарини акс эттирувчи турли омиллардан келиб чиқиб сезиларли даражада фарқланади. Қиёсий таққосламалар асосида турли мамлакатларда қандай маънавий ва ахлоқий қадриятларга урғу берилиши ва уларнинг таълим жараёнига қандай татбиқ этилиши билан боғлиқ ўхшашлик ва фундаментал фарқларни қуйидагича кузатишимиз мумкин.

Турли мамлакатлар ўқув дастурини таққослаганимизда алоҳида эътиборни Хитой Халқ Республикаси ва Америка Қўшма Штатларининг тарбия тизимларига қаратдик. Уань Цуньсин (Bill Wang, 2010) тадқиқотига кўра, Хитойда ахлоқий тарбия тизими "янгиланган авлод"ни социалистик қадриятлар: ватанпарварлик, коллективизм, интизом руҳида тарбиялашга қаратилган. Дастурлар давлат буюртмаси ва қарори асосида тузилган бўлиб, давлат мафкураси ва мактаб ўқувчиларининг маънавий-ахлоқий фазилатлари ўртасида воситачи бўлган «мафкуравий-сиёсий дастурларни» мажбурий ўрганишни ўз ичига олади.

АҚШда, аксинча, тарбия тизими номарказсизлаштириш, "яширин ўқув дастури" (“hidden curriculum”) ва фуқаролик ва жамоат ташкилотлари иштирокига урғу бериш билан тавсифланади. Шундай қилиб, 2000 йилларнинг бошидан бошлаб, лидерликка урғу берувчи ва характерни шакллантиришга қаратилган дастур шакллантирилди, уни асосан Character Education Partnership каби ҳамкор ташкилотлар иштирокида амалга оширилади, ахлоқий тарбия марказлаштирилган курс сифатида эмас, балки умумий таълим жараёнининг бир қисми сифатида жорий этилган.

Ҳудди шундай ёндашув асосида Хитой университет дастурларини Германия олий таълимдаги тарбия дастурлари билан солиштирганимизда Лечанг Ванг (2019) тадқиқоти шуни кўрсатадики, Хитой алоҳида мажбурий умумий тарбия курсларидан, шу жумладан “мафкуравий ўзак”дан фойдаланади, Германия эса ахлоқий тарбияни ихтисослаштирилган фанларда фанлараро интеграция орқали амалга оширади. Бизнингча, иккала моделнинг кучли томонларини синтез қилиш ғоясини қўллаб-қувватлаш – талабаларнинг ҳар томонлама ахлоқий тайёргарлигини шакллантириш учун тизимли (Хитой) ёндашувни интегратив (Германия, АҚШ) ёндашув билан бирлаштириш яхши натижаларга сабаб бўлади.

Бундан ташқари, БМТ томонидан илгари сурилган “барқарор ривожланиш” дастури доирасида ўтказилган Хитой ва Покистонда ахлоқий тарбиянинг қиёсий таҳлили ўқитувчиларнинг мафкуравий муносабатларидаги фарқларни кўрсатиб берди: хитойлик ўқитувчилар социалистик қадриятларга, марксизм-ленинизм ва ватанпарварликка, покистонлик ўқитувчилар эса асосий эътиборни ахлоқнинг диний асосларига, конституциявий садоқат ва жамиятга хизмат қилишга қаратишади.

Шунингдек, минтақавий тадқиқотларга таянадиган бўлсак, маданий фарқларни ҳамда ўзига хосликни кўришимиз мумкин бўлади. Жануби-Шарқий Осиёда Индонезия ва Япония ўртасида ўзига хос контрастни кўришимиз мумкин: индонезиялик ўқитувчилар кўпинча ахлоқий сифат ва фазилатларни назарий материаллар билан шакллантиришга уринадилар, япон ўқитувчилари эса амалий фаолиятлар ва реал вазиятлар (кейслар) орқали ахлоқий меъёрларни амалиётга йўналтирилган тарзда амалга оширишни афзал кўрадилар. Тейлорнинг (1993) фикрига кўра Европа мамлакатлари мактаб ўқув дастурларига ахлоқий тарбия киритилган бўлиб, уни амалга ошириш шакли турлича: Австрия, Буюк Британия ва Словенияда мос равишда "ахлоқ", "этика" ва "фуқаролик маданият" ўқитилади ҳамда таълимий ёндашувлар марказлаштирилган ва ихтиёрий бўлиши мумкин. Ингелҳарт ва Вельцелга (World Values Survey) кўра марказлашган ҳолда мафкурани сингдиришга қаратилган мамлакатларда “дин, оилавий қадриятлар ва ҳокимиятга ҳурмат” масалаларига катта эътибор қаратилади, "дунёвий" қарашлар устувор мамлакатларда эса “шахс автономияси ва эркин фуқаролик”ка урғу берилади.

Тадқиқотлар ичида жуда ҳам қизиқ ҳолат аниқландики, ахлоқ психологиясидаги тадқиқотлар (хусусан, Жан Децети) маданий контекстдан қатъи назар, жамиятда индивидуализм ёки коллективизм ғоясининг қай даражада устувор бўлиши аҳлоқий ривожланиш суръатларига ва жамиятнинг моддий ва номоддий ресурсларини эквивалент тақсимлаш тенденциясига таъсир қилади. Бундай ҳолат тарбия дастурларида ҳам ўз аксини топмоқда: коллективистик маданият устувор бўлган жамиятларда уйғунлик (harmony) ва ижтимоий жипсликка урғу берилади, индивидуалистик маданиятларда эса адолат ва шахсий масъулиятни устувор билишади.

Хитой, АҚШ, Германия, Япония, Покистон ва Европа давлатларининг таълим тизимлари ахлоқий тарбия аҳамиятининг муҳимлигини тан олишсада, уларнинг тарбия мақсадлари, усуллари ва амалга ошириш шакллари бир-биридан сезиларли даражада фарқланади. Хитой ва Америка Қўшма Штатларининг тарбия ғоялари тамомила қарама-қарши моделларга асосланган – марказлаштирилган мафкуравий тарбия моделидан номарказлашган фаол фуқаролик тарбия моделигача. Гибрид ёндашувлар Европа мамлакатларида кузатилади. Жануби-Шарқий Осиёнинг ёндашуви назария ва амалиётнинг уйғунлигига асосланган.

Ушбу кузатувлар шуни кўрсатадики, марказлашган мафкуравий дастурлар ҳамда жамиятнинг маданий-тарихий анъаналарига асосланган интегратив, амалий фаолиятга йўналтирилган усулларнинг адаптив комбинацияси орқалигина самарали ахлоқий тарбия ўқув дастурларини яратиш мумкин.

«Тарбия» фани бўйича ўқув дастурларни яратиш: назарий-услубий асослар ва амалий тадбиқ

Замонавий таълим тизими ҳам ижтимоий ва маданий муҳитдаги ўзгаришлар, ҳам ёш авлоднинг шахсий, ахлоқий ва фуқаролик фазилат ва сифатларини шакллантириш билан боғлиқ глобал муаммолар туфайли жиддий ўзгаришларни бошдан кечирмоқда. Шу сабабли, “Тарбия” фанининг ўқув дастурини, мазмунини, услубиёти ва баҳолаш тизимларини ишлаб чиқиш айниқса долзарбдир. Тарбия масаласи доимо педагогик жараённинг ажралмас қисми ва асосий масалаларидан бўлиб келган, аммо ҳозирги замон шароитида уни тизимлаштириш ва уни тўлақонли ўқув предмети сифатида шакллантириш нафақат чуқур назарий ва услубий ёндашувни, балки унинг мазмуни ва услубиётини амалий жиҳатдан конкретлаштиришни ҳам талаб этмоқда.

Аввало, "тарбия" тушунчасининг муҳим хусусиятларини аниқлаштириб олиш лозим бўлади. Педагогика фанида тарбия деганда ўқувчиларда ахлоқий, фуқаролик, меҳнат, эстетик ва бошқа ижтимоий фазилатларни шакллантиришга қаратилган мақсадли, ташкилий жараён тушунилади. Бу нафақат қадриятлар ва меъёрларни бедгилашни, балки уларни ўзида англаш, қабул қилиш ва амалда қўллаш қобилиятини ривожлантиришни ҳам ўз ичига олади. Шундай қилиб, тарбия нафақат таъсир, балки ҳамкорлик, ўқитувчи ва ўқувчининг қадриятларни онгли равишда танлашга қаратилган биргаликдаги фаолиятидир.

«Тарбия» фанининг ўқув дастурини яратиш тарбиянинг инсонпарварлик парадигмасига асосланган яхлит услубий ёндашувга таянишни тақозо этади. Бу шахснинг устуворлигини, унинг ички дунёсини, ўзига хослигини ва ўзини ўзи ривожлантириш қобилиятини назарда тутади. Мазкур контекстда тарбия аҳлоқий ва ижтимоий меъёрларнинг директив тарзда уқтиришга ва “уларни ўқувчи онгига сингдиришга” эмас, балки ўзаро диалог, эмпатия, ишонч ва шахсий намунага асосига қурилган илмий асосланган ўқув жараёнига айланишини тақозо этади.

«Тарбия» дастурининг мазмуни шахс камолотининг турли жиҳатларини: ахлоқий, ватанпарварлик, экологик, меҳнат, эстетик, ҳуқуқий ва маданиятлараро тарбияни бирлаштириши лозим. Шу билан бирга, бу фақат тематик блоклар тўплами бўлиб қолмаслиги керак. Бундан келиб чиқадиган асосий вазифа ўқувчиларда замонавий талабларга жавоб берадиган ва айни пайтда миллий маданий анъаналардан илдиз отган дунёқараш, барқарор муносабат ва қадрият йўналишларини шакллантириш имконини берадиган яхлит тизим яратишдан иборат бўлишига эришишимиз лозим бўлади.

Яна бир жиддий вазифа – ўқув дастурининг мақсадларини аниқлаштириш. Улар умумий натижа даражасида – масалан, ўз тақдирини ўзи белгилашга ва ижтимоий фаолликка қодир бўлган ахлоқий етук, масъулиятли шахсни шакллантириш – ва ўқувчиларнинг ёши ва психологик хусусиятларига мос келадиган аниқ, ўлчанадиган мақсадлар даражасида шакллантирилиши керак. Масалан, бошланғич мактаб ёшида асосий эътибор ўз-ўзини тартибга солиш, эмпатия ва адолат туйғусининг асосий кўникмаларини шакллантиришга қаратилиши мумкин, юқори синфларда эса – танқидий фикрлашни ривожлантириш, ахлоқий танлов қилиш қобилияти, келажакка мазмунли муносабат ва фуқаролик жавобгарлиги.

Дастурнинг услубий компоненти алоҳида эътибор талаб қилади. Тарбия фақат анъанавий маъруза шаклларидан фойдаланган ҳолда самарали бўлиши мумкин эмас, чунки у ўқувчиларни нафақат қадриятларни ўрганишни, балки ушбу қадриятларни ўзидан ўтказиш имконини берадиган фаолиятга фаол жалб қилувчи ёндашувлар асосига қурилган таълимий жараён ҳисобланади. Бунда интерфаол, лойиҳавий, ўйинли, муаммоли, тадқиқотчилик ва рефлексив ўқитиш усулларига устувор аҳамият берилади.

Бу борада ушбу дастурни амалга оширувчи ўқитувчининг шахсиятини инобатга олиш ҳам ўта муҳим масалалардан ҳисобланади. У нафақат билим ташувчи сифатида, балки шахсий намуна ва ибрат сифатида ҳам фаолият олиб боради. Бунинг учун ўқитувчидан юксак касбий ва ахлоқий маданият, эмпатия, педагогик такт ва мулоҳаза юритиш қобилияти талаб этилади. Шунинг учун дастурни ишлаб чиқишда ўқитувчиларни тайёрлаш ва қўллаб-қувватлаш, уларни услубий таъминлаш ва малакасини ошириш бўйича таклифлар ҳам киритилиши керак.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш керакки, дастурни амалга оширишда минтақавий ва маданий хусусиятларни ҳисобга олиш лозим. Дастурнинг универсал асоси тарбия амалга ошириладиган ижтимоий-маданий контекстнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи

маҳаллий элементлар билан тўлдирилиши муҳим ҳисобланади. Бу, айниқса, ўзликни шакллантириш тарихий ва маданий мерос билан чамбарчас боғлиқ бўлган ватанпарварлик ва маданий тарбия каби соҳалар учун жуда муҳимдир.

Дастурни амалга ошириш самарадорлигини ўқув ишлари натижаларини мониторинг қилиш ва баҳолаш механизмларини ишлаб чиқмасдан туриб баҳолаш мумкин эмас. Бироқ, ташқи баҳолаш ва расмийлаштирилган кўрсаткичларга асосланган анъанавий ёндашувлар кўпинча етарли эмас ёки ҳатто самарасиздир. Шу муносабат билан сифатли педагогик диагностика, ўз-ўзини баҳолаш, портфолио усулларидан фойдаланиш, шунингдек, баҳолаш жараёнига ўқувчиларнинг ўзлари ва уларнинг ота-оналарини ўқув жараёнининг фаол иштирокчиси сифатида киритиш мақсадга мувофиқдир.

Демак, “Тарбия” фани бўйича ўқув дастурини ишлаб чиқиш кўп қиррали ва мураккаб вазифа бўлиб, у нафақат илмий асосланганликни, балки комплекс ёндашувни ҳам талаб қилади. Бундай дастурнинг асосини ахлоқий мулоҳазалар, ижтимоий фаоллик ва атроф олам билан инсоний муносабатда бўлишга қодир бўлган яхлит, масъулиятли ва етук шахсни шакллантириш ғояси ташкил этиши керак. Тизимли ёндашув, фанлараро интеграция ва ҳар бир ўқувчининг индивидуаллигини эътиборга олган ҳолдагина замонавий жамият эҳтиёжларига жавоб берадиган самарали тарбия тизимини яратиш мумкин.

“Тарбия” фанидан ўқув дастури ва мазмуни

“Тарбия” фанининг ўқув дастури тарбия мазмуни, тарбия жараёни ва педагогик технологияларни ўзида мужассам этган, илмий асосланган ва комплекс ёндашувни талаб этувчи мураккаб интеллектуал конструкциядир. Бу шунчаки расмий ҳужжат эмас, балки ижтимоий, маданий ва психологик муҳит билан белгиланадиган тарбиянинг чуқур мақсадларини акс эттирувчи тизимли ҳужжатдир. Бундай ёндашувнинг асосий мақсади стандартларга расмий мувофиқликни таъминлаш эмас, балки ўқувчиларнинг ижтимоий, ҳиссий ва ахлоқий қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам берадиган тарбия муҳитини яратиш деб қаралиши керак. Халқаро амалиётда, масалан, АҚШнинг “Мактабгача таълим миллий Ассоциацияси”нинг (NAEYC) услубий тавсияларида ўқув дастурлари “пухта режалаштирилган, бола шахсини ривожлантиришга, маданий ва хилма-хилликни инобатга олувчи, тўлиқ ва ижобий натижаларга эришишга йўналтирилган бўлиши керак”лиги таъкидланган. Демак, “Тарбия” мазмуни нафақат ахлоқ ва этика ҳақидаги билимларни, балки ўз-ўзини бошқара олиш, эмпатия ва ижтимоий-маданий ўзига хосликни ривожлантиришни ўз ичига олиши керак. Ўқув дастурининг тузилиши ҳақида гап кетганда, унинг ўзаро боғлиқ бўлган тарбия мақсади ва вазифалари, мазмуни, амалга ошириш усуллари, ўқитиш шакллари ва баҳолаш тизими каби таркибий қисмларидан иборат эканлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Канаданинг Онтарио штати қабул қилган "How Does Learning Happen?" ҳужжатида баён этилган ёндашув тўртта таянч тушунчаларга асосланган: тегишлилик ҳисси, шахсий фаровонлик, фаол иштирок этиш ва ўзини намоён қилиш.

Юқорида баён этилган фикрлар асосида мамлакатимиз таълим тизимига киритилган “Тарбия” фани мазмуни “Аҳлоқ ва характер”, “Шахс ва жамият”, “Миллий ва маданий ўзига хослик”, “Фуқаролик қадриятлари” каби таянч категорияларга асосланиши лозим деб ҳисоблаймиз.

“Тарбия” дастурининг методологик асосини амалий фаолиятга асосланган, маданий-тарихий ва когнитив-педагогик ёндашувларни акс эттирувчи педагогик ёндашувлар ташкил этиши керак. Siraj-Blatchford и Wiggins & McTighe тадқиқотлари шуни кўрсатадики, ўқув

жараёни болани ривожлантирувчи усуллар, кузатиш усуллари, эришилган натижаларни ва ютуқларни қайд этиш ва ўз-ўзини баҳолаш воситалари билан йўғрилган бўлиши керак.

Бундай ёндашув ўқув дастурига портфолио, кундалик кузатувлар, гуруҳ муҳокамалари ва лойиҳалар каби педагогик усулларни жорий этишни назарда тутади – буларнинг барчаси эса нафақат билимларга эга бўлишга, балки шахсий сифатларнинг ўсиши ва ижтимоийлашувга ёрдам беради.

"Тарбия" фани ўқув дастурининг самарадорлигини баҳолаш ва унга тегишли ўзгартиришлар киритиб бориш механизмларини ўйлаб кўриш жуда муҳимдир. Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, ўқувчиларнинг маданий контексти, ёши ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ташкил этилган расмий ва норасмий баҳолашни жорий этиш зарур. Бундай баҳолаш тизими ўқув дастурини деклоратив мажмуадан мониторинг ва узлуксиз ривожланиш воситасига айлантиради.

Дастур ҳужжатлари ишончли илмий-назарий ва илмий-амалий асослар ёрдамида яратилиши лозим. Асосий манбалар орасида анъанавий равишда Дюи, Виготский ва Хантал асарларини ўз ичига олган адабиётларни, шунингдек, тарбия назарияси соҳасидаги замонавий тадқиқотларни ажратиб кўрсатиш мумкин. Шу билан бирга дастур яратилишида нейропсихология фани ютуқларидан ҳам фойдаланиш бу борада юқори натижаларга эришишимизни таъминлайди.

"Тарбия" бўйича ўқув дастурини ишлаб чиқишда қуйидаги адабиётлар ва манбаларга таянишни тавсия қиламиз:

–NAEYC ҳужжатлари, шу жумладан "Эрта болалик ўқув дастури, баҳолаш ва дастурни баҳолаш" ва тегишли тавсиялари;

–Канаданинг Онтарио штати қабул қилган "How Does Learning Happen?" ҳужжатлари;

–Дюи, Виготский, Хантал ва Малагуззи педагогик тадқиқотлари доирасидаги назарий ва амалий ёндашувлари ;

– Siraj-Blatchford ва McTighe тадқиқотлари;

Шундай қилиб, "Тарбия" фани ўқув дастури муайян белгиланган мақсадга эга бўлган, маданий ва тарихий тажрибага, миллий ҳамда умумбашарий қадриятларга асосланган, мослашувчан шахсни тарбиялашга оид мустақил педагогик ҳужжатдир. У когнитив, ҳиссий (эмоционал) ва ахлоқий компонентларни ўз ичига олиб, уларнинг ҳар бири мавзулар орқали рўёбга чиқарилади. Қўлланиладиган педагогик воситалар – лойиҳавий ёндашув фаолияти (Project Based Learning), кузатув, гуруҳ муҳокамаси ва рефлексия – ўқувчиларни ижтимоий аҳамиятга эга муҳим ва келажак ҳаётида фойдали тажрибага эга бўлишини таъминлайди. Баҳолаш эса шахсдаги сифат ўзгаришларини кузатиш имконини берувчи кўп даражали баҳолаш воситаларига асосланаши лозим. Дастурнинг назарий таъминоти эса педагогика ва психология соҳасидаги классик ва замонавий тадқиқотларга асосланган бўлиши лозим.

Шундай қилиб, ушбу концепцияга асосланган дастур ўқувчи шахсини ҳар томонлама – ташқи стандартларгагина таянмасдан, балки жамиятнинг эҳтиёжлари ва илмий асосланган педагогик ва психологик ёндашувлар асосида ривожлантириш имконини берувчи барқарор модел бўлиб ҳизмат қилади деган умиддамиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Wang, C. (2010). Moral education in China: Preparing citizens for the “harmonious society”. Current Issues in Comparative Education, 12(2), 6–13.

2. Lichan Wang (2019). *A Comparative Study of Moral Education Courses Between Chinese and German Universities*. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, 319, 412–417. DOI: 10.2991/icemse-19.2019.96
3. Sulaiman, S., & Meng, C. C. (2022). *Comparative Study of Moral Education in China and Pakistan for Sustainable Development*. International Journal of Educational Research and Development, 7(2), 101–112.
4. Suparno, P. & Kayo, D. (2020). *Comparative study on moral education between Indonesia and Japan: Teacher’s perceptions and strategies*. Journal of Moral Education, 49(4), 481–496.
5. Taylor, M. J. (1993). *Values education in Europe: A comparative overview of a survey of 26 countries*. Journal of Moral Education, 22(2), 117–127.
6. Biesta, G. (2010). *Good Education in an Age of Measurement: Ethics, Politics, Democracy*. Routledge.
7. Inglehart, R., & Welzel, C. (2005). *Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence*. Cambridge University Press.
8. Decety, J., & Cowell, J. M. (2014). *The complex relation between morality and empathy*. Trends in Cognitive Sciences, 18(7), 337–339. DOI: 10.1016/j.tics.2014.04.008
9. Character Education Partnership (2008). *National Framework for Character Education*. Washington, D.C.: CEP Publications.
10. European Commission (2015). *Education and Training Monitor: Citizenship and Values Education*. Brussels: Publications Office of the EU.
11. P. Сираж-Блэтчфорд, «Педагогические стратегии в раннем детстве», 1998;
12. Wiggins, McTighe, «Understanding by Design», 1998;
13. NAEYC, «Early Childhood Curriculum, Assessment, and Program Evaluation», 2003;
14. Ontario Ministry of Education, «How Does Learning Happen? Ontario’s Pedagogy for the Early Years», 2014;
15. Siraj-Blatchford, «Методология и педагогика», 1998;
16. National Research Council, «Eager to Learn: Educating Our Preschoolers», 2001;

RAQAMLI MUHITDA MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Umarova Munira Xudoyberdiyevna
Chirchiq davlat Pedadodika Universeteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli muhitda maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb muammolar yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bolalar tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, erta yoshdagi bolalarning axborot oqimiga haddan tashqari ta’sirlanishi, ularning psixik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qilmoqda. Maqolada zamonaviy raqamli vositalarning pedagogik jarayondagi o‘rni, ota-onalar va tarbiyachilar uchun zarur bo‘lgan raqamli savodxonlik, shuningdek, bolalarda raqamli madaniyatni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Muallif bolalarni raqamli muhitda tarbiyalashda muvozanat va pedagogik nazoratning ahamiyatini asoslab beradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish dasturini ishlab chiqish va kiritish ularning nutqini rivojlantirish darajasini oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, maktabgacha yosh, boshlang‘ich sinf, bolalar tarbiyasi, raqamli texnologiyalar, pedagogika, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, psixologik ta’sir, oilaviy nazorat*

Аннотация: *В статье освещаются актуальные проблемы, связанные с воспитанием детей дошкольного и младшего школьного возраста в цифровой среде. Стремительное развитие цифровых технологий оказывает как положительное, так и отрицательное влияние на образование детей. В частности, чрезмерная подверженность детей раннего возраста потоку информации негативно влияет на их умственное, эмоциональное и социальное развитие. В статье анализируется роль современных цифровых инструментов в педагогическом процессе, необходимая родителям и педагогам цифровая грамотность, а также формирование цифровой культуры у детей. Автор обосновывает важность сбалансированности и педагогического контроля при воспитании детей в цифровой среде. Опыт показывает, что разработка и внедрение программы использования цифровых технологий в группах дошкольников повышает уровень их речевого развития.*

Ключевые слова: *цифровая среда, дошкольный возраст, начальная школа, образование детей, цифровые технологии, педагогика, цифровая грамотность, информационная безопасность, психологическое воздействие, семейный контроль.*

Abstract: *This article highlights the current problems associated with raising preschool and primary school children in a digital environment. The rapid development of digital technologies has both positive and negative effects on child education. In particular, the excessive exposure of early childhood children to the flow of information negatively affects their mental, emotional and social development. The article analyzes the role of modern digital tools in the pedagogical process, the digital literacy necessary for parents and educators, as well as the formation of digital culture in children. The author justifies the importance of balance and pedagogical control in raising children in a digital environment. Experience shows that the development and introduction of a program for the use of digital technologies in groups of preschool children increases the level of their speech development.*

Keywords: *digital environment, preschool age, primary school, child education, digital technologies, pedagogy, digital literacy, information security, psychological impact, family control*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga, jumladan, ta’lim va tarbiya tizimiga ham jadal kirib bormoqda. Bu jarayonda ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi bolalar eng ta’sirchan qatlam hisoblanadi. Raqamli muhitning bolalar ongiga, tafakkuriga va ijtimoiy moslashuviga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur ilmiy-tadqiqotlarni talab qiladi. Ushbu maqola mazkur yoshdagi bolalarni tarbiyalashda uchrayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan.

Asosiy qism

1. Raqamli muhitning xususiyatlari

Raqamli muhit deganda internet, mobil ilovalar, virtual haqiqat, sun’iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan muhit tushuniladi. Bu vositalar bolalarga ta’lim berish, ularni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, ularning nazoratsiz ishlatilishi turli xavf va muammolarni keltirib chiqaradi.

2. Maktabgacha va boshlang‘ich yoshdagi bolalar uchun xavf omillari

Raqamli texnologiyalarning doimiy qo‘llanishi natijasida bolalarda quyidagi muammolar kuzatiladi:

E’tiborning pasayishi va diqqat tarqoq bo‘lishi;
Harakat faolligining kamayishi, gipodinamiya;
Emotsional beqarorlik va tajovuzkorlikning kuchayishi;
Ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarining sustlashuvi;
Axborotga haddan ziyod bog‘lanish — giyohvandlikka o‘xshash holatlar.

3. Tarbiyaviy yondashuv muammolari

Ko‘plab ota-onalar va tarbiyachilar raqamli vositalarning pedagogik imkoniyatlarini to‘liq anglab yetmagan. Shu sababli ular bolalarning axborot olamidagi harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Ota-onalar uchun raqamli savodxonlik va bolalar bilan muloqot qilishda raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanish tamoyillari ishlab chiqilishi zarur.

4. Raqamli madaniyatni shakllantirish

Bolalarda raqamli texnologiyalardan foydali va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini erta yoshdan shakllantirish muhim. Bu raqamli madaniyat deb yuritiladi. Raqamli madaniyat — texnologiyalarni mas’uliyatli, axloqiy va xavfsiz yo‘l bilan qo‘llashdir. Buning uchun ta’lim muassasalarida maxsus metodikalar va o‘quv dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimiga muhim vazifani qo'yadi – bolalarni raqamli asrda muayyan hayot ko'nikmalariga tayyorlash. "*Ta'limni rivojlantirish*" Davlat dasturida ta'kidlanishicha, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash uchun qiymat shakllanishini ta'minlaydigan raqamli ta'lim muhiti yaratilishi kerak.

Shu munosabat bilan uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi bo'lgan maktabgacha yoshga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha davr-bu shaxsning aqliy, kognitiv, jismoniy va axloqiy shakllanishiga asos solingan vaqt. Hozirgi vaqtda raqamli ta'lim maydoni bola hayotining bir qismiga, atrofdagi dunyo, umuminsoniy qadriyatlar, odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi g'oyalarni olish manbaiga aylanmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi o'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil qilib, bolalarning ko'p qirrali rivojlanishiga, ularning tezkor ijtimoiylashuviga hissa qo'shadigan eng yangi usul va texnologiyalarga e'tibor qaratishlari kerak.

Bolalarning ko'p qirrali rivojlanishida nutqni rivojlantirish muhim o'rin tutadi, chunki atrofdagi dunyo nutq orqali o'rganiladi, odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar shakllanadi. O. S. Ushakovaning so'zlariga ko'ra, bolalardagi grammatik jihatdan to'g'ri, izchil, leksik jihatdan boy nutq aqliy jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi, bolalar faoliyatining turli turlarida faollik, tashabbuskorlik, tengdoshlar guruhida bolani muvaffaqiyatli qabul qilish, shuningdek uni maktabga tayyorlashga yordam beradi. Hozirgi bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish raqamli texnologiyalardan foydalangan holda muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Bir qator mahalliy tadqiqotchilar zamonaviy maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. A. Marey raqamli texnologiyalarni turli formatlarda ma'lumot ishlab chiqaradigan, saqlaydigan yoki qayta ishlaydigan kompyuterlar, portativ elektron qurilmalardan foydalanish bilan bog'liq texnologiyalar turlari sifatida izohlaydi. Raqamli texnologiyalarning taraqqiy etishi zamonaviy jamiyatda bolalar tarbiyasi jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy pedagogik model va uslublar yangi sharoitlarda qayta ko‘rib chiqilmoqda. Axborot texnologiyalari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangani bois, yosh avlod u bilan aloqada bo‘lishni tabiiy holat deb qabul qilmoqda. Raqamli muhit esa bu jarayonda turli imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning psixik, nutqiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Ushbu davrda bola atrofdagi voqelikni, muloqot mezonlarini, axloqiy tamoyillarni

o‘rganadi. Bu davrda berilgan tarbiya, o‘rgatilgan ko‘nikmalar va shakllantirilgan qadriyatlar keyingi hayotining asosini tashkil etadi. Shuning uchun raqamli muhitning bu yoshdagi bolalarga ta’siri chuqur ilmiy va pedagogik yondashuv orqali baholanishi lozim. Raqamli muhitdagi vositalar — planshetlar, smartfonlar, kompyuterlar, televizorlar orqali tarqatilayotgan axborot bolalar tomonidan tez va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinadi. Ularning tanqidiy tafakkuri, ijtimoiy tajribasi hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, bolalar har qanday ko‘rinishdagi ma’lumotni haqiqat sifatida qabul qilishadi. Bu holat ularning emotsional barqarorligiga, ijtimoiy moslashuviga, shaxsiy qadriyatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalar vositasida ta’lim berish bolalarda tasavvur, xotira, eshitish, ko‘rish va noverbal idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda foydali bo‘lishi mumkin. Shu bois, bu vositalarni mutlaqo cheklash emas, balki ulardan oqilona foydalanish tamoyillarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhimdir. Raqamli muhitda tarbiyaviy jarayonning muhim jihati bu ota-onalar va tarbiyachilarning texnologiyalardan foydalanish madaniyatidir. Ota-onalarning ko‘pchiligi bolalarni tinchlantirish maqsadida ularni raqamli qurilmalarga bog‘lab qo‘yadi. Bu holat esa bolada real muloqotga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, mustaqil o‘ylash va o‘zini ifoda etish salohiyatini susaytiradi. Bunday sharoitda bola axborotni faqat tayyor holatda iste’mol qilishga o‘rganadi, bu esa tafakkur va ijodiy salohiyatning zaiflashishiga olib keladi. Shuningdek, raqamli muhit bolada vaqt va makon hissini susaytiradi. Virtual olam bilan haqiqiy hayot orasidagi farqni anglash qiyinlashadi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarga, o‘zini tutish me’yorlariga va emotsional intellektga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, nazoratsiz kontentga duch kelgan bolalarda tajovuzkorlik, qo‘rquv, yolg‘izlik, nutqiy cheklanish holatlari kuzatiladi. Tarbiyaviy jarayonda bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar — psixologlar, logopedlar, defektologlar va tarbiyachilar uchun raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha alohida metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilishi lozim. Bu ko‘rsatmalar bolaning yoshiga, individual xususiyatlariga va rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Tarbiyada muvozanatli yondashuv muhim o‘rin tutadi. Raqamli texnologiyalarni inkor etmasdan, ularni pedagogik maqsadlarda to‘g‘ri yo‘naltirish va nazorat qilish orqali bolalarda sog‘lom dunyoqarash, axloqiy fazilatlar va raqamli madaniyatni shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, bolalarda hayotiy qadriyatlar — mehnatga hurmat, insoniylik, sabr-toqat, muloqot madaniyati kabi tamoyillarni shakllantirishda jonli muloqot, interfaol o‘yinlar va real tajriba asosidagi faoliyatning o‘rni o‘zgarmasdir. Demak, raqamli muhitda maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni tarbiyalashda pedagogik tizim har tomonlama yondashuvga asoslanishi lozim. Bu yondashuvda oilaning ishtiroki, ta’lim muassasalari faoliyati, davlat siyosati va jamiyatning umumiy madaniyati uyg‘unlashgan bo‘lishi zarur.

Xulosa

Raqamli muhitda bolalarni tarbiyalash nafaqat zamonaviylikni, balki ulkan pedagogik mas’uliyatni ham talab qiladi. Har bir tarbiyachi va ota-ona bolalarning ruhiy va intellektual salomatligini ta’minlash uchun raqamli vositalardan oqilona foydalanish strategiyasini ishlab chiqishi zarur. Raqamli muhitda tarbiya muammolarini bartaraf etish uchun kompleks yondashuv, ilmiy asoslangan metodlar va tizimli nazorat mexanizmlari zarur. Raqamli texnologiyalarning ta’lim va tarbiya tizimiga chuqur singib borishi natijasida yosh avlodning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida yangi muammolar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu muammolar aniqroq ko‘zga tashlanadi, chunki bu davr bola ongining shakllanish bosqichidir. Raqamli muhit bola hayotiga ko‘proq vizual, interfaol va tezkor axborotlar orqali ta’sir o‘tkazadi. Ammo bu ta’sir har doim ijobiy bo‘lavermaydi. Zamonaviy bolaning asosiy ijtimoiy muhiti – oila, maktab va virtual makondir. Shu uchlik orasidagi uyg‘unlikning buzilishi bolaning ruhiy

muvozanatiga ta’sir etadi. Afsuski, ko‘plab oilalarda raqamli vositalar bolaning bo‘sh vaqtini to‘ldiruvchi vosita sifatida qabul qilinadi. Bu esa bolani mustaqil fikrlashdan, emotsional tajriba orttirishdan va jonli muloqotdan uzoqlashtiradi. Vaqt o‘tishi bilan bunday bola ijtimoiy jihatdan passiv, hissiy jihatdan befarq va axloqiy mezonlarga nisbatan sust sezgir bo‘lib qoladi. Raqamli kontentning sifatsizligi va mazmuni ham alohida muammo hisoblanadi. Ko‘plab bolalar uchun mo‘ljallanmagan, betarbiya, zo‘ravonlik sahnalari mavjud bo‘lgan dasturlar, multfilmlar va o‘yinlar bolaning ruhiyatida tajovuzkorlik yoki shaxsiy beqarorlikni kuchaytiradi. Bu holatda pedagogik nazorat va ota-ona e’tiborining sustligi vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Tarbiya esa izchil, bosqichma-bosqich olib borilishi lozim bo‘lgan jarayon bo‘lib, unda raqamli vositalardan ham maqsadli foydalanish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli vositalarga haddan ortiq bog‘liqlik o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir etadi. Bola mashg‘ulotlarga diqqatni jamlay olmaydi, vaqtni his qilish qobiliyati susayadi, mustaqil ishlashga nisbatan qiziqish pasayadi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘qituvchining yangi yondashuvlarni qo‘llashini taqozo etadi. Interaktiv metodlar, o‘yinli ta’lim texnologiyalari va multimediya vositalari orqali darslarni samarali tashkil qilish mumkin, biroq bunday yondashuv doimo pedagogik nazoratda bo‘lishi shart. Tarbiyada milliy qadriyatlar, madaniy o‘zlik va axloqiy me’yorlar asosiy tayanch hisoblanadi. Raqamli muhit esa globalizatsiyalashgan axborot vositalarining kuchli ta’siri ostida bo‘lgani sababli, mahalliy madaniyatga mos kelmaydigan tasvirlar, g‘oyalar va qadriyatlarni targ‘ib qilishi mumkin. Shu boisdan pedagoglar, ota-onalar va jamiyat vakillari bolalarni raqamli makonda ongli, tanqidiy va mas’uliyatli ishtirok etishga o‘rgatishi zarur. Bundan tashqari, bolalarning jismoniy salomatligi ham raqamli vositalardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida xavf ostida qoladi. Harakatsizlik, ko‘zning zo‘riqishi, holsizlanish, yomon uyqu kabi belgilar bolada sustlashuv, charchoq, maktabga bo‘lgan salbiy munosabatga olib kelishi mumkin. Shu asosda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish dolzarb sanaladi:

Raqamli texnologiyalarni yoshga mos va pedagogik maqsadlarga yo‘naltirish.

Bolalar uchun xavfsiz va sifatli raqamli kontentni targ‘ib qilish.

Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida raqamli savodxonlikni oshirish.

Tarbiya jarayonida jonli muloqot, harakatli o‘yinlar va kitob o‘qish madaniyatini saqlab qolish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit bolalarni tarbiyalashda yangi imkoniyatlar yaratgani kabi, ma’lum xavflarni ham keltirib chiqaradi. Bu xavflarni bartaraf etish uchun tizimli, integrativ va axborotga asoslangan yondashuv zarur. Tarbiya — faqat ta’lim muassasasining emas, balki oilaning va butun jamiyatning mas’uliyatli vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Sh.Mirziyoev “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‟lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 29.12.2016 y. qarori.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari. Toshkent. 2008.
3. Андреева Г.Н., Бадальянц С.В., Богатырева Т.Г. и др. — «Развитие цифровой экономики России как ключевой фактор экономического роста и повышения качества жизни населения», 2018 http://scipro.ru/conf/monograph_digital_economy.pdf
4. Ушакова О.С. Развитие речи детей 5-7 лет /О.С. Ушакова.-М.: ТЦ Сфера, 2017. -272 с.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA MUSIQIY DIDNI TARBIYALASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xaliqov Jasurjon A’zamovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda musiqiy didni shakllantirishda aksiologik yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, musiqiy-estetik tarbiya jarayonida shaxsiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni singdirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar vositasida bu qadriyatlarni samarali uzatishdagi muammo va imkoniyatlar yoritiladi. Xorijiy va milliy tajribalar asosida amaliy yechimlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *aksiologik yondashuv, musiqiy did, raqamli ta’lim, qadriyatlar, estetik tarbiya, multimediya vositalari, muammolar va yechimlar*

Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti nafaqat bilim berishning yangi shakllarini, balki tarbiyaviy ta’sirning ham innovatsion usullarini taqozo etmoqda. Ayniqsa, musiqiy ta’limda bu jarayon o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, madaniy qadriyatlarni ongli ravishda anglashida muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, aksiologik yondashuv – ya’ni qadriyatlar markazli o‘rin tutadigan metodika – musiqiy ta’limda dolzarb bo‘lib bormoqda.

Raqamli ta’lim muhitida aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarda musiqiy didni tarbiyalashdagi mavjud muammolar deb quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

- Qadriyatlarning yuzaki talqini. Raqamli platformalarda musiqiy kontent ko‘pligi, biroq uning estetik va tarbiyaviy sifati pastligi.
- O‘quvchi bilan bevosita hissiy aloqa yetishmasligi. Raqamli muhitda jonli ijro va bevosita emotsional ta’sir kamayadi.
- Aksari raqamli dars resurslari estetik va aksiologik mezonlarga mos emas.
- Ota-onalarning raqamli musiqiy kontentga e’tiborsizligi. Uyda ham bola turli madaniyatsiz kontent bilan to‘qnash kelishi mumkin.
- O‘qituvchilarning raqamli didaktik vositalarni qadriyatlar asosida loyihalashga tayyor emasligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarga yechim sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

- Aksiologik mezonlar asosida tanlab olingan multimedia dars materiallari yaratish. (Masalan, milliy musiqa namunalariga asoslangan interaktiv mashqlar, izohli videolar)
- Virtual musiqa darslarida qadriyatlar bilan boyitilgan ssenariylar asosida dars o‘tish. (Masalan: “Madaniyat saboqlari”, “O‘zbek kuylarining qadri” kabi mavzular)
- Shaxsga yo‘naltirilgan, emotsional aloqaga imkon beradigan platformalardan foydalanish. (Zoom orqali jonli muhokama, emotsiya ifodalovchi texnologiyalar, ovozli javoblar)
- Xalqaro tajribalarga tayanish: Germaniya va Yaponiyada musiqiy ta’limda raqamli vositalar orqali milliy qadriyatlar targ‘iboti amaliyotlari asosida o‘quv darsliklari ishlab chiqish.
- O‘qituvchilar uchun maxsus seminar va treninglar yo‘lga qo‘yish: raqamli kontentni aksiologik tahlil qilish bo‘yicha.

Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda musiqiy didni shakllantirish nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki chuqur aksiologik yondashuvni ham taqozo etadi. Aksiologik yondashuvda ta’lim jarayonining markazida insoniy va milliy qadriyatlar turadi. Bu yondashuv orqali musiqiy ta’lim nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki o‘quvchilarning madaniy ongini, axloqiy dunyoqarashini,

milliy o‘zlikni anglashini ham rivojlantiradi. Musiqiy didning o‘zi esa murakkab aksiologik tizim bo‘lib, unda estetik sezgi, tarixiy-madaniy anglash, emotsional ong, shaxsiy qadriyatlar mujassam bo‘ladi. Raqamli vositalar orqali bu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirish o‘qituvchidan yuqori darajadagi metodik va axloqiy saviyani talab qiladi. Raqamli muhitda musiqiy estetikani shakllantirish jarayonida o‘quvchining his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir qilish imkoniyati kamayadi, shuning uchun virtual darslar, multimedia vositalari va musiqiy ilovalarda qadriyatli mazmunni ongli va maqsadli ravishda singdirish zarur.

Zamonaviy raqamli ta’lim vositalari – YouTube, Chrome Music Lab, Padlet, interaktiv viktorinalar, Zoom orqali jonli darslar – o‘zida katta tarbiyaviy salohiyatni mujassam etgan. Ammo bu vositalar algoritmik tavsiyalar va ommaboplikka asoslanganligi sababli, estetik yondashuvdan uzoqlashish xavfi ham yuqori. Shuning uchun raqamli musiqiy kontentni tanlashda aksiologik mezonlar asosida saralash, har bir darsni “qadriyatlar orqali musiqani anglash” tamoyili asosida tashkil etish muhimdir. Bunda o‘quvchilarga musiqiy asarni tinglab, undagi madaniy, axloqiy, vatanparvarlik yoki insoniy qadriyatlarni anglashga yo‘naltirilgan savollar berish, his-tuyg‘ularini baholashga undash lozim. Xalqaro tajribalar, xususan Germaniya, Yaponiya va Finlyandiyada musiqiy ta’lim orqali milliy qadriyatlarni raqamli darsliklar va virtual sahna mashg‘ulotlari yordamida singdirish amaliyoti buni tasdiqlaydi. Shu jihatdan olganda, raqamli ta’lim muhiti, agar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, musiqiy did va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashda samarali vositaga aylanishi mumkin.

Xulosa

Raqamli muhitda musiqiy didni shakllantirish faqat texnologik yondashuv bilan emas, balki chuqur qadriyatga asoslangan metodik fikr bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi. Aksiologik yondashuv – bu musiqani faqat eshitish emas, balki uning orqali yashash, his qilish va qadrlashni o‘rgatish yo‘lidir. Maqolada keltirilgan muammo va yechimlar zamonaviy musiqa ta’limi sifatini oshirishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey, J. (1934). *Art as Experience*. New York: Minton, Balch & Company.
2. Reimer, B. (2003). *A Philosophy of Music Education*. Prentice Hall.
3. Карминский, А.М. (2016). Ценности и образование: теоретические подходы. Москва.
4. Bobur, B. (2022). Raqamli ta’limda estetik didni shakllantirish asoslari. *Ta’lim va tarbiya*, №4.
5. Turg‘unov, T. (2023). Musiqa madaniyatida axloqiy qadriyatlarning o‘rni. *San’at va jamiyat*, №2.
6. Xolmatova, G. (2021). Aksiologik yondashuvda raqamli pedagogika. *Pedagogik innovatsiyalar*, №3.
7. OECD (2020). *The Impact of Digital Learning on Values in Education*. Paris.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY TARBIYA KONTENTLARINI YARATISH VA TATBIQ QILISHNING O‘RNI

Tursunqulova Maxfuza To‘lqin qizi
doktorant, *Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti*

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda faqat metodlardan foydalanish emas, balki o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analariga asoslangan milliy tarbiya kontentlarini yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish ham muhimdir. Ushbu maqolada didaktik o‘yinlar, psixologik mashqlar, badiiy matnlar va milliy qadriyatlarga asoslangan lug‘at boyligini oshirish yo‘llari orqali o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish masalasi keng yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik kompetensiya, milliy tarbiya, ona tili darslari, e’tibor, nutq, lug‘at boyligi, didaktik o‘yin, qadriyat.*

Ta’lim tizimidagi islohotlar, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda til o‘rgatish jarayoniga milliylikni singdirish, ona tilini o‘rganish orqali o‘quvchilarda nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki **milliy tafakkur va tarbiyani ham shakllantirish** zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Zero, til – bu nafaqat muloqot vositasi, balki xalq ma’naviyati, dunyoqarashi va milliy ongining ifodasidir. Shu bois, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda milliy tarbiya kontentlarini yaratish va darslarga tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Ona tili ta’limi asosan o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan. Lingvistik kompetensiya – bu til haqidagi bilim, uni amaliyot bilan bog‘lay olish va nutq hosil qilish qobiliyatidir. Nutqni rivojlantirishga xizmat qilmaydigan bilimlar lingvistik kompetensiyaga kirmaydi. Masalan, xorijiy so‘zlar talaffuzi va urg‘u qo‘yish qoidalari o‘quvchining nutqini rivojlantiradi. Ammo urg‘uning so‘nggi bo‘g‘inga tushishi haqida bilim, amaliy ko‘nikmaga aylanishi shart emas. Bu bilimlarsiz ham o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘ymaydi.

So‘z bilimlari lingvistik kompetensiyaning asosi hisoblanadi. So‘z boyligi nutqning aniqligi, to‘g‘riligi, ravonligi va xilma-xilligini ta’minlaydi. So‘zni his qilish – bu ona tilini his qilishdir.

Shuning uchun “So‘z o‘rganish”, “So‘z sehrlari”, “So‘z kuchi”, “Biz va so‘zlarimiz”, “So‘zlar olami”, “So‘zlar sayohati” kabi bo‘limlarga har bir sinfda alohida o‘rin berilishi kerak.

Bunda so‘zlarni tanlash, almashtirish, yangi ma’nolarini o‘rganish, talaffuz va imlosi ustida ishlash asosiy mashg‘ulot bo‘lishi lozim. Lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasi ham kuchaytirilishi kerak.

Bola til jamiyatidan ona tilini ongli ravishda o‘rganmasdan ham, fonetik, morfologik va sintaktik qoidalarni biladi. Biz bu qoidalarni dars jarayonida eslatib o‘tamiz, ammo asosiy vaqt va e’tiborni bunga sarflash shart emas.

Ammo lug‘at boyligi va uni ishlatish ko‘nikmasi alohida e’tibor va murakkab ta’limni talab qiladi. Xulosa qilib aytganda, lug‘atshunoslik lingvistik kompetensiyaning asosi bo‘lishi kerak. Bu ona tili ta’limidagi ustuvor maqsadlarga muvofiqdir.

Globalizatsiya sharoitida turli madaniyatlar to‘qnashuvi yosh avloddan yuqori darajadagi muloqot madaniyati va lug‘at boyligini talab etmoqda. Bu esa ona tili ta’limini takomillashtirish va o‘quvchilarning bilimini lingvistik kompetensiya darajasiga ko‘tarishni taqozo etadi.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda e’tibor va psixologik yondashuvlar haqida to‘xtalib o‘tamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqat markazini darsga jalb qilishda psixologik mashqlar, o‘yinlar va vizual tasvirlardan foydalanish foydali. Masalan, hayvonlar rasmi asosida

bolalarda e’tiborni kuchaytirish mashqlari yoki matnlarda ko‘chma ma’noli so‘zlarni ajratish – bu lingvistik bilimlar asosidir.

Lug‘at boyligini oshirish va milliy qadriyatlarni singdirish bo‘yicha nimalarga e’tibor qaratishimiz zarur? So‘z va iboralar orqali bolaning fikrlashi shakllanadi. Milliy tarbiya kontentlari – maqollar, hikmatli so‘zlar, xalq ertaklari, dostonlar – bola dunyoqarashini kengaytirish, ona tilidagi boy ifoda vositalarini o‘rganish uchun asosiy manbadir. Masalan, “Do‘st bor, g‘amda bilinadi” kabi maqollar orqali ham lug‘at boyligi, ham ma’naviy tarbiya beriladi.

Bu yerda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish faqat so‘z boyligini oshirish emas, balki o‘quvchining ma’naviy ongini milliy qadriyatlar orqali shakllantirishdir. Shuning uchun lug‘at ustida ishlash jarayonida quyidagilarni tatbiq qilish zarur:

- O‘zbek xalq maqollari va aforizmlarini matnga kiritish;
- O‘quvchi yoshi va mavzusiga mos xalq ertaklari bilan tanishtirish;
- Darslarda milliy liboslar, urf-odatlar haqida matnlar o‘qitish;
- “So‘zlar sayohati”, “Milliy so‘zlar xazinasi”, “O‘zbekona iboralar” kabi bo‘limlarni o‘quv dasturiga tatbiq etish.

Lingvistik kompetensiyaning asosiy yo‘nalishlari va metodik yondashuvlar

O‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish uchun:

- Matnlar asosida yangi so‘zlar izohlanadi;
- So‘zlarni o‘rinli ishlatish o‘rgatiladi;
- Badiiy adabiyotlardan iqtiboslar beriladi;
- So‘z boyligi – ifodali va ravon nutqning asosi sifatida o‘rgatiladi.

Lug‘atshunoslikka asoslangan o‘quv kontentlari, ayniqsa, milliy termin va atamalarning izohli yondashuvi, o‘quvchining ona tili boyligiga nisbatan e’tiborini kuchaytiradi. Misol uchun, “non”, “ota”, “mehmondo‘stlik”, “sabr” kabi so‘zlar turli badiiy manbalarda tahlil qilinib, ularning milliy mazmuni ochib berilishi zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish – bu nafaqat til qoidalarini o‘rgatish, balki **milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni singdirish** jarayonidir. Shu sababli, ta’lim jarayonida milliy tarbiya kontentlarini ishlab chiqish, ularni dars jarayonlariga integratsiyalash va metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish zarur. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat tilga, balki xalqiga, tarixiga, madaniyatiga hurmatni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jalilova D.U. (2023). *Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirish masalasining ahamiyati*. “Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. DOI: 10.5281/zenodo.7993607
2. Tursunqulova M.T. (2023). *Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi va yondashuvning ahamiyati uyg‘unligi*. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. DOI: 10.5281/zenodo.7993657
3. Tursunqulova M.T. (2023). *Boshlang‘ich sinflarda foydalaniladigan didaktik o‘yinlar haqida ayrim mulohazalar*. DOI: 10.5281/zenodo.8044429
4. G‘afforova T., Nurullayeva Sh. (2003). *Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar*. Qarshi: Nasaf.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-noyabrdagi PQ–5117-son qarori: *“2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”*.
6. Shoniyozova M. (2016). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili orqali axloqiy tarbiya*. Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami.

TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA YOSHLARNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Maxmudova Darmonjon Bozorboyevna
O‘zTPMI doktoranti PhD, v.b.proffessor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim tizimining raqamli transformatsiya jarayonida yoshlar tarbiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa masofaviy ta’lim, internet va sun’iy intellekt vositalari orqali ta’lim berishning afzalliklari bilan bir qatorda, yosh avlodning axloqiy, ijtimoiy va psixologik tarbiyasiga salbiy ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Virtual muloqot, nazoratsiz axborot oqimi, ijtimoiy izolyatsiya, vaqtni noto‘g‘ri boshqarish kabi muammolar tarbiyani murakkablashtirayotgani ta’kidlanadi. Muallif raqamli ta’limni tarbiyaviy jarayon bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar bildiradi. O‘qituvchi, ota-ona va davlat siyosati o‘rtasidagi hamkorlik muhimligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, yoshlar tarbiyasi, virtual ta’lim, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy izolyatsiya, ota-ona nazorati, pedagogik yondashuv, sun’iy intellekt, internet xavfsizligi, zamonaviy ta’lim.*

Zamonaviy dunyo raqamli texnologiyalar ta’sirida jadal sur’atlarda o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlar ta’lim sohasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Aksincha, aynan ta’lim sohasi raqamli transformatsiyaning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Maktabdan tortib oliy ta’lim muassasalarigacha bo‘lgan barcha ta’lim bosqichlarida raqamli platformalardan foydalanish, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt, interaktiv texnologiyalar va multimediaviy vositalar orqali dars o‘tish kabi yondashuvlar keng ommalashmoqda. Biroq bu o‘zgarishlar nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, raqamli transformatsiya ko‘plab dolzarb muammolarni yuzaga keltirayotgani ayon bo‘lmoqda. Raqamli transformatsiya avvalo ta’limning shakl va mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita muloqot asosiy vosita bo‘lsa, raqamli muhitda bu muloqot ko‘pincha virtual ko‘rinishga ega. Bunday vaziyatda tarbiya jarayoni, ya’ni o‘quvchining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, jamiyatga foydali inson bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash kabi masalalar orqa plana surilmoqda. Zero, tarbiya bevosita insoniy aloqa, hayotiy misollar, hissiy-ta’sirchan suhbatlar, o‘rnak bo‘ladigan holatlar orqali samarali kechadi. Virtual muhitda esa bunday imkoniyatlar juda cheklangan bo‘lib, bu yoshlar orasida individualizm, befarqlik, empatiya yetishmovchiligi, ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy holatlarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, raqamli transformatsiya yoshlarning axloqiy me’yorlarga nisbatan munosabatini ham o‘zgartirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan ochiq axborot oqimi, nazoratsiz kontent va virtual erkinlik ko‘plab yoshlarni chalg‘itmoqda. Ayniqsa, ota-onaning yoki o‘qituvchining doimiy nazoratisiz qolayotgan bolalar va o‘smirlar internetdan nafaqat foydali, balki zararli axborotlarni ham olmoqdalar. Bu esa ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va axloqiy tamoyillariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar, yolg‘on ma’lumotlar, ekstremistik g‘oyalar yoki pornografik materiallarga bo‘lgan qiziqish yosh ongida noto‘g‘ri tushunchalarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Natijada, jamiyat uchun zararli bo‘lgan xatti-harakatlar normal hol sifatida qabul qilina boshlaydi. Bundan tashqari, raqamli ta’lim tizimi yoshlarning ijtimoiy faolligini ham pasaytirishi mumkin. An’anaviy ta’limda o‘quvchilar birgalikda ishlash, jamoada muammolarni hal qilish, boshqalar fikrini tinglash va hurmat qilish, o‘z fikrini ochiq

bayon qilish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Raqamli ta’limda esa bu imkoniyatlar sezilarli darajada qisqaradi.

Raqamli transformatsiyaning yana bir salbiy jihati – bu yoshlarning o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni samarali rejalashtirish, o‘z oldiga maqsad qo‘yib unga erishish kabi hayotiy ko‘nikmalarining yetishmovchiligidir. Virtual muhitda chalg‘ituvchi omillar juda ko‘p: o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, reklamalar, vaqtni sovuruvchi kontentlar yoshlarni asosiy maqsaddan chalg‘itadi. Bunday vaziyatda ularning e’tibori tarqoq bo‘lib, bilim olish jarayonida yuzaki yondashuv paydo bo‘ladi. Natijada, yoshlar o‘z intellektual salohiyatini to‘la namoyon eta olmaydi, hayotda faol, mustaqil, maqsadli bo‘lish qobiliyatidan mahrum bo‘lish xavfi ortadi. Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, ta’limning raqamli transformatsiyasi faqat texnologik yondashuvni emas, balki pedagogik, psixologik va tarbiyaviy mexanizmlarni ham qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Zamonaviy pedagoglar faqat bilim beruvchilar emas, balki yoshlar uchun murabbiy, yo‘l ko‘rsatuvchi, ijtimoiy-ruhiy ko‘makchi sifatida faoliyat yuritishlari zarur. O‘qituvchilar raqamli vositalardan faqat dars o‘tish uchun emas, balki tarbiyaviy jarayonni interaktiv, zamonaviy, yoshlar uchun qiziqarli shakllarda tashkil qilish uchun ham foydalanishlari lozim. Masalan, axloqiy mavzularda vloglar yaratish, onlayn bahs-munozaralar uyushtirish, ijtimoiy loyihalar orqali yoshlarni faollikka undash, sun’iy intellekt yordamida shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini kuzatish kabi innovatsion yondashuvlar tarbiya sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ota-onalarning roli ham bu jarayonda beqiyos ahamiyatga ega. Ular farzandlari bilan birga raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishlari, xavfsiz internet muhitini yaratish, virtual dunyo va real hayot o‘rtasida muvozanatni saqlashga yordam berishlari lozim. Aks holda, raqamli transformatsiya yoshlarni tarbiyalashda emas, balki ularni nazoratsiz yo‘nalishga boshlashda vositaga aylanadi. Yana bir muhim jihat – bu davlat siyosatining moslashuvchanligi va oldini oluvchi xususiyatidir. Ta’lim siyosatida raqamli vositalarni joriy etish bilan birga, yoshlarning axloqiy, ma’naviy, ruhiy tarbiyasiga oid milliy modelni ishlab chiqish zarur. Bu model nafaqat ta’lim muassasalarida, balki ommaviy axborot vositalari, internet platformalar, o‘quv dasturlari va kontentlar orqali keng targ‘ib qilinishi kerak. Shu orqali raqamli ta’limning asosiy tamoyili – "nafaqat bilim, balki tarbiya ham berish" g‘oyasi hayotga tatbiq etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning raqamli transformatsiyasi zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tabiiy va zaruriy jarayondir. Biroq bu jarayon bir tomonlama, ya’ni faqat texnologik rivojlanishga qaratilgan bo‘lsa, yoshlar tarbiyasi jiddiy xavf ostida qoladi. Shu sababli, raqamli transformatsiya jarayonida tarbiyaviy omillarni hisobga olish, ularni ta’limning ajralmas qismi sifatida qarash dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada o‘qituvchilar, ota-onalar, siyosatchilar, psixologlar, dasturchilar hamkorlikda harakat qilsalargina, raqamli avlodni ma’naviy yetuk, ijtimoiy faol, bilimli va tarbiyali qilib voyaga yetkazish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I. A. (1997). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
2. UNESCO (2020). *Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action*. Paris: UNESCO Publishing.
3. Tapscott, D. (2009). *Grown Up Digital: How the Net Generation is Changing Your World*. McGraw-Hill.
4. Qodirov, A. (2021). "Raqamli ta’lim va uning pedagogik imkoniyatlari". *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar* jurnali, 3(1), 45–52.

5. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. London: Bloomsbury Academic.

YOSHLARNI TA’LIM-TARBIYASIGA BAG’ISHLANGAN PODKAST VA VIDEOKONTENTLAR YARATISH HAMDA ULARNI OMMALASHTIRISH

Fazilova Lutfinisa Azamadxodjayevna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti katta o’qituvchisi,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqola yoshlar ta’lim-tarbiyasiga zamonaviy yondashuv sifatida podkast va videokontentlardan foydalanishning dolzarb masalalarini o’rganadi. Podkast va videokontentlarning pedagogik salohiyati, ularni ommalashtirishdagi asosiy to’siqlar, texnologik va metodik yechimlar, yoshlar ehtiyojlariga mos media mahsulotlar yaratish usullari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro tajribalar asosida taklif etilayotgan strategiyalar maqolaning ilmiy asosini tashkil etadi.*

Kalit so’zlar: *yoshlar, ta’lim, tarbiya, raqamli pedagogika, podkast, videokontent, media ta’lim, innovatsion metodlar, kommunikatsiya texnologiyalari.*

Аннотация. *Данная научная статья посвящена актуальным вопросам использования подкастов и видеоконтента как современного подхода к образованию и воспитанию молодежи. Подробно анализируется педагогический потенциал подкастов и видеоконтента, основные препятствия на пути их популяризации, технологические и методические решения, а также способы создания медиапродуктов, соответствующих потребностям молодежи. Кроме того, научная основа статьи сформирована на основе анализа как отечественного, так и международного опыта и предлагаемых стратегий.*

Ключевые слова: *молодежь, образование, воспитание, цифровая педагогика, подкаст, видеоконтент, медиаобразование, инновационные методы, коммуникационные технологии.*

Annotation. *This scientific article addresses the pressing issues related to the use of podcasts and video content as a modern approach to the education and upbringing of youth. It thoroughly analyzes the pedagogical potential of podcasts and video content, the main obstacles to their popularization, technological and methodological solutions, as well as methods for creating media products tailored to the needs of young audiences. Furthermore, the scientific foundation of the article is based on an analysis of both domestic and international experiences and the strategies proposed therein.*

Keywords: *youth, education, upbringing, digital pedagogy, podcast, video content, media education, innovative methods, communication technologies.*

Kirish.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Ayniqsa, internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim olish va tarbiyaviy kontentlarni iste’mol qilish yoshlar orasida kundalik odatga aylanib bormoqda. Bu holat o’z navbatida yangi pedagogik vositalar – jumladan, podkastlar va videokontentlar orqali yosh avlodni tarbiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim milliy dasturi” doirasida yoshlarning raqamli madaniyatini oshirish, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish va ma’naviy immunitetini

mustahkamlash bo’yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Bu borada ta’limiy kontentlarning jozibador, interaktiv va psixologik mosligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqola podkast va videokontent yaratish, ularni ommalashtirish hamda yoshlar orasida samarali foydalanish bo’yicha ilmiy-uslubiy asoslarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Tahliliy metod: O’zbekiston va xorijdagi podkast va videokontentlarning mazmuni, texnik sifati va pedagogik maqsadlarga muvofiqligi tahlil qilindi va ko’pgina farqlar aniqlandi va xorijiy ma’lumotlarning ko’pchiligi mintalitetimizga mos kelmasligi kuzatildi.

Qiyosiy tahlil: AQSh, Janubiy Koreya, Malayziya kabi davlatlarning raqamli ta’limiy media tajribalari bilan O’zbekiston sharoiti taqqoslandi.

Empirik usul: Toshkent shahri va viloyatlaridagi 50 nafar 18-25 yoshli yoshlar orasida so’rovnoma va intervyu o’tkazildi.

Kontent monitoringi: YouTube, Telegram, Spotify va TikTok platformalaridagi 100 dan ortiq ta’limiy va motivatsion podkastlar tahlil qilindi.

Natijada so’rovnoma ishtirokchilarining 68% ta’limiy videokontentlarni foydali deb baholagan, 82% o’zbek tilida sifatli podkastlar soni yetarli emasligini bildirgan.

Yoshlar orasida podkastlar tobora ommalashib borayotgani raqamli ta’lim va tarbiyada ularning o’rnini kuchaytirmoqda. Quyida ularning eng yaxshi turlari, afzalliklari va ta’sir doiralari tahlil qilinadi:

Mazmuniy yo’nalishlar bo’yicha eng yaxshi podkastlar:

- Ta’limiy: Ilm-fan yangiliklari, til o’rganish, tarix, falsafa, texnologiyalar haqida bilim beruvchi podkastlar. Masalan, “Kognit Podcast” (psixologiya), “Science Uz”.

- Motivatsion: Hayotiy tajribalar, muvaffaqiyat hikoyalari va shaxsiy rivojlanishga doir suhbatlar. Masalan, “Yoshlar Ovozi”, “Ilhom nuri”.

- Kasbiy yo’naltirilgan: IT, dizayn, startap, marketing, moliya sohalaridagi yangi imkoniyatlar haqida. Masalan, “UzStartup Talks”.

- Ijtimoiy-psixologik: O’z-o’zini rivojlantirish, oilaviy muammolar, yoshlikdagi stress bilan ishlash bo’yicha podkastlar.

Texnik sifat mezonlari:

- Yaxshi yozilgan audio: sof, shovqinsiz ovoz;
- Strukturasi tushunarli: anons – asosiy qism – xulosa;
- 15–30 daqiqalik format: yoshlar e’tiborini saqlab qolish uchun qulay;
- Vizual qo’shimchalar (agar YouTube yoki videoformadda): grafika, subtitrlar, qiziqarli muqovalar.

Til va uslubga qo’yilgan talablar:

- O’zbek tilida bo’lishi yoki kamida tarjima varianti mavjudligi;
- Oddiy, tushunarli leksika;
- Dialog shaklida: samimiylikni oshiradi.

Eng ommabop platformalar:

- YouTube – videoformadagi podkastlar keng auditoriyani qamrab oladi;
- Spotify – audio-podkastlar uchun qulay platforma;
- Telegram – qisqa epizodlar yoki seriyalar uchun ideal;
- Anchor, Google Podcasts – mustaqil podkastlar joylashtirish uchun.

Yoshlar uchun maxsus tavsiya etilgan podkastlar (2024-2025):

- “Kelajak Kasblari”: kasbiy rivojlanish;
- “Ilm yo’lida”: yosh olimlar suhbatlari;
- “Ochiq Mikrofon”: ijtimoiy mavzularda yoshlar fikri;
- “Psixolog bilan”: hayotiy muammolarga psixologik yondashuv;
- “Startup Story”: yosh tadbirkorlarning muvaffaqiyat hikoyalari.

Tavsiyalar:

- Yoshlar bilan bevosita ishlovchi ta’lim muassasalari o’z podkastlarini yo’lga qo’ysin;
- Podkastlar pedagogik va psixologik jihatdan tahlil qilinsin;
- Grant asosida ijtimoiy podkast loyihalari qo’llab-quvvatlansin;
- Yoshlarning fikri asosida mavzular shakllantirilsin.

Natijalar.

Tahlil natijalari asosida quyidagi muammolar aniqlandi:

Pedagogik yondashuv yetishmasligi: Ko’plab kontentlar faqat ko’ngilochar yoki shaxsiy brendga xizmat qiladi hamda reklamalarni targ’ib qiladi.

Til muammosi: Ko’plab sifatli kontentlar rus va ingliz tilida bo’lib, o’zbek auditoriyasi e’tiboridan chetda qolmoqda.

Texnik nosozliklar: Ovoz sifati, montaj darajasi, dizayn va sahna madaniyati kamchiliklarga ega.

Ehtiyoj tahlilining yetishmasligi: Yaratuvchilar yoshlar manfaatini o’rganmagan holda mavzu tanlaydilar vas hu asosida kontentlar yaratadilar.

Tashkiliy va moliyaviy resurslar tanqisligi: Aksar hollarda shaxsiy tashabbusga tayaniladi.

Muhokama.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi strategik yechimlar taklif etiladi:

✓ Ta’lim muassasalari va media mutaxassislar hamkorligi: Universitetlar negizida media-laboratoriyalar tashkil etilishi kerak.

✓ Kontentni mahalliylashtirish va moslashtirish: O’zbek tilida, madaniy qadriyatlarimizga mos, yoshlar qiziqishini inobatga olgan kontentlar tayyorlanishi zarur.

✓ Media-savodxonlikni oshirish: Kontent yaratuvchilar, ayniqsa bloggerlar va talabalar uchun maxsus o’quv kurslarini joriy etish.

✓ Texnik va moliyaviy qo’llab-quvvatlash: Davlat granti, homiylik va kraudfanding mexanizmlarini yo’lga qo’yish.

✓ Marketing va ommalashtirish: Kontentni TikTok, Instagram Reels va Telegram qisqa videolari orqali keng ommaga yetkazish.

Xulosa.

Podkastlar yoshlar uchun nafaqat axborot manbai, balki fikrlash, rivojlanish va ijtimoiy integratsiyaning muhim platformasidir. Ulardan to’g’ri foydalanish uchun sifat, mazmun, til va texnik imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Podkast va videokontentlar yoshlarning axborotga bo’lgan talabini qondirish, ularda mustaqil fikrlash, ma’naviy immunitet va kasbiy yo’nalishni shakllantirishda kuchli vosita bo’la oladi. Ammo bu boradagi ishlanmalar tizimli va ilmiy asoslangan bo’lishi shart.

Mazkur maqolada taklif etilgan yechimlar nafaqat kontent sifatini oshirish, balki uni doimiy auditoriya bilan samarali aloqada bo’lishga ham xizmat qiladi. O’zbekistonda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish uchun bu soha mutaxassislarini tayyorlash, ta’lim sohasiga media mutaxassislarni jalb etish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Ziyoyeva G. Raqamli pedagogika asoslari. – T.: TDPU, 2022.
3. Anderson, M. & Jiang, J. (2018). Teens, Social Media & Technology. Pew Research Center.
4. Hasanov B., Toshpulatova M. Ommaviy axborot vositalari va yoshlar. – T.: O’zMU, 2021.
5. Podcasting and Youth Engagement. UNICEF Report, 2021.
6. Mamatqulov R. Mediata’lim asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2023.
7. Fazilova L.A. Talabalarning AKTga oid kompetentligini rivojlantirish. – European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. ISSN (E): 2938-3625., Volume 3, Issue 1, January- 2025
8. Fazilova L.A. & Ekibzhanov Kh. The role of artificial intelligence in advancing medical science. – “Raqamli tibbiyot: bugngi va ertangi kuni”. Xalqaro ilmiy, o’quv-uslubiy anjuman to’plami. TDSI, 24.01.2025 yil.
9. Qodirov O. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020.
10. Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan. Digital Education Strategy 2030.

RAQAMLI MUHITDA BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Gulyamova Aziza Otabek qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli muhitda boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni tarbiyalash muammolari — bu zamonaviy texnologiyalar keng tarqalgan bir davrda eng dolzarb masalalardan biridir. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida inson hayotining barcha sohalari raqamlashtirilmoqda. Xususan, ta’lim tizimi, tarbiya jarayoni ham bundan mustasno emas. Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilar bugungi kunda raqamli muhitda ulg‘aymoqda. Ularning o‘sish va shakllanish bosqichida raqamli vositalarning ta’siri kuchli bo‘lib, bu holat ularni tarbiyalashda yangi yondashuvlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda.*

Kalit so‘zlari: *Raqamli muhit, boshlang‘ich sinf, tarbiya, raqamli vositalar, virtual muloqot, kontent, sun’iy intellekt*

Raqamli muhit — bu kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar, internet va sun’iy intellekt kabi texnologiyalar orqali shakllanayotgan yangi ijtimoiy-madaniy makondir. Ushbu muhit bolalarning axloqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu davr – shaxsiy dunyoqarash, qadriyatlar, xulq-atvor normalari shakllanadigan muhim bosqichdir. Ammo raqamli texnologiyalar ta’sirida quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda. Bularga,

Nazoratning yetishmasligi:

Bolalar internetdan foydalanishda ota-ona va pedagoglar nazoratidan tashqarida qolmoqda.

Yosh bolalar nomaqbul kontentga duch kelishi mumkin (zo‘ravonlik, oshi kattalarga mo‘ljallangan materiallar va h.k.).

Ijtimoiy ko‘nikmalarning susayishi:

Raqamli qurilmalarga haddan tashqari bog‘lanish bolalarda jonli muloqotga ehtiyojni kamaytiradi.

Empatiya, hamkorlik, jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanmay qoladi.

E’tibor va fikrlash muammolari:

Tez almashadigan axborot oqimi bolaning diqqatini jamlay olmasligiga olib keladi.

Uzoq vaqt diqqatni bir masalaga qaratish qobiliyati susayadi.

Axloqiy me’yorlar buzilishi:

Internetdagi ba’zi blogerlar va kontentlar bolalarda noto‘g‘ri qadriyatlar shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

So‘zlashuv madaniyati, hurmat, odob, va halollik kabi tarbiyaviy qadriyatlar orqaga surilishi mumkin.

Sog‘liq bilan bog‘liq muammolar:

Ekran oldida ko‘p vaqt o‘tkazish ko‘z, holat (pozitsiya), uyqu va jismoniy sog‘liqqa salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Harakatsizlik semizlik, mushaklarning sustlashuvi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Sabablarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak:

Ota-onalar va o‘qituvchilarning raqamli tarbiya bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi.

Bolalarga telefon yoki planshet berish orqali ularni “tinchlantirish” odati.

Bepul va cheksiz kontentga keng kirish imkoniyati.

Raqamli texnologiyalarni ijobiy va foydali tarzda ishlatish madaniyatining shakllanmaganligi.

Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun raqamli savodxonlik va raqamli gigiyena bo‘yicha treninglar o‘tkazilishi zarur. Bolalarni internetdan to‘g‘ri foydalanishga, xavfsizlik qoidalariga o‘rgatish – zamon talabi**. Tarbiya jarayonida texnologiyalarni foydali yo‘nalishda ishlatish:** Multimedia darsliklari, interaktiv o‘yinlar, tarbiyaviy multfilmlar va raqamli kitoblar orqali bolalarni nafaqat o‘rgatish, balki tarbiyalash ham mumkin.

Nazorat va muqobil faoliyatlar: Mobil qurilmalardan foydalanishga kun davomida me’yor o‘rnatish, bolalarga muqobil sifatida sport, ijodkorlik, kitob o‘qish, tabiatda sayr kabi faoliyatlarni taklif etish lozim.

Oilaviy va maktab hamkorligini kuchaytirish: Ota-onalar va pedagoglar bolalarning raqamli hayoti bo‘yicha muntazam muloqotda bo‘lishi, tarbiyaviy yo‘nalishlarda bir-birini to‘ldirib borishi lozim.

Yechimlar va tavsiyalar:

1. Ota-onalar va o‘qituvchilarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish

Maxsus seminar va treninglar orqali ularga internet xavfsizligi, bolalarning onlayn faoliyatini boshqarish usullari haqida bilim berish.

2. Raqamli gigiyena va internet etikasi haqida darslar

Maktab dasturiga internetdan foydalanish madaniyati, raqamli odob-axloq va xavfsizlik haqida darslar kiritish.

3. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish

Ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lish, ularni farzandlarining onlayn faoliyati haqida xabardor qilish.

4. Muqobil faoliyatlarni taklif etish

Bolalarga raqamli qurilmalardan tashqari jismoniy mashg‘ulotlar, ijodiy ishlar, o‘yinlar, kitob o‘qish va boshqa faoliyatlar taklif etish.

5. Bolalarga mos kontent tanlash

Yoshga mos, tarbiyaviy va o‘quviy jihatdan foydali ilovalar, multfilmlar va platformalarni tanlash va ulardan foydalanishni targ‘ib qilish.

Xulosa: Raqamli muhitda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash – zamonaviy ta’lim va tarbiyaning murakkab, ammo hal etilishi zarur bo‘lgan masalasidir. Ushbu muhitni bolalar uchun xavfsiz, tarbiyaviy jihatdan samarali qilish har bir ota-ona, o‘qituvchi va jamiyatning umumiy mas’uliyatidir. Texnologiya vositasi orqali nafaqat bilim, balki qadriyat, axloq va madaniyat ham yetkazilishi mumkin. Eng asosiysi – raqamli muhit bolalarni emas, bolalar raqamli muhitni boshqara oladigan darajada tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Raqamli muhitda boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni tarbiyalashda asosiy vazifa – texnologiyalardan foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir. Raqamli vositalar bolalarning rivojiga salbiy ta’sir qilmasligi uchun ular ota-ona va pedagoglar tomonidan boshqarilishi, nazorat qilinishi va to‘g‘ri yo‘naltirilishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. M.A.Tayirova. Multimedia technologies in the context of educational informatization role and importance / International Scientific and Practical Conference: “The role of science and innovation in the modern world” London, United Kingdom 28.02.2023. 111-117 page
2. . Easton, P. (2004). Enhancing the Contributions of Adult and Non-formal Education to Achievement of Education for All and Millennium Development Goals: Volume I Finding Improved Means of Service Provision in Adult and Non-formal Education.World Bank report. 5. Abadzi, H. (2003). Improvi
3. Gulyamova A.O. Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini raqamli pedagogika orqali rivojlantirish hamda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari. ilmiy-amaliy konferensiya T:2023yil 28 sentabr. 249- 253 betlar

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Xusnidinova Gulnoza Zoxidjon qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ (ijodiy) qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari, metodik asoslari va amaliy yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, kreativlikni shakllantirishda ta’lim muhiti, o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va hamkorlik muhitining ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: kreativlik, ijodkorlik, pedagogik yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, o‘qituvchi, innovatsion metod*

Zamonaviy bosqichda ta’lim tizimida o‘qituvchilardan nafaqat bilim berish, balki kreativ, mustaqil va moslashuvchan fikrlashga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash talab qilinmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida bu jarayon o‘ta muhim bo‘lib, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi o‘quvchilarning keyingi intellektual va ijtimoiy shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativ salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kreativlik — bu yangicha, noodatiy va samarali g‘oyalar yaratish, mavjud muammolarga original yechim topa olish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha inson tafakkurining yuqori bosqichlaridan biri bo‘lib, shaxsning yangilik yaratish, o‘zini ifoda etish va yangi vaziyatlarga moslashish imkonini

ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida esa kreativlik o‘quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida kreativlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki aynan shu davrda bolaning fikrlash, qiziqish, o‘zini anglash va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari faollashadi.

Pedagogik faoliyatda kreativlik bu — yangicha yondashuvlar, interfaol metodlardan foydalangan holda o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish demakdir. Kreativ o‘qituvchi — bu muammolarga oddiy va biryoqlama qaraydigan emas, balki har bir vaziyatga yangicha qarash, o‘z darslarini yangi shakllarda tashkil qilishga harakat qiladigan, o‘quvchining fikrini qadrlaydigan pedagogdir. Shuning uchun ham bugungi ta’limda kreativ fikrlaydigan, ijodkorlik bilan yondasha oladigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga talab ortib bormoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilimli, balki ijodkor, tashabbuskor va noodatiy vaziyatlarga moslasha oladigan bo‘lishi kerak. Buning uchun o‘qituvchida quyidagi kreativ kompetensiyalar shakllangan bo‘lishi lozim:

- Lateral fikrlash – ya’ni odatiy bo‘lmagan, keng doirali va alternativ yondashuvlarni ishlab chiqish. Bunday o‘qituvchi muammoga bir emas, bir nechta yechim taklif eta oladi.
- Muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish – sinfda yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarga mos va samarali yo‘l topish orqali darsni ijodiy tashkil etish.
- Moslashuvchan tafakkur va original g‘oyalar ilgari surish – har bir mavzuni turlicha yoritish, dars rejalariga o‘ziga xos yondashuv qo‘shish.
- Eksperiment va loyihalarga tayyorlik – amaliy ishlar, o‘quvchilar ishtirokidagi kichik loyihalar orqali mavzularni chuqurroq o‘rganishga intilish.
- Texnologiyalardan samarali foydalanish – raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar, video va audio resurslardan darsda foydalanib, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish.

Bu kompetensiyalar Williamsning kreativlik mezonlari – oqim (fluency), moslashuvchanlik (flexibility), original’lik (originality), tasavvur (imagination) va riskga tayyorlik (risk-taking) asosida rivojlantiriladi. Mazkur mezonlar asosida o‘qituvchi o‘zining ijodiy salohiyatini baholab, takomillashtirib borishi mumkin.

Kreativ qobiliyatni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit va mos metodlar zarur. Bunday muhitda o‘qituvchi o‘zini erkin his qiladi, yangiliklarni sinovdan o‘tkazadi va o‘quvchilar bilan faol muloqotda bo‘ladi. Quyidagi pedagogik sharoitlar kreativlikni shakllantirishda muhim hisoblanadi:

- Ochiq va demokratik muhit – fikrlar erkin almashinadigan, tanqid va mulohazalarga ochiq bo‘lgan sinf muhiti. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining har qanday g‘oyasiga hurmat bilan qaraydi, fikr aytishga undaydi.
- Muammoli ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, rolli o‘yinlar – bular o‘quvchilarni muammoni hal qilishga jalb etadi, ijodkorlikka undaydi, o‘qituvchidan esa har bir vaziyatga kreativ yondashishni talab qiladi.
- Ko‘p sensorli o‘qitish (vizual, audio, kinestetik) – turli hissiy tajribalardan foydalangan holda bolalarning darsga qiziqishini orttirish. Masalan, videoroliklar, rasmlar, tajribalar orqali mavzuni tushuntirish.
- Savol-javob, ochiq savollar, guruhli muhokamalar – bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi, o‘qituvchining esa rahbar, ishtirokchi va moderator sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Shu metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim muhitida kreativlik faollashadi, darslar esa ko‘proq hayotiy, faol va mazmunli bo‘ladi.

O‘qituvchining kreativ salohiyatini oshirish uchun unga mos tashkiliy va metodik sharoitlar yaratish zarur. Bu borada quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Kasbiy rivojlanish seminarlari, treninglar va workshoplar – o‘qituvchilarga yangi bilim va ko‘nikmalarni berish, ularda kreativ yondashuvlarni shakllantirishda xizmat qiladi.

• Yangi texnologiyalar asosida dars olib borish – interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalardan foydalanish o‘qituvchining raqamli savodxonligi va ijodkorligini oshiradi.

• Hamkorlikda o‘rganish (peer-learning) – o‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashish orqali yangi g‘oyalarni kashf etadilar. Mentorlik tizimi orqali yosh o‘qituvchilarga tajribali ustozlar ko‘maklashadi.

• Kreativlikni baholovchi muhitlar – ijodiy tanlovlar, dars ko‘rgazmalari, metodik yarmarkalar orqali o‘qituvchilar o‘z ishlanmalarini taqdim etishlari va tanqidiy fikr eshitishlari mumkin.

O‘qituvchining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini kuzatish va baholash ham zarur. Bu baholash nafaqat ustunliklarni aniqlash, balki rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Baholashda quyidagi mezonlar asos bo‘ladi:

• Dars metodlarining yangiligi va xilma-xilligi – o‘qituvchi darsni har xil usullarda olib borsa, bu uning ijodkorligidan dalolat beradi.

• Original va mustaqil resurslardan foydalanish – o‘z metodik ishlanmalari, qo‘llanmalari, o‘yinlari, didaktik materiallari mavjudligi.

• Loyihalarga yondashuvi va o‘quvchini jalb etish darajasi – darsda o‘quvchilarning faol ishtirok etishi, hamkorlikda o‘rganish faoliyati.

• Darsdagi interaktivlik va refleksiya – o‘quvchi bilan muloqot darajasi, darsdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qila olish, o‘z ustida ishlash qobiliyati.

Bu mezonlar asosida o‘qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini aniqlash, rivojlantirish bo‘yicha individual reja ishlab chiqish mumkin.

Xulosa: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativ qobiliyati – bu ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan muhit orqali bu salohiyatni samarali rivojlantirish mumkin. Har bir o‘qituvchining ijodkorlik darajasini oshirish esa, pirovard natijada, o‘quvchilarning barkamol shaxs bo’lib, rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Craft, A. (2003). Ta’limda ijodkorlikning chegaralari: o‘qituvchi uchun dilemmalar. British Journal of Educational Studies, 51(2), 113-127.
2. Amabile, TM (1996). Kontekstdagi ijodkorlik: Ijodkorlikning ijtimoiy psixologiyasini yangilash. Westview matbuoti.
3. Dewitt, P. (2017). Sinfda ijodkorlikning ahamiyati. Ta’lim va amaliyot jurnali, 8(3), 97-101.
4. Goleman, D. (1995). Hissiy intellekt: Nima uchun u IQ dan ko’ra muhimroq bo’lishi mumkin?
5. Runco, MA (2007). Ijodkorlik: nazariyalar va mavzular: tadqiqot, ishlanma va amaliyot. Elsevier.
6. Smit, JK va Xopkins, N. (2016). Boshlang‘ich dars: Sinfdan hikoyalar. Routledge.
7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI-YOSHLARNING IQTISODIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR MEROSIDAN FOYDALANISH

Anorova Bibisora Rabbano qizi
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda ajdodlar merosidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirib o‘tilgan. Maqola keng jamoatchilikka mo‘ljallangan bo‘lib, pedagoglar, talabalar manba sifatida foydalanishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy, tejamkorlik, tadbirkorlik, mutafakkir, madaniyat, savdo-sotiq, halollik.*

Jahonda o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liqlikda o‘qitishning samarali mexanizmlari o‘quv jarayoniga tadbiq etilmoqda.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining erkin, mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini shakllantirish, iqtisodiy tafakkuri va tasavvuri shakllangan o‘quvchilarni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratilgan. Bunda “yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni shakllantirish” masalasi muhim vazifalar sifatida belgilangan. Bunda o‘quvchining intellektual sifatlarini rivojlantirish, ta’lim va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, ularda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va tadbirkorlik sifatlarini tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida o‘z aksini topgan.

Sharq mutafakkirlari o‘zlarining asarlarida komil inson ega bo‘lishi zarur bo‘lgan tejamkorlik, ishbilarmonlik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, har ishda mo‘tadillik, iqtisodchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik, savdo va savdodagi halollik malakalarini bayon etganlar. Mazkur manbalarda isrof, xiyonat, o‘g‘rilik, buzg‘unchilik, yolg‘onchilik, beburdlik kabi salbiy illatlarning nafaqat noaxloqiy jihatlari, balki ularning insonga iqtisodiy zarar keltiruvchi mohiyati, mazmuni va oqibatlari ham yoritilgan.

Iqtisodiy ta’lim-tarbiya masalasi Sharq mutafakkirlari tomonidan doimo dolzarb hisoblanib kelingan. “Har bir kishi hisob ilmini bilishi va o‘z ishiga pishiq bo‘lishi kerak. Shunda u o‘z mehnatining natijalarini o‘lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin” – deb ta’kidlaydi Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy.

Abu Nasr al-Forobiy inson o‘z mablag‘ini sarflashni bilishi kerakligi, pul sarflashda qizg‘anchiqlik qilish xasislikka olib kelishi va pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklashini ta’kidlaydi. Shuningdek, insonning ilm-ma’rifatli bo‘lishi, kasb-hunarni mukammal egallashi, halol mehnat qilishi uni iqtisodiy tanazzuldan chiqishi va baxt-saodatga erishuvida yordam beruvchi asosiy omil ekanini bayon etgan.

Forobiy “Baxt-saodatga erishuv” asarida u bolalarga yoshlikdan hayot to‘g‘risida bilim berish zarurligi, yoshlar kasb-hunar, ish-tajribaga ega bo‘lishlari, nazariy bilimlarni o‘z vujudlariga singdirgachgina, asta-sekin egallagan kasblarida yutuqga erishib borishlari, doimo mantiqiy fikrlash yo‘li bilan uni amalda sinab ko‘rishga odatlanishlari kerakligini uqtiradi. Olimning bu fikrlaridan

bolani yoshlikdan nafaqat ilmni nazariy egallashga, balki to‘g‘rini noto‘g‘risidan ajratishda mantiqiy yondashishga o‘rgatish kerak degan ma’noni uqish mumkin[20]

Ibn Sino bolaga hisob-kitob ilmini o‘rgatish va ularda ishbilarmonlik, tashabbuskorlik xususiyatlarini shakllantirish zaruriyatini ta’kidlab, bu avvalo bolalarga hunar o‘rgatish zamirida o‘ziga ishonch paydo qilish, vaqt, undan unumli foydalanish, iqtisod qilishga doir bilimlarni rivojlantrish orqaligina amalga oshirish mumkin[21].

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asari muhim o‘rin tutadi. Yusuf Xos Hojib ma’naviy merosida insonlarning mehnatiga loyiq haq to‘lash, mehnatni to‘g‘ri baholab taqdirlash, har bir aqliy-jismoniy mehnatni qadriga yetish, moddiy manfaat, kasb-hunar egallash hamda kuchli ijtimoiy himoya masalalariga katta o‘rin berilgan[22].

XI asrda yaratilgan, Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asari jahonning ko‘p tillariga tarjima qilingan va qariyb o‘n asrdan buyon sharqshunos olimlar diqqat markazidadir. Asarda ifoda etilgan fikrlar o‘rta asr tarixiy davriga mansub axloqiy qarashlarni targ‘ib qilsada, u hamon o‘z tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmay dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu fikrlardan bugun ham ta’lim sohasida yoshlarga iqtisodiy bilim va tarbiya berish jarayonida foydalanish mumkin. “Qobusnoma” asari tahlil etilganda, unda tadqiq etilgan mavzuga mazmunan bog‘liq to‘rt bobda bolalarni yoshlikdan iqtisodiy savodga o‘rgatishga qaratilgan ma’lumotlar keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Muallif “Mol to‘plash haqida”gi 21-bobda farzandiga inson mol (boylik) jam qilishga yengil qaramasligi, ammo uni halollik bilan to‘plashi kerakligi, o‘zini har bir yaramas ish uchun xavf-xatarga qo‘ymasligi, yiqqan molini behuda sarf qilavermasligi, chunki molni saqlash yig‘ishdan qiyinligi uqtiriladi[23].

Alisher Navoiyning ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraligi, unda iqtisodiyot masalalariga doir ko‘pgina qimmatli g‘oyalar ham o‘z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkirimizning iqtisodiy qarashlari uning bir umrlik kitobi bo'lgan «Mahbub ul-qulub» («Qalb sevgilisi») asarida bayon qilingan.

“Mahbub ul-qulub» asarida Alisher Navoiy jamiyatning boyishida savdo-sotiq, tijorat ishlari muhim rol o‘ynashi haqidagi iqtisodiy g'oyani markantilistlardan bir asr ilgariyoq asoslab bergan. «Savdogar, — deb yozadi buyuk allomamiz, — yolg'iz foydani niyat qilmasligi, savdo qilib foyda topaman, deb ortiqcha kema so‘rmasligi, mol va pul ko‘paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak». «Savdogar boj-xiroj berish o‘rniga o‘z molini yashirib, o‘z obro‘sini to‘kmasa yoki topgan-tutganini merosxo‘rlari sotib-sovurishi uchun to‘plab qo‘ymasa yoki biror yomon hodisani ko‘zlash uchun sarflamasa, jamg'armasa yaxshi bo'ladi[24]”

Asarda bayon etilgan yuqoridagi iqtisodiy fikrlardan quyidagi iqtisodiy xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, savdo, bozor, tijorat, muomala jarayoni (oldi-sotdi) iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Zero, ular tovarlar takchilligini tugatishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, savdo davlat budjeti darom adining manbayi, mamlakat iqtisodiy qudratining tayanchlaridan biridir, zero, savdogarlar davlat xazinasiga boj-xiroj to‘lab turish bilan moliyaviy

[20] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b. – 78-81 b.
[21] Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b.
[22] Razzoqov A., Toshmatov Sh., O’rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – T.: “Moliya”, 2002. – B. 42.
[23] Kaykovus. Qobusnoma. –T.: O’qituvchi, 1998. -134 b.
[24] Q. Yo'ldoshev, Q. Muftaydinov, V. Abdurahmonov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T.: «IQTISOD—MOLIYA», 2006 y.

munosabatlarda muhim rol o‘ynaydilar. Uchinchidan, allomamiz savdogarlarni insofga, diyonatga chaqiradi, ulardan faqat o‘z foydasini ko‘zlab ish tutmaslikni talab qiladi.

Mamlakatimiz yoshlarining yuqori saviyada komil inson bo‘lib yetishishlarida iqtisodiy bilimlarni egallashlari juda muhimdir va bu holat shak-shubhasiz buyuk kelajagimiz ravnaqiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy ta’limning rivojlanishi va tom ma’noda targ‘ib qilinishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, jamiyat farovonligini ta’minlashga olib keladi. Iqtisodiy ta’lim tarbiyaning pirovard natijalari bugungi kundagi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari rivojlanishi va an’anaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish yo‘lidagi sa’y harakatlarning besamar ketmasligiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b. – 78-81 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b.
3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – T.: “Moliya”, 2002. – B. 42.
4. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: O‘qituvchi, 1998. -134 b.
5. Q. Yo'ldoshev, Q. Muftaydinov, V. Abdurahmonov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T.: «IQTISOD—MOLIYA», 2006 y.

MIGRATSIYA QURBONLARI: MIGRANT OILA FARZANDLARINI TA’LIM OLISHDAGI PSIXOLOGIK MUOMMOLLARI

Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi
Oila va gender ilmiy tadqiqot institute mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqola migrasiya bilan bog‘liq og‘riqli muammolarni ochib bergan. Xususan migrasiyani asl qurbonlari bo‘lgan bolalarni ta’lim olishdagi, jamiyatda o‘zini tutishi va xulqidagi o‘zgarishlarni tadqiqotlarda o‘rganilishi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar*: Migratsiya, migratsiyaning oilalarga ta’siri, bolalardagi psixologik o‘zgarishalar, ijtimoiy tarmoqlarni ta’siri.*

Annotation: *The article reveals the painful problems associated with migration. In particular, it describes the study of changes in the education, behavior and behavior of children who are the real victims of migration.*

Keywords: *Migration, the impact of migration on families, psychological changes in children, the impact of social networks.*

Аннотация*: В статье раскрываются болезненные проблемы, связанные с миграцией. В частности, описывается изучение изменений в образовании, поведении и поведении детей, которые являются настоящими жертвами миграции.*

Ключевые слова*: Миграция, влияние миграции на семьи, психологические изменения у детей, влияние социальных сетей.*

Bugungi kunda hamma sohada rivojlanish tez sur’atlarda rivojlanayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu rivojlanish ko‘plab imkoniyatlar eshigini yoshlarga ochib berayotgani quvonarli jarayondir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim olish, vaqtni tejash, dunyoning eng oldi oliygohlariga o‘qishga kirish bugun har qachongidan osonlashgan davrda yashamoqdamiz. Shu bilan birga jahonda

migratsiya oqimi ham kundan-kunga qamrovi kengayib borayotgan jarayonlardan biri bo‘lib, migratsiya qanchalik kengaysa ota, ona, yoki har ikkisining qarmog‘idan uzoqda qolayotgan bolalar ko‘payib boraveradi. Migratsiya natijasida ortda qolgan bolalarni ta’lim olishida, psixologik holatida va salomatligida yuzaga kelishimumkin bo‘lgan salbiy omillar quydagi bir qator tadqiqotlarda o‘rganilgan.

D.A.Majidova, D.F.Xusanova, D.F.Bazarovlar mehnat migrantlari oilalaridagi shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillarini loyiha doirasida o‘rganishgan.Tadqiqotda migratsiyaga ketgan shaxs va uyida qolgan oila a’zolari o‘rtasidagi hissiy bog‘liklikni o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, migratsiyaning oila a’zolariga, bolalarning xulq-atvoriga, psixologiyasiga ta’siri ham o‘rganilgan. Tadqiqot ikki guruhda olib borilgan. 1-guruhda otasi mehnat migrant bo‘lgan yolg‘iz onasi bilan qolgan bolalar, 2-guruhda ota-onasi mehnat migranti bo‘lgan buva, buvisi yoki qarindoshlar qarmog‘ida qolgan bolalar. Tadqiqot Toshkent shahri va Samarqand viloyatida o‘tkazilgan. Bolalarning otasiga nisbatan hissiy bog‘liqligi sinaluvchilarning 46,1 % ida yuqori chiqqan. Ularning tadqiqotlarida ikkala guruhda ham otaga bo‘lgan ijobiy munosabat 21 foizni tashkil qilgan. Ota-onasi migratsiyada bo‘lgan bolalar ota-onasini er va xotin sifatida qabul qilish ikkala tadqiqot guruhlarida ham kichik foizlarni ko‘rsatgan.

Ota-onasini oila davrasida ko‘rmaslik, ota-onaning ikkisi yoki birining doimiy migratsiyada, oiladan uzoqda bo‘lishi bolalarda to‘loqonli oila obrazi shakllanmasligiga sabab bo‘ladi. Bolada ota-onasiga va kelajakdagi o‘z oilasiga nisbatan munosabat shu tariqa shakllanadi. Bola ongida noto‘liq oilani normal oila sifatida ko‘ra boshlaydi. Natijada bolaning o‘ziga xos “oilaviy qadriyatlari” shakillanadi. Bundan tashqari, oilada qizlar onadan, o‘g‘il bolalar otadan jamiyatda o‘zini tutishni, shaxslararo munosbatlarni o‘rganadi. Bola aynan jamiyatda shaxslararo munosabatlarda o‘z qarashlari shakllanayotgan vaqtda yolg‘iz bo‘lishi ota-onalar va farzandlar o‘rtasida ham jamiyat bilan bo‘lgan shaxslararo munosobatlarda ham muammolarni yuzaga keltiradi. Bolaga ota-onasidek mehr-e’tibor, g‘amxo‘rlikni o‘z ota-onasidan boshqa shaxslar bera olmaydi. Ularning ketishi esa bolada o‘zini yolg‘iz va keraksizdek his qilishiga sabab bo‘ladi. Bu salbiy hissiy-emotsional holat bolada travmalarni hosil qilib xulq-atvoriga salbiy ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi.

M.S Latipova ham o‘z tadqiqot ishida “Mehnat migrantlari oilalarida voyaga etayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlar”ni o‘rgandi.Tadqiqotda jami 722 nafar o‘smir yoshdagi sinaluvchilar qatnashgan bo‘lib, izlanishlarlar xulosalariga ko‘ra migrant oilalardagi o‘smirlarda boshqa migrant bo‘lmagan oiladagi o‘smirlarga nisbatan yuqori darajadagi impulsivlik bilan ajralib turishi aniqlangan. Shu bilan bir qatorda migrant o‘smirlar ko‘pincha o‘z harakatlari haqida chuqur o‘ylay olmaydilar va ma‘lum bir vaziyatga tezroq va to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishar ekan. M.S Latipovaning olib borgan tadqiqoti xulosalariga ko‘ra quydagilarni keltirib o‘tish mumkin:

– ota-onalaridan uzoqda ekanligi, ular bilan doimiy muloqotni mavjud emasligi, migrant oila farzandlarida guruhlarda muvaffaqiyatli muloqot qilishga doim ham moyil bo‘lmaslik, jamoada ishlashni doim ham yaxshi ko‘rmaslik, mustaqil ishlashni afzal ko‘rish, muloqotda bo‘lmaslik, tanishish va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishda cheklanishlarga intilish istagi mavjudligi aniqlandi.

– ota-onasining chet-davlatda ishlashiga sabab sifatida farzand o‘zini aybdor hisoblashi natijasida bolaning psixikasida o‘zidan nafratlanish, doimiy ichki aybdorlik hislarini hosil bo‘lishi aniqlangan.

– oilaviy hayotda xavotir hissi baland ko‘rsatkich qayd etilib, migrant oila farzandlarida oilaning ertangi kunidan, ota-onasining ahvolidan, sog‘ligidan hamda moddiy ta’minlanganlikning dinamik

sur’atda kechish yoki kechmasligidan xavotirlanish vaziyatli hamda shaxsiy xavotir o‘chog‘ining alanga olishiga olib kelishi ta’kidlangan

X.Abdusamatov migrant oilalardagi ijtimoiy-psixologik muammolarni tadqiq qilgan. Tadqiqotda migrant oilalar 3 guruhga bo‘lib o‘rganilgan. Migratsiyaga ketganiga ikki-uch yil bo‘lgan oilalar, migratsiya davomiyligi to‘rt-yetti yil bo‘lgan oilalar va sakkiz yildan ko‘proq vaqt davomida migratsiya tufayli alohida yashayotgan oilalarda sevgi-muhabbat hislari darajasi tahlil qilingan. Migratsiya muddati qanchalik uzoq bo‘lgani sari er-xotin o‘rtasidagi his tuyg‘ular kamayishi aniqlangan. Psixologik tadqiqotlardan ham ma’lumki oilada shaxslararo munosabatlarni mustahkamlovchi omillardan biri muomala, suhbatlashish, o‘zaro yordam va dalda berish kabi xislatlardir. Oiladagi shaxslar alohida yashagan davrdan boshlab munosabatlardagi bog‘liqlik sekinlik bilan uzilib boradi. Ayniqsa, alohida yashagan er va xotinlarda his-tuyg‘ularni so‘nishi shaxsda stressni, tushkunlikni, o‘zidan qoniqmaslik hissini paydo qiladi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy frustrasiya holatini qay darajada ekanligi ham o‘rganilgan.

2006-yil O‘zbekistonning Toshkent, Andijon va Qoraqalpog‘iston hududlarida migratsiyaga olib keluvchi sabablarni o‘rganish maqsadidda loyiha doirasida tadqiqot olib borildi. Tadqiqot Shveytsariyaning O‘zbekistondagi elchixonasi Gender dasturi doirasida tayyorlangan. Tadqiqotning maqsadi migratsiyani quydagi sabab va oqibatlarini o‘rganishga qaratilgan.

1. Migratsiyasi bilan bog‘liq hayot strategiyalarini aniqlash.

2.Migrantlar va ularning oila a’zolarining milliy qadriyatlariga amal qilish darajasini aniqlash.

3.Migratsiyani oiladagi rollarni, qadriyatlarni, mafkurani qayta taqsimlanishiga ta’sirini o‘rganish.

4.Migratsiyaning salomatlikka ta’sirini ko‘rib chiqish kabi vazifalarni o‘z ichiga olgan.

Tadqiqot ishtirokchilari migratsiya huquqlarini va ijtimoiy yordam olish imtiyozlaridan bexabarligi bois ko‘p muammolarga duch kelganligini va ko‘pchiligi noqonuniy migrant bo‘lib faoliyat olib borganini ta’kidlagan. Suhbatda ishtirok etgan migrantlardan topilgan daromadni asosan nimaga sarflash so‘ralganda birlamchi xarajatlar sifatida 24% kundalik xarajatlarga, 20% mulk sotib olishga, 18% to‘y va tadbirlarga sarflashi aniqlandi. Keyingi o‘rinlarda ta’limga 10%, salomatlik uchun 7% ini sarf qilishi javoblari olindi. Suhbatlarda shahardagi va qishloqdagi migrant oilalar topayotgan daromadini sarflashda farqlar kuzatilgan. Shahardagi migrant oilalar pulini ko‘chmas mulkka qaratishsa, qishloqdagi migrant oilalar farzandlarining to‘y uchun, ya’ni qizining yoki o‘g‘ilning to‘yi uchun moddiy jamg‘armani sarflashini aytishgan. Qishloqdagi migrant oilalar sog‘ligi va farzandlar ta’limi uchun xarajat ajratishga deyarli e’tibor qaratshmagan. Bu,albatta, quvonarli holat emas. Migratsiyaning ijobiy tomoni sifatida shuni e‘tirof etish kerakki, migratsiyadan qaytgan shaxslar migratsiyaga asosan to‘y marosimlari uchun mablag‘ topish maqsadida ketishganini, ammo boshqa davlatda ishlab, madaniyati bilan tanishib bu marosimlar unchalik muhim emasligini anglaganligini ta’kidlagan. Migratsiyaga borgan mamlakatida qolishni 60% dan ko‘p migrantlar xohlashadi. U yerda qolib ketadigan migrantlar asosan yolg‘iz ayollardir, chunki orqasida kutayotgan oilasi, farzandlari, ota-onasi sabab migrantlar o‘z yurtiga qaytib kelishadi.

Tadqiqot doirasida aniqlangan migratsiyaning salbiy jihatlari:

– otaning uydan uzoq vaqt ketishi oilaviy rishtalarning uzilishiga, er-xotin hissiyotlarini so‘nishiga, ajrimga olib keladi;

– bolalarda xulq-atvor buzilishiga olib keladi. Qanchalik sovg‘a-salomlar berilmasin, lekin yolg’izlik hissidan qiynaladi. Oila haqidagi qarashlari noto‘g‘ri shakillanishiga sabab bo‘ladi;

– migratsiyadagi erkak ham ayol ham sog‘ligiga vaqtida e’tibor qarata olmasligi natijasida sog‘lik bilan bog‘liq muammolarga duch keladi;

– yolg‘iz onaning migratsiyaga ketishi esa bolalar uchun ikki karra salbiy ta’sirini o‘tkazadi

Таким образом, в последние два-три десятилетия изучение искусственного интеллекта в военном образовании становится все более распространенным и систематизированным. Опыт ведущих военных университетов мира подчеркивает необходимость комплексного подхода к интеграции ИИ, включающего в себя разработку образовательных программ и подготовку личного состава. Появление ИИ стал важным элементом современного военного образования, обеспечивая новые возможности для подготовки военных специалистов.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.

1. “West Point integrates AI into curriculum to prepare future leaders” (2021). Defense News. /https://www.defensenews.com/
2. “Военная академия Генерального штаба внедряет ИИ в образовательный процесс” (2020). Российская газета. /https://rg.ru/
3. “China’s military universities embrace AI to train future soldiers” (2021). South China Morning Post. / https://www.scmp.com/
4. National Defense Strategy of the United States (2022). U.S. Department of Defense. /https://www.defense.gov/
5. Стратегия развития искусственного интеллекта в Российской Федерации до 2030 года. /http://kremlin.ru/
6. China’s AI Development Plan (2017). State Council of the People’s Republic of China. /http://www.gov.cn/

IS’HOQXON IBRAT ASARLARIDA MILLIY TARBIYA MEZONLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA ILMIY ASOSLAR

Allomurotova Gulbahor
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Is’hoqxon Ibratning asarlarida ilgari surilgan tarbiyaviy g‘oyalar milliy tarbiyaning asosiy jihatlari bilan uyg‘un holda o‘rganiladi. Shuningdek, muallif*

fikrlari zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitda tahlil qilinib, dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida nazariy yechimlar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, ma’naviyat, Is’hoqxon Ibrat, madaniy o‘zlik, tanqidiy fikrlash, shaklparastlik, axloqiy qadriyatlar, “Ibrat Academy”, Video-interpretatsiya, stereotiplar, 3D rekonstruksiya.*

Аннотация: *В данной статье воспитательные идеи, представленные в произведениях Исхакхан Ибрат, изучаются в гармонии с основными аспектами национального воспитания. Также анализируются взгляды автора в современном социокультурном контексте, предлагаются теоретические решения актуальных проблем и пути их устранения.*

Ключевые слова: *национальное воспитание, духовность, Исхакхан Ибрат, культурная идентичность, критическое мышление, формализм, моральные ценности, «Академия Ибрат», видеоинтерпретация, стереотипы, 3D реконструкция.*

Annotation: *This article explores the educational ideas presented in the works of Is’hoqxon Ibrat in harmony with the core aspects of national upbringing. The author’s views are also analyzed within the framework of the modern socio-cultural context, and theoretical solutions are proposed to address pressing issues and challenges.*

Keywords: *national education, spirituality, Is’hoqxon Ibrat, cultural identity, critical thinking, formalism, moral values, “Ibrat Academy”, video interpretation, stereotypes, 3D reconstruction.*

Vaqt, asr laylatulqadrdek o‘tib ketar, ilmsiz,

axloqsiz qolursiz harakat darkor.

(Is’hoqxon to‘ra Ibrat)

Jadidchilik harakati vakili Is’hoqxon To‘ra Ibrat o‘zining “Millarni kim isloh qilur?”[25] nomli maqolasida xalq taraqqiyoti, milliy uyg‘onish va ma’naviy tiklanishning asosiy vositasi sifatida ilm, odob va ta’lim-tarbiyani ilgari suradi. Muallifning bu boradagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy milliy tarbiya konsepsiyasining muhim g‘oyaviy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Is’hoqxon Ibrat savol ohangida quyidagi fikrni ilgari suradi: “Millatni kim isloh qilur? Albatta o‘qituvchi, muallim, ma’rifatparvar odamlar.”

Bu jumla orqali u jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy yangilanishida muallim shaxsining markaziy o‘rinda turishini ta’kidlaydi. Maqoladagi “Beodobdan millat obod bo‘lmas”[26] degan ibora xalq orasida odob, madaniyat va or-nomus tuyg‘ularining yo‘qolishi milliy tanazzulga olib kelishini bildiradi. Bu fikr bugungi global axborot maydonida yoshlar ongiga begona madaniy qadriyatlar singib borayotgan bir paytda axloqiy immunitetni shakllantirish zaruriyatini eslatadi.

Bugungi kunda TikTok, Instagram kabi platformalar yoshlar orasida axloqiy me’yorlarni zaiflashtirishga olib kelmoqda. Is’hoqxon Ibrat bu xatarni oldindan sezgandek, beodoblik va jaholatni jamiyatning eng katta dardi sifatida talqin qiladi. Maqolada ilgari surilgan g‘oyalar bugungi axborot xuruji, madaniy tazyiq va ma’naviy zaiflik sharoitida yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda bebaho mezon hisoblanadi. Muallif ta’kidlaganidek, agar muallim o‘z zimmasidagi tarbiyaviy mas’uliyatni anglagandagina millat isloh bo‘ladi, yoshlar to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi va jamiyat yuksaladi.

Is’hoqxon Ibrat butun jahon ilmi, madaniyati va ma’naviyatining har qanday yangiliklaridan xalqni bahramand qilishga harakat qilgan buyuk rahnamolarimizdan biri. U jamoat arbobi sifatida o‘z otasidan qolgan besh tanob yerga xalq uchun istirohat bog‘i yaratgan, toshdan katta hovuz va o‘rtasida favvora qurdirgan, archa va manzarali daraxtlardan xiyobon barpo etgan, bu hiyobon

[25] U. Dolimov,. Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat[Matn]: risola./Toshkent: yoshlar nashriyot uyi,2022. 117-bet

[26] Is’hoqxon ibrat .Millatni kim isloh etar?- oyna jurnali,1914 yil , №12, 274-275 betlar.

Yevropa usulida qurilgan bo‘lib arkiga “Xush kelibsiz , Is’hoqiya bog‘iga!”[27] deb yozib qo‘yib, u yerga maxsus bog‘bon tayinlagan. Mutaffakkir bu bog‘ni ma’naviy hordiq chiqarish uchun qurgan, ayniqsa yoshlarga qarata gullarni behuda uzmazlikka tartib -intizomni saqlashga chaqiruvchi she’riy misralarni chiroyli taxtachalarga yozib gulzorning ma’lum joylariga qadab qo‘ygan. Is’hoqxon Ibratning faoliyati – xalq uchun yaratilgan istirohat bog‘i, uning har jihatdan did bilan jihozlanishi va axloqiy-tarbiyaviy misralar bilan bezatilishi – bu o‘z davri uchun ulkan madaniy-ma’naviy inqilob edi.

Ma’na, o‘sha sherlardan ba’zi namunalar:

Uzmagil behuda gul, bog‘bondin andesha qil,

Ori-ori sal uzarsan, xoridan andisha qil.[28]

Ayniqsa, “Uzmagil behuda gul, bog‘bondin andesha qil” kabi misralar talabalarni estetik tarbiya, mehnatga hurmat, tabiatga e’tibor va jamoat mulkiga nisbatan mas’uliyat ruhida tarbiyalaydi.

Yoki:

Beijozat gulni uzma boadab ,

So‘ra bog‘bondin senga qo‘ydim qadab.[29]

Is’hoqxon Ibrat tomonidan yaratib berilgan istirohat bog‘i va undagi yozuvlar quyidagi milliy tarbiya komponentlariga mos keladi: axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya.

-“Beijozat gulni uzma boadab” degan satr orqali talabalarda odob, hurmat, va tartibni shakllantirishga urg‘u berilgan.

-Bog‘dagi gullar, manzarali daraxtlar, favvora va yozuvlar talabalarning go‘zallikni anglash, tabiatni qadrlash hislarini shakllantiradi.

-Mahalliy xalq uchun maxsus yaratilgan bog‘ – milliy qadriyatlarga asoslangan amaliy vatanparvarlik ifodasidir.

-Bog‘bon mehnatini qadrlash, gulni so‘rash orqali halol mehnatga hurmat tarbiyalanadi.

- “Ori-ori sal uzarsan, xoridan andesha qil” degan satr bilan talabalarda tabiatni asrash, muqaddaslikni his qilish fazilatlari shakllantiriladi.

Hozirgi zamonaviy yoshlar orasida ko‘plab muammolar – beparvolik, jamoat mulkiga loqaydlik, axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda: Ibratning bog‘da odamlarga qarata yozgan misralari bugungi bog‘cha, maktab va oliy ta’lim, jamoat joylarida estetik, axloqiy targ‘ibot vositasi bo‘la oladi.

Talabalar ongiga “har bir narsaning egasi bor”, “behuda buzish emas, asrash kerak” degan fikrni singdirish ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi. Bugungi ekologik inqirozlar davrida, bolalikdan boshlab o‘simlikka, mehnatga va go‘zallikka e’tiborli bo‘lishni o‘rgatish juda dolzarbdir. Is’hoqxon Ibratning xalq uchun barpo etgan bog‘i nafaqat me’moriy yoki madaniy obida, balki milliy tarbiyaning amaliy maktabi bo‘lgan. Undagi har bir g‘oya – talabalarni axloqiy, estetik, ekologik, fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

[27] U. Dolimov,. Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat[Matn]: risola./Toshkent: yoshlar nashriyot uyi,2022. 124-bet

[28] Yuqoridagi adabiyot .125-bet
[29] Yuqoridagi adabiyot .126-bet

Bugungi kunda maktablar, bog‘chalar, kutubxonalar yoki jamoat joylarida shunday mulohazali yozuvlarni, tartibga da’vat qiluvchi she’riy ifodalarni joylashtirish Ibrat an’analarini davom ettirish, milliy tarbiya tizimini boyitish va jadidchilik merosini zamonaviy sharoitda amaliyotga tadbiq etish bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda Is’hoqxon Ibrat o‘z asarlarida jamiyatda shaklparastlik va modaga ko‘r-ko‘rona ergashish illatini qat’iy tanqid qiladi. Uning “Bizni(ng) xalqni(ng) ixlosi libosga, odamga emas”[30] degan fikri xalq orasida shaxsiyat va fazilatlar emas, tashqi ko‘rinish muhim sanalishini fosh etadi. Bu – tarbiya jarayonining tub mohiyatidan yiroqlashish, ya’ni zohirga berilib, botinni unutish muammosidir. Bugungi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan “brend” madaniyati, tashqi go‘zallik standartlari va shaxsiyat o‘rniga imidjga berilayotgan e’tibor milliy tarbiyaning asosiy tamoyillariga ziddir.

Buning oldini olish uchun tarbiyaviy faoliyatda shakl emas, mohiyatga urg‘u beradigan psixologik treninglar, shaxsiy fazilatlar ustuvorligini aks ettiruvchi pedagogik metodikalar joriy etilishi lozim. Bu borada I.Masharipovaning “Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya” konsepsiyasi muhim nazariy asos bo‘la oladi. Milliy tarbiyani zamonaviy yondashuvlar asosida kuchaytirish lozim. Jumladan, milliy qadriyatlarni zamonaviy kommunikatsion platformalar orqali ommalashtirish, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda milliylikni jozibador shaklda taqdim etuvchi loyihalarni amalga oshirish zarur.

Is’hoqxon To‘ra Ibratning taxallusi “Ibrat” bo‘lib, u o‘z davrining ma’rifatparvar jadidchisi sifatida tanilgani bizga ma’lum. Ayni mana shu nom bilan tashkil etilgan “Ibrat Academy” Is’hoqxon Ibrat kabi xalqni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirish uchun ta’lim, lug‘at, tarjima, matbaachilik, ilm-fan sohalaridagi xizmatlarini davom ettirish va yosh avlodga namuna sifatida ko‘rsatishni o‘z oldiga maqsad qilgan. “Ibrat Academy”- raqamli savodxonlik, ta’lim texnologiyalari, onlayn kurslar, innovatsion metodikalar orqali yoshlarga xizmat qiladi. Ibrat o‘z asarlarida 6 tilda lug‘atlar tuzgan, yoshlarning dunyoqarashi keng bo‘lishini istagan.”Ibrat Academy” ham zamonaviy texnologiyalar orqali milliy va jahon bilimlarini birlashtirgan o‘quv platformasi bo‘lishni ko‘zlagan va aynan mana shu platforma talabalar uchun ularning bilim oilshlari uchun juda qulay va muhimdir.

“Ibrat Academy” – bevosita Is’hoqxon Ibrat tomonidan asos solingan tashkilot emas, lekin u Ibratning nomi va ma’naviy-ma’rifiy merosidan ilhomlangan zamonaviy loyiha hisoblanadi. Bu loyihada Ibratga hurmat va uning ma’rifiy g‘oyalarini davom ettirish ruhi yaqqol sezilib turadi.

Bugungi ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri ham — milliy qadriyatlar va tarixiy merosni zamon ruhi bilan uyg‘unlashtirib, talabalarga yangicha metodikada yetkazishdir. Is’hoqxon Ibrat kabi jadid allomalarning g‘oyalari bu jarayonda tayanch bo‘la oladi. Ammo ularning merosini an’anaviy usullar bilan emas, balki zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali talabalarga ta’sirchan shaklda yetkazish dolzarb vazifadir. Is’hoqxon To‘ra Ibrat tomonidan ilgari surilgan ilm, odob, axloq, tarbiya masalalari bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot bosimi sharoitida yoshlarga oddiy an’anaviy usulda yetkazish qiyinlashib bormoqda. Shu bois, bugungi kunda ularning diqqatini tortadigan, e’tiborini jalb etadigan yangi o‘rgatish texnologiyalari zarur. Bu ishlarni amalaga oshirish uchun Is’hoqxon Ibrat merosini zamonaviy texnologiyalar asosida o‘rgatish metodikasining quyidagi usullaridan foydalanganimiz maqsadga muofiqdir.

Video-interpretatsiyalar usulidan foydalanish, talabalarning bilimini chuqurlashtirishda samarali bo‘ladi. Masalan: film, TikTok, YouTube qisqa sahnalar. O‘zbekiston milliy telekanallari va kino studiyalari tomonidan tayyorlangan “Is’hoqxon To‘ra Ibrat” nomli hujjatli va badiiy hujjatli filmni

[30] Jadid adabiyoti nashriyoti. Is’hoqxon Ibrat,”G‘azallar,,ilmiy va ma’rifiy maqolalar, tarixiy asarlar”.”Zabarjad Media”, 2022-yil 200-bet

talabalarga ko‘rsatish – bu uning hayoti va g‘oyalarini chuqur, tushunarli va ta’sirli o‘rgatishning eng samarali usullaridan biridir. Ibratning “Uzmagil behuda gul, bog‘bondin andesha qil” satrini mini-spektakl shaklida talabalar ishtirokida sahnalashtirib, uni TikTok yoki YouTube Shorts formatida ommaga havola qilish mumkin. Bu orqali talabalar nafaqat mazmunni tushunadi, balki o‘zlari badiiy tahlil va targ‘ibot jarayonida ishtirok etib, g‘oyaning mohiyatini chuqur his qiladi.

Talabalarga Ibratning tanqidiy fikrlarini (“Ixlos libosga, odamga emas”) tushuntirishda zamonaviy ko‘ngilochar platformalardagi stereotiplar tahlili orqali bahs-munozara uyushtiriladi. Masalan, talabalar ikki guruhga bo‘linib, “Shaxsiyat muhimmi yoki imidj?” mavzusida debat olib boradilar. Stereotiplar – hamma eshitgan lekin har doim ham tahlil qilinmaydigan mavzu. Munozara orqali talabalar ularning asosi bormi-yo‘qmi, zararli yoki foydaliligini tahlil qiladi. Bu bahs natijasida nafaqat bilim, ijtimoiy empatiya va madaniy yetuklik ham shakllanadi.

QR-kod joylashtirilgan dars materiallari yaratish. “Ilmga rag‘bat ber, ilmsiz el orqada qolur” degan fikr yozilgan sahifaga QR-kod qo‘yiladi. Talaba kodni skanerlab, ushbu fikrga doir audio sharh, video sahna, yoki interaktiv testga yo‘naltiriladi. Bu usul Ibrat g‘oyalarini multimodal shaklda qabul qilish imkonini beradi.

Talabalar Telegram bot orqali har kuni “Kun ibrati”ni olishadi va test, savol yoki muhokamada ishtirok etadilar. Yoki sun’iy intellekt vositalari yordamida “Ibratga savol” yo‘llab, uning nomidan yaratilgan fikrlar asosida bahs-munozara qilib shu asosida esse yozidilar. Bu darslar avtomatik yuboriladi, javoblar esa statistik tahlil uchun saqlanadi.

Virtual sayohatlar va 3D muzeylar Is’hoqxon Ibrat hayoti va faoliyati bilan bog‘liq joylarga virtual sayohatlar tashkil qilish mumkin. Google Earth platformalari orqali talabalar uning uy-maktabi, kutubxonasi, yozgan asarlari joylashgan maskanlarga “borib kelishadi”. Virtual sayohatda Marg‘ilondagi eski maktabga kiriladi. Bu yerda interaktiv belgilar orqali Ibrat yozgan asarlarni “ko‘zdan kechirish” va talabalar u haqidagi faktlar bilan tanishishi mumkin. Ibrat tomonidan yaratilgan bog‘, favvora, she’riy yozuvlar haqida 3D rekonstruksiya yoki virtual galereya yaratib, talabalarni onlayn ekskursiyaga olib chiqish mumkin. Bu orqali ular tarixiy manzarani ko‘z oldida gavdalantiradi va qadriyatlar bilan tanishadi.

Talabalar o‘z yashash joylaridagi maktab, bog‘cha yoki parkka Ibratning she’rlaridan tanlab, chiroyli dizayndagi taxtachalar tayyorlaydi va joylashtiradi. Bu orqali ular jamiyatga bevosita ta’sir ko‘rsatgan holda milliy tarbiyaviy faoliyatda ishtirok etadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak zamonaviy raqamli vositalar (hujjatli film, interaktiv taqdimotlar, QR-kodli materiallar, vizual xaritalar, rolli o‘yinlar va bahsli munozaralar) asosida o‘tkazilgan dars va tadbirlar natijasida talabalar Is’hoqxon To‘ra Ibrat shaxsiyatini faqat tarixiy ma’lumot sifatida emas, balki bugungi kun yoshlariga ibrat bo‘ladigan tirik namuna sifatida anglay boshlaydi.Uning ma’rifatparvarligi, ijtimoiy mas’uliyati, zamonaviy tafakkuri,vatanparvarligi kabi jihatlarni shaxsiy o‘rnak sifatida qabul qila boshlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jadid adabiyoti nashriyoti. Is’hoqxon Ibrat,”G‘azallar, ilmiy va ma’rifiy maqolalar, tarixiy asarlar”. ”Zabarjad Media”, 2022-yil
2. U. Dolimov,. Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat [Matn]: risola./Toshkent: yoshlar nashriyot uyi,2022. -180 b.
3. Is’hoqxon Ibrat. Saylanma asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.
4.Masharipova I. Shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2020.
5.Xo‘jayev S. Jadidchilik – millatning uyg‘onish yo‘li. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
6.Karimov J. ”Ta’limda zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari” Toshkent, 2021.
7. Yo‘ldoshev N. ”Multimodal o‘qitish: ta’limda yangi yondashuvlar”. Toshkent 2022.
8. “Ibrat Academy” rasmiy sayti: https://ibratacademy.uz

MILLIY MADANIY MEROS ASOSIDA RAQAMLI TA’LIM KONTENTLARINI YARATISH VA TALABALARDA BILIM FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISH

Boykuziyeva Rano Karimovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi assistenti.
FarDu tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida milliy madaniy meros asosida zamonaviy kontentlar yaratish orqali talabalarda bilimga nisbatan faollikni shakllantirish masalalari o‘rganiladi. Milliy madaniy meros — xalqning asrlar davomida shakllangan tarixiy, estetik va ma’naviy qadriyatlari jamlanmasi sifatida yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan interaktiv vositalar, video animatsiyalar, podkastlar va gamifikatsiya usullari orqali ushbu merosni ta’lim jarayoniga kiritish talabalarda nafaqat bilimga, balki o‘zlikni anglashga, estetik dunyoqarashga va tarixiy xotiraga nisbatan qiziqishni oshiradi. Maqolada shuningdek, xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniy xilma-xillik va ta’limdagi inkluzivlik tamoyillari asosida innovatsion pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Milliy madaniy meros, raqamli ta’lim, kontent yaratish, bilim faolligi, estetik tarbiya, innovatsion yondashuv, madaniy inklyuzivlik, yoshlar tarbiyasi.*

Zamonaviy ta’lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’lim muhitida raqamli resurslardan foydalanish talabaning faolligi, bilimga bo‘lgan qiziqishi va interaktiv ishtirokini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim faqat zamonaviy texnologiyalarni emas, balki milliy mazmun bilan boyitilgan kontentlar orqali tarixiy xotira va madaniy identitetni mustahkamlash imkonini beradi. Aynan milliy madaniy merosga asoslangan raqamli kontentlar orqali yoshlar o‘z milliy o‘zligini chuqurroq anglab, bilim olish jarayonida faol ishtirok etadi.

Milliy madaniy meros – bu xalqning tarixiy shakllanishi, hayot tarzi, tafakkur darajasi, ijtimoiy va estetik qarashlari, ruhiyati hamda milliy o‘zligining yuksak ifodasidir. U asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’analar, qadriyatlar, og‘zaki va yozma ijod, axloqiy me’yorlar, diniy e’tiqodlar va madaniy tajribaning murakkab majmuasini tashkil qiladi. Ta’lim esa ushbu merosni uzluksiz ravishda yoshlarga yetkazish, anglatish va uni zamon bilan uyg‘unlashtirib qayta talqin qilishning eng samarali ijtimoiy instituti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim va milliy madaniy identitetning uzviy bog‘liqligi shundaki, har qanday millatning taraqqiyot darajasi uning yoshlari orasida milliy madaniy identitetning qanchalik mustahkam ekani bilan belgilanadi. Ta’lim esa ushbu identitetni shakllantirish, mustahkamlash va himoya qilishda markaziy rol o‘ynaydi. Chunki o‘quv jarayoni orqali nafaqat zamonaviy fanlar o‘rgatiladi, balki milliy qadriyatlar asosida fikrlovchi, o‘zligini anglaydigan, madaniyatiga sodiq avlodni voyaga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

Milliy madaniy merosni ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish orqali talabalar o‘z millati tarixi va qadriyatlarini chuqurroq anglaydi, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi, global ta’sirlarga nisbatan madaniy immunitet kuchayadi, shunigdek jamiyatda ijtimoiy birdamlik va madaniy barqarorlik mustahkamlanadi.

Ma’naviy merosning zamonaviy ta’lim mazmunidagi o‘rni milliy madaniy merosning bir qismi bo‘lgan ma’naviy qadriyatlar – bu axloqiy me’yorlar, insoniylik tamoyillari, hurmat, sabr-toqat, mehr-oqibat, urf-odat va an’analar tizimidir. Bularni ta’lim mazmuniga kiritish yoshlarning nafaqat bilim, balki tarbiya orqali ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bu jihat kompetensiyaviy yondashuv doirasida axloqiy-madaniy kompetensiyalar shaklida o‘z ifodasini topadi. Ya’ni, ta’lim faqat bilim bermasdan, balki shaxsni ijtimoiy va madaniy kontekstda ongli tarzda faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Shuningdek, ta’lim orqali o‘rgatilayotgan tarixiy-madaniy meros yoshlarda madaniy xotira va davomiylik tuyg‘usini shakllantiradi. Bu holat esa xalqning o‘zligini yo‘qotmasdan global jarayonlarga moslasha olishini ta’minlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “agar biz O‘zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o‘z qo‘limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib bergan bo‘lamiz” — degan fikri ham, aynan shu jarayonga dolzarb yondashuvni bildiradi. Raqamli ta’lim vositalari orqali milliy merosning estetik va madaniy boyliklarini zamonaviy formatda taqdim etish, uni yosh avlod uchun jozibador shaklga keltirish, avvalo, ta’limda innovatsion va gumanitar yondashuvlarning birligini ta’minlaydi.

Madaniy meros orqali milliy ruhiy uyg‘onishni ta’minlashda milliy madaniy meros, ayniqsa, tarixiy-madaniy bilimlar, milliy til va adabiyot, san’at va musiqani o‘z ichiga olgan ta’lim komponentlari orqali talabaning ichki dunyosini, estetik didini, tarixiy xotirasini va milliy ruhini uyg‘otishga xizmat qiladi. Bu esa mustahkam fuqarolik ongini shakllantiradi, yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

Madaniy merosni ta’lim orqali zamon bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy ta’lim dunyoviy fanlar bilan birga milliy va madaniy o‘zlikning uzluksiz qayta talqini jarayonidir. Ta’lim vositasi orqali madaniy meros faqat o‘tmish yodgorligi emas, balki bugunning tarkibiy qismi sifatida yangicha mazmunda yosh avlod ongi va hayot falsafasiga singdirilishi kerak. Bu o‘rinda, UNESCO tomonidan ilgari surilgan **“**Madaniy xilma-xillikni ta’lim orqali himoya qilish**”** tamoyili asosida ham milliy merosga ta’limiy yondashuvda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:[31]

- Ta’limda madaniy inkluzivlikni ta’minlash;
- Tarixiy yodgorliklarni faqat o‘tmish emas, balki bugungi identitet manbai sifatida tushuntirish;
- Talabalarni madaniy va estetik ongga ega faol fuqarolar etib shakllantirish.

UNESCO — Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha maxsus agentligi bo‘lib, u har yili raqamli ta’limga oid global holat bo‘yicha hisobot e’lon qiladi**.** 2021-yilgi hisobotda UNESCO shunday fikr bildiradi:

“Raqamli kontentlar faqat texnik jihatdan sifatli bo‘lishi emas, balki madaniy jihatdan ham mos va xilma-xil bo‘lishi zarur. Har bir mintaqa yoki millatning o‘ziga xos qadriyatlari raqamli kontentlar orqali aks ettirilmasa, globallashuv sharoitida lokal madaniyatlar asta-sekin so‘nib boradi.”

UNESCO tavsiyalariga ko‘ra, har bir davlat raqamli ta’lim kontentlarini yaratishda milliy madaniy meros elementlarini aks ettirishi lozim. Bu o‘quvchilarning o‘z madaniyatini anglashiga, madaniyatlararo muloqotda faol bo‘lishiga va o‘zligini yo‘qotmasligiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar ta’limiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu jarayon nafaqat o‘qitish uslublarini, balki o‘rganish psixologiyasini ham tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy passiv bilim olish o‘rniga, raqamli vositalar yordamida talabalarda mustaqil izlanish, muloqotda bo‘lish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi faollik shakllari kuchaymoqda.

Raqamli kontentning o‘quv motivatsiyasiga ta’siri raqamli kontentlar, ayniqsa multimodal formatlar (video, audio, grafik, interaktiv elementlar) orqali talabaning ko‘proq sezgi kanallariga murojaat qiladi. Bu holat Kellerning ARCS motivatsiya modeli (Attention, Relevance, Confidence, Satisfaction) asosida tahlil qilinsa, quyidagilar kuzatiladi:[32]

- E’tibor (Attention)**:** Vizual va interaktiv elementlar talabani jalb qiladi.
- Dolzarblik (Relevance)**:** Kontent milliy madaniyatga bog‘langan bo‘lsa, o‘zlik bilan bog‘lanish kuchayadi.

[31] UNESCO. (2001). *Universal Declaration on Cultural Diversity*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000127162

[32] **Keller, J. M. (1987).** *Development and use of the ARCS model of instructional design*. Journal of Instructional Development, 10(3), 2–10.

• Ishonch (Confidence)**:** Raqamli vositalar yordamida mustaqil o‘rganish imkoniyati yaratiladi.
• Qoniqish (Satisfaction)**:** Faol ishtirokchi bo‘lgan talaba o‘z natijalaridan ruhlanadi.

Shunday qilib, raqamli kontent nafaqat bilim manbai, balki motivatsion vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Bilim faolligini shakllantirishning konstruktivistik yondashuvi. Raqamli kontentlarning talaba faolligini oshiruvchi eng muhim jihatlaridan biri – ularning konstruktivistik ta’lim nazariyasi bilan uyg‘unligidir. Bu nazariyaga ko‘ra, talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘zining faol ishtiroki orqali "quradi" (constructs knowledge). Raqamli kontentlar esa shunday interaktiv muhiti yaratadi:

• Bilimlar tayyor emas, balki ochilishi lozim bo‘lgan muammolar shaklida taqdim etiladi;
• O‘rganish yakka emas, balki ko‘p hollarda kollaborativ xarakterga ega (forumlar, loyihalar, tarmoqlar);
• Talaba o‘zining shaxsiy tajribasiga tayanib, bilimni moslashtiradi (personalization).

Shuning uchun ham, raqamli vositalar asosida ishlab chiqilgan o‘quv kontentlari talabani faollikka undaydigan, individual va kontekstga mos o‘rganish imkonini beradi.

Metakognitiv faollik va raqamli content raqamli kontentlarning yana bir muhim xususiyati — bu metakognitiv faoliyatni rag‘batlantirishi. Ya’ni, talaba nafaqat “nima bilishi”, balki “qanday bilib olgani” haqida ham fikr yuritadi. Bu borada xorijiy olimlardan biri**,** J. Flavell (metacognition konsepsiyasining asoschilaridan), bilim faolligini ikki asosiy jihatdan tahlil qiladi:[33]

• Kognitiv jarayonlar monitoringi (o‘z bilimlarini baholay olish);
• O‘rganishni boshqarish strategiyalari (qanday o‘rganish kerakligini bilish).

Raqamli platformalarda bu jarayonlar avtomatik tarzda faol bo‘ladi, chunki:

• Talaba topshiriq natijalarini darhol ko‘radi;
• O‘z bilim darajasiga mos resurslarni tanlaydi;
• O‘z-o‘zini tekshiruvchi testlar orqali bilimini o‘lchaydi.

Shu bois, raqamli kontent orqali olib borilgan ta’lim metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish va faollikni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy madaniy nazariya va milliy content jarayonlarida raqamli kontent orqali o‘qitishda talabaning madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstdagi bilimga bo‘lgan qiziqishini ham inobatga olish lozim. Bu borada L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy ta’lim nazariyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra:

• Bilim ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi;
• Madaniyat — bu bilimni uzatishning asosiy vositasi;
• Har qanday yangi bilim mavjud madaniy kontekst asosida talqin qilinadi.

Lev Vygotskiy — XX asrning mashhur rus psixologi bo‘lib, uning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi ta’lim sohasida chuqur ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu nazariyaga ko‘ra, har bir shaxsning bilimni o‘zlashtirish jarayoni u yashayotgan ijtimoiy va madaniy muhit bilan bevosita bog‘liq. Shaxs atrofidagi til, madaniyat, urf-odatlar, qadriyatlar va an’analar uning tafakkurini shakllantiradi.

Vygotskiy fikricha,[34] bola yoki talaba yangi bilimni faqat o‘zining shaxsiy qobiliyatlari bilan emas, balki madaniy jihatdan tanish bo‘lgan kontekstda, ya’ni o‘zi biladigan madaniyat va til orqali tezroq o‘zlashtiradi. Shu bois, ta’limda milliy madaniy merosga asoslangan raqamli kontentlar o‘quvchilarga bilimni ongli, chuqur va barqaror tarzda egallashga yordam beradi.

[33] **Flavell, J. H. (1979).** *Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry*. American Psychologist, 34(10), 906–911.
[34] **Vygotskiy, L. S. (1978).** *Mind in society: The development of higher psychological processes* (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner & E. Souberman, Eds.; A. R. Luria, M. Lopez-Morillas & M. Cole [with J. V. Wertsch], Trans.). Harvard University Press. (Original work ca. 1930–1934)

Demak, raqamli kontentlar milliy tarbiya mazmunlari bilan boyitilganda, ular nafaqat bilim uzatadi, balki shaxsni ijtimoiy-madaniy jihatdan ham shakllantiradi. Bu esa bilim faolligining mazmuniy va ruhiy asosini yaratadi.

Olim Marc Prensky "Digital Natives, Digital Immigrants" maqolasida raqamli avlod faqat raqamli muhitda o‘zini faollik bilan namoyon qila olishini aytadi.[35] Shuning uchun, o‘qitish uslublari va kontentlar shu muhitga moslashtirilishi kerak. Salmon[36] o‘zining 5 bosqichli raqamli ta’lim modelida talabani bosqichma-bosqich faol ishtirokchiga aylantirish uchun kontentlar qanday bo‘lishi kerakligini tushuntiradi. Unga ko‘ra, raqamli kontentlar faqat axborot emas, balki muloqot, hamkorlik va fikr almashuv imkonini ham yaratishi zarur.

Amerikalik tadqiqotchi Henry Jenkins tomonidan ilgari surilgan “Participatory Culture” (ishtirokli madaniyat) konsepsiyasi raqamli ta’limda muhim o‘ringa ega. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilar yoki talabalar faqat tayyor kontentni iste’mol qiluvchi emas, balki kontent yaratuvchisi sifatida ta’lim jarayonida ishtirok etishi kerak. Ayniqsa, ularni o‘z shaxsiy tajribasi, oilaviy tarixiy hikoyalari yoki madaniy qadriyatlari orqali kontentga hissa qo‘shishga undash — eng kuchli motivatsiya omilidir.

Jenkinsning fikricha[37], raqamli platformalar orqali talabalar o‘zlarining hududiy yoki oilaviy merosini tanishtirish, milliy qadriyatlar haqida blog yozish, podkastlar yaratish yoki video hikoyalar tayyorlash orqali o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi. Bu jarayon ularning nafaqat bilim faolligini oshiradi, balki ijodkorligini ham rivojlantiradi.

Milliy madaniy meros asosida yaratilgan raqamli ta’lim kontentlari zamonaviy ta’limning eng dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim. Bunday kontentlar orqali nafaqat yosh avlodda milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlar shakllanadi, balki ularning raqamli muhitdagi faol ishtiroki, ijodiy fikrlashi va bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi ham ortadi. Ular ta’lim jarayonini shunchaki axborot uzatuvchi emas, balki madaniy-tarbiyaviy tajriba maydoniga aylantiradi. Shu jihatdan qaraganda, milliy madaniyatni raqamli vositalar orqali taqdim etish nafaqat pedagogik, balki strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u ta’lim orqali madaniy merosni asrab-avaylash va zamon bilan uyg‘unlashtirishning samarali vositasidir.

Shu boisdan, raqamli ta’lim siyosati, o‘quv dasturlari va pedagogik metodikalarda milliy qadriyatlarga asoslangan kontentlar yaratish va ularni tizimli qo‘llash bugungi raqamli avlod ta’limida zaruratga aylangan. Bunday yondashuvlar orqali biz nafaqat bilimli, balki o‘zligini anglagan, madaniy yodgorliklarga hurmat bilan qaraydigan, milliy ruhda tarbiyalangan barkamol yoshlarni voyaga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – xalqimizning ezgu orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lidir*. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/4840

2. Anderson, T., & Dron, J. (2011). *Three generations of distance education pedagogy*. *International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12*(3), 80–97.

[35] **Marc Prensky** (2001) "Digital Natives, Digital Immigrants" maqolasida raqamli avlod faqat raqamli muhitda o‘zini faollik bilan namoyon qila olishini aytadi. Shuning uchun, o‘qitish uslublari va kontentlar shu muhitga moslashtirilishi kerak.

[36] **Salmon, G. (2000).** *E-tivities: The key to active online learning*. Routledge.

[37] **Jenkins, H. (2009).** *Confronting the challenges of participatory culture: Media education for the 21st century*. MIT Press.

3. Buckingham, D. (2007). *Digital media literacies: Rethinking media education in the age of the Internet*. *Research in Comparative and International Education, 2*(1), 43–55. https://doi.org/10.2304/rcie.2007.2.1.43
4. Jenkins, H., et al. (2009). *Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century*. MIT Press.
5. UNESCO. (2001). *Universal Declaration on Cultural Diversity*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000127162
6. Kress, G. (2003). *Literacy in the New Media Age*. Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203164754
7. Selwyn, N. (2012). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Bloomsbury Academic.
8. Al-Azawei, A., Parslow, P., & Lundqvist, K. (2017). *Barriers and opportunities of e-learning implementation in Iraq: A case of public universities*. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 18*(6), 1–22. https://doi.org/10.19173/irrodl.v18i6.3136

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA QIZLAR TARBIYASIGA OID MILLIY KONTENTLARNI YARATISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Choriyeva Dildora Ismat qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti stajor tadqiqotchi
Abdurazoqova Marg‘uba Muxammad qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida 5–7-sinf qiz o‘quvchilari tarbiyasini samarali tashkil etish, oila va mahalla hamkorligida milliy tarbiyaviy kontentlar yaratish muammolari va ularning yechimlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida raqamli kontentlar ishlab chiqish, monitoring tizimini shakllantirish, psixologik va kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash kabi mexanizmlar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, qizlar tarbiyasi, milliy kontent, mahalla-maktab-oila, boshqaruv, monitoring.*

Annotation: *This article explores the issues and solutions related to developing national educational content for the upbringing of girls in grades 5–7 in the digital learning environment. It emphasizes the importance of cooperation between the family, school, and community (mahalla) and presents mechanisms such as content development, monitoring systems, and psychological and professional preparation based on international experience.*

Keywords: *digital education, girls’ upbringing, national content, family-school-community, governance, monitoring.*

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы и решения, связанные с разработкой национального воспитательного контента для девочек 5–7 классов в условиях цифрового образовательного пространства. Подчеркивается значение сотрудничества между семьей, школой и махаллей, а также предлагаются механизмы разработки контента, систем мониторинга и психологической и профессиональной подготовки на основе международного опыта.*

Ключевые слова: *цифровое образование, воспитание девочек, национальный контент, семья-школа-махалля, управление, мониторинг*

Kirish

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonlarini tubdan o‘zgartirishda davom etmoqda. Ayniqsa, qizlarning 5-7-sinflarda tarbiyasi va rivojlanishi uchun raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston” dasturi doirasida maktablarda elektron darsliklar, interaktiv platformalar, onlayn resurslar keng joriy qilinmoqda. Bu esa tarbiyaviy jarayonlarda milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda yoshlar ma’naviyati, axloqiyati va madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Ammo raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tatbiq etishda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida qizlar tarbiyasi uchun raqamli kontent yaratishdagi dolzarb muammolar va ularni hal etish yo‘llari batafsil tahlil qilinadi.

Milliy tarbiya kontenti — bu yoshlarning milliy o‘zligini, ona tilini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik, madaniy va ilmiy axborotlar to‘plamidir. Ayniqsa, qizlar tarbiyasida bu kontent ularning jamiyatdagi o‘rnini, ma’suliyatini anglashga, oila va vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatni oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Milliy tarbiya kontentining asosiy yo‘nalishlari:

- Ona tili va adabiyoti orqali milliy o‘zlikni shakllantirish;
- Tarix va madaniyat darslarida qadimiy an’analar, tarixiy shaxslar haqida bilim berish;
- Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish (mehr-oqibat, halollik, mas’uliyat);
- Qizlar uchun sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish (sog‘lom ovqatlanish, jismoniy tarbiya);
- Oilada o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, mas’uliyatli bo‘lishni o‘rgatish.

O‘zbekiston maktablarida bugungi kunda bu yo‘nalishlarda milliy kontentlar ishlab chiqilmoqda, ammo ularning ko‘pi an’anaviy uslubda, matn va rasmdan iborat bo‘lib, yoshlarning interaktiv va ko‘rgazmali o‘rganish ehtiyojlarini qondira olmayapti.

Raqamli ta’lim muhitida milliy kontent yaratishdagi asosiy muammolar

1. Texnologik infratuzilmaning noyetarli rivojlanganligi

O‘zbekistonning ayrim viloyatlaridagi qishloq maktablarida yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuter va planshetlarning yetishmasligi o‘quvchilarning raqamli ta’limga kirish imkoniyatini cheklaydi. Masalan, Farg‘ona vodiysi va Buxoro viloyatining ayrim tumanlarida o‘quvchilar uchun yetarli texnik vositalar mavjud emas.

Bu muammo qizlarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi, ularning bilim olish imkoniyatlarini chegaralaydi.

2. Milliy kontentlarning interaktivligi va zamonaviyligi yetarli emasligi

Raqamli ta’lim yoshlarning diqqatini jalb qilish uchun animatsiya, video, interaktiv o‘yinlar, viktorinalar, testlar kabi ko‘rgazmali va qiziqarli shakllarda taqdim etilishi kerak. Hozirgi milliy tarbiya kontentlari ko‘pincha faqat matnli va rasmli bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishini to‘liq qondirmaydi.

Misol uchun, ZiyoNET platformasidagi ona tili va tarix bo‘yicha milliy kontentda interaktiv video va o‘yinlarning kamligi yoshlarning o‘rganish jarayonini qiziqtirmasligi sabab bo‘lmoqda.

3. Pedagoglarning raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanmasligi

Ko‘p o‘qituvchilar raqamli texnologiyalarni o‘rganishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Buning sababi o‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari yetarli emasligi, qishloq joylarda ularning o‘quv-uslubiy yordam olish imkoniyatlarining cheklanganligidir.

Misol uchun, Toshkent shahri va yirik shaharlar o‘qituvchilari raqamli ta’limda yetarlicha tajriba orttirgan bo‘lsa-da, viloyatlardagi maktablarda bu imkoniyatlar kam.

4. Ota-onalar va mahalla vakillarining raqamli ta’limga tayyor emasligi

Oila va mahalla hamkorligi qizlarning tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Biroq ko‘plab ota-onalar raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishda bilimga ega emas yokiishonchsiz. Mahalla vakillari esa yangi ta’lim metodlarini to‘liq anglamasligi, qo‘llab-quvvatlashda sustlik ko‘rsatishi mumkin.

Samarqand va Namangan viloyatlarida o‘tkazilgan so‘rovlarda ota-onalarning 30-40% raqamli ta’lim resurslarini qanday ishlatishni bilmasligi aniqlandi.

5. Yoshlarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelmasligi

Hozirgi milliy tarbiya kontentlari yoshlarning kundalik hayoti, qiziqishlari, psixologik xususiyatlarini inobatga olmagan holda tayyorlanmoqda. Zamonaviy yoshlar interaktivlik, qiziqarli hikoyalar, audio va video materiallarni ko‘proq afzal ko‘radi.

6. Mahalla-oila-maktab hamkorligining zaifligi

Mahalla va oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlik ko‘pincha formal, yuzaki bo‘lib qolmoqda. Tadbirkorlik, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tarbiyaviy ishlar hamkorlikda tashkil etilishi kamdan-kam uchraydi.

Muammolarga yechimlar

1. Texnologik infratuzilmani rivojlantirish va kengaytirish

Davlat tomonidan qishloq va chekka hududlarda internet tarmog‘ini kengaytirish, maktablarga zamonaviy kompyuter va planshetlarni yetkazib berish zarur. “Raqamli O‘zbekiston” dasturi doirasida buning uchun katta mablag‘ ajratilmoqda, ammo uni tezkor va samarali taqsimlashga e’tibor qaratish kerak.

2. Milliy kontentlarni interaktiv va zamonaviy formatda yaratish

Pedagoglar, IT-mutaxassislar va psixologlarning hamkorligida milliy qadriyatlarni yorituvchi video, animatsiya, interaktiv o‘yinlar, viktorinalar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, “Ona tilim — millatim” nomli interaktiv darslikda qizlar ona tili mavzusini qiziqarli o‘yinlar orqali o‘rganishi mumkin.

3. O‘qituvchilarni raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishga o‘qitish

O‘qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish kerak. Ayniqsa, viloyat va qishloq joylar uchun onlayn kurslar va mahalliy seminarlar o‘tkazilishi muhim.

4. Ota-onalar va mahallalarni qo‘llab-quvvatlash

Mahalla markazlarida ota-onalar uchun raqamli savodxonlik kurslari tashkil etish, ularga raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishni o‘rgatish zarur. Shuningdek, mahalla va maktab o‘rtasida doimiy aloqalar o‘rnatilib, tarbiyaviy ishlarni hamkorlikda olib borish kerak.

5. Yoshlarning ehtiyojlariga mos kontent yaratish

Yoshlarning fikrini inobatga olgan holda kontentni doimiy yangilab borish, ularni qiziqtiruvchi formatda — video, blog, podkast va o‘yinlar shaklida taqdim etish muhim.

6. Mahalla-oila-maktab hamkorligini kuchaytirish

Mahalla fuqarolar yig‘inlari va ota-onalar kengashi faol ishtirokida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar, festival va an’anaviy bayramlarni tashkil etish. Bu orqali qizlar ma’naviy va madaniy jihatdan boyitiladi.

Xulosa

Raqamli ta’lim muhitida qizlar tarbiyasi uchun milliy kontentlarni yaratish va tatbiq etish O‘zbekiston ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Buning uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy, interaktiv kontent yaratish, o‘qituvchilar va ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash, mahalla-oila-maktab hamkorligini kuchaytirish muhimdir. Shuningdek, doimiy monitoring va takomillashtirish orqali yoshlarning ehtiyojlariga mos tarbiyaviy muhit yaratilishi kerak. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki milliy ma’naviyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 180 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi qarori. – 2020-yil 5-oktabr.
3. Nishonov F. va boshq. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022. – 240 b.
4. Yo‘ldoshev A.X. Milliy tarbiya konsepsiyasi va zamonaviy yondashuvlar. – Samarqand: Zarafshon, 2021. – 150 b.
5. Rasulova N.M. Oila va mahalla hamkorligida tarbiya. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 132 b.
6. Isroilova D.Sh. Qizlar tarbiyasi va gender yondashuvlar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 140 b.
7. UNESCO. Digital learning and education: Opportunities and challenges. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
8. ZiyoNET platformasi: www.ziyonet.uz – (mavzuga oid ona tili va tarix fanlari kontenti tahlili asosida)
9. Abdullayeva S.K. Raqamli ta’lim muhitida milliy qadriyatlar asosida ta’lim va tarbiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 176 b.
10. OECD. 21st Century Skills and Education for Sustainable Development. – OECD Publishing, 2018.

ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИ ОММАЛАШТИРИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ

Ҳ.Д.Норқулов
Оила ва гендер илмий-тадқиқот институти педагогика фанлари номзоди, доцент

Аннотация: *Мазкур мақолада ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашни оммалаштириш, уни таълим, тарбия ва жамоатчилик фаолиятининг муҳим таркибий қисмига айлантириш ва бу жараёнда учрайдиган асосий муаммолар ва уларни ҳал этиш бўйича амалий таклиф ва тавсиялар илмий жиҳатдан таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *Ёшларни оилага тайёрлаш, ота-она, таълим муассаси, маҳалла, маънавий тарбия, фарзанд, ўқитувчи, оилавий қадриятлар, ижтимоий тармоқлар.*

Аннотация: *В данной статье научно анализируется популяризация подготовки молодежи к семейной жизни, превращение ее в важную составляющую образования, воспитания и общественной деятельности, а также основные проблемы, возникающие в этом процессе, и практические предложения и рекомендации по их решению.*

Ключевые слова: *Подготовка молодежи к семье, родители, образовательное учреждение, соседство, духовное воспитание, ребенок, педагог, семейные ценности, социальные сети.*

Abstract: *In this article, the popularization of preparing young people for family life, making it an important component of education, upbringing and public activities, and the main problems encountered in this process and practical suggestions and recommendations for solving them are scientifically analyzed.*

Key words: *Preparation of young people for family, parents, educational institution, neighborhood, spiritual education, child, teacher, family values, social networks.*

Бугунги кунда жамиятда соғлом ва барқарор оилани шакллантиришда ёшларни оилавий ҳаётга ҳар томонлама тайёрлаш масаласи тобора долзарб аҳамият касб этмоқда. Ажримлар сонининг ортиши, маиший низолар ва соғлом оилавий муҳитнинг етишмаслиги кўп ҳолларда турмушга қадам қўяётган ёшларнинг бу муҳим ҳаётий босқичга етарлича тайёр эмаслиги билан боғлиқ. Шу муносабат билан, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашни оммалаштириш, таълим, тарбия ва жамоатчилик фаолиятининг узвий қисми сифатида қайта кўриб чиқиш зарурати туғилмоқда.

Ҳар қандай жамиятнинг барқарорлиги ва тараққиёти, аввало, соғлом оилаларга боғлиқ. Оила - инсоннинг илк тарбияхонаси, шахс шаклланишининг асосий муҳити саналади. Шу боис, ёшларни турмушга, яъни оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларнинг маънавий, ижтимоий ва психологик етуклигини таъминлаш давлат ва жамият олдида турган муҳим вазифалардан биридир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек: *“Ёшларни ҳаётга, аввало, оилавий ҳаётга тайёрлаш – бу нафақат мактаб, балки бутун жамият, энг аввало, ота-оналарнинг ҳам бурчи ва масъулиятидир. Агар ёшлар оилавий ҳаётнинг мазмуни, масъулияти ва қадриятини яхши англаса, ажримлар камаяди, соғлом муҳитда фарзандлар тарбияланади”*[38].

Бугунги кунда жамиятдаги кўплаб ижтимоий муаммолар, жумладан, ажримлар сонининг кўпайиши, маиший низолар ва фарзандлар тарбиясидаги бўшлиқлар айнан ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнининг етарли эмаслиги билан боғлиқ. Ёшлар кўпинча турмуш қуришга ақлий, маънавий ёки руҳий жиҳатдан тайёр бўлмаган ҳолда кириб келмоқдалар. Шунинг учун ҳам ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашни оммалаштириш, уни таълим, тарбия ва жамоатчилик фаолиятининг муҳим таркибий қисмига айлантириш бугунги куннинг долзарб вазифаси ҳисобланади.

1. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш борасидаги мавжуд муаммолар.

1.1. Таълим тизимида мавжуд бўшлиқлар. Ҳозирги таълим-тарбия жараёнида ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласига етарли эътибор қаратилмаяпти. Мактаб ва олий ўқув юртларида турмуш маданияти, никоҳ масъулияти, оилавий муносабатлар психологиясига оид билимлар тизимли ва методик равишда берилмаяпти. Бу эса ёшларнинг оилавий ҳаётга тайёргарлик даражасини пастлатади. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда таълим тизими муҳим ўрин тутади. Бироқ, ҳозирги таълим жараёнида ушбу масалага етарлича эътибор қаратилмаётгани қайд этиш лозим. Бу соҳадаги бўшлиқлар қуйидаги йўналишларда яққол намоён бўлмоқда:

[38] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2023 йил 10 майдаги маърузаси. Расмий веб-сайтида (president.uz).

- **Ўқув дастурларида масалани етарли ёритмаслик.** Мактаб ва олий таълим муассасаларидаги фаол ўқув дастурларида турмуш маданияти, никоҳ масъулияти, оилавий муносабатлар психологияси, шахсий ривожланиш, мулоқот маданияти каби мавзуларга жиддий ўрин берилмаяпти. Мазкур масалалар айрим фанлар таркибида юзаки кўриб чиқилади, холос. Бу эса ёшларнинг назарий ва амалий тайёргарлигида катта бўшлиқларни юзага келтиради.

- **Амалиётга йўналтирилган ўқув шаклларининг етишмаслиги.** Ҳаётий вазиятлар, рол ўйинлари, кейс таҳлиллари, симуляциялар орқали амалий кўникмаларни шакллантириш жараёни етарлича йўлга қўйилмаган. Бу эса ёшлар учун оилавий муносабатларда қарор қабул қилиш, можароларни ҳал этиш, масъулиятни бўлишишга оид кўникмаларни ривожлантиришда тўсиқ бўлади.

- **Мутахассисларнинг етишмовчилиги.** Оилавий ҳаётга тайёрлашда муҳим ўрин тутадиган педагог-психологлар, ижтимоий ходимлар, ҳуқуқшунослар ва маслаҳатчилар таълим муассасаларида етарлича эмас ёки бу масала улар фаолиятининг асосий қисми ҳисобланмайди. Бу эса ушбу жараённинг тизимли йўлга қўйилишига тўсқинлик қилади.

- **Ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражаси.** Айрим ҳолларда ўқитувчиларнинг ўзи ҳам бу мавзулар юзасидан етарли билим ва кўникмага эга эмас. Уларнинг соҳага оид малака ошириш курсларидан ўтиши ва замонавий ёндашувларни ўрганиши таълим сифатини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

Таълим тизимидаги ушбу бўшлиқлар натижасида ёшлар турмуш қуриш олдидан ҳаётда учрайдиган воқеа-ҳодисаларга тайёр эмас ҳолда оила қурмоқдалар. Бу эса оилавий можаролар, ажримлар ва фарзанд тарбиясидаги муаммоларни келтириб чиқаради. Шу боис таълим тизимида оилавий ҳаётга тайёрлашни мақсадли, фанлараро ва амалий ёндашув асосида йўлга қўйиш долзарб вазифа ҳисобланади.

1.2. Ахборот хуружи ва хато роль-моделлардаги муаммолар. Бугунги ахборот замонасида ёш авлод тарбияси ва дунёқараши шаклланишида оммавий ахборот воситалари ва интернет манбалари етакчи ўрин тутади. Афсуски, ушбу манбалар орқали тарқатилаётган маълумотлар ҳар доим ҳам ёшларнинг маънавий ривожига хизмат қилмайди. Ижтимоий тармоқлар, блогерлар, реалити-шоулар, турли сериал ва киноларда акс эттирилаётган хато роль-моделлар ёшларда турмуш, оилавий муносабат ва масъулиятга нисбатан нотўғри тасаввур уйғотмоқда.

- **Сунъий “идеал” турмуш образлари.** Ижтимоий тармоқларда оммалашган контентлар кўпинча турмушнинг чиройли, сунъий, муаммосиз ва моддий фаровон кўринишини тарғиб қилади. Бундай образлар ёшларда турмуш ҳақида реал бўлмаган орзу-ҳавас ва кутилмаларни шакллантиради. Натижада ҳаётдаги қийинчиликлар ва масъулиятли қарорлар билан тўқнашганда уларда руҳий чарчоқ, тушкунлик ва ҳатто ажримга мойиллик юзага келади.

- **Оилавий қадриятларнинг инкор этилиши.** Кўплаб сериаллар ва интернет контентларда анъанавий оилавий муносабатлар, вояга етган инсоннинг жавобгарлиги ва фидойилиги кичкиналаштирилади. Баъзи блогерлар ва инфлюенсерлар томонидан ҳаёт тарзи, фаолияти ёки фикрлари орқали “эркинлик”, “ҳеч кимга боғлиқ бўлмаслик” каби ғоялар турмуш қуриш, оилавий мажбуриятни олдинги планга чиқармасликка чорлайди.

- **Ҳақиқий тажрибага асосланмаган маслаҳатлар.** Ижтимоий тармоқларда “психолог”, “мотивациячи” ёки “маслаҳатчи” сифатида чиқиш қилаётган шахсларнинг аксариятида реал билим, тажриба ва масъулият етишмайди. Улар берган маслаҳатлар кўпинча шахсий манфаат

ёки рейтинг учун қилинган бўлиб, ёшларни чалғитувчи, ҳаётий хато қарорларга олиб келувчи тавсиялар билан тўлган бўлади.

- Интернет орқали тарқаладиган салбий муҳит. Баъзи интернет платформаларида оилавий ҳаётни “зиёлик” ёки “ҳал қилиб бўлмайдиган оғир юк” сифатида тасвирлаш, никоҳдан воз кечишни “еркинлик рамзи” сифатида кўрсатиш тенденцияси кучаймоқда. Бундай муҳитда ўсиб келаётган ёшларда турмушга нисбатан салбий қарашлар шаклланади.

Ахборот хуружи ва хато роль-моделлар таъсири ёшларнинг турмушга муносабатига жиддий таъсир этмоқда. Улар ҳаётнинг реал муаммоларидан узоқда бўлган, сунъий ва нотўғри тасаввурлар асосида қарор қабул қилишга мойил бўлиб қолмоқдалар. Шунинг учун таълим тизими, жамоат ташкилотлари ва оммавий ахборот воситалари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаб, ёшларга ҳақиқий ҳаётга мос, фойдали ва маънавий бой ахборот муҳитини яратиш жуда муҳим ҳисобланади.

1.3. Руҳий ва шахсий тайёргарликнинг етишмаслиги. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнидаги энг муҳим жиҳатлардан бири бу руҳий ва шахсий тайёргарлик ҳисобланади. Замонавий ҳаётда турмуш қуриш нафақат моддий ва ижтимоий жиҳатдан, балки психологик барқарорлик ва шахсий масъулиятни ўз ичига олади. Аммо амалда кўпгина ёшларда бу тайёргарлик даражаси етарли эмаслиги кузатилади, бу эса турли муаммоларни келтириб чиқаради.

- Эмоционал маданиятнинг пастлиги. Кўп ёшлар турмуш қуришга киришганда ўз ҳис-туйғуларини идрок қилиш, уларни конструктив тарзда ифода этиш, шерик билан муаммоларни тинч йўл билан ҳал этиш қобилиятига эга эмас. Бу эмоционал камчиликлар натижасида нисбатан кичик можаролар ҳам катта низоларга айланиши мумкин.

- Масъулиятни бўлишиш қобилиятининг камлиги. Оиладаги муносабатлар муваффақияти жуда кўп жиҳатдан икки ёки ундан ортиқ шахснинг ўзаро масъулиятини билишига боғлиқ. Бироқ, ёшлар кўп ҳолларда ўзларини жуда мустақил ёки аксинча жуда боғлиқ деб ҳис қиладилар ва бу масъулиятни тенг бўлишишда қийинчиликлар туғдиради.

- Стрессга барқарорлик ва муаммоларни ҳал этиш кўникмаларининг етишмаслиги. Ҳаётдаги қийин вазиятлар, молиявий муаммолар, фарзанд тарбиясидаги муаммолар ёшларнинг руҳий босимга чидамлилигини талаб қилади. Руҳий тайёргарлик етишмаслиги стрессга қарши курашиш қобилиятини пасайтиради, бу эса оилавий муносабатларга салбий таъсир кўрсатади.

- Шахсий ўсиш ва ўз-ўзини англашнинг камлиги. Ёшлар кўп ҳолларда ўзларининг шахсий қадриятлари, мақсадлари ва интилишларини аниқ билмай, жамият ва атрофдагиларнинг босими остида қарор қабул қиладилар. Бу эса оила қуришда нотўғри танловлар ва муносабатларда зиддиятларга сабаб бўлади.

Руҳий ва шахсий тайёргарликнинг етишмаслиги ёшларнинг оилавий ҳаётда муваффақиятли бўлишларига тўсқинлик қилади. Шунинг учун таълим муассасалари, психологик хизматлар ва жамоат ташкилотлари ушбу соҳада ёшларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг шахсий ўсишини таъминлаш учун комплекс дастурлар ишлаб чиқиши зарур. Психологик кўникмаларни ривожлантириш, шахсий ўсишга йўналтирилган тренинглар ва маслаҳатлар ёшларнинг оилавий ҳаётдаги масъулият ва масъулиятли муносабатларга тайёр бўлишларини оширади.

1.4. Ота-она ва жамият ўртасидаги ҳамкорликнинг сустлиги. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнида ота-оналар, таълим муассасалари ва жамоатчилик ўртасидаги яқин

ва самарали ҳамкорлик муҳим аҳамиятга эга. Afsuski, ҳозирги кунда бу соҳадаги ҳамкорлик даражаси ками бўлиб, бу ёшларнинг турмушга тайёргарлигини пасайтирмоқда.

Ота-оналарнинг замонавий таълим ва тарбия усулларидан узоқлиги. Кўп ота-оналар анъанавий тарбия усулларига таянишади, замонавий психологик ва педагогик ёндашувлардан хабардорлик даражаси паст. Бу уларнинг фарзандларининг оилавий ҳаётга тайёргарлигида актуал метод ва тавсиялардан фойдаланишини чеклайди.

Жамоат ташкилотлари ва маҳаллий ҳокимиятлар билан ҳамкорликнинг заифлиги. Маҳалла, фуқаролик жамияти институтлари, диний ташкилотлар ва таълим муассасалари ўртасида ёшларни тарбиялаш ва оилавий муносабатларга тайёрлаш борасидаги мувофиқлаштирилган лойиҳалар ва дастурлар кам ва самарасиз. Бу эса ёшларга муттасил ва бир хил маънода маълумот етказишни қийинлаштиради.

Ота-оналар ва таълим муассасалари ўртасидаги мулоқотнинг чекланганлиги. Маҳаллий даражадаги оилавий тадбирлар, маслаҳатлашувлар ва учрашувлар сони кам, уларнинг мазмуни кўпинча нафақат ёшларни, балки уларнинг ота-оналарини ҳам қониқтирмайди. Бу эса таълим муассасалари билан оила ўртасидаги ишонч ва ҳамкорликни сусайтиришга сабаб бўлади.

Жамоатчилик фикри ва ёшларни тарбиялашдаги масъулиятнинг тарқалиши. Жамиятнинг оилавий қадриятларга бўлган муносабати, ёшлар учун ижобий роль-моделларни яратиш, уларни оилавий ҳаётга тайёрлашда ҳамжиҳатликка олиб келувчи муҳитнинг йўқлиги ҳамкорликни заифлаштиради. Бу эса ёшларнинг шахсий ва ижтимоий ривожланишида кўпроқ ёлғиз қолишига сабаб бўлади.

Ота-она ва жамият ўртасидаги ҳамкорликнинг сустлиги ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнида муҳим муаммо саналади. Муаммони бартараф этиш учун ота-оналар, таълим муассасалари ва жамоат ташкилотлари ўртасидаги мулоқот ва ҳамкорликни кучайтириш, замонавий таълим усуллари ва жамоатчилик ресурсларидан фойдаланиш лозим. Бу ёшларнинг барқарор оила қуриши ва ижтимоий муваффақиятли бўлишларини таъминлайди.

2. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашни оммалаштириш бўйича ечим ва таклифлар

2.1. Таълим тизимида оилавий ҳаётга тайёргарликни интеграция қилиш бўйича ечимлар. Ёшларни оилавий ҳаётга самарали тайёрлашда таълим тизими муҳим рол ўйнайди. Шу боис таълим муассасаларида оилавий ҳаётга тайёргарлик мавзусини ўз вақтида ва интеграцияланган тарзда киритиш зарур. Қуйида бу борада амалга оширилиши мумкин бўлган асосий ечимлар кўриб чиқилади:

- Ўқув дастурларида оилавий ҳаёт мавзусини кенг қамраб олиш. Таълим дастурларига турмуш маданияти, шахсий муносабатлар психологияси, никоҳ ва оила ҳуқуқи, ота-оналик масъулияти каби мавзуларни киритиш лозим. Бу фанлар оилавий ҳаёт ҳақидаги назарий билимларнинг тизимли ва фанлараро йўналишда ўрганилишини таъминлайди.

- Амалиётга асосланган таълим шаклларини жорий этиш. Назария билан бирга, ёшларга ҳаётдан олинган воқеалар, рол ўйинлари, муаммо ҳалли ва коммуникация кўникмаларини шакллантириш учун интерактив усуллардан кенг фойдаланиш керак. Бу ёшларнинг оилавий муносабатларда ўзини кўрсатиш қобилиятини оширади.

- Психологик ва маслаҳатчилик хизматларини ривожлантириш. Мактаб ва олий ўқув юртларида психологик ёрдам, маслаҳатлар бериш хизматларини ташкил этиш ва

мутахассисларни тайёрлаш зарур. Бу ёшларга шахсий ва руҳий тайёргарликни мустаҳкамлашда ёрдам беради.

- Мутахассисларнинг малакасини ошириш. Оилавий ҳаётга тайёргарлик бўйича ўқитувчилар, психологлар ва маслаҳатчилар учун доимий қайта тайёргарлик курслари ташкил этилиб, замонавий таълим ва педагогика усуллари ўргатилиши керак.

- Ота-оналар ва жамият билан ҳамкорликни кучайтириш. Таълим муассасалари ота-оналарни оилавий ҳаётга тайёргарлик масалалари бўйича маълумотлаштириш ва уларни тарбия жараёнига кенг жалб этиш чораларини амалга ошириши муҳим. Бу жамоатчилик ресурсларини самарали фойдаланиш имконини беради.

- Ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда онлайн платформалар, вебинарлар, видео дарслар ва мобиль илова орқали замонавий ва қулай усуллар жорий қилиш мумкин. Бу, айниқса, масофадан таълим олувчи ёшлар учун муҳим.

Таълим тизимида оилавий ҳаётга тайёргарликни интеграция қилиш ёшларнинг турмушга тайёргарлигини оширишда асосий восита ҳисобланади. Ўқув дастурларининг самарали янгиланиши, психологик ёрдам хизматларининг ривожланиши ва жамоатчилик билан яқин ҳамкорлик ёшларнинг оилавий муносабатларда муваффақиятли бўлишига хизмат қилади.

2.2. Ахборот воситалари орқали тарғиботни кучайтириш. Замонавий ахборот технологиялари жамият онгини шакллантиришда ҳал қилувчи омилга айланди. Айниқса, ёшлар ахборотни кўп ҳолларда ижтимоий тармоқлар, онлайн платформалар ва оммавий ахборот воситалари орқали оладилар. Шу сабабли, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда медиатаълим ва мақсадли тарғиботни кучайтириш муҳим вазифа ҳисобланади.

- Соғлом оилавий муносабатларни тарғиб қилувчи контент яратиш. Телевидение, радио, интернет сайтлари, YouTube, Instagram, Telegram ва TikTok платформаларида оилавий ҳаёт маданиятини тарғиб қилувчи видеороликлар, подкастлар, мақолалар ва блоглар тайёрланиши керак. Мазкур контентлар оддий, ҳаётий ва ёшлар тилида тайёрланса, таъсири юқори бўлади.

- Ижобий роль-моделлар орқали таъсир қилиш. Блогерлар, санъаткорлар, спортчилар, илм аҳли каби ёшлар орасида обрўли шахслар иштирокида соғлом оилавий ҳаёт, масъулият, ватанпарварлик ва анъанавий қадриятлар мавзусидаги чиқишлар ёшларга катта таъсир кўрсатади. Бундай шахсларни медиаконтентларда фаол иштирок эттириш керак.

- Интерактив ахборот кампаниялари ташкил этиш. Ёшлар ўртасида қизиқарли ва таъсирли интерактив онлайн лойиҳалар (масалан: "Менинг орзудаги оилам", "Оилавий ҳаётда 5 қадам", "Соғлом муносабатлар викторинаси")ни йўлга қўйиш орқали уларни фикр юритиш, ўрганиш ва муносабат билдиришга жалб қилиш мумкин.

- Нотўғри контентларга қарши муқобил тарғибот. Ижтимоий тармоқларда оилавий ҳаётни нотўғри талқин қиладиган, шахсий масъулиятни инкор этувчи контентларга қарши курашиш учун ҳуқуқий ва ахборотий чоралар кўриш билан бирга, уларга муқобил ижобий ғояларни кенг оммага етказиш зарур. Шу мақсадда давлат ва жамоат ташкилотлари биргаликда ҳаракат қилиши мақсадга мувофиқ.

- Махсус медиаплатформаларни ишга тушириш. Ёшлар учун оилавий ҳаёт, муносабатлар психологияси, шахсий ривожланиш ва ҳаётий кўникмаларга бағишланган миллий медиапортал, YouTube канал ёки мобил иловаларни яратиш – узоқ муддатли ва тизимли таъсир кўрсатадиган ечимдир.

Ахборот воситалари орқали оилавий ҳаётга тайёргарлик бўйича тарғиботни кучайтириш – медиа майдонидаги курашнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Соғлом ахборот муҳитини яратиш, ёшларга манфаатли контентлар етказиш ва ижобий роль-моделлар орқали таъсир кўрсатиш орқали ёш авлоднинг маънавий баркамоллиги ва соғлом оила қуриш салоҳияти оширилади.

2.3. Психологик тайёргарликни кучайтириш. Ёшларнинг оилавий ҳаётда муваффақиятли бўлиши, аввало, уларнинг шахсий баркамоллиги, руҳий барқарорлиги ва тўғри муносабат ўрнатиш қобилиятига боғлиқ. Психологик тайёргарликнинг етарли даражада бўлмаслиги турли можаролар, ажримлар ва муносабатлар мураккаблашувига сабаб бўлади. Шу боис таълим, жамият ва оила доирасида ёшлар ўртасида психологик тайёргарликни кучайтириш долзарб вазифа сифатида қаралиши лозим.

- Мактаб ва ОТМларда психологик тарбияни кучайтириш. Таълим муассасаларида махсус фанлар (масалан, “Шахсий ривожланиш”, “Эмоционал интеллект”, “Мулоқот психологияси”) ёки модуллар асосида психологик тайёргарликка оид билимларни тизимли равишда бериш керак. Бу ёшларга ўз-ўзини англаш, ҳис-туйғуларни бошқариш, муносабат ўрнатиш каби муҳим кўникмаларни шакллантиради.

- Психологик тренинг ва семинарлар ташкил этиш. Ўқув юртлари, маҳалла ва ёшлар марказларида "Оилавий муносабатлар психологияси", "Стрессни бошқариш", "Можароларни тинч ҳал этиш", "Тинглаш маданияти" каби мавзуларда амалий тренинглар ташкил этиш орқали ёшлар мустаҳкам руҳий асосларга эга бўладилар.

- Ёшлар учун бепул психологик маслаҳат хизматлари. Ҳар бир таълим муассасасида, маҳалла ва ёшлар марказларида профессионал психологлар фаолиятини ташкил этиш ва онлайн маслаҳат хизматларини ривожлантириш орқали ёшлар ўз муаммоларига тезкор ва ишончли ечим топиш имкониятига эга бўладилар.

- Ота-оналарни ҳам руҳий тарбия жараёнига жалб этиш. Психологик тарбия фақат ёшлар эмас, балки уларнинг ота-оналарига ҳам қаратилмоғи керак. Ота-оналарга болаларнинг шахсий ривожланишида қандай ёрдам бериш, ҳиссий қўллаб-қувватлаш, тинч мулоқот ва тушуниш муҳитини яратиш бўйича мунтазам семинарлар ўтказиш тавсия этилади.

Медиа ва ижтимоий тармоқларда психологик тарғибот. Психологик тайёргарлик мавзусида оммабоп ва тушунарли видеолар, инфографикалар, тестлар, подкастлар орқали ёшларнинг ушбу соҳага қизиқишини кучайтириш, уларни ўзи устида ишлашга ундаш керак. Бунда таниқли психологлар ва ижобий роль-моделлар иштирокидаги контентлар айниқса самарали бўлади.

Психологик тайёргарликни кучайтириш орқали ёшларда ҳаётда учрайдиган мураккаб ҳолатларга бардош бериш, тўғри қарор қабул қилиш, муносабатларни соғлом асосда қуриш қобилияти ривожланади. Бу эса мустаҳкам, масъулиятли ва барқарор оилалар шаклланишига асос яратади. Давлат ва жамият ушбу жараёнда фаол иштирок этиши, ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш механизмларини йўлга қўйиши лозим.

2.4. Жамоатчилик ва маҳалла иштирокини кенгайтириш. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда таълим муассасалари ва оила билан бир қаторда жамоатчилик, айниқса маҳалла тизимининг иштироки муҳим аҳамият касб этади. Аҳоли ўртасида соғлом ижтимоий муҳит яратиш, миллий ва маънавий қадриятларни мустаҳкамлаш, оилавий ҳаётнинг масъулиятли жиҳатларини тушунтиришда маҳалла ва жамоат ташкилотлари етакчи куч сифатида иштирок этиши керак. Аммо бу соҳада ҳам ҳали тўлақонли салоҳиятдан фойдаланилмаяпти.

- **Маҳалла тарғибот гуруҳларининг самарадорлигини ошириш.** Маҳаллаларда фаолият юритаётган “аёллар маслаҳат кенгаши”, “ота-оналар кенгаши” ва “ёшлар етакчилари” фаолиятини қайта кўриб чиқиб, уларни аниқ мақсадли дастурлар асосида тайёрлаш ва мувофиқлаштириш лозим. Тарғибот ишлари даврий, манзилли ва ёшлар дунёқарашига мос усулларда олиб борилиши керак.

- **Маҳалла ва таълим муассасалари ўртасида ҳамкорликни кучайтириш.** Маҳалла фаоллари мактаб ва ОТМлар билан ҳамкорликда оилавий ҳаёт мавзусидаги тадбирлар, давра суҳбатлари, тренинглар ўтказиши мумкин. Бунда маҳаллий шарт-шароит, урф-одат ва реал ҳаётий мисоллар асосида иш юритилса, таъсир доираси анча кенгаяди.

- **Жамоатчилик асосида маслаҳат марказлари ташкил этиш.** Маҳалла ҳудудларида ёшлар, янги турмуш қурган оилалар ва ажрим хавфи юқори бўлган оилалар учун бепул маслаҳат марказлари ташкил этиш лозим. Бу марказларда тажрибали оилавий маслаҳатчилар, психологлар ва ҳуқуқшунослар фаолият юритиши керак.

- **Ижтимоий тадбирлар орқали тарғиботни кучайтириш.** Маҳаллаларда “Оила - муқаддас даргоҳ”, “Фаровон оила - мустаҳкам жамият” каби мавзуларда оммавий тадбирлар, маънавий учрашувлар, ёшлар форумлари ташкил этиш орқали оилавий ҳаётга доир ижобий қарашлар кенг тарғиб қилиниши мумкин.

- **Фаол фуқаролик жамияти институтлари иштирокини таъминлаш.** Нодавлат нотижорат ташкилотлари (ННТ), ёшлар уюшмалари, хотин-қизлар жамиятлари ва масжид-меҳрибонлик марказлари каби институтлар билан ҳамкорликда ёшларга турли шаклларда (маърузалар, видео-тақдимотлар, маслаҳат кунлари) маънавий-маърифий кўмак бериш самарали натижаларга олиб келади.

Маҳалла ва жамоатчиликнинг оилавий ҳаётга тайёргарликдаги фаол иштироки - миллий қадриятларимизга асосланган, жамиятда барқарорликни таъминловчи муҳим омилдир. Бу борадаги ишларни тизимлаштириш, жамоат ташкилотлари ва фуқароларни ушбу жараёнга чуқур жалб қилиш ёш авлоднинг маънавий баркамоллигини таъминлашга хизмат қилади.

Хулоса ўрнида келтириш мумкинки, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласи бугунги кунда нафақат маънавий, балки ижтимоий, ҳуқуқий ва миллий барқарорлик нуқтаи назаридан ҳам катта аҳамият касб этмоқда. Зеро, мустаҳкам оила - соғлом жамиятнинг, маънавиятли авлоднинг ва барқарор давлатнинг пойдевори саналади.

Ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, бу соҳада таълим тизимидаги бўшлиқлар, ахборот хуружи, шахсий ва руҳий тайёргарликнинг етишмаслиги, ҳамда жамоатчилик ва ота-она ҳамкорлигининг сустлиги каби муаммолар мавжуд. Уларни бартараф этиш учун эса тизимли, ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкам ва амалий механизмлар асосида иш олиб бориш зарур.

Бу борада қуйидаги устувор вазифаларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисобланади:

таълим дастурларига оилавий ҳаётга оид фан ва модулларни киритиш;

оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда соғлом оилавий қадриятларни тарғиб қилишни кучайтириш;

маҳаллаларда психологик маслаҳат марказлари ва “Оила мактаби” курсларини жорий этиш;

жамоатчилик ва маҳалланинг ёшлар тарбиясидаги иштирокига ҳуқуқий ва институционал асосларни мустаҳкамлаш.

Шу тариқа, ёшларни ҳаётга, айниқса оилавий ҳаётга тайёрлашда давлат, оила, таълим тизими ва жамоатчиликнинг биргаликдаги саъй-ҳаракатлари орқали барқарор, маънавиятли ва масъулиятли авлод шакллантирилиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2023 йил 10 майдаги маърузаси. Республика Президентининг расмий веб-сайти: www.president.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (2023 йил таҳрири). – Тошкент: “Адолат” нашриёти, 2023.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Оила кодекси”. – Тошкент: Юридик адабиётлар нашриёти, 2023.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Маҳаллалар тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент: “Ҳуқуқ” нашриёти, 2021.
5. ПФ–60-сонли Фармон. “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”. // Республика Президентининг расмий веб-сайти: www.president.uz
6. ПФ–81-сонли Фармон. “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. – 11.01.2023.
7. Вазирлар Маҳкамасининг 409-сон қарори. “Ёшлар билан ишлашни самарали ташкил этишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”. – 2018 йил.
8. Иброҳимов С. “Оилавий муносабатларда шахслараро мулоқот маданияти”. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2020.
9. Қурбонов А.Ш. “Ёшларни маънавий тарбиялашда оила ва жамиятнинг ўрни”. – Тошкент: “Нур”, 2019.
10. Karimova N. “Family and Youth Education in the Context of Social Transformation in Uzbekistan”. – Central Asian Survey, Vol. 37, 2021.
11. UNICEF Report (2020). *Adolescent Life Skills and Family Education Models*. – www.unicef.org
12. Indonesian Ministry of Religious Affairs. *Pre-marital Counseling Program Guidebook*. – Jakarta: 2018.
13.Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (WHO). *Developing Family Life Education Programs for Youth*. – Geneva, 2020.

РАҚАМЛИ ЛАБОРАТОРИЯЛАР ДАВР ТАЛАБИ

Бахшилло Амриллоевич Олимов
Қ.Ниёзий номидаги ТПМИ ф.-м.ф.н в.в. профессор

Аннотация: *Мақолада умумий ўрта таълим мактабларида ракамли лабораториялардан табиий фан тажрибаларини ўтказишда замонавий восита сифатида фойдаланиш муҳокама қилинади. Мураккаб жараён ва тажрибаларни моделлаштириш учун ракамли лабораториялардан фойдаланишнинг асосий афзалликлари ва имкониятлари, шунингдек уларнинг ўқувчиларнинг фанга бўлган қизиқишини оширишга таъсири кўрсатилган.*

***Калит сўзлар**: таълим, ракамли лаборатория, табиий фанлар, тажрибалар, мактаб таълими, моделлаштириш, интерактив технологиялар.*

Бугунги кунда ахборот жамиятининг ривожланиши шароитида ўқув жараёнидан максимал даражада фойдаланишга имкон берадиган асосий элементлардан бири бу ахборот-коммуникация технологияларидан (АКТ) фойдаланишга асосланган таълимдир. АКТни таълим тизимига кириб келганлигига анча бўлишига карамасдан унинг айрим воситалари ҳалигача долзарблигича колмоқда. Бугунги куннинг асосий мақсади ўқув жараёнига АКТидан фойдаланган ҳолда янгича замонавий таълим муҳитини яратишдир.

Давлатимиз томонидан қабул қилинган “Таълимини модернизация қилиш концепцияси"ни амалга ошириш шартдир. "Таълим тизимини ахборотлаштириш” лойиҳасининг асосий ғояси таълимда АКТни тизимли жорий этиш ва фаол фойдаланиш учун шароит яратишдир.

Рақамли лабораториялар-бу табиий фанлар (физика, химия, биология ва бошқа) дарсларида лаборатория ва намойиш тажрибаларини ўтказиш учун ўлчов асбоб ускуна ва дастурий таъминотлардир. Ўқитувчи ва ўқувчиларнинг муваффақиятли ишлашининг муҳим шартларидан бири бу замонавий ўқув эксперименти тажрибаларини ўзлаштиришдир. Табиий фанларни ўрганишда ўрганилаётган материалнинг кўриниши ўқувчилар учун катта аҳамиятга эга.

Рақамли лабораториялар ўрганилаётган мавзуни ва намоиш тажрибаларини тушунишга, ўрганилаётган лаборатория ва кўргазмали тажрибаларга қизиқишни оширишга ёрдам беради. Рақамли лабораториялар табиий фанлар бўйича турли хил мактаб тажрибаларини ўтказиш учун янги, замонавий ускуна ва воситалардир. Улардан умумий ўрта таълим мактаб ўқув дастурининг бир қисми бўлган ишларни, шунингдек, мутлақо янги тажрибаларини амалга ошириш учун фойдаланиш мумкин. Лаборатория ва намоиш тажрибаларини ўтказишда фойдаланиш физика, биология ва кимё тажрибаларига киритилган янги ўлчаш асбобларидан фойданилади (компьютер, ҳарорат, магнит датчиклар ва бошка ўлчов асбобларидир[1].

АКТ воситаларини экспериментал тажриба ва физик тадқиқотлар ўтказишда фойдаланиш ўлчов чегараларни кенгайтиришга имкон беради, Физика лабораторияси тўпламига киритилган янги ўлчаш асбоблари туфайли тадқиқот жараёнида ҳам, натижаларни қайта ишлашда ҳам кўринишни сезиларли даражада оширади. Яна шуни такидлаш керакки мактаб шароитида кўплаб ҳодисаларни намойиш этиб бўлмайди (макрокосмос ҳодисалари, тез ҳаракатланувчи жараёнлар ва бошқалар). Физика курсида ҳар доим нафақат идрокка эътиборни кучайтиришни, балки катта тасаввурни ҳам талаб қиладиган мавзулар мавжуд (электромагнит тебранишлар, атом ядроси физикаси, квант физикаси ва бошқалар).

Рақамли лабораториялар қиммат ускуналарга бўлган эҳтиёжни йўқ қилади. Бу, айниқса, бюджети чекланган мактаблар учун жуда муҳимдир. Лекин мактаб ўқувчилари АКТ дастурларидан озгина бўлса ҳам хабардор бўлишлари керак, шундагина улар қўйилган масала нима тўгрисида эканлигини тушуниб етадилар. Кўпгина мактабларни лаборатория ва намоиш қурилмаларни сотиб олиш ҳар доим ҳам имконияти бўлмайди[3].

АКТ дастурларидан фойдаланиб тажрибадан аниқ маълумотларни олгандан сўнг, масалаларнинг ечимлари аналитик усуллар ёрдамида олиш билан бирга ўқувчиларга дастурлардан фойдаланиб ечиш усулларини ҳам ўргатиш мумкин экан. Шу билан бирга

ўқувчилар турли рақамли таълим технология пакетлардан, дастурлаш тиллари кабилардан фойдаланиб физик масалаларни ечишни ўрганишса уларнинг таълим бериш жараёнида дарс сифати ва самарадорлиги кескин ортади. Натижада рақобатбардош кадрлар таёрлашга самарали хисса қўшилади.

ADABIYOTLAR

1. N. Turdiyev, Y.Asadov va bosh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda kompetensiyalarni shaklllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. Tashkent “Nizo Poligral” 2017y.
2. Дерягин А.В. Цифровые технологии в учебном физическом эксперименте: монография / А.В. Дерягин. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2019. – 154 с.
3. B.A. Olimov. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish. //Axborotnomaning maxsus soni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2010 yil 12-13may). 283-284 betlar

OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TA’LIM TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

Tayirova Muhabbat Ataxanovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti katta ilmiy xodimi

Anatatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimidagi raqamli ta’lim muhiti bo‘yicha ba’zi tadqiqotlar tahlili berilgan va ushbu muhitda foydalanishga mos keladigan pedagogik va axborot texnologiyalariga aniqlik kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, raqamli ta’lim muhiti, masofaviy ta’lim tizimi, pedagogik texnologiyalar.*

Hozirgi vaqtda o‘qitishning klassik uslubiy asoslari o‘zgarmoqda, bu esa o‘qitishning yangi shakl va texnologiyalarining paydo bo‘lishiga olib keladi va universitetda axborot texnologiyalari, masofaviy ta’lim texnologiyalari va onlayn ta’limning faol qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Bu o‘zgarishlarning barchasi oliy ta’lim tizimining raqamli ta’lim muhitining paydo bo‘lishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida “elektron ta’lim, masofaviy ta’lim texnologiyalari”dan foydalanishga katta e’tibor qaratilgan. Aytish mumkinki, raqamli ta’lim muhitini yaratish zarurati ta’limning zamonaviy tendensiyalari bilan bog‘liq.

Oliy ta’lim tizimining raqamli ta’lim muhiti turli xil ta’lim muammolarini hal qilish va an’anaviy kasbiy ta’lim sifatini yaxshilash imkonini beruvchi axborot resurslari va tizimlari to‘plamini o‘z ichiga oladi: aralash ta’limdan foydalanish, ta’lim mazmuni sifatini oshirish, taqdim etilgan materialning ochiqligi o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash, sinxron va asinxron o‘zaro ta'sirning mavjudligidir.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari va elektron ta’limni kasbiy tayyorgarlikda qo‘llash masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Manbalarni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, raqamli ta’lim muhiti ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, loyiha faoliyati va individual mashg‘ulotlarni tashkil etish, avtomatik joriy, oraliq, yakuniy attestatsiyani o‘tkazish, dialogni on-layn yoki oflayn rejimlarda o‘tkazish imkonini beradi.

Tadqiqotchilar o‘z ishlarida masofaviy ta’lim texnologiyalarini tashkil etish vositalaridan foydalanish masalasini ko‘rib chiqib, elektron ta’limni tashkil etish vositalarini tanlashning asosiy

mezonlarini belgilab berdilar. Ularning asosiylari tizimning ko‘p funktsionalligi, ishonchliligi, barqarorligi; tarkibni ishlab chiqish elementlari va vositalarining mavjudligi; bilimlarni tekshirish tizimlari; foydalanish qulayligi va foydalanish qulayligi; interaktivlik; tizimni yangilash.

Kasbiy ta’limda elektron ta’limni tashkil qilish uchun dasturiy mahsulotlardan foydalanish kerak. Canvas, Blackboard, Moodle, Prometey kabi dasturiy mahsulotlar ta’lim muassasalarida foydalanishga yo‘naltirilgan. Hozirgi kunda MDH mamlakatlarida eng keng tarqalgani Canvas masofaviy ta’lim tizimidir. Canvas tizimi masofaviy ta’lim tizimlarini tanlash mezonlariga javob beradi, shuning uchun u turli darajadagi ta’lim muassasalari orasida keng qo‘llanilishini topdi.

Oliy ta’lim tizimi dasturlarini raqamli ta’lim muhitida amalga oshirish uchun mavjud ta’lim texnologiyalari, shakllari, usullari va vositalari ijtimoiy talabni to‘liq qondirishni ta’minlamayapti. Aniqlangan muammolarni hal qilishning dolzarb usuli - o‘qitish shakllari, usullari va vositalarining innovatsion tarkibiy qismlarini kuchaytirgan holda zamonaviy ta’lim modellari va ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdir.

Ta’limni raqamlashtirish davrida innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Loyihaviy ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim, ko‘p bosqichli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, keys texnologiyasi, ta’limda o‘yin usullaridan foydalanish, integratsiyalashgan ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, keys metodi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir.

Bugungi kunda ta’lim texnologiyalarida ilg‘or ta’lim texnologiyalari dan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ilg‘or ta’lim texnologiyalari - bu “o‘rganish” va “elektron ta’lim” uyg‘unligiga asoslangan texnologiya. Bu an’anaviy pedagogika va texnologiya innovatsiyalarini o‘zida mujassam etgan ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ta’limning mutlaqo yangi formatidir. Bularga talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlari, individual ta’lim yo‘llari, virtual, kengaytirilgan reallik, simulyatorlar, aqlli o‘quv muhiti va boshqalar kiradi.

Ig‘or ta’lim texnologiyalari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: o‘rnatilgan (LMS asosidagi o‘quv jarayoni texnologiyalari; onlayn baholash, hamkorlikda o‘rganish, bilimlarni boshqarish va yangi bilimlarni hamkorlikda ishlab chiqarish, ta’lim mazmunini, o‘rganishda video va multimedia ishlab chiqarish); faol rivojlanayotgan (onlayn ta’lim, o‘rganishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, moslashtirilgan va moslashtirilgan ta’lim, o‘yinlashtirish, o‘quv o‘yinlari va muhitlari, simulyatorlar); yutuq (ta’lim jarayonining katta ma’lumotlari va tahlili, o‘rganishda sun’iy intellekt, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlanadigan usullari, o‘quv jarayonida virtual va to‘ldirilgan reallik, narsalar Interneti).

Shunday qilib, oliy ta’lim tizimining raqamli ta’lim muhiti ta’lim jarayonini amalga oshirish, universitetning bo‘lajak kadrlari va o‘qituvchilariga yangi imkoniyatlarni taqdim etish imkonini beradi. Bunday oliy ta’lim tizimida kadrlarni kasbiy tayyorlash an’anaviy texnologiyalar, usullar, shakllar, texnologiyalar va raqamli ta’lim muhiti uchun maxsus o‘quv vositalaridan majburiy foydalanish bilan o‘qitish vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.A.Tayirova. Multimedia technologies in the context of educational informatization role and importance / International Scientific and Practical Conference: “The role of science and innovation in the modern world” London, United Kingdom 28.02.2023. 111-117 page
2. M.A.Tayirova. Possibilities of using multimedia technologies in the educational system / Current research journal of pedagogics. / SJIF(Impact Factor) 2023- 7.266 DOI-10.37547/crjp Volume 04 Issue 02, 2023 ISSN 2767-3278 February 28, 2023. Pages: 21-28

3. M.A.Tayirova. Teaching methods using multimedia technologies in the modern education system / Current research journal of philological sciences (ISSN –2767-3758). SJIF Impact factor (2023: 7. 491). March 16, 2023. VOLUME 04 ISSUE 03 Pages: 10-16
4. M.A.Tayirova. Ayollar tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda bulutli texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari / “Markaziy Osiyo ayollarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda genter tenglik tamoyili” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, (2024-yil 10-oktabr, Toshkent, O’zbekiston) 590-592 betlar.

YOSHLAR ONGIDA MILLIY G’OYANI SHAKLLANTIRISHDA FOLKLORSHUNOSLIKDAN FOYDALANISH YO’LLARI

Tilegenov Askarbay Tolegenovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog’iston filiali direktori, professor

РЕЗЮМЕ. *Ushbu maqolada fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy g’oyani shakllantirish yo’llari va oliy ta’lim tizimida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish imkoniyatlarini modernizatsiyalash, zamonaviy yechimlar, uslub va metodlar ustida doimo izlanish, yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning innovatsion potensiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish kabi muhim masalalarga nazariy va amaliy jihatdan yechim topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etishi yoritilgan.*

РЕЗЮМЕ. *В данной статье на основе фольклора рассмотрены пути формирования национальной идеи в сознании молодежи и модернизированы возможности формирования национальной самостоятельной идеи в сознании молодежи в системе высшего образования, постоянно ищущей современные решения. , методы и методы, развивающие творческое мышление молодежи, ее новаторство. Подчеркнуто, что задача поиска теоретического и практического решения таких важных вопросов, как потенциал, формирование лидерских качеств, имеет актуальное значение.*

SUMMARY. *This article, based on folklore, examines the ways of forming a national idea in the minds of young people and modernizes the possibilities of forming a national independent idea in the minds of young people in the higher education system, which is constantly looking for modern solutions. , methods and methods that develop the creative thinking of young people and their innovation. It is emphasized that the task of finding theoretical and practical solutions to such important issues as potential and the formation of leadership qualities is of current importance.*

Tayanch so'zlar: *fol’klorshunoslik, milliy g’oyani shakllantirish yo’llari, yoshlar, Oliy ta’lim tizimida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish imkoniyatlari, ta’limiy-tarbiyaviy, ma’naviy, ma’rifiy, ijtimoiy jarayon, zamonaviy pedagogikaning didaktik hamda tarbiyaviy xarakteri, milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishda xalq og’zaki ijodidan foydalanish texnologiyasi.*

Ключевые слова*: фольклор, способы формирования национальной идеи, молодежь, возможности формирования национальной самостоятельной идеи в сознании молодежи в системе высшего образования, образовательно-воспитательный, духовно-воспитательный, социальный процесс, дидактико-воспитательный характер. современной педагогики, технологии использования фольклора в формировании идеи национальной независимости.*

***Key words**: folklore, ways of forming a national idea, youth, possibilities of forming a national independent idea in the minds of young people in the higher education system, educational and educational, spiritual and educational, social process, didactic and educational character. modern pedagogy, technology of using folklore in the formation of the idea of national independence.*

Oliy ta’lim tizimida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish imkoniyatlarini modernizatsiyalash, zamonaviy yechimlar, uslub va metodlar ustida doimo izlanish, yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning innovatsion potensiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish kabi muhim masalalarga nazariy va amaliy jihatdan yechim topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarda milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishda xalq og’zaki ijodidan foydalanish muammosi-ta’limiy-tarbiyaviy, ma’naviy, ma’rifiy, ijtimoiy jarayonning umumiy loyihasini, mazkur jarayonlarni tashkil etishga bo‘lgan faoliyat mazmunini ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy shakl va texnologiyalar asosida tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati ko‘zga tashlanmoqda.

Haqiqatdan ham, yuksak malakali, intellektual salohiyatli, ma’naviy va huquqiy jihatdan yetuk, madaniyatli kelajak avlodni tarbiyalash davlat va jamiyat buyurtmasining eng asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Auditoriya mashg’ulotlari, darsdan tashqari tadbirlar, tashviqot-targ’ibot ishlari, ilmiy anjumanlarni tashkil etish bo‘yicha ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat maqsadi, mazmuni, shakl, metod, usul va texnikasi, talabalar va Universitet yoshlar faoli hamkorlikdagi faoliyati tahlili asosida yoshlarda milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishda xalq og’zaki ijodidan foydalanish texnologiyasining tarkibiy tuzilmasini quyidagicha aks ettirishni lozim topdik.

Ko‘rsatib o‘tilgan talabalar ijtimoiy faolligini takomillashtirish texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish mazmunini optimallashtirishga bo‘lgan siyosiy va iqtisodiy jabhada yoshlar ishtirokini ta’minlash nazarda tutilgan.

2.Talabalar uchun qiziqarli va maroqli tarzda zamonaviy pedagogikaning didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali, tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit ijtimoiy pedagogik jarayondir.

4. Fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya’ni, shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

5. Talabalar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish -shaxsiy xususiyatiga ega bo‘lib, muayyan texnologiyalarni ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatda qo‘llashga nisbatan yagona, qat’iy, me’yoriy talablar qo‘ymaydi. Pedagoglar o‘zlari faoliyat yuritayotgan ta’lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik kreativ yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

6. Talabalar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish o‘zida ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti birligini ifoda etadi.

Biz bejiz fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish masalalariga urg’u bermadik. Bugungi kungacha OTMlarda fol’klorshunoslik vositasida yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rni, go‘zalligi va ahamiyatini har tomonlama ochib berishda suhbat va uchrashuvlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlardan foydalanildi. Mazkur an’anaviy jarayondan ko’zlangan maqsad:

- yoshlarni Vataniga fidoyi, jasur, sog’lom, bilimli va har tomonlama etuk, yuksak axloqli, pok inson bo’lishga yo’llash;

- yoshlarda o’z xalqining tarixiy, madaniy, milliy xususiyatlarini anglab olishga bo’lgan zaruratni tarkib toptirish;

yoshlarda bugungi kundagi “ommaviy madaniyat”ning turli illatlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ular ongiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishdan iborat edi.

Alohida e’tirof etish joizki, tobora texnokratizatsiyalashayotgan zamonda yosh avlodni tarbiyalash uchun poydevor bo‘lgan ijtimoiy pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish, talaba-yoshlar o’rtasida milliy mafkuraviy immunitetni amaliy faoliyat imkoniyatlaridan kelib chiqib mustahkamlashni ta’minlash, fol’klorshunoslikda mujassam etilgan xalqimizning qadriyat va an’analari, Sharq mutaffakurlarining ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini o‘ziga jamlagan asarlarni tanlash va ularni o‘qishga tavsiya etish, yoshlar ijtimoiy-psixologik portretini tayyorlashda ular faolligini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ekzo va endo omillarni belgilab olishning samarali metodlarini qo‘llash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Shu o’rinda fol’klorshunoslik tushunchasiga qisqacha to’xtalib o’tishni lozim topdik. Bilamizki, xalq og’zaki poetik ijodini o’rganish sohasini fol’klorshunoslik deymiz. Fol’klorshunoslikda xalq og’zaki adabiyotidagi maqol, qo’shiq, ertak, doston kabi janrlarning o’ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi.

Fol’klorshunoslar o’zbek xalq dostonlarini quyidagi turlarga bo’lib o’rganishni maqsadga muvofiq deb topadilar; 1. Qaxramonlik dostonlari. 2. Jangnoma dostonlari. 3. Tarixiy dostonlar. 4. Romantik dostonlar. 5. Kitobiy dostonlar

Alohida qayd etish lozimki, o’zbek xalq dostonlari jahon xalqlari eposlari singari o’zining yuksak g’oyaviyligi, badiiy kamoloti bilan alohida o’rin tutadi. Doston epik ijodiyotning juda qadimiy turi sifatida barcha xalqlar og’zaki ijodiyotida mavjud. «Alpomish», «Rustamxon», «Go’ro’g’li» kabi o’zbek xalq dostonlarining yaratilishi xalq og’zaki ijodiyoti tarixida noyob uchraydigan hodisalardan bo’lib, ular umummadaniyat xazinasiga qo’shilgan bebaxo ma’naviy hissa bo’lib sanaladi. O’zbek «Alpomish»i qoraqolpoq va qozoqlarning «Алпамыс» i o’g’uzlarning «Bomsi-bayrak» asari tatarcha va boshqirdcha «Alpamsha», «Alpamisha va Barchin xiluu», uyg’urcha «Alish Manash» va boshqalar turkiy xalqlarning juda katta xududiga tarqalgan qadimiy eposining muayyan o’zgarishlar bilan bizgacha etib kelgan namunalari bo’ladi. Bular fol’klorshunoslikda «Alpomish» dostonining qo’ng’irot, o’g’iz, qipchoq va oltoy versiyalari deb yuritiladi.

Fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish jarayonida quyidagi pedagogik vazifalar hal etiladi:

1. Ta’lim muassasasining ichki resurs va imkoniyatlari, mavjud shart-sharoitlarni inobatga olgan holda talabalarning jamoat ishlaridagi (olimpiada, targ’ibot tashviqot ishlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) ishtirokini ta’minlash.

2. Jamiyat hayotining barqaror tarzda kechishini ta’minlashda tashabbus ko‘rsata oladigan yoshlarda milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirishda: izlanuvchi-ta’minlovchi (amaliyotda yuqori faollik va erkinlik kuzatiladi), ijodiy (bilish faolligining oliy darajasi) hamda reproduktiv o‘xshatuvchi-faollik (shaxsiy tajriba yetarli emasligi natijasida, tajriba orttiruvchi vosita sifatida ifodalanadi) ni tarkib toptirish komponentlarini shakllantirish masalasiga e’tibor qaratish.

3.Talabalarning ma’lum bir faoliyati jarayonida, tegishli xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan obyektiv voqelikni va shaxsning o‘zini o‘zgartirish (masalan: ma’rifiy tadbirlar o‘tkazishni rejalashtirish) da faolligining qaysi turini rivojlantirish lozimligini inobatga olish.

4.Talabalarning g’oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to’g’risidagi bilimlarini obyektiv nazorat qilish va baholash uchun pedagogik testlar ishlab chiqish.

Fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish **x**ususiyatini, uning shaxsga ta’sir qilish mexanizmlarini, an’anaviy va zamonaviy o‘quv amaliyotini tahlil qilish maqsadli uchta asosiy yo‘nalishini ajratib olishga imkon beradi.

1. Ta’lim jarayoniga fol’klorshunoslik va ijtimoiy gumanitar fanlar imkoniyatlarining integratsiyasi hamda ta’lim mazmunini boshqa, sifat jihatidan yangicha idrok qilish, ifodalash, tushunish uchun qulay shart-sharoit yaratish. Bunda ilmiy-didakik vositalar:

- ta’limiy axborotning teng manbai bo‘lib, o‘quv materiallari ichida o‘ziga xos “tushuncha”, “termin” ob’ektiv va subyektiv holatlar, xalq og’zaki ijodida o’z aksini topgan badiiy qahramonlarning hissiy kechinmalarining nozik nyuanslari, his-tuyg‘ularini aks ettirish;

- ta’lim mazmunining shaxsiy-subyektiv tajribasi lahzalarini yaratish, shaxs uchun ahamiyatli jihatlarini aniqlash;

- o‘rganiladigan o‘quv materialining tarixiy va madaniy kontekstini his qilishning ma’lumot manbai bo‘lish;

- turli xil assotsiatsiyalar, hissiyotlar, fikrlar, taassurotlar maydonini axborot bilan to‘ldirish yaratish orqali ta’lim mazmunini ishtirokchilarning individual tajribasi bilan boyitish;

-munosabat, pozitsiyalarni idrok etish va baholashning an’anaviy yondashuvlarini o‘zgartirishga yordam berish;

-“Men” tushunchasining o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini ifodalashga qaratilgan qiymat-semantik boyitish manbai bo‘lish.

Fikrimizcha, fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyani shakllantirish ishlarni samarali tashkil etishdagi uzviyligini ta’minlashda media texnologiyalardan foydalanish tarbiya vositalarini bir vaqtning o‘zida bir necha yo‘nalishlarda qo‘llash imkonini beradi. Ayni vaqtda “Apparatmatnlar” tizimi (video kitoblar, o‘quv disklari, matnli albomlar va boshqalar) dan ommaviy ravishda foydalanilmoqda. Bu esa pedagoglarning o‘zaro muloqot va bahs-munozara qilish imkoniyatini kengaytirishi bilan birga, grant va loyihalarni yaratishda pedagogtexnolog va metodistlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga yordam beradi.

Birinchidan – geografik, mutaxassislik, Universitet ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, pedagoglar faoliyati, o‘quv reja va metodik ta’minot masalalarini qayta o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq. Chunki bugungi oliy ta’lim dasturlari modelida talabalar fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyasini shakllantirish masalasiga yuzaki qarash holatlari kuzatildi. (Fikrimizcha, jamiyatning ma’naviy darajasi unda iste’dodli, ziyoli, ijodkor shaxslarni tarbiyalashga bog‘liq).

Ikkinchidan – fol’klorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishga oid trening, talabalar pedagogik va ijrochilik mahoratiga qarab amaliy mashg‘ulotlarning ishlanmalarini takomillashtirish lozim.

Uchinchidan – “Hamkorlik strategiyasi” faoliyatining uyg‘unligini ta’minlash, mazkur tizim ichida “talabalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish” yuzasidan asosiy yo‘nalishlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratish lozim.Alohida qayd etib o‘tish lozimki, ta’lim sohasida kechayotgan islohotlar, jamiyatning ustuvor qadriyatlari shaxs shakllanishidagi talablar va maqsadni belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik tizim ham o‘zgarib boradi. Pedagogik tizim deganda, ma’lum sifatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga nisbatan aniq maqsadli, tashkillashtirilgan, pedagogik ta’sir ko‘rsatish uchun talab etiladigan, bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan uslub, vosita va jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Xalq og’zaki ijodi bilan tarixchilar tarixiy voqealarning unda qanday aks etgani bilan, elshunoslar xalqning urf-odatlari bilan, san’atshunoslar fol’klordagi musiqa, raqs, uyini va boshqalarni, tilshunoslar uning laxja va shevalari bilan, adabiyotshunoslar uning yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradilar, - deydi fol’klorshunos K.Imomov. Biz esa bu ta’rifga pedagogika fani ta’lim-tarbiya masalalari xalq og’zaki ijodida qanday ifodalangani bilan shug’ullanishi, uning aqliy, axloqiy, mexnat, nafosat, jismoniy tarbiyada muhim manba ekanligini alohida ta’kidlamoqchimiz. Zero, xalq og’zaki ijodi xalq xayotining badiy ifodasi bulib, xalqning ijtimoiy-tarixiy, falsafiy, badiy-estetik qarashlarini o’zida aks ettiradi.

Shuning uchun xam xalq og’zaki ijodining qimmati, uning ma’rifiy, g’oyaviy tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. U xalqimizning uzoq tarixi, urf odati, ijtimoiy xayoti, dunyoqarashining kengligi, ijtimoiy munosabatining xilma-xilligi, orzu-umidlarining ulug’vor va teranligi bilan bilim beradi va ma’naviy-axloqiy tarbiya manbai bo’lib xisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda tadqiqotimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli yoshlarni tarbiyalashda, fan va ishlab chiqarish integrasiyasiga tayanish, fan bo‘yicha egallangan malakalar darajasini nazorat qilish va baholashda yoshlarni mustaqil mutolaa madaniyati hamda badiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirish masalasi bugungi kun oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, oliy ta’limning davlat ta’lim standartida belgilangan intellektual salohiyati, axloqiy-ma’naviy kamolotda muhim o‘rin tutuvchi talabalarni milliy ruhda tarbiyalash bilan bog‘liq samarador usullarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Milliy g‘oya va O‘zbekistoiming taraqqiyot strategiyasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma. Q.Nazarov, A.Safarov, A.Rahmonov, K.Haydarov, N.Alimuxamedova, D.O‘rinboyev, B.Qandov, — T.: «0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019.
2. Mirzaeva F.O. Bo’lajaк o’qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish. P.f.b.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Namangan 2020
3. Mamajonov I. G’, R. Mamatov Germaniya davlati ta’lim tizimi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabrь-dekabrь, 2017 yil
4. Mavlonova R.A., Normurodova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.– T.: Fan, 2007. – 320 b.
5. Ro’zieva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg’usini shaкllantirishning ilmiy-pedagogiк asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2007

6. Redjaboev A.Dj. Yoshlarni milliy istiqlol g’oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo’mondoni, Akademik I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan harbiy vatanparvarlik g’oyalari asosida) P.f n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2004

ВЫЗОВЫ ЦИФРОВОЙ ЭПОХИ: ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО И МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ОПОРОЙ НА МЕТОДИКИ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Хакимова Барно Муратовна
Базовый докторант 3-курса НИПВ имени Кори Ниязи

АННОТАЦИЯ. Цифровая среда кардинально изменила способы взаимодействия детей с миром, взрослыми и сверстниками. Особенно уязвимыми к её влиянию остаются дети дошкольного и младшего школьного возраста. В статье рассматриваются основные проблемы воспитания в условиях цифровизации: дефицит живого общения, эмоциональная отчуждённость, переизбыток стимулов и развитие зависимости от гаджетов. Особое внимание уделено потенциалу социально-эмоционального обучения (СЭО) как ответу на современные вызовы воспитания. Предлагаются конкретные методики и педагогические подходы, способствующие гармоничному развитию личности ребёнка в цифровом контексте.

Современный ребёнок растёт в условиях цифровизации — с раннего возраста осваивает гаджеты, активно использует мультимедийный контент и цифровые коммуникации. Однако, наряду с очевидными возможностями, это вызывает серьезные воспитательные и психологические проблемы. Цель данной статьи — проанализировать ключевые проблемы воспитания детей дошкольного и младшего школьного возраста в условиях цифровой среды и показать, каким образом методики социально-эмоционального обучения (СЭО) могут эффективно способствовать преодолению этих вызовов.

Цифровая среда — это неотъемлемая часть жизни ребёнка XXI века. Она включает мобильные устройства, образовательные платформы, мессенджеры и видеоконтент. Это требует переосмысления традиционных воспитательных подходов.

В дошкольном и младшем школьном возрасте формируются базовые компетенции: эмоциональное узнавание, саморегуляция, эмпатия, сотрудничество. Избыточное пребывание в цифровой среде может нарушать эти процессы.

Выделяются следующие проблемы: дефицит живого общения, цифровая зависимость, психоэмоциональная перегрузка, эрозия родительского авторитета.

Теоретические основы СЭО направлены на развитие самоосознания, саморегуляции, социальной осознанности, навыков отношений и ответственного принятия решений.

Примеры методик СЭО в дошкольном и начальном образовании: "Круг общения", эмоциональные карты, игра "Что бы ты сделал?", практики осознанности (mindfulness).

"Круг общения" (Morning Meeting): дети ежедневно обсуждают своё настроение, учатся слушать и выражать чувства.

Эмоциональные карты: карточки с изображениями эмоций помогают детям распознавать и называть свои чувства.

Игра "Что бы ты сделал?": формирование навыков ответственного принятия решений в воображаемых ситуациях.

Практики осознанности (mindfulness): дыхательные упражнения и визуализация помогают регулировать возбуждение и стресс.

Данные практики важны в цифровую эпоху, когда ребёнку необходимо возвращаться в “здесь и сейчас”.

Пример 1: детский сад в Ташкенте реализует программу "Дружелюбный класс" в которой дети ежедневно ведут “дневник эмоций”, участвуют в совместных играх на сотрудничество и обсуждают ситуации из жизни. Через 6 месяцев педагоги отметили снижение конфликтности и рост эмпатии у детей.

Пример 2: начальная школа в Самарканде использует эмоциональные сигналы. Дети с утра прикрепляют к доске смайлик, отражающий их настроение. Это позволяет учителю быстрее выявить тревожные состояния и оперативно вмешаться.

Исходя из вышесказанного предлагаем некоторые рекомендации для родителей и педагогов:

Педагогам:

- Интегрируйте элементы СЭО в повседневную практику;
- Работайте с эмоциями детей неформально: через сказки, рисунки, ролевые игры;
- Используйте цифровые технологии осознанно – в целях обучения и развития, а не развлечения.

Родителям:

- Установите правила цифровой гигиены: ограничение экранного времени, отсутствие гаджетов во время еды и сна;
- Проводите “время без экранов” всей семьёй;
- Обсуждайте с ребёнком увиденное в интернете, помогайте интерпретировать информацию.

Воспитание в цифровую эпоху требует переосмысления подходов. Невозможно запретить технологии, но можно научить ребёнка жить с ними осознанно и эмоционально устойчиво. Методики социально-эмоционального обучения являются эффективным инструментом, позволяющим компенсировать негативное влияние цифровой среды и воспитывать гармоничную личность.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. CASEL. (2020). SEL Framework.
2. Elias, M. J., et al. (1997). Promoting Social and Emotional Learning.
3. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence.
4. Лисина, М. И. (2009). Психология общения дошкольников.
5. Рахимова, Г. М. (2023). Социально-эмоциональное обучение в условиях цифровизации.
6. Баева, И. А. (2019). Безопасная образовательная среда.
7. ЮНЕСКО. (2021). Цифровое образование и благополучие детей.

HUMAN RESOURCE DEVELOPMENT AND MANAGEMENT IMPROVEMENT BASED ON MODERN APPROACHES

Xodjiev Firuz Rafikovich

Head of the Personnel Selection and Placement Department, Ministry of Preschool and School Education

Annotation. *This article analyzes innovative and modern approaches to human resource management. The use of technologies and new methods in the management process is of great importance in increasing efficiency, fully utilizing the potential of employees, and achieving the strategic goals of organizations. The article examines modern trends in human resource management worldwide and highlights their advantages through statistical data. It also analyzes research conducted in this area and its results.*

Keywords: *management, leader, employee, statistics, technology, resource, trend*

Nowadays, human resource management has become one of the main strategic directions of enterprises and organizations. In the modern economy, human capital is considered a key factor in the success of an organization. Therefore, the use of innovative approaches to human resource management is becoming increasingly relevant. According to a study conducted by McKinsey & Company in 2023, the use of modern technologies allows you to increase employee productivity by an average of 25-30%. This article analyzes modern management approaches and their impact on economic efficiency. The article draws conclusions based on advanced international experience and statistical data. Human resource management is one of the key factors in the success of modern organizations. In a competitive market environment, enterprises must rely on innovative approaches to effectively conduct their activities and ensure sustainable development. Human capital is not only the organization's employees, but also their knowledge, skills and motivation. Therefore, the development and improvement of human resources through modern management methods remains one of the most pressing issues today. Innovations create new opportunities in human resource management. For example, digital technologies are automating personnel selection and training processes, and modernizing employee performance evaluation and incentive systems. At the same time, psychological approaches and motivation theories are also gaining importance in increasing employee productivity.

The study used statistical analysis, questionnaires, and comparative analysis of corporate governance models. Data published by the World Bank, Gartner, and Deloitte were used. For the study, data on human resource management processes in 50 international companies was collected between 2020 and 2023.

Innovations and modern approaches in human resource management are a management system aimed at using advanced methods and technologies to develop and effectively use the human resources potential of organizations. The main tasks of human resource management are the selection and placement of employees, personnel development, increasing labor efficiency, and remuneration and incentives. AI-powered management systems have improved employee time management by 40%. According to Deloitte, automated HR systems have reduced human resource management costs by 20% annually. According to a study by McKinsey, AI-powered analytics platforms have helped organizations increase decision-making accuracy by 25% and increase overall efficiency by 30%.

Studies conducted by IBM show that the introduction of innovative learning platforms for employees increased employee skills by 30%. According to an analysis by Harvard Business Review, 78% of those who participated in virtual training programs designed to develop employees reported a significant increase in their productivity. Surveys have shown that 65% of employees noted that modern management approaches helped them increase their efficiency. According to the World Bank, companies that have implemented digital management systems have increased their annual revenue by an average of 18%. Of the 50 companies surveyed, 42 showed a 22% reduction in employee turnover as a result of innovative approaches. Based on this, the introduction of digital management systems and innovative approaches can help companies not only increase economic profits, but also improve employee productivity and reduce employee turnover. Such strategies can be a necessary factor for companies to achieve long-term success.

Encouraging innovation can be supported by human resources efforts to foster a culture of innovation. When employees are given a voice to explore new ideas and discuss different perspectives objectively, they can feel empowered and supported, which encourages diversity and inclusion in the workplace. Once a healthy culture for innovation is achieved, human resources can facilitate collaboration with other departments to further drive innovation. This includes, but is not limited to, creating cross-functional projects with R&D, IT, and other departments.

Helps develop strategies for implementation. Human resource innovation can be a powerful methodology for creating a dynamic workplace. By using strategies and technologies, HR professionals can optimize their processes and create a more engaged workplace. Some of these tools include automation, data analytics, and various engagement platforms. However, innovation also comes with challenges such as the need for adequate resources and lack of employee by-in.

Innovative and modern approaches to human resource management are essential for increasing efficiency and strengthening competitiveness. The results of the study show that the widespread introduction of artificial intelligence and automation tools simplifies management processes and increases efficiency. Companies should actively use artificial intelligence and automation tools in human resource management. Modern training platforms and technologies should be introduced to improve employee skills. It is necessary to improve data analysis and decision-making processes through the digitalization of HR systems. When organizing employee development programs, it is necessary to pay attention to their individual needs. The use of artificial intelligence and data analysis tools for employee assessment and analysis is important in the current global process. Innovations and modern approaches to human resource management are of great importance in increasing the efficiency of organizations, developing employee skills, and adapting to market requirements. This process serves to ensure the sustainable growth and competitiveness of the enterprise.

REFERENCES

1.Горелов Н. А. Управление человеческими ресурсами: стратегии и инновации. – Юрайт, 2020.
2. Буторина В. В., Лушникова Т. Ю. Современные тенденции в управлении человеческими ресурсами. – Общество, экономика, управление, 2019.
3. Armstrong, M. (2022). "Human Resource Management Practice".
4. Gartner. (2022). "HR Trends and Insights".
5. Harvard Business Review. (2021). "Innovative Approaches in HR Management".
6. McKinsey & Company. (2023). "The Future of Work".
7. Deloitte. (2023). "Automation and Efficiency in HR".

8. Jahon Banki ma‘lumotlari (2023).
9. Axmedova Yulduz Sunatullayevna. Inson resurslarini boshqarishning innovatsion yo‘llari. – Journal of Education, Ethics and Value, 2021.
10. G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li. Rivojlangan mamlakatlarda inson resurslarini boshqarishda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribalarini yurtimizda qo‘llashning ahamiyati. – Educational Research in Universal Sciences, 2022.
11. Xasanova Nafisa. Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish. – Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2020.

ВИРТУАЛ-ПЕДАГОГИК МАДАНИЯТ ЎЗИГА ХОС ТРАНСФОРМАЦИЯ ТИЗИМИ СИФАТИДА

Хайдарова Хилола Раҳимбердиевна, Усманова Шоира Джумабековна
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети, «Педагогик таълим» кафедраси доцентлари

Аннотация: *Мақолада виртуал-педагогик маданият ўзига хос трансформация тизими сифатида таҳлил қилинган. Шунингдек, ота-оналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантиришнинг зарурияти га доир масалалар ўрганилган. Ота-оналарда виртуал маданиятни ривожлантириш орқали нафақат уларнинг фарзандларини, ёшларни виртуал – ахборот таҳдидлардан ҳимоя қилиш, балки ота-оналарнинг ўзларида ҳам ушбу таҳдидларга нисбатан иммунитет ҳосил қилиниши эмпирик жиҳатдан баён этилган.*

Калит сўзлар: *Ота-она, ёшлар, трансформация, онгли фильтирлаш, оила, мактаб, маҳалла, тарбия, маданият, виртуал, медиа, ахборот, компьютер, саводхонлик, виртуал назорат, фарзандлар*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ-60-сонли Фармонларида Кенг жамоатчилик муҳокамаси натижасида «Ҳаракатлар стратегиясидан — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан бешинчиси маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш мақсади қўйилган. Шунингдек, ота-оналарнинг педагогик маданиятини ривожлантириш замонавий жамиятнинг энг муҳим вазифаларидан бири, давлат ижтимоий сиёсатининг бир қисми бўлиши керак. Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ҳозирги пайтда ота-оналар билан уларнинг педагогик маданиятини ривожлантириш бўйича тизимли ишлар йўлга қўйилмаган. Бир вақтлар анаънавий мактабларга хос бўлган ота-оналар билан ишлаш шакллари: педагогик универсал таълим, педагогик таълим йўқолган. Ота-оналарнинг педагогик маданияти феноменологияси, уни янги ижтимоий-иқтисодий шароитларда шакллантириш шакллари ва усуллари тўғрисида ҳам аниқ тасаввур мавжуд эмас. Ота-оналарнинг педагогик маданиятини ривожлантириш концепциясини қуриш учун ҳозирги ижтимоий-педагогик вазиятни, маҳаллий ва хорижий мактабларда ҳам ота-оналар билан психологик-педагогик иш тажрибасини таҳлил қилиш зарур.

Айнан биз олиб борган тадқиқотларимиздан маълумки, виртуал-педагогик маданият ўзига хос трансформация тизими сифатида инсонлар ҳаётини тартибга солиши билан алоҳида ажралиб туради. Ушбу ёндашувга асосланиб айтиш мумкинки, виртуал-педагогик маданиятни

ривожлантириш асосида жамиятда ўсиб келаётган ёш авлод тарбияси билан боғлиқ маънавий-ахлоқий муаммоларни ҳал этиш ёки тартибга солиш объекти компьютер воситасида ҳамда ўзаро виртуал мулоқот жараёнида шахсларнинг рационал фаолияти ва ҳатти-ҳаракатидан иборат бўлади.

Ота-оналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантириш тизими глобал трансформацияси асосида ёшларда виртуал тобеликка қарши маънавий-ахлоқий иммунитетни ҳосил қилиш муҳим ҳисобланиб, мактабда ўқувчиларни педагогик ва психологик мониторинг қилиш орқали керакли йўналишларни аниқлаш ўз аҳамиятига эга.

Ота-оналар фарзандлари билан ахборот маконида ахборотларни ёшлар билан бирга муҳокама қилиш орқали, ёшларда ахборот эҳтиёжларидаги кўникмаларини шакллантириш мумкин. Ота-оналарнинг фарзандлар билан биргаликдаги таҳрирлари, ахборотларга нисбатан бўлган қарашлари қай даражада мос ёки қайси жиҳатларда қарашларда қарама-қарши фикрлар вужудга келмоқда, умуман ота-она фарзандлар билан ОАВ орқали хабарлар, ахборотларни муҳокама қилишга қай даражада вақт ажратмоқдалар, қай даражада тоқатли бўлмоқдалар. Ушбу жиҳатларни билиш мақсадида, “Фарзандингиз билан биргаликда ОАВ лари орқали бериладиган ахборотларни муҳокама қиласизми?” савол орқали ота-она фикри ўрганилди. 18 нафар (10 %) вақти вақти билан фарзандлар билан фикр алмашиниб туриши ҳақида, 30 нафари (17 %) ҳа, лекин камдан кам, 62 нафари (36%) фарзандлар билан мулоқотга вақт етмаслиги, шу билан бирга умуман муҳокама қилолмаслиги, 39 нафари (23 %) йўқ, деган фикрларни билдирган.

Лекин кўп ҳолатларда ота-она ва фарзандлар ўзаро мулоқот қилиш ҳолатлари камайиб бормоқда, бу ўз навбатида ёшларнинг виртуал оламда адашиб қолиш ҳолатлари, виртуал оламда ўзлигини йўқотиш ҳолатларига сабаб бўлмоқда.

Ота-оналарнинг ўзларида ҳам етарли даражада виртуал маданият, кўникмалар қай даражада шаклланган. Улар виртуал ахборотларни саралай олмоқдаларми, уларда виртуал оламда адашиб қолмасликлари учун иммунитет ҳосил бўлганми?

Ушбу саволларга жавоб олиш мақсадида, “Виртуал ахборот ва матнларни таҳлил қилиш, саралаш қобилиятига эгамисиз?” мазмунидаги савол билан респондентларга мурожаат қилинди. Ота-оналарнинг 43 нафари (18%) қайсидир маънода виртуал олам ахборотларини саралай олади, уларда етарли даражада кўникмалар ҳосил бўлган. Яна 43 нафари (18%) деярли виртуал олам ҳақида, ахборотларни сараш ҳақида тушунчаларга эга, 28 нафари (11%) да эса кимларнингдир ёрдами эвазига виртуал ахборотларни саралай олиши мумкин, булмаса виртуал олам гирдобига шунғиб кетаверади, 103 нафари (41%) умуман виртуал оламда ахборотлапрни сараламайди, ушбу қобилиятга эга эмаслигини кўриш мумкин.

Ота-оналарда виртуал оламни тўғри англаши, ахборотларни саралай олиш кўникмаларининг ҳосил бўлганлиги, улардаги виртуал мулоқот, виртуал ахборатлашиш маданиятини шаклланганлигидан далолат беради. Лекин бизнинг таҳлил бўйича ота-оналарнинг 18% гина виртуал ахборот маданиятини ўзларида мужассам этмоқдалар. Ўз навбатида ота-оналар ҳам турли ҳолатларда виртуал – ахборот таҳдидларга кўникмалар, иммунитет шаклланганми?, деган савол пайдо бўлади. Ота-оналарда виртуал маданиятни ривожлантириш орқали нафақат уларнинг фарзандларини, ёшларни виртуал – ахборот таҳдидлардан ҳимоя қилган бўламиз, балки ота-оналарнинг ўзларида ҳам ушбу таҳдидларга нисбатан иммунитет ҳосил қилган бўламиз.

“Ота-оналарнинг виртуал педагогик маданияти қандай ривожланади, деб ҳисоблайсиз?” деган саволга ота-оналар томонидан берилган жавоблардан, 43 нафари (15%) миллий, умуминсоний қадриятларимиз асосида, 57 нафари (24%) Интернетдан фойдаланиш одобига кўра, 59 нафари (37%) ахборот технологияларидан олган маълумотларни тўғри танлаш, фойдаланиш қўникмаси орқали, 91 нафари (15%) жавоб беришга қийналаман, деган фикрларни билдиришган.

Албатта таклиф этилган жавоб вариантларининг барчаси муҳим ҳисобланиб, ахборот технологияларидан олинган маълумотларини тўғри танлаш, фойдаланиш кўникмаларига эга бўлишда, миллий умуминсоний қадриятлар ҳам ўз аҳамиятига эга, ва шу билан бирга интернетдан фойдаланиш одоби ҳам тўғри шаклланган бўлиши лозим. Интернетдан фойдаланиш одоби, албатта инсонлардаги идрок, онгли ечим топиш, кўпроқ оммавийга эмас, ақл билан хатти харакатини бошқариш ҳисобланади. Ушбу кўникмаларни биринчи навбатда, ота-оналар ва уларнинг фарзандларида шакллантириш керак. Ушбу кўникмалар педагогик тарбия, педагогик таълим орқали уйғунлаштирилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-1059-сонли Қарори, 31 дкабрь, 2019.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ-60-сонли Фармони, 28 январь, 2022.
3. Хайдарова Х.Р. Ахборотлашган жамият шароитида ота-оналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантириш масалалари. Амалий социологик тадқиқот дастури (амалий-педагогик тадқиқот методологияси асосида ишлаб чиқилган). УзМУ, 2022 йил
4. Хайдарова Х.Р. Критерии развития родительской педагогической культуры. Экономика и социум. Илмий-амалий ва электорон журнал. № 12 (91)-2. 2021 йил. Б. 677-681
5. Хайдарова Х.Р. (2021). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА ОТА-ОНАЛАР ВИРТУАЛ-ПЕДАГОГИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА СИНЕРГЕТИК ЁНДАШУВ. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 154-157.

РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНИДА ЎСМИР-ЁШЛАРНИНГ ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПИТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ

Усманова Зебо Бахтиёровна
Қори Ниёзий номидаги ТПМИ тадқиқотчиси

Ҳозирги кунда жамиятда рақамли трансформация жараёнлари тобора кенгаймоқда ва бу жараёнлар турли соҳаларга, жумладан таълим тизимига ҳам бевосита таъсир кўрсатмоқда. Рақамли технологиялар ҳаётимизга чуқур кириб боргани сари, ёшларнинг билим олиш, мулоқот қилиш ва ижтимоий муносабатларда фаоллик кўрсатиш усуллари ҳам ўзгаради. Ўсмир ёши — инсоннинг шахсий ва ижтимоий фаолликлари шаклланиб бораётган муҳим давр ҳисобланади. Бу ёшдаги ўқувчиларнинг фаол фуқаролик компетенциясини тарбиялаш эса мамлакатнинг келажаги учун муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Фаол фуқаролик

компетенцияси — бу инсоннинг жамиятдаги ўз ўрнини англаб етиш, ҳуқуқ ва мажбуриятларини билиш, жамоат ишларида фаол иштирок этиш қобилиятидир. Рақамли трансформация даврида бу компетенциянинг аҳамияти янада ошади, чунки ёшлар ахборот маконида ўзини тўғри ва масъулиятли намоён этмоғи зарур. Шу боис, ушбу мақолада рақамли трансформация жараёнида ўсмир ёшдаги ўқувчиларнинг фаол фуқаролик компетенциясини тарбиялашдаги асосий муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари таҳлил қилинади.

Рақамли трансформация — бу замонавий рақамли технологияларни жамиятнинг турли соҳаларига кенг жорий этиш жараёнидир. Унинг натижасида таълим тизими ҳам жиддий ўзгаришларга дуч келмоқда. Масалан, таълим жараёнида онлайн дарслар, электрон ўқув материаллари, виртуал лабораториялар ва бошқа кўплаб инновацион воситалар қўлланилмоқда. Бу эса ёшларнинг билим олиш жараёнини енгиллаштириб, уларнинг танқидий фикрлаш, мустақиллик ва ахборотга етишиш қобилиятини ошириш имконини беради.

Бироқ рақамли муҳитнинг тез ривожланиши ёшлар учун маълум хавфларни ҳам келтириб чиқаради. Улар интернетдаги нотўғри маълумотлар, киберхавфсизлик муаммолари, ижтимоий тармоқлардаги салбий таъсирлар ва бошқаларга дуч келади. Бу ҳолатларда ёшларнинг ахборотни танлаб олиш ва ундан тўғри фойдаланиш кўникмалари зарур бўлади.

Рақамли трансформация жамиятдаги ижтимоий муносабатларни ҳам ўзгартиради. Ёшлар турли платформалар орқали тез ва эркин мулоқот қила олади, ўз фикр ва ғояларини кенг аудиторияга етказа олади. Шу боис, уларнинг фаол фуқаролик компетенциясини шакллантиришда рақамли муҳитдан самарали ва масъулиятли фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўсмир ёши – бу инсоннинг шахсий ва ижтимоий ривожланиши учун ҳал қилувчи даврдир. Бу ёшдаги ўқувчиларнинг фаол фуқаролик компетенциясини шакллантиришда қуйидаги муаммолар учраб туради:

1. Ақлий ва ахлоқий тарбиянинг етарли даражада бўлмаслиги яъни кўпинча таълим муассасаларида ёшларнинг ҳуқуқий, ахлоқий ва маданий тарбиясига кўпроқ назар салинади, аммо уларнинг рақамли муҳитда фаол ва масъулиятли фуқаролар сифатида тарбияланиши назардан четда қолади.
2. Интернет ва ижтимоий тармоқлардаги салбий таъсирлар, ёшлар кўп вақтларини ижтимоий тармоқларда ўтказади, лекин бу муҳитда нотўғри маълумотлар, тафриқа чиқарувчи ва зўравонликка чорловчи контентлар ҳам мавжуд. Бу уларнинг фаолликларига салбий таъсир кўрсатади.
3. Маълумотни танлаш ва таҳлил қилиш қобилиятининг пастлиги яни рақамли муҳитда ахборот жуда кўп ва ҳар хил бўлади. Ўқувчилар ҳамма маълумотни тўғри баҳолашни, уларнинг ишончлилигини текширишни билмасликлари сабабли нотўғри ёки ялғон ахборотга ишонадилар.
4. Технологиядан самарали ва масъулиятли фойдаланиш қобилиятининг етишмаслиги яъни ёшларда технологияни фақат ўз қизиқишлари учун қўллашга одатланган, аммо улар интернет хавфсизлиги, шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш ва рақамли тизим ҳуқуқларини ҳурмат қилиш борасида етарли билимга эга эмаслар.

Шу ўринда ўсмирларнинг фаол фуқаролик компетенциясини рақамли трансформация шароитида самарали тарбиялаш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга оширишни тавсия қилган бўлар эдик:

1. Таълимда рақамли технологияларни мўлжалланган ва меъёрий жорий этиш яъни, таълим муассасаларида рақамли воситалардан фойдаланишда аниқ мақсадлар ва стандартлар белгиланиши керак. Бу эса ўқувчи-ёшларни ахборот технологияларидан фақат билим олиш учун эмас, балки ижтимоий фаоллик учун ҳам фойдаланишга ўргатади.
2. Ёшларни ижтимоий фаолликка жалб қилиш, мактаб ва жамоатчилик ташкилотлари ўқувчи-ёшлар учун турли лойиҳалар, форумлар, ижтимоий акциялар ташкил қилиши керак. Бу уларнинг жамоатчилик ишларида фаол иштирок этишига, масъулиятни англашига ёрдам беради.
3. Ота-оналар ва ўқитувчиларнинг рақамли маданият ҳақидаги билимларини оширишяъни, ёшларни тарбиялашда ота-оналар ва ўқитувчиларнинг роли катта. Улар рақамли муҳитнинг имкониятлари ва хавфлари ҳақида билимли бўлса, ёшларга тўғри йўл кўрсатишлари осонлашади.
4. Ахборот ва коммуникация технологияларидан масъулиятли фойдаланишга ўргатиш бу мактабларда рақамли этика, интернет хавфсизлиги, шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш каби мавзуларга катта эътибор қаратилиши керак ғисобланади.
5. Интернет хавфсизлиги ва киберхавфсизликка алоҳида эътибор бериш бу ёшларга интернетда ўзини қандай тутиш кераклиги, киберхавфлардан қандай ҳимояланиш кераклиги бўйича кўрсатмалар бериш зарур ҳисобланади.

Хулоса тариқасида шуларни айтишимиз мумкинки, рақамли трансформация жараёнида ўқувчи-ёшларнинг фаол фуқаролик компетенциясини тарбиялаш долзарб ва мураккаб муаммоларни келтириб чиқаради. Бунда асосий эътибор ёшларни ахборотни танлаш, таҳлил қилиш, масъулиятли ва фаол фуқаролар сифатида шакллантиришга қаратилмоғи зарур. Таълим тизими, ота-оналар, жамоат ташкилотлари ва давлат ҳамкорлигида рақамли муҳитда ёшларни тарбиялашнинг самарали механизмлари яратилиши мамлакатнинг келажакдаги барқарор тараққиётига хизмат қилади.

TIBBIYOT SOHASINING RAQAMLI MUHITIDA KASBIY CHET TILI QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MODELINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogika milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tibbiyot sohasida ta’lim oluvchilarning raqamli muhitda kasbiy chet tili (ingliz tili) qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik modelni joriy etish texnologiyalari tahlil qilinadi. Ushbu model raqamli ta’lim platformalari, interaktiv resurslar va kognitiv yondoshuv asosida tashkil etilgan bo‘lib, talabalarning faol ta’lim faoliyatini kuchaytirish, mutaxassislikka oid chet tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.*

Abstract: *This article analyzes the technologies for implementing a pedagogical model aimed at developing professional foreign language (English) skills of medical students in a digital environment. This model is based on digital educational platforms, interactive resources and a cognitive approach, and is aimed at strengthening students' active learning activities and developing communication skills in a foreign language related to the specialty.*

Аннотация: *В статье анализируются технологии реализации педагогической модели, направленной на развитие навыков профессионального владения иностранным языком (английским) у студентов-медиков в цифровой среде. Данная модель базируется на цифровых образовательных платформах, интерактивных ресурсах и когнитивном подходе и направлена на активизацию активной учебной деятельности студентов и развитие навыков общения на иностранном языке по специальности.*

Kalit so’zlari: *raqamli ta’lim, kasbiy chet tili, tibbiyot, til kompetensiyasi, raqamli texnologiyalar, ta’lim modeli*

Keywords*: digital education, professional foreign language, medicine, language competence, digital technologies, educational model*

Ключевые слова: *цифровое образование, профессиональный иностранный язык, медицина, языковая компетенция, цифровые технологии, образовательная модель*

Kirish. Globallashuv jarayonlari va tibbiyot sohasidagi xalqaro hamkorlik talab etmoqdaki, mutaxassislar nafaqat o‘z sohalarida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, balki kasbiy faoliyatda chet tilida, ayniqsa ingliz tilida erkin muloqot qila olishlari lozim. Bu borada raqamli ta’lim muhiti yangi imkoniyatlar yaratib, talabalarda chet tilini o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tibbiyot sohasida kasbiy chet tili qobiliyatini raqamli muhitda rivojlantirish modelini samarali amalga oshirish uchun aniq va tuzilgan texnologiyalarni joriy etish lozim. Bu texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholashda muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi vaqtda ta’lim sifatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan amaliy ishlar safida innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan bir qatorda innovatsion tarbiya texnologiyalari ham baravar xizmat qilmoqda. Aynan innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatga kirishishlarida tutgan o‘rni o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Innovatsion tarbiya texnologiyalari talabalarni tarbiyaviy faoliyat jarayoniga tayyorlashning sifatini oshirishda ham asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lmoqda. Jamiyatning rivojlanishi, yangi turmush sharoitlari, qarashlari, madaniyatlari, bilimlari va texnologiyalari, yangi rivojlanish imkoniyatlari hamda o‘zini o‘zi anglash shakllariga ochiqlik jarayonlari bilan bog‘liqligi sababli, bu ta’lim jarayonida yangicha innovatsiyalarni ishlab chiqish va faol foydalanishni taqazo etmoqda. Shu boisdan ham pedagogik amaliyotda innovatsion tarbiya texnologiyalaridan unumli foydalanish o‘qitishning intensivligini, bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish darajasini yanada orttirishga, motivatsiya va qiziqishni yuksaltirishga, ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi

Nazariy asoslar. Kasbiy chet tili ta’limoti faol ta’lim, kommunikativ yondoshuv, CLIL (Content and Language Integrated Learning), hamda raqamli pedagogika tamoyillariga asoslanadi. Model qurilishida Vigotskiyning ijtimoiy kognitiv nazariyasi, Konstruktivizm, hamda Meyerning multimedia ta’limi nazariyasi asos bo‘lib xizmat qilgan. (diagnostik testlar, suhbatlar);

Raqamli platforma va resurslarni tanlash, ularning tibbiy ta’lim talablariga mosligini baholash;

O‘qituvchilarni raqamli vositalardan foydalanishga tayyorlash va malaka oshirish.

Modelni amalga oshirish texnologiyasi

1. Diagnostika va ehtiyoj tahlili

Talabalarning boshlang‘ich chet tili darajasini aniqlash.

Kasbiy maqsadlarga yo‘naltirilgan til ko‘nikmalariga bo‘lgan ehtiyojni baholash.

2. Texnologik vositalar tanlovi:

Moodle, Google Classroom, Edmodo, va Zoom kabi platformalar orqali sinfdan tashqari faoliyat tashkil etish.

Kahoot, Quizlet, Anki kabi interaktiv o‘yinlar va kartalar orqali leksik ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Telemeditsina simulyatorlari, tibbiyotga oid video-podkastlar, TED Talks videolaridan foydalanish.

3. Ta’lim mazmunini integratsiyalash: Tibbiyotga oid real keyslar, maqolalar va hujjatlar asosida leksik va grammatik mashqlar tuzish.

Ilova qilingan voqelik (AR) va virtual voqelik (VR) texnologiyalari yordamida simulyatsiya jarayonlari.

4. Aloqa va muloqot imkoniyatlari: Onlayn forumlar, rolli o‘yinlar va debatlar orqali kasbiy muloqotni mashq qilish.

Xalqaro onlayn hamkorlik platformalarida ishtirok (masalan, eTwinning, Global Health Network).

5. Baholash va natijalarni tahlil qilish: Formativ va summativ baholash tizimlarini joriy etish.

Talabalar portfoliosini yuritish va progressni tahlil qilish.

Xulosa: Raqamli muhitda kasbiy chet tili ta’limi samaradorligini oshirish uchun kompleks modelni joriy etish zarur. Ushbu model talabalarning o‘z sohasida xalqaro darajada faoliyat yuritishiga tayyorlash, tilda muloqot qobiliyatini yuksaltirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot sohasining raqamli muhitida kasbiy chet tili qobiliyatini rivojlantirish modelini amalga oshirish texnologiyasi ta’lim jarayonini to‘liq va maqsadli tashkil etishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, bosqichma-bosqich amalga oshirish va pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish talabalarning malakasi va kasbiy tayyorgarligini oshirishni ta’minlaydi. Tibbiyot sohasida kasbiy chet tili bilimini raqamli muhit orqali rivojlantirish yuqori samaradorlikka ega. Ushbu modelni amaliyotga joriy etish nafaqat talabalarning til kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ham kuchaytiradi. Kelgusida modelni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiya qilish istiqbollari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vigotskiy L.S. – Ta’lim va rivojlanish muammolari.
2. Marsh, D. (2001). Using Languages to Learn and Learning to Use Languages.
3. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
4. Kukulska-Hulme, A. & Shield, L. (2008). An Overview of Mobile Assisted Language Learning: From Content Delivery to Supported Collaboration and Interaction.
5. Oxford, R. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know.

BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA MILLIY KONTENTLAR AHAMIYATI

Sanakulova Sarviniso Xamrakulovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar kishilar, ayniqsa yoshlarning ongi va tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimiga

ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida muammolar kelib chiqishiga sabab bo’lmoqda. Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya jarayonida milliy kontentlarning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy kontent, axloqiy tarbiya, qadriyatlar, media savodxonlik

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va global madaniy ta’sirlar oilaning axloqiy tarbiyadagi roliga muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat ayrim hollarda yoshlarning ma’naviy tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham oilada farzandlar bilan doimiy muloqotda bo‘lish, ularni ijtimoiy muammolardan xabardor qilish va milliy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oila axloqiy qadriyatlarning boshlang‘ich o‘chog‘i sifatida har doim markaziy o‘rinda turadi. Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyatning kafolati, barkamol avlod tarbiyasining asosiy omilidir. Ta’lim muassasalari shaxsning barkamol yetishishida asosiy rol o‘ynaydigan ijtimoiy institutlardan biridir. Ta’lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda fuqarolik ongini, Vatanga sadoqat, odob va burch tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab axloqiy me’yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va milliy an’analarni o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar kishilar, ayniqsa yoshlarning ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, televideniye, radio va ijtimoiy media platformalar insonlar axloqiy qarashlariga bevosita ta’sir etuvchi vositalar sifatida maydonga chiqdi. Shu sababli, bu vositalar orqali tarqatilayotgan axborotlar mazmuni, ma’naviy va axloqiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi lozim. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida tezkor aloqa va fikr almashish vositasi bo‘lishi bilan birga, ularning axloqiy qarorlariga ham ta’sir etadi. Salbiy kontentlar – zo‘ravonlik, behayolik, yolg‘on, kibr va nafrat targ‘ib qiluvchi materiallar yosh ongiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois axborot xavfsizligini ta’minlash, yoshlar ongini filtrlangan, ijobiy qadriyatlar asosida shakllantirish ijtimoiy mas’uliyatli harakatlarni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21 dekabrdagi "Axborot makonida yoshlar ma’naviyatini himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmonida OAV va internetdagi kontentlarni nazorat qilish, yoshlar ongini axloqiy jihatdan sog‘lom ma’lumotlar bilan to‘ldirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Ularni shakllantirish va mustahkamlashda ijtimoiy institutlar – oila, maktab, diniy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va davlat muassasalari – o‘zaro hamkorlikda ishlashi lozim. Shu tarzda sog‘lom, barqaror va ma’naviy yetuk jamiyat qurish mumkin.

Milliy kontent jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy o‘ziga xoslikni rivojlantirish va noto‘g‘ri ma’lumotlarga qarshi kurashish orqali axborot xurujlarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy kontent madaniy qadriyatlar, tarixiy voqealar va jamiyat yutuqlarini yoritib berish orqali fuqarolarda birdamlik va g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu tashqi kuchlarning milliy institutlarga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish yoki kelishmovchilikni keltirib chiqarishga qaratilgan dezinformatsion kampaniyalar orqali milliy hamjihatlikni buzishga urinishlariga qarshi samarali qarshi turishiga imkon beradi. Milliy kontent ko‘pincha ishonchli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. To‘g‘ri va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish orqali u aholi o‘rtasida noto‘g‘ri ma’lumotlar va tashviqotga qarshi imunitetni oshirishga yordam beradi. Agar fuqarolar ishonchli milliy ommaviy axborot vositalari va o‘quv materiallari orqali o‘z mamlakati tarixi, siyosati va dolzarb voqealari haqida ma’lumotga ega bo‘lsalar, ular tashqi manbalar tarqatayotgan yolg‘on yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarga

ishonmaydilar. Milliy kontentdan aholi o‘rtasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari va media savodxonligini oshirish uchun foydalanish mumkin. Ma’lumotni tekshirish, noto‘g‘ri fikrlarni aniqlash va manbalarni baholash muhimligini ta’kidlaydigan ta’lim tashabbuslari va media kampaniyalari fuqarolarga ishonchli milliy kontent va xorijiy dezinformatsiya o‘rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi. Bu ommaviy axborot vositalari va axborot manbalariga nisbatan jamoatchilik ishonchidan foydalanishga asoslangan axborot urushi strategiyalari samaradorligini pasaytiradi.

Umuman olganda, milliy kontent milliy o‘zlikni mustahkamlash, media savodxonligini oshirish, noto‘g‘ri ma’lumotlarga qarshi kurashish va xorijiy ta’sirlardan himoya qilish orqali axborot urushlarining oldini olishda ko‘p qirrali rol o‘ynaydi. Kuchli milliy kontent tashabbuslariga sarmoya kiritish va ularni ilgari surish orqali mamlakatlar axborot urushi taktikasiga chidamliligini kuchaytirishi va mafkuraviy yaxlitligini shakllantiradi. Milliy kontent tushunchasi milliy xavfsizlik, jamiyat hamjihatligi va jamoatchilik ishonchini buzishga qaratilgan dezinformatsiya, noto‘g‘ri ma’lumotlar va tashviqotning turli shakllarini o‘z ichiga olgan axborot xurujlarining oldini olish va ularni yumshatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, milliy kontent hukumatlarni beqarorlashtirish, saylovlarga ta’sir o‘tkazish yoki jamiyatdagi nizolarni qo‘zg‘atishga qaratilgan xorijiy axborot hujumlariga chidamlilikni kuchaytiradi. Bu ichki institutlar va demokratik jarayonlarga ishonchni mustahkamlaydi.

Milliy kontent deganda millatning qadriyatlari, o‘ziga xosligi va manfaatlarini aks ettiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi ommaviy axborot vositalari, axborotlar, hikoyalar va madaniy ifodalar tushuniladi. Axborot urushi sohasida madaniy barqarorlik va milliy kontent orqali o‘ziga xoslikni saqlash bir necha sabablarga ko‘ra juda muhim: Milliy kontentning millatning o‘ziga xosligini belgilaydigan madaniy mezonlar, tarixiy istiqbollar va umumiy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Bunday ma’lumotlar dezinformatsion kampaniyalar orqali mamlakatning madaniy qadryatlarni buzib ko‘rsatish yoki buzishga bo‘lgan tashqi ishtirokchilarning urinishlariga qarshi qalqon bo‘lib xizmat qiladi. Haqiqiy madaniy ifodalar va tarixiy haqiqatlarni targ‘ib qilish orqali milliy mazmun fuqarolarda birdamlik va g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi, jamiyat ahilligini mustahkamlaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, shuni xulosa qilamizki, milliy kontent madaniy barqarorlikni rag‘batlantirish, jamoatchilik ishonchini oshirish, media savodxonligini oshirish, texnologik innovatsiyalardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish va inqirozga qarshi samarali muloqot strategiyalarini amalga oshirish orqali axborot xurujlaridan himoyalanishning asosiy elementi bo‘lib xizmat qiladi. Keng qamrovli milliy kontent strategiyalariga sarmoya kiritib, mamlakatlar dezinformatsiyaga qarshi himoyani kuchaytirishi, demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashi va tobora raqamli va o‘zaro bog‘langan dunyoda milliy suverenitetni himoya qilishi mumkin.

Ta’lim tashabbuslari va media savodxonligi odamlar va jamoalarga axborot hujumlarini samarali boshqarish va ularga qarshi kurashish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Media savodxonligini ta’lim tizimlariga integratsiyalash, jamoatchilik tashabbuslari orqali fuqarolik jamiyatini jalb qilish va jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalarini rag‘batlantirish orqali mamlakatlar tobora murakkablashib borayotgan raqamli landshaftda haqiqatni yolg‘ondan ajrata oladigan mustahkam jamiyatni rivojlantirishi mumkin. Ushbu sa’y-harakatlar nafaqat demokratik qadriyatlar va fuqarolik faolligini himoya qiladi, balki butun dunyo bo‘ylab axborot yaxlitligini qo‘llab-quvvatlash va dezinformatsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha global sa’y-harakatlarga hissa qo‘shadi.

RAQAMLI VOSITALAR ORQALI INGLIZ TILI TINGLAB TUSHUNISH KO’NIKMASINI RIVOJLANTIRISH: YOSHLAR KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA METODIK YONDASHUVLAR

Sadullayeva Gulshirin Ilxomovna
Samarqand davlat chet tillari instituti kafedra o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tili tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodik asoslari, ayniqsa raqamli ta’lim sharoitida bu ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari fonida ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning kommunikativ, kognitiv va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqola xalqaro va mahalliy (o‘zbek) tadqiqotlar asosida tinglab tushunishni o‘qitishda samarali strategiyalarni taklif etadi hamda mavjud muammolarga yechimlar ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Tinglab tushunish, raqamli ta’lim, yoshlar kompetensiyasi, ingliz tili, metodika, O‘zbekiston, raqamli vositalar, AKT.*

Abstract: *This article examines the methodological foundations of developing English listening comprehension skills, especially the possibilities of forming these skills in digital education. Against the background of digital transformation processes in the education system of Uzbekistan, ways of developing students' communicative, cognitive and cultural competencies through the use of digital technologies in English lessons are analyzed. The article offers effective strategies for teaching listening comprehension based on international and local (Uzbek) research and suggests solutions to existing problems.*

Keywords: *Listening comprehension, digital education, youth competence, English language, methodology, Uzbekistan, digital tools, ICT.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методические основы развития навыков аудирования английского языка, в особенности возможности формирования этих навыков в условиях цифрового образования. На фоне процессов цифровой трансформации в системе образования Узбекистана анализируются пути развития коммуникативных, когнитивных и культурных компетенций учащихся посредством использования цифровых технологий на уроках английского языка. В статье предлагаются эффективные стратегии обучения аудированию на основе международных и местных (узбекских) исследований и предлагаются решения существующих проблем.*

Ключевые слова: *Аудирование, цифровое образование, компетентность молодежи, английский язык, методика, Узбекистан, цифровые инструменты, ИКТ.*

Kirish

XXI asrda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, ingliz tilini o‘rgatishda, xususan tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda raqamli vositalarning ahamiyati ortib bormoqda. Ziyayeva (2020) ta’kidlaganidek, tinglab tushunish – bu kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot va tushunishni ta’minlovchi asosiy til ko‘nikmasidir.

Zamonaviy sharoitda bu ko‘nikma darslikdagi audio yozuvlar bilan emas, balki podkastlar, YouTube videolari, onlayn intervyular va raqamli platformalardagi materiallar bilan rivojlantirilmoqda (Gilakjani & Sabouri, 2016). Shu bois, ushbu metodikani zamon talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinglab tushunishda raqamli vositalarning o‘rni

Raqamli platformalar o‘quvchilarga haqiqiy va mustaqil tinglash tajribasini yaratadi. Samarali platformalar quyidagilardan iborat:

- Podkastlar (BBC Learning English, Voice of America)
- Interaktiv video platformalari (Edpuzzle, TED-Ed, YouTube)
- Mobil ilovalar (Duolingo, Listenwise, ELSA Speak)
- Sun’iy intellekt asosidagi ilovalar (real vaqtli tahlil va baholash)

Smith (2019) tadqiqotida ko‘rsatilishicha, muntazam raqamli vositalardan foydalangan talabalar an’anaviy darsdagi tengdoshlariga nisbatan yuqori motivatsiya va eshitish aniqligini namoyon etgan. Shuningdek, raqamli vositalar o‘quvchilarga audio matnni boshqarish (pauza, qayta tinglash) imkonini beradi.

Nosirova (2023) ta’kidlaganidek, o‘zbekistonlik talabalar multimedia vositalari orqali turli talaffuzlar, ifodalar va real nutq elementlariga duch kelgan holda nafaqat tinglab tushunish, balki so‘zlashuv ko‘nikmasini ham rivojlantirishga erishmoqda.

Zamonaviy metodika uch bosqichli model asosida quriladi (Vandergrift & Goh, 2012):

- Tinglash oldidan: mavzuni taxmin qilish, so‘z boyligini faollashtirish.
- Tinglash vaqtida: asosiy g‘oya va tafsilotlarni ajratish, savollarga javob berish.
- Tinglashdan so‘ng: muhokama, yozma xulosa, refleksiya.

Ushbu modelni raqamli muhitga moslashtirish Edpuzzle kabi vositalar yordamida oson amalga oshiriladi (Sadullayeva, 2025). Qurbonova (2022) o‘z tadqiqotida tinglab tushunishda vizual materiallar (rasm, video) orqali kontekstni tushunishni soddalashtirish samarali ekanini ko‘rsatadi.

Yoshlar kompetensiyasini shakllantirishdagi roli

Tinglab tushunish orqali quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- Lingvistik kompetensiya – leksik, grammatik va fonetik bilimlar
- Madaniy kompetensiya – nutq madaniyati va madaniyatlararo farqlarni tushunish
- Metakognitiv kompetensiya – mustaqil strategiya tanlash, o‘zini baholash
- Raqamli kompetensiya – texnologik savodxonlik, axborot tahlili

Ismoilova (2021) fikricha, raqamli vositalar yordamida tinglab tushunishga asoslangan topshiriqlar yoshlar orasida mustaqil fikrlash, muammoni yechish va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

O‘zbekiston tajribasida muammolar va yechimlar

Raqamli tinglab tushunish darslarining samarali tashkil etilishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar va ularning yechimlari quyidagicha:

Muammo	Yechim
Internet va qurilmalar yetishmovchiligi	Oflayn ilovalar, yuklab olinadigan audio materiallardan foydalanish
O‘qituvchilar tayyorgarligining pastligi	AKT asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish
O‘quv dasturlarining moslashtirilmaganligi	Raqamli kontentni mavjud dastur asosida modifikatsiya qilish

Muammo	Yechim
Motivatsiyaning pastligi	O‘yinli elementlar (gamifikatsiya), mahalliy kontekstda tayyorlangan materiallar

Yusupova va Abdullayeva (2023) milliy kontekstga mos materiallar (o‘zbek madaniyatiga oid mavzular, real hayotga yaqin suhbatlar) tinglab tushunish samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi.

Xulosa

Raqamli transformatsiya sharoitida tinglab tushunish ko‘nikmasini zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirish zaruratga aylangan. Bu metodik yondashuv nafaqat til o‘rgatishni, balki yoshlarning ijodiy fikrlashi, mustaqil o‘rganishga tayyorligi va madaniyatlararo muloqot qobiliyatini ham rivojlantiradi.

O‘zbekiston oliy ta’limida ingliz tilini o‘qitishda raqamli vositalarni metodik asosda joriy etish orqali milliy ta’lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvokhidov, A. (2020). Raqamli texnologiyalarni ingliz tili darslarida qo‘llashning samarali usullari. *Innovatsion ta'lim*, (4), 56–61.
2. Ahmadi, S. M. (2018). The use of technology in English language learning: A literature review. *IJREE*, 3(2), 115–125.
3. Gilakjani, A. P., & Sabouri, N. B. (2016). Listening comprehension difficulties. *English Language Teaching*, 9(6), 123–133.
4. Ismoilova, G. (2021). AKT vositalarining ingliz tili ta’limidagi o‘rni. *Til va adabiyot ta’limi*, (3), 101–105.
5. Nosirova, D. (2023). Raqamli vositalar orqali til o‘rgatish. *Modern Science and Research*, (10), 39–44.
6. Qurbonova, M. (2022). Vizual materiallar va tinglab tushunish. *Filologiya fanlari*, (2), 78–84.
7. Smith, J. (2019). Improving Listening Comprehension Skills. *Journal of Language Learning Technologies*, 12(3), 45–59.
8. Sadullayeva, G. I. (2025). PROBLEMS AND SOLUTIONS IN TEACHING SPEECH PERCEPTION BY LOOK: METHODOLOGICAL ANALYSIS. Innovative Development in Educational Activities, 4(1), 117–127. https://doi.org/10.5281/zenodo.14773834
9. Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). *Teaching and Learning Second Language Listening*. Routledge.
10. Yusupova, N., & Abdullayeva, S. (2023). Mahalliy kontekstda ESL materiallar ishlab chiqish. *Ta'lim va taraqqiyot*, (1), 22–29.
11. Ziyayeva, S. (2020). Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish. *Philology and Language Teaching*, (5), 47–52.

RAQAMLI TA’LIMDA AXBOROT XAVFSIZLIGI VA MILLIY ONG MASALALARI

Qudratova Adolat Tursunovna
Sergeli tuman ixtisoslashtirilgan maktab o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli ta’lim jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash va yoshlar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish muammolari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar*

keng joriy etilgan hozirgi davrda internet muhitida turli xavf-xatarlar, soxta ma’lumotlar va madaniyatsiz kontentlarning mavjudligi ta’lim oluvchilarning axborot maydonida yo‘naltirilmagan harakatlar qilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktab va oliy ta’lim tizimlarida raqamli savodxonlik bilan birga, axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Maqolada o‘quvchilarning milliy ongini mustahkamlashda raqamli kontentning roli, milliy qadriyatlar asosida tayyorlangan raqamli ta’lim materiallarining afzalliklari hamda bu yo‘nalishda ota-ona va pedagoglarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, axborot maydonida milliy manfaatlarni himoya qilish, yoshlarni virtual tahdidlardan asrash va ularni ongli internet foydalanuvchisi etib tarbiyalashga doir tavsiyalar berilgan.

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения информационной безопасности в цифровом образовательном процессе и формирования национального самосознания у молодежи. В условиях широкого внедрения цифровых технологий наличие различных угроз в интернет-среде, ложной информации и культурно-негативного контента приводит к тому, что учащиеся совершают действия без должной информационной ориентации. С этой точки зрения, в системе школьного и высшего образования наряду с цифровой грамотностью необходимо формировать культуру информационной безопасности. В статье раскрывается роль цифрового контента в укреплении национального самосознания учащихся, преимущества учебных материалов, разработанных на основе национальных ценностей, а также подчеркивается значимость участия родителей и педагогов в этом процессе. Кроме того, приводятся рекомендации по защите национальных интересов в информационном пространстве, защите молодежи от виртуальных угроз и воспитанию их как сознательных пользователей интернета.*

Annotation: *This article explores the issues of ensuring information security in the digital education environment and the development of national identity among youth. In an era of widespread digital technology, the presence of various online threats, false information, and culturally inappropriate content leads students to act without proper informational awareness. Therefore, it is crucial to cultivate not only digital literacy but also a culture of information security within school and higher education systems. The article highlights the role of digital content in strengthening students’ national consciousness, the advantages of educational materials based on national values, and the importance of parental and pedagogical involvement in this process. In addition, it provides recommendations for protecting national interests in the digital space, safeguarding youth from virtual threats, and fostering responsible internet users.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, axborot xavfsizligi, milliy ong, raqamli savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, raqamli kontent, virtual tahdidlar, internet madaniyati, pedagogik yondashuv*

Ключевые слова: *цифровое образование, информационная безопасность, национальное самосознание, цифровая грамотность, воспитание молодежи, национальные ценности, цифровой контент, виртуальные угрозы, интернет-культура, педагогический подход*

Keywords: *digital education, information security, national identity, digital literacy, youth education, national values, digital content, virtual threats, internet culture, pedagogical approach*

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ta’lim tizimi ham sezilarli darajada raqamlashtirilmoqda. Raqamli ta’lim – bu o‘quv jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali tashkil etish bo‘lib, u o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan

qiziqishini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi hamda kengroq imkoniyatlar yaratadi. Biroq raqamli muhitning joriy etilishi bilan birga bir qator muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, axborot xavfsizligi, yoshlarning internetda to‘g‘ri yo‘naltirilmasligi, soxta yoki zararli ma’lumotlarning ta’sirida qolishi kabi tahdidlar bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida milliy ong va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir. Raqamli kontent orqali o‘quvchilarning ongi va tafakkuriga ta’sir ko‘rsatish kuchli bo‘lgani sababli, bu jarayonda milliy ruhda yo‘naltirilgan, sog‘lom ma’naviyatga asoslangan materiallar tayyorlash va targ‘ib qilish alohida e’tiborni talab qiladi.Ushbu maqolada raqamli ta’limda axborot xavfsizligini ta’minlash hamda milliy ongni shakllantirish masalalari yoritiladi, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim tizimi ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishda muhim rol o‘ynayotgan bo‘lsa-da, bu sohada bir qator xavf-xatarlar ham mavjud. Jumladan, internet tarmog‘idagi ochiq ma’lumotlar oqimi o‘quvchilarning fikrlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ularni noto‘g‘ri yo‘nalishga boshlashi mumkin. Shu sababli, raqamli ta’limda **axborot xavfsizligini ta’minlash** – ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat texnik himoya vositalari bilan, balki yoshlarning ongida tanqidiy fikrlash, xavfli kontentni aniqlay olish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.[1]. 13-15b.

Yana bir muhim masala — **milliy ong va qadriyatlar**ning saqlanishidir. Globallashuv sharoitida ko‘plab xorijiy axborot vositalari, o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning ongi begona g‘oyalar bilan to‘lib borayotganini kuzatish mumkin. Aynan shunday vaqtda ta’lim tizimi o‘quvchilarning ongida milliy o‘zlik, vatanparvarlik, tarixiy meros, urf-odat va an’analarga sadoqat kabi tushunchalarni mustahkamlab borishi kerak. Buning uchun raqamli kontentlar **milliy ruhda** ishlab chiqilishi muhim: o‘zbek milliy qadriyatlariga asoslangan videodarslar, multimediali loyihalar, interaktiv o‘yinlar, elektron darsliklar va bloglar shular jumlasidandir.

Shuningdek, raqamli ta’limda ota-onalar va pedagoglarning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchi faqat bilim olish emas, balki axborotni tahlil qilish, tanlash va undan to‘g‘ri foydalanishni ham o‘rganishi zarur. Bunda o‘qituvchi – yo‘lboshchi, ota-ona esa ko‘makchi bo‘lib, bolani virtual xavf-xatarlardan ogohlantirishi lozim. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili dunyoda millionlab bolalar zararli axborotlar ta’sirida ruhiy tushkunlik, zo‘ravonlik yoki noto‘g‘ri harakatlarga moyil bo‘lmoqda. Shu bois, axborot xavfsizligini ta’minlash – nafaqat texnologik, balki ma’naviy va tarbiyaviy muammo sifatida ham ko‘rilishi kerak.[2]. 143-152 b.

Raqamli ta’limda milliy ongni shakllantirish va axborot xavfsizligini ta’minlashda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

raqamli axborot madaniyatini o‘rgatish;

yoshlar orasida sog‘lom milliy g‘urur va o‘zlikni anglashni kuchaytirish;

milliy qadriyatlarga asoslangan kontentlarni ishlab chiqish;

zararli axborotlarning oldini olish uchun nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;

o‘qituvchi, psixolog va IT mutaxassislar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.[3].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda raqamli ta’lim muhiti sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlash va milliy ongni shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish maqsadida bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Nazariy tahlil – raqamli ta’lim, axborot xavfsizligi, milliy ong va raqamli kontent masalalariga oid ilg‘or ilmiy adabiyotlar, maqolalar va amaliy tajribalar o‘rganildi. Xalqaro va mahalliy manbalar asosida konseptual asoslar aniqlashtirildi.

Empirik kuzatuv – umumta’lim maktablarida va oliy ta’lim muassasalarida raqamli vositalardan foydalanish, o‘quvchilarning raqamli axborotga munosabati, xavfsizlik madaniyati va milliy qadriyatlarga ta’siri bo‘yicha holat o‘rganildi.

So‘rovnoma va intervyu usuli – o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va IT mutaxassislar ishtirokida maxsus so‘rovnomalar o‘tkazilib, raqamli ta’limda axborot xavfsizligi va milliy tarbiya masalalariga munosabat aniqlashtirildi.

Tahlil va taqqoslash – to‘plangan ma’lumotlar statistik jihatdan tahlil qilinib, turli maktablar, yosh guruhlari va hududlar o‘rtasida taqqoslashlar amalga oshirildi.

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish – tadqiqot natijalariga asoslanib, raqamli ta’limda axborot xavfsizligini mustahkamlash va milliy ongni kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.[4].

Tahlil va natijalar

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamlashtirilgan, mobil va interaktiv ko‘rinishga ega bo‘lib bormoqda. Onlayn darslar, masofaviy platformalar, elektron darsliklar va test tizimlari orqali o‘quv jarayoni oson va ommabop holga kelmoqda. Biroq bu qulayliklar bilan birga, axborot xavfsizligi muammolari ham dolzarb muammoga aylangan. Axborot xavfsizligi – bu ma’lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta’minlashga qaratilgan texnik va tashkiliy choralar majmuasidir. Raqamli ta’limda esa bu – o‘qituvchilar, o‘quvchilar va boshqa foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, ta’lim resurslari, test natijalari va tarmoqli platformalarning xavfsizligini anglatadi.[5].

Asosiy muammolar

1. Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligining buzilishi

Raqamli ta’lim platformalarida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning pasport ma’lumotlari, kontaktlari, elektron pochta manzillari va boshqa shaxsiy axborotlari mavjud bo‘ladi. Noto‘g‘ri saqlash yoki zaif tizimlar orqali bu ma’lumotlar uchinchi shaxslarga tarqalishi mumkin.

2. Kiberhujumlar (Cyber Attacks)

Ta’lim platformalariga qarshi:

DDoS hujumlar – sayt yoki platformani ishdan chiqarish;

Phishing (soxta sahifalar orqali aldash) – foydalanuvchilarning login-parollarini qo‘lga kiritish;

Zararli dasturlar (malware) – kompyuter tizimlariga zarar yetkazish hollari mavjud.

3. Platformalarning zaif himoyalanishi

Ko‘plab maktablar va oliy ta’lim muassasalari oddiy, bepul platformalardan foydalanadi (masalan, Google Forms, Zoom, Moodle kabi). Ular esa har doim ham yuqori xavfsizlik darajasiga ega emas.[7]. 234 b.

4. Axborot madaniyatining yetishmasligi

Ko‘pchilik foydalanuvchilar, ayniqsa, o‘quvchilar:

Murakkab parollar ishlatmaydi;

Har xil havolalarga ishonch bilan kiradi;

O‘z shaxsiy ma’lumotlarini begonalarga yuboradi;

Dasturiy himoya (antivirus, firewall) haqida tasavvurga ega emas.[10].

Xulosa.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga keng kirib kelishi natijasida o‘quv jarayonlari sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Biroq bu o‘zgarishlar bilan birga yangi muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Xususan, raqamli ta’limda axborot xavfsizligi va milliy ongni asrash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, noto‘g‘ri yoki zararli axborotlarning tarqalishini oldini olish, platformalarni kiberxavflardan himoyalash muhim vazifadir. Buning uchun texnik xavfsizlik choralarini kuchaytirish, foydalanuvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish zarur. Bundan tashqari, raqamli kontent orqali yosh avlodga begona mafkuraviy ta’sirlar osonlik bilan kirib kelmoqda. Shu bois, raqamli ta’limda milliy ongni mustahkamlash, o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlar, til va tarixni chuqur o‘rgatishga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘zbek xalqining madaniy merosi, tarixiy shaxslari va urf-odatlari asosida yaratilgan raqamli materiallar bu yo‘lda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, uni xavfsiz va milliy g‘oyalar asosida yo‘naltirish zamonaviy ta’lim siyosatining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bu boradagi chora-tadbirlar davlat, jamiyat, oila va pedagoglarning birgalikdagi harakati orqali amalga oshirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Qodirov Q., Turg‘unov S. *Axborot xavfsizligi asoslari.* – Toshkent: Fan, 2020.
3. Hasanov A., Shukurov B. *Raqamli texnologiyalar va ta’lim muammolari.* – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – 2020-yil 5-oktabr.
5. Islomova D. *Axborot texnologiyalari va yoshlar tarbiyasi.* // “Ma’naviy hayot” jurnali, 2021, №2.
6. UNESCO. *Digital Literacy in Education: Policy Brief.* – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
7. Cybersecurity and Education: *A Global Guide to Best Practices.* – ITU/UNESCO Report, 2021.
8. Toshmatov A., Bozorov F. *Ta’limda axborot xavfsizligi va internet madaniyati.* – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2023.
9. Yusupov I. *Milliy g‘oya va mafkuraviy immunitet.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Raqamli ta’lim konsepsiyasi.* – Toshkent, 2021.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA JALOLIDDIN RUMIY HAQIDA MILLIY TARBIYA MUAMMOLARIGA YO‘NALTIRILGAN RAQAMLI KONTENTLARNI YARATISH ASOSLARI

Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhiti tushunchasi, uning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv muhiti o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishi, ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va shaxsiy tempda o‘rganishga imkon yaratishi bilan ajralib turadi. Muallif*

raqamli platformalar (masalan, LMS tizimlari, videodarslar, virtual laboratoriyalar) orqali ta’lim sifati oshishini asoslab bergan. Shuningdek, raqamli muhitda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqot, moslashtirilgan ta’lim resurslari, tahliliy vositalar va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada raqamli ta’limni joriy etishdagi muammolar — texnik ta’minot, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi, ma’lumotlar xavfsizligi masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Yakunda raqamli ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha metodik tavsiyalar va istiqbolli yo‘nalishlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar *.Raqamli ta’lim muhiti,axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT),masofaviy ta’lim,raqamli kompetensiya,sun’iy intellect,virtual laboratoriya,onlayn ta’lim,interaktiv darslar,ta’limda innovatsiya,raqamli pedagogik content.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие цифровой образовательной среды, её роль и возможности в современном учебном процессе. Цифровая среда, основанная на использовании информационных технологий, способствует развитию самостоятельности учащихся, повышению их интереса к обучению и позволяет организовать обучение в индивидуальном темпе. Автор обосновывает, что использование цифровых платформ (например, систем LMS, видеолекций, виртуальных лабораторий) способствует повышению качества образования. Также освещены возможности интерактивного взаимодействия между учителем и учеником, адаптивные учебные ресурсы, аналитические инструменты и применение искусственного интеллекта. В статье также рассматриваются проблемы внедрения цифровой среды — техническое обеспечение, цифровая компетентность педагогов, вопросы безопасности данных. В заключении предложены методические рекомендации и перспективные направления развития цифровой образовательной среды.*

Ключевые слова*: цифровая образовательная среда,информационно-коммуникационные технологии (ИКТ),дистанционное обучение,цифровая компетентность,искусственный интеллект,виртуальная лаборатория,онлайн-образование,интерактивные уроки,инновации в образовании.*

Annotation: *This article explores the concept of the digital learning environment, its role, and opportunities in modern education. A digital environment based on the use of information technologies supports students’ independent learning skills, increases engagement, and enables personalized learning. The author argues that the use of digital platforms (such as LMS systems, video lessons, and virtual laboratories) significantly improves the quality of education. The article highlights the potential of interactive communication between teachers and students, adaptive learning resources, analytical tools, and artificial intelligence integration. It also addresses challenges in implementing digital education — including technical infrastructure, teachers’ digital competence, and data security issues. Finally, the article presents methodological recommendations and future directions for developing an effective digital learning environment.*

Keywords. *Digital learning environment,information and communication, technologies (ICT) distance learning,digital competence,artificial intelligenc virtual,laboratory,online education,interactive lessons,educational innovation,digital pedagogical content*

Rumiyning she’riy va falsafiy merosini raqamli platformalarda targ‘ib qilish maqsadida o’quvchi va ayni vaqtda jamiyatdagi turli qatlam va toifa insonlari uchun foydalidir.

Mobil ilovalar: Rumiyning she’rlari, nasihatlari va hikmatlari asosida mobil ilovalar yaratish mumkin. Masalan, har kuni foydalanuvchilarga Rumiyning yangi sherini yoki ta’limotini eslatib turuvchi "kunlik hikmat" ilovasini gadjet

Tarmog’iga ulash orqali tanishib borish mumkin bo’ladi.

Podcast va audio kitoblar: Rumiyning asarlarini professional tarzda ovozli shaklda tayyorlash, ularni podcast yoki audio kitob shaklida tarqatish — ayniqsa, ma’naviy bilim olishni qulay va ommabop qiladi.

Video kontent: Rumiyning fikrlari asosida animatsiyalar, qisqa filmlar, YouTube kanalida ma’naviy-motivatsion videolar tayyorlash mumkin. Shu bilan birga, TikTok, Instagram Reels kabi platformalarda qisqa she’rlar va ta’limotlarni jonlantirish.

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR): Rumiyning ruhiy sayohati yoki uning “Masnaviy” asaridagi voqealarni VR/AR texnologiyalar yordamida jonlantirish. Bu orqali foydalanuvchilar nafaqat o‘qiydi, balki o‘zlarini o‘sha dunyoda his qiladilar. O‘quv platformalari: Onlayn kurslar, master-klasslar va interaktiv darslar yaratish. Masalan, Rumiyning asarlarini chuqur o‘rganish uchun video darslar, interaktiv testlar va forumlar tashkil etish. Sun’iy intellekt va til modellari yordamida yangi kontent yaratish

Xulosa

Rumiyning ma’naviy merosini raqamli texnologiyalar yordamida keng auditoriyaga yetkazish bugungi kunda juda muhim. Buning uchun zamonaviy platformalardan foydalangan holda interaktiv, audio-vizual va sun’iy intellekt asosidagi kontent yaratish mumkin. Bu nafaqat madaniy merosni saqlash, balki uni yangi avlodlarga yo‘l ochish imkonini beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. MAVLONO RUMIY ASARLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KITOBXONLIK KOMPETENSIYALARINI OSHIRISH Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi1, Il’yasova Dilshoda Akmal qizi 1,2Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti *.https://doi.org/10.5281/zenodo.15562948*

2. JALOLIDDIN RUMIYNING ASARLARIDAGI INKLYUZIV TA’LIM VA TARBIYAVIY QARASHLARINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Qarshiboyeva Maftuna komiljon qizi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktorant. *https://doi.org/10.5281/zenodo.15099921*

3. www.natlib

4. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Metodik-bibliografik qo‘llanma. Tuzuvchi U.Teshaboyeva. — T.:2007.-B.21

MILLIY TARBIYA KONTENTLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA KASBIY MA’NAVIY TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Mutallibjonov Ma’rufjon

Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy tarbiya kontentlari asosida o‘quvchilarda kasbiy ma’naviy ongni shakllantirish masalalari yoritiladi. Milliy qadriyatlar, tarixiy meros va axloqiy*

tamoyillarga asoslangan tarbiyaviy kontentlar orqali yoshlarda kasbga hurmat, halollik, mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida milliy tarbiya materiallaridan foydalanish orqali kasbiy ma’naviyatga oid tasavvurlarni boyitish metodikasi ko‘rib chiqiladi. Maqola ta’lim-tarbiya integratsiyasi va kasbiy yo‘naltirishda milliylikni saqlab qolish muhimligini asoslaydi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: *milliy tarbiya, kasbiy ma’naviyat, o‘quvchi tarbiyasi, qadriyatlar, kasbga hurmat, tarbiyaviy kontent, ta’lim va tarbiya*

Abstract

This article explores the development of students’ professional moral awareness through national educational content. It analyzes how values such as respect for profession, honesty, and responsibility can be instilled in students by incorporating national heritage and ethical principles. The study also presents methodological approaches to enriching students’ understanding of professional ethics through the use of national content in classroom activities. The article emphasizes the importance of integrating education and career orientation while preserving national identity.

Key words and concepts: *national education, professional ethics, student upbringing, values, respect for profession, educational content, education and moral development.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования профессионального нравственного сознания учащихся на основе национального воспитательного контента. Анализируются пути развития у молодежи таких качеств, как уважение к профессии, честность и ответственность, через использование национальных ценностей и исторического наследия. Также представлены методики обогащения представлений о профессиональной этике с помощью материалов национального воспитания в учебном процессе. Работа обосновывает важность интеграции воспитания и профессиональной ориентации с сохранением национальной идентичности.

Ключевые слова и понятия: *национальное воспитание, профессиональная нравственность, воспитание учащихся, ценности, уважение к профессии, воспитательный контент, образование и воспитание.*

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlatning asosiy maqsadi – yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”, shuningdek, Prezidentning “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan tamoyiliga asoslangan islohotlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki chuqur tarbiyaviy vazifani ham bajarishi kerak.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, **milliy tarbiya kontentlarini shakllantirish** – bu o‘quvchilarning ona yurt, xalq, til va madaniyatga bo‘lgan sadoqatini oshirish bilan birga, ularning **kasbiy ma’naviy ongini** rivojlantirishning ham muhim omilidir. Milliy tarbiya – bu tarixiy xotira, urf-odatlar, ajdodlar merosi, axloqiy-ruhiy qadriyatlarni yosh ongiga singdirish jarayoni bo‘lib, uning asosida mustahkam fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik, mas’uliyat, halollik va fidoyilik kabi fazilatlar yotadi.

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini belgilash bilan birga, ularning tanlagan kasbiga nisbatan **axloqiy-estetik munosabatini shakllantirish** ham muhim vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar ta’siri kuchaygan bir davrda o‘quvchilar orasida kasbga faqat moddiy manfaatlar nuqtai nazaridan yondashish holatlari ko‘paymoqda. Bunday sharoitda milliy tarbiya kontentlari orqali kasbni vijdonan bajarish, jamiyat oldida mas’uliyatni his qilish, insonlarga halol xizmat qilish tushunchalarini singdirish zarur.

 O‘zbek xalq maqollari, **ertaklari** va **afsonalari**da kasbga e’tibor, mehnat, halollik, fidoyilik singari tushunchalar o‘z aksini topgan. Masalan, “Kasb egasi bo‘lgan – och qolmaydi”, “Mehnat qilgan halol yeydi” kabi maqollar o‘quvchilarga kasbiy ma’naviyatni singdirishda samarali vosita hisoblanadi.

 Tarixiy shaxslar – Ahmad al-Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi olimlar hayoti orqali o‘quvchilarga kasbga bo‘lgan mas’uliyatli yondashuvni ko‘rsatish mumkin.

Har bir inson tanlagan sohasini, kasbini puxta o‘zlashtirib, bilim va ko‘nikmalarini chuqur egallashi zarur. Bu uning o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Inson bolalikdan boshlab oilada, jamiyatda va ta’lim muassasalarida yaxshi tarbiya olib, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi, o‘zgalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Allomalarmizdan Abu Nasr Forobiy shunday ibratli so’z aytgan “Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak” ya’nikim, har bir shaxs insoniy sifatlar, xulq-atvor qoidalari, axloqiy me’yorlarga amal qilishi lozim. Bunga samimiylik, rostgo‘ylik, mehribonlik, sabr-qanoat, kamtarlik kabi insoniy fazilatlar kiradi. Kasbim mas’uliyati moddiy manfaatdan ustun shiorini tanlash kerak har bir inson. Yana bir misol keltirsak, Plastik jarroh Nodir Ibatov jurnalist bilan bo‘lgan suhbatda quyidagi fikrlarni bildirdi: “Inson o‘z kasbini sevishi va uning fidoyisi bo‘lishi kerak. Aks holda, u yaxshi mutaxassis bo‘la olmaydi”.

Hazrati Muhammad (alayhissalom) inson hayotida halol mehnat va kasb-hunarning qanchalik muhimligini ta’kidlab, shunday marhamat qilganlar: “Sizlar iste’mol qilayotgan narsalarning eng yaxshisi o‘z qo‘lingiz bilan, halol kasbingiz orqali topilganidir. Mening birodarim Dovud (alayhissalom) ham o‘z qo‘li bilan mehnat qilib, rizqini topardi” (Buxoriy rivoyati). Dovud (a.s.) podshoh bo‘lsa-da, temirchilik bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari, boshqa bir hadisda ham: “Barcha amallarning eng yaxshisi halol kasb qilishdir”, — deb aytiladi.

Bu rivoyatlar insonni Alloh tomonidan ato etilgan aql, tafakkur, zehni va salohiyatini to‘la-to‘kis ishga solishga, xolis niyat bilan tadbirkorlik, tijorat, ishlab chiqarish yoki dehqonchilik kabi halol kasb-hunar bilan shug‘ullanishga undaydi. Chunki har qanday halol mehnat bilan mashg‘ul bo‘lish nafaqat o‘z oila a’zolarining moddiy farovonligini ta’minlash, balki jamiyatga foyda yetkazish, insoniyatga xizmat qilish yo‘lidir.

Shariat talablari asosida bajariladigan har qanday ish rostgo‘ylik, halollik va mas’uliyat kabi axloqiy qadriyatlarni talab qiladi. Zero, aynan shu sifatlar orqali inson dunyoviy manfaatlarga ega bo‘lish bilan birga, oxiratda ham yuksak martabalarga erishadi. Demak, halol kasb va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish nafaqat moddiy, balki ma’naviy va axloqiy jihatdan ham ulug‘ maqomga yetaklaydi.

Milliy tarbiya kontentlari asosida yosh avlodni nafaqat milliy qadriyatlarga, balki u tanlayotgan kasbga nisbatan hurmat, halollik, vijdon va mas’uliyat bilan qarashga o‘rgatadigan samarali vositadir.



Milliy tarbiya kontentining mazmuniy asoslari. 1-rasm.

Takliflar:

1. Milliy tarbiya kontentlarini kasb-hunar ta’limi dasturlariga integratsiyalashni ta'minlash uchun maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqilish.
2. Raqamli platformalarda kasbiy yo‘nalishlarga oid interaktiv va qiziqarli milliy tarbiya kontentlarini yaratish va keng targ‘ib qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilish.
3. Kasbiy ma’naviy tasavvurlarni shakllantirishda milliy qahramonlar va tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq real misollar va multimedia materiallaridan keng foydalanish.
4. Pedagoglarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam ravishda seminar, treninglar tashkil qilish va ta’lim moddiy texnik bazani yaxshilash.
5. Milliy qadriyatlarni kasb-hunar ta’limi jarayoniga samarali tatbiq qilish uchun yetakchi mutaxassislar va pedagoglarning hamkorligida tajriba almashish platformalari yaratilishi zarur.
6. Ta’lim muassasalarida milliy tarbiya kontentlarini ishlab chiqish va joriy qilish bo‘yicha maxsus loyihalar va tanlovlar o‘tkazilishi tashkil qilish.
7. Raqamli ta’lim muhiti orqali o‘quvchilar orasida kasbiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan interaktiv dasturlar va o‘yinlarning ishlab chiqilishi rag‘batlantirish.
8. Kasbiy ma’naviy tarbiyani rivojlantirishda oilaviy ta’limni kuchaytirish va ota-onalarning ta’lim jarayonidagi rolini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Xulosa.

Milliy tarbiya kontentlari orqali o‘quvchilarda kasbiy ma’naviy ongni shakllantirish – bu nafaqat pedagogik jarayonning, balki butun ta’lim-tarbiya tizimining strategik yo‘nalishidir. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalari ta’sirida shakllanayotgan zamonaviy yosh avlodning shaxsiyati, dunyoqarashi va kasbiy tanlovlariga ma’naviy asoslar bilan yondashish taqozo etilmoqda. Shu bois, tarbiyaviy jarayonlarda milliy qadriyatlarni asosiy mazmun sifatida kiritish, ularni turli kontent shakllarida (video, dars ishlanmalari, testlar, interaktiv o‘yinlar) taklif etish – ta’lim tizimining dolzarb vazifasiga aylangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar orasida kasbga nisbatan faqat moddiy manfaat asosida yondashish holatlari kuchaymoqda. Bu esa ularning tanloviga yuzaki, mas’uliyatsiz qarashlariga sabab bo‘lishi mumkin. Milliy tarbiya kontentlari esa bunday yondashuvning oldini olishga xizmat qiladi. Xususan, tarixiy shaxslar hayoti, xalq og‘zaki ijodiyoti, milliy urf-odatlar asosida tuzilgan tarbiyaviy materiallar orqali o‘quvchilarga kasbni halol, fidokorona va mas’uliyat bilan bajarish tushunchasi singdiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasiga oid strategik hujjatlari, Prezident farmonlari va pedagogik-nazariy tadqiqotlarda tarbiya va ma’naviyat birlamchi o‘ringa qo‘yilmoqda. Xususan, “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish” konsepsiyasi, “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” tamoyili, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun kabi hujjatlar bu yo‘nalishda asosiy metodik va huquqiy tayanchni shakllantirib bermoqda.

Amaliy jihatdan qaraganda, milliy tarbiya kontentlarining o‘quvchilarda kasbiy ma’naviyatga oid tasavvurlarni shakllantirishdagi samaradorligini quyidagi omillar orqali baholash mumkin:

- o‘quvchilarning kasblarga bo‘lgan ijobiy va axloqiy yondashuvlari ortadi;
- kasb tanlashda ongli, ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qilinadi;
- vatanparvarlik, fidoyilik, halollik singari fazilatlar kuchayadi;
- o‘quvchilarda mehnat madaniyati va o‘z kasbini sevish ruhi shakllanadi.

Shunday qilib, milliy tarbiya kontentlari asosida kasbiy ma’naviyatni shakllantirish – bu shunchaki tarbiyaviy vosita emas, balki ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy tiklanish va kelajak avlodni har tomonlama sog‘lom shaxs sifatida tarbiyalashning zaruriy sharti sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (Qayta tahrir, 2020-yil, 23-sentabr).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori. PQ–3955-son, 2018-yil 27-mart.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
4. Qodirova R. *Kasbiy tayyorgarlikda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni*. – T.: TDPU ilmiy jurnali, 2021, №1.
5. Husanov M. *Pedagogik jarayonda kasbiy ma’naviyatni rivojlantirish metodikasi*. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2020.
6. Vahobova N. *Milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy darslar metodikasi*. – T.: O‘qituvchi, 2022.
7. Alimov S. *O‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni*. – Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021, №2.
8. UNESCO. *Global citizenship education: Preparing learners for the challenges of the 21st century*. – Paris: UNESCO Publishing, 2015.
9. OECD. *Future of Education and Skills 2030: Conceptual Learning Framework*. – Paris, 2019.
10. A. Usmonxo‘jayev. *Milliy tarbiya asoslari*. – T.: Ma’naviyat, 2017.
11. Bekmurodov Sh. *Pedagogik texnologiyalar va ma’naviy tarbiya*. – T.: Fan va texnologiya, 2019.
12. Saidov A.X. *O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari*. – T.: Adolat, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARI ORQALI HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANIB AXLOQIY TARBIYA BERISH

Ilyosboyev Sirojiddin Baxtiyor o’g’li
Maktabgacha boshlang'ich talim va sport yo'nalishi 2-kurs talabasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta’lim tizimida barkamol avlodni ahloqiy tarbiyalashda milliy harakatli o‘ynlarning o‘rni hamda unga qo‘yiladigan vazifalar to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya, barkamol avlod, axloqiy tarbiya, milliy, harakatli o‘yinlar, ta’lim, o‘quvchi, imkoniyat, o‘qituvchi.

Аннотация. В данной статье дается обзор роли и задач натсиональных мобильных игр в воспитании молодежи в системе непрерывного образования.

Ключевые слова: физическое воспитание, подростковое поколение, нравственное воспитание, натсиональное, игры, воспитание, ученик, возможность, учитель.

Annotation. This article provides an overview of the role and tasks of national mobile games in the education of youth in the continuing education system.

Key words: physical education, adolescent generation, moral education

Uzluksiz ta’lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalash jarayoni ta’lim bosqichlari hamda ta’lim sohalari o‘rtasida uzviylik pritsipiga amal qilgan sharoitda samarali kechadi[3]. Qolaversa, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi ham barkamol avlod tarbiyasining muhim shartlaridan biridir. Shu ma’noda jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy sifatlari milliy harakatli o‘yinlarning turlari yordamida o‘quvchilarni estetik anglash vazifalarini amalga oshirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda hech qanday tasodifiy va shoshilinch narsalar bo‘lishi mumkin emas.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy harakatli o‘yinlarning ahloqiy sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, buning uchun o‘quvchilarni milliy harakatli o‘yinlar bilan doimo tizimli ravishda shug‘ullanishiga zarur sharoit yaratish va yoshiga hamda fiziologik imkoniyatlariga mos tushadigan milliy harakatli o‘yinlarni tanlab olinishi kerak. Bu esa o‘z navbatida o‘quv dasturda berilgan o‘yinlar jumlasiga kiradi. O‘quvchilar milliy harakatli o‘yinlarni o‘ynashi va bajarishida o‘yinni ahloqiy jihatlari ko‘p jihatdan o‘yinni to‘g‘ri tanlab olinishiga bog‘liq.

Harakatli o‘yinlarni o‘zi hoxlaganicha o‘zgartiraverishi mumkin emas, shuning uchun dasturda belgilangan o‘yinlardan foydalanish tanlangan o‘yinni o‘quvchilar ongida shakllantirish hamda uni ahloqiy sifatlarni xis qilidirish orqali o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni hosil qilish qat’iy tizimi bo‘lishi shart[1]. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilar milliy harakatli o‘yinlaridagi ahloqiy jihatlarni anglashi bu ularning bir qator sifatlarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarning faolligi, atrofdagi narsalarga juda qiziquvchanligi, sinchkovligi, har bir narsaga ishonishi va taqlid qiluvchanligidan o‘qituvchi mohirona foydalansa, yo‘naltira bilsa, ahloqiy odatlari tez mustahkamlanib borishiga yordam beradi. O‘qituvchining shaxsiy o‘rnagi madaniy xulq atvori o‘quvchilarda ko‘nikmalarni to‘g‘ri shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi, chunki o‘quvchilar unga astoydil taqlid qiladilar.

O‘quvchilar milliy harakatli o‘yinlardan turli ko‘nikmalarni, shu bilan birga chiroyli harakatlarni egallab olishlari uchun to‘g‘ri xarakat qilish usullarini bilishi, harakatlarni ahamiyatini,

uni ahloqiy sifatlarni shakllanishi zarurligini tushunishi, keyinchalik esa, bu o‘yinlar mobaynida uni o‘ziga singdira bilishi kerak. Buning uchun pedagog u yoki bu milliy harkatli o‘yinlarning ahloqiy jihatlarini amalda ko‘rsatishi, uni o‘quvchilarga aniq tushuntirishi, o‘yinlardagi bir-biriga bo‘ladigavn munosabatlar qanday bo‘lishini ko‘rsata bilish, to‘g‘ri bajarilishini kuzatib borish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk maktab ostonasiga qadam qo‘yishar ekan umumta’lim fanlari sifatida jismoniy tarbiya darslari o‘tiladi. Jismoniy tarbiya darslarining asosini esa milliy harakatli o‘yinlar tashkil etadi[2]. Darsni boshlanishidan oldin salomlashish va xayrlashishga va so‘ngra o‘quvchilar buni o‘zlashtirganlaridan keyingina ularni rahmat aytishga o‘rgatish to‘g‘ri kelmaganidek, ba’zan zarur bo‘lgan taqdirda bir necha qoidalarni bir vaqtni o‘zida qo‘llanilishiga to‘g‘ri keladi. Agar ko‘p o‘quvchilar bu qoidalarni buza boshlasalar, hamma o‘quvchilarni e’tiborini uni qanday va nima uchun bajarish kerakligini tushuntirish va jalb etish lozim. Tushuntirish va topshiriq berishdan tashqari ba’zi o‘quvchilar oldiga qat’iy talablar ham qo‘yish kerak bo‘ladi. Qoida bir necha bor takrorlansa ham, o‘quvchi o‘z joyidan ajrab qolishni istamaydi yoki qiziq o‘yindan ketgisi kelmaydi. Ana shunday paytlarda pedagogik mahoratdan foydalanish talab etiladi. O‘yin jarayonida esa o‘quvchilarni o‘yin qoidalariga, undagi ahloqiy talablarga rioya qilishga odatlantirish uchun o‘qituvchidan chidam, sabot va qat’iyat, elementli harakatlarga ham e’tibor berish, o‘z harakatlarini doimo kuzatib borish ham zarurdir.

Harakatli o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviyati va madaniyati darajasining o‘sishiga zamin yaratib, xulq, odob qonun-qoidalarini, axloq kategoriyalarini ularning ongi, hayoti, turmush tarziga singdirishi uchun muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakatli milliy o‘yinlar orqali axloqiy tarbiya berish mazmuni asosan quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

* Ona zaminga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro etukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan sarhadlarini himoya qilish, sabot va matonat bilan mamlakat ravnaqini o‘stirish, mustaqillikni mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi.

* Jismoniy fazilatlarni tarbiyalash. Bu fazilatlar insonni etuklikka, kamolotga ergashtirish uchun xizmat qiladi.

* Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalanadi.

* Shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi- bu o‘quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Demak, bolalar o‘yindagi axloqiy sifatlarga ijodiy faollik ko‘rsatib o‘ynasalar, o‘yinlar ularda tashkilotchilik malakasini o‘stiradi. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘rtog‘iga yordam berish, o‘z holicha yoki o‘rtoqlari bilan darhol bir qarorga kelishi axloqiy tashabbuskorlik hisoblanadi. Agar bolalar o‘yinni ilgari o‘zlashtirgan bo‘lsalar, o‘yin paytida ularning faolligi yanada ortishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Асланова М.А. Таълим жараёнида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш (бошланғич синфларнинг жисмоний тарбия дарслари мисолида). 13.00.01-п.ф.н., дисс. Навоий – 2009 й. 29 б.

2. Махмудов Б.А. Милий ҳаракатли ўйинлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларинини эстетик тарбиялашнинг дидактик имкониятлари. 13.00.01. – п.ф.ф.д., дисс. Нукус – 2018 й. 36 б.

BOSHLANG’ICH TA’LIM O’QUVCHILARINI MA’NAVIY-AHLOQIY TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYA MASHG’ULOTLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayev Abdukayum Abdulxaevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Bolalar sporti kafedrasi dots., p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tutgan o‘rni va roli o‘rganiladi. Jismoniy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda intizom, hamkorlik, hurmat, vatanparvarlik, iroda kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu mashg‘ulotlarning mazmuni va metodik yondashuvlari orqali ijobiy shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, tarbiyaviy metodlar, fazilatlar, intizom, vatanparvarlik.*

Kirish

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bola shaxsining shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda o‘quvchining ma’naviy dunyosi, axloqiy qadriyatlari va jamiyatga munosabati shakllanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ma’naviy-ahloqiy tarbiya muhim yo‘nalish sifatida qaralib, barcha fanlarda, shu jumladan, jismoniy tarbiya darslarida ham bu jihatga e’tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari faqatgina tana chiniqtirish yoki harakatlar o‘rgatish bilan cheklanmay, balki bolalarning ijtimoiy muomalasi, emotsional rivoji va axloqiy qarashlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Boshlang’ich ta’lim o’quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda jismoniy tarbiya mashg’ulotlarining o’ziga xos xususiyatlari keng ko’lamli ta’sirga ega bo’lib, bu jarayon bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o’rin tutadi. Quyida ushbu xususiyatlar batafsil yoritilgan:

Jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirish

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari ko’pincha guruhli mashqlar, sport o’yinlari (futbol, voleybol, estafeta) va jamoaviy musobaqalar shaklida tashkil etiladi. Bu o’quvchilarga birgalikda ishlash, umumiy maqsad sari harakat qilish va bir-biriga yordam berishni o’rgatadi. Masalan:

- O’yinlarda rol taqsimoti: Har bir o’quvchi jamoada muayyan vazifani bajaradi, bu esa mas'uliyat va hamkorlikni oshiradi.

- Bir-birini qo’llab-quvvatlash: O’yin davomida zaifroq ishtirokchilarni rag’batlantirish orqali o’quvchilar mehr-oqibat, hamdardlik kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi.

- Ijtimoiy ko’nikmalar: Guruhdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni birgalikda boshdan kechirish o’quvchilarga ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Bu jarayon bolalarda jamoaviy ruhni, o’zaro hurmat va do’stona munosabatlarni shakllantiradi, bu esa ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Intizom va mas'uliyatni tarbiyalash

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari qat’iy qoidalar va tartibga asoslanadi. O’quvchilar darsga o’z vaqtida kelish, sport kiyimlarini tayyorlash, mashg’ulotlarda faol ishtirok etish va o’qituvchi ko’rsatmalariga rioya qilish kabi majburiyatlarni bajaradi. Bu xususiyatlar quyidagicha ta’sir qiladi:

- Intizom: Qoidalar doirasida harakat qilish o’quvchilarda tartib-intizom va o’zini boshqarish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

- Mas'uliyat: Jamoaviy o’yinlarda o’z rolingizni to’g’ri bajarish yoki guruh muvaffaqiyatiga hissa qo’shish mas'uliyat hissini oshiradi.

- O’z vaqtini boshqarish: Mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish va ularni muntazam ravishda o’tkazish o’quvchilarga vaqtni samarali boshqarishni o’rgatadi.

Bunday ko’nikmalar bolalarni hayotda mas'uliyatli va intizomli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

O’ziga ishonch va iroda kuchini mustahkamlash

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari o’quvchilarga o’zlarining jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini sinab ko’rish imkonini beradi. Bu jarayon quyidagi yo’llar bilan ma’naviy-axloqiy tarbiyaga hissa qo’shadi:

- Muvaffaqiyatga erishish: Yangi mashqni o’zlashtirish, musobaqada g’alaba qozonish yoki shaxsiy rekordni yangilash o’quvchilarda o’ziga ishonch hissini oshiradi.

- Muvaffaqiyatsizlikni yengish: Sportdagi kichik muvaffaqiyatsizliklar (masalan, o’yinda yutqazish) o’quvchilarga sabr-toqat, iroda kuchi va qayta urinib ko’rish muhimligini o’rgatadi.

- Maqsad sari intilish: Uzoq muddatli maqsadlarga (masalan, ma’lum bir sport turida mahoratga erishish) erishish uchun doimiy mashq qilish o’quvchilarda maqsadlilik va qat’iyatni rivojlantiradi.

Sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari o’quvchilarga sog’lom hayot tarzi va o’z salomatligiga e’tibor berish muhimligini o’rgatadi. Bu jarayon ma’naviy-axloqiy tarbiyaga quyidagi yo’llar bilan ta’sir qiladi:

- O’z tanasiga hurmat: O’quvchilar jismoniy faollik orqali o’z sog’lig’ini muhofaza qilishni va zararli odatlardan (masalan, chekish, nosog’lom ovqatlanish) voz kechishni o’rganadi.

- Atrof-muhitga e’tibor: Tabiatda o’tkaziladigan mashg’ulotlar (masalan, ochiq havoda yugurish yoki sayr qilish) bolalarda atrof-muhitni asrash va unga g’amxo’rlik qilish kabi axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi.

- Muvozanatli hayot tarzi: Jismoniy faollik, to’g’ri ovqatlanish va yaxshi dam olish o’quvchilarga hayotda muvozanatni saqlashni o’rgatadi.

Adolat va halollikni o’rgatish

Sport musobaqalari va jismoniy tarbiya mashg’ulotlari adolatli raqobat va halollik tamoyillariga asoslanadi. Bu quyidagi yo’llar bilan amalga oshiriladi:

- Qoidalarga rioya qilish: O’yinlarda qoidalarni buzmaslik va adolatli raqobatlashish o’quvchilarda halollik va adolat tuyg’usini shakllantiradi.

- Raqibni hurmat qilish: G’alaba qozonganida mag’rurlanmaslik, yutqazganda raqibni hurmat qilish o’quvchilarga kamtarlik va o’zini tuta bilishni o’rgatadi.

- Hakam qarorlarini qabul qilish: Musobaqalarda hakam qarorlariga rioya qilish bolalarda adolatli munosabat va qonunlarga hurmatni rivojlantiradi.

Emotsional barqarorlikni rivojlantirish

Jismoniy faollik o’quvchilarning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi va ma’naviy-axloqiy tarbiyaga quyidagi yo’llar bilan hissa qo’shadi:

- Stressni boshqarish: Jismoniy mashqlar stressni kamaytiradi va o’quvchilarda ijobiy his-tuyg’ularni oshiradi, bu ularning o’zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

- Ijobiy munosabatlar: Guruhli mashg’ulotlar do’stona muhit yaratadi, bu esa bolalarda mehr-oqibat va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

- O’zini anglash: Jismoniy faollik o’quvchilarga o’z his-tuyg’ularini tushunish va boshqarishni o’rgatadi, bu ma’naviy barqarorlikni oshiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog’liqlik

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi:

- Milliy sport turlari: O’zbekistonda kurash, ot sporti, alpomish o’yinlari kabi milliy sport turlari orqali o’quvchilarda vatanparvarlik, milliy g’urur va o’z madaniyatiga hurmat tuyg’usi shakllanadi.

- Umuminsoniy qadriyatlar: Sport musobaqalari orqali do’stlik, tinchlik, tenglik kabi qadriyatlar o’quvchilarga singdiriladi.

- Kulturlararo muloqot: Xalqaro sport turlari (masalan, futbol, basketbol) orqali o’quvchilar turli xalqlarning madaniyatiga hurmat bilan qarashni o’rganadi.

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari boshlang’ich ta’lim o’quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ko’p qirrali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular bolalarda intizom, mas'uliyat, adolat, hamkorlik, o’ziga ishonch va milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, jismoniy faollik orqali sog’lom turmush tarzi va emotsional barqarorlik targ’ib qilinadi. Ushbu jarayonning samaradorligi o’qituvchining professional yondashuvi, mashg’ulotlarning mazmuni va ta’lim muhitining ijobiy holatiga bog’liq.

Xulosa. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Intizom, halollik, hamkorlik, vatanparvarlik kabi ijobiy fazilatlar aynan ushbu mashg‘ulotlarda amaliy misollar orqali o‘rgatiladi.

Jismoniy tarbiya darslarining rejalariga tarbiyaviy maqsadlar ham kiritilishi lozim.

O‘qituvchilar uchun ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq treninglar tashkil etilishi kerak.

Sport o‘yinlarida milliy qadriyatlar aks ettirilgan topshiriqlar va o‘yinlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Har bir mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar bilan axloqiy bahs-munozaralar o‘tkazilishi foydali bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva M. Bolalar o‘yinlarida o‘zaro munosabatlar. //Boshlang‘ich ta’lim.-Toshkent,2000y
2. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2010.-140 bet
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 2004. -102 b.
5. M.E.Jumaev, M.Yu.Yuldasheva, B.U.Mingbaeva, G.A.Mamatova “Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innavatsiyalar” metodik uslubiy qo‘llanma – T.: 2017y.

TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TEXNIK MUTAXASSISLIK MAGISTRLARINI ILMIY TADQIQOT FAOLIYATIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Abelkosimova Muxarram Hamidovna
Namangan davlat texnika universiteti “Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Texnik mutaxassislik magistrlarini ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligini amalga oshirishda tamoyillar va yondoshuvlarga tizimli, tuzilmali-funksional, kibernetik, ehtimoliy, modellashtirish, faollashtirish va boshqa bir qator tamoyil va yondoshuvlar tegishli holda o‘rgatilishi nazarda tutildi.*

Kalit so‘zlar: *magistrlarini ilmiy tadqiqot faoliyati, pedagogik voqelik, Tadqiqot metodlari , ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligini amalga oshirishda tamoyillar va yondoshuvlar,magistratura.*

Аннотация. *В статье рассматриваются соответствующее обучение принципам и подходам, таким как системный, структурно-функциональный, кибернетический, вероятностный, моделирующий, активизирующий и ряд других, при подготовке магистров технических специальностей к научно-исследовательской деятельности.*

Ключевые слова:*, Научно-исследовательская деятельность магистрантов, педагогическая реальность, методы исследования, принципы и подходы к подготовке к научно-исследовательской деятельности, магистратура.*

Annotation. *The article provides for appropriate instruction in principles and approaches such as systemic, structural-functional, cybernetic, probabilistic, modeling, activating, and a number of others in the process of preparing master’s students in technical specialties for research activities.*

Keywords: *Research activities of master's students, pedagogical reality, research methods, principles and approaches to preparing for scientific research activities, master's degree.*

Kirish. Jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib kelinmoqda. Ta’limni raqamli transformatsiya sharoitda dunyoda texnik yo‘nalishidagi magistrlarni ilmiy faoliyatga tayyorlash iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga bo‘lgan jamiyat talabi tobora ortib bormoqda. Ta’lim – bilim berish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu, ta’lim tizimida magistratura mutaxassisligining ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirish imkoniyatini kengaytirdi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda magistratura nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni, balki umumiy va kasbiy tayyorgarligi darajasi doimiy o‘zgarib turadigan, jamiyat talablariga javob beradigan kelajakdagi olimlarni tayyorlashga qaratilgan ta’lim bosqichi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda magistraturada o‘quv jarayoni sifatini ta’minlash, yuqori kasbiy malaka bilan bir qatorda, ilmiy vazifalarni belgilash, tadqiqotlarni rejalashtirish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, dastlabki ma’lumotlarni tahlil qilish va tadqiqot natijalarini baholash qobiliyatiga ega

bo‘lgan ijodiy mutaxassislarni tayyorlash muammolari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta’limdan keyingi ta’lim sifati va iqtisodiyotimizni turli sohalarini rivojlanishi ko‘p jihatdan texnik mutaxassislik magistrlarini ilmiy tadqiqot faoliyatga tayyorgarligi bilan bog‘liklikdir. Demak, texnik yo‘nalishidagi magistratura bitiruvchilarda ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasi ilm-fan va iqtisodiyotimizni yangi bosqichlarga olib chiqishda muhim omillardan biri sifatida e’tirof etishimiz mumkin. So‘nggi yillarda zamonaviy talablar asosida magistratura tizimini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, jumladan, magistraturaning huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik va moddiy-texnik ta’minoti mustahkamlandi, magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi va boshq. Shular bilan bir qatorda, magistratura faoliyatini ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikalarni takomillashtirish zarurati ko‘zga tashlanmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Shu ma’noda texnik mutaxassislik magistrlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda metodologiya, bilim va faoliyat tizimi masalasiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Asosiy qism. Olingan ilmiy bilim qonun va qonuniyat tartibga keltiriladi. Ammo hamma vaqt tadqiqot qonun va qonuniyatli natija beravermaydi. Ko‘pincha olim ilmiy bilim, nazariya yaratadi, konseptual tajriba ishlab chiqadi. Har bir tadqiqotda maqsad, yangi ma’lumotlar olish, yangilik yaratish shu sohadagi mavzudagi g‘oyalarni tadqiqlash yoki inkor qilish argumentiga qaratiladi. Tizimli yondoshuv ilmiy faraz, taxminlarni asoslash imkoniyatini beradi.

Pedagogik tadqiqotda tizimli yondoshuv quyidagilardan iborat: o‘rganilayotgan pedagogik jarayon, voqelikning barcha tarkibiy qismini aniqlash;

- Har bir qismini o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish va asosiysini aniqlash;
- O‘ziga xos modelni tuzish, tashkiliy yaxlitlik va tarixiylik;

Tizimli yondoshuv murakkab pedagogik muammolarni hal etishda vaqt va kuchni tejash imkoniyatini beradi. Shuning uchun nazariy g‘oyalarni amalda joriy etish tizimida ham tezkorlik talab etiladi, tezkor zamonda tezkorlik bo‘lmasa, ertaga tadqiqot natijasi eskirishi mumkin. Shundan kelib chiqadigan pedagogik tadqiqotning quyidagi tamoyillarini ko‘rsatish mumkin.

1. Pedagogik voqelik va ta’lim-tarbiya jarayonini bir butunlikda yaxlit o‘rganish;

- tadqiqotda qat’iy izchillik;
- o‘rganilayotgan shaxslarning ma’naviy-ruhiy, yot xususiyatlarini, yo‘nalishini aniqlash;
- shaxsiy fazilatlar shakllanishiga tashqi ta’sirlarni ko‘rsatish;
- Pedagogik voqelikni o‘rganish joyini aniqlash;

2. Pedagogik muammolarni o‘rganishda kompleks metodlarni qo‘llash: Avvalo pedagogik tadqiqot metodlarini maqsadli qo‘llash, kuzatish, anketa, test, eksperiment metodlar orqali tadqiqot muammosini tizimli o‘rganish;

- Pedagogik voqelikni har tomonlama o‘rganish maqsad vazifalari;
- Tadqiqotga tashqi ta’sir, kutilgan va tasodifiy ta’sirlarni hisobga olish;
- Har bir pedagogik dalilni voqelikni, misolni, ko‘p martalab har xil metodlar bilan tekshirish, tahlil etish;
- Tadqiqot natijalarini falsafiy mantiqiy, psixologik va pedagogik tahlil qilish.

- Inson hayoti singari pedagogik voqelik murakkab, serqirra bo‘ladi, tipik holatni aniqlash tadqiqotga qo‘yiladigan talabdir.

3. Tadqiqotning obyektivlik tamoyili.Ma’lumki, pedagogikada subyektivlik holati ko‘p uchraydi, chunki har bir bola, shaxs o‘ziga xos mo‘jizaviy takrorlanmas xususiyatga ega biriga ijobiy ta’sir etgan, ikkinchisiga aksiy natija berishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotchidan obyektivlikka erishish uchun yuksak vijdonli, o‘zidagi subyektivlikdan qutilish talabchanligi, o‘zini o‘zi tanqid qilish, obyektiv haqiqatga shubha qoldirmaslik talab etiladi. Albatta:

- har bir dalil, natijani bir necha metodlar bilan tekshirish;
- olingan natijani eksperiment, tajriba asosida qayta tekshirish;
- shaxsning barcha o‘zgarish xususiyatini hisobga olish (kamchiligini ham)
- o‘z tadqiqoti natijalarini o‘zga olimlar natijalari bilan qiyoslash, o‘xshashligi va rivojlanish farqini ko‘rsatish;
- olingan ilmiy natijalarni o‘quvchilar, ota-onalar, o‘rganilayotgan obyektning yaqinlari fikri bilan qiyoslash;
- Tadqiqotchi o‘zidagi subyektiv holatlar: kayfiyat, hissiyot, simpatiya, antipatiya kabilarni o‘zi nazorat qilishi;

4. Tadqiqot va tarbiyaning uyg‘unligi: Yuqorida ta’kidlaganimizdek, insonni o‘rganish murakkab, ayniqsa, yoshlarda tadqiqot olib borish tarbiya qonuniyatlariga mos tarbiyaviy xarakterda bo‘lishi talab etiladi. Tadqiqot metodlari tarbiya metodlari bilan uyg‘un bo‘lishi bolalarni o‘zini o‘zligini bilishga yo‘naltirish, ilhomlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, ayniqsa, suhbat metodi, eksperiment, test metodlari tadqiqot va tarbiya uyg‘unligida natijali bo‘ladi.

5. Shaxsni va jamoani o‘rganish:

Shaxsni o‘rganish uchun jamoani o‘rganish, jamoani o‘rganish uchun esa shaxslarni o‘rganish, o‘rab turgan mahitni o‘rganish pedagogik tadqiqotning o‘ziga xos tamoyilidir. Ma’lumki, shaxs ikki tomonlama ma’naviy holatga ega: jamoadagi hayoti, burchi, faoliyati va o‘zining ichki dunyosi bilan yashaydi.

6. Tadqiqotning tarixiylik tamoyili.

Tadqiqotchi eksperiment o‘tkazishdan oldin fanning tarixi, muammoning o‘rganilganlik darajasini aniqlashi shart. Pedagogik tadqiqotda mavzuni o‘rganilish tarixini chuqur bilishi, muammoli yondoshuv muhimdir. Tadqiqotda qaysi ma’lumotga, qaysi metodologik ta’limotga tayanish izlanish samarasini belgilaydi.

7.Ilmiy jasorat, tashabbuskorlik tamoyili:

Har bir ulkan yangilik, ko‘pgina samarasiz eksperiment, xatolardan xulosa chiqarib, tadqiqotchining yangi metodlar qo‘llashi asosida yaratilgani fanshunoslik tarixidan ma’lum:
-muammoni yechishda yangi istiqbolli metodika yaratish, izlash;

- Yangi metodika eskisidan afzalligi;
- Yangi metodikani asoslash, mashhur olimlar qarashlarini tahlil qilish jasorati;
- Tadqiqotda omadsizlikdan qo‘rqmaslik;
- Eksperiment zararini bilsa, yoshlarga aksiy ta’sir etsa, undan voz kechish;

Eksperementning xavfli holatlarini, va uni yechish yo‘llarini oldindan ko‘ra bilish kabilar.

8.Muammoni chuqur o‘rganish tamoyili: Ilm kenglikka emas, chuqur o‘rganishni taqazo etadi. Fizikada atomning zarralarini o‘rganish bunga misol bo‘ladi. Pedagogik voqelikning ichki botuniy

mohiyati, qonuniyatiga qarab borish insonning murakkab qalbini, jismini, ma’naviy olamini yoritish imkonini beradi.

Zamonaviy metodologik adabiyotlarda metodning bir qancha jihatlari ajratiladi. Mavjud konsepsiyalarga muvofiq har bir metod uchta asosiy jihatga ega: obyektiv – mazmuniy, operatsiyali va prakseologik.

Birinchi jihat metodning shartlanganligini aniqlanganligini nazariya vositasida bilishning predmeti orqali ifodalaydi. Operatsional jihat metod mazmunini nafaqat bilish obyektiga, balki bilish subyektiga, uning kompetentligi va metodni tashkil etuvchi mos nazariyani qoidalar, tamoyillar, uslublar tizimiga o‘tkazish qobiliyati bog‘liqligini qayd etadi. Metodning prakseologik jihatini samaradorlik, ishonchlilik, aniqlik, konstruktivlik va boshqa shu kabi xususiyatlar tashkil etadi.

Ikkinchi jihat nazariya bilan aniqlanadigan har qanday metod ma’lumotlar va dalillar bilan, “harakat usuli”ni belgilab beradi deb hisoblagan. Ilmiy metodning xarakterli belgilariga quyidagilar kiradi: obyektivlik, ifodalanganlik, evristiklik, zaruriylik, aniqlik va boshqalar.

Uchinchi jihat qo‘llanilish sohasi bo‘yicha ham tasniflanadi: falsafiy metodlar; umumilmiy metodlar; xususiy ilmiy metodlar; fanlararo tadqiqot metodlari falsafiy metodlar orasida eng mashhuri dialektik va metofizik metodlar . Har bir falsafiy konsepsiya metodik funksiyaga ega bo‘lib, o‘ziga xos fikriy faoliyat usuli hisoblanadi. Shuning uchun falsafiy metodlar qayd etilgan ikki metod bilan cheklanmaydi. Ular qatoriga, shuningdek, analitik (zamonaviy analitik falsafa uchun xos bo‘lgan), intiutiv, fenomenologik va boshqalarni ham kiritish mumkin.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ilmiy bilishning metodi qanchalik umumiy bo‘lsa, u shunchalik bilishning aniq qadamlari ko‘rsatmasiga nisbatan noaniq, tadqiqot yakuniy natijalarini aniqlashda bir ma’noli bo‘lmasligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Zamonaviy fanda keng taraqqiyot va qo‘llanishga erishgan umumilliy yondashuvlar va tadqiqot metodlarini ko‘rib chiqib, quyidagi shunday xulosaga kelish mumkin: falsafa maxsus fanlarning fundamental nazariy metodologik holatlari orasida oraliq bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi. Ilmiy tushunchalarga ko‘pincha “axborot”, “model”, “tuzilma”, “funksiya”, “tizim”, “element”, “optimallik”, “ehtimollik” va boshqa tushunchalar kiritiladi.

Umumilliy tushunchalarning xarakterli belgilari: *birinchidan*, ularning mazmunidagi alohida xususiyat, bir qator xususiy fanlar va falsafiy kategoriyalar tushunchalarning integrativligi, *ikkinchidan* ularni formallashtirish, matematik nazariyani belgilar mantig‘iy vositalari bilan aniqlashtirish imkoniyati hisoblanadi.

Xulosa. Texnik mutaxassislik magistrlarini ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligini amalga oshirishda tamoyillar va yondoshuvlarga tizimli, tuzilmali-funksional, kibernetik, ehtimoliy, modellashtirish, faollashtirish va boshqa bir qator tamoyil va yondoshuvlar tegishli holda o‘rgatilishi nazarda tutildi. Ilmiy tadqiqotda paydo bo‘ladigan masalalarni yechishning kashfiyotchilik masalalarini yechish nazariyasiga va funksional-bahoviy tahlilga asoslangan ratsional usullaridan foydalanishda, tadqiqotchilik vaziyatini tahlil qilishda ustunlik qiluvchi metodlardan biri, muammoni aniq tuzilmalashtirish imkonini beruvchi tizimli tahlil qilish metodi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan “Magistratura to‘g‘risida nizom”.
2. А.Х. Махмудов, М.Х. Абелкосимова, “Системный подход к реализации цифрового обучения”, “Fan va jamiyatning o‘zaro ta’siri modernizatsiya va innovatsion rivojlanish sari yo‘l” xalqaro onlayn ilmiy-nazariy konferensiyasi. 2020.

3. A.X. Махмудов, M. Абелкосимова “К вопросу формирования готовности магистрантов к научно-исследовательской деятельности” //Современное образование. 2020.-17-б
4. M. Abelkosimova. “To the Question of Forming the Readiness of Masster Students for Scientific Research Activity”. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 2022, -55–б.
5. M.Абелкосимова “Дидактические условия развития научно-исследовательских компетенций магистров в инновационной образовательной системе”. Eurasian journal of academic research, 2022.-528–б.
6. M.X. Abelkosimova, “Texnik mutaxassislik magistratura yo‘nalishi ilmiy tadqiqot ishlarini shakllantirishda xalqaro tajribalardan foydalanishning ahamiyati”. “Professional ta’lim tizimida islohotlar: malaka oshirish ta’lim turida innovatsion g‘oyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent .2020.-43-b.
7. A.X. Maxmudov, M. X. Abelkosimova “Texnik mutaxassislik magistrlarni innovatsion texnologiyalar asosida ilmiy-tadqiqot faoliyatga tayyorlash” Innovatsion va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim, fan va boshqaruv sohalarida qo‘llash istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2020. -423-б

ZAMONAVIY TARBIYA JARAYONLARIDA TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Raxmatova Mexrinoz Majitovna
TPMI doktoranti, PhD
Ikromova Malika Akbarali qizi
TIIU talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarbiyaviy jarayonlarga texnologik yondashuvni tadbiq qilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvni tadbiq qilish imkoniyatlari va shart-sharoitlari yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *o’quvchi-yoshlar, shart-sharoit, imkoniyat, mexanizm, tarbiya jarayoni, texnologiya, pedagogika, texnologik yondashuv.*

Abstract: *This article covers the mechanisms for implementing a technological approach to educational processes. The article also highlights the possibilities and conditions for applying a technological approach to the educational process.*

Keywords: *student youth, conditions, opportunity, mechanism, educational process, technology, pedagogy, technological approach.*

Аннотация: *В данной статье освещены механизмы внедрения технологического подхода в образовательные процессы. Также в статье освещены возможности и условия внедрения технологического подхода в процесс воспитания.*

Ключевые слова: *учащаяся молодежь, условия, возможности, механизм, воспитательный процесс, технология, педагогика, технологический подход*

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida biz tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga bo‘lgan tabiiy va obyektiv harakatni tavsiflovchi quyidagi hodisani kuzatamiz. Gap aniq tarbiyaviy vazifalarni yechishda tobora batafsil va tizimli yondashuvning namoyon bo‘lishi haqida ketmoqda. Bunga pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o‘yin faoliyati, nizolarni hal etish, muloqot, talablar va boshqa texnologiyalarni ishlab chiqish misol bo‘la oladi. Bular bo‘sh joyda

emas, balki allaqachon ma’lum bo‘lgan g‘oyalarni tizimlashtirish orqali yuzaga kelgan. Masalan, N.Y. Shurkova tomonidan yaratilgan talab qo‘yish texnologiyasi aslida V.M. Korotov ishlab chiqqan pedagogik talab qo‘yish metodikasining texnologik darajaga o‘tkazilishidir. Ilgari tanqidga uchragan bu metodika yangi texnologik bosqichga ko‘tarilgach, tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish talablariga javob bera boshladi.

Tarbiya texnologiyalarini har tomonlama puxta o‘ylangan hamkorlik faoliyati modeli deb ta’riflash mumkin. Bu model tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida aniq tarbiyaviy maqsadlarga optimal erishishni ta’minlaydigan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradigan ilmiy asoslangan usullar va metodikalar tizimini o‘z ichiga oladi.

Tarbiya texnologiyalarining samaradorligi ko‘p jihatdan ular amalga oshiriladigan pedagogik sharoitlarga bog‘liq. N.Y. Shurkovaning fikricha, bu shart-sharoitlar yaratilgan pedagogik texnologiya kabi tarbiya texnologiyasining muvaffaqiyatini belgilaydi. Tarbiya texnologiyalarining muvaffaqiyatini belgilovchi pedagogik shart-sharoitlarga, avvalo, o‘qituvchining individual xususiyatlarini kiritish mumkin: bilimdonligi, shaxsining nooddiyligi, madaniyati, qiziqishlari va hokazolar. Tarbiyalanuvchilarga nisbatan pedagogik nazokat va optimizmda, tetik kayfiyatda ifodalangan munosabat katta ahamiyatga ega. O‘qituvchining kasbiy mahorati ham muhim bo‘lib, u tarbiya jarayoni va bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini chuqur bilishi, tashxis usullarini egallashi va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Sinfdagi muhit, zamonaviy jihozlarning mavjudligi kabi moddiy sharoitlarni hal qiluvchi omillar qatoriga kiritish qiyin. Ammo tarbiya texnologiyasining muvaffaqiyatida ular ham muhim rol o‘ynaydi.

Tarbiya texnologiyalarini yaratish va amalga oshirishning mohiyati va xususiyatlarini pedagogik texnologiyalarning muhim belgilari orqali ochib berishga harakat qilamiz.

Tarbiyaviy texnologiyaning xususiyati bolaga bo‘lgan munosabatga bog‘liq. U texnologiya turini belgilaydi: hamkorlik, erkin tarbiya, avtoritar yoki shaxsga yo‘naltirilgan (G.K. Selevko).

Ma’lumki, tashxis qilinadigan maqsadni belgilash pedagogik texnologiyani yaratishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tarbiya texnologiyalarini yaratishda kutilayotgan aniq yakuniy natijalar ravshan ifodalangan maqsad qo‘yiladi.

Tarbiya maqsadini belgilash har doim pedagogikaning eng bahs-munozarali va murakkab muammolaridan biri bo‘lib kelgan. A.S. Makarenko to‘g‘ri ta’kidlaganidek, pedagogika, ayniqsa tarbiya nazariyasi, avvalo maqsadga yo‘naltirilgan fandir. Tarbiya texnologiyalarini yaratishda maqsadli ko‘rsatmalar aniq, shaxsga yo‘naltirilgan va tarbiya jarayoni qonuniyatlarini maksimal darajada aks ettirgan taqdirdagina kutilgan natija shaklini oladi. Shunday ekan, yuqori sinf o‘quvchilari uchun tarbiya texnologiyalarini yaratishda ushbu yoshning psixologik xususiyatlari hisobga olinsa, tarbiya maqsadlari kutilgan natijani ifodalaydi. O‘rta maktabning yuqori sinflarida o‘quvchilar kelajakdagi kasbiy faoliyatini tanlaydilar. Shu sababli, ularning turmush tarzi, o‘qishi, dam olishi va ayrim shaxsiy xususiyatlari hamda fazilatlarining rivojlanishi kelajakdagi kasbga tayyorgarlikka bo‘ysundiriladi.

Tarbiya texnologiyalarini yaratish jarayonida aniqlanadigan maqsadlarni belgilashda o‘qituvchi bir qator muhim savollarga javob berishi lozim:

O‘quvchiga qanday qadriyatlar va shaxsiy ma’nolarni yetkazish kerak?

Ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayonida qanday aniq ko‘nikmalar, malakalar

yoki shaxsiy fazilatlar shakllantiriladi?

Muayyan sifatning qay darajada shakllanganligi qanday usulda o‘rganilishi mumkin?

Tarbiyalanuvchining qanday xatti-harakatlari va munosabatlarida (o‘ziga, boshqalarga, mehnatga va tabiatga) shakllantirilayotgan shaxsiy sifatlar namoyon bo‘ladi?

Bu muhim qadamni to‘g‘ri amalga oshirishda pedagogga pedagogika nazariyasi, tarbiya jarayoni metodikasi va psixologiyani bilish yordam beradi. Pedagog-texnolog uchun psixologik tashxis sohasidagi bilim va ko‘nikmalar, ya’ni uning diagnostik madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Maqsad aniqlanib, ifodalangach, shaxsning tegishli sifati darajasi dastlabki baholanadi (masalan, intizomlilik, saranjom-sarishtalik) yoki sifatlar va ko‘nikmalarning butun majmuasi (masalan, odamlar bilan munosabat o‘rnatish qobiliyati, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish layoqati) o‘rganiladi.

2. Tashxis ma’lumotlari asosida tarbiya mazmuni, shakllari, metodlari va usullari tanlanadi hamda amaliy texnologik zanjir yaratiladi. Bu murakkab jarayonda o‘qituvchining tajribasi va kasbiy mahorati, pedagogik sezgisi, bolalar psixologiyasini bilishi o‘z aksini topadi.

Tarbiya texnologiyasining mazmuniy tarkibi uning muvaffaqiyati uchun aniqlanadigan maqsad kabi muhimdir va u texnologiyaning axborot beruvchi yoki rivojlantiruvchi, an’anaviy yoki shaxsga yo‘naltirilgan, samarali yoki samarasiz bo‘lishini belgilaydi. Asosan, tarbiya texnologiyasining samaradorligi faoliyat maqsadlari va mazmuni o‘rtasidagi konseptual aloqadorlikka bog‘liq.

Pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyati texnologik zanjirni qayta tiklash va texnologiyani amalga oshirishning har qanday bosqichida zarur tuzatishlar kiritish imkoniyatidir. Tarbiya texnologiyasi uchun bu jarayon biroz boshqacharoq ko‘rinishda maqbulroq. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich takrorlashni amalga oshirilgan tarbiya texnologiyasini muhokama qilish jarayonida yoki pedagogning o‘zini-o‘zi tahlil qilish va mulohaza yuritish jarayonida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bunday imkoniyatni N.Y. Shurkova yaratgan tarbiya texnologiyasi misolida ko‘rsatib o‘tamiz. Yaratuvchining fikricha, talab qo‘yish texnologiyasi tarbiyalanuvchini o‘zi uchun zarur bo‘lgan rivojlantiruvchi faoliyatga jalb etishni ta’minlaydi, tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zaro hurmat, ongli intizom darajasida shakllantiradi. Pedagogning talablarini bajarish tabiiy va oson kechadi, go‘yo o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lgandek; bunga talablarning qo‘yilish usuli ham yordam beradi. Pedagog tomonidan shaxsan o‘zidan emas, balki madaniyat tomonidan ishlab chiqilgan umuminsoniy yoki ijtimoiy me’yorlar sifatida taqdim etiladi.

Texnologiya tarkibidagi qoidalar tarbiyalanuvchiga nisbatan hurmatni ro‘yobga chiqarish vositasi hisoblanadi, biroq bunda hurmat talablar texnologiyasining samaradorligini ta’minlovchi shart-sharoitlarni belgilovchi maxsus shakllarda ham namoyon bo‘ladi. Bu nuqtai nazar A.S. Makarenkoning qarashlariga mos keladi: insonga nisbatan talabchanlik qanchalik yuqori bo‘lsa, unga nisbatan hurmat ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash joizki, bu yerda texnologik zanjir ketma-ket amalga oshirilmaydi - ehtimol, bu ko‘pchilik tarbiya texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatidir. Faqat birinchi qoida bu tasavvurga mos keladi. Pedagog har qanday talabni mantiqiy yakuniga yetkazishga intiladi va bu talab oqilona, aniq hamda o‘quv jarayoni mantiqidan tabiiy ravishda kelib

chiqishi lozim. Qolgan barcha qoidalar bir vaqtning o‘zida va doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Tarbiya texnologiyasini qayta tiklash va tuzatish shaxsning xatti-harakatlari va fazilatlarini tahlil qilishdan iborat. Batafsil tahlil jarayonida pedagogik faoliyatda quyidagi jadvalning barcha tarkibiy qismlari mavjudligi aniqlanadi. Agar texnologiya ishlamasa yoki kam samara bersa, unda tahlil qaysi tarkibiy qism ishlatilmaganligini yoki yetarli darajada amalga oshirilmaganligini ko‘rsatadi.

Pedagogik texnologiyani amalga oshirish shartlari

Odob-axloq qoidalari	**Ijobiy kayfiyat**	**Pedagogik nazokat**	**Tayanch ijobiy jihatlar**	**Qiziqarli bilim beruvchi**
Nazarda tutuvchi qoidalar bolalarni hurmat qilish tamoyilini amalga oshirish			Qoidalarda bolalarga hurmat tamoyilini ro‘yobga chiqarish	
1. Pedagogik talab mantiqiy yakuniga yetkazilishi shart. 2. Pedagogik talab ijobiy xususiyatga ega bo‘lishi lozim. 3. Pedagogik talab yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi bo‘lishi kerak. 4. Pedagogik talab bolalarning rivojlanish bosqichiga mos ravishda tushuntirilishi zarur.			Har bir bolaning rivojlanishiga e’tibor qaratish. Bolalarning uzluksiz rivojlanishini ta’minlash. Bolalarning tajribasizligi va yosh xususiyatlarini inobatga olish. Bola shaxsiyatini hurmat qilish.	

Shuni ta’kidlash joizki, qoidalarni har qanday pedagog qo‘llashi mumkin, ammo bolalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishning barcha talablariga rioya qilish murakkabroq, chunki bunda pedagogning ichki dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. N.Y. Shurkovaga qo‘shilgan holda, ushbu texnologiya to‘g‘ri qo‘llanilganda va pedagogda tegishli shaxsiy fazilatlar mavjud bo‘lganda g‘oyat samarali ekanligini ta’kidlaymiz.

Shuningdek, tarbiya texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari pedagogik jarayonni tezkor nazorat qilish va o‘z vaqtida tuzatish bilan bog‘liqligini ham alohida qayd etamiz.

Tarbiyaviy ta’sirning murakkabligi va ko‘p qirraliligi, tarbiyalanuvchi shaxsiga turlicha ta’sir etuvchi omillarning xilma-xilligi ta’lim texnologiyasidagi kabi to‘liq nazorat va uning asosida teskari aloqani amalga oshirishga imkon bermaydi. Tarbiyada hatto eng samarali texnologiyalardan foydalanganda ham kutilgan natijaga erishish qiyin, “so‘zimiz qanday aks-sado berishi”ni oldindan aytish mushkul. Tarbiyaviy texnologiya yordamida ko‘rsatilgan ta’sir natijalari boshqa ta’sirlar orasida yo‘qolib ketishi mumkin, chunki shaxs pedagogik jarayondan tashqarida ham rivojlanadi va shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Щуркова, Н.Е. Практикум по педагогической технологии Текст. / Н.Е. Щуркова. М.: Педагогическое общество России, 1998. - 250 с.
2. Селевко, Г.К. Традиционная педагогическая технология и ее гуманистическая модернизация Текст. / Г.К. Селевко. М.: НИИ школьных 200 технологий, 2005. 144 с.

3. Селевко, Г.К. Социально-воспитательные технологии Текст. / Г.К. Селевко. М.: НИИ школьных технологий, 2005. - 176 с.
4. Селевко, Г.К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования УВП Текст. / Г.К. Селевко. М.: НИИ школьных технологий, 2005. - 288 с.

MAKTABGACHA TA'LIMDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMGA O'TISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR

Sayliyeva Mashkura Muxtorkuli qizi
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya:*"Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonidagi muammolar" maqolasi, o'quvchilarning maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga muvaffaqiyatli va samarali o'tishini ta'minlashdagi asosiy muammolarni tahlil etadi. Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi pedagogik, psixologik va ijtimoiy farqlarni o'rganib, ushbu ikki bosqich o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashning zarurligi ko'rsatilgan.*

Maqolada, o'quvchilarning maktabgacha ta'limdagi tajribalari va boshlang'ich ta'limdagi yangi talablar o'rtasidagi o'zgarishlarga qanday moslashishlari kerakligi muhokama qilinadi. Shuningdek, bu jarayonda o'qituvchilarning roli, ota-onalarning ishtiroki, va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligining ahamiyati yoritiladi. Ta'limdagi uzviylikni ta'minlash uchun pedagogik yondashuvlar, o'quv rejalaridagi o'zgarishlar va o'quvchi psixologiyasiga mos keluvchi metodlarni qo'llash zarurligi haqida fikrlar keltiriladi.

Maqolada, o'quvchilarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonidagi pedagogik muammolarni bartaraf etishning samarali usullari taklif etiladi. Bu borada, ta'lim tizimining umumiy samaradorligini oshirish va o'quvchilarning boshlang'ich ta'limga tayyorgarligini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar:*maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi rivojlanishi, uzviylik, pedagogik yondashuv, ta'lim tizimi,o'qituvchilar, ota-onalar ishtiroki, psixologik moslashuv,ta'limda innovatsiyalar,o'qituvchilar tayyorgarligi,kognitiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, o'quv rejasi,ijtimoiy rivojlanish,o'qish metodlari,o'quvchilarning o'zgarishlarga moslashuvi,maktabgacha ta'limning ahamiyati,pedagogik samaradorlik,ta'lim jarayonining samaradorligi*

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim tizimlari orasidagi o'zgarishlar, o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir etadigan juda muhim bir jarayonni tashkil etadi. Bu o'tish jarayoni ko'pincha bir qator pedagogik, psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarning tayyorligini oshirish bo'lsa, boshlang'ich ta'limda esa, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va kognitiv rivojlanishni ta'minlash zarurati paydo bo'ladi. Ushbu maqolada, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonidagi muammolarni tahlil qilish va bu jarayonni yaxshilash yo'llari ko'rib chiqiladi.Maqolada, o'quvchilarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonidagi pedagogik muammolarni bartaraf etishning samarali usullari taklif etiladi. Bu borada, ta'lim tizimining umumiy samaradorligini oshirish va o'quvchilarning boshlang'ich ta'limga tayyorgarligini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi farqlar.Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rib chiqishda, avvalo, pedagogik yondashuvlarning o'zgarishi muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'limda bolalar o'zining individual ehtiyojlariga mos ravishda o'yin orqali o'rganishadi, bu esa ularning kreativlik, emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'limda esa o'quvchilar aniq maqsadlar va nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak, bu esa ularning kognitiv va analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'limda bolalar yanada erkin va o'ziga xos tarzda o'ynashlari mumkin, ammo boshlang'ich ta'limda ular ko'proq tartib va tizimga rioya qilishlari talab etiladi. Bu o'tish jarayonida bolalar ko'pincha yangi qoidalar va talablarga moslashishdagi qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Ular, masalan, maktabda o'quv materiallari bilan ishlashga, aniq belgilangan jadvalga amal qilishga va o'qituvchilar tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishga odatlanishlari kerak.

Psixologik va emotsional muammolar.Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonidagi psixologik va emotsional o'zgarishlar ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar uchun yangi muhit, yangi odamlar (o'qituvchilar va sinfdoshlar), yangi faoliyatlar va talablar stress va xavotirni keltirib chiqarishi mumkin. O'qishning boshlanishi bolalarda o'ziga xos emotsional reaksiya va turli darajadagi bezovtalikni yuzaga keltiradi. Bu jarayonni psixologik nuqtai nazardan yondoshish muhimdir, chunki bolalarning ijtimoiy moslashuvi, xulq-atvoridagi o'zgarishlar va o'zini tutishdagi qiyinchiliklar ko'pincha o'zgarishga qiyin moslashadigan bolalarda aniq ko'rinadi.

Boshlang'ich ta'limda yangi o'qituvchining pedagogik uslubi va sinfdoshlar bilan muloqot qilishga o'rgatish jarayonlari ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ba'zi bolalar yangi o'qish muhitiga ko'proq moslashish uchun ko'proq vaqt va yordamga muhtoj bo'lishadi, bu esa o'quvchilarning emotsional barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik muammolar. Pedagogik nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasida uzviylikni ta'minlash juda muhimdir. Bu borada o'qituvchilar va maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik zarur. Maktabgacha ta'limda bolalarning erkin o'ynashiga asoslangan faoliyatlar orqali amalga oshiriladigan ta'lim metodlari, boshlang'ich ta'limda esa ko'proq strukturalangan va akademik yondashuvlar bilan to'ldirilgan. Bu farqlar o'quvchilarning bilim olish tarziga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va ta'limga bo'lgan motivatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.

Shuningdek, boshlang'ich ta'limda ko'proq individual yondashuvlar, o'quvchilarning ijtimoiy, psixologik va kognitiv ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan o'qitish metodlari, o'quvchilarning yanada samarali rivojlanishiga imkon yaratadi. O'qituvchining o'quvchilarga individual yondashuvi, ularning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish va ta'lim jarayonida o'zaro muloqotning mustahkamlanishi muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonini yaxshilash yo'llari.O'quvchilarning maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash uchun bir nechta usullarni ko'rib chiqish mumkin. Avvalo, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim tizimlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash kerak. Bu o'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasida doimiy aloqa va hamkorlikni ta'minlashni, shuningdek, o'qish jarayonini silliq va ta'sirli qilishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning emotsional va psixologik moslashuvi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasida o'quvchilarni tayyorlash uchun o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikda treninglar va seminarlar tashkil etish mumkin. Bu bolalarning yangi muhitga moslashish jarayonini yengillashtiradi va ularning ijtimoiy-ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, ta'limdagi innovatsion metodlarni qo'llash, masalan, o'yin orqali o'rgatish, ko'proq interaktiv darslarni tashkil etish va o'qituvchilarni yangi pedagogik yondashuvlarga tayyorlash, bolalarning boshlang'ich ta'limga o'tishini osonlashtirishi mumkin.

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayoni ko'plab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin, ammo samarali pedagogik va psixologik yondashuvlar, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, hamkorlik va uzviylikni ta'minlash orqali bu jarayonni yaxshilash mumkin. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimlarining o'rtasidagi uzviylik, o'quvchilarning ijtimoiy, emotsional va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik, pedagogik metodlarning innovatsiyalari va ta'lim muassasalarining hamjihatligi bolalarning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlash uchun asosiy omil bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmadov, R. T. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va boshlang'ich ta'lim. Toshkent: O'qituvchi.
2. Karimova, D. B. (2019). Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limdagi uzviylik. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Siddiqova, S. S. (2021). Pedagogika va psixologiya: O'qituvchilarga qo'llanma. Toshkent: TDTU nashriyoti.
4. Zukov, A. B. (2018). Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limga o'tishdagi muammolar. Moskva: Pedagogika.
5. Shodiyev, I. A. (2022). Ta'limda metodologik yondashuvlar: Teoriya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Turg'unov, N. B. (2020). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga psixologik yordam. Toshkent: Akademnashr.
7. Bukharaeva, G. K. (2017). O'qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
8. Mirzaeva, D. R. (2021). Boshlang'ich ta'limda pedagogik va psixologik nuqtai nazar. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim.
9. Pirov, A. S. (2019). Maktabgacha ta'limda emotsional rivojlanish. Tashkent: Sanoat nashriyoti.
10. Jumaniyozov, S. A. (2018). O'qish metodikasi va yosh pedagoglar uchun qo'llanma. Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti.

ONA TILI TA’LIMIDA NUTQIY FAOLIYATNI YAXLIT SHAKLLANTIRISH ORQALI O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL VA FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Arabboyeva Maxfuzaxon Akramjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili ta’limida nutqiy faoliyatni yaxlit shakllantirish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Nutqiy faoliyat komponentlari asosida o‘quvchilarda muloqot madaniyati, emotsional barqarorlik, huquqiy ong va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar taklif etilgan.*

Аннотация: *В статье рассматриваются методические подходы к развитию социально-эмоциональных и гражданских компетенций учащихся через целостное*

формирование речевой деятельности на уроках родного языка. Автор предлагает практические методы формирования правового сознания, культуры общения и гражданской ответственности у школьников.

Annotation: *This article analyzes the development of students’ social-emotional and civic competencies through the integrated formation of speech activity in native language education. The author proposes methodical strategies aimed at fostering communication culture, emotional resilience, legal awareness, and civic engagement among learners.*

Kalit so‘zlar: *Ona tili, nutqiy faoliyat, ijtimoiy-emotsional kompetensiya, fuqarolik kompetensiyasi, muloqot madaniyati, huquqiy ong, integratsiyalashgan yondashuv, interfaol metodlar, fikr erkinligi, fuqarolik tarbiyasi.*

Ключевые слова: *Родной язык, речевая деятельность, социально-эмоциональные компетенции, гражданская компетентность, культура общения, правовое сознание, интегрированный подход, интерактивные методы, свобода слова, гражданское воспитание.*

Keywords: *Native language, speech activity, social-emotional competence, civic competence, communication culture, legal awareness, integrated approach, interactive methods, freedom of speech, civic education*

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va erkin axborot almashinuvi zamonida shaxsga qo‘yilayotgan talablar keskin o‘zgarib bormoqda. Bu esa ta’lim tizimidan nafaqat bilim, balki **kompetensiyalarga asoslangan yondashuv**ni talab qiladi. Jumladan, o‘quvchilarning **ijtimoiy-emotsional barqarorligi**, **muloqot madaniyati**, **fuqarolik ongini** shakllantirish, ularni faol jamiyat a’zosi sifatida tarbiyalash zamonaviy ta’limning asosiy vazifasidir.

Ona tili fani — bu tilning o‘zi bilan bir qatorda, o‘quvchining **nutqiy, axloqiy, huquqiy, madaniy va emotsional** jihatdan rivojlanishiga xizmat qiluvchi vositadir. Ayniqsa, ona tili ta’limida nutqiy faoliyatni yaxlit va integratsiyalashgan holda shakllantirish orqali ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini samarali rivojlantirish mumkin.

Nutqiy faoliyat — bu shaxsning og‘zaki va yozma shaklda o‘z fikrini ifoda etishi, boshqalarni tushunishi, muloqotga kirishish, ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi kabi ko‘nikmalarning yig‘indisidir. U quyidagi komponentlardan iborat:

- **Tinglash va tushunish**;
- **Gapirish**;
- **O‘qish va tahlil qilish**;
- **Yozish va fikrni bayon etish**.

Bu komponentlarning har biri o‘z ichida emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham qamrab oladi. Misol uchun, o‘quvchining tinglay olish qobiliyati — boshqalarni hurmat qilish va empatiya asosidir. Fikrini to‘g‘ri ifoda etishi — fuqarolik pozitsiyasi va madaniy muloqot mezonlariga mos keladi.

Nutqiy faoliyatni rivojlantirish orqali o‘quvchilar:

- o‘z fikrini aniq va asosli ifoda etishga o‘rganadi;
- muloqotda tolerantlikni saqlaydi;
- jamiyatdagi turli qarashlarga hurmat bilan qaraydi;
- emotsional barqarorlikni namoyon eta oladi;
- ijtimoiy va fuqarolik masalalarga nisbatan ongli munosabat bildiradi.

Ona tili ta’limida nutqiy faoliyatni yaxlit shakllantirish quyidagi yondashuvlarga tayanadi:

1. Integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv

Bu yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish nafaqat lingvistik bilim, balki madaniy, ijtimoiy, emotsional va fuqarolik mazmuni bilan boyitiladi. Masalan, “Fikrni asoslash” mavzusida o‘quvchilar huquqiy mavzular bo‘yicha (masalan, "So‘z erkinligi", "Huquqlar va burchlar") og‘zaki nutq shakllantiradi.

2. Dialogik va munozarali usullar

Bahslar, erkin fikr almashinuvi, savol-javob shaklidagi topshiriqlar orqali o‘quvchilar nutqiy faoliyatga jalb qilinadi. Bu jarayonda ular:

- O‘z pozitsiyasini asoslaydi;
- Qarama-qarshi fikrlarni eshitishga o‘rganadi;
- Jamoaviy fikrlashga kirishadi.

Misol uchun: “Konstitutsiya nima uchun muhim?”, “Mas’uliyatli fuqaro qanday bo‘lishi kerak?” kabi savollar asosida dars tashkil etiladi.

3. Yozma nutqni fuqarolik kontekstida rivojlantirish

O‘quvchilarga erkin mavzularda (masalan, “Mening huquqlarim”, “Maktabdagi tenglik”, “Men — jamiyat a’zosiman”) insho, esse yozish topshiriqlari beriladi. Bu jarayon ularning fuqarolik tafakkurini shakllantiradi.

4. Ssenariy va dramatik mashqlar

Nutqiy faoliyatni ijtimoiy-emotsional jihatdan boyitish uchun rolli o‘yinlar, ssenariy asosida chiqishlar samarali vositadir. O‘quvchilar huquqiy vaziyatni dramatizatsiya qilish orqali hissiy ong, empatiya va muloqot madaniyatini o‘zlashtiradi.

Quyidagi metodik vositalar ona tili ta’limida ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini nutqiy faoliyat orqali rivojlantirishda eng samarali hisoblanadi:

Metod/Topshiriq turi	**Ko‘nikmalar**
Muammo asosidagi savollar	Tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat, javobgarlik
Dialogik mashqlar	Empatiya, tinglash madaniyati, muloqot etikasi
Fuqarolik mavzusidagi insholar	Fikr ifodasi, huquqiy tafakkur, fuqarolik ong
Rolli o‘yinlar	Emotsional anglash, empatiya, dramatik ifoda
Konstitutsiyadan foydalanish	Fuqarolik bilimi, huquqiy ong, qonunga hurmat
Munoza va debatlar	Mustaqil va erlin fikrlash. Omma oldida nutq so‘zlash.

Bu metodlar orqali o‘quvchining nafaqat nutqiy faoliyat turlari, balki dunyoqarashi, jamiyatga munosabati, shaxsiy javobgarligi va fikr madaniyati rivojlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Xulosa qilib aytganda, ona tili ta’limida nutqiy faoliyatni yaxlit shakllantirish — bu nafaqat lingvistik mahoratni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional barqarorligi va fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim metodik yo‘nalishdir. XXI asrda yosh avlodni faqat bilimli emas, balki o‘z fikrini ochiq bayon eta oladigan, jamiyatda faol ishtirok etadigan, boshqalarning nuqtai nazariga hurmat bilan qaraydigan, emotsiyalarni boshqara oladigan va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxs sifatida tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat komponentlarini — tinglash, gapirish, o‘qish va yozishni integratsiyalashgan, maqsadli va fuqarolik mazmuni bilan boyitilgan yondashuv asosida rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy fikrini mustaqil ifoda etishga, ijtimoiy masalalarga ongli munosabat bildirishga, shuningdek, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qodir bo‘lib boradi. Bu esa ta’lim tizimining ijtimoiy va tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda ona tili fanining o‘rni va imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020-yildagi PF-6108-son farmoni.
2. “2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 11.05.2022. PF-133-son farmoni.
3. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psoxologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2013, 60-bet.
4. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2021, 10-bet
5. Arabboyeva M.A. Ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijtimoiy- emotsional-fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. Zamonaviy ta’lim / современное образование. 2022, 12-son. 43-47-betlar.
6. Arabboyeva M.A. Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi – 2023 -yil, 7-son.
7. Arabboyeva M.A. O‘quvchilarda ijtimoiy-emotsionalfuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim / современное образование. 2024.№5(138), 47-52-betlar.
8. Arabboyeva M.A. Ona tili darslarida ijtimoiy emotsional – fuqarolik kompetentsiyalarini shakllantirishga qo‘yiladigan didaktik talablar. Andijon davlat chet tillari instituti hamda ―UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnali hamkorligida “Globallashuv jarayonida fan va ta’lim muammolari va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024-yil 5-iyun, 224-227.
9. Arabboyeva M.A. Pedagogical-psychological and methodological features of developing social-emotional-civic competence in mother language lessons. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 2025. (T. 5, Выпуск 3, cc. 71–78). Zenodo.

TA’LIM JARAYONLARIDA VR TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Zaripova Dilnoza Anvarovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti
G‘aniyeva Shaxrizod Nurmaxamadovna
katta o‘qituvchi, Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ta’lim jarayonlarida virtual reallik (VR) texnologiyalarini qo‘llashning ijtimoiy-psixologik muammolari tahlil qilinadi. VR texnologiyalarining ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari bilan bir qatorda, ularning talabalar va o‘qituvchilarning ijtimoiy munosabatlari va psixologik holatiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotda VR texnologiyalaridan kelib*

chiqadigan ortiqcha qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya va kommunikatsiya muammolari kabi salbiy holatlar ko‘rsatildi. Maqola VR texnologiyalarining ijtimoiy-psixologik muammolarini kamaytirish uchun tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

